

Komiljon HASHIMOV,
Sanobar NISHONOVA

PEDAGOGIKA TARIXI

II qism

Darslik

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-uslubiy va
o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi
kengash tomonidan darslik sifatida chop etishga
tavsiya qilingan

Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti
Toshkent — 2005

Taqrizchilar:

Oynisa MUSURMONOVA, pedagogika fanlari doktori, professor.

Norboy ORTIQOV, pedagogika fanlari doktori, professor.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng asosiy e'tibor qadriyatlarga, an'analarga qaratilib, ta'lim-tarbiya masalasiga alohida e'tibor berila boshlandi. Bu o'zbek pedagogika tarixining yangi-yangi sahifalarining ochilishiga sabab bo'ldi.

Mazkur "Pedagogika tarixi" kitobi mustaqillik g'oyasi mafkurasi, ma'naviyati va tarbiyasi talablaridan kelib chiqib yozilgan ilk darslik bo'lib pedagogika tarixi kursini o'rganuvchi studentlar, soha mutaxassislariga mo'ljallangan.

Hashimov Komiljon.

H 71

Pedagogika tarixi: Darslik. Q2/K.Hashimov, S.Nishonova.

— T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti. 2005.— 304 b.

I.Muallifdosh.

ББК 74.03 (5y)я7

© Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston
Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005-yil

MUNDARIJA

KIRISH	6
I BOB. ENG QADIMGI DAVRLARDAN MELODNING VII ASRIGACHA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKR	11
Qadimgi xalq og'zaki ijodiyotida tarbiyaga oid fikrlar.....	11
«Ovisto» – eng qadimgi yozma ma'rifiy yodgorlik	20
Qadimgi turkiy xalqlar yodgorliklarida tarbiyaga doir fikrlar.....	31
II BOB. VII– XIV ASRLARDA MAKTAB, TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTI	36
Islom dini g'oyalarining ta'lim-tarbiyaga ta'siri.	
Musulmon maktablarida ta'lim-tarbiya	36
Hadis ilmining paydo bo'lishi. Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziyning hadis ilmi rivojidadagi xizmatlari.	50
Imom Ismoil al-Buxoriy.....	52
Muhammad ibn Iso at-Termiziy.....	54
Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati.....	55
So'fiylik ta'limoti.	62
Ahmad Yassaviy.....	65
Xoja Abduxoliq G'ijduvoniylar.....	67
Bahovuddin Naqshband.....	69
III BOB. SHARQ UYG'ONISH DAVRI VA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI	74
Sharq Uyg'onish davrida ilm-fan va madaniyat.....	74
Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari.....	77
Abu Nasr Forobiy.....	80
Abu Rayxon Beruniy.....	84
Abu Ali ibn Sino.....	90
IV BOB. SHARQ PEDAGOGIK TA'LIMOTIDA TA'LIMIY-AXLOQIY QARASHLAR	97
Ta'limiy-axloqiy qarashlarning paydo bo'lishi.....	97

Yusuf Xos Hojib.....	98
Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asarida yetuk insonni kamolotga yetkazish masalalari.....	101
Kaykovus: «Qobusnoma»	106
Ahmad Yugnakiy: «Hibat ul-haqoyiq».....	113
Muslihiddin Sa'diy: «Guliston».	120

V BOB. XIV — XVI ASRLARDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKR.....133

Sohibqiron Amir Temur.....	136
Muhammad Taragʻay Ulugʻbek.....	139
Zahiriddin Muhammad Bobur.....	147
Abdurahmon Jomiy.....	150
Alisher Navoiy.....	158
Husayin Voiz Koshifiy.....	168

VI BOB. XVII-XVIII ASRLAR VA XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKR.....173

Buxoro, Xiva, Qoʻqon xonliklarida taʼlim-tarbiya, maktab, fan va madaniyat.	173
Jahon Otin Uvaysiy.....	175

VII BOB. XIX ASR IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON OʻLKASIDA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKR.....179

Turkiston oʻlkasida diniy-islomiy tarbiya muassasalari va pedagogik fikr taraqqiyoti.....	180
Turkistonda chorizm maktab siyosatining boshlanishi.	
Rus-tuzem maktablari va matbuot.....	183
Rossiya xalqlari uchun hukumat maktablari.....	185
Turkistonda dastlab ochilgan rus maktablari.....	186
Turkistonda jadidchilik harakati va taʼlim-tarbiya.	190
Mahmudxoʻja Behbudiy.....	195
Munavvar qori Abdurashidxon oʻgʻli.....	200
Isʼhoqxon Ibrat.....	202
Saidahmad Siddiqiy.....	208
Abduqodir Shakuriy.....	210
Abdulla Avloniy.....	213
Abdurauf Fitrat.....	223

Abdurauf Fitratning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari.....	226
Abdurauf Fitratning axloqiy qarashlarining o'ziga xosligi.....	230
Hamza Hakimzoda Niyoziy.....	232

VIII BOB. 1917–1990-YILLARI TA'LIM-TARBIYA, MAORIF VA PEDAGOGIK FIKR..... 236

O'zbekistonda 1917–1924-yillarda maktab va maorif.....	236
Turkistonda milliy davlat chegaralanishi o'tkazilganidan so'ng xalq ta'limi va pedagogik fikr (1924 –1941)	238
Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda xalq maorifi va pedagogika.....	240
Siddiq Rajabov.....	244
XX asrning 70 – 80-yillarida O'zbekistonda xalq ta'limi.....	247

IX BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA TA'LIM VA PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTI..... 250

Mustaqillik va ta'lim tizimida islohotlar.....	250
O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi.....	252

X BOB. JAHON PEDAGOGIKA FANI VA RIVOJLANISH TARIXI..... 255

Qadimgi Yunoniston va Rim davrlarida ta'lim-tarbiya.....	255
Qadimgi Yunonistonda pedagogik nazariyalarning tug'ilishi.....	258
G'arbiy Yevropada maktab, maorif hamda pedagogik fikrlar taraqqiyoti.....	263
Yan Amos Komenskiy.....	269
Johann Genrix Pestalotsi.....	275
Konstantin Dmitrievich Ushinskiy.....	281

XI BOB. RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLARDA TA'LIM TIZIMI..... 287

Amerika qo'shma shtatlarida ta'lim tizimi.....	287
Yaponiyada ta'lim tizimi.....	289
Janubiy Koreyada ta'lim tizimi.....	290
Frantsiyada ta'lim tizimi.....	292
Germaniyada ta'lim tizimi.....	294
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	298

KIRISH

Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular pedagogika sohasidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'rganishni talab etadi.

Pedagogika tarixi qadim zamonlardan hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyasining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o'rganib keladi. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir.

Binobarin, mustaqillik tufayli ko'hna Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadriyatlarining qayta tiklanishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlar vujudga keldi.

Axloqan pok va etuk insonlarni tarbiyalash masalasini muvaffaqiyatli hal etishda xalqimizning ma'naviy boyliklari, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ilmiy merosi va tarixiy-tarbiyaviy tajribalarini o'rganib chiqish, ularning yutuqlarini ta'lim-tarbiya ishlariga tadbiq etishning ahamiyati kattadir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti A.I.Karimovning quyidagi so'zlari alohida e'tiborga loyiqdir:

«Naslu nasabini bilmagan kishi inson sanalmaydi. Necha yillar bizni tariximizdan, dinimizdan, ma'naviy merosimizdan g'ofil etishga urindilar. Ammo biz hurriyatni orzu etishdan, hurriyat uchun kurashishdan charchamadik. Maslagimizni naslu nasabimizni doimo yodda saqladik.

Ulug' bobokalonlarimiz ruhiga, bashariyat tarixi va madaniyati xazinasi-ga katta hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizga, ular qoldirgan ulkan merosga munosib bo'lish istagi jamiyatimiz a'zolari orasida keng yoyilishi, har bir fuqaroning ongidan mustahkam joy olishi – bu ham yangi zamonning muhim xususiyatidir»¹.

¹ I.A.Karimov. "Ijobiy ishlarimizni oxiriga yetkazaylik". –T.: 1994-yil, 8–9-betlar.

O'zbek xalqi tarixan ta'lim tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yaratgan. Hatto hozirgi o'zbek xalqi yashab turgan zaminda zardushtiylik dini keng yoyilgan davrlarda ham nekbin pedagogik qarashlar hukm surgan.

Biroq islomgacha bo'lgan davr tarbiyashunosligi, fan va madaniyati tarixini yoritish imkoni chegaralangan. Chunki, dastlab Iskandar boshchiligidagi yunon-makedon qo'shinlari, so'ngra arab istilochilari olib borgan talonchiliklar va vayronagarchiliklar tufayli o'sha davrga tegishli ko'pgina asarlar yo'q qilingan. Lekin islom va islomdan keyingi mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta'lim-tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarini, xalq pedagogikasini ilmiy tahlil qilish va hayotga tatbiq etish bugungi kunning muhim va dolzarb muammosidir.

Istiqlolgacha biz tarbiya ishlarimizga Ovrupo pedagogikasini asos qilib oldik va o'rgandik. Endi Sharq pedagogikasini o'rganishga e'tiborni qaratmoq lozim. Chunki ilmu fan avval Sharqda taraqqiy etgan, hurfiylik bizdan boshlangan. Olmon olimi Herler: «Sharq Yevropaning muallimidir» deganda haq edi.

I.A.Karimov madaniy qadriyatlarning qudrati va tarbiyaviy ahamiyatiga yuksak baho berib, shunday deydi:

«Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi mingyillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'alarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. . .

Tarixiy tajriba, an'analarning meros bo'lib o'tishi – bularning barchasi yangidan-yangi avlodni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog'i lozim».¹

Darhaqiqat, milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish lozim. Chunki har bir millat ma'naviyatida o'ziga xos tomonlar bo'lsa ham, u umuminsoniy qadriyatlarning bir qismidir. Shu bilan birga, unutmashligimiz kerakki, biz qurayotgan yangi jamiyat binosi

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston. 1997-yil, 137—140-betlar.

uchun birinchi galda milliy qadriyatlar ustun bo'lmog'i lozim. Biz, eng avvalo, milliy o'zligimizni anglamog'imiz, o'z tafakkurimizni kashf etmog'imiz lozim. O'tmishimizda unutilgan shunday ulkan sarchashmalar borki, ularni puxta, atroflicha o'rganmoq birinchi galdagi vazifadir.

VII—XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm-fan beqiyos rivojlandi. Ayniqsa, aniq fanlarga qiziqish keskin orta boshladi. O'sha tarixiy davrda al-Xorazmiy, Forobiy, al-Farg'oni, al-Beruniy, Ibn Sino, az-Zamaxshariy singari qomusiy olimlar dunyoga keldi. O'sha ulug' mutafakkirlar inson ma'naviy va tafakkur dunyosini boyitishda, insoniyat ongini, madaniy-ma'rifiy qarashlarini o'stirishda o'z davrida va keyinchalik ham ulug' xizmat qildilar, inson kamolotiga doir beqiyos ta'limotlar yaratdilar. XV – XVI asrlarga kelib qadimiy Turkiston jahonga Qozizoda Rumiy, Ulug'bek, Ali Qushchi, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Abulg'oziy Bahodirxon singari allomalarni voyaga etkazdi. Bu davrda Markaziy Osiyo shaharlarida yirik madaniy va ilmiy markazlar vujudga keldi.

Oktabr to'ntarishidan keyin, ya'ni 1917 -yildan boshlab Turkiston mintaqasida sho'ro hokimiyati o'rnatila boshladi. Bu tuzum kommunistik firqa mafkurasini targ'ib va tashviq qildi.

Sho'ro hokimiyatining dastlabki yillarida Turkistonda yangi maktablar ochish va ularni mustahkamlash vazifasi qo'yilib, yoshlar ongiga «yangi jamiyat» g'oyalarini singdiradigan pedagog xodimlar tayyorlashga jiddiy e'tibor berildi. Bu ishlarni amalga oshirishda Rossiya xalq ta'limi yo'nalishi asos bo'lgan. Tarixdan ma'lumki, qaysi davlat o'zga mamlakat ustidan hukmron bo'lsa, u o'z mafkurasini, ma'naviyatini, axloqini singdirishga harakat qiladi.

1924-yil oktabrida Turkistonning parchalanishi oqibatida milliy madaniyatning yo'li asta-sekin to'sila boshladi. Asrlar osha amalda qo'llanib kelingan, qomusiy ilmlar bitilgan yozuv man etildi. Avval lotin grafikasi, keyin rus grafikasi asosida tuzilgan yozuvga o'tildi. Bu tadbir Markaziy Osiyo xalqlarini o'z madaniyat tarixini o'rganish imkoniyatidan mahrum etdi.

Maktablarda dunyo fanini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan o'zbek fani va madaniyatining asoschilari, musulmon olamining ulug' zotlari emas, balki o'zbek xalqi kamolotiga aloqasi bo'lmagan shaxslar faoliyati o'rgatildi. Ahmad Yassaviy, Bedil singari so'z ustalari va tafakkur gulshani bog'bonlari xalq ta'limidan chiqarildi.

Musulmon dunyosining muqaddas kitobi Qur'oni Karim, Muhammad alayhissalom hadislarini ta'qib ostiga olindi, yo'qotildi. Natijada o'zbek xalqi milliy ahloq-odobi va tarbiya an'alaridan mahrum bo'la boshladi. Bu yo'qotish o'zbek pedagogikasi fanlari rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

1991-yilga kelib O'zbekiston xalqi mustaqillikka erishgach, o'zining yangi milliy Qomusi asosida, hamma sohada bo'lganidek, o'zbek pedagogikasi tarixiga ham yangicha yondoshish imkoniyati tug'ildi.

O'tmishda atoqli mutafakkirlar pedagogikaga doir muhim fikrlarni aytib qoldirganlar, ularni o'rganish pedagogik tafakkurning o'sishiga, pedagogik madaniyatining ortishiga imkon beradi.

Pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyoti qonunlariga suyanagan holda turli pedagogik nazariyalarni, ta'lim-tarbiyaning mazmuni va metodlarini o'rgatadi. O'tmishning pedagogik sistemalarida bo'lgan ilg'or fikrlarning hammasidan ijodiy foydalanadi.

Demak, pedagogika tarixi ijtimoiy fandir. U tarixiy pedagogika hodisalariga davr talabi asosida yondashadi, tarbiya nazariyasi va amaliyotining turli bosqichlarda xilma-xil bo'lganligini ochib berib, ilg'or qarashlarning taraqqiyot yo'lini ko'rsatadi.

Pedagogika tarixi fani pedagogika, psixologiya, falsafa, madaniyat tarixi, O'zbekiston tarixi, jahon xalqlari tarixi, etnografiya, arxeologiya, ahloqshunoslik va boshqa bir qator fanlar bilan uzviy aloqador.

Biz pedagogika tarixini o'rganish va tahlil qilishda: qadimgi yozuvlar, toshbitiklar, qo'lyozma yodgorliklar, Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma'naviy merosi, xalq og'zaki ijodi, muqaddas kitoblar, pandnomalar, dasturlar, o'quv qo'llanmalari va darsliklar, xalq maorifi masalalariga oid materiallar, matbuot matnlari, prezident Islom Karimovning ta'lim-tarbiyaga oid asarlariga asoslanamiz.

Pedagogika tarixi fanining metodologiyasi esa milliy va umumbashariy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, Markaziy Osiyo va Sharq mutafakkirlarining ilmiy va ma'naviy merosi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari va milliy istiqlol g'oyasi haqidagi nazariyasi hisoblanadi.

Pedagogika tarixini o'rganish o'qituvchilarning faqat pedagogik madaniyatini oshiribgina qolmay, balki pedagogik mahoratni egallashga ham yordam beradi. Shuningdek, o'tmishning ta'lim-tarbiya sohasidagi eng yaxshi tajribalarini o'rganadi, bu esa uning kundalik pedagogik faoliyatida yordam beradi, uni bevosita amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

Bu borada yaratilgan tarixiy, falsafiy, adabiyotshunoslikka oid asarlardan ham ijodiy foydalanishga harakat qildik. Xullas, ushbu darslikning yaratilishida faylasuf, sharqshunos, tarixchi, filolog olimlardan B.Ahmedov, A.Ahmedov, A.Abdullaev, V.V.Bartold, E.E.Bertels, A.Bahoutdinov, I.S.Braginskiy, B.G'.G'afurov, V.Zoxidov, I.Mo'minov, O.Fayzullaev, Sh.Shomuxamedov, A.Qayumov, S.Dolimov, A.Irisov, M.Orifiy, M.Hayrullaev, S.Rajabov, B.Qosimov, J.G'.Yo'ldoshev va boshqalarning ishlari qo'llanma vazifasini o'tadi.

Nazorat uchun savollar:

- 1.«Pedagogika tarixi» fanining predmeti, maqsadi va vazifasi nimalardan iborat?
- 2.«Pedagogika tarixi» fani qanday fan? U qaysi fanlar bilan uzviy aloqador?
- 3.«Pedagogika tarixi» fanini o'rganish bo'lajak o'qituvchiga qanday imkoniyatlar yaratib beradi.

I BOB. ENG QADIMGI DAVRLARDAN MELODNING VII ASRIGACHA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKR

Qadimgi xalq og'zaki ijodiyotida tarbiyaga oid fikrlar

Hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha mingyillar oldin yashagan bo'lib, ular o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda katta va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Dastlabki tosh qurollardan tirikchilik uchun foydalanish, ancha takomillashgan mehnat qurollarini yasash, urug'chilik davriga kelib, xo'jalik hayoti va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlarni o'z ichiga olgan davrgacha bo'lgan tariximiz otabobolarimizning boy qadimiy madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

(Eramizdan avvalgi birinchi mingyillikda Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiya hamda Parkana kabi davlatlarda turli qabila va elatlar yashaganlar. Ular soqlar, masog'utlar, so'g'dlar, xorazmiylar, boxtarlar, chochliklar, parkanaliklar kabi qabila va urug'lardan iborat bo'lib, hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalqlarning ajdodlari hisoblanadilar.

Ushbu elatlar yashagan hududlarda o'ziga xos madaniy an'analar tarkib topa borgan. Masalan, eramizdan oldingi asrning birinchi yarmida qadimiy davlatlar: Baqtriya va So'g'diyona, Marg'iyona, Xorazm, Parkana, Parfiya kabi o'lkalarda xalq xo'jaligining turli sohalarida rivojlanish ro'y bergan. Eramizdan oldingi IX–VI asrlarda paydo bo'lgan Ahmoniylar, eramizdan avvalgi III asr o'rtalarida tashkil topgan Grek-Baqtriya, eramizning I asrida tashkil topgan Kushonlar, eramizning V asrida yuzaga kelgan Eftalitlar, so'ngra Sosoniylar va, nihoyat, Turk xoqonligi davlatlarida madaniyat yuksala bordi.

/ Ajdodlarimiz tomonidan qo'lga kiritilgan qadimiy madaniyat tarkibidan ta'lim-tarbiyaga oid meros ham alohida o'rin olgan. Zero, hozirgi turkiy va forsiyzabon xalqlarning bizgacha etib kelgan muhim arxeologik topilmalari, tarixchilar, adabiyot va san'at namoyandalari-ning asarlari buning dalilidir.

† Bunday muhim manbalar sirasiga yunon olimlari Herodot, Suqrot, Plutarx, Poliennning tarixiy, geografik hamda axloqiy asarlari,

allomalarimiz Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, faylasuf, sharqshunos va tarixchi olimlar: E.E.Bertels, S.P.Tolstov, V.V.Braginskiy, I.M.Mo'minov, I.V.Stebleva, A.O.Makovelskiy va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kiradi.

Eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lishning namunasi tarzida e'tirof etilgan ma'naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Herodotning «Tarix», Strabonning «Geografiya» hamda Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» kabi asarlari, Urxun-Enasoy bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan. Ushbu yodgorliklar mohiyatini o'rganish insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta o'rin tutganidan dalolat beradi.

Ma'lumki, kishilik jamiyatining vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham ijtimoiy jihatdan takomillashib borgan. Dastlabki diniy e'tiqodlar, eng oddiy ixtirolarning takomillashib borishi kabi holatlar inson ongining ham shakllanib borishiga turtki bo'ldi. Bu jarayon minglab yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, ana shu davrda inson ongi shakllanishining asosi sifatida qabul qilingan xulq-odob qoidalari, ijtimoiy talablar yuzaga kelgan. Ushbu talablar muayyan davrda yaratilgan yodgorliklarining asosiy mazmuni va mohiyatini tashkil etadi.

Eng qadimgi kishilarga xos bo'lgan xislatlar, ularning dastlabki, oddiy istaklari, orzu-umidlari qadimgi eposlarda aks etgan afsonaviy obrazlar hamda qahramonlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Afsona va rivoyatlarda eng qadimgi ajdodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Ammo bu rivoyat va afsonalar ham masog'ut, soq, xorazmiy, so'g'd hamda parfiyanlar yashagan davrlar ruhini ifoda etadi, xolos.

Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda quyida uch guruhga ajratilgan manbalarga tayanamiz:

1. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko'rgazmali ashyolar.
2. Xalq og'zaki ijodi materiallari hamda yozma manbalar.
3. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.

Ma'lumki, ibtidoiy kishilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ehtiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodda ham mehnat qilish, amaliy faoliyatni yo'lga qo'ya olish borasidagi nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga zamin hozirlagan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayoni dastlabki paytlarda butun ijtimoiy hayotni yo'lga qo'yish negizida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik tarbiya inson faoliyati asosiy

jihati, ijtimoiy ongini shakllantirishning muhim omiliga aylandi. Dastlabki urug'chilik jamiyatidan oldin ham inson yashash uchun kurashgan, mazkur davrda urug'ning barcha a'zolari jamoa bo'lib harakat qilganlar. Keyinroq kishilar mehnat faoliyatini jamoa a'zolarining yosh jihatlariga ko'ra quyidagicha tashkil etganlar.

- a) bolalar va o'smirlar;
- v) ijtimoiy hayot va mehnatda to'la ishtirok etuvchilar;
- s) keksalar.

Ibtidoiy jamiyatda bola o'zi uddalay oladigan faoliyatning tashkil etilishida bevosita ishtirok etib, hayot kechirish va mehnat qilish ko'nikmalarini o'zlashtirgan. Bu holat og'ir sharoitda kechgan. O'g'il bolalar erkaklar bilan ov qilish, qurol yasash kabi yumushlarni bajarsalar, qizlar ayollar tomonidan bajariladigan mehnat sirlarini o'zlashtirar edilar. Hech qaerda yozilmagan odat va an'analarga ko'ra, yosh bolalar keksalar nazorati ostida ma'lum tajribalarga ega bo'lardilar. Bola ma'lum tayyorgarliklardan so'ng maxsus sinovlardan o'tib, amaliy faoliyatda faol ishtirok eta olish huquqini qo'lga kiritar edi. Ushbu an'ana, ya'ni bolalarni muayyan yoshgacha enaga yoki murabbiyga topshirish yaqin davrlargacha saqlanib qolgan, hatto hozirgi kunda ham ko'zga tashlanadi.

Urug'chilik jamoasi bosqichida esa bolalar mehnatining ko'lami kengayib, kasb-hunar faoliyatining turlari ko'payib boradi. Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan birga ularni yozishga ham o'rgata boshlaydilar. Asta-sekin harbiy tarbiyaning boshlang'ich ko'rinishlari yuzaga kela boshlaydi. Bolalarga harbiy san'at sirlarini o'rgatish ancha murakkab ish bo'lib, ushbu tarbiyani tashkil etish maxsus bilim hamda tayyorgarlikka ega bo'lishni taqozo etar edi. Shu bois maxsus harbiy bilim va tayyorgarlikka ega bo'lgan kishilar bolalarga bu boradagi bilimlarni berish jarayoniga jalb etila boshladilar.

Jamiyatning ijtimoiy jihatdan taraqqiy eta borishi bolalarga yer o'lchash, suv toshqinlarining va turli kasalliklarning oldini olishga oid bilimlarni o'rgatishga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Bu boradagi harakatning tashkil etilishi natijasida turli maktablar faoliyat yuritib boshladi. Maktablarda asosiy e'tibor bolalarga og'zaki bilim berish bilan birga ularda yozuv ko'nikmalarining shakllantirilishiga qaratildi. Dastlab suratkashlik rivojlanib, piktografik xat paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik qo'shni mamlakatlardan kirib kelgan harflar yordamida yozish usuli paydo bo'ladi va bu usul tez tarqala boshlaydi.

Eramizdan oldingi mingyillik o'rtalarida oromiy, Aleksandr Maqduniy istilosidan so'ng esa yunon, mixxat yozuvlari ham qo'llanilib kelgan.

Eramizdan oldingi birinchi mingyillik o'rtalariga kelib, oromiy yozuvi negizida Ovisto, Xorazm, so'g'd, Kushon, run (Urxun-Enasoy), uyg'ur va boshqa yozuvlar paydo bo'ladi va ta'lim-tarbiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xitoyda qog'ozning ixtiro etilishi, Hindistonda hisoblash, o'nli sonlarning paydo bo'lishi, Mesopotamiyada er kurrasining graduslarga, sutkani soatlarga, minut va sekundlarga bo'lishning o'ylab topilishi, Markaziy Osiyoda O'rtadengiz bilan Hindistonni o'zaro bog'lovchi karvon yo'lining vujudga kelishi, keyinchalik Xitoydan Markaziy Osiyo orqali O'rtadengizga «Buyuk ipak yo'li»ning ochilishi kabi voqealar mazkur hududlarda yashovchi xalqlar madaniyatining rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Eramizdan oldin, taxminan 484(480)—431(425) -yillari yashagan yunon tarixchisi Herodotning «Tarix» kitobida qadimgi forslar, soqlar, masog'utlarning ta'lim-tarbiya tarziga oid muhim ma'lumotlar berilgan.

Plutarxning qayd etishicha, Aleksandr Maqduniy yerli xalqlarga yaqinlashish maqsadida makedoniyaliklar bilan mahalliy xalqlarning urfodatlarini o'zaro uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Shu maqsadda u o'ttiz ming bolani ajratib olib, yunon tili va makedoniyaliklarga xos bo'lgan harbiy san'at sirlarini o'rgatishga buyruq bergan. Ana shu maqsadni amalga oshirishga juda ko'p murabbiylar tayinlangan. Yunon alifbosining keyinchalik bu yurtida qabul qilinishi o'sha davrda ko'plab maktablar ochilgani hamda unda erli aholi farzandlari ham o'qitilganidan dalolat beradi.

So'g'd yozma yodgorliklari orasida V.B.Xen tomonidan aniqlangan va «Eski xatlar» nomi bilan yuritiladigan qimmatli manbalar eramizning boshlarida shakllangan so'g'd yozuvi haqida ma'lumot beradi. Ushbu manbalarni Dunxuan shahri yaqinidagi savdo qishlog'ida yashagan so'g'dlik tijoratchilarning o'z ona yurtlari Samarqandga yozgan va shaxsiy xarakterga ega bo'lgan xatlari tashkil qiladi.

Imperator Yan Li(615—617)ning elchisi Vey Szi hisobotlarida ham Samarqand shahrida yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiya haqidagi ma'lumotlar mavjud. Samarqandning mohir savdogarlari o'g'il bola besh yoshga to'lar ekan, unga savdoni o'rgata boshlaydilar. O'qishni o'rganishi bilan savdo ishlari ham o'rgatilgan.

Syuan-Szin nomli boshqa bir Xitoy tarixchisi esa, Samarqand aholisining axloq va xulq-odob qoidalariga rioya etishi boshqalarga o'rnak bo'lganligini aytib o'tgan. Bularning barchasi qadimgi davrlarda bolalarning besh yoshidan o'qitilgani, ta'lim jarayonida ularni amaliy hayotga tayyorlash asosiy maqsad qilib belgilanganligi to'grisidagi ma'lumotlarni beradi.

Bu ma'lumotlar qadimda bolalar o'qitiladigan savod maktablari bo'lganligi va maktablardan tashqari bolalar maxsus murabbiylar tomonidan harbiy-jismoniy mashqlarni bajarib olish va muayyan hunar sirlarini o'zlashtirish ishiga jalb etilganligidan darak beradi.

Eng qadimgi davrlarda yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni biz yana xalq og'zaki ijodi namunalari: afsonalar, qahramonlik eposlari, qo'shiqlar, maqol va iboralarda ilgari surilgan g'oyalardan ham olishimiz mumkin. Chunki xalq donishmandligining yorqin namunasi bo'lgan xalq og'zaki ijodida xalq pedagogikasiga xos bo'lgan tarbiya tajribalari umumlashgan.

Aksariyat afsonalarning qahramonlarini inson sifatida gavdalangan xudolar tashkil etgan. Ibtidoiy tuzum kishilarining orzu-istaklari, o'y-fikrlari, maqsad va intilishlarini yoritishga xizmat qilgan afsonalarning ko'pchiligi bizga eng qadimgi yodgorliklar – «Ovisto», Firdavsiyning «Shohnoma» asarlari orqali ma'lumdur.

Bizgacha etib kelgan epik asar(afsona va rivoyat)larda asosan ajdodlarimizning yurt ozodligi, vatan ravnaqi va qabila farovonligi yo'lida olib borgan kurashlari o'z ifodasini topgan. Or-nomusni muqaddas deb bilish, do'st va safdoshlarga sadoqat, burchni yuksak darajada anglash, unga sodiqlik, vatan va xalqi uchun o'z jonini qurbon etish, har qanday mashaqqatga bardosh berish, o'z sevgi-muhabbati yo'lida aziyat chekishga tayyorlik kabi insoniy tuyg'ular ularning asosiy xususiyatlaridir. Qahramonlik eposlarida ulug'langan eng asosiy axloqiy xislatlar – jasurlik va mardlikdir.

Jasurlik, kuchlilik va mardlik – qadimiy kishilarda tarkib topishi zarur bo'lgan eng muhim fazilatlar sanalgan. Tarixiy shaxslarning hayoti va qahramonliklari borasida ma'lumotlar beruvchi rivoyatlar fikrimizning yorqin dalilidir. Ularda muayyan shaxs faoliyati, donishmandligi, qahramonliklari, tarixiy shaxs ega bo'lgan axloqiy fazilatlar: nazokat, kamtarlik, aql-idrok, o'zgalarga muhabbat, yorga vafo, sadoqat, baxt, odillik, odamiylik, oliyhimmatlilik va mehnatsevarlik kabilar ulug'langan.

Eposlar mazmunida bayon etilishicha, xotin-qizlar erkaklar bilan teng sharoitda faoliyat ko'rsatganlar.

Tarixdan ma'lumki, dastlab Amudaryoning asosiy tarmog'i O'zboy Kaspiy dengiziga quyilgan. Uning o'ng qirg'og'i Turon, chap qirg'og'i Eron deb yuritilgan. Eramizdan oldin ahmoniylar soq va masog'ut qabilalariga ketma-ket hujum qilib turgan. Ana shu tarixiy voqealar soq va masog'utlar tomonidan yaratilgan eposlarda o'z ifodasini topgan.

Poliennning «Harbiy hiylalar» asarida keltirilgan rivoyatlarda Shiroq obrazi vatanparvarlik va qahramonlik timsoli sifatida hali-hanuz yoshlarni

tarbiyalab keladi. Yoki Herodotning «Tarix» kitobida keltirilgan maso'utlar hukmdori To'mariga uylanish bahonasida Eron shohi Kirning Turon o'lkasiga uyushtirgan hujumi haqidagi ma'lumotlar ham muhim ahamiyatga egadir.

Qadimgi ajdodlarimiz insonga xos jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlarni qadrlaganlar. Bu xislatlar insonda o'z-o'zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyat hayotida ro'y bergan o'zgarishlar, ibtidoiy urug'chilik davrida qaror topgan turmush tarzi shunday xislatlarning shakllanishini taqozo etgan.

Ikki katta kuch – yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ayb-inson insonda yuqorida qayd etilgan xislatlarning bevosita ta'riflashiga turtki bo'lgan.

Eng qadimgi qo'shiq va lirik she'rlarda jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlar tarannum etilgan. Bunday qo'shiq va lirik she'rlar XI asrda yashagan ulug' olim Mahmud Koshg'ariy tomonidan yaratilgan «Devonu lug'atit-turk» asari orqali bizgacha etib kelgan.

«Devonu lug'atit-turk» asarida qadimgi turkiy so'zlarning arabcha izohli tarjimai ham berilgan. Ushbu asarni qadimiy turkiy tilning izoh lug'ati deyish mumkin.

«Devon» she'rlarida ilm olishning qadri, bilimli va donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ'ib etuvchi, o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'sti va xalqiga xiyonat kabi xislatlarni qoralaydigan she'rlar ko'p. Bunday she'rlar turkiy xalqlar qadim-qadimdan inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor berganligidan darak beradi.

Pand-nasihat janridagi asarlarning mazmunida asosiy o'rinni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat etish to'g'risidagi fikrlar egallaydi. Yoshlarga ilmli kishilarga yaqinlashish, ulardan o'gitalar olish maslahat beriladi:

*O'g'lim , senga qoldirdim o'git,
Unga amal qil.
Olimlarga yaqinlash, bahra olgil,
Tutib dil.*

Demak, o'g'ilga nasihat qilgan ota bilimli kishilardan yaxshilik kelishiga ishonadi, ammo ularning fikrini eshitibgina qolmay, amalda unga rioya etish lozimligini ham uqtiradi.

Bilimli bo'lish bilan birga, yomon xatti-harakatlarni sodir etishdan saqlanish zarurligi, manmanlik, maqtanchoqlikning zararli oqibatlari xususida nasihatlarini bayon etishdan iboratdir. Xususan:

*Ilm-hikmat o'rgangin, bo'lma mag'rur,
Maqtanchoqning sharmandasi chiqar, ko'r.*

Bilimli, ma'rifatli bo'lish kishining kibr-havodan uzoqroq minlaydi. O'gitlarda insonning kibr-havodan uzoq bo'lishi kishilar bilan ijobiy munosabatni o'rnatish uchun zamin hozirlaydigan qadriyat qatnashib qutqiriladi. Ilm sari intilish qutlug', ezgu ish sanaladi. Demak, har bir kishi ilm o'rganish sari intilishi, o'zlashtirilgan bilimlarga amal qilishi, kibr-havodan voz kechishi zarur.

*O'rgan uning bilimin,
Borgin uning sari.
Qutlug' ishga bo'ysungin,
Kibrni quv nari.*

Aqlli odamning zehni o'tkir bo'ladi, u har qanday o'git-nasihatni tezda o'z ongiga singdirib oladi. Alloma inson zehning o'tkirligini, har qanday muammoni hal eta olish layoqatini xuddi yuqorida parvoz etayotgan qushning erdagi o'ljani ko'rib, unga ega bo'lish ilinjida pastga sho'ng'ishida sodir etadigan tezligiga qiyoslaydi. Oqil odam zehning tezligi qush parvozigacha qiyoslanadi:

*Qush ov ko'rsa, yuksaklardan pastga cho'kar,
Olim kishi o'git bersa darhol uqar.*

Bu misolda aqlli, bilimli odamning tabiati, o'ziga xos xislati ifodalangan.

Bilimli, yuksak fazilatga ega bo'lgan kishilar hayoti doimo mashaqqatli kechadi. Umrbo'yi ilm va hunar asoslarini o'zlashtirgan olim va fozillar hayoti ham bir kun kelib poyoniga etadi. Bilimlarining ko'lami ortib, yuksak orzu-istaklari amalga oshayotgan bir paytda insonning umri tugaydi.

Ijtimoiy munosabatlar mazmuni, odamlar o'rtasidagi o'zaro muloqat holati ham bilimli, donishmand kishilarning aziyat chekishlariga sabab bo'ladi. Zero, hayotda aksariyat holatlarda manman, zo'ravon, xudbin odamlarning omadlari keladi, ular yuqori mansablarni egallab, xalq va

yurt manfaatlariga zid bo'lgan harakatlarni amalga oshiradilar. Bilimli kishilar esa ularni bunday yo'ldan qaytarish imkoniyatiga ega bo'lmaganliklaridan afsuslanadilar, chorasizliklaridan ranjiydilar. Hukmdorlarning nodon, kaltafahm bo'lishlari tufayli oqil insonlar munosib ravishda hurmat topmaydilar, qadr-qimmatlari toptaladi. Mahmud Koshg'ariy ushbu holat so'yilgan jonliq tanasining erlarga sudralib xor bo'lganiga o'xshaydi, deydi. Zero, hamma zamonlarda ham ilm-fan ahlining hayoti og'ir kechgan, tafakkur, ilm va ma'rifat hamisha ham e'zozlanavermagan, aksincha, qoloqlik va johillik tomonidan ta'qib etilgan:

*Buzuldi bu zamonlar,
Avj oldi ko'p yomonlar.
Kamayib bilimdonlar,
Ilmi hikmat yo'qolar .*

Biroq shoir hayotda bilimdonlar borligidan faxrlanadi, ilm haqidagi she'rlarida ilmu donish egalarini ulug'laydi.

«Devonu lug'atit-turk» asarida insoniy fazilatlarining yana biri – xushxulqlik alohida ajratib ko'rsatiladi. Bilim va hunar egasi bo'lish, ezgulik, yaxshilik yo'lida hamda umum manfaati uchun mehnat qilish xushxulq insonga xos fazilat ekanligini alloma alohida qayd etib o'tadi:

*Ulug'liging oshsa agar,
Xushxulq bo'lg'il.
Bek yonida xalq uchun
Xo'b ish qilg'il .*

Molu davlat ko'payganda mag'rurlanish, kibru-havoga berilish yomon xislat sanalsa, ma'lum sabablarga ko'ra mol-mulkdan ajralib qolganda o'kinish, tushkunlikka tushish ham irodasizlik belgisi hisoblanishini bayon etadi olim.

Mol-dunyo to'plashga nisbatan yuzaga kelgan hirsni shoir xuddi tog'dan kelayotgan selga o'xshatadi. Molu davlat yig'ish hirsiga berilgan kishi sel ostida qolgan toshdek chil-parchin bo'ladi, deydi:

*Mol yig'ishni sel kelish deb hisobla,
Mol egasin tosh kabi yumalatar.*

Shu bois aqlli inson bunday xavf ro'y berishining oldini olishi, atrofdagilarning nazaridan qolmasligi lozim.

«Devonu lug'atit-turlo» asarida xalqning ta'lim-tarbiyaga oid tajribalari ifodalangan maqollar mavjud. Maqollarda ham qo'shiqlardagi kabi do'stlik, o'zaro hamkorlik, mehnatga muhabbat, ilm olish va kasb-hunar egallashga nisbatan ishtiyoq va ehtiyoj, vatanparvarlik va qon-qardoshlik tuyg'usiga ega bo'lish, tejamkorlikning ahamiyati va isrofgarchilikning oldini olish, adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning oqibatlarini, axloq-odob qoidalari, sihat-salamatlikni saqlashga oid o'gitlar o'z ifodasini topgan.

Buni «Devon»da keltirilgan bir qancha maqollar mazmunida ko'ramiz: «Tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonlik» maqolida tirishqoq odam o'z mehnati bilan yaxshi taomlar topadi, shunga ko'ra moyli (yog'li) ovqatlar eydi, erinchoq, dangasa odam esa, yalqovligi tufayli ishdan qochadi va pirovardida kambag'allik va qashshoqlikka mahkum bo'ladi. Natijada afsus chekadi, degan ma'no bor. «Odamning olasi ichida – yilqiniki tashi(sirti)da» maqolida esa ayrim kishilarning yomon niyatlari, o'y-fikrlari, dilida boshqalarga nisbatan yuzaga kelgan xiyonatni yashirib, kishilarga zo'rma-zo'raki ravishda kulib qarashi, ularning xatti-harakatlarini maqtashi, o'zini go'yoki ularning yutuqlaridan quvonadiganday ko'rsatishi aytiladi. «Ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq» maqolida mustaqillikning mutelik va tobelikdan, o'zgalar irodasiga bo'ysunishdan afzalligi, ayrim harakatlarni amalga oshirishda tashabbuskor, faol, ilg'or va tashkilotchi bo'lish maqsadga muvofiq ekanligiga urg'u beriladi. «Odobning boshi – til» iborasida esa xushxulqqa ega bo'lishga nisbatan qo'yiladigan talablardan biri – shirin so'zli, xushmuomala bo'lish ekanligi ta'kidlanadi. Shirinso'z, xushmuomala kishi el orasida tezda izzat-ikrom topadi, yuqori martabalarga erishadi. Shu bois yoshlarni yoshlikdanoq shirin so'zli, xushmuomalali bo'lishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir, deya ta'kidlanadi. Xalq orasida g'iybatchi kishilarga nisbatan «Ilon o'zining egriligini bilmay, tuyaning bo'ynini egri deydi» qabilidagi maqol qo'llanilgan.

Ishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yishning kutilgan natijaga erisha olmaslikka sabab bo'lishi «Shoshgan kishi uyiga etolmaydi» tarzida ifodalangan. Maqollarda yana ilmu hunar, mehnatsevarlik xislatini yoshlikdan egallash zarurligi ham ifodalangan: «Kichikda qatug'lansa ulgazu sevinur». Inson yoshlikda aniq bir maqsadga intilsa, unga erishish yo'lida mashaqqat cheksa, tinimsiz harakat qilsa, voyaga etganida uning rohatini, mehnati natijasini ko'radi.


Maqollarda yomonlik qilgan kishining o'ziga yomonlik qaytishi mumkinligi «Ko'kka suzsa yuzga tushar» – osmonga tupurgan kishining tupugi o'zining yuziga tushadi tarzida bayon etilgan.

Ko'rinib turibdiki, eng qadimgi davrlarda yaratilgan maqollarda ham xalqning ta'lim-tarbiya borasidagi donishmandligi o'z ifodasini topgan. Xalq pedagogikasining eng qadimgi namunalari bugungi kunga qadar saqlanib qolgan va o'zining pedagogik, tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan.

Demak, inson xulq-atvorini mukammallashtirishga xizmat qiluvchi «Devon»dagi she'riy parcha va maqollar kishilar o'rtasida ezgulikni targ'ib qilib, insonning kamolga etishiga katta ta'sir etib kelgan.

Eng qadimgi ota-bobolarimiz ulug'lagan axloqiy xislatlarni jadvalda quyidagicha aks ettirish mumkin:

Eng qadimgi davrlarda ulug'langan axloqiy xislatlar



Demak, eng qadimgi yodgorliklarda ifoda etilgan va qadrlangan xislatlar – jasurlik, mardlik, adolat, sadoqat, insoniylik, xushmuomalalikdan iborat bo'lgan. Tabiiyki, ushbu xislatlar insonda o'z-o'zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, urug'chilikka asoslangan turmush tarzi insonning ana shunday xislatlarga ega bo'lishini taqozo etgan. Ikki katta kuch – yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ayovsiz kurash insonda yuqorida qayd etilgan xislatlarning bevosita shakllanishiga turtki bo'lgan.

«Ovisto» – eng qadimgi yozma ma'rifiy yodgorlik

Eramizdan avvalgi minginchi yillarning o'rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qahramonlik mavzusida juda ko'p afsona va rivoyatlar yaratilgan. Agar bu afsonalar zardushtiylik dinining muqad-

das kitobi «Ovisto» mundarijasidan o'rin olmaganda edi, biz ular haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lolmagan bo'lardik.

«Ovisto» kim tomonidan yaratilgani borasida turli qarashlar mavjud bo'lib, mashhur sharqshunos olim E.E. Bertelsning fikriga ko'ra, asar 1278 -yili Zardusht ibn Bahrom ibn Pajdu degan kishi tomonidan yozilgan. Mazkur fikr «Zardushtnoma» dostonida bayon etilgan ayrim fikrlar asosida yuzaga kelgan. Xususan, dostonida «Ovisto» va «Zend»ni Zardusht dunyoga keltirgani, uning tug'ilishi va keyingi hayoti xususidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Zardusht taxminan miloddan avvalgi 570 -yili tug'ilgan bo'lib, 77 yoshida, ibodat qilayotgan paytida dushman qohinlaridan biri tomonidan o'ldirilgan.

Zardusht o'z davrida ikki xudolilik g'oyasini ko'tarib chiqadi. Astasekin o'zini Axura Mazda, ya'ni Oliy Tangri elchisi deb e'lon qiladi. Zardusht dunyoni yaxshilik va yomonlik dunyosi tarzida ikkiga bo'ladi. Bu ikki dunyo o'rtasida doimo kurash ketadi.

Zardusht tomonidan asoslangan din uning hayotligidayoq ko'plab o'lkalarga yoyiladi. Biroq Zardusht vafot etganidan so'ng zardushtiylik dinining g'oyalari yanada keng yoyila boshlaydi.

«Ovisto» eramizdan avvalgi VI asrning oxiri IV asrning boshlarida yaratilgan bo'lib, u uzoq davrlar mahsuli sanaladi, davrlar o'tishi bilan qayta-qayta ishlanadi. Asarning to'liq kitob holida shakllanishi eramizdan avvalgi birinchi asrga to'g'ri kelishi barcha manbalarda alohida qayd etilgan.

G'arb, rus va o'zbek olimlari mazkur asar mazmunini har tomonlama tahlil etishga harakat qilganlar. Zero, «Ovisto» asarida inson shaxsining kamolotga erishishiga oid fikrlar ifoda etilgandir. Mazkur asar g'oyalari orqali qadimgi davrlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma'rifiy hamda ijtimoiy qarashlari borasida muhim ma'lumotlarga ega bo'lamiz. «Ovisto» diniy xarakterga ega bo'lish bilan birga, o'zida falsafiy, siyosiy, filologik, va tarbiyaviy masalalarni ham qamrab olgan.

Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida zardushtiylik dini qadimgi Xuroson, Fors, Iroq va Balxdan Suriya erlarigacha tarqalganligini aytadi.

Ozar olimi M. Rafiliy esa «Muxtasar Ozarboyjon adabiyoti tarixi» kitobida (1-jild, Boku, 1943, 2–3-betlar) «Ovisto»ni faqat Ozar xalqining ma'naviy merosi deydi.

Tarxichi olim V.M.Avdievning fikriga ko'ra, «Ovisto» nomli qadimgi diniy to'plamning dastlabki qismlari aynan O'rta Osiyo hududida vujudga

kelgan, deyish uchun barcha asoslar etarli. Zero, asarda keltirilgan ayrim rivoyatlar bundan dalolat beradi. Rivoyatlarda aytilishicha, zardushtiylik dinining birinchi «Muqaddas olovi» Xorazmda yoqilgan. Asarda tasvirlangan «Ayriana Vayjo» mamlakati Xorazm bo'lgan bo'lishi mumkin. Bu mamlakatda Axura Mazda Zardushtga ko'rinish bergan. «Ayriana Vayjo» degan afsonaviy mamlakatning «Ovisto» asarida saqlanib qolgan tasviri Xorazmning geografik sharoitlariga to'la muvofiq keladi. S.P. Tolstov ham «Ovisto»ning eng qadimgi zamonga oid qismi Markaziy Osiyo (Xorazm)da eramizdan avvalgi birinchi mingyillikning birinchi yarmida yozilgan deb qayd etadi. «Ovisto»da xudolar va qahramonlar to'g'risidagi xalq afsonalariga oid juda ko'p qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Asarda tasvirlangan xudo va qahramonlar O'rta Osiyo mamlakatlari, ularga qo'shni bo'lgan Eron va Afg'oniston o'lkalarida ish ko'radilar. «Ovisto»dagi madhiyalarda shunday bir o'lka tasvirlanadiki, unda: «Bir talay qo'shinga qudratli yo'l boshchilar bosh bo'lgan, keng o'tloqlari va suvlari ko'p bo'lgan, baland tog'lari chorvachilik uchun zarur hamma narsani etishtiradi, unda chuqur-chuqur va sersuv ko'llar, kemalar yurib turadigan keng daryolar Iskat va Pourta, Mour (Marv), Xarova (Hirot), Gou So'g'd va Xvoyrezm (Xorazm) tomoniga pishqirib oqadilar (Yasht X, 14)». Bunda zikr etilgan joylarning ta'rifi va nomlari boshqa ko'p jihatlari bilan birga qadimgi Zardusht dinining xuddi shu erda, Amudaryo havzasida vujudga kelganiga shubha qoldirmaydi.

Zardusht eramizdan avvalgi VI asrda yashagan. Xorazmda yashagan chorvadorlar oilasi Spitama urug'idan bo'lgan. Otasi Paurushasp, onasi Dugdova ot va tuya boqish bilan shug'ullanganlar. Zardusht ko'pxudolilikka sig'inish hamda ko'plab qurbonliklar qilinishi natijasida mollar qirilib ketayotganligi, turli qabilalar o'rtasida nizolar kelib chiqayotganligini ko'rib, uning oldini olish choralarini izlaydi va ana shu maqsadda o'z ta'limotini targ'ib qila boshlaydi.

Zardushtning yangi ta'limotini qabila a'zolari orasida targ'ib qilishini istamagan qabila boshliqlari uni ta'qib etadilar. Ana shu ta'qib tufayli u Ray(Eron)ga qochadi va o'z dinini o'sha erda to'la shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. «Ovisto»ni shoh Vishtasp(Gushtasp)ga taqdim etadi. Shoh Vishtasp uning homiysiga aylanadi. Vishtaspning farmoniga binoan otashxona – ibodatxonalar qurdiriladi, zardushtiylik dinining g'oyalari keng yoyila boshlaydi.

Zardusht shoh Vitasp vazirining qizi Havoviga uylangani, undan uch o'g'il – Istavatra, Urvatatnara, Xvarachitra va uch qiz – Freni, Triti, Pourichistani ko'rganligini qayd etadi.

«Ovisto»ning kitob holiday matni eramizdan oldin o'n ikki ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan. Bu nusxa Iskandar Maqduuniy istilosiga qadar Istahr shahrida saqlangan. Iskandar Istahrni bosib olgach, «Ovisto» kitobda bayon etilgan tibbiyot, nujum, ilmi hikmat sohalariga oid g'oyalarni yunon tiliga tarjima qilinib, qolgan fikrlar bitilgan sahifalar yoqib yuboriladi.

Zardushtning mazkur kitobi bizga qadar ikki nuxxada etib kelgan.

Mazkur nuxxalarning birinchisi – duolar to'plamidan iborat bo'lib, «Pok Vendidat» deb ataladi. Ushbu kitobga «Yasna» va «Vispered» kiritilgan.

Ikkinchi kitobda ham birinchi kitobdagi kabi «Vendidat», «Yasna» va «Vispered»lar o'rin olib, unda sharhlar ham beriladi. Izohli tarjima «Zand» (sharh ma'nosida) deb ataladi. Shuning uchun ham asarning sharhli nuxxasi «Ovisto va Zand» yoki «Zand Ovisto» deb nomlangan.

Ikkinchi variantga binoan asar quyidagi qismlardan tashkil topgan:

1. «Vendidat». Mazkur qism 22 bobdan iborat. Asosan, Axura Mazda bilan Zardusht o'rtasida kechgan savol-javob shaklida yozilgan. U yomon ruhlarni, devlarni engish voqealari, gunohlardan pok bo'lish qoidalari hamda mifologik unsurlarni o'z ichiga oladi. Xarakterli jiqati so'z yuritilayotgan qismda devlarga qarshi yaratilgan qonun matni, ya'ni, qonunnoma mazmuni yoritilgan. Qonunnomada aytilishicha, yomonlik timsoli bo'lgan devlarga nisbatan nafrat bilan qarash darkor.

Axura Mazda yurtida yaxshilik, xayrli ishlarni yuzaga keltirsa, Anhra Manu (Axriman) o'z yurtida yomonlikni qaror toptiradi.

2. «Vispered». U 24 bobdan iborat. Ibadat qo'shiqlarini o'z ichiga oladi.

3. «Yasna»lar 72 bobdan iborat. Diniy ibodatlarini o'tkazish chog'ida, qurbonlik qilish marosimida aytiladigan qo'shiqlar, xudolarga bag'ishlangan madhiyalar yasnalarni tashkil etgan. Ushbu qismning 17 bobi Gotlar deb yuritiladi. Gotlar «Ovisto»ning eng qadimgi qismlari sanaladi.

4. Yashtlar. Yashtlar zardushtiylik dinining xudolari va ma'budalari sharafiga aytilgan 22 qo'shiq(gimn)ni o'z ichiga oladi.

5. «Kichik Ovisto» (Xurda Ovisto, Xvartak-apastak). Quyosh, Oy, Ardivisura, Mitra, olov xudolari hamda ma'budalar sharafiga bag'ishlangan kichik ibodat (gimn) matnlaridan iborat.

Zardushtiylik dinining g'oyalari xususida so'z borganda, ularning to'g'rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Inson va uning jamiyatda tutgan o'rniga nisbatan munosabat masalasi «Got»lar mazmunida o'z ifodasini topgan.

«Ovisto» tarbiyaviy manba sifatida katta ahamiyatga ega. Yuqorida aytib o'tilganidek, Zardusht qadimgi qabilalar a'zolarining diniy e'tiqodlariga aylangan qarashlar mazmunini isloh qilgan. Keyingi boblarda Yima haqidagi afsona keltiriladi. Afsonada erni uch barobar ko'paytirish, o'simlik, hayvon va odamlarni himoya qilish maqsadida chegara belgilanganligi hikoya qilinadi. Ushbu afsonada, shuningdek, qadimgi Hind-Eron qabilalarining Erning suvdan paydo bo'lganligi borasidagi dastlabki tasavvurlari ham o'z ifodasini topgan. 3–19-boblarda esa, gunoh va uning jazosi, poklikning mohiyati ta'riflanib olov, suv, er, chorva, daraxt hamda o'simliklar ulug'lanadi, kohin, harbiy, dehqon va chorvadorlar sharaflanadi. Hayvonlarga zulm o'tkazish eng katta gunoh sifatida qoralanadi. Mazkur bo'limda shaxsiy gigienaga amal qilishga oid qoidalar — tirnoq va sochni parvarishlash masalalari yuzasidan fikr bildiriladi.

XIX bobda odamlarning Axura Mazdaga bo'lgan e'tiqodlari darajasini ifodalash maqsadida ular boqiy dunyoda qil ko'prikdan o'tadilar, ko'prikning o'rtasi qilich kabi o'tkir bo'ladi, deyiladi. Kimki Axura Mazdani tan olmasa, unga ishonmasa, u «Qil ko'prik»dan o'tolmay, jahannamga tushadi. Dindor va doimiy ravishda ibodat qiluvchilar esa jannatga tushadilar. Axura Mazda yaratilgan vaqtdan boshlab oradan o'n mingyil o'tgach, Axrimanning kuchi tugab, Adolat o'lkasi qaror topadi. Shunda barcha mayitlar (qazo qilgan kishilarning tanalari) bir joyga to'planadi, ularga jon ato etilib, yaxshi kishilar bir tomonga, yomon kishilar ikkinchi tomonga ajratiladi. Shu tariqa yaxshilar jannatga, yomonlar esa do'zaxga tushadi. Yaxshi odamlar uch kun davomida otash irmog'ini kechib o'tgach, gunohlardan poklanib, Axura Mazda yurti – Adolat o'lkasiga kiradilar. Bu o'lkada inson o'zining axloqi va yaxshi amallari, xatti-harakatlari bilan yaxshilik tarafdori ekanligini isbotlashi kerak. Inson o'z hayot yo'lini tanlar ekan, o'z zimmasiga olgan majburiyatni bajarishga javobgar sanaladi. «Got'larda Axura Mazdaning erdagi yordamchisi hisoblangan chorvadorlarning dunyoqarashlari ifodalangan. Yaxshi kishilar yuksak axloqiy xislatlarga ega bo'lsalar, yovuz kishilar yomon xislatlarning egasidir. Zardushtiylikda yaxshilik va yomonlik tushunchalari orqali er yuzida mavjud bo'lgan yaxshilik va yomonlik dunyosining mohiyati ochib beriladi.

Taqvodor chorvador odil va oqil bo'lib, atrofdagilarning hurmatlariga sazovor bo'lsa, katta podaning egasiga aylanadi. Chorvadorlarning nazarida, ko'chmanchilar ularning dushmanlaridir. Chunki ular odamlarni talaydi, molini haydab ketadi. Asarda ko'chmanchilar axloqsiz maxluqlarga qiyoslanadilar. Ular azob-uqubatlarga loyiq, zero, serhosil yaylovlarni yakson etadilar, yaxshilik homiylariga hujum qiladilar.

Bildirilayotgan fikrlardan anglashiniladiki, zardushtiylik dinining g'oyalariga ko'ra, shaxsning axloqiy xislatlarga ega bo'lishi Adolat o'lkasini qaror toptirishda tayanch omil bo'lib xizmat qiladi. Zardushtning asosiy yo'riqlaridan biri ham Axura Mazdaning ko'makchisi sanalgan inson sahovatli bo'lishi kerak, degan aqidadir. Garchi, zardushtiylikda diniy rasm-rusumlarga rioya etish, Zardusht tomonidan ilgari surilgan barcha axloqiy yo'l-yo'riqlarni bajarish har bir kishining muqaddas burchi ekanligi e'tirof etilishi bilan birga, dunyoviy ishlar va ularning mohiyati ham ochib beriladi.

Zardusht Axura Mazdadan dunyoda shodlik va baxt makoni, eng sevimli joy qaerda ekanini so'raganda, u shunday javob beradi: baxt makoni shunday joyki, kishilar u erda uy-joy quradilar, otashkada(ibodatxona)lar barpo etadilar, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib, bola-chaqali bo'ladilar; men har ikkala qo'li bilan mehnat qiluvchi kishini qo'llayman, uning ishiga baror, hosiliga baraka bag'ishlayman, deydi. Bunda mehnat, dehqonchilik yovuz kuchlarga qarshi kurash, yaxshilik manbai, tayanchi, deb ko'rsatiladi.

Zero, zardushtiylikda axloqiylikning asosi, sahovatlilik belgisi – mehnat, deb ko'rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligi ta'kidlanadi. Ayniqsa, dehqonchilik sohasida qilinayotgan mehnat yaxshilikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omil deya ta'kidlanadi. Dehqonchilik bilan shug'ullanish, mo'l-ko'l hosil etishtirishga qaratilgan harakat Axura Mazda qonuniga bo'ysunish sanalgan. Don ekkan kishi taqvodorlik urug'ini ekishi, Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini ilgari surishi, imonni oziqlantirib turishi o'n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng deyiladi. «G'alla erdan unib chiqqanda, devlar larzaga keladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g'alla yanchib, un qilinayotganda ular qocha boshlaydi, xamir qilinganda esa devlar mahv bo'ladi. G'allaning mo'l-ko'l bo'lishi devlarning labiga qizitilgan temir bosilgandek ularni tum-taraqay qiladi».

Ushbu misollarda «Ovisto»da inson mehnati tufayli barcha yomon xislat, yomonlik hamda yovuzliklardan qutilishi mumkin, degan g'oya ilgari suriladi.

Samoviy dunyoda ham uchlik hukmronlik qiladi: Axura Mazda – Oliy tangri, ya'ni «Qodir iloh» – o't, alanga ruhiga, Asha (Arta) – Vazishta – «Eng yaxshi tartibot»ga (kohinlik va katta kohinning samoviy obrazi), chorva ruhi – Voxu Mana, ya'ni «Sahovatli fikr»ga (o'troq chorvadorlar va ularning boshliqlari jamoasining samoviy obrazi) tayanadi. Ana shu uchlik fikr, so'z va ish birligidan iborat axloqiy uchlikni ham o'zaro bo'lishib olishgan.

O'sha davrda jamiyatda bosh hokim (lashkar boshlig'i) katta kohin (kohinlar ijtimoiy guruhining boshlig'i) yoki urug' oqsoqollariga, o'troq chorvador va dehqonlarning jamoalari hamda xonadonlariga tayangan. «Ovisto» asarining hajman eng katta qismi – «Yasna»larda inson kamolotini belgilovchi axloq-odob mezonini uchlik – Humata (manbalarda Gumata, Humata) – yaxshi fikr, Hukta (manbalarda Gukta, Hukta) – yaxshi so'z va Hvarsha (manbalarda Gvarsha, Hvarsha) – yaxshi ishlar birligida ifodalanadi. «Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman» («Yasna», 14-bob), deyiladi asarda.

«Ovisto»da inson fikri, so'zlari va ishlariga ikki qarama-qarshi kuch: Voxu Mana (Ezgu fikr) va Ako Mana (yovuz fikr) ta'sir ko'rsatadi, deydi. Barcha fikr, so'z va ishlar asosida aslida ezgulik va yovuzlik mavjud («Yasna», 30-bob). Asta-sekin axloqiy tushunchalar shaxsiy mazmun kasb eta boshlaydi. Masalan, «Yaxshi so'zlar» deganda ahdida turish va berilgan va'dani bajarish kabilar nazarda tutilsa, «Yaxshi amallar» deganda esa, savdo-sotiq ishlarida halol bo'lish, qarzni vaqtida to'lash, o'g'rilik va talonchilik qilmaslik, o'zgalarning moliga ko'z olaytirmaslik, buzuqliklardan o'zini tiyish, atrofdagilarga ziyon etkazadigan har qanday harakatni sodir etmaslik va hokazolar tushunilgan.

Zardusht yovuzlik kuchlariga ko'maklashgan kishilarga nisbatan ayovsiz munosabatda, chorvachilik rivojiga xalal beruvchi yolg'on ixlosmandlariga qarshi kurashda esa shafqatsiz bo'ladi. «Kimki menga sodiq bo'lsa, eng yaxshi narsaga musharraf bo'ladi, kimki sodiq bo'lmasa, unga eng yomon narsa nasib etadi... Kimki meni – Zardushtni quvvatlasa, buning evaziga istagan barcha narsalari bilan birgalikda bir juft sog'in sigir ham oladi» («Yasna», 46-bob), deyiladi asarda.

«Yaxshi fikr» iborasining mazmuni o'zida ilohiy qonun ruhidagi g'oyalarga ega bo'lish, yaqin kishisiga nisbatan mehribonlik ko'rsatish, muhtojlarga ko'maklashish, yovuzlikka qarshi kurashga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati yo'lida harakat qilish, ahillik, qabiladoshlar bilan birga do'stlik va totuvlikda yashashga intilish ruhidagi niyat va fikrlar musaffoligini aks ettiradi. Inson fikran ham boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi, jaholatlarga berilmaydi. Zero, bunday ruhiy holatda inson yaxshilik haqida o'ylamaydi, burch va adolat haqida unutadi va nojo'ya harakatlar qiladi.

«Ovisto»dagi uchlikning haqiqiy manbalariga yondashiladigan bo'lsa, ular qadimgi zamon kishilarining axloqiy tasavvurlariga batamom muvofiq bo'lib tushadi. Fikr, so'z va ishning birligi ibtidoiy insonning ham ajralmas xislati edi. Uning ong, axloq va boshqalar xususidagi tasavvurlari o'zi mansub bo'lgan jamoa bilan uzviy bog'langan. Jamoa-

ning fikri uning ham fikri, jamoaning soʻzlari uning ham soʻzlari, jamoaning ishlari uning ham ishlari boʻlgan. Ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarining uygʻunligi – urugʻchilik jamiyatining muhim belgisidir. Jamoaning har qanday topshirigʻini bajarish uning aʼzolari uchun muqaddas qonun edi.

Zardushtiylik ilohining etmish ikki nomi borligi maʼlum. Yuqorida taʼkidlanganidek, Zardusht butun hayoti davomida ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amaldan iborat uchlik gʻoyasini ilgari suradi va ushbu gʻoyaga avvalo uning oʻzi amal qiladi. Inson oʻlimidan soʻng marhumning faoliyati ustidan oʻtkazilgan hisob-kitob vaqtida Haqiqat ilohi u tomonidan sodir etilgan ezgu va yovuz amallarni maxsus tarozida oʻlchaydi.

Tarozining bir pallasiga ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal — xayrli ishlar, boshqa pallasiga esa – yovuzlik va yomonlikka asoslangan xatti-harakatlar qoʻyiladi. Ezgu amallar salmogʻi ogʻirlik qilsa, marhum ruhi yuqoriga uchadi va jannatga tushadi, yovuz va yomon harakatlar qoʻyilgan palla ogʻirlik qilsa, chohga tushadi.

Axura Mazda – Oliy tangri elchisi sifatida «Xurmuzd yasht»da shunday taʼriflanadi:

*Mening nomim – soʻrovchidir,
Vafodor Zardusht.
Ikkilamchi ismim – matlub;
Uchinchisi qudrat,
Toʻrtinchisi – haqiqatdir.
Beshinchisi – barcha ezgulik,
Mazda bilan boshlanguvchi bor haqiqatlar.
Oltinchisi – aql erur,
Ettinchi – men aqlidurman;
Sakkizinchi – taʼlimotchiman men;
Toʻqqizinchi – men muallimman;
Oʻninchi – men avliyodurman;
Oʻn birinchi – muqaddasman men;
Oʻn ikkinchi – men Axuraman;
Oʻn uchinchi – qudratlidurman;
Oʻn toʻrtinchi – yovuz emasman.
Oʻn beshinchi – men tolibdurman;
Oʻn oltinchi – hisobchisi barcha narsaning.
Har narsani koʻrguvchiman – oʻn ettinchisi;
Asraguvchi ham oʻzimman – oʻn sakkizinchi;
Yaratguvchi mening oʻzim – oʻn toʻqqizinchi;
Yigirmanchi – men Mazdaman.*

«Ovisto» ta'limotida jismoniy va ma'naviy dunyo uch hayotiy davrga bo'linadi.

Birinchi davr eng qadimgi davr sanalib, u ilk hayotni bildiradi. Bunda ham jismoniy, ham ma'naviy dunyoda yaxshilik tantana qiladi. Dunyoda yorug'lik va insoniy saodat hukmron bo'lgan. Yagona jinoyatchi – hokim Yima Viviaxvant bo'lib, u kishilarni batamom rozi qilmoq uchun ularga mol go'shti ediradi.

Ikkinchi davr hozirgi davr bo'lib, bu davrda yaxshilik ruhlari bilan yomonlik ruhlari o'rtasida kurash davom etadi.

Uchinchi davr – bo'lg'usi hayot. Bu davrda aql-idrok va adolat tantanasi o'rnatiladi. Bo'lg'usi yaxshi hayotni Artu o'rnatib, dehqonlar badavlat, hokimiyat esa mustahkam bo'ladi, deyiladi. «Yaxshilik ta'limni va sadoqatni amalga oshirib yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan ta'limni amalga oshirsinlar».

Zarushtiylik ta'limotida 15 yosh balog'at yoshi sanalgan. O'smir balog'at yoshiga etganda unga Zardusht qonunlari – falsafa, axloq-odob qoidalari va axloqiy yo'riqlar mazmuni o'rgatilgan. O'smirlarning xudojo'y, mehnatkash, adolatli bo'lib voyaga etishishlari, o'y-niyat, so'z va ishida halollikka tayanishlariga alohida e'tibor berilgan. Bolalarga ularning yoshligidayoq ko'chat o'tqazish, daraxtlarni parvarish qilish, uy-ro'zg'or buyumlarini yasash, erga ishlov berish hamda chorva mollarini boqish borasidagi bilimlar berilib, amaliy ko'nikmalarning hosil bo'lishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Zardushtiylik ta'limotining axloqiy yo'riqlariga binoan inson tomonidan o'z burchini his etishning eng birinchi belgisi ma'naviy poklik sanalgan.

Ayollarga g'amxo'rlik ko'rsatish ijtimoiy zarurat hisoblangan. Ayniqsa, homilador ayollarga muruvvat ko'rsatish asosiy insoniy burch sanalgan. Diniy g'oyalarga ko'ra, tuproq, suv, havo hamda quyosh muqaddasdir. Odamlar ularni e'zozlash, quyoshga sajda qilishga da'vat etiladi. Zardusht ta'limotida shaxsiy va turmush gigienasiga qat'iy amal qilish kishilar o'rtasida turli xil kasalliklar kelib chiqishining oldini oluvchi tadbir ekanligi alohida uqtiriladi. Shu o'rinda quyidagi qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiqligiga urg'u beriladi: qabristonlarning shahar yoki qishloqdan tashqarida bo'lishiga alohida e'tibor qaratish, hayvonlarning qabrlarni oyoqosti qilmasliklari uchun qabristonlarning atrofini o'rab qo'yish, mayit (o'lik)ni yuvish vaqtida ozodalikka rioya qilish, murda tekkan libos yoki murda qo'yilgan joyni suv yordamida yuvib tashlash, turli jonzotlarning o'ligi (inson murdasi) tushgan suv havzalarini bir necha

bor qatron qilish (havzani yomg'ir yoki daryo suviga bir necha bor to'ldirib, suvni havzadan chiqarib tashlash), badan va sochning toza bo'lishiga ahamiyat berish, tirnoqlarni vaqti-vaqti bilan olib turish, kuniga besh marta yuvinish va hokazolar.

Zardusht g'oyalarining amaliy ahamiyati shundaki, ularda turli kasalliklarning oldini olish hamda atrof-muhit musaffoligini ta'minlovchi usullar to'g'risida ham ma'lumotlar beriladi. Bu boradagi usullar quyidagi uch guruhdan iboratdir: 1) axlatni berkitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh yoki kul bilan ko'mib tashlash; 2) olov yordamida, issiq yoki sovuq havo vositasida mikroblarni yo'q qilish; 3) kimyoviy usul (kul, sirka, sharob, turli giyohlar – sandal va isiriq tutatish, sabur(aloe), piyoz, sarimsoq, qizil qalampir va hokazolarni iste'mol qilib mikroblarni yo'qotilgan – yuqumli kasalliklarga barham berilgan). Ta'limot mazmuniga ko'ra kasallik tarqatuvchi ayrim hashoratlarning o'ldirishi evaziga suvni saqlash qoidalarini buzgan yoki itni o'ldirgan kishilarning gunohi kechirilgan. Bu o'rinda alohida me'yor belgilangan, ya'ni yuqorida qayd etilgan gunohni sodir etgan kishi 1000 ta echkiemar, 1000 ta suv qo'ng'izi, yoki kasallik tarqatuvchi pashshani o'ldirishi yoki 10 000 ruhiyatni tetiklashtiruvchi o'simlik bargi, barsum berishi lozim bo'lgan. Bizga yaxshi ma'lumki, mikroba va yuqumli kasalliklar suv, havo va tuproq vositasida tez tarqaladi va keng hududga yoyiladi, shu bois «Ovisto» g'oyalariga ko'ra, ularni asrash, ulardan foydalanishga nisbatan oqilona munosabatni qaror toptirish o'ta muhim sanalgan. Ularni asrash qoidalarini buzgan kishilar 400 qamchi urish bilan jazolanganlar.

Zardushtiylik ta'limotida ovqatlanish qoidalari xususida ham batafsil so'z yuritilib, ularga qat'iy rioya etish lozimligi alohida ta'kidlanadi.

Darhaqiqat, inson ovqatlanmasa fuqarolik, xizmat va axloqiy burchni ham bajara olmaydi. Insonning ma'naviy hayoti uning moddiy turmush tarzi bilan aloqador ekanligi asarda alohida qayd etilgan. Xususan, «Yasna»larda «Eb-ichmaydigan insonning toat-ibodat qilishga quvvati etmaydi», – deyiladi.

Zardushtiylikda kishini holdan toydiradi degan fikrga ko'ra, ro'za tutish man etilgan. Inson holdan toysa, o'z zimmasiga yuklangan vazifani bajara olmaydi, ya'ni Axura Mazdaga yordam bera olmaydi. Bu esa, yovuz kuchlarning ezgulik kuchlari ustidan g'alaba qilishiga sharoit yaratib beradi, deyiladi kitobda. Och qolish va yaxshi ovqatlanmaslikning inson xulqining shakllanishiga ham ta'sir etishi quyidagicha ta'kidlanadi: «Oziq-ovqat yaxshilanishi bilan xalqning axloq-odobi ham kuchayadi. Non mo'l-ko'l bo'lsa, axloqiy so'zlar, ilohiy fikrlar yaxshiroq idrok qilinadi».

Zardushtiylikda may iste'mol qilish ta'qiqlanmagan. Mayni me'yorida iste'mol qilish kishi organizmini mustahkamlaydi, ya'ni ovqat yaxshi hazm bo'ladi, qon yaxshi yurishadi, kishi yaxshi uxlaydi, bu holatlar esa uning unumli ravishda aqliy mehnat qilishiga yordam beradi, kishilar o'rtasida do'stona munosabatlarning qaror topishiga ko'maklashadi, axloqi yomon kishilar bilan axloqi yaxshi kishilarni bir-biridan ajratib olishiga yordam berishi qayd etib o'tiladi.

Zardushtiylikda dunyo noz-ne'matlaridan voz kechish talab etilmaydi, balki noz-ne'matlarni me'yorida iste'mol qilish, ularning mazasidan lazzat olish, inson hayotining «Yaxshi kun ko'rish uchun zarur narsalar mo'l-ko'lchiligida» xushchaqchaqlik va baxtiyorlik bilan o'tkazishi lozimligi to'g'risidagi fikrlar ilgari suriladi.

«Ard yasht»ning 17-bobi baxt muammosiga bag'ishlanib, unda moddiy farovonlikka erishish birinchi o'ringa qo'yiladi. Axloqan mukammal bo'lgan insonning baxt-saodatga erishishi muqarrar ekanligi ta'kidlanadi. Insonning baxt-saodatga ega ekanligini ko'rsatuvchi omillar sifatida quyidagi holatlar keltiriladi: uning sog'-salomatligi, uzoq umr ko'rganligi, sevimli xotini va bolalarining borligi, oziq-ovqatining mo'l-ko'lligi. Ularning uy-joylari shinam, chorvasi mo'l, uzoq-uzoq vaqtlargacha mo'l-ko'lchilikda yashaydilar.

Biroq baxt-saodatga erishish uchun mehnat qilish lozim. Shu bois, baxtga erishishning yagona va ishonchli yo'li mehnat qilish ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi: «Chorvadorlar to'q bo'lishi uchun chorvani muttasil parvarish qilmoq lozim».

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, oila muqaddas hisoblangan. Oila qurish ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan. Erkak kishi zurriyot qoldirish layoqatiga ega bo'lgan holda oila qurmasa, unga muayyan jazo berilgan. U qopga solib kaltaklangan, peshonasiga tamg'a bosilgan yoki beliga zanjir bog'lab yurishga majbur etilgan. Ko'p bolali oilalarning davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlashi yo'lga qo'yilgan. Egizak yoki bir yo'la uchta farzand ko'rgan ayollarning maxsus ravishda taqdirlanishlari e'tirof etilgan. Zardusht g'oyalariga ko'ra, naslning sog'lom bo'lishi, qavm qonini toza saqlash, turli irsiy kasalliklar kelib chiqishining oldini olish maqsadida yaqin qarindoshlarning o'zaro oila qurishi man etilgan.

«Ovisto»da inson omili, uning salomatligini ta'minlash masalasi alohida bayon etilgan. Bugungi kunda xalq tabobatida qo'llanilib kelayotgan va kishilar salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etgan ayrim usullar xususida ma'lumotlar beriladi. Bildirilgan fikrlar mazmuniga ko'ra mavjud kasalliklarni davolashda dorivor o'simlik(giyoh)lar yordamida tayyorlangan vositalardan samarali foydalanilgani ma'lum bo'ladi. Ana shunday dorivor vositalar sirasida kunjut, ko'knori, zira,

piyoz, savsan, turp, xurmo, sabzi, behi, asal, zaytun moyi, shakar, shira hamda sedananing nomi qayd etiladi. Ayrim kasalliklarni bartaraf etishda dorivor o'simliklarning ildizi, poyasi, bargi, guli, mevasi va urug'laridan tayyorlangan qaynatmalarning foydasi katta ekanligi ta'kidlanadi.

Xulosa qilib aytganda, «Ovisto» asarida insonning barkamol bo'lib etishishida uning so'zi, fikri hamda ishi ezgu bo'lishi va ezgulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga katta e'tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g'oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqi-yotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma'rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo'lgan. Zero, unda insonning inson sifatida ma'naviy va moddiy jihatdan kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida nafaqat Sharq, balki G'arb xalqlarining ham muhim ma'naviy merosi bo'lib qoldi. Asarda ifoda etilayotgan masalalarning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olganligi Zardusht g'oyalarining nazariy va amaliy ahamiyatini oshirib, uning qimmatini bugungi kunda ham yuqori bo'lishiga olib kelgan.

Qadimgi turkiy xalqlar yodgorliklarida tarbiyaga doir fikrlar

Turkiy xalqlarning yozma ma'rifiy yodgorliklari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, pedagogika tarixi, xususan, yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bular «Urxun-Enasoy yodgorliklari», «Irq bitigi» («Ta'birnoma») kabi manbalar bo'lib, ulardan yangi davr kishisini tarbiyalashda foydalanish muhim vazifalardan sanaladi.

Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turkiy-run yozuvida bitilgan Urxun-Enasoy bitiklarini «toshlarga bitilgan kitoblar» ham deb ataydilar. O'ziga xos xat(yozuv)da bitilgan bu bitiklar eramizning VII–VIII asrlarida yozib qoldirilgan. Toshlarga bitilgan mazkur yodgorliklar ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Urxun-Enasoy yodgorliklari dastlab Enasoy havzasida, so'ngra Mo'g'ulistonning Urxun daryosi bo'yida topilib, ushbu yozuvlarni 1893 -yili birinchi bo'lib daniyalik olim Vilgelm Tomson o'qigan. V.Tomsondan so'ng olimlar – N.M.Yadrinsev, V.V.Radlov mazkur manbalarni izlab topib, o'qishga muvaffaq bo'ldilar.

Urxun-Enasoy yodgorliklari S.E.Malov hamda I.V.Stebleva tomonidan rus tiliga tarjima qilindi. O'zbekistonda Oybek, O.Sharafuddinov, N.Mallaev, Aziz Qayumov va N.Rahmonov Urxun-Enasoy bitiklari ustida tadqiqot ishlarini olib bordilar va ushbu manbaning ta'lim-tarbiya ishlarini yo'lga qo'yishdagi ahamiyatini yoritib berdilar.

Ma'lumki, eramizning VI asri o'rtalariga kelib, Oltoy, Ettisuv va Markaziy Osiyo hududlarida yashovchi turkiy qabilalarning Turk xoqonligi davlati tarkib topdi. Bu xoqonlik G'arbda Vizantiya, Janubdan Eron va Hindiston, Sharqdan Xitoy bilan chegaradosh bo'lgan. Turk xoqonligi Turkyut davlati deb ham atalgan. Xoqonlik 604 -yili Sharqiy va G'arbiy xoqonlikka ajralgan. Eramizning 745 -yiliga kelib esa Turk xoqonligi barham topgan.

Turk xoqonligi asosan uch kishi: Bilga xoqon (Mog'uliyon), Kultegin, Tunyukuklar tomonidan boshqarilgan. Bilga xoqon – xoqon, Kultegin – sarkarda, Tunyuquq esa – vazir bo'lib, ularning hamkorligida boshqarilgan davlat ushbu davrda ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan.

Bitiktoshlarda turk xoqonlarining yurishlari, yurishlar davrida alp kishilar, sarkardalar ko'rsatgan jasoratlar, ularning bilimli, mard, xalqparvar ekanliklari bayon etiladi. O'z vatanining mustaqilligi uchun kurashish, xalqni asoratdan olib chiqish, ularning birdamligini ta'minlash xoqonlar Bo'min, Istami, Eltarish, Eltarishning o'g'illari – Bilga xoqon, lashkarboshi Kultegin, ma'naviy otalari Tunyuquqlarning zimmasiga tushgani hikoya qilinadi. Masalan, Kultegin bitigida uning ta'rifi berilgan. Kultegin xalqparvar, tadbirkor, xalqning kelgusi taqdirini ham o'ylaydigan jonkuyar sarkarda sifatida ta'riflanadi. U o'z jonidan vatan taqdiri, xalq manfaatini yuqori qo'ygan shaxs. Kultegin Eltarish xoqonining kichik o'g'li. U 731 -yil 27 fevralda qirq etti yoshida vafot etadi. Bitiktosh 732 -yili o'rnatilgan. Ushbu bitiktoshda barcha voqealar Kulteginning akasi Bilga xoqon tilidan hikoya qilinadi.

Kultegin bitigida Bilga xoqonning og'a-inilari va qarindosh-urug'lari-ga murojaat qilib, ularning xatolari tufayli turk elida ko'p falokatlar yuz berganini bayon etganligi ifodalanadi. Turkiylarning harbiy yurishlari, ularga qo'shni bo'lgan tabg'achlarning bosqinchiligi tufayli xalq boshiga tushgan kulfatlar haqida so'z yuritiladi.

Xoqon tomonidan xalqqa qilingan murojaatda turkiy xalqlarni hokimiyatni mustahkamlash, o'zaro urushlarga chek qo'yish, tinch-totuv bo'lib yashashga undashdek ezgu maqsad ham ifadalgan.

Kultegin esa, dono, bahodir, jasur inson sifatida tasvirlanadi.

Kultegin bitigida Bilga xoqon eng muhim insoniy xislatlar, hayotiy zaruriyatlar borasidagi fikrlarni nasihat, o'git tarzida bayon etadi.

Turk xalqi o'zaro birlashmagani, bir-birlariga ishonmaganliklari uchun hiyla va firib qurboni bo'lib, tabg'achlar ularni qul va cho'ri etgani, oqibatda ular qashshoq, erksiz va mute bo'lib qolganliklarini kuyunib so'zlaydi.

So'ng turk xalqini qanday qilib birlashtirgani, ukasi Kulteginning jasorati tufayli el bosqinchilar hujumidan omon qolgani, to'q va farovon hayot kechirgani, u jasur va engilmas alp yigitlardan ekani bayon etiladi.

«Tangri yarlaqasin, baxtim bor uchun, nasibam bor uchun o'layotgan xalqni tiriltirib tarbiyat qildim, yalang'och xalqni kiyimlik qildim, yalang'och xalqni ko'p qildim. To'rt jihatdan xalqni butunlay el qildim, bir-biriga do'st qildim, butunlay menga qaradi. Mehnatni, kuchni beruvchi shunday hokimiyatni qozonib inim Kultegin vafot etdi», – deydi.

Bu yodnoma yoshlarni o'z elini sevish, do'st va ittifoq bo'lib yashash, vatan va xalq manfaati uchun kurashga tayyor turish ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Turk xoqonlari Bilga xoqon hamda Kul tegin jasoratlari haqiqiy vatanparvarlik hamda jasoratning ibrat namunasi bo'lib hisoblanadi.

Ikkinchi bitiktosh – Bilga xoqon bitigidir. Bu bitiktosh Eltarish xoqonining katta o'g'li – Kulteginning akasi Bilga xoqon sharafiga 735 -yili o'rnatilgan. Bilga xoqon 734 -yili ellik yoshida o'z yaqinlari tomonidan zaharlab o'ldirilgan. Bu bitig ham Yo'llig' tegin tomonidan yozilgan.

Bilga xoqon bitigida xalqning tinch-totuv yashagani, Bilga xoqon davrida tinchlik hukmron bo'lgani, u davlatni adolat bilan boshqargani, turkiy xalqlarni birlashtirgani, o'z yurtini boy- badavlat etib, iqtisodiy jihatdan mustahkamlagani mahorat bilan tasvirlangan. Bu bitigda xalq xoqonidan, vatanidan ayrilmasa, betashvish hayot kechirishi ifodalanadi. O'z navbatida davlat boshliqlarining xatti-harakatlari bayon etiladi. Keyin Bilga xoqon yurishlari haqida hikoya qilinadi.

Bilga xoqon turk eli o'rtasida elparvar xoqon deb tanilgan edi. «Bilga» so'zining o'zi ham «dono» degan ma'noni anglatadi. U turk xalqining vatani abadiy bo'lishi uchun kurashadi. Xalqqa qarata shunday o'git qiladi: «Vatanni saqlab qolmoq, faqat xoqonga emas, xalqqa ham bog'liq. Ajdodlarimizning xato va yutuqlari buning dalilidir. Xalq o'z xoqonining yo'l-yo'riqlarini amalga oshirmasa, boshiga ko'p kulfatlar tushadi. Xoqon o'ta ishonuvchan bo'lmasligi, boshqalarning gapini o'ylab, mulohaza qilib amalga oshirishi lozim. Samimiy so'z bilan yolg'onni farqlay olishi kerak. qattiqqo'l xoqon o'z xalqiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Ishonuvchan bo'lsa, yaxshi-yomonni ajrata olmasa, fojiaga yo'l ochiladi, mamlakatda tartibsizlik yuzaga keladi».

Bilga xoqon tarqoq xalqni birlashtirdi, oyoqqa turg'izadi, yurtda farovon hayot qaror topadi. U xalq farovonligini ta'minlash davlat boshlig'ining burchi, mamlakatning ozodligi, xalqning osoyishtaligi uning moddiy farovonligiga bog'liq deb biladi. Bitiklarda yurtboshining boylikka hirs qo'yishi xalqning nochor hayot kechirishiga olib keluvchi sabab ekanligi qayg'u bilan ifodalanadi. U o'z xalqiga shunday murojaat etadi: «Men yashadim, turk beklari, turk xalqim. Bu xoqoningdan, bu beklaringdan,

eringdan, suvingdan ayrilmasang, turk xalqi, o'zing ezgulik ko'rajak-san, betashvish bo'lajaksan».

Tunyuquq bitigi 310 misradan iborat bo'lib, 717–718(ba'zi manbalar-da 712–716-yillar ko'rsatilgan)-yillari yozilganligi qayd etilgan. Tunyuquq o'z bitigini tirikligida yozdirgan. Mazkur bitikda Tunyuquq vatanparvar shaxs sifatida ta'riflangan. Tunyuquq ega bo'lgan insoniy fazilatlar – insonparvarlik, ezgulik va haqiqat tantanasi yo'lida kurashish uning qo'shni xalqlar o'rtasidagi obro'sini yanada oshirib yuboradi. Xususan, Tunyuquq tomonidan turkiy xalqlar qo'liga tushgan asirlarni o'z yurtlariga jo'natib yuborishi dushman qabilalar a'zolarining bosh egib kelishi, ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi kurash chog'ida ezgulikning g'alabaga erishishi kabi holatlar shu asosida qon to'kishning oldini olish mumkinligidan dalolat ekanligiga ishora qilinadi. U adolatsizlik qilmaydi, balki insonparvarlik namunasini ko'rsatadi, ammo xoqonlik qonunlarini ham qattiq himoya qiladi.

Yuqoridagi yozuvlardan tashqari, alplarning jangovarligi madh etilgan bitigtoshlar ham ko'plab topilganki, bularda alplarning axloqi, odobi va bilimi ularning asosiy fazilati bo'lganligi qayd etiladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, Urxun-Enasoy yodgorliklari, garchi yo'nalish nuqtai nazaridan ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlanmagan bo'lsa ham, ularda bayon etilgan fikrlar o'sha davrda amal qilingan axloqiy qoidalar va talablarning mohiyatidan birmuncha xabardor bo'lishga yordam beradi. Xususan, xoqon va alplarning harbiy faoliyati, turkiy xalqlarning turmush tarzi, ularga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar – vatanparvarlik, mardlik, jasorat, samimiylik, insonparvarlik, ezgulik kabi insoniy fazilatlar jamiyatning har bir a'zosining axloqiy qiyofasini belgilovchi muhim mezonlar sifatida ma'rifiy qadriyatlarimiz tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lish bilan birga bizga so'z yuritilayotgan davr xususiyati hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunidan ogoh etadi. Bitiktoshlarda bayon etilgan qarashlar eng yuksak insoniy fazilatlar sifatida e'tirof etilgan xislatlarni zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlodda hosil qilish, ularda vatanparvarlik, mardlik, shijoat, xalq manfaati yo'lida kurashish tuyg'ularini shakllantirishda o'ziga xos yo'llanma, yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi.

Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklardan biri sanalgan «Irq bitigi» («Ta'birnoma») ham Urxun-Enasoy yodgorliklari sirasida ta'lim-tarbiya tarixida o'z o'rniga ega. Mazkur asar turkiy xalqlarning turmushi, axloqiy munosabatlari mazmuni to'g'risida ma'lumotlar beradi. Ijtimoiy

munosabatlar mohiyati asosan qushlar va hayvonlar obrazlari orqali ochiladi.

«Irq bitigi»da eng qadimgi ajdodlarimizning mifologik hamda totemistik qarashlari xalq og'zaki ijodi namunalari tarzida o'z aksini topgan. An'anaga ko'ra, har bir epizodda yaxshilik g'oyalari targ'ib etiladi.

Inson doimo yaxshi hayot kechirishga intilar ekan, bu yo'lda u juda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi. Lekin inson qiyinchiliklarni ilohiy qudrat – Tangri yordamida engib o'tib, go'zal hayotga etishadi. Ana shu holat ham ta'birlanishda o'z aksini topgan.

Ammo yaxshilik bor joyda yomonlik ham mavjud bo'ladi. Ayrim tushlarga nisbatan berilayotgan ta'birlarda yomon hodisa-voqealar negizida yomonlikning mavjudligiga alohida urg'u beriladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqi tomonidan eng qadimgi davrlardan eramizning IX asrigacha qaror topgan ma'rifiy qarashlari inson shaxsining shakllanishida, uning kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda turkiy xalqlarning inson xulq-odobi va uni tarbiyalashga oid dastlabki tasavvurlari ifodalangan.

Xalq og'zaki ijodi namunalari jasurlik, mardlik, sadoqat, insoniylik, xushxulqlilik xislatlariga ega bo'lgan inson qiyofasi gavdalangan. Ibtidoiy turmush tarzi hamda odamlar o'rtasidagi munosabatlar mazmuni insonlarda ana shunday sifatlarning shakllanishini taqozo etgan. Ikki katta kuch – yaxshilik va yomonlik o'rtasida ayovsiz kurash borgan. Mazkur kurash jarayonida insonda eng yaxshi xislatlar shakllanib borgan. Bilimlilik, xushxulqlilik, muayyan kasb yoki hunarga ega bo'lish inson kamolotini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar hisoblangan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o'ziga xosligi nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Qadimgi yozuvlar va ularning kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Xalq og'zaki ijodida insondagi qaysi xislatlar ulug'langan?
4. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» asaridagi o'gitlardan misollar keltiring.
5. «Ovisto»dagi axloqiy uchlik jadvalini tuzing.
6. Qadimgi turkiy bitiglarida ulug'langan xislatlarni yozib chiqing va mazmunini izohlang.

II BOB. VII–XIV ASRLARDA MAKTAB, TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTI

Islom dini g'oyalarining ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablarida ta'lim-tarbiya

VII asr birinchi yarmida Islom g'oyasiga asoslangan Arab xalifaligi tashkil topib, bu davlat o'z mavqeini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni zabt eta boshladi. Butun Arabiston yarimoroli, Eron, Suriya, Janubiy Ispaniya, Kavkaz hamda Shimoliy Afrikada joylashgan bir qancha mamlakatlar xalifalik tarkibiga kiritildi.

Arab istilochilarining Movarounnahrğa bo'lgan birinchi yurishi 651 -yili Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida amalga oshirildi. 676 -yili esa, Said ibn Usmon rahbarligida Buxoro, Samarqand, Kesh hamda Nasaf kabi shaharlar bosib olindi.

Ikkinchi yurish esa, 705 -yili Xuroson hokimi Qutayba ibn Muslim boshchiligida sodir bo'ldi. Bu yurish nihoyatda keskin tusga ega bo'ldi. Qutayba ibn Muslim 706 -yili Zarafshon vodiysiga yurish boshlab, oqibatda Poykend, Buxoro, Samarqand, So'g'd, Farg'ona va boshqa joylarni qo'lga kiritdi. Keyinchalik esa Xorazm zabt etildi. Qutayba ibn Muslimning Movarounnahrğa uyushtirgan yurishi 715 -yili uning Farg'onada qo'zg'olonchi arab jangchilari tomonidan o'ldirilishi bilan to'xtadi.

Arab istilochilari VIII asrning o'rtalariga kelib Movarounnahrni to'la zabt etishga erishdilar.

Arablar tomonidan bosib olingan erlarda xalqlar Islom dinini qabul qilishga majbur etildi. Arab istilochilarining Movarounnahr xalqining Islom dinini qabul qilish jarayoni qiyin kechgan va bu jarayon bir necha yillar davomida amalga oshirilgan. Chunki Movarounnahr yurti arab istilosiga qadar ham ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan taraqqiy etgan bo'lib, bu mamlakatda yashovchi xalqlar turmush tarziga ko'ra ham arablarga nisbatan bir qadar ustunlikka ega edilar. Zero, mazkur hududda yashovchi xalqlarning aksariyati o'troq xalqlar bo'lib, turg'un holda dehqonchilik bilan shug'ullanar edilar. Shu bois ular tezda arab istilochilariga bo'ysuna qolmadilar. Aholining istilochilarga bo'ysunishni istamaganligining asosiy sabablaridan biri ular tomonidan ko'rsatil-

gan istibdod ekanligi bilan birga, bosqinchilarning mahalliy xalqning -yillar daomida tarkib topgan ma'naviy-madaniy merosi – san'ati, adabiyoti, yozuvi, osori-atiqalari hamda me'moriy yodgorliklarini poymol etishga qaratilgan harakat olib borganliklar ham bo'ldi. Shu bois arab istilochilari xalqni o'zlariga bo'ysundirish va ular tomonidan Islom dinini qabul qilinishiga erishish maqsadida harbiylar hamda Islom dini targ'ibotchilarining xizmatidan birdek foydalandilar. Natijada o'z oldilariga qo'ygan asosiy maqsadga erishdilar. Movarounnahrda Islom ta'limoti g'oyalari yoyilgunga qadar bu erda yashovchi xalqlar ko'psonli xudolarga, quyoshga, ko'k din(shaman)ga hamda o'zlari muqaddas deb bilgan narsalarga sig'inishar edi. Shunga ko'ra, o'lkada yagona bir g'oyaviy e'tiqod tarkib topmagan bo'lib, bu holat aksariyat vaziyatlarda turli elatlar o'rtasida kelishmovchiliklarni keltirib chiqarar va o'zaro janjallarga sabab bo'lar edi. Movarounnahrda Islom ta'limoti g'oyalarining yoyilishi, kishilar tomonidan shariat qoidalari, Islom dini aqidalariga bo'ysunish, yagona va qudratli Ollohga sig'inish, Ollohning erdagi rasuli (elchisi) bo'lgan Muhammad alayhis-salom ko'rsatmalariga rioya etish xalqning ongiga chuqur singib, ular tomonidan mazkur din asoslarining qabul qilinishiga zamin hozirladi. Natijada Movarounnahrda islomiy qadriyatlar tarkib topa boshladi.

Arablar o'lkada Islom dini g'oyalarini yoyishda turli usullardan foydalandilar. Ana shunday usullardan biri mazkur dinga e'tiqod qilgan kishilarning jon solig'idan ozod etilishi bo'ldi. Movarounnahr xalqlari o'rtasida Islom ta'limoti asoslarini yoyishda arab istilochilari tomonidan amalga oshirilgan xatti-harakatlarning mohiyati xususida tarixchi Muhammad Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» nomli kitobida quyidagi fikrlarni bayon etadi: «Buxoro aholisi har safar (Islom lashkari kelganda) musulmon bo'lar, arablar qaytib ketganida esa ular yana dindan qaytar edilar. Qutayba ibn Muslim ularni uch marta musulmon qilgan, ular esa yana dindan qaytib, yana kofir bo'lgan edilar. U to'rtinchi marta (kelganida) jang qilib, Buxoro shahrini oldi, ko'p qiyinchiliklardan keyin (bu erda) Islom dinini yuzaga chiqardi va har turli yo'llar bilan ularga qiyinchiliklar tug'dirib, dillariga musulmonchilikni o'rnashtirdi. Ular esa Islom dinini yuzakigina qabul etib, haqiqatda butparastlik qilar edilar. Qutayba arablar buxoroliklar bilan birga turib, ularning xatti-harakatlaridan xabardor bo'lib tursalar, ular zaruratdan musulmon bo'ladilar, degan maqsadda Buxoro aholisini o'z uylarining yarmini arablarga berishga undab buyruq chiqarishni to'g'ri deb topdi va shu yo'l bilan u musulmonchilikni o'rnatdi hamda shariat hukmlarini bajarishga majbur qildi. Qutayba masjidlar bino qildi, kofirlik va otashparastlik

asarlarini yo'qotdi. U ko'p jiddu jahd qilib, kimda shariat hukmlarini bajarishda kamchilik sodir bo'lsa, uni jazolar edi. U masjidi jome bino qildi va odamlarga juma namozini o'qishga buyruq berdi».

Istilochilik yurishlari davrida arablar mahalliy xalqning boy madaniy merosini yo'q qildilar. Bu haqda buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi: «Qutayba esa Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va (bilimini) boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) Islom davridan keyin haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi. Keyin: Qutayba ibn Muslim al-Bahiliy xorazmliklarning kotiblarini halok etib, bilimdonlarini o'ldirib, kitob va daftarlarini kuydirgani sababli ular savodsiz qolib, o'z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga suyanadigan bo'ldilar».

Arab xalifalari bosib olingan mamlakatlarda istilochilik siyosatini olib borar ekanlar, tobe xalqlar ustidan madaniy ustunlikka erishishga harakat qildilar. Chunki arab xalqi VII asr boshlarida o'ziga xos madaniyat va adabiy tilga ega bo'lib, notiqlik san'ati hamda she'riyatni yuksak darajada qadrlar edilar. «Qur'on» ham o'ziga xos uslubda bo'lib, mazkur uslub nazmiy xususiyatlarni o'zida namoyon etar edi. Shu bois u o'rta asr arab adabiyotining eng nodir durdonasi sifatida e'tirof etib kelinmoqda. IX asrda yaratilgan «Ming bir kecha» asari ham o'rta asr arab adabiyotiga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida aks ettirgan bo'lib, o'zining mundariyasi va g'oyalarning bayon uslubiga ko'ra jahon adabiyotining eng nodir namunalaridan biri sifatida tan olingan.

Mazkur davrlarda shakllangan yangi arab tili arab xalqlari yashagan hududlarda iste'molda bo'lgan avvalgi tillar negizida shakllanib, takomiliga etdi va madaniy til bo'lib qoldi.

Ulkan hududni qamrab olgan Arab xalifaligi davlatining hukmronligi davrida ijtimoiy hayot, turmush tarzi, ilm-fan va madaniyat yanada rivojlandi. Ushbu davrlarda qadimgi yunon va Rim madaniy merosi negizida bir qancha fanlar yangi tushuncha va bilimlar bilan boyidi. Yunon va Rim mutafakkirlari tomonidan yaratilgan va astronomiya, tibbiyot, kimyo, matematika, geografiyaga oid deyarli barcha yirik asarlar arab tiliga tarjima qilindi.

Yunonlardan esa fanlar tasnifi (klassifikasiya) olinib, fanlar nazariy va amaliy fanlar tarzida ikki guruhga ajratilgan. Birinchi guruhga quyidagi uchta fan kiritilgan: tabiyot to'g'risidagi fanlar, ilohiyot to'g'risidagi fanlar va matematika fani. Ushbu fanlar tarkibidan arifmetika, handasa(geometriya), astronomiya va musiqa fanlari o'rin olgan. Ikkinchi guruhga kiritilgan fanlar qatorida etika, iqtisod va

siyosatga oid fanlar e'tirof etilgan. O'sha davr nuqtai nazaridan birmuncha yuksak taraqqiy etgan hind fani arab madaniyatining umumiy rivoji, xususan, arifmetika, algebra va tibbiyot fanlari asoslarining boyishiga munosib hissa qo'shdi. Sonlarning mohiyatini yoritib beruvchi hind nazariyasi mazmuni bilan yevropaliklar Arab xalifaligi tasarrufiga kiruvchi hududlarda istiqomat qilgan mutafakkirlarning sa'i-harakatlari orqali tanishishga musharraf bo'lganlar. Bu borada ma'lumot beruvchi muhim manba Muhammad al-Xorazmiy tomonidan asoslangan «Al-jabr» («Algebra») asari bo'lib xizmat qildi.

Arablar ulkan hududda xalifalik davlatini barpo etish natijasida geografiya fanining ham taraqqiy etishiga o'z hissalarini qo'shdilar. Mazkur davrda Arab xalifaligining umumiy mulkini aks ettiruvchi dastlabki xaritalar yaratildi. IX asrda yaratilgan ana shunday xaritalarda Arab xalifaligi hududlaridan oqib o'tuvchi daryolar va ularning oqimlari xususidagi ma'lumotlar o'z aksini topgan. Xaritalar yordamida Janubiy Ispaniyadan to Markaziy Osiyo hamda Hind daryosigacha cho'zilgan xalifalik erlari, ularning geografik o'rni, iqlimi hamda tabiiy boyliklari (o'rmon, daryo, tog' va hokazolar) borasidagi qimmatli ma'lumotlardan xabardor bo'lish mumkin edi. Xaritalarda aksariyat o'lkalar arabcha nomlar bilan ko'rsatilgan. Xususan, ajdodlarimiz yashagan hudud «Movarounnahr» («Daryo orti» ma'nosini anglatadi) deb nomlangan.

Islom dini kishilik jamiyatining ibtidoiy davri xususiyatlaridan voqif bo'lish va O'rta asr Uyg'onish davrining ro'y berishi uchun ma'naviy-g'oyaviy poydevor qo'ygan ijtimoiy ehtiyoj sifatida yuzaga chiqdi. Islom ta'limoti o'zining insonparvar g'oyalari va ularni insonlar ongida chuqur singdira olish imkoniyatlari tufayli o'n to'rt asrdan buyon borliqni ong yordamida mafkuraviy tarzda idrok etishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Islom ta'limotining bu qadar ulkan hududga yoyilishi va umuminsoniy qadriyat sifatida e'tirof etilishida Oллоhning rasuli bo'lgan payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salomning o'rni beqiyosdir.

Arablarining Movarounnahrda g'alabasidan so'ng barcha mustamlaka mamlakatlar qatori u erda ham Islom dinining asoslari xususida ma'lumot beruvchi muqaddas kitob – «Qur'on» tili – arab tilini o'rganish joriy etildi. Diniy ulamolarning maxsus ko'rsatmalariga muvofiq muqaddas kitobni boshqa tillarga tarjima qilish ta'qiqlandi. Shu bois musulmon maktablarida asosiy manbaning tili hamda fan sifatida arab tilining o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Mavjud fanlarning asoslari arab tilida o'rganila boshlandi. Arab xalifaligi tasarrufiga olingan barcha mamlakatlarda masjidlar qoshida maxsus maktablar tashkil etildi. Maktablar, keyinchalik bunyod etilgan va maqomi jihatidan hozirgi oliy o'quv yurt-

lariga teng bo'lgan madrasalarda ta'lim va tarbiya ishlari shariat qoidalariga muvofiq yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu o'quv maskanlarida Islom ta'limoti xususida ma'lumotlar beruvchi ilohiyot fanlari bilan birga dunyoviy fanlarning asoslari ham o'qitilgan. Masjidlar qoshida faoliyat yuritgan maktablarda imomlar, madrasalarda esa mudarrislar yoshlarga ta'lim va tarbiya berish bilan shug'ullanganlar.

Bolalarga dastlabki saboq harflarni o'qishdan boshlangan, bu usulda har bir bola alifbe tartibida harfning nomini bilib olishi (*alif, be, te, se, va* h.), so'ngra shu harflarni qo'shib o'qishni mashq qilar edi. Mashq oxiriga etgandan so'ng bolalar qo'lga «Qur'on» berilgan va domla rahbarligida «Qur'on»ning har bir surasi takrorlanib o'rganilgan.

Asta-sekin ota-onalar bolalarni 6-7, hatto 5 yoshidan maktabga bera boshladilar. «Qur'on»ni yod bilgan kishi qori deb atalardi. Qorilar katta hurmatga sazovor edilar.

Bora-bora o'qimishli kishilar, ya'ni domlalar alohida ajralib, o'z xonadonlarida ham maktablar ocha boshladilar. Talabalar maktabdor domlalar maktabida husnixat, og'zaki hisobni o'rganar, asta-sekin fors-tojik va turkiy tildagi kitoblarni, qo'lyozmalar ham o'qitilar, o'rgatilar edi.

Husnixat va arifmetika bilan yana xususiy muallimda shug'ullanar edilar. Movarounnahrda arab bo'lmagan bolalar uchun «Xaftiyak» VIII asrda tuzilgan bo'lib, «Qur'on» suralaridan ettidan biri tanlab olingan darslik sifatida o'rganilgan.

X—XII asrlarda islom dini rukunlari fors tilida she'r va nasr bilan bayon qilingan, «Chorkitob» o'qitila boshlandi.

XII asrdan boshlab Ahmad Yassaviy, uning turkiy tilda yozilgan she'r va boshqa asarlari vositasida islom dini rukunlari turkiy tilda o'rganila boshlandi.

Maktablarda faqat o'g'il bolalar o'qir, qizlar esa otinoyilar uyida o'qitilar, ular yozuvni emas, faqat o'qishni o'rganar edilar.

X asr boshlarida madrasalar ham paydo bo'la boshlaydi. «Madrasa» so'zi «dars o'qitiladigan joy», «ma'ruza tinglaydigan joy» ma'nosini anglatadi. Ma'lumki, madrasalarda musulmon diniy oqimlari arab tili grammatikasi va qoidachilik, ilohiyot, mantiq, notiqlik mahorati, kalom o'rgatilgan. Asta-sekin madrasalarda astronomiya, matematika, geografiya, kimyo kabi dunyoviy fanlar o'qitila boshlandi.

Madrasalarda 15 — 20, 30 — 40 va 100 — 150 tacha talaba o'qigan. Madrasani bitirib chiqqanlar imom-xatib, qozixonalar va boshqa ma'muriy ishlarda ish olib borar edi.

Ilohiyotda islom dini imon, islom va ehsondan iborat deb e'tirof etilgan. Imon talablari Ollohning borligi va yagonaligi, farishtalar, muqaddas

kitoblar va payg'ambarlarning mavjudligi, oxirat kunining kelishi, taqdiri azalning haqligi va inson jismining o'lgandan keyin tirilishiga ishonchdan iboratdir.

Islom dini ta'limotiga ko'ra, har bir musulmon beshta asosiy ruknni bajarishi shart: birinchisi, «La ilaaha illalloh va Muhammadur-rasululloh» deb Ollohning borligi, yagonaligi va uning qudratiga, Muhammad alayhis-salomning tangrining erdagi elchisi, rasuli ekanligiga shahodatlik berish; ikkinchisi, namoz o'qish; uchinchisi, zakot berish; to'rtinchisi, ramazon oyida ro'za tutish; beshinchisi – imkoniyat darajasidan kelib chiqqan holda haj safarini o'tash.

Islom dinining targ'ibotchisi Muhammad ibn Abdulloh 570 -yili Makkada quraysh qabilasiga mansub hoshimiylar xonadonida tug'ildi. Otasi Abdulloh Shom safariga ketayotib Madina shahrida vafot etganda, yoshi 30ga etmagan edi. Yosh Muhammad besh yoshida onasi Ominadan ham ajraladi. Shundan so'ng uni bobosi Abdul Mutallib o'z tarbiyasiga oladi. Bu chog'da Abdul Mutallibning yoshi yuzdan oshgan edi. Ko'p o'tmay u ham vafot etadi. Bobosining vafotidan so'ng uning vasiyatiga ko'ra, hali voyaga etib ulgurmagan Muhammadni amakisi Abu Tolib tarbiyalaydi. Shu yillari u savdogarlik kasbining sir-asrorlarini o'rgana boshlaydi. Voyaga etgach Makka shahrining badavlat ayollaridan biri bo'lgan Xadichaning xizmatiga ishga kiradi.

609–610 -yillardan boshlab Muhammad payg'ambar sifatida yagona Ollohga e'tiqod qilish g'oyasini targ'ib eta boshladi. Islom dinining g'oyalari quraysh va boshqa qabilalarning a'zolari o'rtasida targ'ib etishda Muhammad alayhis-salomga Xadicha har jihatdan ko'mak beradi, ular bir umr maslakdosh, hamfikir bo'lib qoladilar.

Islom dini g'oyalari targ'ibotining dastlabki yillari payg'ambarimiz Muhammadning g'oyaviy e'tiqodlariga qarshi kofirlar va Makka mushriklarining adovati tobora kuchayib boradi. Bir necha urushlar bo'ladi. Shundan so'ng Ollohning izni bilan Makka shahridan Madina shahriga hijrat etishga ruxsat bo'ladi. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salom 622 -yili o'z sahoba va tarafdorlari bilan Madina shahriga yo'l oldilar. Musulmonlarning hijriy yil hisobi xuddi shu yildan boshlanadi.

Madinada qabilalar qo'shilib, yangi ittifoq – jamoa tuziladi. Bora-bora Madina shahrida musulmon jamoalari kuchli davlatga aylanadi.

632 -yili Muhammad alayhis-salom Makka shahriga yana bir bor haj qiladilar, oradan uch oy o'tgach, Madina shahrida vafot etadilar.

Bu paytda musulmon davlati Yamandan Sinay yarimoroligacha, Qizil dengiz sohillaridan Markaziy qum sahrosigacha bo'lgan hududni o'z ta-sarrufiga olib, mavqeini ancha mustahkamlab olgan edi.

Muhammad alayhis-salom vafotlaridan so'ng davlatni quyidagi xalifalar boshqardilar: Abu Bakr as-Siddiq (632–634 -yillar), Umar ibn al-Xattob (634–644 -yillar), Usmon ibn Affon (644–656 -yillar) va, nihoyat, Ali ibn Abu Tolib (Muhammad alayhis-salom amakilarining o'g'illari va payg'ambarimizning kuyovlari).

Xalifalar davrida islom ta'limoti mustahkamlandi. Payg'ambarimizga nozil bo'lgan «Qur'oni Karim» g'oyalari sahobalar tomonidan kitob holdida jamlandi.

G'arb va Sharq tadqiqotchilari «Qur'on»ni jahon madaniyatining eng nodir asarlaridan biri deb hisoblaydilar.

Xat-savodi bo'lgan Abu Bakr as-Siddiq, Umar ibn al-Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Kaab «Qur'on» oyatlarini yod olib borganlar va xat bilan bitganlar.

Uchinchi xalifa Usmon ibn Affonning topshirig'iga ko'ra, «Qur'on» suralari va oyatlari birinchi bo'lib sahoba Zayd ibn Sobit tomonidan kiyik terisidan tayyorlangan sahifalarga bitilgan. So'ngra ushbu manbadan 6 nusxa ko'chirtirilib, markaziy shaharlarga bitta nusxadan yuborilgan hamda Qur'onning faqat ana shu nusxalaridan foydalanishga farmon berilgan. Shunday qilib, «Qur'on» musulmonlarning diniy, ijtimoiy va siyosiy hayotida asosiy qo'llanma bo'lib qoladi.

Ma'lumki, islom g'oyalari, musulmonchilikning talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlari «Qur'on» va uning tafsirlari, «Hadisi Sharif», shariat qoidalari bitilgan qo'llanmalar hamda ilohiyotga oid adabiyotlar mazmunida batafsil ifodalangan.

«Qur'on» – dunyo madaniyatining ulkan boyligi, musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, arab tilida «qiroat» ma'nosini anglatadi. «Qur'on» 114 suradan iborat, ularning 90tasi Muhammad alayhis-salom Makka shahrida, 24tasi esa Madina shahrida istiqomat qilgan davrlarda nozil bo'lganligi to'g'risida manbalarda ma'lumotlar keltiriladi. «Qur'on» g'oyalari kishilarni tenglik, birodarlik, tinch-totuv yashash va ezgulikka undaydi. Shunga ko'ra, u katta axloqiy qimmatga ega. «Qur'on»g'oyalarining ma'naviy-axloqiy xususiyatlari xususida so'z yuritilar ekan, uning insonning ma'naviy kamolga etishishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamiz.

Qur'oni Karim kishilarni tinch-totuv yashash, birodarlik, tenglik, saxiylik va bir-biriga mehr-muhabbat ko'rsatishga undaydi. «Qur'on»ning axloqiy qimmati insonning ma'naviy kamolotga erishishida rioya etishi lozim bo'lgan talablarni bir butun holda mujassam eta olganligi bilan belgilanadi. Shu bois u necha asrlardan buyon insoniyatning eng ulug' qadriyatlaridan biri sifatida e'zozlanib kelinmoqda.

Aslini olganda, islomda ilohiy va dunyoviy hodisalar alohida-alohida olib qaralmaydi. Islom ta'limotida insonning ruhiy va jismoniy kamolotiga ham birdek e'tibor beriladi.

Islomiy g'oyalar odamlarni yaxshilikka da'vat etadi, ularni yomonlikdan qaytaradi. Insonparvarlikni targ'ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiy-ma'naviy poklik, mehnat qilish hamda er yuzini obod va go'zal etishga undaydi. U adolat, tenglik, tinchlik, erkni targ'ib etadi.

Buni biz «Qur'on»ning inson kamolotga erishishidagi ahamiyati, uning insonga va butun borliqqa nisbatan munosabati mazmunidan ham bilsak bo'ladi. Sura va oyatlar vositasida zohir etilgan musulmon olami, xususan, islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlarning madaniyati, ma'naviyati va ma'rifatiga oid qarashlar axloqiy me'yorlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, inson kamoloti avvalo uning bilim va tafakkur darajasi bilan belgilanadi. Islom dini asrlar davomida insonlarni chuqur bilim olish, ilm-fan sirlarini puxta egallash, o'zlashtirilgan bilimlar asosida ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga undab kelgan. Ilm-fan, ma'rifat taraqqiy etgan jamiyatgina ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanadi. «Qur'on»ning «Zumar» surasi 9-oyatida kishilarni ilm o'rganishga da'vat etuvchi shunday fikrlar bayon etiladi: «Ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo'lurmi? Darhaqiqat, faqat aql egalarigina pand-nasihati qila olurlar».

Islomda insonning aqliy kamoloti va tafakkurini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi: bular ilm va haqiqatni dalillar yordamida isbotlash, so'zlaganda va amaliy harakatni tashkil etganda aniqlikka e'tibor berish, fikr yuritishda va muayyan faoliyatni yo'lga qo'yishda o'zgalarga taqlid qilishdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi qayta-qayta uqtiriladi.

«Qur'on»da ilmni ishonchli dalillar bilan asoslash, taqlid qilishga yo'l qo'ymaslik masalalari ham talqin etilgan. Unda har bir fikrni ko'r-ko'rona, aql ishlatmasdan ilgari surish qoralanadi. Mavjud bilimlar mohiyatini tahlil etish asosida ular orasidan eng to'g'ri va maqbul deb topilgan g'oyalarni tanlab olish maqsadga muvofiq ekanligi uqtiriladi: «Mening bandalarimga – so'zga quloq tutib, uning eng go'zaliga (ya'ni, najotga eltuvchi rost so'zga) ergashadigan zotlarga xushxabar bering! Ana o'shalar Oллоh hidoyati qilgan zotlardir. Va ana o'shalargina aql egalaridir» («Zumar» surasi, 18-oyat). Har bir fikrni diqqat bilan tinglab, uning mohiyatini chuqur anglab, tushunib, so'ngra unga rioya etganlar haqiqiy aql egalaridirlar. Albatta, ilm aqliy mushohada yordamida o'zlashtiriladi. «Qur'on» g'oyalari insonni o'zida aqliy mushohada yuritish ko'nikmalarini o'zlashtirishga undaydi.

Ko'rinib turibdiki, islom dini ta'limotiga ko'ra, bilim va aqliy kamolot inson etukligining asosiy mezoni sanalgan.

Ilm-fan taraqqiyoti insonning axloqiy kamolga etishida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bois «Qur'on»da xulq-odob qoidalari majmuining yaratilishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Muayyan shaxs, jamiyatning ravnaq topishida axloqning o'ziga xos o'rni tavsiflanadi. Zero, o'zi yashab turgan jamiyat a'zosi bo'lgan har bir kishining axloqsizligi jamiyatga sezilarli darajada zarar etkazsa, axloqli kishilar uning gullab-yashnashiga munosib hissa qo'shadilar.

«Qur'on»da har bir mo'min-musulmon bajarishi zarur bo'lgan yaxshi amallar inson kamolotini belgilovchi omillardir, deb tushuntiriladi. Zero, Islom dini g'oyalarining asl mohiyati ham kishilarga yomonlikning oqibatlarini ko'rsatish, ularni doimo to'g'ri yo'lda yurishga da'vat etish va yomonlikning oldini olishdan iboratdir.

Beva-bechora, etim-esir va qarovsiz kishilarga nisbatan ehson ko'rsatish, xayr qilish insonga xos bo'lgan eng muhim axloqiy xislatlardan biri ekanligi, insonda imonning o'ziga xos mezoni sanalgan saxovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr va qanoat, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e'tibor beriladi. Shundanmi, insondagi axloqiy xislatlardan eng muhimi hayru ehson haqida alohida fikr yuritiladi.

«Ehson» tushunchasi mazmunan keng qamrovli bo'lib, unda muomala ham, inson tomonidan amalga oshiriladigan barcha yaxshi amallar mohiyati ham aks etadi. O'zgalarga nisbatan ehson ko'rsatish – har bir insonning eng oddiy insoniy burchi bo'lishi lozimligi aytiladi. Zero, ikki olamning yaratguvchisi bo'lgan Olloh barcha ne'matlarni o'zi yaratgan mavjudotlarga ehson etgan. Olloh tomonidan qilingan ehsondan foydalanguvchi bandalar ham aholining eng nochor qatlami vakillariga nisbatan muruvvatli bo'lishlari, ularga xayru-ehson ko'rsatishlari lozim: «Olloh senga ehson qilgani kabi, sen ham (Ollohning bandalariga) infoq-ehson qil» («Qasos» surasi, 77-oyat). Yana: «Kim chiroyli amal qilsa, unga o'n barobar bo'lib (qaytarilur). Kim biron yomon ish qilsa, faqat o'shaning barobarinda jazolanur» («An'om» surasi, 160-oyat).

Ota-onalar Qur'onu Karim g'oyalariga ko'ra eng birinchi navbatda ehson ko'rsatilishga loyiq kishilar sifatida qayd etilgani holda ularning haqlari belgilab beriladi. Ota-onaning farzand oldidagi haqqi quyidagilardan iboratdir:

- farzandga ota-ona xatti-harakatlarining malol kelmasligi;
- ota-ona bilan gaplashganda ularning dillariga og'ir botadigan so'z aytmaslik;
- ota-onaga ehtirom bajo keltirish;

– ota-onaga rahm-shafqat ko'rsatish;

– ota-onaning haqlariga duo qilish.

«Qur'on»da faqat ota-ona emas, oilaning boshqa a'zolariga, qarindoshlar, etimlar, kambag'allar, qo'ni-qo'shnilar ham yaxshilik qilish ta'kidlangan. «Niso» surasining 36-oyatida «Ota-onangizga ham qarindosh-urug', etim va miskinlarga, qarindosh, qo'shni va begona qo'shniga, yoningizdagi hamrohingizga, yo'lovchi musofirga yaxshilik qilingiz!» (58-bet) deya, kishilarni bir-biriga yaxshilik qilishga undaydi.

Bu oyat katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega. Chunki har bir oilaning mustahkamligi jamiyatni mustahkamlashga, har bir etimga g'amxo'rlik esa jamiyatning taqdiri uchun harakat qiladigan ma'naviy yuksak insonni kamolga etkazishga olib keladi. Qo'ni-qo'shnilar bilan totuvlik esa mahalla hayotining tinch-totuv bo'lishini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida jamiyatning barqarorligiga olib keladi. Demak, yuqoridagi sura oila va jamiyat o'rtasidagi mustahkam aloqa mohiyatini ham ifoda etadi.

«Qur'on»da sabr-qanoatga ham yuksak axloqiy fazilat sifatida katta e'tibor beriladi. Shuning uchun ham sabr «Qur'on»da eng ko'p zikr etiladigan xislat bo'lib, quyidagi xislatlarni kamol toptiradi. Shu o'rinda shijoat qiyinchiliklarga, halimlik esa jahlga sabr qilishning mezonini sifatida talqin etiladi.

«Qur'on»da ta'kidlanganidek, sabrli, sabotli bo'lish – bu qiyinchiliklarga bardosh berish, yomon kishilar etkazgan nohaqliklarga chidash, boshga tushgan musibatlarga nisbatan bardoshli bo'lishdan iboratdir. Quyida keltiriluvchi oyatlarda qayd etilgan fikrlarga rioya etish insonda sabr-toqat hamda matonat kabi xislatlarni tarbiyalaydi: «Va, albatta, sizlarni xavfu xatar, ochlik, molu jon va meva-chevalarni kamaytirish kabi narsalar bilan imtihon qilamiz. Biror musibat kelganda: «Albatta biz Ollohning (bandalarimiz) va, albatta, biz u zotga qaytguvchilarmiz», deydigan sobirlarga xushxabar bering (Ey Muhammad)! Ana o'shalarga Parvardigorlari tomonidan salovat (ma'rifat) va rahmat bordir. Ana o'shalar haq yo'lini topguvchilardir» («Baqara» surasi, 155–157-oyatlar).

Yuqorida keltirilgan oyatlar mazmunidan anglanadiki, sabrli kishilar hayotda doimo to'g'ri yo'lni tanlab oladilar, har qanday qiyinchiliklarga bardosh beradilar, musibatlar oldida bosh egmaydilar. Qur'onu Karim insonni sabr-bardoshli bo'lishga undaydi. Bu esa har bir kishining eng oliy xislati sanaladi.

«Qur'on»da insonda tarkib topishi kerak bo'lgan oliy xislatlardan yana biri sadoqat deb ta'lim beriladi.

Har bir jamiyatning ravnaqi shu jamiyatda yashayotgan kishilarning o'z vatani va xalqiga bo'lgan sadoqatiga ham bog'liqdir. Zero, sadoqat bor

joyda ishonch, e'tiqod mavjud bo'ladi. Jamiyat a'zolarining vatani hamda xalqiga nisbatan sadoqatli bo'lishlari jamiyat ravnaqini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan biri hisoblanadi. «Qur'on»da sadoqat barcha yaxshiliklarning debochasi sifatida, rostgo'ylik ma'nosida ham talqin etilgan. Sadoqat o'zgalarning omonatiga xiyonat qilmaslik, bergan va'dasiga vafo etish kabi holatlarni ham ifoda etadi. Shunga ko'ra, Oллоh musulmonlarni bir-birlariga sadoqatli bo'lishga undagan: «Ey mo'minlar, Oллоhdan qo'rqingiz va iymonlarida sadoqatlik bilan birga bo'lingiz», — de-yiladi «Tavba» surasining 119-oyatida.

«Qur'on»da kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilash to'g'risida ham gap boradi va bu oliy darajadagi insoniy xislat bo'lib, pok qalbli kishilargina bunga erisha oladi, deyiladi. Jamiyat a'zolarining bunday xislatga ega bo'lishlari ham jamiyatda, ham odamlar orasida tinchlik va osoyishtalikning barqaror bo'lishiga zamin hozirlaydi. Shu bois ham kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqani mustahkamlash musulmonchilikning asosiy talablaridan biri sanaladi. «Hujurat» surasining 10-oyatida bu xususda: «Mo'minlar, hech shak-shubhasiz, og'ainilardir. Bas sizlar ikki og'ainingizning o'rtasini o'nglab qo'yinglar», — deyiladi.

Kishilar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning oldini olish yoki ularning o'zaro totuv yashashlariga erishish jamiyat ahamiyatiga egadir. Ijtimoiy hayotda har bir shaxs yoki umumxalqning farovon va baxtli hayoti ko'p jihatdan ularning o'zaro tinch-totuv yashashlariga bog'liq. «Qur'on»da kishilar o'rtasida yo'lga qo'yiluvchi o'zaro yordamga alohida ahamiyat beriladi. Atrofdagilarga nisbatan yaxshilik qilish hamda taqvodorlik yo'lida bir-biriga yordam berishga chaqiriladi. «Qur'on»da yaxshilik tushunchasi ostida rostgo'ylik, omonatga xiyonat qilmaslik, saxiylik, shijoat va boshqa barcha fazilatlar nazarda tutiladi.

«Qur'on»da insondagi eng zarur xislatlardan sanalgan oliyjanoblik haqida ham fikr yuritiladi. Oliyjanoblik — yaxshilikning o'zi uchun emas, boshqalar uchun ham zarurligini anglash istagidir. Demak, oliyjanoblik ruhiy holat bo'lib, inson kamolotini ko'rsatuvchi xislatdir. «Xashr» surasining 9-oyatida «Garchi o'zlarida ehtiyoj bo'lsa-da, o'zlarini qo'yib (o'zgalarni) iysor-ixtiyor qilurlar. Kimki o'z nafsining baxilligidan saqlana olsa, bas, ana o'shalar najot olguvchi zotlardir», — deya o'zgalarga nisbatan oliyjanoblik qila olgan insonlar sharaflanadilar.

«Qur'on»ning bir qancha oyatlarida shirinsuxanlik, to'g'ri so'z va muomala madaniyati borasida so'z yuritiladi. Muomala madaniyatiga rioya qilish qonun-qoidalari Islom dini g'oyalari yaratilgunga qadar ham shakllangan bo'lsa-da, biroq Islom ta'limotigina uning asl mohiyati, inson

kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini to'la ravishda ochib berdi. Kishilarida shirinso'zlik, madaniy muomala ko'nikmalari taraqqiy etgan mamlakatlardagina ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyot ro'y beradi. Shirinso'zlik insonning muomala madaniyatiga ega ekanligi ko'rsatadi, uning obro'sini oshiradi, elning hurmatiga sazovor qiladi. Shu bois «Qur'on»da har bir insonning shirinso'z bo'lishi ham o'zi uchun, ham jamiyat uchun foydali ekanligiga alohida ta'kidlanadi. Boshqa oyatda esa, Olloh kishilarni so'zlashganda past ovoz bilan so'zlashga undaydi: «Kishilarga chiroyli so'zlar so'zlangiz» («Baqara» surasi, 53-oyat).

So'zlashganda ochiq yuzli bo'lish, qo'pollik qilmaslik, xushmuomala bo'lish odoblari hayotda tinchlik va baxt-saodatga eltuvchi yorug' yo'l sifatida talqin etiladi. Haqiqatan ham so'zlashish madaniyati har bir inson uchun eng zarur, unga baxt-saodat, jamiyatga esa ravnaq keltiradigan muhim fazilatdir. Keltirilgan misollardan ayon bo'lmoqdaki, muomala madaniyati barcha davrlarda ham insoniylikning eng ulug' sifati tarzida talqin etilgan. Zero, xalqaro maydonda davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalarni o'rnatishda ham muayyan davlatning rasmiy vakili sanalgan elchilarning so'zlashuv madaniyati qoidalarining mohiyatidan nechog'li xabardor bo'lishlari hamda ularga qat'iy amal qila olishlari nihoyatda muhimdir.

«Qur'on»da yaxshi fazilatlarga ega kishilar bilan hamsuhbat bo'lish insonning kamolotga erishuvini ta'minlovchi omillardan biri ekanligi ham alohida ta'kidlanadi. Bu yaxshilar bilan do'st bo'lish imkoniyatini yaratadi, do'stni dushmandan ajrata olish layoqatining shakllanishiga imkon tug'diradi, o'ziga nisbatan hamkor – do'st tanlashga yordam beradi.

«Va-n-najm» surasining 24-oyatida «Bizning zikrimizdan kechgan va faqat hayoti dunyonigina istagan kimsalardan yuz o'giring» deyiladi.

«Kahf» surasining 28-oyatida esa «Biz qalbini bizni zikr etishdan g'ofil qilib qo'yan, havoyi nafsiga ergashgan va qilar ishi isrof-garchilik bo'lgan kimsalarga shijoat etmang», deya ta'kidlanib, axloqan tuban kishilar bilan do'st tutinish xato ekanligi uqtiriladi. Yaxshi kishilar bilan ham, yomon kishilar bilan ham muomala-muloqotda bo'lganda, albatta, uning o'ziga xos odob qoidalariga rioya etish talab etiladi.

Islomda ruxsat so'rash va salomlashish odoblariga amal qilinishga ham alohida e'tibor beriladi. «Nur» surasining 27–28-oyatlarida bu borada aniq tavsiyalar berilganki, bu tavsiyalarga rioya qilish inson ma'naviy kamolotidan dalolat beradi («Niso» surasining 86-oyati).

«Qur'on»da insonning ma'naviy pok bo'lish, havoyi nafsdan saqlanish masalalariga ham e'tibor berilgan. Unda kishilarni havoyi-nafsga berilmaslik, o'zini turli rag'bat va shahvatlardan saqlash kerakligi haqida

ta'kidlanadi, havoyi-nafsga berilishning sabablari to'g'risidagi ma'lumotlar beriladi.

Havoyi-nafsga berilishining asosiy sababi sifatida kishi irodasining zaifligi va ilmsizligi yoki ilmining kamligidir, deya ko'rsatiladi. Chunki inson bilimsizligi tufayli havoyi-nafsga mahkum etiladi, shunga ko'ra, aqlni ishlatib, hayotda to'g'ri yo'l tutishga da'vat etiladi. Masalan, «An'om» surasining 119-oyatida «Shubhasiz, ko'p kishilar o'z hoyu-havaslar bilan bilmagan hollarda o'zlarini yo'ldan ozdirurlar». «Rum» surasining 29-oyatida «zolim kimsalar biron bilim-hujjatsiz havoyi-nafslarga ergashib (Olohgga) shirk keltiradilar» kabi fikrlar buning dalilidir.

«Qur'on»da yana insonni axloqiy kamolga etkazishga zid xususiyatlar: manmanlik, aroqxo'rlik, qimorbozlik, yolg'onchilik, boshqalarni kamsitish, badgumonlik, josuslik, g'iybatchilik, maishiy buzqlik, g'azabnoklik, hasadgo'ylik, ochko'zlik kabilar xususida ham muhim fikrlar bildirilgan.

Manmanlik – o'z aybini tan olmaslik, takabburlik sanaladi. Manmanlik illati kishilarni sog'lom fikr yuritishdan, o'zini takomillashtirib borishdan mahrum etadi. Natijada jaholat illati paydo bo'ladi («A'rof» surasining 146-oyati).

«Qur'on»da aroqxo'rlik va qimorbozlik insonni tubanlik sari etaklovchi, or-nomusini oyoqosti qiluvchi illat sifatida qoralanadi. Chunki aroqxo'r asta-sekin or-nomusini unuta boshlaydi, maishiy tubanlikka yuz tutadi. Inson naslining buzilishi, jamiyatning inqiroziga sabab bo'ladi. Aroqxo'rlik va qimorbozlik ruhan va jismonan insonning ma'naviy qashshoqlanishiga olib keladi. Bunday inson ham oila, ham jamiyat uchun bevosita zarar keltiradi. Shunga ko'ra, islom ta'limoti g'oyalarida aroq harom hisoblanishi qayd etiladi.

Qimor esa insonga ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan zarar keltiradi, inqirozga yuz tutishga olib keladi. Shuning uchun ham ushbu yomon illatlarning oldini olish ta'kidlanadi.

«Qur'on»da yolg'onchilik va uning turlari, zararli oqibatlari haqida ham batafsil to'xtab o'tilgan. Unda yolg'onchilik razolat bilan bir qatorga qo'yiladi. Odamlar yolg'onchi kishining gaplariga ishonmay qo'yadilar, unga bo'lgan ishonchlarini yo'qotadilar.

Muqaddas kitobda yolg'onchilikning turlari ham bayon etiladi. Shulardan eng xavfli xiyonat deb ta'kidlanadi. Zero, xiyonat jamiyat uchun ham, shu jamiyatda yashovchi odamlar uchun ham zarar keltirib, uni xarob etadi. «Anfol» surasining 27- hamda «Niso» surasining 107-oyatida xiyonat qilganlarni Olohh kechirmasligi ta'kidlangan. Yolg'onchilikning yana bir turi va'daga vafo qilmaslik deb ko'rsatiladi. Irodasiz, birovga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan, ishonchsiz kishilar va'daga vafo qilmasligi bayon etiladi.

Islomda va'dasining ustidan chiqmaslik – munofiqlik deb tushuntiriladi. Bu xususdagi fikrlar hadislarida ham o'z ifodasini topgan, xususan, «Munofiqlikning belgisi uchta: gapirsa – yolg'on gapiradi, va'da bersa – vafo qilmaydi, omonatga xiyonat qiladi» tarzida ifoda qilingan.

Yolg'on guvohlik berish ham kishilarga jabr-zulm o'tkazishga sabab bo'lishiga «Qur'on»da alohida e'tibor beriladi.

Chaqimchilik ham yolg'onning bir turi sifatida, kishilar o'rtasiga nifoq soluvchi razolat tarzida qoralanadi. «Qur'on»da haqiqiy inson o'zgalarni kamsitmasligi, boshqalarni hurmat qilishi, shu bilan kishilar o'rtasida totuvlikni mustahkamlash mumkin ekanligi kabi g'oyalar ham mavjud.

Kishilarning bir-birini hurmat qilishi, o'zaro do'stlik aloqalarini mustahkamlash kelishmovchiliklarning oldini olishda, xullas, komil insonga xos bo'lmagan pastkashliklardan saqlanishda katta ahamiyatga ega.

«Qur'on»da insonning ruhiy va ma'naviy kamolga etishishiga to'sqinlik qiluvchi salbiy xislatlardan yana biri – g'azabdir, deb ko'rsatiladi va u ruhiy razolat sifatida talqin etiladi. Zero, g'azab kelganda aql qochadi, inson o'z irodasini idora qilolmay qoladi. O'z manfaati va obro'sini himoya qilaman deb johillik qilib qo'yish mumkin. G'azab inson salomatligiga ham zarar etkazadi. Shuning uchun Islom ta'limoti insonni aql bilan ish ko'rish, insof egasi bo'lish, bosiqlik bilan o'z hissiyotlarini boshqara olishga chaqiradi. Chunki g'azab kelganda chiqarilgan hukm, amalga oshirilgan xatti-harakat johillik belgisi bo'lib qolishi mumkin.

Islom ta'limotida o'zini boshqara olish quvvatiga ega bo'lishgina emas, kechiruvchilik xislatiga ega bo'lish ham muhim ekanligiga aytiladi. Ana shunday inson ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllangan shaxs bo'la oladi.

Islom ta'limotida hasad eng qabih xislat sifatida qoralanadi. «Qur'on»da insonning axloqiy kamol topishida bekorch gap-so'zlardan yiroq yurish, mayda va behuda gaplarga vaqt ketkazmaslik, ulardan o'zini chetga olish kabilarni bajarish farz ekanligi ta'kidlanadi.

Insonning ma'naviy kamol topishiga salbiy ta'sir etuvchi xislatlardan biri – ochko'zlik ekanligi ta'kidlanib, kishilarning bunday xislatga ega bo'lmasligi darkorligi uqtiriladi. Chunki molu dunyo orttirishga bo'lgan rag'bat manmanlik, berahmlik, isrofgarchilik kabi yomon xislatlarning paydo bo'lishiga olib keladi («A'rof» surasining 31-oyati). Ochko'zlik, xasislik esa mol-dunyoga ruju qo'yishga olib keladi.

«Qur'on» ta'limicha, mol-dunyo insonni sinash uchun beriladi. Mol-dunyoga erishgan har bir inson uni to'g'ri yo'lda sarflashi lozim («Anfob» surasi, 28-oyat).

«Qur'on»da boylik emas, haqiqat va yaxshilik abadiydir, deyiladi. Ba'zilar mol-dunyosi ortganda manmanlik kasaliga giriftor bo'ladilar, aql va adolatni unutadilar. Inson boylik orttirs, haddidan oshadi, Shu sababli kishilarning boylik orttirgan chog'ida kekkayib, gerdayib ketishlaridan saqlanish masalalari keng yoritiladi.

Islom ta'limotida ilgari surilgan g'oyalardan yana biri va uning eng muhim tarkibiy qismi poklik va tozalikka rioya qilishdir.

Xulosa qilib aytganda, Islom va uning asosiy ta'limoti mujassamlashgan Qur'oni Karim insonda aqliy, axloqiy hamda jismoniy xislatlarni shakllantirish, bir so'z bilan aytganda, komil insonni tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Hadis ilmining paydo bo'lishi. Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziyning hadis ilmi rivojidagi xizmatlari

Islom dini ta'limoti asoslarini yorituvchi Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba hadis hisoblanadi. Hadislarni to'plash va ularga muayyan tartib berish asosan VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, uni eng bilimdon, turli fan asoslarini mukammal o'rgangan, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishi (muhaddis)lar tartib bergan. VIII–XI asrlarda to'rt yuzdan ortiq muhaddis hadis ilmi bilan shug'ullangan. Mazkur bilimlarni o'rganishning o'ziga xos yo'nalishi bo'lib, «hadis ilmi» nomi bilan yuritilgan. Keyingi -yillarda Muhammad alayhis-salomning hayoti, faoliyati hamda uning diniy-axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan hadislar, Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-jome' as-sahih» («Ishonarli to'plam»), «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari»), Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyning «Ash-shamoil an-nabaviya» asarlari nashr etildi. «Hadis» yoki «Sunna» so'zlari bir ma'noni anglatib, Rasulullohning hayoti va faoliyati hamda diniy va axloqiy ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat.

Muhammad alayhis-salomning ibratli ishlari, e'tiqod, poklik va insonga xos ma'naviy-axloqiy xislatlarni ifodalovchi so'zlari, pand-nasihatlarini uning nomi bilan bog'liq hadislarda mujassamlangan.

Hadislar dastlab yozib borilmagan. Payg'ambar Muhammad alayhis-salom arab bo'lmagan kishilarning hadislarni Qur'oni Karim oyatlari bilan adashtirib yuborishlaridan cho'chib, hadislarning yozib borilishiga ruxsat etmaganlar. Biroq payg'ambar Muhammad alayhis-salom huzurida sahobalar bo'lib, ular Rasuli akramdan eshitgan hadislarini yodlab borganlar. Jumladan, hazrati Abu Hurayra ana shunday mo'tabar

kishilardan biri bo'lib, hadislarini mukammal yodlab borgan. Abu Hurayra tomonidan qayd etilgan hadislar to'g'ri, ishonarli (sahih) hadislar hisoblangan.

Lekin hadislarini yod olgan kishilar sonining tobora kamayib borishi natijasida ularning asta-sekin unutilib ketishi borasidagi xavf yuzaga keladi. Ana shu xavfning oldini olish maqsadida xalifalar ishonarli hadislarini to'plashga farmon berganlar. Hadislarini to'plash xususidagi farmon xalifa Umar tomonidan berilgan.

Hadislarini yozib borish bilan mashg'ul bo'lgan ilk muhaddislar sifatida Rabee bin Sabeh, Said ibn Abi Aruba, Molik bin Anas, Abdumalik bin Jurayj Makkiy, Abdurahmon al-Avzo'iy Shoshiy, So'fyon Savriy Kufiy va boshqalardir.

VIII–IX asrlar hadis ilmining rivojlanishida «oltin davr» hisoblanadi. Bu davrga kelib, Islom ulamolari tomonidan hadislarining qay darajada to'g'riligi, ularning qanday manbalarga tayanilib to'planganligi jiddiy tadqiq etila boshlandi. Chunki ba'zi soxta, ishonchsiz hadislar ham paydo bo'la boshlagan, ularni tekshirib, asl hadislarini tiklash va yozma ravishda qayd etish zamon talabi bo'lib qolgan edi. Shuning uchun ham birinchidan, hadislarini yoddan biluvchi haqiqiy, bilimdon, o'tkir mulohazali kishilarning asta-sekin kamayib ketayotganligi ikkinchidan, hadislarining haqiqiy, ishonarli, ya'ni sahihlarini saqlab qolish maqsadida ular tekshirilib, asl holiga keltirib, yozib yig'ila boshlangan. Ana shu tarzda hadis ilmi rivojlangan.

Islom olamida oltita ishonchli to'plam (as-sahih as-sitta) eng nufuzli manbalar sifatida e'tirof etilgan. Ushbu manbalarning mualliflari IX asrda yashab ijod qilgan quyidagi muhaddislar bo'lganlar: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 194 (810) – 256 (870), Imom Muslim ibn al-Hajjoj 206 (819) – 261 (874), Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy 209 (824) – 279 (892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy 202 (817) – 275 (880), Imom Ahmad an-Naso'iy (215 (830) – 303 (915) va Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Mojja 209 (824) – 273 (886).

Muhaddislar tomonidan yaratilgan va ishonarli manbalar deya e'tirof etilgan «Al-kutub as-sitta» («Olti kitob») quyidagilardan iborat:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan to'plangan «Al-jome' as-sahih» asari.

2. Imom Muslim an-Nishopuriy (Imom Muslim ibn al-Hajjoj) tomonidan to'plangan «As-sahih» asari.

3. Imom ibn Mojja tomonidan to'plangan «Sunan».

4. Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy tomonidan to'plangan «Sunan» asari.

5. Imom Muhammad ibn Iso at-Termiziy tomonidan to'plangan «Aj-jami al-kabir» asari.

6. Ahmad an-Nasoiy tomonidan to'plagan «Sunan».

Movarounnahrda birinchi bo'lib hadis to'plagan muhaddis Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy sanaladi. Allomaning safdoshlari sifatida Imom Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziy, Ishoq ibn Rahovayh al-Marvaziy, Imom al-Haysam ibn Qulayb ash-Shoshiy, Hofiz al-Xorazmiy, Imom Abdulhasan Ahmad ibn Muhammad as-Samarqandiy kabi vatandoshlarimizning nomlari ham mashhurdir.

Imom Ismoil al-Buxoriy

«Sahih» yo'nalishining asoschisi eng etuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Ismoil al-Buxoriy hadis ilmida «Amir ul-mo'minin», «Imom al-muhaddisiyn» («Barcha muhaddislarning peshvosi») degan sharafli nomga sazovor bo'lgan. U 810-yilning 13-mayida (ba'zi manbalarda 810-yilning 20-iyulida) (hijriy 194-yil shavvol oyining 13-kuni) Buxoroda tug'ilgan. Go'dakligida otadan etim qolgan. Dastlabki savodini maktabda chiqargan, 10 yoshidayoq arab tilida yaratilgan kitoblar yordamida hamda roviylardan og'zaki ravishda eshitish asosida hadislarni yodlay boshlagan. Alloma hadis ilmini zo'r ishtiyoq va katta qiziqish bilan o'rgandi. Abdulloh ibn al-Muborak, Vaqi' ibn Jarroh kabi olimlar to'plagan hadislarni yod olgan, hadis rivoyatchilari xususida so'z yuritilgan bahslarda ishtirok etgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy 825-yili, o'n olti yoshida onasi va akasi bilan Hijozga safar qiladi. Makkayu Mukarrama va Madinai Munavvarada bo'lib, haj ibodatini ado etadi. Balx, Basra, Kufa, Bag'dod, Damashq, Misr, Makka va Madina kabi shaharlarda bo'lib, safar jarayonida muhaddislar bilan uchrashadi. Muhaddislar suhbatlarida ular tomonidan aytilgan hadislarni yodlab boradi. Olti yil Hijoz shahrida yashab, u erda etuk muhaddislardan hadis ilmi bo'yicha, Damashq, Qohira, Basra va Bag'dod shaharlarining mashhur olimlardan esa fiqh ilmi bo'yicha ta'lim oladi. Allomaning o'zi ham turli bahs va munozaralarda ishtirok etib, toliblarga dars ham beradi.

Imom Ismoil al-Buxoriy iste'dodli, o'tkir zehnlilik hamda ziyrak olim bo'lgan. Manbalarga ko'ra, Bag'dod shahrida istiqomat qilgan vaqtida ko'pincha qorong'u kechalari sham yorug'i va oyning nurida ijod qilib, kitob yozar ekan. Tunda yodiga bexosdan biror-bir fikr-mulohaza tushib qolsa, shamni yoqib, darhol o'sha fikrni qog'ozga tushirar, shu tahlitda ba'zan shamni yigirma martagacha o'chirib-yoqar ekan»(U. Uvatov).

Imom Buxoriyning o'tkir zehn egasi ekanligini quyidagi misoldan ham bilish mumkin.

Rivoyatlarga ko'ra, u qaysi bir kitobni qo'lga olib, bir marotaba

mutoala qilsa, unda bayon etilgan barcha fikrlar, ma'lumotlarni yodda saqlab qolavergan. Imom Ismoil al-Buxoriyning qayd etishicha, yuz ming sahih (ishonchli) va ikki yuz ming g'ayrisahih (ishonchsiz) hadisni yod bilgan. Shogirdlaridan Amir ibn Fallos «Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga ma'lum bo'lmagan hadis, albatta, ishonchli hadis emasdur», – deydi. Ustoz Imom Ahmad ibn Xanbal al-Marvaziyning aytishicha, «Butun Xurosondan Muhammad ibn Ismoil kabi olim chiqqan emas».

Imom Ismoil al-Buxoriyning o'tkir zehni xususida yana shunday rivoyat keltiriladi: «Imom Buxoriy bilan Basrada hadis darsiga qatnashgan sheriklaridan biri Hoshid ibn Ismoil aytadi: «Imom Buxoriy bizlar bilan birga ustozning darsini eshitardi. Ustoz rivoyat qilgan hadislarini biz yozib olar edik, ammo Buxoriy faqat quloq solibgina o'tirardi. Shu tarzda qancha kunlar o'tib, orada ustoz qariyb 15 ming hadis rivoyat qildi. Shunda biz Buxoriyga: Sen nega hadislarini yozmaysan? – deb ta'na qilgan vaqtimizda: Sizlar yozib borayotgan hadislarini men ustoz og'zidan yodlab olayotirman, – dedi-da, ustoz rivoyat qilgan hamma hadislarini bir chekkadan yoddan o'qib berdi. Shundan keyin biz yozib olgan hadislarimizdagi xatolarni uning yodlaganlaridan tuzatib oladigan bo'ldik».

Imom Ismoil al-Buxoriy juda ko'p zabardast olimlardan ta'lim oladi. Manbalarda alloma ustozlarining soni to'qson nafarga yaqin bo'lgan deb ko'rsatiladi. Muhammad ibn Yusuf al-G'artobiy, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamiydiy, Ishoq ibn Ibrohim ar-Rahavayh, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali al-Madiniy kabi olimlar uning ustozlari sanaladilar.

Imom Ismoil al-Buxoriyning o'zi ham yirik va mashhur olimlar – Ishoq ibn Muhammad al-Ramoziy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masna-diy, Muhammad ibn Xalaf ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Muhammad Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvazi, Muslim ibn al-Hajjojga ustozlik qilgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy o'ta kamtar, insonparvar, xulq-odobda tengsiz, sahovatli inson ham bo'lgan. U hadis ilmining etuk olimi sanalsa-da, zamondoshlari hamda shogirdlaridan ham ilm o'rgangan. Alloma bir ming sakson nafar muhaddisdan hadis eshitgan. Allomaning o'zidan esa to'qson ming nafar kishi ishonarli hadislarini eshitgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Imom Ismoil al-Buxoriy 600 mingga yaqin hadisni to'plagan, 100 ming «sahih» va 200 ming «g'ayrisahih» hadislarini yod olgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy uzoq safardan ona yurti Buxoroga qaytgach, talaba va ulamolarga hadis ilmidan saboq beradi va mazkur ilmning targ'ibotchisiga aylanadi. Rivoyatlarga ko'ra, xalifaning Buxorodagi noibi Xolid ibn Ahmad ibn Xolid az-Zuhaliy uni saroyga kelib hadis ilmidan saboq berishga taklif etadi. Ammo Imom Ismoil al-Buxoriy bu taklifga:

«Men ilmni xorlab sulton amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo'lsa, bolalarni (ikkinchi rivoyatda saroyidagilarni) uyimga yoki masjidimga yuborsin», – deb javob beradi. Shu bois alloma bilan amir Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy o'rtasidagi munosabatga putur etadi. Bunga ayrim hasadgo'y shaxslarning ig'volari ham sabab bo'ladi. Amir allomaning shahardan chiqib ketishiga farmon beradi. Samarqand ulamolari Imom Ismoil al-Buxoriyni o'z yurtlariga taklif etadilar. Yo'lga chiqqan Imom Ismoil al-Buxoriy Samarqand shahriga yaqin bo'lgan Hartang qishlog'i (hozirgi Poyariq tumanining hududi)da betob bo'lib qoladi va shu erda hijriy 256 -yili ramazon oyining oxirgi kuni (milodiy 872 -yil 1 sentyabr) 62 yoshida vafot etadi va shu erga dafn etiladi.

Imom Ismoil al-Buxoriy juda boy ijodiy meros qoldirgan. Uning «Al-jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam»), «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari»), «At-tarix al-kabir» («Katta tarix»), «At-tarix as-sag'iy», («Kichik tarix»), «Al-qiroatu xalfa-l-Imom» («Imom ortida turib o'qish»), «Vaf'ul-yadini fi-s-saloti» («Namozda ikki qo'lni ko'tarish») kabi asarlari mavjud bo'lib, ularning qo'lyozmalari bizgacha etib kelgan. Ammo «At-tarix al-avsat» («O'rta tarix»), «At-tafsir al-kabir» («Katta tafsir»), «Al-jome' al-kabir» («Katta to'plam»), «Kitob ul-hiba» («Hadya kitobi») nomli asarlari ham bo'lganligi ma'lum. Biroq ular bizgacha etib kelmagan. Shubhasiz, yuqorida nomlari qayd etib o'tilgan asarlarining eng yirigi, shoh asari «Al-jome' as-sahih»dir. Bu asar «Sahih al-Buxoriy» nomi bilan ham dunyoga mashhur. 4 jildidan iborat mazkur kitobga 600 ming hadisdan 7275 eng «sahih» hamda 4000 takrorlanmaydigan hadis kiritilgan. Bu kitob Islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba hisoblanadi.

Islom dini insonni ma'naviy kamolot sari etaklovchi ta'limotdir. Shu sababli Qur'oni Karimda ham, hadislarda ham yaxshi xulq-odob qoidalari va ularga kishilarning qat'iy amal qilishlari lozimligi borasidagi qarashlar keng targ'ib etilgan. Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-jome' as-sahih» asarining bir jildiga odob-axloq masalalarini yorituvchi hadislar jamlangan bo'lsa, «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari») nomli asarda ham ijtimoiy turmushda hamda insonlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni tashkil etish chog'ida amal qilinishi lozim bo'lgan odob-axloq qoidalari borasida yanada batafsil ma'lumotlar berilgan. Ushbu asar 644 bobda bayon etilgan 1322 hadisni o'z ichiga oladi.

Muhammad ibn Iso at-Termiziy

Mashhur muhaddislardan yana biri vatandoshimiz Muhammad ibn Iso at-Termiziy bo'lib, u 824 -yili Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'i (hozir-

gi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani)da tug'ilgan. Uning oilasi va ota-onasi haqida ma'lumotlar yo'q. Ba'zi tadqiqotchilar uning otasi asli marvlik bo'lgan deb qayd etadilar.

Muhamad ibn Iso at-Termiziy bolaligidan ilm o'rganishga qiziqqan, ayniqsa hadis ilmini chuqur egallagan.

Muhamad ibn Iso at-Termiziy 850 -yildan ko'p mamlakatlarga safar qiladi. Hijoz shahrida bo'lib, Makka va Madina shaharlarini ziyorat qiladi. Iroq hamda Xurosonda hadis, fiqh, qiroat, bayon, tarix va boshqa ilmlarni o'rganadi. Mazkur safarda Muhamad ibn Iso at-Termiziy ustoz Imom Ismoil al-Buxoriy bilan uchrashadi. Alloma ustoziga nisbatan alohida hurmatda bo'lib, uning yordamida hadis ilmidan to'la xabardor bo'ladi. Manbalarda e'tirof etilishicha, Imom Muhammad ibn Iso at-Termiziy ustozining vafoti tufayli ko'p yig'laganidan ko'zi ko'r bo'lib qolgan.

Muhammad ibn Iso at-Termiziy zehningining o'tkirliги, xotirasi, va yod olish qobiliyatining kuchliligi tufayli Imom Ismoil al-Buxoriy uni faqatgina shogird sifatida emas, balki hamkor, hamfikir va do'st sifatida ham hurmat qilgan.

Muhammad ibn Iso at-Termiziy uzoq safarda manbalardan o'qigan yoki muhaddislardan eshitgan hadislarini to'plab, kitoblar ta'lif qilishga kirishadi. U 863 -yili o'z vataniga qaytadi va o'zi ham shogirdlarga ta'lim beradi, ayni vaqtda kitoblar ham yozadi.

Alloma tomonidan o'ndan ortiq asar yaratilganligi ma'lum. Bular qatoridan «Al-jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam»), «Ash-shamoil an-nabaviya» («Payg'ambarning alohida fazilatlarі»), «Al-ilal fi-l-hadiys» («Hadislardagi illatlar va og'ishlar haqida») kabi asarlari o'rin olgan bo'lib, ular juda mashhurdir.

Muhammad ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozib qoldirilgan asarlar-da o'z ifodasini topgan hadislar ham Imom Ismoil al-Buxoriy tomonidan bayon etilgan hadislar kabi insonni halollik, adolat, e'tiqod, diyonat, poklik, mehnatsevarlik, muruvvatlilik, mehr-shavqat, yoshi kattalar, ota-ona va qarindoshlarga hurmat g'oyalarini ilgari surish xususiyatiga ko'ra shaxs ta'limi va tarbiyasini tashkil etishda katta ahamiyatga ega.

Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati

Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo'lib, bu fazilatlar sirasiga o'zgalarga mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-ona, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo'lish, ularga g'amxo'rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik,

do'stlik, oliyjanoblik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgo'ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o'zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlilar ham o'z aksini topganki, bularning barchasi Qur'oni Karimda qayd etilgan ko'rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra har bir musulmon eng avvalo iymonli bo'lishi kerak. Qur'oni Karimda ta'kidlanganidek, Islom dini ta'limotining yaratilishidan muddao, murod kishilarda iymon, e'tiqodni shakllantirishdir. Hadislarda iymonning mukammal va mustahkam bo'lishi quyidagi uch shartga qat'iy amal qilinishiga bog'liqligi ko'rsatilgan:

- to'g'ri e'tiqodli bo'lmoq;
- kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'lmoq;
- kishi o'z ustida ishlamoq'i va o'zini ibodat va itoatga chaqirmog'i.

Iymon daraxtga tenglashtiriladi va uning 60dan ortiq shoxlari bor deya iymonning belgilari sanab o'tiladi. Bu belgilarning har biri inson ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi va mukammallashtiruvchi xislatlardir. Bular quyidagilardan iborat: «qo'li bilan va tili bilan o'zgalarga ozor bermagan kishi musulmondir», «o'zingiz yaxshi ko'rgan narsani birodaringizga ravo ko'rmaguningizcha hech biringiz chinakam mo'min bo'la olmaysiz» (3–4-boblar); «Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lgaydir:

- insofli va adolatli bo'lmoq;
- barchaga salom bermoq;
- kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq» (20-bob).

Bundan tashqari, kishilar uchun xos bo'lmagan munofiqlik xislati xususida ham so'z yuritiladi, chunonchi, «Rasululloh sallallohu alayhi vassallam aytganlar: «Quyidagi to'rtta xislat kimda bo'lsa, aniq munofiqlik bo'lg'aydir, kimdagi, ulardan bittasi bo'lsa uni tark etmaguncha munofiqlikdan bir xislati bor ekan, deyiladi:

- omonatga xiyonat qilgaydir;
- so'zlasa yolg'on so'zlaydir;
- shartnoma tuzsa, shartida turmagaydir;
- urishib qolsa, kek saqlagaydir va nohaqlik qiladir (25-bob).

Hadislarda inson ma'naviy kamolotining mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallaganligi, o'z bilimi bilan atrofdaqilar va jamiyatga foyda keltirguvchi shaxs bo'lib etishishida muhim omildir, deya ko'rsatiladi. «Tolibi ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga har bir narsa istig'or aytadi, hatto dengizdagi baliqlar ham». Bilimsizlik kishilarning nodonligiga zamin hozirlashi, ilmsiz jamiyatda esa jaholat hamda razolatning hukmronlik qilishi

aloqida ta'kidlab ko'rsatiladi. «Ilm o'rganmoq va o'rgatmoqning fazilati» borasidagi hadis (21-bob) da ilm o'rganish ko'p yoqqan yomg'irga qiyoslanadi va ilm ahli quyidagi uch turga bo'ladi: «Ba'zi er sof, unumdor bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradi-da, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradi va ba'zi er qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni emmasdan o'ziga to'playdir, undan Olloh taolo bandalari foydalangaydir. Odamlar suvdan ichgaydirlar, hayvonlari va ekinlarini sug'orgaydirlar. Ba'zi er esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydir, ko'katni ham ko'kartirmaydir. Bularni quyidagicha muqoyasa qilish mumkindir: Bir kishi Olloh ilmini (Islomni) teran o'rganadir, teran tushunadir va undan manfaatlanadi va Olloh yuborgan hidoyatni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadir. Ikkinchi bir kishi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadir. Ammo o'zi amal qilmaydir. Uchinchi bir kishi mutakabburlik qilib, o'zi ham o'rganmaydir, o'zgalarga ham o'rgatmaydir».

Ammo ilmga e'tiborsizlik va nodonlik (jaholat)ning avj olishi jamiyatning inqiroziga olib keladi. Hatto Rasululloh quyidagilar qiyomat alomatlaridir, deganlar:

- ilmning susaymog'i;
- jaholatning kuchaymog'i;
- zinoning avj olmog'i;
- xotinlarning ko'paymog'i;
- erkaklarning ozaymog'i.

Demak, qiyomatni odamlarning o'zlari sodir etadilar. «Ilm ravnaq topmagan mamlakatda zino avj olgan, o'zaro urushlar kuchayib, erkaklar ozayib ketganda albatta, qiyomat qoyim bo'ladi» (22-bob). Shu bois «Ilmga amal va rioya qiluvchi bo'linglar, uni faqat hikoya qiluvchi bo'lmanglar», – deyiladi (637-hadis). Islomda ikki xil ilm haqida so'z yuritiladi: biri huquqiy (fiqh), diniy yo'l-yo'riqlar to'g'risidagi ilm bo'lsa, ikkinchisi dunyoviy ilmlardir. Har ikki turdagi bilimlarni chuqur egallash va ularga qat'iy amal qilish har bir mo'min uchun farz hisoblanadi.

«Ilmning ofati unutishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoe qilishdir» mazmunidagi hadis orqali o'zlashtirilgan ilmni takrorlab borish, faqat chuqur va puxta bilimlargagina ega bo'lgan kishilarning atrofdagilarga ilm berishining maqbul ekanligiga urg'u beriladi. Hadislarda ilmning kishilarni fahm-farosatli, o'tkir zehni, zukko hamda xotirani kuchli qilishdagi ahamiyati ham ta'kidlanadi va «Ilmu hunarni Xitoydan bo'lsa ham borib o'rganinglar», – deya da'vat etiladi. «Olim bo'l, ilm beruvchi bo'l yoki ilm o'rgatuvchi bo'l yoki tinglovchi bo'l. Beshinchisi bo'lma, halok bo'lasan» mazmunini ilgari suruvchi hadisning bayon etilishi orqali ham ilmli bo'lish insonni falokat va uning yomon oqibatlaridan saqlovchi omil ekanligiga urg'u beriladi (41-hadis).

Bir qancha hadislarda ilmning ibodatdan ustun ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Xususan, «Ilm ibodatdan afzal va u taqvo dinining ustunidir» (268-hadis). Biroq ilmning manfaatsiz holda sarflashdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi aytiladi va ilm ahlini ana shunga da'vat etiladi (173-hadis), haqiqiy komil insonning bilimga boy, xushxulq, sog'lom bo'lishi (182-hadis), uni faqat foydali ishlar va insonlarning farovon hayot kechirishlari yo'lida sarf etish kerakligi ham uqtiriladi: «Boshliq bo'lmasingizdan avval ilmni chuqur o'rganing! Rasulloh sallallohu alayhi-vassalamning sahobalari yoshlari ulg'ayganda ham ilm o'rganganlar. Rasulloh sallollohu alayhi-vasallam: ikki narsadan o'zgasiga hasad qilmoq joiz emas biri-kishiga Olloh taolo halol mol-dunyo bersa-yu, uni Haq yo'lida sarflayotgan – bo'lsa; ikkinchisi – kishiga Olloh taolo ilmu hikmat ato etsa-yu, u shu tufayli oliy maqomga erishib, hukm surayotgan, odamlarga bilganini o'rgatayotgan bo'lsa, – deydilar.

Ma'lumki, islom ta'limotida eng yuksak xislatlardan biri sifatida ota-onaga g'amxo'rlik, ularni e'zozlash, ota-ona haqqini o'z o'rniga qo'yish, farzandning ular oldidagi haqqi borasidagi masalalarning yoritilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Hadislarda ham ana shu talablar o'z ifodasini topgan. Ota-onani xafa qilib yig'latish eng katta gunohlar sifatida e'tirof etilgani quyidagi, ya'ni Olloh taoloning mavjudligiga shirk keltirish, odam o'ldirish, urush maydonidan qochish, afifa (o'zini pokiza saqlagan) xotinni fohisha deb tuhmat qilish, ribo (ijaraxo'rlik), etimlar molini emoq, Olloh taoloning qudrati va irodasini inkor qilish, odamlarni masxaralash hamda ularni kamsitish kabi gunohlar qatorida tilga olib o'tiladi. Hadislarda ota-onaning dilini og'ritib, ozor berish, ularni xafa qilib, buyruqlarini bajarmaslik ham qoralanadi: «Abdulloh ibn Amr (roziyollohu anhu) aytadilar: bir kishi Rasulloh huzurlariga hijrat qilmoq uchun bay'at qilishga keldi. Ammo ota-onasi uning ketishiga rozi bo'lmay, xafalikdan yig'lab qolgan edilar. Shunda Rasulloh: «Sen hozir ota-onang oldiga bor! Hijrat qilaman deb ularni xafa qilganingdek, endi hijrat qilmaydigan bo'ldim, deb ularni xursand qil», – dedilar (13-hadis). Islomda eng katta gunoh Olloh Taologa shirk keltirish va ota-onaga oq bo'lish hisoblanishi 15-hadisdan alohida ta'kidlanadi. Ota-onaning ham o'z navbatida farzandlarini tarbiyat etmogi, odob o'rgatishi, yaxshilik qilishi lozimligi ta'kidlanadi: «Namir ibn Avs aytishlaricha, o'tmish kishilari bolalarning solih-qobil bo'lishlari Olloh taoloning tavfiqi bilan bo'ladi, ammo ularga odob-axloq o'rgatish otalari vazifasidir, der edilar» (92-hadis)».

Har bir kishining ota-onasiga yaxshilik qilganidek, bolalariga ham yaxshilik qilishi shartligi, zero, inson bo'ynida ota-onaning haqqi bo'lganidek, bolaning ham haqqi borligi xususidagi g'oyalar Qur'oni Karimda ham, Hadisi sharifda ham uqtiriladi.

Har bir inson qilgan ezgu amallari va odob-axloqi bilan yaxshi nom qoldiradi. Mazkur holat hadislar mazmunida shunday talqin etiladi: «Mo'min kishiga vafotidan keyin savobi tegib etib turadigan amali solihlar quyidagilardir:

1. Tarqatgan ilmi.
2. Qoldirgan solih farzandi.
3. Meros qoldirgan Qur'oni.
4. Qurgan masjidi.
5. Yo'lovchilar uchun qurgan mehmonxonasi.
6. Qazigan arig'i.
7. Tirikligida va sog'lomligida sadaqa – ehson uchun ajratgan moli».

Haqiqatan ham inson hayotdan o'tadi, lekin u ilm-ma'rifat, ziyo tarqatishda, xalq farovonligi yo'lida qilgan ishlari bilan xalq orasida abadiy qoladi. Ana shunday xislatlardan eng muhimi saxovatdir.

Bir qancha hadislar mazmunan insonni saxovatli bo'lishga undaydi. Saxovatli inson jamiyat taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shadi, uning ravnaqi yo'lida mehnat qiladi, atrofdagilarni o'zi ega bo'lgan ne'matlardan bahramand etadi.

Hadislarda kishilar ana shu xislatga egaliklariga ko'ra quyidagi to'rt guruhga bo'linadilar:

1. Olloh taolo bir bandaga mol bergan va ilm bergan. U bandaga berilgan mol va ilmning tasarrufida taqvo qiladi va silai rahm qiladi. Ilmi va molidan Olloq uchun xaq ajratadi. Bu eng afzal o'rin.

2. Bir banda bor. Olloh unga ilm bergan, lekin mol bermagan. Lekin uning niyati to'g'ri: agar Olloh menga mol bersaydi falonchiga o'xshab sarf qilardim. U shu niyatiga qarab teng ajr oladi.

3. Bir banda bor. Olloh unga mol bergan, ilm bermagan Mol tasarrufida Ollohdan qo'rqmaydi. Molidan qarindoshlariga bermaydi. Bu esa eng yomon o'rindir.

4. Bir banda bor. Olloh unga mol ham, ilm ham bermagan. U aytadiki, agar Olloh menga ham bergandaydi falonchiga o'xshash ish qilardim. U shu niyati bilan o'sha kishiga barobar hisoblanadi (savob va gunohda).

Hadislarda insoniy xislatlardan ezgulik, iffat, sabr-qanoat, shukronalik kabilar ulug'lansa, isrofgarchilik, ta'magirlik, ochko'zlik. Nafsu havo hamda shahvoniy hissiyotlarga berilish, baxillik, johillik kabi illatlar qoralanadi. Aksariyat hadislar mazmunini yoritishda «yaxshi siyrat» va «iqtisod» tushunchalari qo'llaniladi. Chunonchi, «yaxshi siyrat, chiroyli hay'at va har bir ishda iqtisodchilik etmish xislatdan bir bo'lagidir» (468-hadis). «Yaxshi siyrat» tushunchasi yaxshi muomala, go'zal odob-axloq, ibratli hayot, chiroyli hayot – tashqi ko'rinish ma'nosini anglatrsa, «iqtisod»

tushunchasi har bir xatti-harakatni tashkil etishda ma'lum me'yorga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligini nazarda tutadi. Ushbu g'oya quyidagi hadisda ham o'z ifodasini topgan: «Sizlarning uchta ishingiz uchun Olloh taolo rozi va uchta ishingiz uchun g'azablik bo'ladi: birinchisi, ibodatni Ollohnig o'zigagina qilib, ibodatda boshqa narsalarni unga sherik qilmasliklaringizga; ikkinchisi, Olloh taoloning dini va Qur'oniga e'tiqod qilmog'ingizga; uchinchisi, Olloh taolo sizga boshliq qilib qo'ygan kishiga xayrixoh bo'lmog'ingizga rozi bo'lsa, bo'lar-bo'lmas gapni naql qilishib yurmog'ingizga, ko'p surishtiraverishlik yoki so'rashlik (gadoylik qilish) va molni noo'rin erlarga sarf qilib zoe qilmog'ingizga g'azablanadi» deganlarini isbotlaydi (206-bob, 242-hadis).

Shu bilan birga, hadislarda yana kishilarni baxillik va mol-mulkka hirs qo'yishdan saqlanish kerakligi, kelajakka nisbatan ishonch bilan yashash xususidagi fikrlar ham o'rin olgan. Chunonchi, «Birortangiz ekish uchun qo'lingizda biror ko'chatni ushlab turgan vaqtingizda qiyomat qoyim bo'lib qolsa-yu, qiyomat qoyim bo'lishidan ilgariroq uni ekib olishga ko'zingiz etsa, albatta, ekib qo'ying», – degan fikrlar hayotga bo'lgan umid, kelajakka bo'lgan ishonchning yorqin ifodasidir.

Xulq-odob haqidagi hadislarda ezgu insoniy xislatlar ulug'lanib, gunoh sanalgan illatlar qoralanadi.

Bundan tashqari, sha'riy udum va urf-odatlariga amal qilish, ularni o'tkazishga oid xulq-odob qoidalari ham bayon etiladi. Turli marosimlarni o'tkazish tartibi, safar qoidalari, salomatlikni saqlash, salomlashish, muomala madaniyati, bemor kishi holini so'rash odobi, kiyinish qoidalari, emoq-ichmoq, so'zlashish odobi va hokazolar haqida turli tavsiyalar beriladiki, ular bevosita keyingi davrlarda yaratilgan odob-axloq qoidalari borasidagi risolalarning mazmunini yoritishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Hadislarda jamiyat ravnaqi, insoniyat taraqqiyotining ta'minlanishiga ta'sir etuvchi muammolarga ham jiddiy e'tibor berilgan. Ularning orasida ekologik muammolarga alohida o'rin ajratilgan bo'lib, necha asrlardan buyon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ana shunday muammolar mohiyatini o'z mazmunida aks ettirgan hadislarda ekin hamda ko'chatlarni o'tqazish, ularni himoya etish, ariq-zovurlar qazish va ularni vaqti-vaqti bilan tozalab turish, suv chiqarish kabi ezgu ishlarni amalga oshirishga undovchi fikrlar mujassamlangan. Masalan, tirik jonivorlarni o'ldirmaslik (shariatdan o'ldirishga buyurilgan ilon va chayondan bo'lak), jonivorlarga g'amxo'rlik qilish, ularga ozor bermaslik, inson yashaydigan joyni unga ozor beradigan narsalardan tozalash (227- va 446-hadislar), kishilarga soya beruvchi daraxtlarni kesmaslik, hovli sahnlarini toza tutish haqidagi hadislar shular jumlasidan.

Hadislarda yomon ishlar, illatlar, yomon xatti-harakatlar gunoh sifatida qoralansa, inson farovonligi, jamiyat ravnaqi uchun qilinadigan yaxshi, ezgu hatti-harakatlar, faoliyat savob tarzida olqishlanadi.

Shunga ko'ra, etim molini eyish, mol-dunyoga hirs qo'yish, yolg'onchilik, g'iybatchilik, tuhmat, zino, ichkilikbozlik, giyohvandlik, foydasiz gapni ko'p gapirish va boshqa illatlar gunoh hisoblansa, ota-ona, keksalar, zaiflar va muhtojlarga g'amxo'rlik qilish, ularni yo'qlab turish, marhumlarni yaxshi so'zlar bilan xotirlash, omonatga xiyonat qilmaslik kabilar savob sanalishi alohida ta'kidlanadi.

Inson kamoloti bevosita uning salomatligi bilan bog'liqdir. Zero, sog'lom insongina ham oila, ham jamiyatning ravnaq topishi yo'lida faoliyat ko'rsata oladi. Hadislar, umuman, Islom ta'limotida tozalik va poklik, shu jumladan, ruhiy va jismoniy poklikka katta e'tibor beriladi: «Haq taolo o'zi pok, poklikni yaxshi ko'radi. O'zi toza, tozalikni yaxshi ko'radi. o'zi oliyhimmatdir, oliyhimmatlikni yaxshi ko'radi. O'zi ochiqko'ngil, ochiqko'ngillikni yaxshi ko'radi. Eshiklarning oldini pokiza tutinglar» (190-hadis).

Hadislarda inson erki, ozodligi va unga dahl qilmaslik masalalarining yoritilishiga ham katta ahamiyat berilgan.

Islom ta'limotida hartomonlama etuk bo'lishi uchun insonning erkin bo'lishi kerakligi borasidagi fikrlar Qur'oni Karimda ham, Hadisu sharifda ham birdek e'tirof etilgan. Xususan: «Olloh taologa farzlardan so'ng amali solihlarning eng sevimlisi musulmon kishining diliga xursandchilik solishdir» (33-hadis); «Olloh o'zi kechirguvchi zot, kechirguvchini yaxshi ko'radi» (191-hadis); «Olloh taolo zulm qilmagan qozi bilan birgadir. Agar qozi jabr qilsa, Olloh undan uzoqlashadi va shayton unga yaqinlashadi» (194-hadis) kabi hadislar buning yaqqol dalilidir. Chunki inson qanchalik qadrlansa, barcha ezgulik va yaxshiliklar insonga yo'naltirilgan bo'lsa, uning manfaati uchun xizmat qilsa, inson ham shunga ko'ra kamol topaveradi, yuksaklikka ko'tariladi, o'z navbatida bunday insonlar yashaydigan jamiyat ham rivojlanaveradi.

Demak, hadislar Muhammad payg'ambarimizning sunnatlari bo'lib, mazmunan har bir mo'minning ishonchi, e'tiqodini mustahkamlaydi, shu bilan insonni ma'naviy kamolotga etaklaydi. «Islom dini ma'rifatga asoslangani uchun ham har bir shaxsni aqliy, jismoniy jihatdan kamolga etkazishga oid e'tiqod va iymondan iborat bo'lib, faqat ezgulikka xizmat qilish, oliyjanob bo'lish, pokiza yurish, bir burda luqmani halol qilib eyish, jaholat va jaholatparastlikka yo'l qo'ymaslik, o'z birodarining, qarindosh-urug'larining, millatining va vatanining qadriyatlarini asrashdan iboratdir». Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

So'fiylik ta'limoti

So'fiylik ta'limoti VIII asr oxiri – IX asr boshlarida paydo bo'lib, butun musulmon mamlakatlari, shu jumladan, Movarounnahrda ham keng tarqalgan. So'fiylik butun Sharq ma'naviy hayotida inson kamoloti xususidagi g'oyalarning shakllanishida muhim o'rin tutdi.

So'fiylik musulmon Sharqi xalqlarining ko'pasrlik ma'naviy hayotining g'oyaviy asosini belgilab bergan ta'limot bo'lib maydonga chiqdi. U ilohiy poklik va insoniy go'zallikni idrok etish yo'li, haq va haqiqatni himoya qilish vositasi bo'lib xizmat qildi. So'fiylik ko'p qirrali oqim bo'lib, «sof», «yagona» so'fiylik hech qachon bo'lmagan. U turli ko'rinishlar, oqimlar tarzida namoyon bo'lgan. Ammo har biri ham inson takomili muammosiga turlicha yondoshib, uni o'ziga xos yo'l, qarash asosida talqin etgan. So'fiylik ta'limoti g'oyalariga e'tiqod va amal qiluvchi kishilar so'fiylar deb nomlanadi.

So'fiylik ta'limotida komil inson, bu – dono, oqil, pok niyatli odamdird. So'fiylar ilohiy poklik, nafosat, e'tiqod va tafakkur insoniyatni baloqazolardan asraydi deb bilganlar. Ular mazkur g'oyalarga muvofiq hamda ularga amal qilgan holda haqiqat uchun intilganlar. Aslida esa, komil insonning shakllanishi, bu – ularning ideali, orzui bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, ular komil, etuk va ma'rifatli inson idealini yaratish asosida jaholat, nodonlik, hirs va ta'maga qarshi kurashganlar.

Komillikning mezoni ikki narsa: birinchisi, axloq, ya'ni, mo'min-musulmon, solih inson bo'lish; ikkinchisi – o'z-o'zini tanishdan iboratdir.

VIII asr oxiri – IX asr boshlarida so'fiylik ta'limoti paydo bo'ldi. So'fiylik ta'limoti va uning mohiyati xususida ko'p tadqiqot olib borilgan bo'lib, mazkur manbalar so'z yuritilayotgan ta'limotni o'rganishda boy manba bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asari so'fiylar silsilasi haqida qimmatli merosdir.

Bu oqim VII – VIII asrda arab mamlakatlarida paydo bo'lib, so'ngra boshqa musulmon mamlakatlari, xususan, Movarounnahrda ham keng yoyildi. Lekin olimlar bu oqimning ba'zi ko'rinishlari islomgacha ham mavjud bo'lganligini ta'kidlaydilar.

So'fiylik nazariyasiga ko'ra, dunyo, mavjud borliq xudoning mujasamlanishi. Xudo barcha ko'rinadigan narsalarda, narsalar esa xudoda mavjud. Borliq dunyoviy ruh shaklida butun olamga tarqalgan va xudo singari yagonadir. Inson esa ana shu ruhning bir qismi, shu bois ertamikechmi u bilan qo'shiladi.

Amaliy qism axloqiy me'yor va xulq-atvor qoidalarining muayyan sistemasidan iborat bo'lib, bu me'yor va qoidalar xudbinlik va shaxsiy manfaatlardan o'zini tiyishni talab etadi.

Soʻfiylik musulmon Sharqi xalqlarining koʻpasrlk maʼnaviy hayotining gʻoyaviy asosini belgilab bergan taʼlimot sifatida maydonga chiqdi. U ilohiy poklik va insoniy goʻzallikni idrok etish yoʻli, haq va haqiqatni himoya etish vositasi boʻlib xizmat qildi. Soʻfiylik asosan uch oqimga mansub:

Birinchi oqim Mansur Xalloy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiyl mansub boʻlgan oqim. Ularning taʼlim berishcha, xudo har jihatdan komildir, eng oliy goʻzallik, shodlik, baxt uning vaslidadir, foniyl boʻlishidadir. Inson oʻzini haqiqatga – xudoga nisbatan hech deb bilishi kerak. Inson yashayotgan hayot haqiqiy baxt-saodat bera olmasligi, asl, haqiqiy osudalik, baxt-saodat faqat xudoda, uning vaslida ekanligi, u bilan vahdat tashkil etish, yaʼni uning vasliga etish kerakligi xususidagi qarash-ni ilgari suradilar. Lekin ular taqvoni riyodan ajratib, oliy haqiqatga intilishni jannat va doʻzax haqidagi intilishlardan farq etib borishlari bilan ajralib turadilar. Insonning ichki kechinmalari holatiga ahamiyat berib, chin ixlos va sidqni birinchi oʻringa qoʻyadilar. Soʻfiylar qalbni har qanday xudbinlik, riyo, taʼmagirlik, hasham va mol-dunyoga oʻchlikdan tozalab borish bilan oliy haqiqat koʻzgusiga aylantirishni, yaʼni poklikni asosiy maqsad qilib qoʻyadilar.

Soʻfiylar inson maʼnaviy-ruhiyl komillikka erishish yoʻlida quyidagi toʻrt bosqichni oʻtishi kerak deb hisoblaydilar.

Birinchi bosqich – Shariat. Diniyl marosim va shariat aqidalari(taqvolar)ni aynan, izchil bajarish. Chunki shariat – qonun boʻlib, bu qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi.

Ikkinchi bosqich – Tariqat. Nafsni tiyish, xushnudlik, xilvat, maʼnaviyl muhabbatni takomillashtirib, xudo toʻgʻrisida oʻylash, yaʼni oʻzdan kechish, koʻngilni poklab, ruhni nurlantiruvchi faoliyat shakli.

Uchinchi bosqich – Maʼrifat. Hamma narsa, butun borliqning asosi xudo ekanini, oʻzlikning mohiyati xudoning mohiyati bilan uygʻun ekanligini bilish va anglash. Mazkur holatda odam uchun kibru havo, man-manlik hamda shon-shuhrat beʼmani boʻlib koʻrinadi. Shunda u orif, yaʼni bilimli va xudoni tanigan inson boʻladi.

Toʻrtinchi bosqich – Haqiqat. Mazkur bosqichda soʻfiyl xudoning dargohiga etishadi, vasliga vosil boʻladi, u bilan birlashadi, vahdat (ta-vahhud) tashkil etadi va shu asosda inson foniyl, yaʼni «anal-haq» boʻla oladi.

Bu oqim tarafdorlaridan birinchi soʻfiyl eronlik Abu Yazdit Tayfur al-Bistomiyl (875 -yili vafot etgan). Soʻfiyl Husayn ibn Mansur Halloy esa oʻzining xudo bilan «qoʻshilganini» isbotlash uchun «Anal-Haq» («Men haqman», «Men xudoman») deb daʼvo qiladi hamda oʻz taʼlimotini ilgari suradi. U Qurʼonning muqaddasligi va Muhammad alayhis-salomning

payg'ambar ekanligini inkor etishga uringanlikda ayblanib, xurofotchilar tomonidan qatl etiladi. Zero, ushbu ta'limot saroy ahli va jaholat bilan yaqinlashgan ba'zi kalom va falsafa ilmi ulamolariga yoqmadi, oqibatda qalbni oliy haqiqatga erishish yo'lida poklash maqsadini ilgari surgan ezgu ta'limot bid'at deya baholandi.

So'fiylikning ikkinchi oqimiga mansub bo'lgan so'fiylar birinchi oqim namoyandalari tomonidan ilgari surilgan qarashlarni qabul qilganlar, biroq mazkur qarashlarni islom ta'limotida targ'ib etilgan tartib-qoidalarga moslashtirganlar. Bu oqimning eng mashhur nazariyotchisi Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy (1058–1111 - yillar) hamda Ahmad Yassaviy sanaladilar.

Imom G'azzoliy so'fiylik ta'limotining asoschilaridan biri bo'lib, «Hujjat-ul-islom» laqabini olgan. Alloma to'g'risida so'z yuritilganda, hatto «Qur'on yo'qolib qolsa, uni G'azzoliyning asarlari bo'yicha tiklash mumkin» degan fikrlarni bildirganlar. Imom G'azzoliy tomonidan yaratilgan «Tahofut al-falosifa» («Faylasuflarni rad etish»), «Kimyoi saodat» («Saodat kimyosi»), «Ixya ulum ad-din» («Diniy ilmlarni tiriltirish») kabi islom ilohiyoti sistemasining shakllanishiga zamin hozirlagan asarlar alloma faoliyatiga nisbatan shunday yuksak baho berilishiga sabab bo'lgan.

Imom G'azzoliy inson kamolga etishi, ya'ni xudo vasliga etishi uchun ma'lum shartlarni bajarib, muayyan yo'lni bosib o'tishi kerak, deydi. Har bir so'fiy islom talablari – qonun-qoidalari, aqidalari hamda Qur'onni haqiqat deb bilib, unga tobe bo'lishi va ularga so'zsiz amal qilishi yuqorida qayd etilgan yo'lning bosib o'tish shartlaridir, deya uqtiradi.

Alloma so'fiylik nazariyasining mohiyati xususida so'z yuritib, ular haqiqatni mantiqiy mulohazalar asosida emas, balki ichki kechinmalar vositasida bevosita hissiy tarzda anglaydi, deb ko'rsatadi. So'fiylarning ichki holatini nazariy bilimlarni egallash, suhbatlar tashkil etish, manbalarni o'qish orqali emas, balki ularning turmush tarzini qabul qilish orqaligina anglash mumkin. Mazkur yo'l ko'ngilni his bilan yaratilgan ma'lumotlardan ozod etadi va ana shunda ma'rifat manbai paydo bo'ladi, dunyo ravshan bo'ladi. O'rganish yo'li bilan emas, balki o'zdan chekinish, ma'naviy vujudning qaytadan yaralishi tufayligina oxirgi chegaraga erishish mumkinligi alloma qarashlarining asoslari sifatida namoyon bo'ladi.

So'fiylikning uchinchi oqimi Naqshbandiya ta'limotining yaratilishi bilan bog'liqdir. Mazkur oqim XIII asrning oxirlarida shakllana bordi. XIV–XV asrlarda esa Markaziy Osiyoda ustuvor mavqega ega bo'lgan ta'limotga aylandi. Naqshbandiya tariqati rivojlangunga qadar, Markaziy Osiyoda Ahmad Yassaviy tomonidan asos solingan yassaviya tariqati hukmron ta'limot edi.

Ahmad Yassaviy 1041 -yili Saryom (Sayram) qishlog'ida Shayx Ibrohim xonadonida tug'iladi. Etti yoshida otasidan, so'ng onasidan etim qoladi. U Arslonbob nomli inson qo'lida hamda aksariyat tolibi ilmlar kabi Buxoroda tarbiya va tahsil oladi. U erda mashhur Yusuf Hamadoniydan suluk odoblarini o'rganib, so'ng Turkistonga qaytadi va o'z tariqatiga asos soladi. U so'fiylik g'oyalari, o'z tariqati asoslarini targ'ib etishda she'rlaridan foydalanadi. Islom dini aqidalari va o'zi asoslagan g'oyalarni she'riy tarzda bayon etish asosida keng omma orasiga kirib boradi. Yassaviy hikmatlarining axloqiy, falsafiy, ilohiy asoslari to'g'ridan-to'g'ri «Qur'on» g'oyalari va payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salom hadislarini negizida shakllanadi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida Muhammad alayhis-salom ta'limotida ulug'langan ma'naviy-axloqiy xislatlar – muruvvat, saxovat, qanoat, a rostgo'ylik targ'ib qilinadi, bildirilayotgan fikrlar kishilarni faqat Ollohga tobe bo'lishga undaydi. Uning hikmatlarida pand-nasihat asosiy o'rin tutadi. Ularning barchasida so'fiylik tariqatining a'mollari – haqiqatni bilish. Haqni sevish, nafs dunyodan chekinishga da'vat etuvchi g'oyalar o'z aksini topgandir. Inson ruhi va ongini har qanday illat, qabohatdan ozod etish kerak, ana shundagina inson axloqida ko'zga tashlanuvchi ayrim nuqsonlar yuzaga kelmaydi, degan fikrlar komil insonni shakllantirishning asosiy yo'llaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Zero, tasavvuf – nafs lazzatlaridan voz kechishdir. Nafs – ochko'zlik, o'g'rilik, jaholat, xudbinlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun qanoat Ahmad Yassaviyning hayotiy shiori sanaladi. Oziga qanoat qilish, shukronalik, halol luqma eyish orqali inson Haq bilan «ko'risha» oladi, nafsqa mute bo'lganlar esa xudbinlikdan qaytmaydi, nafs balosiga uchraydi. Xususan:

*Nafsdan kechib, qanoatni pasha qilg'on,
Har kim topsa, rozi bo'lib, bo'yi sung'on
Yaxshilarga xizmat qilib duo olg'on,
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo'q.*

*Jondin kechmay hu-hu degan bari yolg'on,
Bu gumrohdin so'rmang savol, yo'lda qolgan,
Haqni topgan o'zi pinhon, so'zi pinhon,
Ul sababdan oltmish uchda kirdim erga.*

*Banda bo'lsang mehnat tortg'il g'ofil odam,
Oqil ersang g'animatdur senga shul dam.
Omonatdir aziz joning yurma beg'am,
Eshitib o'qib erga kirdi qul Xoja Ahmad.*

Ahmad Yassaviy nodonlik tufayli hayotda savodsizlik, diyonatsizlik, ota-ona va ustozlarga hurmatsizlik, ma'naviy qashshoqlik, yovuzlik, takabburlik, nodon insonning eng tuban shaxs ekanligi, nodonlik, razolat hukm surgan joyda, ma'rifat bo'lmagan o'lkada mamlakatning inqirozga yuz tutishini alohida qayd etib o'tadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida Haqqa etish yo'lini targ'ib qilar ekan, insonni jaholat botqog'idan xalos qilish lozimligini alohida ta'kidlaydi. U «shariatda orif-billoh bo'lishni, tariqatda voqif-asror bo'lishni, haqiqatda komil–mukammal bo'lishni, ma'rifatda daryoi ummon bo'lishni talab qiladi».

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan anglanadiki, Ahmad Yassaviy tomonidan ilgari surilgan g'oyalar insonni yomon illatlar, nafs balosidan voz kechishga undaydi. Yomon illatlar va nafs balosidan xalos bo'lish insonni ruhiy va jismoniy komillik sari etaklaydi.

Aslini olganda, Mansur Xalloy ham, Imom G'azzoliy ham, Ahmad Yassaviy ham ruhiy kamolotga intilganlar. Zero, ular intilgan komillik – Haqqa etishish, unga muhabbat qo'yish, shu ishq dardi bilan yashash, tavba-tazarru, sabru qanoat, shijoat, to'g'rilik, rostgo'ylik, samimiyat, nafsni tiyish, undan g'olib kelish, har bir inson qalbini chirkin illatlardan xalos etuvchi faqr fano kabi xislatlarning majmuidan iboratdir. Ular inson kamolotining ta'minlanishi uchun turli yo'llarning samarali ekanligini asoslashga harakat qilganlar. Shu bilan birga, tadqiqotchilar yassaviya ta'limoti g'oyalariga ko'ra zolim hukmdor, nopok din peshvolari, nodon va johil kishilarga nisbatan muxolifot mavjudligi ta'kidlanganligidan guvohlik beradilar.

XIV asrning boshlariga kelib, Movarounnahrda so'fiylikning yana bir oqimi – naqshbandiya tariqati shakllandi.

Naqshbandiya ta'limoti o'zining hayotiy g'oyalari bilan boshqa tariqatlardan tubdan ajralib turadi. Naqshbandiya tariqatining ildizi uzoq davrlar, ya'ni Sharq Uyg'onish davriga borib taqaladi. Markaziy Osiyoda ikki buyuk olim – Abulqosim Ali al-Xaraqoniy (1034 -yili 80 yoshida vafot etgan) hamda Abu Ali al-Farmadiy (1084 -yili vafot etgan)ning so'fiylik ta'limoti rivojida katta hissalari bor ekanligini ta'kidlaydilar. Tasavvuf olamining mashhur faylasuflari Ahmad al-G'azzoliy va Yusuf Hamadoniy (1049–1140 -yillar) Abu Ali al-Farmadiyning shogirdlari sanaladilar.

Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Abdulloh Barraqiyl (Barkiy), Xoja Ahmad Yassaviy va Xoja Abdulholiq G'ijduvoniyl tasavvuf ilmi bo'yicha Yusuf Hamadoniyl qo'lida chuqur ta'lim olgan to'rt mashhur shayxlar sanaladilar.

Xoja Abdulxoliql G'ijduvoniyl

Xoja Abdulholiq G'ijduvoniyl keyinchalik Xojagonlar (Naqshbandiya) tariqatiga asos soladi. Xoja Abdulxoliql G'ijduvoniyl 1103 -yili Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanida tavallud topgan. U boshlang'ich ta'limni G'ijduvonda olgach, Buxoroga kelib, Yusuf Hamadoniylga shogird tushadi. Xoja Abdulxoliql G'ijduvoniyl Yusuf Hamadoniyl qo'lida ta'lim olib, «zikri dib» («xufya usuli bilan zikr aytish»)ga ijozat bo'lgach, ushbu sulukka o'tadi.

Xoja Abdulxoliql G'ijduvoniyl ma'lum tahsilni olib, tariqat peshvosi darajasiga etgach xojagon (keyinchalik naqshbandiya) tariqatining mohiyatini belgilovchi va mazkur ta'limotning asosiy aqidalari hisoblangan talablarni yaratadi. Bu aqidalarning to'rttasiga dastlab Yusuf Hamadoniyl tomonidan tartib berilgan bo'lib, ular:

1. Xush dar dam – tiriklik nafasda. Ichkaridan chiqayotgan har bir nafas ogohlik va huzur yuzasidan bo'lishi, g'aflat unga yo'l qo'ymasligi kerak.

2. Nazar bar qadam, ya'ni nazar qadamda. Solik yo'l yurganda uning nazari doimo oyoql panjalarida bo'lsin, nazari sochilmasin va keraksiz joyga tushmasin, degan ma'noni bildiradi. Bu insonni har bir ishga mas'uliyat bilan qarashga, behuda narsalar uchun hayotni, vaqtini sarf etmaslikka undaydi.

3. Safar dar vatan – solik odamiylkning tabiatida safar qilsin, ya'ni yomonlikdan yaxshilik tomon yursin degan ma'noni bildiradi.

Abdurahmon Jomiynnig bir bayti sharhida «yurakning ma'naviy oynasi olamning zabt etuvchi zaxmatlaridan xalos bo'lsa, soflik va nuroniylik bilan bezansa, tabiiyl xohishlar zulmat undan ko'tarilsa, yaratuvchi tajalliyoti va ilohiyl sifatlarni qabul etish uchun safar va sulukka hojatl qolmaydi. Chunki safar, sayr va sulukdan maqsad yurakka sayqal berish va uni tozalashdir», – deb ta'kidlanar ekan, suluk safar qilish-qilmasligi ularning xojagonlar malakasini hosil qilishlariga bog'liql. Agar o'z yurtlarida bunday ta'limni amalga oshiruvchi azizni topsalar, tarki safar aylab, «chidam xislatini» hosil qilmog'i, «xojagonlarning nisbat malakasini qo'lga kiritish»i mumkin, – deyiladi.

4. Xilvat dar anjuman – solik tashqi tomondan xalql bilan, qalban Haql bilan birga degani.

Yuqorida keltirilgan to'rt aqidaga Abdulholiq G'ijduvoniylar quyidagi to'rt aqida(talab)ni qo'shadi:

Yodkard – bu til yoki dil zikri bo'lib, «Lo iloha illallohu Muhammad Rasulloh»ni uch marta dilda aytish, ya'ni Ollohning yagonaligi hamda Muhammad alayhis-salomning uning erdagi rasuli ekanligini zikr etish.

Bozgasht – turli fikrlardan xalos bo'lish, tashqi olamdan ajralishga intilish. Bunda kalimai tayyibani necha marta aytsa ham xayolni boshqa narsalarga bo'lmaslikdir. Bu – fikrni, diqqatni bir joyga to'plashga yordam beradi.

Nigohdasht – turli fikrlardan xalos bo'lish, xayolni boshqa narsalarga bo'lmaslik. Bunda xayol quvvatini Olloh yodi borasidagi yagona g'oyada saqlab qolish malakasi hosil bo'ladi.

Yoddasht – Olloh bilan doimo birga ekanligidan zavq olishdir. Yoddasht hosil bo'lganda Haq muhabbati ko'ngilni qamrab oladi, huzur baxsh etadi.

Xoja Bahovuddin Naqshband, o'z navbatida, quyidagi uch talabni qo'shadi:

Vuqufi zamoniylar – solik o'z yo'lida har vaqt, har bir nafasda Ollohg'a shukronalik va uzr aytmoqlikdan voqif bo'lishi kerak.

Vuqufi adadiylar – bu talab ilohiy ilm martabasining boshlanishi sanalib, «Lo iloha illolloh» kalimasini takrorlashdan maqsad uni ko'p aytish emas, balki haqiqatni anglash va zikr toq sonni tashkil etishiga e'tibor berish.

Vuqufi qalbiylar – aytilgan zikrdan qalbning to'liq ogoh bo'lishi.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylarning ta'lim-tarbiyaga oid o'g'itlari hozirgi davrda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Ulardan ba'zilarini keltiramiz:

– Ey o'g'il, senga nasihat qilaman:

Jamoat xizmatida bo'lg'in, hadis, fiqh ilmlarini o'rgan, johil so'fiylardan o'zingni saqla, hargiz shuhrattalab bo'lmaginkim, shuhrat ofatdur, mansabni ko'zlamagil. Noming tillarga kam olinsin, qabulgohingga nomingni yozma, xonaqoni maskan qilmagil, hukmdorlar va ularning kishilari birla do'stu hamsuhbat bo'lma, oz so'zla, kam egil, ko'p uxlama, halol egil va haromdan saqlan, hamma kishilarga shafqat ko'zi birla boq, tashqi ko'rinishingga oro bermakim, zohirga oro berish botin(dil, qalb)ning xarobligidandir, kishidan hayr so'ramagil, kishini xizmatga buyurma...

Bu o'g'itlar Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylarning tariqat suluklariga muvofiq keladi.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar 1220 -yili (ba'zi manbalarda 1174 -yil ko'rsatiladi) vafot etgan.

Bahovuddin Naqshband

Muhammad ibn Muhammad Fazl Buxoriy – Bahovuddin Naqshband hijriy 718 (milodiy 1318) -yili Buxoro shahriga yaqin Ko'shki Hinduvon (qasri Orifon) qishlog'ida tug'iladi. Naqshband uning laqabi bo'lib, ota kasbi – kimxobboflik bilan shug'ullanganligi uchun berilgan bo'lsa kerak.

Muhammadning bobosi so'fiylar bilan yaqindan munosabatda bo'lganligi uchun ham, unda tasavvuf ilmiga qiziqish bolalikdan paydo bo'ladi va shu yo'lda tarbiyat topadi.

Muhammad ibn Muhammad tariqat sulukiga oid ilk saboqlarni shayx Hoja Muhammad Boboyi Samosiy va Sayyid Amir Kuloldan oladi. Ammo Hazrat Hoja Bahovuddin Hoja Abdulholiq G'ijduvoniyni o'ziga ustoz bilib, uning yo'lini qabul qiladi.

Bahovuddin Naqshband haqidagi «Maqomat»larda uning Sayyid Kulol bilan bir qatorda, Orif Dekkironiy, Kusam Shayx va Xalil otadan ham tasavvuf ta'limoti bo'yicha saboq olganligi qayd etilgan.

Muhammad ibn Muhammad Fazl Buxoriy ikki marta haj qiladi. Haj safaridan Buxoroga qaytgach, butun umrini shu erda o'tkazadi. Amir Kulolning vasiyatiga ko'ra uning xalifasi bo'lib qoladi. Bahovuddin Naqshband hijriy 791 (milodiy 1389) -yili vafot etib, qasri Orifon qishlog'ida dafn etiladi.

Uning muridlaridan eng mashhurlari Hoja Alouddin Attor va Hoja Muhammad Porsodir.

Bahovuddin Naqshband va'z va pand-nasihatlarni o'z ichiga olgan «Hayotnoma» nomli she'riy to'plam va tasavvufga oid «Dalil al-oshihin» nomli kitob yozgan. Biroq mazkur asarlar bugungi kunga qadar topilgan emas.

Bahovuddin Naqshband naqshbandiya tariqatining asoschisidir.

Bahovuddin Naqshband ta'limoti uning hayotlik chog'idayoq Movaroun-nahrda faqat shahar hunarmandlari orasidagina emas, balki ko'chmanchi turkiy qabilalar orasida ham keng tarqalgan.

Naqshbandiya tariqati Islom dinidagi sunniylik yo'nalishi g'oyalariiga asoslangan bo'lib, uning ma'naviy silsilasi bir tomondan, Abu Bakr Siddiq hamda ikkinchi tomondan, Ali ibn Abu Tolibga borib taqaladigan 12 tariqatning biri sanaladi. Bu silsila «Silsilat az-zahab» («Oltin silsila») deb nomlanadi. Tariqat ma'naviy jihatdan Abu Bakr, jismoniy jihatdan esa Ali ibn Abu Tolib orqali payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salom faoliyati negizida shakllangan.

Naqshbandiya sulukining boshqa suluklardan farqi nimalardan iborat?

Avvalo, naqshbandiya suluki halol mehnat qilish orqali kun kechirish g'oyasini targ'ib qiladi. Bahovuddin Naqshband tomonidan ilgari surilgan «Dil ba yoru dast ba kor» (Dil yorda, qo'l ish (mehnat)da) shiori fikrimizning yorqin isbotidir. Shuning uchun ham naqshbandiya sulukiga kirgan kishilar

mehnat qilish evaziga hayot kechirar edilar. Tunu kun toat-ibodat bilan shug'ullanib, oila, jamiyat yumushlarini tark etish emas, balki oilani farovon, mamlakatni obod etish yo'lida mehnat qilish talab etilar edi. Ushbu talab hadislar mazmunida olg'a surilgan g'oyalarga to'la mos tushadi. Bahovuddin Naqshbandning o'zi ham oddiy, pok inson bo'lib, mehnat qilish evaziga kun kechirgan.

Naqshbandiya tariqatining boshqa suluklardan yana bir farqi shu ediki, boshqa suluklarning tarafdorlari pir oldiga yig'ilib, «Zikri aloniya»ni amalga oshiralar, ya'ni ovoz chiqarib zikr tushsalar, Naqshbandiya tariqatining tarafdorlari «Zikri xufiya»ni amalga oshirganlar, ya'ni ular tomonidan Ollohg'a qilinayotgan toat-ibodat ovoz chiqarmasdan bajarilar edi. «Zikri aloniya»ning mohiyatiga ko'ra Olloh ismi yoki «Lo iloha illolloh» kalimasi bor ovozda ohang yordamida aytilib, raqsu samo' asosida bajarilgan. Ahmad Yassaviy sulukida zikrning mazkur shakli «Zikri arra» deb yuritilar edi. Mazkur amalni ado etish chog'ida zikr tushayotganlarning ovozi yog'och kesayotgan vaqtda arradan chiqadigan ovozga o'xshar edi. «Maqomati naqshbandiy» asarida keltirilishicha, Jaloliddin Rumiy asos solgan mavlaviya sulukidagilar ham ana shu odatga amal qilganlar.

«Zikri xufiya» amalini bajarish vaqtida esa muridlar bir joyga to'planishlari shart emas, har kim o'z uyida tinch, osuda, shovqin-suronsiz, raqsu samo'siz Ollohnning ismi va muqaddas so'zlarni dilda yod etib, kunduzlari o'z ishi bilan mashg'ul bo'laveradi. «Zikri xufiya» amalini Hazrati Hoja Bahovuddin Naqshband yuqorida qayd etib o'tilganidek, Abdulholiq G'ijduvoniyan o'zlashtirgan. Mutafakkirlar – Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ham shu suluk vakillari bo'lganlar.

Uchinchi farq shundan iborat ediki, naqshbandiya sulukining valiyolari bemordan o'zlariga kasallikni tortib olib, so'ngra kasallikni o'z vujudlaridan chiqarib tashlash xislatiga ega bo'lganlar.

To'rtinchi farqi, naqshbandiya sulukidagi avliyolar boshqa ba'zi avliyolardek, karomatfurushlikka yo'l qo'ymaganlar. Har bir muridning Ollohg'a etishishi hamda vahdat hosil qilishi uchun ma'naviy va ruhiy poklanish maqsadi yo'lida uning har qanday bid'atga qarshi kurashishi talab etilgan. Avliyolik kuch-quvvatini esa faqat ezgu ishlar: ilm-ma'rifatni rivojlantirish, xalqning ma'naviy jihatdan poklanishini ta'minlash yo'lida har qanday zulm va bid'atga qarshi kurashishga sarflaganlar. Ushbu suluk valiyolari shu kabi ezgu amallari bilan xalq orasida katta obro' qozonganlar. Buni «Maqomati Hoja Naqshband» asarida bayon etilgan voqealar va Hazrati Hoja Bahovuddin Naqshband tomonidan ifoda etilgan hikoyatlar mazmunidan ham anglash mumkin. Xususan, Bahovuddin Naqshband musulmonlikning mohiyatini quyidagicha yoritgan edi: «Musulmonlik, bu – iloji boricha hukmlarga

bo'ysunish, taqvoga rioya qilish, amalni bajarishga intilish va bekorchilikdan uzoq bo'lish. Bularning hammasi nuri safo va rahmat hamda valoyat darajasiga etishish vositasidir. Avliyolarning aziz manzili va maqomlariga mana shu sifat va parvarish orqali etiladi». Ushbu fikrning mantiqiy davomi sifatida o'z tariqatining maqsadini Hazrati Hoja Bahovuddin Naqshband yana shunday bayon etadi: «Bizning tariqamiz jahriya zikri-yu raqs emas, bizning tariqamiz, anjumanda xilvat (xilvat dar anjuman), vatanda safar(safar dar vatan)dir. Xilvatda shuhrat bor, shuhrat esa ofatdir. Jam'iyatda xayriyat bo'ladi, jam'iyat esa suhbatda bo'ladi. Agar bu yo'l toliblaridan bir guruhi bir-birovlari bilan hamsuhbat bo'lsalar, bu suhbatda xayru baraka ko'p bo'ladi. Umid borki, bu ishga doimo amal qilinsa, oxiri haqiqiy iymon bilan yakunlanadi».

Demak, Bahovuddin Naqshband inson barkamol bo'lishi uchun, avvalo, iymonli bo'lishi zarur deb biladi.

Ma'lumki, tariqat yo'li odobdan iborat, har bir maqomning o'z odobi bo'lganidek, naqshbandiya tariqatining ham o'z xulq-odob talablari bor. «Kimki ana shu odobni ushlasa, uni balog'at ahlining balog'atiga etkazadi. Adab bu – xulqni chiroyli qilish, so'zni va fe'lni soz qilishdir. Xizmat odobi ulug' baxtdan yaxshiroq, uning belgisi – amalning qabuli, tug'yon esa amalning buzuqligidir. Adabni saqlash – muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxti, yana muhabbat urug'i hamdir».

Bu hikmatlardan ko'rinib turibdiki, naqshbandiya tariqati odob-axloq tariqati, chunki bu tariqat aynan insonning ma'naviy-axloqiy kamolga etishi uning xulq-odob talablari mohiyatini anglashi, ushbu qoidalarga amal qilishiga bog'liqdir. Buni biz Hazrat Bahovuddin Naqshbandning ma'naviy-axloqiy qiyofasidan ham bilsak bo'ladi. «Maqomati Hoja Naqshband» asarida shunday deyiladi: «Ularning axloqlaridan bir shingili shuki, agar ular biror do'st yoki darveshning uyiga borib qolsalar, ularning barcha farzandlari va yaqinlarining hamda xizmatkorlarining ahvolini so'rar va har birining ko'nglini bir yo'l bilan topar edilar. Do'st hamsoyalar va darvesh oshinolardan hamisha rozi va xushnud bo'lardilar. Ularning bu lutfi har bir kishiga to'g'ri yo'l uchun dalolat qiluvchi edi».

Naqshbandiya tariqati asosida har bir insonning halol, pok bo'lishi, o'z mehnati bilan hayot kechirishi kerakligi, sabr-qanoatli bo'lishi, kamtar, samimiy bo'lishi, iymon va e'tiqodini mustahkam tutishi, dilga xudoni jo etib, amalda xalq bilan birga bo'lish kabi olijanob xislatlarni tarkib toptirish yotadi. Bu xislatlarni o'zlashtirib borish jarayonida inson poklana boradi va ruhan Ollohg'a etishishga o'zini tayyorlaydi.

Naqshbandiya tariqati kishilarni mehr-oqibat, samimiylik, halollik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, sabr-qanoatga ega bo'lish sari yo'llar ekan, ularda

yomon illatlar: harom ishlar, ya'ni o'g'rilik, nopoklik, xasislik, yolg'onchilik, firibgarlik, ta'magirlik, boylikka hirs qo'yish kabilarni qoralaydi. Buni biz Hazrati Hoja Bahovuddin Naqshbandning quyidagi fikrlaridan ham bilsak bo'ladi:

«Shamga o'xshagin, toki hammaga ravshanlik bag'ishla, o'zing esa qorong'ida bo'l, «Hoyu havas va nafs ahllari tutgan ishlar asosining barchasi zalolat(adashuv)dan iboratdir. Ishlarda niyatni to'g'ri qilish eng muhim narsadir», «Kishi o'zining nafsiga tuhmat qilishi kerak. Kimki Haq subhonahu inoyati bilan o'z nafsining yomonligini tanigan, uning hiylanayrangini anglagan bo'lsa, bunday qilish unga oson bo'ladi». Bu yo'ldan yuruvchilarda o'zgalarning gunohini ham o'zlaridan deb bilish hollari ko'p bo'ladi.

Bu hikmatlarda komil insonni tarbiyalash uslublari ham bayon etilgan: «Suhbatimizga etishadigan guruhlardan ba'zilar shundayki, ularning ko'ngillarida muhabbat urug'i bor, ammo xalaqit beruvchi xasu hashaklar tufayli o'solmaydi, bizga esa uni poklash lozim. Ba'zilarida muhabbat urug'i yo'q, bizga esa uni paydo qilish lozim»; «Murshid tolibning o'tgan, hozirgi va kelajak kabi uch holidan boxabar bo'lishi kerak, shundagina uni tarbiya qila oladi»; «Tolib amal qilishi zarur bo'lgan shartlardan biri shuki, u Haq taolo do'stlaridan biri bo'lgan do'st bilan hamsuhbat bo'lib, o'z holidan voqif bo'lishi zarur. Suhbat zamonini o'zining o'tmish zamoni bilan solishtirib ko'rsin, nuqsondan kamol sari ketayotganini o'zida mushohada qilsa, bu azizning suhbatida mulozamatda bo'lishni o'zi uchun farzi ayn hisoblasin».

Xulosa qilib aytganda, naqshbandiya tariqati ikki muhim tariqat: Abdulxoliq G'ijduvoni hamda Ahmad Yassaviy yo'lini birlashtirdi va hayotga moslashtirdi.

Naqshbandiya suluki (xudoga yaqinlashish yo'li) o'n bitta axloqiy qoidani ishlab chiqdi va amaliyotga tadbiq etdi.

So'fiyning poklanish va xudoga etishish darajasi ma'naviy murabbiy – shayx, murshid yoki pir tomonidan amalga oshiriladi.

Va nihoyat, murshid bilan murid o'rtasidagi ma'naviy-ruhiy aloqaning paydo bo'lishi muridning kamolotga etishganligini ko'rsatadi va murshid muridga o'z hirqasini echib beradi. Bu yo'l muroqaba, mushohada, musohaba kabi uch bosqichdan iborat bo'ladi. Naqshbandiya sulukiga kirgan inson o'zini ham ruhan, ham jismonan chiniqtirishi, ma'naviy poklashi va qalbga sayqal berishi lozim.

Naqshbandiyaning asosiy yo'li Haqqa etishga intilish, xufiya zikr qilish bo'lib, ba'zi bid'atlarni rad etadi. Masalan, darbadarlik, qashshoqlik, musiqa chalib, ashula va raqs tushib, zikr tushish (samo') va ovoz chiqarib (jahr) zikr qilish va boshqalar. Aziz-avliyolar, ularning mozorlariga sig'inish man

etilib, har qanday madadni faqat Ollohdan so'rash kerakligi ta'kidlanadi. Ruhan poklanib, manmanlik, kibru havodan voz kechib, oddiy o'z mehnati bilan kun kechirishga da'vat etadi.

Demak, naqshbandiya tariqatining asosini insonning ham ruhan, ham jismonan poklanishi tashkil etib, bu jarayon hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bugungi kunda yosh avlodni etuk inson etib tarbiyalashda naqshbandiya tariqatining axloqiy sistemasi, yo'l va usullari qo'l keladi. Zero, aqliy, axloqiy, jismoniy kamol topgan shaxsni shakllantirishda mazkur tariqat g'oyalari muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Haqiqiy so'fiylik tarkidunyochilik g'oyasini ilgari surmaydi, u insonni ma'naviy poklanishga yo'llaydi. Lekin ba'zi johil va nodon kishilar (hatto din peshvolari ham) insonning ruhan xudo bilan birlashishi, «Anal haqqlik, ya'ni «Men xudoman» degan ifodaning mohiyatini tushunmasdan, ularni ta'qib etdilar. Aslini olganda, so'fiylik, bu – muruvvat, saxovat, mehnat, qanoat va diyonatdir. Ular inson xulqida mavjud bo'lgan illatlarga qarshi kurashuvchilardir. So'fiylar hayotni qabohat va razolatdan tozalash yo'lida har bir insonning ma'naviy jihatdan pok bo'lishini ta'minlash uchun kurashganlar.

Xulosa qilib aytganda, Islom er yuzida keng tarqalgan dinlardan bo'lib, u musulmon madaniyatining tarkib topishida muhim o'rin tutdi. Islom ta'limotining muqaddas kitobi – «Qur'on»da ilgari surilgan xulq-odob, turmush tarziga oid qarashlar musulmonlar axloqiy tarbiyasining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qildi. Barcha musulmon mamlakatlarida «Qur'on»ning sharhlovchilari tomonidan shariat qonun-qoidolari, axloqiy talablarini targ'ib etilishi keyinchalik musulmon adabiyotida axloqiy-didaktik mazmundagi asarlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.

Islom barcha musulmon mamlakatlarida bo'lgani kabi, Xuroson va Movarounnahrda ham asosiy din hisoblanadi. Shuning uchun xalq hayotida Islom ta'limotida ifodalangan xulq-odob qoidolari mohiyatini chuqur o'rganish asosida yosh avlodda ma'naviy-axloqiy xislatlarni tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Musulmon maktablarida ta'lim sistemasi va mazmuni qanday edi?
2. Qur'oni Karimda ilgari surilgan axloqiy prinsiplar haqida so'zlang.
3. Hadis ilmida qaysi davr «Oltin davr» deb nom oldi.
4. «Hadis» va «sunna» tushunchalarining mazmunini so'zlab bering.
5. Hadislarda ilgari surilgan axloqiy prinsiplarni daftaringizga yozib chiqing.
6. So'fiylik ta'limoti aqidalarining ma'nosini tushuntirib bering.

III BOB.SHARQ UYG'ONISH DAVRI VA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

Sharq Uyg'onish davrida ilm-fan va madaniyat

Arab xalifaligida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yagona Islom dinining tarkib topishi madaniy hayotga ham ta'sir etdi. Ana shu madaniy ko'tarilish butun Arab xalifaligini, Yaqin va O'rta Sharqni qamrab olganligi uchun ham Sharq Uyg'onish davri deb ataldi. Bu Uyg'onish jarayoni IX asrdan boshlab XV–XVI asrlargacha davom etdi.

Arab xalifaligida IX asrda vujudga kelgan Uyg'onish davri xalifalikning Bag'dod, Damashq, Halab shaharlarida boshlanib, barcha boshqa xalqlar madaniy hayotiga tarqalgan, bu esa u davlatlarning ham madaniy rivojlanishga zamin tayyorlagan. Xalifalik emirilishi jarayonida tashkil topgan mustaqil davlatlardagi madaniy rivojlanish xalifalik davridagi madaniy rivojlanishning davomi edi.

Xalifa Horun ar-Rashid va uning o'g'li al-Ma'mun davrida Bag'dodda «Bayt ul-hikma» («Donishmandlik uyi») (hozir Akademiya ma'nosida) tashkil topadi. Mazkur Akademiya ilm sohiblarining ilmiy markaziga aylanadi. Uning qoshida kutubxonasi tashkil etadi. Akademiya 819–833-yillari yanada rivojlangan. Akademiyada ikki rasadxona bo'lgan, keyinchalik yangi kutubxona qurilgan. Bog'doddagi bu ilm markazi, o'z navbatida, Sharq va g'arbda ilm-fanning taraqqiy etishiga, ma'naviy hayotning rivojlanishiga ta'sir etgan. Bu o'rinda xalifa al-Ma'munning ilm-fan ravnaqida ko'rsatgan homiyligini alohida ta'kidlash joiz.

Zero, xalifa al-Ma'mun ilm-fanni juda qadrlagan. U IX asr boshlaridan xalifalikning Xurosondagi noibi bo'lib turganda ham Movarounnahr va Xurosondagi olimlarni to'plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Xuttaliy, al-Javhariy, al-Marvazviy kabi vatandosh olimlarimiz ham bo'lgan. Al-Ma'mun xalifalik taxtiga o'tirgach u olimlarning barchasini Bag'dodga chaqirib oladi va «Bayt ul-hikma» – Donishmandlik uyi («Ma'mun akademiyasi»)da arab olimlari bilan hamkorlikda ilm-fan ravnaq topadi.

Qadimgi yaratilgan madaniy yodgorliklar, ular xoh yunon, xoh arab,

xoh Movarounnahr va Xuroson xalqining antik davrlar madaniyati bo'lsin, Uyg'onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Agar arablar Markaziy Osiyoni bosib olib, bu erda ilgari mavjud bo'lgan fan va madaniyat o'choqlarini yo'qotgan bo'lsalar, ko'p o'tmay qadimiy ilmiy an'ana asta-sekin tiklanib, natijada ilm-fanning etuk siymolari etishib chiqa boshlaydi. Bular barchasining bir-biriga qo'shiluvi natijasida Sharqda bir butun madaniyat tarkib topadi va rivojlana boshlaydi.

Yaqin va O'rta Sharqda, jumladan, Eron, Kavkaz va Movarounnahrda savdo aloqalarining rivojlanganligi, ilm-fan, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, moddiy va madaniy aloqalarning barchasi umumiy rivojlanishga ta'sir etdi. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalishga olib kelgan asosiy sabab – feodal munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilgani bo'ldi. Bu davr madaniy taraqqiyotida Arab xalifaligiga bo'ysungan mamlakatlar xo'jalik-iqtisodiy aloqalarining kuchayishi va natijada turli madaniyatlar – hind, Movarounnahr, Eron, arab, Misr, grek-yunon-rim madaniyatlarining yaqindan o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'sir etib borishi katta ahamiyat kasb etdi. Haqiqatan ham bu davrda iqtisodiyot taraqqiy etdi, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik rivojlandi.

Bu davrda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan er maydonlari kengaydi, ko'plab sug'oriladigan erlar ochildi, sug'orish inshootlari tiklandi, yangilari qurildi, paxta, zig'ir, kanop ekilib, ularning tolasidan mato to'qildi. Movarounnahrda, xususan, Xorazm, Urganch, Farg'ona, Samarqand va Buxoro to'qimachilik mahsulotlari, ayniqsa, Samarqand va Buxoro shoyisi dunyoga mashhur bo'lgan.

Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik, sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi savdoning rivojlanishiga yo'l ochdi. Natijada Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining chet davlatlar: Ispaniya, Hindiston, Xitoy, Vizantiya bilan savdo ishlari ko'lami ortib bordi.

Pireney yarimorolining arablar tomonidan bosib olinishi insoniyat tarixining yangi sahifalarini ochdi. Bu jarayonning, ayniqsa, Ovrupo uchun ahamiyati beqiyos bo'ldi. Sharq faqatgina Ovrupo madaniyatining rivojiga ta'sir etibgina qolmay, balki umuman, Ovrupolik odamning psixologiyasi, tafakkuri, xarakteri, hayot tarzini, tarixiy jarayonni tubdan o'zgartirib yubordi. Bu esa o'z navbatida matematika, falsafa, astronomiya, tabiiyot, tibbiyot, xulq-odob, turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'sir etdi.

X asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlar–Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar,

Xorazmshohlar davlatlarining paydo bo'lishi xalifalikning emirilishi hamda madaniy hayotning yanada ravnaq topishiga olib keldi.

Bu davrda pul muomalasi rivojlandi. Jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar, albatta, madaniy hayotga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Somoniylar davlatida Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch o'sha davrning madaniy markazlari sanalardi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilardi. Rasmiy hujjatlar arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilardi. X asr o'rtalariga kelib, fors tilida ham ish yuritila boshlandi.

Bu shaharlardagi maktablarga hatto tevarak-atrofdagi qishloqlardan oddiy xalq bolalari ham kelib o'qiganligi manbalarda keltiriladi.

O'sha davrda Buxoroda katta kitob bozori bo'lgan. Kitob do'konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy munozaralar o'tkazganlar.

Buxoro amiri saroyida esa yirik kutubxona mavjud bo'lgan.

Amir kutubxonasini o'sha davrdagi Sheroz kutubxonasi bilan bellasha oladigan yagona kutubxona sifatida tan olganlar...

Saljuqiylar davrida Alp Arslon Muhammad hokimiyatni boshqarganda uning vaziri Nizomul mulk o'z davrining mashhur siyosiy arbobi va eng ma'rifatparvar kishilaridan bo'lgan.

Saljuqiylar hokimiyati harbiylashgan bo'lib, bu hokimiyatning ichki va tashqi siyosatini Nizom ul-Mulk boshqarar edi. U hokimiyatni boshqarish uslubini ishlab chiqadi va o'zining «Siyosatnoma» asarini yaratadi (1091–1092-yillar). Bu asarda davlatni boshqarish prinsiplari bayon etiladi. Nizomul mulk maorifni rivojlantirishda katta xizmat qiladi. 1067 -yili Bag'dodda o'zining shaxsiy jamg'armasiga o'sha davrning eng mashhur o'quv yurti – «Nizomiya» madrasasini qurdiradi. U olimlar, din peshvolari, so'fiylarga katta e'tibor berib, g'amxo'rlik qiladi. Uning katta xizmatlaridan yana biri – uning davrida taqvimning isloh qilinganidir.

XI asrda Xorazmda ilm-fan taraqqiy etadi. Xorazm shohi Ma'mun II o'z saroyiga zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan «Majlisi ulamo» – «Ma'mun akademiyasi» deb nom qoldirgan. Bu akademianing rivoj topishida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayh, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Sahl al-Masihiy, tabib Abulxayr Hammor kabi olimlar ilmiy ijod bilan shug'ullanganlar. Lekin toj-taxt uchun kurash natijasida bu ilm dargohi o'z faoliyatini to'xtatib, olimlar tarqab ketadi.

Movarounnahr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma'naviy ko'tarilish Sharq Renessansi – Uyg'onish davrining boshlanishiga olib keldi.

Movarounnahrda ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat olib bordilar. Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida ta'limiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta e'tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Sharq Uyg'onish davrida sof pedagogik asarlar ham yaratilib, ta'lim-tarbiyada inson takomilining xususiy va umumiy metodlari haqida o'lmas ta'limoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga chiqdi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari (783–850)

Muhammad al-Xorazmiy (783–850) insonning kamolga etishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyati to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan.

Ayniqsa, u matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog-uslubiyotchi olim sifatida tarixda qolgan. Xorazmiy o'z davrigacha bo'lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlar – Bobil, Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini o'rgandi va o'zi ulardan farq etuvchi yangi kashfiyotlar yaratdi.

Muhammad al-Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. «Al-kitob al-muxtasar fi-hisob al-jabr va-l muqobala» asarida («aljabr va -l muqobala hisobi haqida qisqacha kitob») sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar va ularni echish yo'llarini bayon etadi. Bu asar uch qismdan iboratdir. Birinchisi algebraik qism. Uning oxirida savdo muomalasiga oid kichik bir bo'lim kiritiladi; ikkinchisi, geometrik qism – algebraik usul qo'llab o'lchashlar haqida; uchinchi qism vasiyatlar haqida bo'lib, muallif uni «Vasiyatlar kitobi» deb ataydi.

Muhammad al-Xorazmiy matematika fanida abstraksiya tushunchasini kengaytiradi. Induksiya yo'li bilan umumiy echish usullarini hal etadi, deduksiya yo'li bilan umumiy usullar yordamida xususiy masalalarni echadi. «Aljabr va-l muqobala» asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib, o'zidan avvalgi bilimlarni o'rgandi va ularni sintezlashtirdi hamda amalda qo'llash usullarini bayon etdi.

Muhammad al-Xorazmiy o'sha paytlari amalda uchraydigan barcha chiziqli va kvadrat tenglamalarni jamlab, hozirgi matematik simvol orqali beriladigan quyidagi olti tipga keltirdi:

$$\begin{array}{l}
 ax^2 + bx \\
 ax^2 + c \\
 bx^2 + c \\
 x^2 - bx + c \\
 x^2 - c + bx \\
 x^2 + bx - c
 \end{array}
 \tag{1}$$

Mutafakkir ushbu tenglamalarni echish uchun «al-jabr» va «al-muqobala» («tiklash» va «qiyoslash») amallarini kiritdi. Bu amallarning mohiyati tenglama hadlarining ishorasini o'zgartirgan holda ularni bir tomondan ikkinchi tomonga o'tkazish va yig'ishdan iboratdir. «Al-jabr» keyinchalik matematika fanining alohida bo'limiga aylandi va «algebra» deb ataladigan bo'ldi. Mazkur amallar yordamida har qanday tenglamani qonunlik shakliga, ya'ni asosiy tiplardan biriga keltirib, keyin echiladi. Bu usul fan olamida muhim ahamiyatga ega edi. Shu asar tufayli «Al-Xorazmiy» nomi lotincha transkripsiyada «Algoritmi» shaklini oldi, keyin «Algorismus» va, nihoyat, hozirgi zamon hisoblash matematikasining asosiy tushunchasi «algoritim» («algorifm») ga aylandi. U matematikaning nazariy rivojlanishi bilan birga, undan turmushda foydalanish yo'llarini ham berdi. Meros taqsim qilish, vasiyatnomalarni tuzish hamda mol taqsim etish uchun zarur bo'lgan hisoblarni ta'lif etdi.

Muhammad al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi «Hind arifmetikasi haqida kitob» («Hisob al-hind»)dir. Asar o'nlik sistema raqamlari-(1,2,3,4,5,6,7,8,9)ga bag'ishlangan. Mutafakkir hindlarning falakiyot va matematikaga oid «Sindihind» nomli qo'llanmasini o'qib, uning yanglish va qiyin tomonlarini qayta tikladi, mundarijasiga yangi boblarni qo'shdi va bu asarni «qisqargan Sindihind» («Alxorazmiy hind hisobi haqida») deb atadi. Mazkur asar faqat Sharqdagina emas, Yevropada ham qo'llanma sifatida shuhrat taratdi. U Hindistonda kashf etilgan raqamlarni soddalashtirdi va birinchi marta arab tilida bayon etdi. Ungacha ancha qo'pol sanoq usullaridan foydalanib kelingan. O'nlik sistemasining kashf etilishi fan olamida sanoq tizimida inqilobiy o'zgarish deb ta'riflanadi. Yevropaga 1,2,3,4,5,6,7,8,9 raqamlaridan foydalanish va nul yordamida eng katta sonlarni yozish va joylarni aniq ko'rsatish X–XI asrlarda Sharqdan kirib borgan.

Muhammad al-Xorazmiy arifmetikaning algoritmlari bo'lgan qo'shish, ayirish, bo'lish hamda ko'paytirish qoidalarini yaratgan; turli «jins»dagi sonlarni ko'paytirish algoritmini ham bergan. Masalan, minut va sekundlarni bir-biriga ko'paytirish uchun, avvalo, bir xil shaklga keltirish, ya'ni sekund yoki minutga aylantirish maqsadga muvofiq ekanligini

ko'rsatgan. Maxsus bobda kasr va ildizdan chiqarish amallarining mohiyatini bayon etgan.

Muhammad al-Xorazmiy o'zining falakiyotga doir ishlarida hindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, «Xorazmiy ziji» nomi bilan mashhur astronomik jadvallar tuzdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, VIII–XV asrlarda hammasi bo'lib, yuztacha zij (trigonometriya va falakiyotga oid) jadvallar mavjud bo'lgan. Bu zijlar orasida boshqa olimlar bilan birga Muhammad al-Xorazmiy tuzgan zijlar ham bor edi. Bu kitob ham bir necha asrlar mobaynida bu soha olimlarida qiziqish uyg'otadi va 1126 -yili lotinchaga tarjima qilinadi. Arab tilida birinchi yozilgan sinuslar va tangenslar ziji Xorazmiyga taalluqli. Tadqiqotchilar fanda tekis, uchburchak trigonometriyasi va sferik uchburchak trigonometriyasini tadqiq qilish ham Xorazmiydan boshlangan deyishadi. Uning sinus zijlari lotin tiliga o'girilib, Yevropa falakiyotchi va geodez olimlariga qo'llanma sifatida xizmat qildi. Allomaning bu asari XII asrda lotin tiliga tarjima etilib, bir necha asr davomida undan foydalanib kelindi. Bundan tashqari, «Kitob surátul azz» («Yer surati kitobi») birinchi yozilgan geografiyaga oid kitob sanaladi. Bu asar xaritani tavsiflagan asardir. U geografiyaga oid asarlarida erni etti iqlimga bo'ladi hamda yer xartasini chizadi.

827 -yilda Xorazmiy rahbarligida er kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida er meridianining bir gradusi o'lchab chiqildi. Bag'dodda yozilgan trigonometriyaga oid dastlabki asar ham Xorazmiyga tegishli. Unda sinus, tangenslarning o'zgarish qonuniyati ko'rsatiladi.

Muhammad al-Xorazmiyning tarix va musiqaga oid, quyosh soatlari to'g'risida ham asarlari bo'lib, «Tarix kitobi» («Kitob at-tarix») xalifalik tarixiga oid va xalifalikning birinchi tarixchilaridan sanaladi.

Shuni ta'kidlash joizki, alloma o'zigacha bo'lgan ilmiy bilimlarning asosiy g'oyalari, metodlarini sintezlashtirdi. U ilmiy bilimlarni o'rganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga e'tiborni qaratdi.

Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e'tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to'plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushintira olish malakalarini hosil qilishga katta baho berdi. Masalan, «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-l muqobala» asarida olimlarni uch guruhga bo'lib shunday yozadi: «Ulardan biri o'zidan avvalgililar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qodiradi. Boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo'lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim

kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to'playdigan odam bo'lib, u o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi».

Muhammad al-Xorazmiyning bu fikrlari bir tomondan, olimlar faoliyatining ezgulikka xizmat qilishini yoritisa; ikkinchi tomondan, o'sha davrda ilmiy tadqiqot ishlari va o'qitishning metod va vositalaridan qay darajada foydalanganligini ko'rsatadi.

Barcha mutafakkirlar kabi Muhammad al-Xorazmiy ham ko'rgazmali-tajriba metodlari, bilim berishning turli vositalari, savol-javob, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan foydalangan. Allomaning arifmetikaga oid risolalari tafakkurni rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e'tibor berganligini ko'rsatadi. «Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi «Aljabr va-l-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob»ni ta'lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, yer o'lchashda, kanallar o'tkazishda, geometriyada va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun zarurdir». Muhammad al-Xorazmiy bilishni sezgidan mantiqiy tasavvur orqali farq qilish haqida fikr bayon etgan: sezgi orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish haqiqiy bilimning muhim tomonini namoyon etadi.

Muhammad al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi (samoviy ob'ektlarning harakatini aks ettiruvchi jadval asosida matematik masalalarning algoritm metodida echishni ishlab chiqdi). U matematik g'oyalar asosida odamlarning hayotiy zarurati yotishini, ilmiy kashfiyotlar odamlarning amaliy talablari asosida paydo bo'lishini asosladi. Masalan, er ishlari, binolar qurish, kanallar qazish shunday paydo bo'lgan, deydi. U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi.

Alloma ilmiy faoliyatining metodologik jihatlariga katta ahamiyat berdi.

Abu Nasr Forobiy

(873 – 950)

O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Allomaning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur yunon faydasufi Arastudan keyin Sharqda o'z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni ulug' mutafakkir – «Muallimi soniy» – «Ikkinchi muallim» deb ataydilar.

Abu Nasr Forobiy (to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O'zlug' ibn Tarxon al-Forobiy) hijriy 260 -yil (milodiy 873 -yil)da Shosh – Toshkentga yaqin Forob (O'tror) degan joyda harbiy hizmatchi oilasida tug'ilgan. Forobda boshlang'ich ta'limni olgach, Shoshda, Buxoroda, Samarqandda ta'lim olganligi haqida ma'lumotlar bor. Lekin arab xalifaligining yirik madaniy markazi Bag'dodga turli tomonlardan kelgan olimlar yig'ilganligi, uning yirik ilmiy markazga aylanganligi tuyfayli Forobiy ham ilm olish istagida Bag'dodga jo'naydi. Bag'dodda Forobiy turli fan sohalarini o'rganadi. Masalan, unga yunon tilida Abu Bashar Matta (Matta ibn Yunus), tibbiyot va mantiqdan Yuxanna ibn Haylon (Jilon) ta'lim bergan. Umuman, Forobiy Bag'doda matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, tabiiyot, huquq, tilshunoslik, poetika bilan shug'ullandi, turli tillarni o'rgandi.

Ba'zi manbalarda Forobiy 70 dan oshiq tilni bilganligi haqida gapiriladi.

Abu Nasr Forobiy qomusiy olim hisoblanadi. Tadqiqotchilar uning 160 dan ortiq ilmiy asar yaratganligini qayd etadilar.

Forobiy tahminan 941-yillardan boshlab Damashqda yashaydi. Shahar chekkasidagi bog'da qorovul bo'lib ishlaydi va faqirona hayot kechirib, ilmiy ish bilan shug'ullanadi. 943–967 -yillari esa Halabda yashaydi. 949–950 -yillarida Misrda ham bo'lgan. So'ng yana Damashqqa qaytib, shu erda 950 -yili vafot etgan. Damashqdagi «Bob as-sag'ir» qabristoniga dafn qilingan. Abu Nasr Forobiy ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olim. U tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o'zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan. Demak, Forobiy inson baxt- saodatga erishuvi uchun ularni baxtli-saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo'lishi kerak deydi. .

Forobiy odamlarni turli belgilarga qarab guruhlariga bo'ladi. Bunda u kishilarning diniy mashabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy hususiyatlari, qobiliyatlari, iqtidori, bilim ko'nikmalariga e'tibor berish zarur, deydi. U o'zning «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola» asarida «Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, – deb yozadi. – Bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritadi». Forobiy davlatni etuk shaxs boshqarishi lozim, deydi; ya'ni jamoani idora etuvchi adolatli, dono bo'lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko'ra olishi, boshqalarga g'amxo'r bo'lishi lozim deydi.

Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyada nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Ixsu al-ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asrlarida allomaning ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari ifoda topgan.

Forobiy ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, ammo har birining insonni kamolga etkazishda o'z o'rni borligini alohida ta'kidlaydi.

Forobiy «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr yuritadi. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman, jonli tabiat, o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi, deydi.

Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muxtoj bo'ladi. Uning fikricha, tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhim. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa-hodisalarni o'zicha bila olmaydi. Unga o'qituvchi lozim.

Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan etuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'lim – insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – muayyan hunarni egallash uchun zarur bo'lgan axloq normalari va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.

Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lish, o'rganishdir.

Forobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq-odobda ham qay darajada pok bo'lishi kerakligini «Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida» risolasida shunday ta'riflaydi: «Falsafani o'rganishdan avval o'zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi notug'ri tuyg'ularga emas, balki kamolotga bo'lgan hirs-havas qolsin.

Bunga xulq-axloqni faqat so'zdagina emas, balki haqiqatda (amalda) tozalash orqali erishish mumkin. Shunday so'ng xato va adashishdan saqlovchi, haqiqat yo'lini tushunib olishga boshlovchi (notiq – so'zlovchi, fikrlash ma'nosida) nafsini, jonini, ruhini tozalash zarur».

Forobiy axloqiy fazilatlar deganda bilimdonlik, donolik va mulohazali bo'lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko'pchilik manfaatini yuqori qo'yish, haqiqat, ma'naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi xislatlarni tushunadi. Ammo bu xislatlarning eng muhumi har bir insonning bilimli, ma'rifatli bo'lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog'liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi.

Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me'yorlari ifodasi sifatidagina emas, balki kishilar aqliy faoliyatining natijasi sifatida ham talqin etganligini ko'ramiz. Forobiy «Aql ma'nolari haqida» risolasida aql masalasini tahlil qilib, aql bilish haqidagi ta'limotda mantiq (logika) ilmi muhim o'rin tutadi, deydi. U mantiq ilmi bilan grammatika o'rtasidagi mushtaraklikni qayd etib, mantiqning aqlga munosabati, grammatikaning tilga munosabati kabidir; grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo'lga yo'naltirib turadi, deydi.

Forobiy «Muzika haqida katta kitob» asari bilan o'rta asrning yirik muzikashunosi sifatida mashxur bo'ldi. U muzika ilmini nazariy, amaliy jihatdan yoritib, muzikani inson axloqini tarbiyalovchi, sihat-salomatligini mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning bu sohada qoldirgan merosi muzika madaniyati tarixida muhim ahamiyatga molikdir.

Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan turli metodlar yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta'lim – tarbiya ishlarini ikki yo'l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Amaliy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasiga kelganda, bu odat ikki yo'l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi – qanoatbaxsh, chorlovchi, ilxomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malaka vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo'l (yo'ki usul) – majbur etish yo'li. Bu usul gapga ko'nmovchi, qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo'llaniladi. Chunki ular o'z istaklaricha so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o'rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo'ladi. Kasb-hunarlarni va juz'iy san'atlarni egallashga intilish bo'lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilib, san'at ahllariga aylantirishdir.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni hartomonlama kamolga etkazish maqsadini ko'zlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Forobiy pedagogik ta'limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o'z mohiyati bilan ijtimoiy, ya'ni faqat jamiyatda, o'zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi turadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Abu Nasr Forobiy yashagan davrda ijtimoiy tuzum qanday edi.
2. Abu Nasr Forobiy fanlar tasnifi haqida.
3. Abu Nasr Forobiyni ta'lim-tarbiyaga oid qanday asarlarini bilasiz?

Mustaqil ish

Abu Nasr Forobiyni «Fozil odamlar shahri» –T., 1993-y. kitobini o'qish va tahlil qilish.

Abu Rayxon Beruniy

(973–1048)

Qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy 362-yil 3-zulhijjada (milodiy 973-yil 4-sentabr) Xorazmning Qiyot (Kot) shahrida dunyoga keldi. Boshlang'ich ta'limni olgach, o'sha davrda fan-madaniyat taraqqiy etgan Xorazmning peshqadam olimlaridan saboq oladi.

Beruniy Xorazm tili bilan birga, arab, sug'd, fors, suryoniy, yunon ibroniy tillarini, hatto qadimgi hind tili sanskritni ham o'rgangan. U yunon klassik ilmi, astronomiya, falsafa, geografiya, botanika, matematika, geologiya, tarix, etnografiya, filologiyadan ham chuqur bilim oladi.

Beruniy yirik olim Abu Nasr ibn Iroqdan Evklid geometriyasi, Ptolemeyning astronomik ta'limotlaridan dars olgan.

Bundan tashqari, o'zidan oldin o'tgan Muhammad Xorazmiy, geografiya olimi Abul Abbos, Ahmad Farg'oni, Marvaziy, Javhariy, Abu Nasr Forobiy, Abul Vafo Juzjoni, seystonlik Abu Said as-Sijiy, Abu Muhammad Hamid Xo'jandiy va boshqalarning asarlarini mustaqil o'rganadi.

995-yilgacha Beruniy astronomiya, geografiya, geodeziyaning amaliy masalalarini hal etish bilan birga, Sharqda birinchi bo'lib globus yasadi va astronomiyaga oid bir necha kitob yozdi («Kartografiya», «Globus yasash kitobi», «Yerdagi joylarning uzunlama va kenglamalarini aniqlash haqida maqola» va boshqalar).

Beruniy hali yosh olim bo'lishiga qaramay, Kotda 994–995-yillari astronomik asboblarni ixtiro qilib kuzatishlar o'tkazgan.

O'sha davrda Kaspiy bo'yi viloyatlarida Qobus ibn Vushmagir yosh olimga xayrixohlik ko'rsatadi. «Shamsal-ma'aliy» («Oliy martabalar quyoshi») laqabi bilan mashhur bo'lgan bu podshohga bag'ishlab Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarini yozadi va unga taqdim etadi. Bu asar Beruniy nomini Yaqin va O'rta Sharqqa mashhur qildi.

1004-yili Beruniy Ma'mun II ibn Ma'mun tomonidan Xorazmga chaqirib olinadi va uning yaqin maslahatchisi etib taynlanadi.

Ma'mun davrida Urganchda «Majlisi ulamo» – «Ma'mun akademiyasi» nomli ilmiy markaz tashkil etiladi va u erda musulmon Sharqining yirik olimlari faoliyat ko'rsatadilar.

Beruniy bir necha yil kamyob metallar va qimmatbaho toshlar ustida tajribalar olib boradi va keyinchalik ana shu tadqiqotlari asosida «Mineralogiya» asarini yaratadi.

1017–1018-yillari yana taxt va hokimiyat uchun kurash boshlanib, Movarounnahrda Qoraxoniylar davlati barpo etiladi. Xurosonda Mahmud G'aznaviy (998–1030) hukmronligi o'rnatilib, qoraxoniylar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq Xorazm Mahmud G'aznaviy davlatiga tobe bo'ladi.

Ma'mun akademiyasidagi ko'plab olimlar qatori Beruniy ham G'aznaga olib ketiladi va u yerda ijodini davom ettiradi.

Beruniy bu yerda «Xorazmning mashhur kishilari», «Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash» asarini yaratdi. Bu asarda geografiya va astronomiya fanlari bilan bir qatorda paleontologik kuzatishlar natijalari ham bayon qilingan.

Beruniyning yana bir muhim asari «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar»dir. Bu asarda ham u bir qancha fanlar yuzasidan dastlabki tushunchalar, ma'lumotlar bergan.

Mahmud G'aznaviyning Hindistonga yurishlarining birida Beruniy ham hamroh bo'lib boradi. U sanskritni bilganligi uchun hind xalqi madaniyati, adabiyoti va san'ati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi va bu mehnatlari natijasida 1030-yili o'zining Sharq va G'arbda keng e'tirof qilingan mashhur «Hindiston» asarini yaratadi.

Kitobning to'liq nomi «Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi» bo'lib, aytishga qulay bo'lishligi uchun qisqacha «Hindistonga oid tadqiqqlar» yoki «Hindiston» deb yuritiladi.

Akademik V.R.Rozen asarni «Sharq va G'arbning qadimgi va o'rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo'q», – deb baholaydi. Hindiston olimi Hamid Rizo esa, olim haqida gapirib, «Hind madaniyatining chigal muammolarini biron-bir o'rta asr yoki hozirgi zamon muallifi Abu Rayhon Beruniydek muvaffaqiyatli ravishda tushunib etmagan. Uning «Hindiston» asari qadimgi Hind madaniyati va fanining klassik namunasi bo'lib qoladi», deydi.

Asarda Beruniyning Hindiston haqidagi barcha qarashlari o'z ifodasini topgan.

1030-yili Mahmud G'aznaviy vafot etadi. Uning kichik o'g'li Muhammad voris sifatida taxtga o'tirgan bo'lsa-da, ko'p o'tmay Mahmudning katta o'g'li Mas'ud (1030–1041) ukasini taxtdan ag'darib, o'zi

hokimiyatni qo'lga oladi. Bilimdon va zukko, ilm ahlini qadrllovchi Mas'ud Beruniyini o'z himoyasiga olib, uning ijod qilishiga sharoit yaratib beradi.

Beruniy astronomiyaga oid «al-Qonun al-Mas'udiy» («Mas'ud qonuni») nomli yirik asarini shox Mas'udga bag'ishlaydi. Olimlar bu asarni matematika va astronomiyaga oid ungacha yozilgan barcha asarlardan yuqori qo'yadilar. Arab olimlaridan Yoqutning yozishicha: «Mas'ud qonuni» kitobi matematika va astronomiya bo'yicha ungacha yozilgan hamma kitoblar izini o'chirib yuborgan».

Beruniy «Saydan» kitobida o'zining 80 yoshdan oshganligini yozadi, shunga ko'ra, uni 1050–1051-yillari vafot etgan deb taxmin etish mumkin. Ba'zi manbalarda esa, 1048-yil 13-dekabrda G'azna shahrida vafot etgan deb ko'rsatiladi.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchiga bilim berishda:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- tahlil qilish va taqqoslash;
- ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, soddadan qiyinga qarab borish;
- takrorlash;
- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etishga e'tibor berish kerakligi o'qitiriladi.

Beruniy fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o'rganishga da'vat etadi.

Olim ilm toliblariga qalbni yomon illatlardan, inson o'zi sezishi mumkin bo'lmagan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, behuda raqobatdan, ochko'zlikdan, shon-shuhratdan saqlanish zarurligini o'qtirgan.

Beruniy til va adabiyot, tarix, geografiya, geodeziya, biologiya, mineralogiya fanlari, tibbiyot va dorishunoslik, fizika, falakiyot ilmiga oid tadqiqotlarini o'zi targ'ib etgan nazariya hamda kuzatishlar natijasida amaliyotda sinab ko'rib, fanda haqiqat ustivor turishini ta'kidlaydi.

U barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda deb biladi. Ilmlarni egallashda esa shaxsda intilish va qiziqish, muhitni alohida ta'kidlaydi.

Bilim olishda tushunib o'rganish, ilmiy tadqiqotchining poklikka rioya etishiga alohida e'tibor beradi. Jamiyatning ravnaqi, ma'rifatning rivojiga bog'liq degan g'oyani ilgari so'radi.

Beruniy bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog'laydi. Zero, insonda komillikning muhim mezoni yuksak axloqlilikdir.

Beruniyning inson kamolotida axloqiy tarbiyaning muhim o'rnini

ta'kidlashini uning yuqorida qayd etilgan «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Kitob as-Saydana», «al-Qonuni al-Mas'udiy», «Giodeziya» va boshqa asarlarida ko'ramiz.

Beruniy fikricha, axloqlilik insonning eng asosiy sifati bo'lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o'zaro muloqoti, ijtimoiy muhit – jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi.

Beruniy axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda ta'rif beradi. Axloqiylik yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi va tarkib topadi, deydi u. Yaxshilik va yomonlik insonning xulq-atvorini belgilaydigan mezondir.

Insonning axloqiy kamolga etishi muammosi ta'lim-tarbiyada markaziy masala bo'lib kelgan.

Abu Rayhon Beruniy ezgu tilakka etishga to'sqinlik qiluvchi ziqnalik, yolg'onchilik, munofiqlik, manmanlik, takabburlik kabi nuqsonlarni qoralaydi, boylikka ruju quyish va ta'magirlik, g'azab va johillik inson uchun eng ashaddiy dushman deb qaraydi.

Mutafakkir jamiyatda adolat o'rnatish, uni yovuzliklardan xalos etish uchun dono, adolatli hukmdor bo'lishi kerak, deydi.

Beruniy kundalik turmush masalalariga ham katta e'tibor bergan. Har bir axloqan barkamol inson o'zining turmush tarzini uyg'un, go'zal eta oladi. Uyg'unlik, go'zallik va nafosatning asosi sanaladi. Beruniy insoniy xislatlardan muhimi – ozodlik, tarbiyalilik bo'lsa, insonga eng yaqin narsa uning tabiati, ruhi, deydi. Shuning uchun inson o'z tabiatiga yoqadigan ishlarni bajarishi zarur, deb ko'rsatadi. Bunda insonning ichki dunyosi bilan tashqi go'zalligi, turmush tarzidagi go'zallikning uyg'un bo'lishi talab etiladi. Bunga inson kiyadigan kiyimidan kundalik turmushdagi yurish-turushi, so'zi, qalbi, qilgan ishi – hammasining go'zal bo'lishi ta'kidlangan.

Har bir shaxsda sharm-hayo, ozodalik, nafis did, iffat, latofat, shirinsuxanlikning tarkib topishi turmushning go'zal bo'lishiga olib keladi.

Olimning inson turmushiga xos hulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go'zal bo'lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin. U ozodlikni olijanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur, deb ta'kidlaydi. Bunda inson o'zini boshqara olishga qodir bo'lishi, har bir etuk inson uchun zarur bo'lgan xislatlarni tarkib toptirishda kuch va irodaga ega bo'lishi zarur, deydi. «Minerologiya» asarida bu fikrni quyidagicha ifodalaydi: «Inson o'z ehtirolariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarini maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin, axloq

haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir»

Beruniy insonni kamolotga etaklovchi xislatlardan yana biri olijanoblik deb ko'rsatadi.

Olijanoblikning mazmunini yaxshilik tashkil etadi. Bunda olim insonga inson sifatida muomala qilishni nazarda tutadi.

Eng muhimi, mutafakkir inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa ilm ahli – olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish, hayrixoh bo'lishga chaqiradi, ularni ma'rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo'shuvchilar deb, biladi: shu bilan birga, og'ir mehnat qiluvchi konchilar, er ostida gavhar izlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag'batlantirib turish kerak, deydi. Ayniqsa, podshoxlar bunday mehnat ahliga g'amho'r bo'lishi kerakligini alohida eslatadi. Chunki ana shu mehnat ahli ular hukmronligining tayanchi, deb ta'kidlaydi.

Olim bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshidan mehnatga o'rgatish kerak, deydi. Mehnat tarbiyasida o'sha davr tarbiya an'anasiga binoan vorislikka katta ahamiyat beradi. Buni E.To'raqulov va S.Rahimov «Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida» nomli risolalarida juda yaxshi bayon etganlar. Beruniyning «Mineralogiya» asarida faqat qimmatbaho metallar, toshlar haqida emas, hunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish metodlari haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan. Bunda hozirgi pedagogika fani tili bilan aytganda, shaxsiy namuna metodidan foydalangani, ish jarayoni bevosita ham nazariy, ham amaliy jihatdan ustaxonaning o'zida bajarilgani shogirdlarning malakali usta bo'lib etishishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shuning uchun ham o'sha davrda Xuroson va Movarounnahr metallurgiya, konchilik, to'quvchilik, zeb-ziynat buyumlari yasash, qog'oz, oyna ishlab chiqarish va boshqa sohalarida dunyo bozorida nom chiqargan.

Hunarmandchilikning bunday yakka holda o'rgatilishi malakali kasb egalarning etishib chiqishiga yordam bergan, halol va vijdonan mehnat qilishga yo'llaganki, bu insonning kamolga etishiga muhim pog'ona bo'lgan. Zero, qadimdan har bir etuk inson u shohmi, oddiy fuqaromi hunarning bir yoki bir necha turini bilishi zarur sanalgan. Shunga ko'ra, buyuk shohlar ham, beklar ham, katta mol-mulk egalari bo'lgan boylar ham, oddiy fuqaro ham o'z farzandini bilimli bo'lish bilan birga, hunarli

bo'lishiga ham e'tibor bergan va bu yozilmagan qonunga barcha birdek amal qilgan. Chunki kishilik jamiyati paydo bo'lgandan kishilar o'z mehnati, hunari bilan kun kechirishga majbur bo'lgan va bu hayot taqozosi sifatida qabul qilingan.

Shuning uchun ham Beruniy inson hartomonlama kamolga etishi uchun u ilmi bo'lishi bilan birga, mehnatsevar va hunar egasi bo'lishi ham kerak, deydi.

Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasi ham e'tirof qiluvchi irsiyat, muhit, tarbiyadir.

Muayyan bir davrda olimlar inson kamolotiga irsiyat, muhitning ta'sirini inkor etib, faqat tarbiyani tan oldilar. Lekin Beruniy o'z zamondoshlari – buyuk mutafakkirlar Forobiy, ibn Sino kabi inson kamolotida har uchalasini ham muhim deb hisoblaydi. Ya'ni u insonning kamolotga etishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy o'rin tutadi, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega bo'ladi, deydi.

Abu Rayhon Beruniy nazarida, inson kamolga etishining eng muhim omillari ilm-ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir. Beruniy ilmiy bilishga oid, ta'lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta'lim nazariyasida o'ziga xos maktab yaratdi.

Yoshlarni tarbiyalashda esa axloqiy mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, oila tarbiyasi, insonning shaxsiy gigienasi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik haqidagi tushunchalar katta ahamiyatga egadir. Olim axloqlilikning belgilari sifatida yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, olijanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat va hunar egallash, poklik, go'zallikka intilish kabilarni ilgari surgan. Bularning barchasini u yaratgan asarlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarga bog'lab tushuntirgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari faqat o'z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega.

Zero, uning o'zi ham haqiqiy komil insonga xos xislatlarga ega ekanligini, hayoti va ijodiy faoliyati, yozgan asarlari bilan isbotlab, kelajak avlodlarga katta ma'naviy me'ros qoldirdi.

Beruniy Sharq Renessansi davri qomusiy olimlaridan biri sifatida nom qozondi.

Mashhur sharqshunos olim J.Sarton jahon fani tarixida XI asrning birinchi yarmini Beruniy davri deb atadi. Uni o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholadi.

Beruniyning ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlarni qamrab olgan 150dan ortiq yirik ilmiy asarlar yaratganligi ham bu fikrning g'oyat o'rinli ekanligini tasdiqlaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Beruniyning fozil insonni shakllantirishga oid qarashlarining hozirgi davrdagi ahamiyatini izohlang.
2. Beruniyning axloqiy, aqliy, nafosat tarbiyasi haqidagi fikrlarini izohlang.
3. Beruniy ilmiy merosi va uning fanlar taraqqiyotida tutgan o'rni.

Abu Ali ibn Sino

(980 — 1037)

Ibn Sino ham boshqa zamondosh qomusiy olimlar singari matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, adabiyot, ta'lim-tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim.

Abu Ali ibn Sino 980 -yili Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida kichik amaldor oilasida tug'iladi. Uning to'la ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinodir. Abu Ali uning kuniyasidir. Oti Husayn, otasining ismi Abdulloh edi. Keyinroq uning oilasi Buxoroga ko'chib o'tgach, u maktabda o'qiy boshlaydi. Ibn Sinoning mutolasi zo'r, mehnatsevar edi. Undagi tug'ma qobiliyat, o'tkir zehn, kuchli xotira o'zaro birikib ketgandi. Ibn Sinoning otasi Abdulloh hamda uning do'stlari bilimdon kishilar bo'lib, ularning ilmiy munozaralari o'tadigan oilaviy muhit yosh ibn Sinoga ham ta'sir etadi. Shu bilan birga uning bolalik va o'smirlik yillari o'tgan Buxoro shahri somoniylar davrining yirik madaniy markazi bo'lib hisoblanardi. Buxoroda ko'plab maktab, madrasa, kasalxona va nodir kitoblar saqlanadigan kutubxona bo'lgan. Jahonning turli mamlakatlaridan kelgan olimlarning ilmiy munozaralarida yosh Ibn Sino ham qatnashib, turli fanlarga oid bilimlarini chuqurlashtirib borgan. U ustozlaridan hind hisobi, fiqhdan bilim olgan. Keyin esa faylasuf Abu Abdulloh Notiliydan falsafa, mantiq, handasa va boshqa fanlardan ta'lim oladi. Shundan so'ng o'zi mustaqil holda barcha fanlar bilan shug'ullana boshlaydi. U ayniqsa tib ilmini chuqur egallab oladi, bu sohada unga ta'lim bergan kishi buxorolik Abu Mansur Qamariy bo'ldi. So'ngra Ibn Sino falsafani o'rganishga kirishadi. Ayniqsa, Aristotel falsafasini, uning «Metafizika» asari mohiyatini buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning yozgan sharhi tufayli to'liq o'zlashtirib oladi.



IX asr oxiri – X asr boshlariga kelib, o'lkada siyosiy-ijtimoiy vaziyat murakkablashdi. Shu tufayli Ibn Sino Xorazmga – Urganchga ko'chib o'tadi. Xorazmda u bir qancha olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayhon Beruniy boshqarayotgan «Ma'mun akademiyasi»da ilmiy ish bilan shug'ullanadi. Xorazmda o'zining yirik asarlari – «Tib qonunlari», «Ash-shifo» kitoblari ustida ish olib boradi.

Mahmud G'aznaviy 1017-yili Xorazmni o'ziga qaram qilib olgach, nufuzli olimlarni ham o'z saroyiga chaqirib ola boshlaydi. Ibn Sino Mahmud G'aznaviy saroyiga bormay, boshqa yurtlarga ketishga majbur bo'ladi. Gurganjda, Rayda, keyin esa Hamadonda va umrining so'nggi yillari Isfaxonda yashaydi. Ibn Sino 1037-yili vafot etdi.

^A Ibn Sino haqiqiy qomusiy olim sifatida o'z davridagi fanlarning hammasi bilan muvaffaqiyatli shug'ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450dan ortiq asari qayd etilgan bo'lsa ham – zamonlar o'tishi bilan ularning ko'pi yo'qolib ketgan va bizgacha faqat 242 tasi etib kelgan.

Shu 242 asardan 80tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43tasi tabobatga oid, 19tasi mantiqqa, 26tasi psixologiyaga, 23tasi tibbiyot ilmiga, 7tasi astronomiyaga, 1tasi matematika, 1tasi muzikaga, 2tasi kimyoga, 9tasi etikaga, 4tasi adabiyotga va 8tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan ilmiy yozishmalarga bag'ishlangan.

Abu Ali ibn Sinoning «Al-Qonun», «Hayy ibn Yaqzon», «Risalat at-tayr», «Risalat fi-l-ishq» («Ishq haqida risola»), «Risalat fi mohiyat as-salot» («Nomozning mohiyati haqida risola»), «Kitob fi ma'no ziyorat» («Ziyorat qilishning ma'nosi haqida»), «Risalat fi-daf al-g'am min al-mivt» («O'limdan keladigan g'amni daf qilish haqida risola»), «Risalat al-qadr», «An-Najot», «Ash-shifo», «Donishnoma», «Kitob ash-ishorat va at-tanbihot» asarlari shular jumlasidandir.

Ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etgan.

Abu Ali ibn Sino asarlarida kamolotga erishishning birinchi mezonini – ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga etkazishi kerak. Bu maqsadga etishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur, deydi u: «Ey, birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir».

Zero, ma'rifatli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi u fikrini davom ettirib.

Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni etuk bo'lmagan kishilar qatoriga qushadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi.

U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o'z bilimining haqiqiyligini bilishi uchun mantiqni bilishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning ta'lim metodlari haqidagi ta'limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g'oya mavjud.

Ibn Sino bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash zarurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi, birga o'qitilishi va tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o'qitishga qarshi bo'lgan. Bolaning maktabda jamoa bo'lib o'qishining foydasi quyidagicha ifodalanadi:

Agar o'quvchi birga o'qisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o'qishning yaxshilanishiga yordam beradi;

O'zaro suhbatda o'uvchilar bir-biriga kitobdan o'qib olganlari, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar;

Bolalar birga to'planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, do'stlashadilar, o'quv materiallarini o'zlashtirishda bir-biriga yordamlashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar.

Bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, olim ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda engildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berishi;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Bu talablar hozirgi davr ta'lim prinsiplariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalalarga o'zining «Tadbiri manzil» asarida maxsus bo'lim bag'ishlaydi. «Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash» bo'limida ta'lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Yuqoridagi prinsiplar esa bolalarni engil-elpi bilim olish emas, balki hartomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi.

Talabaga bilim berish o'qituvchining ma'suliyatli burchidir. Shunga ko'ra, Ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritir ekan, shunday yo'l-yo'riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;

- berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- talabalning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqтира olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishishi zarur.

Ibn Sino ta'limotida bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin – u og'zaki ifodami, bilimlarni tushuntirishmi, turli ko'rinishdagi suhbatmi, tajribalarni, baribir, talabada haqiqiy bilim hosil qilish mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tadbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo'lgan.

Shu jihatdan olimning «Hayy ibn Yaqzon» asari kishilarning did-farosatini o'stirishi, fikr doirasini kengaytirishi bilan ta'lim-tarbiyada katta ahamiyatga ega. Uning nomi ham shunga ishora qiladi: «Hayy ibn Yaqzon» (Uyg'oq o'g'li Tirik). Bu asar farosat ilmi haqida ekanligini Ibn Sinonining o'zi ham ta'kidlaydi.

Mazkur asarni Ibn Sino 1023 -yili Hamadonga yaqin bo'lgan Faradjon qal'asi qamoqxonasida yozgan deyishadi.

Ibn Sino bu asarida ilm-ma'rifatni o'rganishga kirishgani tufayli ko'zi ochilgani, natijada Aql (Hayy ibn Yaqzon) ko'ziga ko'ringani va ilm unga o'z jamolini namoyon etganini hikoya qilar ekan, ilm – aqlni o'lim bilmaydigan Uyg'oq, qarimaydigan yosh, beli bukmaydigan – barvasta, nuroniy sifatida tasvirlaydi. Tafakkur qilib zarur bo'lgan va bilishi mumkin bo'lgan narsalarni o'qishga kirishgani, bu yo'lda aqlni ishga solib, o'zini yomonliklardan chetlashtiradigan turli xususiyatlarini bilib olganligini qayd etadi.

Demak, «Hayy ibn Yaqzon» mantiq ilmiga bag'ishlangani bilan ham aqliy tarbiyada katta ahamiyatga ega. Risola insondagi yomon illatlarni bartaraf etishda ilmu fan, ziyoning ahamiyati, insondagi aql – tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutilishi, o'zligini anglash vositasi ekanligi bilan adabiy-falsafiy asargina bo'lib qolmay, tarbiyaviy asar sifatida ham qimmatlidir.

Ibn Sino insonning kamolga etishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotchilar uning falsafiy asarlarida axloqqa oid fikr yuritilganlari o'n ikkita deydilar.

Ibn Sino axloqqa oid asarlarini «amaliy hikmat» (donishmandlik amaliyoti) deb ataydi. Olimning fikricha, axloq fani kishilarning o'ziga va boshqalarga nisbatan xatti-harakat me'yorlari va qoidalarini o'rganadi.

Dunyoda mavjud bo'lgan jami narsalar tabiatiga ko'ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilishning o'zi esa mohiyat e'tibori bilan yaxshilikdir, deydi u.

Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini taxlil etadi va har biriga ta'rif beradi. Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh me'zoni sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo'ladi, yomon illatlardan o'zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim. Insondagi ijobiy, axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo'tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi.

Qanoat va mo'tadillikni insonning hissiy quvvatiga kiritadi, chidamlilik, aqllilikni g'azab quvvatiga, donolik, ehtiyotkorlikni ziyraklikka, sadoqat, uyatchanlik, ijrochilik, achinish, sofdillikni tafovut quvvatiga kiritadi.

Olim qanoatni hissiy fazilatlaridan sanaydi va inson o'zini ta'magirligidan tiysa, mo'tadillikka rioya qilsa, o'zida hirsning namoyon bo'lishini engadi, inson yomon illatlarni engishda o'z imkoniyatlarini ongli sarf etishi lozim, deydi u.

Ibn Sino har bir axloqiy xislatning ta'rifini beradi:

- mo'tadillik – tan uchun zaruriy oziq va xulq me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;
- sahiylik – yordamga muxtoj kishilarga ko'maklashuvchi insoniy quvvat;
- g'azab – biror ishni bajarishda jasurlik;
- chidamlilik – inson o'z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat;
- aqillilik – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlikdan saqlovchi quvvat deydi.

Ziyraklikni narsalar va hatto harakatlarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat, achinish; kishilar baxtsizlik, azob-uqibatga duchor bo'lganda, ular bilan xushmuomalada bo'luvchi insoniy quvvat; kamtarlikka esa xudbin ishlar bilan shug'ullanishdan to'xtatuvchi kuch sifatida ta'rif beradi.

Ibn Sino insonning kamolga etishida to'siqlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko'rsatib o'tadi. Johillikni – ilmga, nodonlikni – zehni o'tkirlikka, shafqatsizlik, takabburlikni adolatga, nafratni – sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi.

Alloma yuksak axloqiy xislatlarga yana kishilarning bir-birlariga do'st bo'lib yashashi, hamkorlik qilishini ham kiritadi. Chunki har bir kishi jamiyatda odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan do'stona yashashga intiladi.

Modomiki, inson aloqaga muhtoj ekan, boshqa birov bilan qo'shinchilik qilish uchun uning uyi yoniga uy soladi, o'zining ehtiyojini qondirish uchun esa ishlab chiqarish mahsulotlarini almashtiradi, dushmanlardan saqlanish uchun o'zgalar bilan birlashadi. Mana shu tariqa kishilarda birlik hissi, boshqalarga nisbatan sevgi-muhabbat va umumiy axloqiy negizlar ishlab chiqiladi. U do'stlikni shunday ta'riflaydi:

– har qanday qiyinchiliklarga qaramay o'z do'stini xavf-xatarda yolg'iz qoldirmaydigan do'stlik;

– manfaatlari o'xshash va g'oyaviy yaqin do'stlik;

– o'z shaxsiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan do'stlik.

Ibn Sino birinchi va ikkinchi xil do'stlikni haqiqiy do'stlik deb e'tirof etadi.

Olim haqiqiy do'stlik natijasida sevgi-muhabbat paydo bo'lishi mumkinligini aytadi. U «Risolai ishq» asarida sevgi-muhabbatning asl mohiyatini ham ijtimoiy, ham fiziologik jihatdan yoritib beradi. Insonlarga ularning tashqi ko'rinishiga qarab emas, balki ularning ichki, ma'naviy dunyosiga qarab baho berish kerakligini uqtiradi. Har bir kishi tabiatan sevgi tuyg'usiga ega, u tabiiy zarurat sifatida namoyon bo'ladi, lekin inson o'z tuyg'ularini boshqara olishi, aql va farosat bilan haqiqiy sevgini hirs tuyg'usidan, ehtiros kuchidan ajrata oladi. Chunki haqiqiy sevgi, olim fikricha, inson zimmasiga axloqiy, huquqiy burch yuklaydi. Bu esa olimning sevgiga ijtimoiy omil sifatida ham qaraganligini ko'rsatadi.

Ibn Sinoning musiqaga oid asarlaridan biri «Musiqqa bilimiga oid to'plam» deb nomlangan. Unda tovushning sezgi a'zolariga ta'siri, uning yoqimli va yoqimsizligi, tovushni eshitganda lazzatlanish yo nafratlanish hissining paydo bo'lishi kabi masalalarga to'xtalinadi; musiqaning kishi hayotida qanchalik zarurligi haqida fikrlar bayon etiladi. Olimning fikricha, inson tabiatan yoqimli narsalar orqali engil tortsa, uning aksida oromi yo'qoladi.

Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy xislatlarni mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi, deb ta'lim beradi.

Inson hissiy va ma'naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe'l-atvoriga xos xislatga aylana boradi. Ibn Sino fikricha, insonning shakllanishida uning atrofini o'rab olgan tashqi muhit, odamlar insonning atrof-dunyoni bilishigina emas, balki uning hulqiga yaxshi yoki yomon jihatlar ham ta'sir etadi. Shuning uchun bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo'lish kerak, bola yomon odatlarga o'rganmasligi uchun, uni yomon odamlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarur.

Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalari keng o'rin olgan. Chunki inson avvalo oilada kamolotga etadi.

Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e'tibor beradi. Oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa, ota-onaning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatishi borasida muhim fikrlar bayon etadi.

Ibn Sino inson kamolotida jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan tahlil etadi.

Ibn Sinogacha insonning kamolga etishida jismoniy tarbiyaning ta'siri haqida bir butun, yaxlit ta'limot yaratilmagan edi. Ibn Sino birinchi bo'lib jismoniy tarbiyaning ilmiy pedagogik jihatdan bir butun sistemasini yaratdi.

Jismoniy mashqlar, to'g'ri ovqatlanish, uyqu, badanni toza tutish tartibiga rioya etish inson sog'lig'ini saqlashda muhim omillardan ekanligini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan asosladi.

Bolaga hali u tug'ilmasdan turib g'amxo'rlik qilish, go'dakligidan boshlab tarbiyani boshlash zarurligini ta'kidlaydi. Bolaning etuk nson bo'lib shakllanishida unga g'amxo'rlik, poklik, mas'uliyatni his etish, do'stona munosabatlar tuyg'usini singdirib borish zarur, deydi olim. Chunki Ibn Sino merosinining asosiy qimmatini uning kuchli gumanistik mazmunidir.

Ibn Sinoning jahon fani va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasini e'tiborga olib, Jordano Bruno Ibn Sinoni qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi Aristotel, tabib Galen bilan teng qo'ysa, Dante o'zining «Ilohiy komediya»sida olimni Ptolomey, Yevklid, Gippokratrga tenglashtiradi. Nemis faylasufi L.Feyrbah uni «mashhur tabib va faylasuf»dir desa, Hindistonning buyuk davlat arbobi J.Nehru o'zining «Hindistonning ochilishi» asarida O'rta Osiyo olimlarini tilga olar ekan, Ibn Sino nomini alohida ta'kidlab: «Ulardan eng mashhuri tabiblar podshohi» degan nomni olgan buxorolik Ibn Sino (Avisenna)dir, – deydi.

Demak, ibn Sinoning shaxsiy faoliyati dunyoviy ilmlarni o'rganish haqidagi ta'limotlari, ta'lim-tarbiya haqidagi mulohazalari umuminsoniy pedagogik fikr taraqqiyotida yuksak o'rinni egallaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ibn Sinoning hayoti va ijtimoiy tuzum.
2. Ibn Sinoning ta'lim va tarbiya usullari, shakl va metodlarini izohlab bering.
3. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi haqida qanday fikrlarni ilgari surgan.

Mustaqil ish

Abu Ali ibn Sinoning «Tadbiri al-manozib» asarining oilada bola tarbiyasiga bag'ishlangan bo'limini o'rganish va tahlil qilish.

IV BOB. SHARQ PEDAGOGIK TA'LIMOTIDA TA'LIMIY-AXLOQIY QARASHLAR

Ta'limiy-axloqiy qarashlarning paydo bo'lishi

Sharq Uyg'onishi davrida ma'naviy-ma'rifiy sohada asosiy masala inson muammosi edi. Insoniylik, insonni ulug'lash g'oyasi ta'lim-tarbiyaga oid asarlarning asosiy o'zagi sanalgan. Zero, insoniylik g'oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalangani uchun ham Sharq Uyg'onish davri falsafasi va pedagogikasida ta'limiy-axloqiy yo'nalish muhim ahamiyat kasb etdi. Axloq masalasi faylasuflarning ham, tarixchi-yu shoir hamda adiblarning ham birdek diqqat markazida bo'ldi. Ta'limiy-axloqiy risolalar paydo bo'lib, axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil etildi. «Qutadg'u bilig», «Qobusnoma», «Hibbat ul-haqoyiq», «Guliston», «Bo'ston», «Axloqi Jaloliy», «Axloqi Nosiriy», «Axloqi Muhsiniy», «Mahbub ul-qulub» kabi Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa'diy, Nasiriddin Tusiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiyning ta'limiy-axloqiy asarlari yuqorida ta'kidlaganimiz inson shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etish sohasida yaratilgan sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur ta'limiy-axloqiy asarlarda insonning ma'naviy kamolga etishishi yuksak axloqqa ega bo'lish, i ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g'oya ilgari surildi.

Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o'rgatish «Qur'on» va «Hadis»larni o'rganish va o'zlashtirish asosida olib borilgan. «Qur'on» va «Hadis»lardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga ta'sir etgan. Ularda ilgari surilgan musulmonlikning muhim xislatlari: halollik, saxovat, himmat, mehru oqibat, ehson, sharm-hayo, ilm izlash, muomala qoidalari, axloq mezonlari va boshqalar o'z ifodasini topgan va Sharq adabiyotiga, jumladan, ta'limiy-axloqiy asarlarga ta'sir etgan. Ta'limiy-axloqiy asarlar bevosita Hadislarda ilgari surilgan g'oyalar asosida yaratildi. Hadislar ta'siri Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan boshlanib, Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq», Sa'diyning «Guliston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» va boshqa asarlar negizida ko'rinadi. Ham g'oya, ham mazmun, ham shakl buning dalilidir.

Masalan, «Qur'on»da ham, «Hadis»larda ham, ta'limiy-axloqiy dostonlarda ham ilm ta'rifi bilan birga, xulq-odob qoidalari, turmush odobi yoritiladi.

Xullas, Sharq ta'lim-tarbiyasida ilmni targ'ib etish, xulq-odob qoidalari islomiy prinsiplarga asoslangan, ta'limiy-axloqiy asarlardagi mundarijalarning o'xshashligi ular tayangan ma'naviy zaminga bog'liqdir.

Yusuf Xos Hojib

Yusuf Xos Hojibning hayoti va faoliyati. «Qutadg'u bilig»ning yaratilishi haqida qisqacha ma'lumot.

Yusuf Xos Hojibning tarjimai holini faqat uning «Qutadg'u bilig» asarida yozib qoldirgan ma'lumotlardangina bilamiz.

Yusuf Xos Hojib Balasog'unda tug'ilgan, o'z asarini yoshi ellikdan o'tganda yozgan. Asar hijriy 462 (1069-1070) yili yozib tugallanganligi, uni o'n sakkiz oyda, ya'ni 461 -yilning birinchi yarmida boshlab, 462-yilning o'rtalarida tugatganligi aytiladi. Agar bu davrda Yusuf Xos Hojib 50 yoshlar atrofida bo'lsa, 410(1019 milodiy) -yili tug'ilganligi taxmin etiladi.

*Tegurdi menga elchi ellik yashim,
Qug'u qildi uzg'un tusi-teg bashim.
(Ellik yoshim menga qo'l tegizdi,
Qora (quzg'un) tusidek boshimni oq (qush)
qildi (ya'ni, sochim oqardi).
Yil altmish eki erdi to'rt yuz bila
Bu so'z so'zladim man tutib jan sura,
Tugal o'n sakkiz ayda aydim bu so'z,
O'qurdum, adirdim so'z evdib tera.*

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari 6500 baytdan yoki 13000 misradan iborat. Buyuk mutafakkir asarni yozib tugatgach, qoraxoniy-lar hukmdori Tavg'achxon (kitobda Tavg'och Ulug' Bug'ra Qoraxon (xoqon), Abo Ali Hasan binni Sulaymon Arslon Qoraxon (xoqon) nomlari bilan zikr etilgan) huzuriga kelib, unga taqdim etadi. Kitob xonga manzur bo'lib, uning muallifiga Xos Hojib unvonini beradi. «Qutadg'u bilig» asari katta shuhrat qozonadi. Shuning uchun ham «Qutadg'u bilig»ni chinliklar (Xitoy) «Adab ul-muluk» («Hukmdorlar odobi»), mochinliklar (Sharqiy Turkiston) «Anis ul-mamolik» («Mamlakatning tartib usuli»), eronliklar «Shohnomai turkiy», Sharq elida «Ziynal ul-umaro» («Amirlar ziynati»),

turonliklar «Qutadg'ʻu bilig», baʼzilar esa «Pandnomai muluk» («Hukmdorlar nasihatnomasi») deb atagani kitob muqaddimasida keltiriladi.

Mazkur asarning shuhrat topishi bejiz emas edi. Chunki Yusuf Xos Hojib oʻz davrining etuk mutafakkiri, donishmand kishisi edi. Buni asarning mundariyasi va mazmunidan bilsak boʻladi. U oʻz asarida tibbiyot, falakiyot, tarix, tabiiyot, geografiya, riyoziyot, handasa, falsafa, adabiyot, taʼlim-tarbiya, fiqhga oid fikrlarni bayon etib, faylasuf va qomusiy olim sifatida oʻzini namoyon etdi.

Hozirgacha «Qutadg'ʻu bilig»ning Hirot, Qohira, Namangan nusxalari maʼlum boʻlib, Venaga keltirilgan Hirot nusxasini Herman Vamberi nashr qildi va tarjimasini berdi.

1890-yili V.V.Radlov Vena nusxasining faksimilesini, 1891 -yili shu faksimile asosida matnini nashr qildiradi.

1896-yili Qohira nusxasi topilgandan soʻng, undan koʻchirma olgach, V.Radlov har ikki nusxasini qiyoslab, 1910 -yili rus grafikasiga asoslangan toʻliq transkripsiyasini nemis tiliga tarjimai bilan nashr ettirdi.

1913-yili esa uning uchinchi nusxasi Namanganda topilib, keyinchalik olimlar bu asarni tadqiq etishga kirishdilar.

Demak, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'ʻu bilig» asarini ilmiy jihatdan oʻrganishga juda koʻp olimlar hissa qoʻshgan. V.V.Radlov, H.Vamberi, S.E.Malov, S.N. Ivanovlar uni tarjima etib, nashr qilgan boʻlsalar, V.V.Bartold, Ye.E.Bertels, I.V.Stebleva, O.A.Valitova har tomonlama tadqiq etdilar.

Asarning mukammal nashrini tayyorlashda hamda uni tadqiq etishda oʻzbek olimlarining xizmatlari ayniqsa diqqatga sazovor.

Birinchi boʻlib professor Fitrat 1924-yili Namangan nusxasini olib, kutubxonaga keltiradi va u haqda maqola eʼlon qiladi.

«Qutadg'ʻu bilig»ning mukammal nashri oʻzbek olimi Q.Karimov tomonidan amalga oshirildi va tadqiq etildi. Uni tahlil etishda S.M.Mutaliboev, N.M.Mallaevning xizmati katta.

«Qutadg'ʻu bilig»ning hozirgi oʻzbek tilidagi bolalarbop bayoni esa Boqijon Toʻxliiev tomonidan nashr etildi. Yusuf Xos Hojibning axloqiy didaktikasi Q.Karimov, Y.Jumaboev tomonidan oʻrganildi.

Qoraqalpogʻistonlik A.K. Ahmetova esa «Yusuf Xos Hojibning pedagogik qarashlari» mavzuida ilmiy ish olib bordi.

Asar yaratilgan tarixiy sharoit. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'ʻu bilig» asari pedagogika tarixida taʼlimiy-axloqiy mavzuda yozilgan barcha asarlarning tamal toshi desak boʻladi.

Yusuf Xos Hojib X asrning oʻrtalarida tashkil topgan Qoraxoniylar hukmronligi davrida yashab ijod etdi. Qoraxoniylar Sirdaryodan

Yettisuvgacha, Shimoliy Farg'ona va butun Sharqiy Turkistonda hukmronligini o'rnatgandan so'ng Movarounnahrning ichki hududlariga ham kirib borib, Koshg'ardan Kaspiygacha bo'lgan keng maydonda o'z davlatini tarkib toptirgan edi. Uning markazi Koshg'ar (O'rdukent) bo'lib, Shimolda Balasog'un (Quzurda), G'arbda Samarqand, O'zgand yirik shaharlardan hisoblanardi. Har bir davlatda bo'lganidek, Qoraxoniylar davlatining ham idora qilish usuli, yurgizadigan siyosati, qonunlari, tarbiya prinsiplari ifodalangan qomus — nizomnoma zarur edi.

«Qutadg'u bilig» asari ana shunday zaruriyat tufayli yaratildi. Bu asarda qoraxoniylar davlatini mustahkamlash, uning idora usullarini yaratish, barcha tabaqa, toifadagi kishilarning xulq-atvori, jamiyatda tutgan o'rni, davlatni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan mustahkamlash, davlat mustahkamligining bosh tayanchi — insonni ma'naviy kamolga etkazish masalalari qamrab olinadi.

Yusuf Xos Hojib bu murakkab vazifani hal etishda faqat donishmand, mutafakkir sifatidagina emas, balki tarbiyashunos olim sifatida ham o'zini namoyon etdi. Shunga ko'ra u yaratgan «Qutadg'u bilig» asari ta'lim-tarbiya tarixi, uning nazariy masalalari, komil insonni shakllantirishda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

«Qutadg'u bilig» asarida hokimiyat qoraxoniylar qo'liga o'tishi munosabati bilan ta'lim-tarbiyaning ham hokimiyatni mustahkamlash va taraqqiy ettirish uchun xizmat etadigan o'ziga xos talab va prinsiplarni belgilash zarur edi. Shu bois mazkur asar didaktik, ya'ni ta'limiy-axloqiy uslubda yozilgan.

O'sha davrlarda bunday asar yozish an'anaga kirgan bo'lsa ham, har biri o'ziga xos uslubga ega bo'lib, «Qutadg'u bilig» ulardan ancha oldin yaratilgandir.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari ta'limiy-axloqiy asar sifatida pedagogika tarixida eng yuqori o'rinlarda turadi.

Asarning tuzilishi. «Qutadg'u bilig» asari Sharqda pandnoma yo'lidagi an'anaviy kitob tuzish tartibiga rioya qilgan holda bitilgan. Avval nasriy muqaddima, so'ng 73 bobdan iborat kitobning mundarijasi beriladi. Dastlabki o'n bir fasli debocha bo'lib, hamd, na't va xonni madh etish, ta'lif maqsadi, etti kavokib va o'n ikki burj, tilning ahamiyati, muallifning uzri, ezgulik haqida, bilim olishning ahamiyati, kitobga nom berilishi, keksalikdan afsuslanish kabi fasllardan iboratdir. O'n ikkinchi fasldan boshlab asosiy voqea bayon etiladi. Lekin asarda ma'lum bir syujet yo'q. Asarda to'rt qahramon — Kuntug'di — adolat ramzi, vazir — Oyto'ldi — davlat va baxt ramzi, vazirning o'g'li O'gdulmish — aql ramzi sifatida, O'zg'urmish — vazirning qarindoshi — qanoat timsoli o'rtasidagi

munozara asosida hayotiy masalalar bir-biriga bog'langan holda bayon etilib, kitobni yozishdan o'z oldiga qo'ygan maqsadga bo'ysundiriladi.

«Qutadg'u bilig» Q. Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek, «adabiy asar, badiiy adabiyotning tipik namunasi. Lekin u epopeya ham emas, to'lig'i bilan lirik ruhda ham emas. U axloq va odob, ta'lim va tarbiya hamda ma'lum ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini mujassamlashtirgan qomusdir. Bu asar tom ma'nosi bilan didaktik ruhda yozilgan ta'lim-tarbiya, odob-axloq va hikmat dasrligidir».

Yuqorida ta'kidlangan to'rt qahramonning suhbatlari, munozaralari asosida Yusuf Xos Hojib o'z maqsad va g'oyalarini bayon etadi.

Masalan, Oyto'ldining Elig bilan uchrashuvida uning Elig sinovidan o'tish jarayonidagi savol-javoblar natijasida davlatning sifati va fazilatlarini, uning bevafoqligi va bebaholigi, adolatning xislatlari, el-yurt boshqaruvchilarining xislatlari bayon etiladi.

Oyto'ldining o'g'li O'gdulmish bilan Eligning suhbatida esa saroy amaldorlari: beklar, vazirlar, lashkarboshilar, hojiblar, elchilar, sarkotib, xazinador, dasturxonchilar, sharobdorlarning o'z xizmatkorlariga munosabati qanday bo'lishi kerakligi bayon etiladi.

O'gdulmish bilan O'zg'urmish munozaralari, elig bilan O'zg'urmish munozarasida esa insoniy xislatlar, xizmat va turmush odoblari borasida fikrlar bayon etiladi, turli kasb egalari vasfi beriladi.

«Qutadg'u bilig»dagi bosh g'oya – insonni hayotda baxt-saodatga eltuvchi asosiy qarashlar to'rt ramziy qahramon: Kuntug'di – elig podsho – adolat timsoli, Oyto'ldi – vazir – davlat timsoli, O'gdulmish – vazir – aql timsoli, O'zg'urmish – vazirning qarindoshi – qanoat timsolining hayoti va davlatni boshqarish jaryonidagi xatti-harakatlari va fikrlari orqali berilganki, bular inson kamolotining muhim mezoni sanaladi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida etuk insonni kamolga etkazish masalalari

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo'lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o'rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o'ziga xos tarzda bayon etiladi.

Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» kitobining an'anaviy boshlamasidan keyinoq insonning haqiqiy baxti bilimda ekanligini bayon etadi. U ilm, zakovatning ahamiyati haqida fikr yuritish bilan birga unga alohida boblar ham bag'ishlagan. Lekin olim faqat ilm-ma'rifatning ahamiyatini ko'rsatibgina qolmaydi, u bilim va zakovatning amaliyotdagi o'rnini ham yoritadi.

U bilimli buyuk, uquvni ulug' deb ta'riflaydi. Chunki zakovatli inson ulug' bo'ladi, bilimli kishi buyuk bo'ladi, deb ilmlil kishilarni asl toifadagi kishilarga qo'shadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishini aytadi. O'sha davridayoq olim «Bilim hatto osmon sari yo'l ochur» deb bashorat qiladi.

U dunyoda odam paydo bo'libdiki, faqat bilimli kishilargina ezgu ish qilib, adolatli siyosat yurgizib kelgan, ana shu bilim va zakovati tufayli kishilar razolatdan poklangan deydi. Hatto hukmdorlar ham yurtini, davlatni aql, ilm, zakovat bilan idora etsa, el-yurt farovon bo'ladi, to'q va tinch hayot kechiradi, deydi. U kuch va qurolni aql va bilimdan keyingi ikkinchi o'ringa qo'yadi.

***Sechu (ya'ni har erda ma'lum xudo) insonni yaratti, tanladi,
Unga hunar, bilim va uquv berdi.
Unga ko'ngil (ya'ni aql) berdi, tilini yo'riq (ravon) qildi,
Andisha, xulq hamda go'zal fe'l ato qildi,
Bilim berdi, (shu tufayli) inson bu kun ulug'likka erishdi.
Uquv berdi, so'ng (shu tufayli berk) tugunlar yozildi.***

Yusuf Xos Hojib ilmlil, ma'rifatli kishilarni qadrlash kerak, chunki ular mash'ala kabi yo'lni yoritib, to'g'ri yo'l ko'rsatadi, yaxshi-yomonni farq etishni o'rgatadi, deydi. Shuning uchun olimlarni hurmat etish kerakligini ta'kidlab, ilm ahlini o'ta qadrlasa, ilmsizlarni johil kishilar deb biladi. Agar shunday johillar mansab va amalga ega bo'lsa, ular egallagan to'rni poygak deb biladi.

Dunyoda inson bilim va zakovati tufayli orzu-tilaklarga, ulug'likka erishishi mumkinligini aytadi.

Lekin shunday bilim va zakovatning qadriga faqat xuddi o'zlariga o'xshagan donolar va zakovatlilar etadi, johil va telbalar bunday xislatlarga ega emas, deydi. Chunki jamiyatdagi barcha xatolar bilimsizlik, nodonlik, jaholat tufayli sodir bo'lishidan u qayg'uiga tushadi, hayotda nodon va johillar ko'payib ketganligidan afsuslanadi.

U yurtini idora etuvchilarni va xalqni boshqaruvchilarni ikki toifaga bo'lib, birinchisi adolatli siyosatni yurituvchi beklar va ikkinchisi dono olimlar, deydi. Chunki siyosatchilar yurtini boshqarsa, olimlar ma'rifiy yo'l-yo'riq ko'rsatadilar.

Olim bilimni ziyoga, tengi yo'q javohirga o'xshatib, u insonni yuksaltiradi, jahonning sir-asrorini bilib olishga yordam beradi, deydi. Insoniyat nimaga erishgan bo'lsa, bilim tufayli erishganligini ta'kidlaydi. Ammo bu boylikni hech kim o'g'iray olmaydi, deb bilim va zakovatni muqaddas do'st, mehribon qarindosh, kiyim va ozuqa sifatida ta'riflaydi.

Lekin Yusuf Xos Hojib ilm-fanni anglashni targ'ib etibgina qolmasdan, uni hayotga tatbiq etish, amalda qo'llay olishga ham da'vat etadi.

Yusuf Xos Hojib insonga xizmat etmagan bilimni dengiz tubida foydalanilmay yotgan injuga o'xshatadi. Yer ostida yotgan oltinni ham qazib olinsa, beklar boshiga toj bo'lganidek, ilmni ham foydali narsalarga sarf etishga da'vat etadi.

Olim bilimlilik va bilimsizlikning natijasi haqida fikr yuritir ekan, inson bilimsiz, nodon, johil bo'lsa, yaramas ishlar qilishi, aksincha, bilimli, dono, zukko bo'lsa ezgu ishlarni ro'yobga chiqarishini ta'riflash bilan kishilarni tinmay ilm olishga undaydi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, buyuk alloma mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va moddiy, ma'naviy yuksalishida, elu xalqning boy va farovon turmushi – barchasi ilm va ma'rifatning ravnaqiga bog'liq ekanligini to'g'ri va ishonarli dalillar bilan badiiy ifodasini bera olgan va o'zi ham ana shu ezgu ishni amalga oshirish uchun tinmay faoliyat ko'rsatgan.

Mutafakkir o'zining axloqiy qarashlarini, ya'ni ijtimoiy munosabatlarni, jamiyat a'zolarining barcha tiplari o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni amaliyotga tayangan holda yoritadi. Bu axloqiy, xulq-odob prinsiplari, talab va vazifalari butun asar davomida qahramonlarning o'zaro munosabatlari asosida ifodalangan. Unda Elig(xon), uning vakillari, ijtimoiy guruhlarning o'zaro munosabati, axloqi, muomalasi, talablari bayon etiladi, turli kasb egalariga xos xislatlar, odatlar yoritiladi.

Asarda ilgari surilgan axloqiy xislatlar mohiyatining to'la ochib berilishi olimning ta'lim-tarbiya, axloq masalalarini qay darajada chuqur bilganligidan dalolat beradi: insoniylik, rostgo'ylik, to'g'rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo, shafqat, muruvvat, insof, adolat, ishonch, sadoqat, xushmuomalalik, shirinso'zlik, saxovat, mardlik, himmatlilik, tavoze, hurmat va ehtirom, tadbirkorlik. Aql-zakovat, halollik, ezgulik kabi xislatlar ulug'lanadi, ularga yolg'onchilik, noinsoflik, fisqu fasod, bevafoqlik, mehrsizlik, dag'allik, qo'pollik, baxillik, nomardlik, quvlik, hurmatsizlik, nodonlik, johillik, haromxo'rlik, ochko'zlik kabi xislatlarni qiyoslab, ezgu xislatlarning yaxshi samaralari va salbiy xususiyatlarning yomon oqibatlarini misollar vositasida ishonarli qilib bayon etadi.

Bunda dastlab, barcha yaxshi ishlarning manbaini ezgulik, yomon ishlarning asosini essizlik nomlari bilan talqin etadi. U inson hayotda qilgan ishi bilan yo yaxshi nom qoldiradi, yo yomon nom oladi, deydi. Alloma barcha ezgulikning boshi – til odobi, asar uning foyda va zararlariga bag'ishlanadi deya ta'kidlaydi.

Til insonning qadr-qimmatini oshiradi yoki shu til orqali inson yuz tuban ketishi ham mumkin. Kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri xushxulqlilik bo'lsa, ikkinchisi – yaxshi so'z, deydi.

Insoniy munosabatlarning eng oliy mezonini sanalgan hurmat va ehtiromni tarkib toptirishning barcha ko'rinishlari asarda o'z ifodasini topgan. Yusuf Xos Hojib jamiyat taqdirini hal etuvchi eng ulug' mansabdorlardan oila a'zolarigacha bir-biriga bo'lgan muomala-munosabat masalalarini ham hayotiy misollar vositasida yoritadi. Katta yoshlilarning kichiklarga, kichiklarning ulug'larga, amaldor va mansabdorlarning o'z xizmatchilariga, xizmatchilarning o'z xo'jalariga, turli ijtimoiy guruh a'zolarining bir-birlariga, oilada oila a'zolarining bir-birlariga muomala madaniyatining eng oddiy ko'rinishlarigacha tasvirlab, kishining ko'z oldida yaqqol namoyon etadi. Buni biz farzand tarbiyasida uning tug'ilganidan boshlab xulq-odob qoidalarini, bilim va hunarni o'rgatish, buning uchun pok va bilimli muallim-murabbiy tanlash, farzandning hatti-harakatini doimo nazoratda saqlash kabi masalalarning bayon etilishidan ham bilsak bo'ladi.

Mutafakkir ulug'lar va kichiklar o'rtasidagi xulq-odob qoidalari haqida gapirar ekan, shu asnoda kamtarlik, salomlashish odobi, talablari, qoidalarini ham tavsiya etadi.

Ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning amaldorlar axloqi haqidagi o'gitlari diqqatga sazovor va bu fikrlar hozirgi davrda ham qimmatlidir. Allomaning beklar, hojiblar, vazirlar, saroyboshilar, elchilar, lashkarboshilar, devonboshilar, xazinadorlar, sarkotiblar kabi ko'plab amaldorlarning xatti-harakatlari, ish yuritishlari, xulq-odobi haqidagi o'gitlari va yo'l-yo'riqlari har bir amaldor uchun dastur sanaladi. Masalan, har bir amaldorning o'z ishining ustasi, ilm-fanni egallagan, uning turli sohalari borasida fikr yurita oladigan, so'zga chechan, zehni, fahm-farosatli, himmatli, ko'zi to'q, ochiqqo'l, saxiy, tadbirli, zukko, hushyor, jiddiy, qanoatli, jasur, sog'lom, samimiy, sadoqatli, o'z so'zining ustidan chiqadigan, andishali, she'r baxsida ishtirok etib, o'zi ham she'r to'qiy oladigan, turli tillarni biladigan va yoza oladigan, nard, shatranj, chavgon o'ynay oladigan, merganlik kabi xislatlarga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Har bir insonning kamolga etishida to'squinlik qiladigan yomon illatlar, nuqson va kamchiliklardan, birinchi navbatda, el-yurt xizmatida bo'lgan amaldorlar xoli bo'lishi lozimligi uqtiriladi: maishat, ishratparastlikka berilish, kek, gina, adovat, nizo, xusumat, fisqi-fasod, maishiy buzuvchilik, mayparastlik, kayfu safoga berilish, mutakabbirlik, xiyonat, davlat ketidan quvish, manfaatparastlik, xudbinlik, boshqalarning haq-huquqlarini toptash, ta'magirlik, haqorat kabilar shunday illatlardirki, buning natijasi davlatning rivojiga putur etkazib, jamiyatni ma'naviy qashshoqlikka olib boradi, deb bunday yomon illatlardan tiyilishni maslahat beradi.

Masalan:

*(Agar) dunyo beglari ichimlikka (maishatga) berilsa,
El va xalqning dardlari (qismati) achchiq bo'ladi.
Jahongir kishi aysh-ishratga mahliyo bo'lsa,
Elini buzadi (xarob qiladi), o'zi (esa) tilamchi
Bo'lib qoladi.*

Yusuf Xos Hojib takabburlik, mag'rurlanish, kekkayishga kamtarlik, xushsuxanlik, xushfe'llilikni qarshi qo'yadi. Amaldorlarga xoh katta, xoh kichik bo'lsin, balandhimmatli, muruvvatli bo'lish, samimiylik xos fazilat ekanligini alohida ta'kidlaydi. Insonning haqiqiy boyligi uning ko'z va ko'ngil to'qligi, deb baho beradi. Zero, ochko'zlik, ta'magirlik insonda poraxo'rlik kabi yomon illatning tomir otishiga olib keladi, deydi.

Yusuf Xos Hojib oilaviy-maishiy turmush ikir-chikirlariga ham katta e'tibor beradi. U kishilarni o'ylab oila qurishdan farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng ezgu zaruriy vazifalarni birma-bir bayon etadi. Yigitlik va keksalik fasllari haqida ham fikr yuritib, yigitlikni ehtiyot qilish, yigitlik davrida qarilikning g'amini eyish, bu to'g'rida qayg'urish kabi zaruriy narsalar haqida tavsiyalar beradi.

Olim insonning turli marosimlar, yig'inlar, uchrashuvlar, ziyofatlarda o'zini tutishi, xulq-odob qoidalariga rioya etishi haqida fikr yuritib, mehmon va mezbonlik qoidalari, shartlari, tartib-intizomlari haqida muhim o'gitlar beradi. Masalan, «Qutadg'u bilig»dagi elchilar (diplomatlar) huzurida, shohlar saroyida, to'y va aza marosimlari kishi o'zini qanday tutishi, odobi masalalari hozirgi davrda ham o'ta dolzarbdir.

Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asarini yozishda Sharqda keng yoyilgan o'git-nasihat janriga doir asarlarga tayanib ish ko'rsa ham mulo hazalarni bayon etishda hayotiy dalillarga ko'proq murojaat etadi. Masalan, insonga yaxshilik bilan yomonlik qilishning oqibatlarini quyidagicha bayon etadi:

*O'zing ezgu bo'lsang, oting maqtovga loyiqdir,
Agar yomon bo'lsang, tahqirga mahkumsan, ey latif.
Tuban Zahhok ne tufayli tahqirga loyiq bo'ldi,
Baxtli Faridun qanday qilib madhga sazovor bo'ldi.
Biri ezgu edi, uni madh qildilar,
Biri yomon edi, uni so'kdilar.*

Demak, ezgulik va essizlik bu o'rinda qiyos etiladi.

Shunday qiyosni biz yaxshilik bilan yomonlik, rost bilan yolg'onchilik, yorug'lik bilan ziyo, samimiylik bilan quvlik, kamtarlik bilan takabburlik, bilimlilik bilan johillik, saxiylik bilan baxillik va boshqa juda ko'p axloqiy xislatlar taqqoslanganda ham ko'ramizki, bu uslub muayyan maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Yusuf Xos Hojibning o'zi kishilarga munosabatda o'rtacha yo'l tutishni tavsiya etadi. Shunda do'st dushmanga aylanmaydi, ezgu ishlar amalga osha boradi.

«Qutadg'u bilig»da yana jumboqlarni echish usullaridan ham foydalanilgan. Bu uslub o'quvchini asarga qiziqtiradi, uni o'qimishli qiladi. Hozirgi davrda bu muammoli ta'lim deb yuritiladi. Ammo bizda jumboq-muammoli ta'lim o'ziga xos xususiyatga ega. Masalan, asardagi Kuntug'mish (Elig) bilan Oyto'ldi munozarasini olaylik.

Bu munozarada olim quyidagi fikrni ilgari suradi: Elig Oyto'ldiga o'rin berganda o'tirmagan, «Xon yonida menga o'rin yo'q», – degan edi. Erga koptok qo'ygani va unga o'tirgani bilan Oyto'ldi – davlat koptok kabi barqaror emas, bir joyda turmaydi, degani. Elig boqqanda ko'zini yumib olgani – davlat ham ko'r kishi kabi bo'ladi, kinga ilashsa, unga qattiq yopishib oladi, degani edi. Yuzini yashirgani esa, barcha qilmishlarim, ya'ni davlat jafo, unga ishonma, degani, deb kishi davlat va baxtga quvonib ketmasligi, ulardan quvonib, ortiqcha g'ururlanib ketmay, aksincha, o'zini ehtiyot qilishi, yig'ilgan narsalarni me'yorida sarflashi, bexud bo'lib, ichkilikka berilmasligi, narsalarni sovurmasligi kerak deb ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojibning mazkur asari insonni har tomonlama kamolga etkazishda yirik ta'limiy-axloqiy asardir. Shuning uchun ham bu asar o'zining ilmiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatini shu paytgacha saqlab kelmoqda.

Kaykovus: «Qobusnoma»

Kaykovus 412-hijriy yili (milodiy 1021–1022) tug'ilgan. Uning avlodlari gilon qabilasidan bo'lib, Tabaristonda (hozirda Kaspiy dengizining janubidagi hudud) yashaganlar.

Ammo biz Kaykovus haqida batafsil ma'lumotlarga ega emasmiz.

Kaykovus o'z hayoti davomida ko'rgan-bilganlari asosida o'zining buyuk «Qobusnoma» asarini yaratdi. Kitobni u o'g'li Gilonshohga bag'ishlagan. Bu paytda Kaykovus taxminan oltmish yoshlarda edi.

«Qobusnoma» Sharqda saqlanib kelayotgan an'anaga ko'ra pand-nasihat tarzida yozilgan bo'lib, mana bir necha asrlardan beri xalqlarni, jumladan yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda, ularni

hartomonlama etuk inson qilib tarbiyalashda muhim qo'llanma bo'lib kelmoqda.

Lekin asarning «Qobusnoma» deb atalishining sababi, uning umuman Qobusga aloqasi haqida eslatilmaydi.

Kitob Eronda sakkiz marta nashr etilgan. Bularning eng mukammali mashhur olim Rizoqulixon Hidoyat tomonidan 1890—1891-yillari chop etilgan nashri hisoblanadi. Asar keyinchalik Bo'mbayda, Isfaxonda Fatxulla ibn Amulla Vali Urduni Baxtiyoriy tomonidan chop etildi.

Bundan tashqari, «Qobusnoma» ko'plab Sharq va G'arb tillariga tarjima qilinib, nashr etilgan. Jumladan, 1432 -yili Merjomak Ahmad ibn Ilyos tomonidan, 1705-yili Hasanposha Nazmizoda Murtazo tomonidan, 1881-yili Qozon tatarlari tilida Qayum Nosiriy tomonidan, 1860-yili Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga, G'arb tillaridan — nemis, fransuz, ingliz tillariga tarjima qilingan.

Endi bir-ikki og'iz so'z Shams ul-Maoliy Qobus haqida. Shams ul-maoliy Qobus o'z davrining fozil kishilaridan bo'lgan. U keng bilim egasi bo'lish bilan birga, she'rlar ham yozgan. Hukmdorligi davrida o'z saroyida zamonasining peshqadam olimlari va shoirlarini yig'ib, poytaxti Jurjonni yirik madaniy markazga aylantirgan. Tarixiy manbalarda Qobusning arab tilida yozgan, uchta kitobdan iborat mashhur «Nomalar»i bo'lganligi qayd etiladi. Bular «Kamol al-balag'a» («Suxandonlik kamoloti»), maqol va hikmatlar to'g'risidagi «Al-forida fi-l amsal va-l adab» («Nodir nomalar»), «Risola fi-l iftixor va-l itob» («Tanbeh va maqto'v nomalari»)dir.

«Qobusnoma» murakkab yo'lni bosib o'tdi. Sho'ro mafkurasi davrida asarning insonni aqliy, axloqiy tarbiyalashdagi ahamiyati hokim sinf axloqini targ'ib qilish deb baholandi. Kaykovusning Vatan haqidagi, kasbhunarni ulug'lovchi, bilimlarni egallash haqidagi fikrlari, diniy qarashlari siyosiy nuqtai nazardan qoralanadi. Asarning qimmatli faqat uning adabiy-badiiy, til xususiyati va tarixiy jihatlarida deb ta'kidlandi.

Ammo «Qobusnoma» asariga davr va shart-sharoitlar, siyosiy qarashlar ta'sirida qay darajada soya tashlanmasin, bu asar mashhur hind asari «Kalila va Dimna», Nizomul-mulkning «Siyosatnoma», Nosir Xisravning «Saodatnoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk», Sa'diyning «Guliston», Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», Davoniyning «Axloqi Jaloliy» kabi axloqiy-ta'limiy asarlari bilan bir qatorda Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida inson kamolotini shakllantirishda muhim o'rinni egallaydi. Unda Sharq pandnomalaridagi an'anaga binoan va X asrda paydo bo'lgan yoshlar jamoasi juvonmardlik tarbiyasi ifodalandi.

Muallif juvonmardlik haqida eng oxirgi bobda soʻz yuritadi. U odamlarning xislatlarini uch xilga boʻladi: biri aql, biri rostlik va yana biri juvonmardlikdir. Juvonmardlikni asosini Kaykovus uch narsada deb biladi. Birinchisi, aytgan soʻzning ustidan chiqish, yaʼni rostlik; ikkinchisi rostlikka xilof qilmaslik; uchinchisi, xayr ishini ilgari tutish.

Insondagi boshqa barcha xislatlar shu uch narsaga bogʻliq, deydi Kaykovus. Juvonmardlik(yoki iyorlik)ning ustunlarini (ruknari) quyidagilarda deb koʻrsatadi: jasurlik, mardlik, sabr-matonat, vaʼdaga vafo qilmoq, pokdil va pokzabon boʻlmoq; asirlarga ziyon etkazmaslik, bechora kishilarga madad berib, yomonlarning yomonligʻini yaxshilardan yiroq tutish, rostgoʻylik, yaxshiga yomonlik qilmaslik, ziyon-zahmatdan saqlash, odamlarga ziyon-zahmat etkazmaslik. Juvonmard sipohiylar esa sabr-bardosh bilan ish tutishlari, kamtarlik va mehmondoʻstlik, saxiylik, toʻgʻrilik, haqshunoslik, pok kiyinish, yaxshi qurollanishi zarurligini qayd etadi.

Mazkur bobda yana juvonmardlik yoʻlini tanlagan yoshlarga uch narsadan oʻzini: koʻzni yomon nazardan, qoʻlni yomon ishdan, tilni yomon soʻzdan saqlashni tavsiya etadi.

Uch narsani doʻst va dushmanga ochiq tut: uy eshigini, sufra boshini, hamyonning bogʻichini, deydi. Soʻng hamma vaqt rostgoʻy boʻlish, xiyonat qilmaslik ham juvonmardlikning koʻrinishlaridan, deb biladi. Kaykovus juvonmardlikning kamolot nuqtasini koʻrsatuvchi mezon deb oʻz mol-mulkini oʻzganikidan ajrata bilish, xalq mulkiga taʼma qilmaslik, birovning mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, xalqqa yomonlik qilmaslik, qanoatli boʻlish kabilarda deb biladi.

Mazkur bobda Kaykovus aql haqida fikr bildirib, inson qobiliyatining bir xil emasligini, inson aqlining tugʻma, yaʼni azaliy aql (tabiiy aql) va kasbiy aql, yaʼni muktasib (oʻrgatilgan aql) kabilarga boʻlinishini bayon etadi. Kasbiy aqlni donish ham derlar, deydi. Muktasib aqlni oʻrganish mumkin, ammo azaliy aqlni oʻrganishga yoʻllaydi. Kaykovus aql hikmat (falsafa) bilan kamol topadi, deb koʻrsatadi. Muktasib aqlning takomilla-shib borishini, tabiiy aql ham muktasib aqlsiz rivojlanishi mumkin emasligini taʼkidlaydi va fikrlari bilan taʼlim-tarbiyaning ahamiyatiga katta eʼtibor berib, insonning kamolga erishishida aqliy shakllantirish gʻoyasini ilgari suradi.

Kaykovus shunday deydi: «... barcha fikr va tushunchalarimning sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, ham hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq toʻrt bobda bayon etdim». Kitobda juvonmardlar egallashi zarur boʻlgan quyidagi yoʻnalishlarda taʼlim-tarbiya berish nazarda tutilgan:

1. Kaykovus bilim olish haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy etuklik haqida.

Chunki har bir juvonmard uchun tan, jon, havos va maoniy, ya'ni ham sipohiylik, ham ma'rifat, ham donishmandlikka ega bo'lish zarur bo'lib, bu xislatlar ana shu yuqoridagi to'rt yo'nalishda zikr etilgan. Kaykovus ilmni uchga bo'ladi: biror kasb-hunarga bog'liq bo'lgan ilm; ilm bilan bog'liq kasb-hunar hamda xayr va dalolatga taalluqli odat.

Birinchisiga, ya'ni biror kasb bilan bog'liq ilmlarga tabiblik, munajjimlik, muhandislik, er o'lchash, shoirlik va boshqalar kiritiladi. Ilmga taalluqli kasblar musiqa asboblari ustasi, hayvonlarni davolovchi, binokorlik va boshqalar bo'lib, har qanday usta bo'lsa ham bu boradagi ilmni bilmasa, hech ish qila olmasligi ta'kidlanadi.

Ilm olish yo'lga kirgan toliblarga ham yo'llanmalar beradi:

Hamma vaqt parhezli va qanoatli bo'lish, bekorchilikdan o'zini tiyish, doimo shod-xurram va harakatchan bo'lish, kitob o'qishga berilish, ilm yo'lida qayg'u-hasratga berilmaslik, ilmni yodda saqlash uchun takrorlab borish, yod olish, imlda haqiqat uchun kurashish, taqlid qilmaslik, doimo o'z yonida kitob va boshqa o'quv qurollarini saqlash, oz so'zlab, ko'p tinglash haqida fikr bildiradi. Ilm yo'lida munozaradan chekinmaslik, lekin uni janjalga aylantirmaslik, isbot va dalillar bilan o'z fikrini bayon qilish zarurligini ta'kidlaydi. Yana u olimning aytgani bilan qilgan ishi bir bo'lishi kerakligi, ilmni chuqur o'rganish, har bir kasb, sohaning bilimdoni bo'lishda doimo kamtar, oqil, xalqparvar, har bir narsani oldindan ko'ra oladigan bo'lish kerakligini ham ko'rsatib o'tadi. Zero, ilmni faqat kitobdan o'rganish bilan cheklanib qolmay, aql, tafakkur bilan hukm chiqarish zarurligini ham ta'kidlaydi. Ana shu talablar asosida u tijorat ilmi, tib ilmi, nujum (yulduzlar) ilmi, handasa (geometriya) ilmi borasida o'z qarashlarini tarbiyalashda ularga ilmu odob o'rgatishlari zarurligi ta'kidlanadi.

Kaykovus bilim va aqlning ahamiyatini ulug'lar ekan, uni mol-dunyodan yuqori qo'yadi: «Agar molsizlikdan qashshoq bo'lsang, aql dan boy bo'lmoqqa sa'y ko'rguzgilki, mol bila boy bo'lg'andan, aql bila boy bo'lg'on yaxshiroqdur, nedinkim aql bila mol jam etsa bo'lar, ammo mol bila aql o'rganib bo'lmas. Bilg'il, aql bir moldurki, uni o'g'ri ololmas, u o'tda yonmas, suvga oqmas» — deb ta'riflar ekan, inson adabi ham aqlning belgisi («al-adab-suratil aql»), deya xulosa chiqaradi.

Kaykovus jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning ham zarurligini ta'kidlaydi: «Agar kishi har qancha oliynasab va aslzoda bo'l-

sa-yu, ammo hunari bo'lmasa, u haloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo'lur. Ulug'lik aql va bilim biladur, nasl-nasab bila emas. Otni senga ota va onang qo'ymishlar, sen unga mag'rur bo'lmag'il ... Ammo sen hunar bila bir nomga ega bo'lg'il». Shuning uchun ham asarda turli kasb egalari ulug'lanadi. Kasb-hunar o'rganishni bilim olish bilan qo'shib olib borishni tavsiya etiladi. Fan amaliyot bilan uzviy aloqada qaraladi. Kaykovusning bu qarashlari o'sha davrning ilg'or qarashlaridandir.

Asarda munajjimlik, er o'lchash, musiqa, tibbiyot sohasidagi kasb egalarining faoliyati ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Ayniqsa, tibbiyot ilmiga oid qarashlari Kaykovusning zukko, donishmand, hartomonlama etuk bilimga ega kishi bo'lganligidan dalolat beradi.

Ayniqsa, uning turli kasb-hunar vakillari haqidagi fikrlari amaliyotga tatbiq etishda o'ta muhimligi bilan diqqatga sazovor. Masalan, «Dabirlik va kotiblik zikrida» bobida yozma nutqni yaxshi egallash, chiroyli yozish va mashq qilishni maslahat beradi. U xat yozishda sajga rioya etish, har bir so'zni yoqimli, tushunarli, qisqa yozish, zukko va sezgir bo'lishni ta'kidlaydi. Xattotlikning ulug' hunar ekanligi, ammo bu hunarda hech qachon soxtalik, pastkashlik qilmaslikni, sir saqlashni tavsiya etadi va bu borada ibratli hikoyatlar keltiradi.

Kasb-hunarga oid uning «Dehqonchilik va bozor peshalari bayoni zikrida» bobi ham diqqatga sazovordir.

Tadqiqotchilar shu vaqtgacha Kaykovusni faqat yuqori tabaqa vakillari manfaatini ko'zlagan tarbiyashunos sifatida biryoqlama talqin etdilar. Aslini olganda, Kaykovus yuqori tabaqa vakillarini ham ilm, hunar egallashga, mehnat qilishga undagan. Xususan, «Dehqonchilik va bozor peshalari bayoni zikrida» bobida ham u, avvalo, dehqonchilik ilmini egallash, mazkur ishda erni tarbiya qilish, tezkor va g'ayratli bo'lishni ta'kidlaydi. Boshqa hunarlarni egallashda ham rostgo'y bo'lish, xiyonat qilmaslik, muhtojlarga yordam qilish kabi xislatlarga ega bo'lishga undaydi. Ayniqsa, uning bozor bilan bog'liq kasb-hunar kishilariga bergan o'gitlari qiziqarli. Masalan, u: «Bozor xalqi bila bozori bo'lg'il. Tosh va tarozini rost qilg'il. O'z aqchang haqida ikki dil va ikki hamyon bo'lmag'il. Sheriklaringga xiyonat qilmag'il, har peshakim qilsang, unga hiyla qilmag'il va hamisha hamma ishingni birdek qilg'il. Agar moldor bo'lsang, muhtojga qarz bermoqni g'animat bilg'il», — deb to'g'ri ta'kidlaydi. Bu pandlar ham hukmdorga, ham oddiy fuqaroga bab-baravar zarurdir. Bu bilan Kaykovus yoshlarda mehnatsevarlikni, mehnatkash insonga hurmat tuyg'usini tarbiyalaydi, jismoniy mehnat bilan ham aqliy mehnat kabi shug'ullanish lozimligini uqtiradi.

«Qobusnoma»da yoshlar tarbiyasida — juvonmardlik talablaridan eng muhimi — axloq tarbiyasi deb ko'rsatiladi. U yoshlarda insonga nisbatan

insoniy munosabatda bo'lish, adolatlilik, samiylik, saxiylik kabi xislatlarni tarkib toptirishni istaydi va asarning boshidan oxirigacha ana shu ezgu maqsadni amalga oshirishga harakat qiladi.

Ko'rinib turibdiki, Kaykovus qarashlarida inson tarbiyasi omili muhim o'rin tutadi.

U axloqlilikning birinchi belgisi suxandonlik deb biladi. U (suxango'ylik) notiqlikda rost so'zlash kerakligini ta'kidlaydi. Kaykovus so'zlarni to'rt xilga bo'lgani kabi odamlarni ham to'rt xilga bo'ladi. Birinchi xil kishilar ko'p narsani biladi va yana bilgisi kelaveradi. Bular olimlar bo'lib, ularga bo'ysunish kerak, deydi. Ikkinchisi, bilmagan narsasini bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar bo'lib, bunday kishilarga o'rgatish kerak. Uchinchisi, bilganini ham bilmaydi, uyquda yashagandek, ularni «uygotish» kerak. To'rtinchisi, bilmaydi va bilmaganini tan olmaydi. Bular johil kishilar bo'lib, ulardan qochish kerak, deydi.

So'zlarning esa birinchi xili bilinmaydi va aytilmaydi; ikkinchisi aytiladigan va biladigan; uchinchisi ham bilinadi, ham bilishga zarurati yo'q, ammo aytsa bo'ladi. To'rtinchisi, bilinadigan va aytiladigan. Eng yaxshisi, to'rtinchisi, ya'ni bilinadigan va aytiladigani, deydi. So'zlaganda andishali bo'lish, sovuqso'zli bo'lmaslik, kam gapirish, kamtarlik, maqtanmaslik, birovning so'zini diqqat bilan eshitish odoblarini ta'kidlaydi.

Kaykovusning kundalik turmushdagi xulq-odob qoidalariga oid fikrlari asarning «Majoz (hazil-mazah) qilmoq, shatranj(shaxmat), nard o'ynamoq zikrida», «Shikorga (ovga) chiqmoq zikrida», «Chavgon o'ynamoq zikrida», shuningdek, ovqatlanish, dam olish, hammomga borish, mehmondorchilik, sharob ichishga bag'ishlangan boblarida bayon qilingan bo'lib, hozirgi paytda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bunday xulq-odob qoidalari inson kamolotini ko'rsatuvchi sevgi va muhabbat, do'st tanlash va dushmanidan saqlanish masalalarida ayniqsa namoyon bo'ladi.

Kaykovus yuksak axloqlilikning yana bir tarkibiy qismi do'stlik deb biladi va do'st tutmoq odobi haqida fikr bayon etar ekan, uning asosiy talablarini talqin etadi.

Kaykovus, avvalo, inson do'stsiz bo'lgandan ko'ra, birodarsiz bo'lgani durustdir, deydi. Kishining do'sti qancha ko'p bo'lsa, aybi shuncha sir tutiladi va fazilati ko'payadi. Kaykovus qiyinchiliklarda hamdard, tayanch bo'ladigan, sadoqatli, ta'magir, hasadchi bo'lmagan, aqlli, ilimli, muruvvatli kishilarni do'st tutish mumkin, deb ta'kidlaydi. Do'st bilan dushmani ajrata bilish, dushman oldida o'zini ojiz ko'rsatmaslik, kuchli dushman va xiyonatchi, chaqimchi, sir ochuvchi do'stdan saqlanishni maslahat beradi. U quyidagi xislatlarni har bir kishi o'zida tarbiyalash lozimligini ta'kidlaydi. Bular: o'zidan zo'r kishi bilan urushmaslik;

hasadchi kishi bilan birga jamoat o'rtasida o'tirmaslik; nodon bilan munozara qilmaslik; riyokor, ikkiyuzlamachi kishi bilan do'st bo'lmaslik; yolg'onchi kishi bilan muomala qilmaslik; baxil bilan suhbatda bo'lmaslik; dushman kishi bilan sharob ichmaslik; xotinlar bilan bir erda ko'p o'tirmaslik; kishilarga sir aytmaslik; biror kishi aybingni aytsa, shu aybni yo'qotishga harakat qilish; biror kishini ortiqcha maqtash yoki ortiqcha yomonlamaslik; muhtoj bo'lgan odamni hojatini chiqarish, kechirimli bo'lish, kichiklarga mehribon bo'lish; bir ishni ikki kishiga buyurmaslik, ya'ni sheriklik ish qilmaslik kabi hayotiy tavsiyalardir.

Ko'rinib turibdiki, Kaykovus do'stlikni insonning kamolotini ko'rsatuvchi axloqiy xislatlardan biri sifatida talqin etgan.

«Qobusnoma»da jismoniy tarbiyaga ham katta ahamiyat berilgan. Zero, Kaykovus asarini juvonmardlar tarbiyasiga bag'ishlar ekan, ularning eng avvalo jismonan sog'lom bo'lib kamolga etishini alohida ta'kidlaydi.

Buni biz asardagi «Shikorga chiqmoq zikrida», «Urush qilmoq zikrida», «Chavgon o'ynamoq zikrida», «Sipohsolarlik shartlari va odatlari zikrida» va boshqa boblarda ko'ramiz.

Kaykovus, avvalo har bir tartibli, aqlli kishi o'z vaqtini to'g'ri taqsimlashi va undan to'g'ri foydalanishini tavsiya etadi: «Hushmand (aqlli) kishilar o'zlarining har bir ishlariga aniq vaqtni tayin etibdurlar. Ular kecha va kunduzning yigirma to'rt soatini o'z ishlariga taqsim qilibdurlar. Bir ishni yana bir ishdan farq etib, unga vaqt, had (chegara) va andoza (o'lchov) paydo qilibdurlar, toki ishlar bir-biriga aralashmag'ay».

Inson salomatligida to'g'ri va oqilona ovqatlanish ham katta ahamiyatga ega. Bunga Kaykovus alohida bob ajratgan. U bir kecha-kunduz ikki mahal – erta tong va peshinda ovqatlanishni tavsiya etadi. Kechki ovqatni esa tavsiya etmaydi. U ohista, shoshilmasdan, hamtovoqlari bilan suhbatda bo'lib, ularning luqmasiga boqmasdan ovqatlanishni ma'qul ko'radi.

Kaykovus inson o'z tanining toza, pokiza bo'lishiga ham e'tibor berishi kerak, deydi. Uning «Hammonga borish zikrida», «Uxlamog va osuda bo'lmoq zikrida», «Tamkin sharofatining va taom tartibining bayoni» kabi boblarida uxlamog, emog-ichmog, hammonga bormog qoidalari asosida yoshlarga jismoniy-axloqiy tarbiya asoslari singdirilgan.

Demak, «Qobusnoma» XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir. Bunda o'sha davrga xos har bir yosh egallashi zarur bo'lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog'liq faoliyat turlari: otda yurish, merganlik, suvda suzish, harbiy mashqlar san'ati, ifodali o'qish, hattotlik san'ati, she'r yoza olish, musiqiy bilimga ega bo'lish, shatranj va nard o'yinini bilish kabilar ham o'z ifodasini topgan.

Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlarni hayotga tayyorlashda ularni hartomonlama kamolga etkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tatbiqi nuqtai nazaridan ifodalashi bilan hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o'z qimmatini yo'qotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Ahmad Yugnakiy: «Hibat ul-haqoyiq»

Qoraxoniylar hukmronligi davrida yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlardan yana biri Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni») asaridir. Asar mazmunini ham mazkur davrning ijtimoiy-siyosiy, diniy, axloqiy hamda iqtisodiy masalalari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar mohiyati borasidagi qarashlar tashkil etadi.

«Hibat ul-haqoyiq» To'g'ru'l Qilich Sipohsolorbekning nomiga atab yozilgan. Asarning yozilgan vaqti taxminan XII asr boshlariga to'g'ri keladi.

Ahmad Yugnakiyning hayoti va faoliyati borasida ma'lumot beruvchi manbalar juda kam. Mavjud ma'lumotlar asar mazmunidan keltirilgan dalillardangina iborat.

Alloma «Hibat ul-haqoyiq» asarining so'ngida o'zi haqida quyidagi ma'lumotlarni bayon etadi:

*Adib Ahmad otim, adab, pand so'zim,
So'zum munda qolur, borur bu o'zim.
Adibning eri oti Yugnak erur,
Safoliq ajab er ko'ngullar yorur.
Otasi oti Mahmud Yugnakiy,
Adib Ahmad o'g'li, yo'q ul hech shakli.*

Yuqorida keltirilgan misralar mazmunidan «Hibat ul-haqoyiq» asarining muallifi Ahmad, otasining ismi Mahmud ekanligi, adib yugnak nomli maskanda tavallud topganligi anglanadi. «Yugnak» nomli manzil (shahar yoki qishloq)ning qayerda joylashganligi to'g'risida aniq ma'lumotga ega emasmiz. Bu xususda Ahmad Yugnakiy va uning asari mohiyati yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olimlar ayrim fikrlarni ilgari suradilar. Chunonchi, E.E.Bertelsning fikricha, ushbu maskan Farg'ona vodiysida mavjud bo'lgan bo'lsa, V.V.Bartoldning nuqtai nazariga ko'ra, bu manzil Samarqand viloyati hududlarida joylashgan tumanlardan biriga tegishlidir.

Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asari yuzasidan tadqiqot olib borgan hamda mazkur asarni nashrga tayyorlagan olim Q. Mahmudov tarixiy manbalar, xususan, Ibn Xavqal va Arat Rahmatiy Ibnul Yaqub tomonidan yaratilgan asarlarda bayon etilgan fikrlarga tayangan holda «Yugnak» soʻzi qadimda «Arnoq», «Arnak» kabi shakllarda ham yozilganligi, Arnoq va Arnak nomli maskan Samarqand shahri yaqinida joylashgan bir qatorda qayd etilganligini ishonch bilan taʼkidlaydi.

Ahmad yugnakiyning mazkur asari bir oz qisqartirilgan holda 1986-1987-yillarda Toshkent shahrida, ayrim toʻplamlar tarkibida nashrdan chiqarildi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asari kabi Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asari ham Qoraxoniylar hukmronligi davrida mamlakatning maʼnaviy hayot darajasini koʻtarishga ulush qoʻshish maqsadida yozilgan. Asar mazmun jihatidan didaktik xarakterga ega.

Asar oʻn toʻrt bobdan iborat boʻlib, mazkur boblar oʻzida 512 misrani mujassam etgan. Dostonning dastlabki toʻrt bobi anʼanaga koʻra, muqaddima boʻlib, beshinchi hamda oʻn toʻrtinchi boblarda asosiy gʻoyalar ifoda etiladi. Mazkur boblarda asosan bilimning ahamiyati, jaholatning zarari, til odobi, dunyoning foniyligi, saxovat, kamtarlik, baxillik hamda insonlarga xos boʻlgan boshqa xislatlar, ularning xususiyatlari borasida soʻz yuritiladi.

Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarida ham markaziy oʻrinni inson shaxsi, uning maʼnaviy-axloqiy qiyofasi, shaxsni kamolotga etishuvini taʼminlash masalasi turadi. «Hibat ul-haqoyiq»ning birinchi bobidayoq ilm manfaati, ilmsizlik va jaholatning zarari haqida fikr bildiriladi. Ilmli va ilmsiz kishini bir-biri bilan taqqoslash asosida ilmaʼrifatning afzalligi, uning inson uchun qay darajada foydali ekanligini ochib berar ekan, Ahmad Yugnakiy bilimli insonni qimmatbaho dinorga, bilimsiz kishini esa qimmatsez ilikka oʻxshatib, er kishining koʻrki aql, deya taʼkidlaydi. Ilmli inson oʻz ilmi bilan mashhur boʻlib, nomi oʻchmagani holda, ilmsiz kishi garchi tirik boʻlsa-da, nomi oʻlik ekanligini eʼtirof etadi. Alloma bilim egallash kishini yuksaklarga koʻtarsa, ilmsizlik tubanlikka tomon etaklashiga alohida urgʻu beradi. Bu boradagi fikr quyidagi misralarda oʻzining yorqin ifodasini topgan:

*Bilik birla bili nur saodat yoʻli,
Bilik bil saodat yoʻlini bula.*

(Bilim bilan saodat yoʻli ochiladi, shunga koʻra, ilmli boʻl, baxt yoʻlini izla).

Ahmad Yugnakiy bilimli kishilarni mukammal kishilar sanaydi. Chunki bilimlilik barcha yaxshi ishlar va ezguliklarning omili bo'lsa, bilimsizlikka, yoki razolatga yo'l ochadi.

Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarida, boshqa ta'limiy-axloqiy asarlardagi kabi, insonning barkamolligidan dalolat beruvchi ikkinchi belgi – uning xushxulqliligidir, degan g'oya ilgari suriladi. Shuning uchun adib asarda axloqlilikning asosiy mezonlari bo'lgan ijobiy xislatlar va inson qiyofasida ularning qay darajada aks etishi yuzasidan fikr yuritar ekan, mol-dunyoga muhabbat qo'yish salbiy xislat ekanligini alohida ta'kidlaydi; insonda ushbu xislatlarni shakllanishiga ta'sir etuvchi muhit, shart-sharoitlar, baxillik, jamiyat va atrofdagi kishilarning manfaatlariga zarar etkazishdan saqlanish, harom va halolni bir-biridan farqlay olish, ularning farzlari haqida to'xtalib o'tadi.

Ahmad Yugnakiyning ta'kidlashicha, insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasini ko'rsatuvchi muhim belgilardan birinchisi – til odobidir.

Allomaning fikricha, tilni tiymaslik, huda-behuda so'zlarni aytave-rish boshga balo keltiradi. Shu bois u tilni tiyishni, har bir so'zni o'ylab so'zlashni maslahat beradi. Xususan:

*Tiling bekta tutg'il, tishing sinmasun,
G'oli chiqsa bekta tishing siyur.*

Ya'ni, tilingni tiy, tishing sinmasin, agar (so'zlab yuborsang) tishing chiqib qolsa, tishingni sindiradi, deya behuda so'zlashning yomon oqibatlari xususida o'z qarashlarini ilgari suradi. Fikrini davom ettirar ekan, Ahmad Yugnakiy quyidagilarni ham ta'kidlab o'tadi:

*So'zung bo'shlug' esma yig'a tut tiling,
Etar boshqa bir kun bu til bo'shlug'i.*

Ya'ni, so'zingni bo'sh qo'yma, tilingni tiyib tur, erk berilgan til bir kun boshingga etadi.

Til vositasida kishilarning qalbiga etkazilgan yaraning bitmasligini alloma quyidagi tarzda bayon etadi:

*Hukturma erni tiling bil bu til,
Boshqoq tursa butmas butar o'q boshi.*

Ya'ni, kishini o'chakishtirma, uning tilini bil, agarda til inson qalbini yaralasa, uning jarohati bitmaydi.

Ahmad Yugnakiy ayni o'ringda tilingni tiy, so'zingni qisqa qil, tiling ti-yilsa, o'zing ham saqlanasan, deya tilni tiyish yo'llarini ko'rsatadi. Xususan:

*Kudazgil tilingni, kel oz qil so'zung,
Kudazilsa bu til kudazlur o'zung.*

Allomaning nuqtai nazariga ko'ra, kishida quyidagi ikki holat, ya'ni, haddan ziyod ko'p gapirish va ayni vaqtda yolg'on so'zlash odatlari mavjud bo'lsa, u holda unga nisbatan muruvvat yo'li yopiladi. Shunga ko'ra, adib, yolg'on va ko'p so'zlashning oldini olish yo'llarini ko'rsatib berishga urinadi.

Yolg'onchi kishiga mumkin qadar yaqin bo'lmaslik, umr kechirish davrida to'g'rilikka amal qilish, og'iz va tilning bezagi so'z ekanligi, shu bois to'g'ri so'zlash va yolg'on gapirmaslik, to'g'riso'z bo'lish bilan dilni bezash zarurligi to'g'risida fikr yuritar ekan, to'g'ri so'zni asalga, to'g'ri-so'z insonni esa shifoga qiyos qiladi:

*Tili yalg'on ertin yiroq tur teza,
Kechur sen-la umrung ko'nilik uza.*

*Og'iz til bezagi ko'ni so'z turur.
G'o'ni so'zla so'zni dilingni beza.*

*G'o'ni so'z asal tek bu yalg'on basal,
Basal eb achitma og'iz yo asal.*

*Yo yalg'on so'z yigtek ko'ni so'z shifo,
Bu bir so'z o'zagi urulmish masal.*

Adib to'g'ri so'zlash bilan birga, sir saqlay olish xislatining ham insonga xos bo'lgan ijobiy fazilatlardan biri deya e'tirof etadi hamda ushbu fazilatni o'zlashtirish xususida bir qator foydali maslahatlarni beradi.

Inson sir saqlanishi lozim deb hisoblagan voqea yoki hodisa yuzasidan hatto do'stga ham gapirmasligi shartligiga alohida urg'u beradi. Zero, kishining o'ziki sir saqlay olmagan ekan, boshqalar ham shunday yo'l tutishi mumkin. Natijada sir atrofdagilarga ayon bo'ladi va uning sirliги qolmasligi alloma tomonidan misollar yordamida ochib beriladi:

*G'atig' qizla rozing kishi bilmasin,
So'zungni o'zungga o'kunch kel(a)masun.*

*Eshim deb inonil sir ayma saqin,
Necha ma inonchliq esh ersa yaqin.*

*Serib senda rozing singib turmasa,
Serurmu eshingda shuni ked saqin.*

Asarning to'rtinchi bo'limida saxovat va baxillik kabi sifatning mohiyati hamda ularning oqibatlarini yoritib berilgan. Ahmad Yugnakiy saxovatni eng ezgu insoniy xislatlardan biri deb biladi. Saxiylar hamma tomondan ulug'lanishi, faqat yaxshi va nuqsonsiz nom qoldirishi mumkinligini ta'kidlar ekan, qo'llar ichida in'om beruvchisi baxtli (qo'l)dir, o'zi olib, boshqalarga bermagan (qo'l) qo'llarning qutsizidir, deydi. Baxillik xislatini esa alloma davolab bo'lmaydigan kasallikka qiyoslaydi.

Ahmad Yugnakiy saxiylilikni kamolot belgisi deb tushunadi. Saxiylilik xislatiga nisbatan baxillik va ochko'zlik kabi illatlar qarama-qarshi qo'yiladi, boylik to'plab, emay-ichmay, boshqalarga bermay yashagan kishining mol-dunyosi oxiri do'stga emas, dushmanga buyurishi xususidagi fikrlarni quyidagicha yoritadi:

*Taturmas oshin-da tuz do'stina,
O'lur qolur axir eyur dushmani.*

Ahmad Yugnakiy kamtarlik ham insonning etuklik darajasini ko'rsatuvchi belgilardan biri bo'lib, kibrli va xasis bo'lish insonni ruhan tubanlashtiradi, degan fikrni ilgari suradi.

Kimki kibru havoga berilib, boshqalardan o'zini baland tutsa, uni hech kim hurmat qilmaydi, aksincha, tavoze'li, kamtar va muloyimlik sifatlariga ega bo'lishni esa insonning husni deb hisoblaydi.

U yaxshi xulq-odobni shakllantirish va yomon illatlardan soqit bo'lish yo'llarini ham tavsiya etadi. Masalan, boylik to'plashga mukkasidan ketgan kishilarga mo'tadil hayot kechirishni maslahat beradi:

*Agar yig'ding ersa umurluq tavor,
Burun boshqa bo'rkni kiyar bosh kerak.*

*Harislik ma erga yovuz xislat bul,
Harislik so'ngi g'am o'kunch hasrat ul.*

Alloma sabr-toqat, qanoat insonga sharaf va xotirjamlik olib kelishi-
ga ishonadi, shu bois u kishilarni sabr-toqatli hamda qanoatli bo'lishga
undaydi. Ularni tinchlik va totuvlikda hayot kechirishga chaqiradi:

*Balo kelsa sabr et, farrahqa kutib,
Kutib tur farahqa balo-ranj yutub.*

*Hchar mehnat o'ti, kechar navbati,
G'olur sabr idish savobin tutub.*

Ahmad Yugnakiy kishi gunoh qilsa kechirish, g'azab o'tini iloji boricha
o'chirish zarur, deydi.

Shoir boshliqlar bilan ehtiyot bo'lib muomalada bo'lish, foydasiz
tortishuvlar ulug'larning g'azabini keltirsa, kichiklarning xulqini buza-
di, deydi. Xususan:

*G'udazgil, ayo do'st, ulug'lar aqin,
Osiqsiz jadal ham mizojtin soqin.*

*Ulug'larni bushrub senga bu mijoz,
Kichiklarni gustoh qilur bil yaqin.*

U kishilarni, ayniqsa, martabaga erishgach, kamtar, samimiy bo'-
lishga chaqiradi, mavqeini suiste'mol qilmaslikni maslahat beradi:

*Ulug'liqqa tegsang engilma o'zing,
G'oli keysang atlas unutma bo'zing.*

Ya'ni, ulug'likka etsang yanglishma, agar atlas kiysang, bo'z kiyga-
ningni unutma.

Insonlarga boshchilik qilayotgan amaldor, mansabdor kishilarning
o'z mavqelariga yarasha ish tutishlari, kattaga ham, kchikka ham birdek
muruvvat ko'rsatishlari, so'zlarini muloyim qilishlari maqsadga muvo-
fiq ekanligiga alohida ta'kidlaydi:

*Ulug' bo'ldug'ungcha tuzunrak bo'lub,
Ulug'qa, kichikka siliq tut so'zung.*

Ya'ni, ulug'liginga yarasha yaxshiroq bo'lib, kattaga, kichikka so'zini silliq, muloyim qil.

Adib do'st hamda dushmanning farqiga borish, yaxshi kishilarni do'st tutish, badxulq kishilardan uzoqroq yurish, do'st tanlashda xato qilmaslik kerakligini ta'kidlaydi.

*Ayo edgu umgon esizlik qilip,
Tikan eylagan er uzum bichmas ul.*

Ya'ni: Ey, yomonlik qilib yaxshilikdan umidvor bo'luvchi, tikan izgan (qidirgan) kishi hech vaqt uzum uzmaydi.

Ayrim tadqiqotchilar Ahmad Yugnakiy asarlarida zamondan norozilik kayfiyatlari mavjudligini aytadilar. Lekin adibning asarlaridagi quyidagi misralar mazmuni uning zamondan emas, ba'zi kishilardan, ularning xatti-harakati va xulqidan norozi ekanligini ko'rsatadi. Chunonchi:

*Yirarsan zamonangni xalqin qo'dib,
Zamonangni yirma, kishisin yir.*

Ya'ni: Xalqingni qo'yib zamonangni ayblama, zamonangni emas, balki kishilarni aybla.

Shuning uchun ham alloma kishilarga yaramas ishlar qilmaslik, tinch va farog'atda yashash, halol bo'lish, ochko'z – suq bo'lmaslik, haromdan saqlanish kabi hayotiy pand-nasihatlar beradi.

Ahmad Yugnakiy ham o'zining insonni kamolga etkazish borasidagi qarashlari bilan pedagogik fikr taraqqiyotida o'z o'rniga ega. U «Hibat ul-haqoyiq» asarida komil insonni shakllantirishning o'ziga xos sistemasini yaratdi.

Ahmad Yugnakiy tomonidan asoslangan barkamol insonni shakllantirish sistemasi o'zida quyidagilarni aks ettiradi: yuksak darajada nazariy va amaliy bilimlarni egallash, til va so'z odobiga rioya etish, o'zida halollik, rostgo'ylik, kamtarlik, qanoatlilik, samimiylik kabi xislatlarni namoyon eta olish, vafodor do'st bo'lish. Allomaning nuqtai nazariga ko'ra, o'zgalar sirini saqlay olish, kamgaplik har bir so'zni o'z o'rnida va lozim topilgandagina so'zlash, yuqori mansab yoki mavqega ega bo'lganda kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsata olish kishining obro'siga obro' qo'shuvchi sifatlar bo'libgina qolmay, ayni vaqtda, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan salbiy holatlarning oldini oladi. Insonda baxillik, ochko'zlik, yolg'onchilik,

ikkiyuzlamachilik, takabburlik, zolimlik, jaholat, tanballik, shoshqaloqlik, bilimsizlik, sabrsizlik, ko'p gapirish va hokazo xislatlarning mavjudligi esa kishilar o'rtasida adovat, o'zaro urush-janjallarning kelib chiqishida asosiy omil bo'lib xizmat qilishini Ahmad Yugnakiy alohida qayd etadi.

Muslihiddin Sa'diy: «Guliston»

Muslihiddin Sa'diyning nomi butun dunyoga mashhur. Bu buyuk allomaning to'liq ismi Abu Abdulloh Mushrifiddin ibn Muslihiddin Sa'diy Sheroziy bo'lib, Sharq va G'arbda Shayx Sa'diy degan nom bilan ulug'lanadi. Sa'diyning dovrug'i Sherozdan Qashqargacha, Xitoy, Hindiston va Misrdan Shimoliy Afrikagacha yoyilgani bois unga «Shayx», ya'ni, ustoz nomi berilgandir.

Olim va tarjimon Sh.Shomuhamedovning ta'kidlashicha, mutafakkirning nomi, tug'ilgan yili, taxallusi turli manbalarda turlicha ko'rsatilgan. Xususan, ayrim manbalarda allomaning nomi Mushrifiddin ibn Muslihiddin Abdulloh, boshqa manbalarda esa, Muslihiddin Sa'diy Sheroziy deyilgan.

Alloma tavallud topgan yil ham turlicha ko'rsatiladi. Chunonchi, mazkur sana ba'zi manbalarda hijriy 580 (milodiy 1184), hijriy 589 (milodiy 1193) hamda milodiy 1204-yil tarzida qayd etiladi.

Adibning o'ziga «Sa'diy» taxallusini tanlashiga ham tadqiqotchilar turlicha yondashadilar. Ana shunday yondashuvlarning birida mutafakkir mazkur taxallusni forslar orasida mashhur bo'lgan hamda otabeklar sulolasini boshlab bergan Sa'd binni Zangi nomi asosida tanlaganligi qayd etilsa, yana bir boshqa o'rinda ushbu sulolaning vakili hisoblangan Sa'd II, ya'ni Sa'd ibn Abubakr nomiga nisbatan qabul qilganligi e'tirof etiladi.

Muslihiddin Sa'diyning necha yil yashagani xususida ham turlicha fikrlar bor. Ayrim tadqiqotchilar u 102 yoshga kirib vafot etgan desalar, boshqa bir tadqiqotda adibning 120 yil umr kechirganligi ta'kidlanadi. Aksariyat manbalarda mutafakkirning vafoti yili hijriy 691 (milodiy 1291-1292) -yil deb belgilangan.

Muslihiddin Sa'diy ko'hna Eronning qadimiy shahri sanalgan Sherozda tug'iladi. Uning otasi Sheroz hokimi Otabek Sa'diyning mulozimlaridan bo'lgan. Yosh Muslihiddin otasidan erta ajraladi. Shu bois unga saroy nafaqasi belgilanadi. Muslihiddin boshlang'ich ma'lumotni Sherozda oladi, so'ngra Bag'dod shahriga borib, u erda mashhur «Nizomiya» madrasasida tahsilni davom ettiradi. U madrasada arab va fors tillari grammatikasi hamda adabiyotni chuqur o'zlashtiradi. Sharq falsafasi asoslarini katta qiziqish bilan o'rganadi. Madrasani tamomlagach, Sharqning ilm-fan va

madaniyat o'choqlariga aylangan eng mashhur, shaharlar bo'ylab sayohatga chiqadi.

Muslihiddin Sa'diy 1255-yili sayohatdan Sherozga qaytib shahar chekkasida joylashgan Shayx Abu Abdulloh Xafif xonaqosida faqirona hayot kechiradi.

Muslihiddin Sa'diy tomonidan yaratilgan barcha asarlar 19 bo'limdan iborat kulliyotida jamlangan. Bu to'plam uning vafotidan 37 yil o'tgach, Abubakr Besutun degan kishi tomonidan to'plangan. Biroq keyinchalik nomi qayd etilgan ana shu muallif kulliyotni qaytadan tuzib, g'azal va boshqa she'rlarni radifi va qofiyasiga muvofiq alfavit tarzida joylashtirib chiqqan, ushbu kulliyotga allomaning to'rtta devoni kiritilgan.

Muslihiddin Sa'diyning jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan «Guliston» va «Bo'ston» asarlarida allomaning ta'limiy-axloqiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Manbalarda ta'kidlab o'tilishicha, muallif «Bo'ston»ni 1257, «Guliston» asarini 1258-yili yaratgan.

Mutafakkirning komil insonni tarbiyalash jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi «Guliston» asari Sharq xalqlarining pedagogik fikrlari tarixida o'ziga xos uslubga ega didaktik asar sifatida tan olingan. Ushbu asar muallifning boy hayotiy tajribasi asosida yaratilganligi bilan ham qimmatlidir.

«Guliston»ning o'zbek tilidagi tarjimalari 1390–1391-yillari Sayfi Saroyi, XIX asrda Muhammad Rizo Ogahiy hamda 1909-yili Murodxo'ja domla Solihxo'ja o'g'li tomonidan yaratilgan. 1968-yili esa, «Guliston» G'afur G'ulom, Shoislom Shomuhamedov va Rustam Komilov tarjimasida o'zbek tilida bosilib chiqdi.

Asar sakkiz bobdan iborat. Boblar quyidagicha nomlangan: «Podshohlar odati bayoni» (I bob), «Darveshlar axloqi bayoni» (II bob), «Qanoatning fazilati bayoni» (III bob), «Sukut saqlashning foydalari bayoni» (IV bob), «Ishq va yoshlik bayoni» (V bob), «Zaiflik va keksalik bayoni» (VI bob), «Tarbiyaning ta'siri bayoni» (VII bob), «Suhbat qoidalar bayoni» (VIII bob).

Asarda Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib hamda Nizomul-mulk kabi mutafakkirlarning asarlarida bayon etilgani kabi insonning baxt-saodatli bo'lishini ta'minlay oluvchi jamiyat, fozil, odil va adolatli hukmdor hamda uning fazilatlar, saroy a'yonlari va ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, davlatni adolatli boshqarish shartlari xususida so'z yuritiladi. Mutafakkirning nuqtai nazariga ko'ra, hukmdor ham oddiy inson sanaladi, u ham shaxsiy manfaatlarini yo'lida harakat qilish huquqiga ega, biroq zimmasiga yuklangan ijtimoiy vazifaga ko'ra u el-yurt manfaatini shaxsiy manfaatlaridan yuqori qo'yishi shart. Hukmdor, eng avvalo, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlash yo'lida sabot bilan kurashsa jamiyat taraqqiy etadi.

Sa'diy podshohlarning yuksak insoniy sifatlarga ega bo'lishlarini orzu qiladi. Elu yurt hukmdori sifatida e'tirof etilgan inson quyidagi fazilatlarini o'z qiyofasida namoyon eta olishi maqsadga muvofiqdir: adolatli, tadbirli, g'ayratli, shijoatli, fahm-farosatli, bilimdon, dono, ziyrak, oliyjanob, saxovatli, jasur, mard hamda fuqarolariga nisbatan g'amxo'r, do'st bilan dushmaning farqiga bora olish. Muayyan mamlakat fuqarolariga etakchilik, boshchilik qilayotgan podshohlarning yuqorida qayd etilgan fazilatlar egasi bo'lishlari hayotiy zaruriyatligini muallif ibratli hikoyatlar misolida ochib beradi.

Asarda shunday hikoyat keltiriladi: «Bir kuni ov chog'ida mulozimlar No'shiravoni Odilga kabob tayyorlab berishmoqchi bo'libdilar. Biroq o'zlari bilan olishgan masalliqalar ichida tuz yo'q edi. Mulozimlar bir xizmatkorni ov uyushtirilayotgan manzilga yaqin qishloqdan tuz olib kelgani jo'nata-dilar. No'shiravon xizmatkorga shunday deydi: «Tuzning bahosini to'lab ol, toki tekinga olish odat qatoriga kirib, qishloq xarobalikka yuz tutmasin». Mulozimlar undan so'radilar: «Shu zig'irdek narsadan qishloqqa qanday zarar etadi?» No'shiravon shunday javob berdi: «Avvalda olamda zulm oz edi, keyinchalik har bir kelgan odam bir oz-bir ozdan qo'shdi, natijada zulm hozirgi darajasiga kelib etdi».

*Fuqaroning bog'chasidan sulton uzsa bir olma,
Navkarlari qo'poradi daraxtlarning ildizin.
Zo'rlik bilan beshta tuxum ola qolsa podshoh,
Askarlari sixga tortar tovuqlardan besh yuzin».*

Alloma podshohlarning adolatli bo'lmoqlarini nihoyatda muhim deb hisoblaydi. Hukmdorning ushbu sifatga ega bo'lishi mamlakatda tinchlik, fuqarolar o'rtasida o'zaro ahillik, hamjihatliklikning tarkib topishiga zamin hozirlaydi. Adolatli sulton hukmronlik qilayotgan mamlakatda xalq yurtboshidan ibrat oladi, uningdek ish yuritishga harakat qiladi.

*O'z xalqiga jabru zulm ravo ko'rgan podshohning,
O'z do'stlari yov bo'ladi qiyin dam kelgan kuni.
Fuqaroga shafqat qilsang, dushmandan omondasan,
Adolatli shahonshohning xalqi – bu o'z qo'shini.*

Muslihiddin Sa'diy adolatli podshohlarning yorqin timsoli sifatida Iskandar Zurlqarnaynni e'tirof etadi. Uning obrazi asosida mamlakatni adolat mezonlari yordamida boshqarishning muhim ahamiyatini ochib berishga harakat qiladi va quyidagi hikoyatni misol tarzida keltiradi: «Iskandari Rumiyan so'radilar: «G'arbu Sharqdagi mamlakatlarni nima

bilan zabt etding? Avvalgi podshohlarning xazinasi, yoshi va lashkari senikidan ortiq bo'lsa-da, bunday fotihlik ularga nasib bo'lmagandi». Iskandar dedi: «Zabt etgan mamlakatim fuqarolariga ozor bermadim va podshohlarining nomlarini faqat yaxshilik bilan yod etdim».

*Aqllilar ulug'lamas shundaylar zotin,
Ulug'larning yomonlik-la yodlasa otin.
Taxtu baxt, farmonlar, ta'qiq va zo'rlik,
Barchasi bekorchi: o'tib ketadi.
Siylasang o'tganlar aziz nomini,
Sening nomingga ham hurmat etadi».*

Yurtga boshchilik qilayotgan hukmdorning yuksak aql-zakovat egasi bo'lishi mamlakatda adolatning qaror topishi, ma'rifatning rivojlanishida zarur omildir. Uning nodon va befarosat bo'lishi xalq o'rtasida uning obro'-e'tiborini tushishiga sababgina bo'lib qolmay, kulgu bo'lishiga olib keladi.

Asarda Sa'diy shunday hikoyatni keltiradi. «Horun ar-Rashid Misrni egallaganda dedi: «Misr saltanatiga mag'rurlanib, xudolik da'vo qilgan nobakorning qasdig'a o'laroq, bu mamlakatni o'zimning eng manfur qulimga topshiraman». Horun ar-Rashidning bir zangi quli bo'lib, nomi Husayb edi. Misr mamlakatini o'shanga topshirdi. U qulning fahm-farosati shu darajada ediki, bir qancha Misr dehqonlari uning yoniga shikoyatga kelib: «Paxta ekkan edik, bevaqt yomg'ir yog'ib, paxtamiz nobud bo'ldi», – deganlarida, u: «Jun ekish kerak edi, nobud bo'lmasdi», – deb javob berdi».

Bilimli, dono va zukko insonlar hamisha ham elu yurtda o'zlariga munosib hurmatga sazovor bo'lavermaydilar. Aksincha, nodon, johil, takabbur kimsalar ko'p hollarda yuqori martaba va mansablarga ega bo'ladilar.

Asarning boshqa boblarida esa, har bir inson o'zida tarbiyalashi zarur bo'lgan ma'naviy-axloqiy, aqliy hamda jismoniy sifatlar borasida so'z yuritilgan.

Sa'diy yozadi: «Ikki toifa odam behuda ishlab, behuda harakat qilgan bo'ladi: biri mol-mulk yig'ib, foydalanmagan va ikkinchisi esa, ilm olib unga amal qilmagan odam».

*Harchan, o'qibsan, bilimdonsan,
Agar amal qilmading, nodonsan.
Ustiga kitob ortilgan eshak,
Na olim va na donodir beshak».*

Mazkur fikrni yanada boyitib, bir o'rinda «Ilmiga amal qilmagan olim mash'ala ko'targan ko'rga o'xshaydi!», – deb, yana shu o'rinda erni shudgor qilib, urug' sochmagan dehqonga o'xshatadi:

*Kimki, befoyda umrin o'tkazdi,
Hech narsa olmasdan, oltin ketkazdi.*

Muslihiddin Sa'diy bilimli va fozil kishilarning so'z va amal birligiga tayanishlari maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi. Ezgu so'zlarni aytuvchi olimlarning o'zlari bildirgan fikrlarga amal qilmasliklari kishilar oldida obro'larining tushishiga sabab bo'luvchi omillardandir.

...Bir fakih otasiga dedi: «Voizlarning dabdabali va bezakli so'zlari menga sira ta'sir etmaydi, chunki ularning gapirgan gaplari qilgan ishlariga mos kelmaydi:

*...Har olim aytganin o'zi qilmasa,
Ne ajab, xalq uning so'zin ilmasa?!
Olim o'sha kishi – yomonlik qilmas,
O'z so'zin aksini qilg'uchi emas.*

Otasi dedi: «Ey o'g'lim, shunday bir asossiz mulohaza bilan nasihatgo'ylardan yuz o'girib, barcha olimlarni qoralash, aybsiz olim axtaraman, deya ilm o'rganishdan bebahra qolmoq oqillarga munosib ish emasdur... voizlar (nasihatgo'ylar) majlisi ham choponfurushlar do'koni kabidir. Naqd puling bo'lmasa, choponfurushlik do'konidan mol ololmay-san, voizlar majlisiga ixlos qilmasang, ko'nglingda xotirjamlik paydo bo'lmaydi».

*Olim aytganiga jon qulog'ing tut mahkam,
O'z so'zi ishiga teng bo'lmagan chog'ida ham.
Maqtanchoq kishilarning gaplari erur bekor,
Uxlagan uxlaganni uyg'otganmi biror dam?*

*Devorga yozilgan bo'lsa ham o'git,
Unga amal qilgay esi bor odam.
Xonaqohdan madrasaga keldi yurakli kishi
Va tariqat ahli bilan ulfatchilik uzdi...*

Mazkur o'rinda alloma, yana dono va oqillarning nasihatlarini eshitish, ularga og'ishmay amal qilish inson hayotining mo'tadil kechishi uchun poydevor bo'lishi mumkinligiga e'tiborni qaratadi. Olimlar

tomonidan aytilayotgan fikrga amal qilish o'rniga ularning faoliyatlari mazmunini tahlil etish nodonning ishidir, deydi. Darhaqiqat, inson har qanday vaziyatlarda ham ro'y bergan yoki ro'y berayotgan voqea-hodisalardan o'zi uchun tegishli xulosa chiqara olishi lozim.

Alloma ilm o'rganish jarayonida munozara uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi. Sa'diy nuqtai nazariga ko'ra, bahs-munozara oydin bo'lmagan fikrlarni oydinlashtirish, aniq bo'lmagan dalillarni asoslash, haqiqatni anglashga yordam beradi. Bahs-munozarani tashkil etish ma'lum qoidalarga asoslanishi zarur. Chunonchi, o'zgalarning fikrini diqqat bilan tinglay olish, o'z fikrini ilgari surishda ishonchli dalillardan foydalanish, asosli bo'lmagan dalillarni keltirish orqali vaqtni behudaga sarf etmaslik, nodon bilan bahslashmaslik. Munozara chog'ida o'zini bilimdon etib ko'rsatish o'z nodonligini namoyish qilishdir, deydi u. «Johil bilan bahslashgan olim izzat umid qilmay qo'ya qolsin. Basharti, johil bahslashuvda olimdan ustun chiqsa, ajablanarli eri yo'qdir, chunki tosh hamisha gavharni sindiradi.

*...Oqilga past kishi ko'rguzsa jafu,
Ko'p alam chekmasin bo'lib dilsiyu.
Arzon tosh sindirsa zar kosani gar,
Tosh narxi oshmaydi, pastga tushmas zar».*

Ayrim vaziyatlarda nodon kishilar odil va dono insonlarni asossiz fikrlarni bayon etish orqali ularni mag'lub etdim, deb hisoblaydilar. Munozara jarayonida dono inson o'zining ushbu fazilatiga tayangan holda nodon bilan bahslashishni o'zi uchun or deb biladi va ana shu xatti-harakati tufayli badfe'l kishilardan ustun bo'lib qolaveradi, xalq orasidagi hurmati yanada oshadi. Muslihiddin Sa'diy bu fikrni quyidagicha to'ldiradi:

*Dononi sharmanda qildim-ku, deya,
G'ururga berilmish maqtanchuq, nodon.
Bilmaski, nog'ora ovozi doim,
«Hijoz» kuyin bosib ketadi oson.*

Ilm-fanning ilmiy bahs-munozaralarsiz rivojlanmasligi g'oyasi alloma tomonidan ilgari surilgan mazkur fikrda ham o'z ifodasini topgandir. Quyidagi uch holat abadiy mavjud bo'lmaydi: mol savdosiz, ilm bahssiz va davlat siyosatsiz.

Muslihiddin Sa'diy ta'lim va tarbiya ishlarini samarali yo'lga qo'yishning ahamiyatini ochib berish bilan birga, aksariyat bolalarning

tugʻma qobiliyatga ega boʻlishlarini eʼtirof etadi. Muayyan qobiliyatga ega bolalarga berilayotgan taʼlim va tarbiyaning izsiz ketmasligi, muayyan kasb, hunar sirlarini yoki ilm asoslarini oʻrganishga nisbatan qobiliyatga ega boʻlmagan bolani donishmand qilib voyaga etkazish mumkin emasligini quyidagi satrlar yordamida yoritib beradi:

*Qobiliyat boʻlsa aslida.
Tarbiyat unga qiladi asar.
Qancha urinma boʻlmas sayqali,
Temir aslida boʻlmas javhar.*

Mutafakkir taʼlim-tarbiya ishlarida muallimning talabchan va qattiqqoʻl boʻlishi borasidagi qarashni yoqlaydi. Zero, ilm oʻrganishdek mashaqqatli jarayon uzluksiz, izchil tashkil etilishi zamonaviy pedagogikada ham alohida eʼtirof etilgan. Taʼlim jarayonining uzluksiz va izchil kechishi maʼlum talablarga ogʻishmay amal qilish evaziga kechadi. Taʼlim oluvchilarning mazkur talablarga amal qilishlari doimo muallimning nazorati ostida boʻlishi maqsadga muvofiqdir:

*Yubordi oʻgʻlini maktabga podsho,
Qilib qoʻyniga nuqra taxtacha jo.
Kumush ul taxtaga zardin bitib yod:
«Ota mehridan afzal jabri ustod».*

Allomaning qayd etishicha, muayyan hunarning egasi boʻlgan inson eng mashaqqatli damlarda ham oʻzgalarning yordami va madadiga muhtoj boʻlmaydi, balki oʻz hunarining sharofati bilan muammolarni hal eta oladi. U insonlarning koriga yaraydi, ularning mushkullari echilishiga yordam beradi. Hunarsiz kimsa esa hamisha oʻzgalardan madad kutib yashaydi, xoru zorlikda umr kechiradi. Mutafakkir taʼkidlab oʻtganidek: «Hunar qaynar buloq, tuganmas davlat. Agar hunarmand molidan mahrum boʻlsa, qaygʻusi yoʻqdir, chunki hunarning oʻzi davlatdir. Hunarmand qaerga borsa, qadrlanadi va uyning toʻridan joy oladi. Hunarsiz odam esa, hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi»:

*Istar esang otangdan meros,
Bogʻla otang ilmiga ixlos .
Ne nafi bor otang boyligin,
Bir kun tugatursan necha oyligin.*

Saʼdiyning «Guliston» asarida inson kamolotining taʼminlanishida tarbiyaning alohida oʻrin tutishiga ham katta ahamiyat beriladi. Tarbiyani

tashkil etish murakkab ish ekanligini ta'kidlagan holda bolaga juda yoshligidan tarbiya berish maqsadga muvofiqligini uqtiradi.

*Kimga yoshligidan berilmas odob,
Ulg'aygach, bo'ladi baxtsiz, dili g'ash.
Ho'l novda egilar qay xilda egsang,
Quruqni to'g'rilar faqat o't-otash.*

Sa'diy mazkur asarida yuksak darajadagi insoniy xislatlar va ularga ega bo'lishning inson hayotidagi ahamiyati borasida batafsil so'z yuritadi. Alloma insoniylik hamda saxiylik sifatlariga ega bo'lish shaxs kamoloti darajasini ko'rsatuvchi eng yuqori mezonlar ekanligini quyidagi satrlar orqali bayon etadi:

*Qutida turganda burqmaydi ud,
Sen olov ustiga uni tashlagil.
Ulug'lik niyating bo'lsa saxiy bo'l,
Urug' sochilmasa, unmaydi hosil.*

Asarda saxiylik fazilati ulug'lanishi bilan birga, o'zgalar muruvvati-ga sazovor bo'lgandan ko'ra mashaqqatli mehnatni afzal deb biladi. Zero, aksariyat o'rinlarda saxiylik sifatida namoyon bo'lgan holatlarning zaminida ta'ma, minnat ko'zga tashlanib qoladi. Minnatli, ta'mali lazzatli taomlardan ko'ra, minnatsiz bir burda qattiq non, mehnat evaziga topilgan rizq afzaldir, deydi. Adib quyidagi ibratli hikoyatni keltiradi: «Hotami Toyidan: «O'zingdan ko'ra saxiyoq biror odamni hech ko'rganmisan, yohud eshitganmisan?» deb so'radilar. Hotami Toyi javob berdi: «Ha, ko'rganman. Bir kuni arab amirlarini ziyofat qilish uchun qirq tuya so'ygandim. Ittifoqo, bir zarurat bilan sahroga chiqishimga to'g'ri keldi. U erda cho'p-chumak terib dastalayotgan o'tinchini ko'rdim. Men unga dedim: «Nechun Hotamning uyiga bomaysan, axir, hozir bir talay odam uning ziyofat dasturxonini atrofida». U dedi:

*O'z mehnatidan non egan kishi,
Hotam minnatidan ozod yoz-qishi.*

Hotam dedi: «Ana shu o'tinchini men o'zimdan ko'ra saxovatliroq deb bildim».

Insoniylik fazilatlariga ega bo'lgan, o'zgalardan yordamini ayamagan, boshiga kulfat tushgan kishilarga yordamga oshiqqan, eng og'ir damlarda do'st yonida bo'la olgan, unga nisbatan g'animlik qilgan kimsalarga

nisbatan ham muruvvat ko'rsata olganlar komil insonlar ekanligi allomaning qarashlarida mujassam etadi. O'zida yuksak darajada insoniylik xislatlarini namoyon eta olgan No'shiravoni Odilni barcha uchun ibrat qilib ko'rsatadi. Xususan:

*Er ostiga ko'mildilar talay nom chiqarganlar
Va ularning borligidan erda nishon qolmadi.
O'laksani tuproqlarga topshirib ketgandan so'ng,
Tuproq uni eb bitirdi-yu, bir ustuxon qolmadi.
No'shiravonning qutluq nomi haligacha tirikdir,
Ammo qancha o'tib ketib No'shiravon qolmadi.
Ey falonchi, yaxshilik qil, umringni bil g'animat,
To kishilar aytguncha, «falon, falon qolmadi».*

Muslihiddin Sa'diy asarlarida mehnat ulug'lanadi. Inson o'z mehnati evaziga yuksak qadr-qimmatga ega bo'ladi deb hisoblagan alloma insonning hamisha o'z mehnati, bilimi va hunariga tayanishi maqsadga muvofiqligini e'tirof etadi. O'z mehnati bilan kun kechirayotgan insonga ta'ma, ochko'zlik, hasadgo'ylik, hirs va nafs balosi begonadir. Mehnati natijasida xonadonida qutu baraka bo'ladi, ehtiyoji uchun zarur narsalarni mehnati orqali topa olishiga ishonadi. Shu bois u o'zgalarga hasad qilish tuyg'usidan yiroq bo'ladi.

Hikoyatlaridan birida yozadi: «Men bir donishmanddan: «Eng ashaddiy dushmaning ikki kifting orasida joy olgan nafsingdir», degan hadisning ma'nosi nima?» deb so'radim. Donishmand shunday javob berdi: «Ma'nosi shuki, har bir dushmanga ehson qilsang, u senga do'st bo'ladi, illo nafs degan narsaga qancha iltifot qilsang, adovatini shuncha oshiraveradi».

*Maromida ovqat egan farishta bo'lur,
Hayvon kabi esa tushar og'ir tosh misol.
Kim istagin bajo qilsang amringga tobe.
Nafs aytganin qildingmi, bo'ysindirmoq, mahol.*

Adib do'st va uning sadoqati xususida ham so'z yuritadi. Uning fikrlariga ko'ra, inson hamisha do'st va uning hamrohligiga ehtiyoj sezadi. Hayotidagi quvonchli va fojiali kunlarida do'stning suhbatlari diliga shodlik va ruhiy engillik olib kiradi. Alloma do'st kishining o'zgalardan farqi eng og'ir damlarda boshiga musibat tushgan birodarining yonida bo'la olish, unga madad berish, do'stligidan ta'ma qilmaslik kabi xislatlarga ega bo'lishida deb biladi. Inson do'st tanlashda nihoyatda ehtiyotkor bo'lishi lozim. Zero, do'st kishining hayotida ro'y berayotgan barcha hodisalardan

xabardor bo'ladi. Badxulq kishi do'stligidan foydalanib, qulay vaziyatlarda unga nisbatan ziyon etkazishi mumkin. Shu sababli inson, eng, avvalo, do'st bilan dushmani farqlay olish layoqatiga ega bo'lmog'i zarur.

Alloma nazarida, do'st o'z manfaatini birodarining manfaatidan yuqori qo'yadi, do'stining manfaati yo'lida berayotgan yordami beg'araz bo'ladi. Do'st hech qachon, har qanday vaziyatlarda ham dushmanning ishini qilmaydi. Shu bilan birga, do'stlar o'rtasida tashkil etilayotgan munosabat jarayonida ham o'ta darajada ehtiyoj bo'lish zarurligini uqtiradi. Xususan:

*Birouga sir aytib, saqla degandan,
Dil sirin hech kimga aytmagan ma'qul.
Ariq toshib ketsa, bog'lab bo'lmaydi,
Suvi eng boshidan qaytargan ma'qul.
Berkitmoqchi so'zni aytib bo'lmaydi,
Har majlisda aytib, qaytib bo'lmaydi.
Do'st-la so'zlashsang ham bo'lgil ehtiyot,
Dushman qulog'iga etishmasin, boq.
Devor ichra har ne desang hushyor bo'l,
Devor orqasida bo'lmasin quloq.*

Do'stlik borasidagi fikrlarni bayon etish bilan birga dushmanning kirdikorlarini ham ochib berishga urinadi. Dushmanning uddaburonligi shundaki, u turli yo'llar bilan insonlar ishonchini qozona oladi. Shu bois mutafakkir odamning fe'l-atvori, xarakterini yaxshi bilmay turib, uni o'ziga yaqin olishi xato ekanligini aytadi. Bu o'rinda dushmanning makr-hiylalariga uchmaslik, undan qutulish yo'llarini ko'rsatib o'tadi. Chunonchi, zaif dushman itoat izhor etsa, buni zo'r dushmanga aylanib olish maqsadida qiladi. «Do'stlarning do'stligiga e'timod yo'q, – deydilar, – bas, shunday ekan, dushmanning xushomad qilishining qanday e'tibori bor?! Zaif dushmanni nazar-pisand qilmagan kishi ozroq olovni beparvolik bilan tashlab ketgan odamga o'xshaydi». «Dushman nasihatini qabul etmak xato bo'lsa-da, lekin nasihatiga quloq solmoq ravodir. Chunki uning aytganining aksini qilsang, to'g'ri ish tutgan bo'lasan!»

*Dushmanning ko'rsatgan yo'liga yurma,
So'ng pushaymon bo'lib, tizzangga urma.
Senga o'qdek to'g'ri yo'l ko'rsatgan on,
Sen undan burilib, yurgil chap tomon.*

Sa'diy «Guliston»da inson kamolotining asosiy omillaridan biri jismoniy etuklik ekanligiga alohida e'tibor beradi. Mardlik, jasurlik,

kuchlilik turli zamon va makonlarda ham ulug'lanib kelinadigan hamda har bir yigit kishi o'zida mujassam etishi lozim sanalgan asosiy xislatlardir. Bu xislatlar inson gavdasiga emas, uni egallab olishiga bog'liqdir. «Guliston»da jasurlik, epchillik, chaqqonlik, mardlik xislatlari ulug'lanadigan hikoyatlar talaygina. Ana shunday hikoyatlardan birining mazmunida ustozning o'z shogirdiga kurash sirlarini o'rgatishi hikoya qilinadi: «Bir odam kurash san'atida zo'r mahorat qozondi, u uch yuz oltmish hiylani bilar va har kuni bir hiylani ishlatib, kurashar edi. Shogirdlaridan biriga... uch yuz ellik to'qqiz hiylani o'rgatdi. Ammo bir hiylani o'rgatishni har turli bahonalar bilan paysalga solib yurdi.

Xulosai kalom, shogird qudrat va san'atda kamolotga erishdi. ...bir kuni u podshoh huzurida dedi: «Ustozimnig faqat birgina afzalligi bor, u ham bo'lsa, uning yoshi ulug'ligi va menga tarbiya berganligidir. Yo'qsa, kuchda ham, mahoratda ham men undan qolishmayman!»

Bu so'z podshohga yoqmadi. Ustozu shogirdning kurash tushmoqlarini buyurdi. Katta maydonni hozirladilar... Shogird bamisoli mast fildek jo'shib maydonga kirdi, go'yo qarshisida temir tog' bo'lsa uni emirib tashlagudek edi. Ustoz shogirdi kuchda ortiq ekanini angladi. U pinhon tutib yurgan mazkur nodir hiylasini ishga solib kurasha boshladi. Shogird ustozning hamlasini daf etishdan o'jiz qoldi. Ustoz harifini ikki qo'li bilan boshi uzra ko'tarib, erga urdi. Xaloyiqning hoy-huv sadolari ko'kka o'rladi.

Podshoh ustozga sarpo bermoqni buyurdi, shogird esa, ta'namalomatlar qilib, dedi: «O'z ustozingga bevafoqlik qilib, uni mag'lub etaman deb maqtanding, lekin aytgan so'zingning uddasidan chiqa olmading!» Shogird dedi: «Ey podshohi olam, ustozim kuch bilan mendan ustun kelgani yo'q, balki ko'p vaqtdan beri menga o'rgatmay yashirib yurgan bir hiylasi tufayli meni mag'lub eta oldi».

Ustoz dedi: «Mazkur hiylani ana shunday bir kun uchun saqlab qo'yib edim, chunki ulamolar: Do'stga, bir kuni agar u dushmanlik qilsa, o'zingni mag'lub eta olajak kuch bermagil», deganlar. Shogirdidan jaf ko'rgan ustoz nima deganini eshitmaganmisan?

*Yoki vaf o'qdir olamda,
Yo kishi qo'llamas uni bu zamon.
O'zimdan o'q otish o'rgangan kishi
Bukun ko'kragimni qilmoqchi nishon».*

Bu hikoyatdan quyidagi uch hikmatni anglash mumkin:

a) har bir inson o'zini jismoniy jihatdan chiniqtira olish mahoratiga ega bo'lishi zarur;

b) qiyin daqiqalarda mahoratidan foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin;

v) do'st deb ishonib hamma vaqt ham unga o'z sirlarini ochavermaslik.

Muslihiddin Sa'diy jismoniy etuklik axloqiy kamolot bilan uyg'un bo'lishiga alohida e'tibor beradi. Darhaqiqat, jismoniy etuklikning muhim belgisi kuchli iroda hamda mustahkam xarakter yordamida jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy me'yorlarga amal qilishga erishilsa, ayni vaqtda axloqiy sifatlarni o'zida aks ettira olish, xususan, mehnatga muhabbat qo'yish iroda va xarakterni tarbiyalaydi. «Guliston»da bu boradagi fikrlar yoritilar ekan, quyidagi hikoyat keltiriladi:

«Boshyalang va oyoqyalang bir piyoda musofir Hijoz karvoni bilan Kufadan kelib bizga qo'shildi. Uning hech narsasi yo'q edi, lekin viqor bilan qadam tashlab derdi:

*Xachir minib bormayman, na tuyada yukim bor,
Na sultonning quliman, na qullarga shahriyor.
Dunyoda hech qayg'um yo'q, dilim qo'rquvdan ozod,
Xotirjamman bus-butun, ko'nglim esa doim shod.*

Tuya mingan boylardan biri unga dedi:

«Ey darvesh, qayoqqa borasan, yo'l og'ir, yo'l mashaqqatiga bardosh bera olmay o'lib ketasan, qayt orqangga». Darvesh uning gapiga quloq solmay, yo'lida davom etaverdi. Karvonimiz Naxlan Mahmudga etganidan boyagi tuya mingan boy olamdan o'tdi. Darvesh uning o'ligi tepasiga kelib dedi: «Men piyoda yurish mashaqqatidan o'lmadimu, sen nortuyada yurish rohatidan o'lding!»

*...Bir talay arg'umoq yo'llarda qoldi,
Manzilga oqsagan eshak etoldi.
Yarali yigitlar sog'ayib ketdi,
Ne-ne sog'lomlarni qora er yutdi».*

Bu hikoyatda jismoniy jihatdan chiniqishning inson salomatligini ta'minlashdagi ahamiyati ochib berilishi bilan birga, insonning o'z kuchi va irodasiga bo'lgan ishonchi, ko'ngil xotirjamligi bilan yashash zavqi uning har qanday mashaqqatlarga bardosh bera olishini ta'minlovchi omil ekanligi ko'rsatiladi.

Sa'diyinging ta'lim va tarbiya masalalari borasidagi qarashlari hayotiy hamda amaliy ekanligi bilan e'tiborga sazovor. Xususan, alloma ta'lim olish yoki yoshlar tarbiyasini tashkil etishning biror jihati xususida so'z yuritir ekan, ayni o'rinda bu borada yo'lga qo'yiluvchi faoliyatning uslubini ham bayon etadi:

*Xushxulq kishiga qattiq gapirma,
Sulh istab kelsa, jangga chaqirma,
Rahmdillik odamga oliy xulq, ammo,
Dilozor yarasiga qo'ymagil malham.
Aylama rahm-shafqat ilon-chayonga,
Bundan ozor topar farzandi odam.*

Yuqorida bayon etilgan fikrlar mazmunidan anglashiladiki, Muslihiddin Sa'diy ham, boshqa allomalar kabi, insonni Olloh yaratgan eng oliy mavjudot, deya e'tirof etadi. Biroq insonning oliy mavjudotligi qachonki uning yuksak darajadagi insoniy fazilatlarini o'zida namoyon eta olgandagina tan olinishini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Muslihiddin Sa'diy «Guliston» asarida inson kamolotining asosiy omillari sanalgan ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy kamolotga erishishning inson hayotidagi ahamiyati, ilm o'rganishning o'ziga xos afzalliklari, muayyan kasb yoki hunar o'rganishning o'ziga xos jihatlari, insonda axloqiy sifatlarni tarbiyalash masalalari xususida so'z yuritadi. Allomaning fikricha, quyidagi fazilatlarini o'z qiyofasida mujassam eta olgan insongina haqiqiy ma'noda komil, etuk inson sanaladi: bilimli, mehnatsevar, kamtar, oliyanob, himmatli, saxovatli, saxiy, shijoatli, g'ayratli, qat'iyatli, mard, jasur, jismonan kuchli, to'g'riso'z, bergan va'dasiga vafodor, adolatli, do'stga sodiq, o'z kuchi va mehnatiga tayanib ish ko'ruvchi... Mutafakkir tomonidan ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlab yaratilgan asarlarda ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ular pedagogik fikr taraqqiyotida o'ziga munosib o'ringa egadir.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. IX–XII asrlarda ta'limiy-axloqiy asarlarning paydo bo'lish shart-sharoitlari.
2. Ta'limiy-axloqiy asarlar mazmunidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlang.
3. Ta'limiy-axloqiy asarlarda ifodalangan komil insonga xos xislatlar jadvalini tuzing.
4. Javonmardlik tarbiyasi haqida gapiring. Uning asosiy talablari qaysi asarlarda o'z ifodasini topgan?
5. Hozirgi davr ta'limida foydalanish mumkin bo'lgan tarbiya tajribalarimizga misollar keltiring.

V BOB. XIV–XVI ASRLARDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKR

Qariyb bir yarim asr davomida mo'g'ullar istibdodi ostida xonavayron bo'lgan Movarounnahr xalqi XIV asr avvallariga kelib mo'g'ullar zulmidan qutula boshladi. Movarounnahrda kuchli davlat tuzishga bo'lgan intilish g'olib keldi. Mo'g'ul istilochilariga qarshi Buxoroda xalq Mahmud Torobiy boshchiligida qo'zg'oldi, Samarqand va Xurosonda esa sarbadorlar qo'zg'olonlari ro'y berdi. Natijada sarbadorlar bir muddat hatto hokimiyatni ham boshqarib turdilar.

XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning feodal tarqoqligiga barham berildi, mamlakat mo'g'ul bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri – XV asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar rivoj topa boshladi.

Sohibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o'rin egallaydi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi.

Shuning uchun ham XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr tarixda Sharq Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deb ataladi. Chunki bu davr madaniyati o'z yo'nalishi, iqtisodiy asosi jihatidan IX–XII asrlar madaniyatining davomi sanaladi.

XIV asrning uchinchi choragi — XV asrda Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat o'sdi. Amir Temur hukmronligi davrida jahonning ko'plab shaharlarida Samarqandga hunarmandlar, olimu fozillar, san'atkorlar, muhandislar olib kelindi va ularning boy tajribalari, ijodiy mahoratlari bilan ilm- ma'rifat, madaniyat, qurilish jabhalarida keng foydalanildi. Samarqand va Hirotda madrasalar, kutubxona va rasadxona qurildi. Tibbiyot ilmini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, falsafa hamda tarbiyashunoslikka oid asarlar yaratildi. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Sa'diy meroslarini, yunon-rim madaniyatini o'rganishga havas kuchaydi.

Amir Temur saltanatni barpo qilish va uni mustahkamlash uchun

juda katta xizmat qildi. Uning buyuk xizmatlaridan eng muhimi – mamlakatda ta’limni rivojlantirish sohasiga qaratilganligi edi. Chunki uning e’tiqodiga ko’ra, bilimdon va tadbirkor insongina mamlakatning rivojlanishiga hissa qo’sha oladi. Shuning uchun ham Sohibqiron bilimli va ishbilarmon, tadbirkor kishilarni tarbiyalashga katta e’tibor berdi. Bu borada ta’limning o’ziga xos o’rni bo’lishi kerakligini anglagan holda maktab va madrasalar qurdiradi. Saltanat poytaxti Samarqand atrofida o’n ikki bog’ va qasr yaratadi, Ko’ksaroy, uning atrofida esa Bo’stonsaroy bino etadi. Jome’ masjidi, maqbaralar, me’moriy obidalar qurdiradi. Bu ishlarga faqat Amirning o’zi emas, uning atrofidagi yaqinlari ham turli madrasalar qurishga bosh-qosh bo’ladilar. Amir Temurning amirlaridan Idigu Temur, mavlono Qutbiddin, umr yo’ldoshi Saroymulkxonim, nabirasi Muhammad Sulton ham madrasalar qurdiradilar.

Madrasalar muayyan darajada ixtisoslashgan edi. Masalan, boshqaruv kadrlarini tayyorlash Muhammad Sulton madrasasida, diniy muassasalar uchun kadrlar tayyorlash mavlono Qutbiddin Sadr madrasasi, umumiy mutaxassislar, ya’ni ziyoli, imom, olim, maktab o’qituvchisi tayyorlashga Idigu Temur, Saroymulkxonim madrasalari ixtisoslashgandi. Lekin ularning hammasida Qur’on, Hadis, fiqh o’rganilgan. Madrasalarning ixtisosligiga ko’ra umumi aqliya, umumi askariya, umumi ma’muriyalar ham o’rgatilgani haqida ma’lumotlar bor.

Madrasalarda darslar arab, fors, turkiy (o’zbek) tillarida olib borilgan. Arab tili grammatikasini o’rgatishga ko’proq vaqt ajratilgan. Sa’diy Sheroziyning «Guliston», «Bo’ston», Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» kitoblari u boshqa asarlar ham o’qitilgan.

Har bir madrasaning vaqfnomasida tolibi ilmlar, mudarrislar va boshqa xodimlarni qabul qilish, o’quv ishlarini yuritish belgilangan.

Ulug’bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya kabi fanlar ayniqsa rivoj topdi. Tibbiyot, tarix, adabiyot, diniy bilimlarning ravnaq topishiga katta e’tibor berildi. Oliy maktab — madrasalar qurildi. Buxoro, Samarqand va G’ijduvonda qurilgan uch madrasa fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo’lib keldi.

Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar haligacha ko’zga yaqqol tashlanadi: «Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir».

Ulug’bek 1428—1429-yillari Samarqandda rasadxona qurdiradi. 1437-yili ana shu rasadxonada «Ko’ragoniy jadvali»ni, ya’ni yulduzlar jadvalini tuzadi. U yaratgan kutubxonada esa fanning turli sohalariga oid 1500 jild kitob mavjud edi.

Samarqand shahrida X asrda 17 madrasa bo’lib, ularda yirik olimlar

dars bergan bo'lsa, XIV— XV asrlarga kelib ular soni yanada ortdi. Tabobat ilmi, tarix, adabiyot va san'at rivojlandi. Boysunqur Mirzo davrida saroy kutubxonasi keng rivoj topadi. Uning rahbarligida kitoblarni ro'yxatdan o'tkazish va ilmiy matnchilik ishlari ham olib borilgan. Firdavsiyning «Shohnoma» asarining shu davrda to'liq matni tuzilib, miniatyuralar bilan bezatilgan.

Bular XIV asrning ikkinchi yarmi — XV asr Markaziy Osiyo tarixida Uyg'onish davri bo'lib tarixga kirgan deya olishimizga asos bo'la oladi.

Bu davrda o'zbek adabiyotida ham ancha siljish ro'y berib, Atoiy, Sak-kokiy, Haydar Xorazmiy, Durbek va Lutfiy tomonidan qimmatli asarlar yaratildi; tarixiy va adabiy asarlarni o'zbekchaga tarjima qilish ishlari jonlandi.

Ulug'bek olimlarga homiylik qilib, fan ahlini rag'batlantirdi, uning o'zi, ayniqsa, astronomiya va matematika fanlari bo'yicha katta ishlarni amalga oshirdi. Samarqandda Ulug'bek tomonidan rasadxonaning barpo etilishi va uning o'sha davr ilmiy markaziga aylanishi muhim voqea bo'ldi. Shu davrda Samarqandda Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy, Mo'yiddin va uning o'g'li Mansur, Ali ibn Muhammad Birjandiy va boshqalar ijod etdilar. Hirot da esa, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, ulug' rassom Behzod, tarixshunos Xondamir, hattot Sulton Ali Mashhadiy va boshqalar ijodiyot cho'qqilariga ko'tarildilar.

Ulug'bekning shogirdi Aloviddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy (1403—1474) o'sha davrda Movarounnahrning madaniy va ilmiy hayotida katta xizmat qildi. Astronomiya to'g'risida «Risolai dar falakiyot» degan kitob yozgan Ali Qushchi o'z davrining Ptolomeyi deb shuhrat qozongan. Uning mazkur asarida geometrik bilimlarning asoslari bayon qilindi, nuqta, chiziq, yuza, aylana va shu kabi tushunchalar to'la ta'riflab berildi, tabiiyot fanlari va shuning singarilar sohasida boshlang'ich bilimlar bayon qilindi.

Sulton Husayn Boyqaro davrida olimlar va shoirlar Samarqanddan Hirotga ko'chib o'tdilar. Hirot ilmiy-madaniy markazga aylandi. Alisher Navoiy Hirot da fan, madaniyat, ma'rifat ishlarini yo'lga qo'yishda, u yerni obodonlashtirishda katta xizmatlar qildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»da Hirot to'g'risida yozar ekan butun dunyoda bunday obod shaharni ko'rmaganligini aytadi.

Alisher Navoiy ham masjidlar, madrasalar, hammomlar, kasalxonalar, hovuz va ko'priklar, rabotlar qurdirgan. U shaharning eng xushhavo joyida barpo etgan Xalosiya va Ixlosiya binolari guruhi fan, adabiyot, san'atga xizmat qiladigan madaniy markazga aylangan.

Hirot da Alisher Navoiy bilan birga Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin

Behzod, xattot Sulton Ali Mashhadiy, kotib Mir Ali, sozanda Qulmuhammad, tarixchilar — Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir yashab, ijod etganlar.

Hirotda xattotlik san'ati rivojlangan. Hatto Buxoroda «Hirotni yozuvi» mirzalar, xattotlar tomonidan 1920-yilgacha qo'llanilganini tarixchilar manbalarda keltiradilar.

Bu davrda Movarounnahrda ham san'at, arxitektura, binokorlik texnikasi ancha ravnaq topdi. Musiqa, tasviriy san'at, madaniyat, adabiyot, ta'lim-tarbiyaga oid asarlar yaratildi. Hasan Nisoriyning (1556) «Muzakkir al-ahbob» tazkirasi, tarixiy va adabiy yodgorlik bo'lgan «Boburnoma» o'sha davrda yaratildi. Amin Ahmad Roziy «Haft iqlim» («Etti iqlim») degan geografik bibliografik lug'at tuzdi.

XVI asrda xattotlik san'ati yuksak darajaga etdi. Sulton Ali Mashhadiy, Mahmud ibn Ishoq ash-Shixaybiy va boshqalar ustoz xattotlar bo'lib nom qozondilar. Darvesh Muhammad ibn Do'stmuhammad Buxoriy xattotlik san'atining nazariyasi to'g'risida asar yozdi.

Bu davrda bir qancha ilm maskanlari bunyod etildi. Jumladan: Shayboniyxon madrasasi, Abdurahim Sadr madrasasi, Mirarab madrasasi, Masjidi Kalon va boshqa inshootlarning qurilishi ta'lim-tarbiya jarayonida muhim bosqich bo'ldi.

Aholining savodxonligini oshirish, bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasida ham muayyan darajada imkoniyatlar yaratildi. Xususiylar maktablari yuzaga keldi, muallim yollab bolalarni uyda o'qitish tadbirlari odat tusiga kirdi.

Shahar va qishloqlarda, ovullarda ochilgan maktablarda bolalarni o'qitish 6 yoshdan boshlandi. Olti yoshli bolalar maktabga borib, alifbeni o'rganar, uning ayrim harflarini chizishni mashq qilardilar. O'quvchilar maktablarda savod chiqarganlaridan keyin madrasaga kirib ham diniy, ham dunyoviy fanlardan bilim olardilar.

Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, XIV— XVI asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

Sohibqiron Amir Temur

(1336 — 1405)

Amir Temur Ko'ragon ibn Amir Tarag'ay Kesh (Shahrisabz)ning Xo'ja Ilg'or (hozirgi paytda bu qishloq Yakkabog' tumaniga qarashli) qishlog'ida 1336-yilning 9- aprelida tavallud topgan. Uning otasi Amir Tarag'ay o'ziga to'q, badavlat kishi bo'lgan. Onasi Tegina begim esa buxorolik taniqli olim Ubaydullohnin gizi bo'lgan.

Temur 7 yoshidan bilim ola boshlaydi. U bolalikdan mard, dovyurak, jasur bo'lib o'sadi. Harbiy san'atni mukammal egallaydi. Qur'oni Karimni yod oladi, hadis ilmini o'rganadi. Dunyoviy bilimlarga ega bo'ladi. Shuning uchun ham imyon-e'tiqodli, halol-pok, aql-zakovatli, o'z e'tiqodiga mustahkam rioya qiladigan, adolatli inson bo'lib etishadi.

◀Amir Temur o'z davlati qudratini yuqori ko'tarib dunyoga tanitadi.

Amir Temur johillik, yovuzlikni, zo'ravonlikni yoqtirmasdi. Insonparvar, adolatli hukmdor edi. Masalan, «Temur tuzuklari» hukmdorning hokimiyatni boshqarish qoidalari hamda odob-axloq me'yorini belgilab beruvchi yo'riqnomadir. Taniqli olim Bo'riboy Ahmedov «Temur tuzuklari» podsholarning turish-turmush va axloq-odob normalarini belgilovchi risoladir, deb ta'riflaydi.

Haqiqatan ham, mazkur asarni turmush odobi, hulq-odob qoidalari tartib berilgan an'anaviy asarlar qatoriga qo'ysak bo'ladi. Zero, tarixan ta'limiy-axloqiy asarlarning barchasida ham dastlab davlatni boshqarishga oid qarashlar, so'ng axloq me'yorlari bayon etiladi. Shunga ko'ra, bu asardan ta'limiy-axloqiy asar sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Amir Temur asarda insonparvarlik, mehnatsevarlik, adolatlilik, vatanga sadoqat, jasorat, to'g'rilik, do'stlik va hamkorlik, mehr va muruvvat ko'rsatish, sabr-qanoat, yaxshilik kabi xislatlarni ulug'laydi va xiyonat, bevafoqlik, sotqinlikni qoralaydi. Hayotda «rosti – rusti» qoidasiga rioya etgan Amir Temurning o'zi naqshbandiylik tariqatidagi «Dil ba yoru, dast ba kor» prinsipiga ko'ra ish tutib, Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Forobiy va boshqalar tomonidan targ'ib etilgan va haqiqiy komil inson, adolatli hukmdor uchun zarur bo'lgan quyidagi o'n ikki qoidani o'ziga yo'riq qilib olganini ko'ramiz:

Har erda va har vaqt Islom dinini quvvatlash; davlat va saltanatni boshqarishda o'n ikki tabaqa, toifadagi kishilarga tayanish; dushman bilan kurashda maslahat, kengash, tadbirkorlik bilan ish ko'rish, faollik, hushyorlik, ehtiyotkorlik ko'rsatish, saltanat ishini yurg'izishda murosayu madora, muruvvat hamda sabr-toqat bilan ish ko'rish; davlat ishlarini yurg'izishda davlat qonun-qoidalariga qat'iy rioya qilish; adolat va insof bilan ish yuritish; sayyidlar, ulamo, mashoyix, oqilu donolar, muhandislar, tarixchilarni izzat-hurmat qilish; azmu jazm bilan ish ko'rish (aytganiga rioya etish), buzuqchilikning oldini olish; fuqaroning ahvolidan ogoh bo'lib turish; barchaga hurmat-e'tiborda bo'lish, yaxshilik, muruvvat, ehson, izzatu ikrom, haqqini ado etish; farzandlar, qarindoshlar, oshnolar va do'st birodarlarni doimo yodda tutib, ular bilan yaqin aloqada bo'lish; sipohiylarni hurmat etish va ularga g'amxo'rlik qilish.

Ko'rinib turibdiki, Amir Temur mazkur talablarga rioya etgani tufayli uning saltanati rivoj topdi, fan va madaniyat taraqqiy etdi, davlatining nufuzi oshib, faqat Sharqdagina emas, balki G'arbda ham mashhur bo'ldi.

Bu o'n ikki qoidaga rioya qilishdan tashqari, Amir Temur o'zining hayoti prinsiplari haqida shunday degan:

«Men o'z hayotim mobaynida besh narsaga qat'iy e'tiqod qo'ydim va hamishalig' ularga amal qildim, ular ushbulardir:

Olloh — ul har narsaga qodir kuch, sidqidildan sig'insang, istagan murodu maqsadingga etkazadi;

tafakkur — fikrlash va mushohada qobiliyati;

qilich — ul yigitning yo'ldoshi, el-yurt osoyishtaliginining posboni, har qanday dushmani mahv etish quroli, aning qudrati ila dinsizlarni dinga solmoq mumkin;

imon — ul insonni barcha jonlilardan farqlantirib turuvchi xususiyatdir. Imonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug'lari, elu-xalqning or-nomusini himoya qiladi, halollik va poklikni fazilat biladi;

kitob (bitik) — barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir».

Demak, Amir Temur hayoti va faoliyatida o'zi qat'iy rioya etgan, haqiqiy etuklik belgisi sanalgan din, imon, aql bilan ish yuritish va ilmga e'tiqodni boshqalarga ham tavsiya etgan hamda avlodlarni ham shu ruhda tarbiyalashga e'tibor bergan.

Amir Temur zamonida musiqa, badiiy adabiyot, rassomlik san'ati rivoj topib, yoshlarga she'r yozish, rasm chizish, musiqa asboblari chalish, kitobxonlik, lison ilmi, husnixat o'rgatilar edi. Bu san'at turlari o'sha davr tarbiyasi tarkibiga kiritilgan edi. Sohibqironning buyuk saltanatida ijod qilgan shoirlar, rassomlar, mashshoqlar va boshqalar buning yaqqol dalilidir. Bu davrda hatto shahar hunarmandlari ham ashula, raqs, suxandonlik bilan shug'ullanganlari haqida Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida qayd etilgan.

Amir Temur jismoniy tarbiyaga katta e'tibor bergan. Sharqda dilovalik tarbiyasi, ya'ni yoshlarda mardlik, jasurlikni tarbiyalash asosiy masalalardan sanalgan. Yigitlar bolalikdan merganlik, chavandozlik, suvda suzish, ovchilik, qilichbozlik, shaxmat o'yini kabilarni mohir murabbiylardan o'rganib, bu borada mashq qilar edilar. Amir Temurning o'zi kuchli lashkarboshi sifatida harbiy ilmning «Ming askar» uslubi asoschilaridan biri bo'lgan. Buyuk Sohibqiron shunday ta'kidlaydi:

«Cherik tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim: birinchidan, yigitning kuch-quvvatiga; ikkinchidan, uning qilichni o'ynata olishiga;

uchinchidan, aql-zakovatiyu kamolotiga e'tibor qildim. Shu uch fazilat jamul-jam bo'lsa, navkarlik xizmatiga oldim. Negakim, kuch-quvvatli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azobu uqubatlarga chidamli bo'ladi, qilich o'ynata oladigan kishi raqibini mag'lub eta oladi, oqil navkar har joyda aql-idrokini ishga solib, mushkulotni bartaraf etmog'i mumkin». O'g'illari – Amirzoda Muhammad Jahongir, Umarshayx, Mironshoh, Shohrux, nabiralari – Amirzoda Muhammad Sulton, Amirzoda Pirmuhammad mohir jangchilar bo'lib, katta-katta janglarda shaxsan ishtirok etganlar. Amir Temurning o'zi aqlni charxlash vositasi bo'lgan shaxmat o'yinida ham mohir bo'lgan. Zero, o'sha davr tarbiyasi — shatranj o'yinini har bir yosh o'rganishi zarur sanalgan. Hatto Amir Temurning suyukli o'g'li Shohruxga ism qo'yilishi ham shaxmat o'yini bilan bog'langanligi haqida rivoyat yuradi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning buyuk davlatchilik siyosati — mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish bilan birga tarix oldida ma'rifiy xizmatlari ham beqiyos. Uning ta'lim-tarbiyaga oid o'g'itlari, tutgan siyosati hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan.

Amir Temurning ta'lim-tarbiyaga oid ishlari, qarashlari hozirgi barkamol insonni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek

(1394 — 1449)

Ulug'bek 1394-yilning 22 martida Eron g'arbidagi Sultoniya shahrida bobosi Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishi paytida tavallud topdi. U Shohrux Mirzoning to'ng'ich o'g'li. Muhammad Tarag'ay deb ism berilgan bolani bobosi mehr bilan «Ulug'bek» deb atayvergan. Shu sababli uning asosiy ismi Ulug'bek bo'lib qoladi va jahonga ana shu nom bilan shuhrat tarqatadi.

Ulug'bekning otasi Shohrux Amir Temurning uchinchi o'g'li bo'lib, Xuroson hukmdori, ma'rifatli, ilm-fanga qiziqqan shoh edi. Onasi Gavharshodbegim ham o'z davrining oqila, bilimdon ayollaridan hisoblanardi.

«Taqrir bu ulug' zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan saltanatning vorisi bo'lishdek mislsiz sinov aynan unga nasib etdi»(I.A.Karimov).

Ulug'bekning bolalik yillari bobosi Temurning harbiy yurishlarida o'tdi. Garchi Ulug'bek tug'ilganda bir oz zaif bo'lgan bo'lsa-da, harbiy yurishlar davrida chiniqdi.

Amir Temur nabirasi Ulug'bekning o'tkir zehnli, aqlu farosatli bo'lganligi uchun juda sevardi. «Ko'zimning nuri, saltanatimning umid-

li niholi», deb erkalatardi. Biroq, Ulugʻbek Mirzo nozik boʻlib oʻsdi. Buning ustiga koʻp vaqtini kitob mutolaa qilish bilan oʻtkazar, davlat ishlariga ragʻbati yoʻq koʻrinar edi.

Ulugʻbekning tarbiyasi bilan buvisi Saroymulkxonim shugʻullanib, sevimli nabirasiga oʻquv-yozuvni oʻrgatgani, tarixiy mavzularda hikoya va ertaklarni soʻylab bergani uning hayotida oʻziga xos maktab boʻldi.

1405—1411-yillari oʻsha davrning qonun-qoidalariga binoan Ulugʻbek harbiy va siyosiy tarbiyadan ilm oʻrgangan.

Oʻrta asrlardan saqlanib qolgan kitoblardan maʼlum boʻlishicha, saltanatga vorislar davlatni boshqarishda muayyan tartib-qoidalar bayon qilingan qoʻllanmalar asosida tayyorlangan. Shulardan biri shahzodalar va xonzodalar bilishi zarur boʻlgan «Suluk ul-muluk» (Podshohlarga qoʻllanma) kitobidir.

Ulugʻbek ham anʼanaga koʻra, mazkur kitobni mukammal oʻrganar va unda koʻrsatilgan davlatni idora qilish sanʼati — turli lavozim egalari tayinlash, soliq toʻplash, ruhoniylar, mansabdorlar hamda boshqa yurtlardan kelgan elchilarni qabul qilish, xayru sadaqa berish kabi tartib-qoidalar boʻyicha koʻnikmalarni egallaydi.

Ulugʻbek yoshligidan koʻp kitob mutolaa qilgan. U, ayniqsa, matematika, astronomiya ilmlariga qiziqdi.

U bobosining xos munajjimi mavlono Badriddin bilan koʻp vaqtini oʻtkazar, undan hisob va taqvimdan dars olar, baʼzi kechalari, qor tinib osmon yorishgan paytlari yulduzlarning oʻrni va harakatini kuzatish bilan mashgʻul boʻlardi.

Taniqli olim Boʻriboy Ahmedovning fikricha, mavlono Badriddin Samarqandda boʻlgan vaqtda Ulugʻbekni Koʻksaroydagi xos kutubxonasiga boshlab borib, kutubxonaga yangi kelib tushgan alloma al-Fargʻoniy tarafidan bitilgan «Kitob fi javomeʼ ilm an-nujum va usul al-harakat as-samoviya» («Yulduzlar haqidagi ilm bilan osmon yoritqichlari harakati-niing asosini (bir-biriga) qoʻshuvchi kitob»)ni koʻrsatadi.

Shunday qilib, Ulugʻbek bolalik yillaridayoq mavlono Badriddin Tusiy, Abu Rayhon Beruniy, Umar Xayyom kitoblari bilan hamda Oqsulot va Oʻtrorda «Ziji Malikshohiy» bilan tanishadi.

Fanga boʻlgan zoʻr muhabbati, katta qobiliyati va mehnatsevarligi tufayligina Ulugʻbek astronomiya maktabining asoschisi va rahbari sifatida ajoyib muvaffaqiyatlarga erisha oldi. Bu maktab butun dunyoda eʼtirof etildi, shuhratga sazovor boʻldi.

Zoʻr qobiliyat, oʻtkir xotira va asta-sekin bilimlarni toʻplash shunga olib keldiki, Ulugʻbekda fanga qiziqish va intilish rivojlana bordi. Ulugʻbek

bilimlarini tinmay chuqurlashtirishi va o'z ustida muntazam ravishda ishlashi natijasida ko'pgina zamondoshlaridan o'zib ketdi.

1411-yili 17 yoshli Ulug'bek Mirzo Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlanishi temuriylar xonadonida Ulug'bekning mavqei naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Ulug'bek hokim bo'lgach, bobosidan farqli o'laroq, harbiy yurishlar bilan qiziqmadi. Aksincha, u o'rta asrlardagi boshqa hukmdorlardan o'zgacha yo'l tutdi, ko'proq ilm-fanga moyil bo'ldi.

Ulug'bek umrining ilk davridanoq Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumi — falakiyotshunos va riyoziyotchilar ta'sirida ulg'ayadi. Shu sababli uning hayotida aniq fanlar muhim ahamiyat kasb etdi. Yigirma yoshlarida u o'z davrining yirik olimlaridan biri bo'lib shakllandi. U hokim bo'lgan paytidagi olamshumul o'zgarishlar butun o'rta asr madaniyati tarixida betakror voqea bo'lib qoldi.

Ulug'bek safdoshlaridan G'iyosiddin Jamshid Koshiy 1417-yili Samarqanddan Koshondagi o'z otasiga yozgan maktubida Ulug'bekning faoliyati va bilimni quyidagicha ta'riflaydi:

«Oллоhga va uning ne'matlariga shukronalar bo'lsinkim, etti iqlimning farmonbardori, islom podshohi Ulug'bek donishmand kishidurlar. Men bu narsani odob rasmi yuzasidan aytayotganim yo'q. Haqiqat shuki, avvalo u kishim Qur'oni Karimning aksariyat qismini yoddan biladilar. Tafsirlarni va mufasssirlarning har bir oyat haqidagi so'zlarini aqlda saqlaydilar va yoddan biladilar, arabchada g'oyat yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishim fiqhdan habardorlar; mantiq ma'nolarining bayoni va usullaridan ham xabardorlar».

U kishi riyoziyot (matematika) fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va shunday jiddiy mahorat ko'rsatganlarki, har qanday sonni tezlik bilan qo'shish va ko'paytirish iqtidoriga ega bo'lganlar. Inson bino bo'lganidan beri shu kungacha hali hech kimsa u qadar aniq va tez hisoblay olmag'an».

Ulug'bek Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda uchta madrasa barpo etdi.

Samarqanddagi madrasa qurilishi 1417-yili boshlanib, uch yilda qurib bitkaziladi. Tez orada Ulug'bek madrasaga mudarris va olimlarni to'play boshlaydi va shu tariqa uning falakiyotshunoslik maktabi shakllanadi. Bu maktabning asosiy mudarrisarlari ilmiy ishlarga qulay sharoit va panohezlab Temur davridayoq Samarqandga kelgan Taftazoniy, Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumi kabi olimlar edi. Qozizodaning maslahati bilan Ulug'bek otasining mulki Xurosonning Koshon shahridan G'iyosiddin Jamshid Koshiyni chaqirtirdi. Shunday qilib, Movarounnahrning turli

shaharlaridan va Xurosondan to'plangan olimlar soni 1417 -yilga kelib 100dan ortib ketdi. Ular orasida adiblar, muarrixlar, xattotlar, rassomlar, me'morlar bor edi. Lekin yulduzshunoslik va riyoziyot sohasidagi olimlar sharafliroq va obro'liroq edi. Ular orasida Qozizoda va Koshiy eng nufuzli edilar.

1420 -yili Samarqand madrasasining tantanali ochilishi bo'ldi. Manbalarda qayd etilishicha, «madrasa binosi bitishiga yaqinlashganda, bu erga to'plangan adabiyot, san'at va fan namoyandalari Ulug'bekdan madrasaga kimni mudarris etib tayinlamoqchisiz, deb so'rashganda, Ulug'bek barcha fanlardan xabardor biror odamni qidirib topaman, deb javob bergan. Shu erda g'ishtlar orasida oddiy kiyimda o'tirgan mavlono Muhammad Ulug'bekning bu gapini eshitib qolgan va shu onda o'rnidan turib, bu vazifaga men loyiqman, degan. Shundan keyin Ulug'bek uni imtixon qilib, uning chinakam bilimdon odam ekanligiga ishonch hosil qilgan va uni hammomda yuvintirib, yaxshi kiyintirish to'g'risida buyruq bergan. Madrasaning ochilishida mavlono Muhammad mudarris sifatida ma'ruza o'qigan; mavlono Muhammadning olimlardan 90 kishi ishtirokida qilgan ma'ruzasini Ulug'bek bilan Qozizoda Rumiydan boshqa hech kim tushuna olmagan. Chunki bu ma'ruza haddan tashqari ilmiy jihatdan kuchli va murakkab masalalarni o'z ichiga olgan edi».

Bu erda tilga olingan Qozizoda Rumiy (Salohiddin Musa bin Mahmud) mashhur matematik va astronomdir. U Ulug'bek madrasasining dastlabki mudarrislaridan biri edi. G'oyat bilimli bu olimni zamondoshlari «*O'z davrining Aflotuni*» deb ataganlar.

Ulug'bek asarlarining sharhchisi, Qozizoda va Ulug'bekning iste'dodli shogirdi, samarqandlik matematik va astronom Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchidir. U «*O'z davrining Ptolomeyi*» deb nom olgan. Ali Qushchi ilmiy ishda Ulug'bekning eng yaqin yordamchilaridan biri edi. Ulug'bek maktabi namoyandasi sifatida Ulug'bek asarining sharhchisi astronom Chalabiy nomi ham diqqatga sazovordir.

Madrasada boshqa mudarrislar bilan bir qatorda, Ulug'bekning o'zi ham astronomiya bo'yicha ma'ruzalar o'qir edi. Uchinchi darajali algebrak tenglamaga olib kelgan bir gradus yoyning sinusini aniqlash — Ulug'bek va uning maktabi erishgan ajoyib va eng muhim muvaffaqiyatlardan biri bo'ldi.

Ulug'bek atrofida to'plangan Samarqand olimlari katta ahamiyat bergan eng muhim ilmiy yo'nalishlardan biri falakiyotshunoslik fani edi. Shuni ham aytish kerakki, musulmon mamlakatlarida va umuman islom madaniyatida aniq fanlar, ayniqsa, falakiyotshunoslik va riyoziyot muhim o'rin tutadi. Chunki musulmon kishi qayerda bo'lishidan qat'i

nazar, erta tongdan oqshomgacha qadar uning uchun besh vaqt namoz farzdir. Namoz yuzni qiblaga — Makkadagi Ka'ba yo'nalishiga qarab o'qiladi. Namozning vaqtlari esa har bir jo'g'rofik kenglikda ham quyoshning erdan balandligiga qarab belgilanadi. Undan tashqari, islomda qabul qilingan hijriy yil hisobi 354 kunni tashkil qiluvchi 12 qamariy oydan iborat bo'lib, yangi oy — hilolni masjid minorasidan yoki rasadxona tepasidan ko'z bilan ko'rib aniqlangan. Shuning uchun musulmon kishining hayoti falakiyotshunoslik, riyoziyot, jo'g'rofiya, hunarmandchilik va me'morchilikka aloqador quyidagi masalalarni hal qilish bilan bog'liq bo'lgan:

- 1) joyning jo'g'rofik yo'nalishlarini aniqlash;
- 2) mahalliy meridian bilan qibla yo'nalishini ko'rsatuvchi katta doira orasidagi burchakni aniqlash;
- 3) jo'g'rofik yo'nalishlarni hisoblash uchun aniq riyoziy (trigonometrik) hisoblash qoidalarini va usullarini bilish;
- 4) jo'g'rofik yo'nalish asosida quyosh balandligini aniqlash qoidalarini bilish;
- 5) quyosh, oy, sayyoralar va boshqa yoritgichlarning kecha-kunduzning istalgan vaqtidagi holatlarini aniqlaydigan sferik astronomiyaning aniq qoidalarini bilish;
- 6) turli shaharlar orasidagi masofalarni aniqlash uchun geodezik o'lchashlarni bajarish;
- 7) turli vaqt o'lchash asboblari yasash;
- 8) erning ma'mur qismi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun xaritalar tuzish;
- 9) xaritalar tuzish uchun riyoziyotga taalluqli ko'rinish holatlarini bilish;
- 10) falakiyotshunoslik, jo'g'rofiya va geodeziyaga taalluqli hisoblarni bajarish uchun yuksak aniqlikdagi riyoziy hisoblash usullarini bilish;
- 11) yoritqichlarni kuzatish ob-havo bilan bog'liq bo'lganligi uchun meteorologiya va geofizikadan ma'lumotga ega bo'lish;
- 12) masjid, madrasa va rasadxonalar barpo etish uchun me'morlik san'ati va an'alaridan xabardor bo'lish.

Yuqorida ko'rsatilgan va bu ro'yxatga kirmagan boshqa ko'plab masalalar shunchalik chambarchas bog'lanib ketganki, ularni hal qilish uchun olim va hunarmandlarning katta jamoa va guruhlarini kerak edi. Ana shuning uchun Ulug'bek o'z atrofiga turli ilm va hunar namoyandalarini to'plagan.

✓ Keltirilgan masalalar ro'yxatidan ko'rinib turibdiki, ularning ko'pi falakiyotshunoslikka aloqador. Islomdagi eng avvalgi yulduzlar haqidagi asarlar «Zij» deb atalib, ular asosan jadvallardan iborat bo'lgan.

Ulug'bek boshchilik qilgan astronomlarning muvaffaqiyatli ravishda olib borgan ta'lim va ilmiy ishlari ularni aniqroq asboblardan ta'minlangan namunali rasadxona qurish kerak degan fikrga olib keldi. Tarixiy manbalar ana shundan dalolat beradiki, Mirzo Ulug'bek o'z madrasasini qurdirib bitkazgandan keyin oradan to'rt yil o'tgach, Qozizoda Rumiy, mavlono G'iyosiddin Jamshid va mavlono Muiniddin Koshiy bilan maslahatlashib, Ko'hak etagida, Obirahmat soyining bo'yida rasadxona binosini qurdirtdi. Rasadxona kutubxonasi ko'plab ilmiy asarlar, jahondagi mashhur kishilarning asarlari bilan boyitildi va u yerda saqlanayotgan kitoblarning soni 150 mingdan ziyod bo'ldi.

Bu haqda Volter «Ulug'bek Samarqandda birinchi akademiya asos soldi, er kurrasini o'lchashni buyurdi va astronomik jadvallar tuzishda ishtirok etdi», deb yozgan edi. O'sha vaqtlari Samarqandda Ulug'bek tevaragida, avval aytganimizdek, 100dan ortiq olim uyushgan bo'lib, rasadxona akademiya vazifasini o'tagan edi.

Madrasa bilan rasadxona orasida mustahkam aloqa bor edi. Rasadxonada ishlab turgan ilmiy xodimlarning bir qismi madrasada mudarrislik qilishgan. Ular orasida G'iyosiddin Jamshid Koshoniy va Mirzo Ulug'bekning o'zi ham bo'lgan.

Ulug'bek madrasa taliblari bilan tez-tez bahslashib, imtihon qilib turgan. Bir kuni Ulug'bek madrasa taliblarini riyoziyat bilan taqvimdan imtihon qilmoqchi bo'libdi. U o'rtaqana mana bu savolni tashlabdi: «Qani, tolibi ilm, aytning-chi, hijriy 818-yil, rajab oyining o'n ikkinchi birlan o'n beshinchi o'rtasi, 918-yil rajab oyining o'n ikkinchi birlan o'n beshinchi orasi qaysi ayyomga to'g'ri keladur?». Buning uchun juda ko'p raqamlarni yodda tuta olish zarur ekan. Talabalardan birortasi ham bu masalani echolmabdi. Shunda Ulug'bek buni uyga vazifa qilib topshiribdi va ustozlarga xos husnu odob bilan mehribonlik ko'rsatib, o'rtaqana qo'yilgan masalani tushuntirgan. So'ng Abu Rayhon Beruniyning «Qonuni Mas'udiy» kitobini ochib, oltinchi maqolasining ettinchi bobidan parcha o'qib bergan. So'ng kitobni yopib talabalarga bir necha savollar bergan. Javoblardan qisman qoniqish hosil qilgan ustoz tolibu ilmlarga bu asarni chuqurroq tahlil qilib uning mohiyatini anglab etishni uyga yana bir bor vazifa qilib berishi u talabchan olim ekanligidan dalolat beradi.

Rasadxona bilan madrasa ilm ahllarining birgalikdagi faoliyati Ulug'bek ilmiy maktabida yulduz ilmi va riyoziyotni o'rta asrlar davrida eng yuqori pog'onaga ko'tardi. U 1018-yulduzning holati va harakatini aniqladi.

Ulug'bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma'lum va mashhuri uning «Zij»i bo'lib, bu asar «Ziji Ulug'bek»dir. «Ziji jadidi Ko'ragoniy» deb ham ataladi. «Zij»dan tashqari uning qalamiga mansub riyoziyot asari — «Bir

daraja sinusni aniqlash haqida risola», yulduzlarga bag'ishlangan «Risolai Ulug'bek» (yagona nusxasi Hindistonning Oligarh universitetining kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir «To'rt ulus tarixi» asaridir.

Ulug'bek «Zij»i o'rta asrlardagi eng mukammal asar bo'lib, tezda zamonadoshlarining diqqatini o'ziga jalb etdi. Eng avval, bu asar Samarqandda Ulug'bek atrofida to'plangan olimlar ijodiga katta ta'sir ko'rsatdi.

1449-yili Ulug'bekning fojiali halokatidan so'ng Samarqand olimlari asta-sekin Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bo'ylab tarqalib ketadilar. Ular o'zlari borgan yerlarga Samarqand olimlarining yutuqlarini va «Zij»ning nusxalarini ham yetkazadilar. Jumladan, Ali Qushchi 1473-yili Istanbulga borib, u yerda rasadxona quradi. Shu tariqa, Ulug'bek «Zij»i Turkiyada tarqaladi va Turkiya orqali Ovrupo mamlakatlariga ham etib boradi.

Hozirgi kundagi ma'lumotlarga ko'ra, «Zij»ning 120ga yaqin forsiy va 15dan ortiq arabiy nusxasi mavjud. O'rta asrlarda yozilgan hech bir astronomik yoki riyoziy asar bunchalik ommalashmagan. «Zij» musulmon mamlakatlarining deyarli barchasida o'rganilgan.

Ulug'bek «Zij»i, ayniqsa, Hindiston olimlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Samarqand olimlarining ilmiy an'alarini Hindistonga Boburning o'zi etgazgan degan ma'lumot bor. Boburning vorislari o'tmishdagi shohlarga o'xshab atrofiga olimlarni to'playdilar va ularning ilmiy izlanishlariga sharoit yaratadilar.

«Zij»ning G'arbiy Ovrupo faniga ta'siri katta bo'ldi. Umuman olganda, G'arbiy Ovrupo Temur va uning farzandlarini, ayniqsa, Ulug'bekni XV asrdanoq bilardi. Ali Qushchining Istanbuldagi faoliyati tufayli Ulug'bekning olimligi haqidagi xabar Ovrupoga ham tarqaladi.

1638-yili Istanbulga ingliz olimi va sharqshunosi, Oksford dorilfununining professori Jo'n Grivs (1602—1652) keladi.

Qaytishida u o'zi bilan Ulug'bek «Zij»ining bir nusxasini Angliyaga olib ketadi. 1648 -yili avval «Zij»dagi 98 yulduz jadvalini chop etadi. O'sha yilning o'zida Grivs «Zij»dagi jo'g'rofiy jadvalni ham nashr etadi. 1650-yili esa u «Zij» birinchi maqolasining lotincha tarjimasini nashr etadi.

Cheksiz aql-idroki, azmu qat'iyati, odilona siyosati bilan Mirzo Ulug'bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori bo'lib, xalqlarning azaliy orzusi — tinchlik, totuvlik, har-tomonlama taraqqiyotni qaror toptirish yo'lida matonat ko'rsatdi.

Mirzo Ulug'bek, avvalo, ilmiy farazlar bilan emas, balki sof amaliy uslubda ijod qildi. Minglab yulduzlarni jamlagan mukammal harita va bugungi eng zamonaviy hisoblardan deyarli farq etmaydigan astronomik jadvalini yaratdi.

Uning hayoti va ijodi o'zbek xalqi ma'naviyati poydevoriga qo'yilgan tamal toshlaridan biri bo'lib, xalqimizning o'rta asrlarda fundamental fanlarga nechog'li buyuk ahamiyat berganini ko'rsatadi.

Mirzo Ulug'bek xizmatlaridan yana biri shundaki, u avvalo yosh avlodning aqliy va ma'rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarni egallashga da'vat etdi, har qanday johillik va bilimsizlikka qarshi kurashdi. U insonning imkoniyatlari cheksiz ekanligiga ishora qilib, yoshlarni ilm egallashga, insofli va himmatli bo'lishga, halollik va rostgo'ylikka da'vat etdi.

Ulug'bek bilimlarni faqat kitoblardan emas, balki bevosita hayotning o'zidan ham olishni tavsiya etadi.

Ulug'bek yangi-yangi ilmiy kashfiyotlar qilishni inson uchun oliy fazilat deb biladi. U Movarounnahr shaharlarini, xususan Samarqand va Buxoroni ilmu ma'rifat dargohiga aylantiradi. Ulug'bek «Bilimga intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir» degan shiorni ilgari suradi va uni madrasaning peshtoqiga yozdirib qo'yadi. Madrasada esa ilmning turli sohalarining o'qitilishiga alohida e'tibor beriladi. Masalan, Samarqand madrasasida ilohiyot ilmlari: Qur'on, Hadis, tafsir, fiqh bilan birga, riyoziyot, handasa ilmi, hay'at (falakiyot), tibbiyot, tarix, geografiya, ilmi aruz, ilmi qofiya, arab tili kabi dunyoviy ilmlar o'rgatilgan.

Ulug'bek ilm-fan ravnaqi uchun kurashgan, ta'lim-tarbiya rivojiga hissa qo'shgan fuqarolarni doimo rag'batlantirib, o'qituvchi-ustoz, mudarrisga hurmat-ehtirom bilan qarashni targ'ib etgan. Uning mana shu say'i harakatlari tufayli ta'lim-tarbiya saviyasi yaxshilana bordi, madrasalarda o'qish-o'qitish ta'limni jonlantirishga katta ahamiyat berildi. Madrasadagi o'quv sistemasi isloh qilinib, unda falakiyot, matematika, geografiya kabi aniq fanlarni o'qitishni joriy etdi, ta'lim mazmunining saviyasini oshirdi, madrasalarda o'qish muddatini 15—20 yildan 8 yilga tushirdi.

Ulug'bek o'z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog'lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo'lib etishuviga alohida ahamiyat beradi.

Ulug'bekning fikricha, ta'lim-tarbiyada matematika, falakiyot fanlari bolaning aqliy qudrati va qobiliyatini o'stirishda muhim vosita bo'lsa, tarix va adabiyot fanlari bolalarning vatanparvar bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi.

Ulug'bek ta'lim-tarbiyada mudarrislarining odil va halol bo'lishiga, o'z pedagogik mahoratlarini, bilimlarini oshirib borishga, har bir mashg'ulotni yuksak saviyada o'tkazishga da'vat qiladi, ana shu bilangina o'quvchilarda bilimga qiziqish orttirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning

fikricha, tarbiyachi avval o'zini tarbiyalashi, bilim va malakalarini egallashi lozim.

Ulug'bek bolalarni tarbiyalashda uy sharoiti va ota-onalarning faoliyatiga yuqori baho beradi, ularni hayotda chidamli, mehnatsevar qilib tarbiyalash juda zarur, deydi. Buning dalili sifatida «Zij» ustida ishlash paytidagi qiyinchiliklar haqida shunday deydi: «Yulduzlar jadvalini tuzish maqsadida biz kechayu kunduz ishladik, o'z mo'ljallagan maqsadimizga etguncha biz o'zimizga qadar yaratilgan jadvallarni taqqosladik, qayta tuzdik va shu tariqa yuz qaytalab tuzatishlar kiritgach, o'n sakkiz yildan so'nggina o'z ko'zlagan niyatimizga etdik».

Ulug'bek axloqiy tarbiya haqida gapirar ekan, bu masalada insonlar orasidagi o'zaro munosabatlar, do'stlik va birodarlik alohida ahamiyat kasb etishi kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, haqiqiy va soxta do'stlarni ajrata olish lozim, g'arazli kishi hech vaqt do'st bo'lmaydi, kishilarni u to'g'ri yo'ldan ozdiradi. Shu bois g'arazli kishilardan har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, yiroq bo'lish, kasbi va xulq-atvori yaxshi, hamma hurmat qiladigan, xushfe'l kishi bilan do'stlashish lozimligini tavsiya etadi.

Har bir kishi do'stona hamkorlik bilan hayotiy muammolarni hal etishi mumkin, kishi yolg'iz o'zi, do'stlarsiz hech narsa qila olmaydi. Uning ta'kidlashicha, har bir insonning axloqiy shakllanishi olimlar o'rtasidagi munosabatlarga ham bog'liqdir, ular o'rtasidagi yaxshi hamkorlik talabalarning axloqiy tarbiyasida g'oyat muhimdir. Bunday do'stona va beg'araz hamkorlik mohiyatini biz Ulug'bek faoliyati misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan, Ali Qushchi umrining oxirigacha unga sodiq qoldi. Ulug'bek o'zining ko'pyillik mehnati evaziga yaratilgan «Ziji Ko'ragoniy» asarini unga ishonib topshirdi va u o'z navbatida ustozining ishonchini oqladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur

(1483 — 1530)

Zahiriddin Muhammad Bobur Andijonda, Farg'ona hukmdori Umar Shayx oilasida tavallud topdi. Uning bolalik yillari Andijon va uning atrofiga o'tdi. Bobur tug'ilgan davrda Temur asos solgan katta davlatning temuriyodalardan tomonidan bo'lib olinishi boshlangan, toj-taxt uchun kurash avj olgan edi. 1494-yili otasi Umarshayxning vafotidan so'ng Bobur Fargona hukmdori deb e'lon qilindi. Davlat ishlarini boshqarishda unga onasi Qutlug' Nigor xonimning ko'magi juda katta bo'ldi. Keyingi yillari Bobur Movarounnahrda katta davlat tuzishga harakat qildi, lekin temuriyodalarning bir-biriga bosh qo'shmasliklari, tarqoqligi tufayli

Bobur Muhammad Shayboniyxondan yengilib Kobulga, keyinchalik Badaxshonga ketishga majbur bo'ldi. 1505 — 1515-yillari Bobur yana temuriylar davlatini tiklash maqsadida Movarounnahrga qaytishga harakat qilib ko'rdi, lekin bu yurishlar ham befoyda ketdi. Shundan keyin Bobur Afg'onistonda hokimiyatini mustahkamlagach, Hindistonga yo'l oldi. 1525-yili Dehlining shimolida Panipatda Dehli sultoni Ibrohim Lo'di qo'shinini yengib, boburiylar davlatiga asos soldi.

Bobur ilm-fanning, san'atning, umuman, hayotning hamma sohalari bilan yaqindan qiziqqan. G'ayrat va tashabbus, sinchkovlik va iste'dod Boburni rivojlangan feodal davrining ulug' namoyandalaridan biriga aylantirdi. U har bir sohani aniq bilishga intilgan, undagi nuqsonlarni ko'ra olgan va masalaning mohiyatini tezda tushunib yetgan.

Jahon sharqshunoslari tomonidan ulug' olim sifatida e'tirof etilgan Bobur fanning ko'pgina sohalari bo'yicha qimmatli ishlarni amalga oshirgan. Yaqin hamda O'rta Sharq xalqlari madaniyati tarixi uchun katta xizmat qilgan.

Buyuk iste'dod sohibi bo'lgan Bobur «Boburnoma»da turli toifa tabaqa, urug' nasab, kasbu kor, har xil mansab, lavozimlarga ega bo'lgan tarixiy shaxslar, mashhur kishilar, ularning shajarasi, hayot yo'li, yashash tarzi, sarguzashtlarining aniq va to'liq tavsifini beradi. «Boburnoma» o'sha davr tarbiyasini o'rganish uchun ham o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Zahiriddin Muhammad Bobur shafqatli va ibratli ota sifatida o'z farzandlarini hamisha totuvlik va inoqlikka da'vat qilar, bu tuyg'uni ularning qon-qoniga singdirmoqqa urinardi. Bu intilishni uning Xumoyun va boshqa o'g'illariga yozgan ibrat to'la maktublarida ko'rish mumkin. Unda Bobur o'g'illarini totuv yashab, bamaslahat ish ko'rishga chaqiradi.

Bobur lirikasining asosiy qismini g'azallar tashkil etadi. Bizgacha ulug' shoirning 119 g'azali yetib kelgan. Bobur g'azallarida ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalariga ham e'tibor berilgan.

Fan va ma'rifatni yuqori darajada qadrlagan Bobur adabiyot, san'at va ilm ahli bilan doimo yaqin aloqada, ijodiy munosabatda bo'ldi, ularga homiylik qildi, ilmiy-adabiy suhbatlar, mushoaralar uyushtirdi. U o'z davrida ilmga berilgan odamlar kamligidan tashvishlanib, astoydil qiziqish, intilish hamda mashaqqatli mehnat bilangina ilm olish mumkinligini va shunday qilish zarurligini quyidagicha ta'kidlaydi:

*Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak.
Men tolibi ilmu tolibi ilme yo'q,
Men bormen ilm tolibi, ilm kerak.*

Yozuv ham yarim ilm, deb hisoblagan Bobur chiroyli va to'g'ri yozishga, fikrni aniq ifodalashga alohida ahamiyat bergan. Buni uning o'g'li Xumoyunga yo'llagan ushbu maktubi misolida ham yaqqol ko'rish mumkin:

«Bu xatlaringni bitibsen va o'qumaysen ne uchunkim, agar o'qur xayol qilsang edi, o'quy olmas eding. O'quy olmagandan so'ng, albatta, tag'yir berur eding. Xatingni xud tashvish bila o'qusa bo'ladir, vale asru mug'laqtur. Nasri muammo hech kishi ko'rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost emas, iltifotni «ot» bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o'qusa bo'latur, vale bu mug'lak alfozingdin maqsud tamom mafhum bo'lmaydur. G'olibo, xat bitirda johillig'ing ham ushbu jihattindur. Takalluf qilay deysen, ul jihattin mug'laq bo'latur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bilan biti; ham senga tashvish ozroq bo'lur va ham o'qug'uvchiga».

Bobur ana shu maktubida o'z o'g'lini adolatli, haqgo'y, insofli bo'lishga, kamtarlik va kamsuqumlikka undaydi.

Bir she'rida:

Davlatqa yetib mehnat elin unutm,
Bu besh kun uchun o'zungni aseru tutma, —

deb yozgan Boburning o'zi ham doimo ana shu qoidaga amal qilardi.

Ulkan so'z boyligiga ega bo'lgan va o'zbek adabiy tilining rivojida salmoqli o'rin tutgan «Boburnoma»da keltirilgan va asarning filologik qimmatini oshirgan ajoyib rivoyatlar, ta'sirchan she'riy parchalar, jozibador iboralar, ayniqsa, «Har kimdin yaxshi qoida qolg'on bo'lsa, aning birla amal qilmoq kerak», «Yomon ot bila tirilgandin yaxshi ot bila o'lgan yaxshiroq» kabi juda ko'p uchraydigan hikmatli so'z darajasiga ko'tarilgan jumalarning hammasi kishini bilimdonlikka, ezgulikka, xushfe'llik va shirinsuxanlikka chaqiruvchi xitobdek eshitiladi.

Bobur kishining hayotdagi eng asosiy burchi hamma joyda ham o'zini tuta olishdan va yaxshi xulq-atvorli bo'lishdan iborat ekanini ta'kidlab:

Xulqingni rost etgil, har sorig'aki borsang,
«Ahsanta» der bori el, gar yaxshi ot chiqarsang, —

desa; boshqalarga doimo yaxshilik qilish eng olijanob fazilat ekanini ta'kidlab:

Bori elga yaxshilig' qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q,
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig', —

kabi misralar orqali ifodalaydi.

O'z ijodida ezgulikni, inoqlikni, vafodorlikni ardoqlagan shoir o'zidan avvalgi kasbdoshlariga ergashib yovuzlikni, zulmni, qabihlikni qoralaydi. Xalqimizning «Ekkaningni — o'rasan» degan naqliga amal qilib:

*Har kimki vazo qilsa, vazo topqusidir,
Har kimki jazo qilsa, jazo topqusidir.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir, —*

deb yozadiki, Bobur she'rlarida bunday hayotiy, jozibali misralar ko'plab topiladi.

Bobur fikricha, yoshlar shaxsini hayotning o'zi shakllantiradi, lekin bunda mehnat va mehnatda toblanish muhimdir. Mehnat qilgan va mashaqqat chekkan kishilardangina chinakam insoniy fazilatlar tarkib topadi...

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahrda fan, madaniyat, ta'lim qanday rivojlandi?
2. Nima sababdan XIV asrning ikkinchi yarmi — XVI asrlar Sharq Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deyiladi?
3. Amir Temurning ta'lim-tarbiya taraqqiyotida tutgan o'rni haqida gapirib bering.
4. Ulug'bekning fan va ta'limni rivojlantirishdagi xizmatlari nimalardan iborat?
5. Boburning ilm-fan taraqqiyoti va ma'rifiy-axloqiy tarbiyada tutgan o'rni haqida so'zlab bering.

Mustaqil ish

«Boburnoma» asarini o'rganish va tahlil qilish.

Abdurahmon Jomiy

(1414 — 1492)

Abdurahmon Jomiy XV asrda yashagan mutafakkirlar kabi inson va uning yuksak axloqiy xislatlari, go'zal fazilatlarini tarannum etish orqali kishilarning baxt-saodatini ta'minlash yo'llari xususidagi g'oyalarni ifoda etadi.

Allomaning to'liq ismi Nuriddin Abdurahmon ibni Ahmaddir. U 1414-yilning 7 noyabrida tavallud topgan.

Abdurahmon Jomiyilar oilasi keyinchalik Hirot shahriga ko'chib o'tadi. Bu davrda Xurosonda Shohrux Mirzo hukmronlik qilar, Hirot shahri esa, eng yirik madaniy markazlardan biri sanalardi.

Yosh Nuriddin Abdurahmon maktabga juda erta qatnay boshlagan. Uning otasi o'z davrining ziyoli kishilaridan bo'lganligi uchun o'g'lining bolalikdan bilim olishiga katta e'tibor bergan.

Abdurahmon maktabni tamomlagach, «Nizomiya» madrasasida tahsilni davom ettirdi. Madrasada tahsil olish davrida u arab tili grammatikasini puxta o'rgandi, aruz, qofiya ilmidan saboq oldi. Ayni vaqtda Sa'diddin Koshg'ariy, Shayx Bahoviddin Umar va Mavlono Muhammad Asad kabi allomalarning qo'lida o'qidi.

Biroq Abdurahmon Jomiy o'zi egallagan bilimlari darajasidan qoniqmasdi. Shu bois Samarqand shahriga yo'l oladi. Bu davrda Samarqand ulug' mutafakkir Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning boshqaruvi ostida bo'lib, u madaniyat va ma'rifat o'chog'iga aylangan edi. Samarqandda Abdurahmon Jomiy o'z zamonasining etuk olimi Qozizoda Rumiy tomonidan o'qilgan ma'ruzalarni tinglashga muvaffaq bo'ldi.

Abdurahmon Jomiy tinimsiz izlanish, o'qib-o'rganish evaziga matematika, arab tili va adabiyoti, sintaksis, musiqa, falakiyot, falsafa, fiqh, notiqlik san'ati, Qur'onni qiroat bilan o'qish va sharhlash kabi fanlardan chuqur bilimga ega bo'ldi.

Alloma va she'riyat mulkinging sultoni Alisher Navoiy o'rtasida mustahkam do'stona aloqa mavjud bo'lib, ushbu aloqa ham badiiy ijod, ham maishiy turmush, ham ijtimoiy munosabatlar sohasida yaqqol ko'zga tashlanar edi...

Alloma uchta lirik devoni, ta'lim-tarbiya masalalariga oid «Bahoriston», ettita dostonni o'z ichiga olgan «Haft avrang» («Etti taxt») nomli asarlari bilan jahon madaniyati taraqqiyotida munosib o'ringa ega bo'ldi.

Abdurahmon Jomiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari «Bahoriston» asari hamda «Haft avrang» («Etti taxt») asarining tarkibidan o'rin olgan «Tuhfat ul-ahror» va «Silsilat uz-zahab» dostonlarida aks etadi. Allomaning «Bahoriston» asari Muslihiddin Sa'diyning «Guliston» asari yaratilgan uslubda yozilgan. Unda Jomiy haqiqiy kamolotga erishgan inson va uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi borasida to'xtaladi.

«Haft avrang» asarining birinchi dostoni «Tuhfat ul-ahror»da Abdurahmon Jomiy ilmning inson hayotidagi ahamiyatini ko'rsatib berar ekan, ilm har qanday muammoni echishda insonga yordam berishini ko'rsatadi.

Alloma «Silsilat uz-zahab» dostonining «Sevimli aziz farzandga nasihat» nomli bobida har bir yoshning bilim olishi zarurat ekanligini ta'kidlaydi. Zero, inson umri juda qisqa, u umrni behuda o'tkazmasligi, muayyan darajada bilimlarni egallagandan so'ng unga amal qilish lozim, amaliyotda qo'llanilmaydigan ilm behudadir.

Abdurahmon Jomiy ilmning ahamiyati borasida to'xtalar ekan, kitobning mavjud bilimlarni egallashdagi o'rni hamda kitobning fazilatlarini ochib beradi. Chunonchi:

*Kitobga yuz o'girgin, ey, jigarim farzandim,
Kitobga ulfat bo'lg'in, quloqqa ol bu pandim.
Tanholikda munising, bilsang agar kitobdir,
Donolikning tongiga, shu'la sochar kitobdir.
Bepul, beminnat senga, ustoz bo'lib o'qitar,
Bilim bag'ishlab senga, chigallaringni yechar,
Kitobdur yaxshi hamdam, teri yopingan olim,
Ish siridan goh so'zlab, ammo goho turar jim.
Uning ichi g'unchadek, varaqlardan liq to'la,
Har varag'i go'yoki, durdonadir bir yo'la.*

Alloma kitobni «teri yopingan olim»ga qiyoslaydi.

Abdurahmon Jomiy bilimlarni yoshlikdan egallash maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi. Ayni o'rinda johillikni qoralab, dono bilan nodon kishilarni bir-birlariga qarama-qarshi qo'yadi:

*Hamman avval farzand, bilimdan bahramand bo'l,
Nodonlik yurtidan chiq, bilim tomon olgil yo'l.
Har bir kishiga bu so'z, oyna kabi ayondir,
Dono tirik hamisha, nodon o'tiksmondir.*

Abdurahmon Jomiy donolikni olqishlar ekan, avvalo, mamlakatni boshqaruvchi hukmdorlar ilmi bo'lishi zarurligini, agar rahbar nodon, johil bo'lsa, el boshiga juda ko'p kulfat va zulm yog'ilishi mumkinligiga alohida diqqatni tortadi:

*Nodonga rahbarlik qilsa gar dono,
Ilmidan ishlar ham bo'ladi a'lo.*

*Dono suhbatidan bosh tortsa nodon,
Davrondan yaxshilik ko'rmas hech qachon.
Shoh agar bo'lmasa bilimdon, hakim,
Jahl botqog'ida bo'lur muqim.
Yog'ar undan doim, jaholat, o'lim,
El boshiga tushar nadomat, zulm.*

«Bahoriston» asarida esa, ilmni behuda egallamaslik, har bir shaxs jamiyat va o'zi uchun foydasi tegadigan ilmlarni egallashi zarurligini ta'kidlaydi:

*Eng zarur bilimni qunt bilan o'rgan,
Zarur bo'lmaganni axtarib yurma.
Zarurini hosil qilgandan keyin,
Unga amal qilmay umr o'tkurma.*

Darhaqiqat, Jomiy bu o'rinda ilmning inson uchun ahamiyati darajasini to'g'ri talqin etadi. Alloma ilm va hunarni e'zozlagan rahbarning o'z xalqi hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lishi hamda rahbar qachonki, elning ehtiromiga muyassar bo'lar ekan, ana shundagina mamlakat gullab-yashnashi mumkinligini ta'kidlaydi.

Jomiy asarda bilimning inson hayotidagi ahamiyati, jamiyat taraqqiyotini belgilashdagi o'rnini ochib berish bilan birga, har bir kishi tomonidan biror hunar sirlarini o'zlashtirish foydadan holi bo'lmashligini uqtiradi. Ayni o'rinda insonning qadr-qimmatini uning molu mulki bilan emas, aksincha, u egallagan hunarning kishilar maishiy hayoti farovonligini ta'minlashdagi ahamiyati bilan belgilanishini ta'kidlaydi:

Mutafakkir bilim hamda hunarsiz kishini o'tindan boshqa narsaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o'xshatadi. U har bir yoshni ilmu hunar sirlarini o'rganishga, bu yo'lga sabrli, matonatli bo'lishga undaydi. Ilmu hunar kishi mushkul ahvolga tushib qolgan damlarda ham asqotuvchi vosita, aksariyat hollarda esa kishi nomini abadiylashtirilishini ta'minlovchi omil ekanligini qayta-qayta uqtirar ekan, har bir inson xoh yosh, xoh keksa, xoh shohu xoh gadoy bo'lsin, hunar o'rganishi farz ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur fikrning haqqoniyligini «Iskandar xiradnomasi» dostonida sohibqiron Iskandarning ilmu hunar o'rganish yo'lidagi sa'i-harakatlarini boshqalarga nisbatan namuna sifatida ko'rsatish orqali ochib beradi. Farzandining bilim, hunar va donishmandlik sirlarini o'rganib olishi uni baxt-saodatga olib boruvchi yo'l ekanligini chuqur anglab etgan yunon podshohi Faylaqus o'g'li Iskandarni mashhur

olim, mutafakkir Arastuning oldiga olib borib, unga ilmu hunar sirlarini o'rgatishni iltimos qiladi. Arastu Iskandarning layoqati, ilmu hunar o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini inobatga olgan holda unga mavjud bilimlarni o'rgatish bilan birga, uni davlatni muvaffaqiyatli boshqarish sirlaridan ham ogoh etadi. Iskandar qiyofasida namoyon bo'lgan ishtiyoq, ilmu hunar o'rganish yo'lida har qanday mashaqqatlardan cho'chimaslik xislati uning etuk, bilimli, mard va o'ta darajada ziyrak inson bo'lib shakllanishiga yordam beradi. Abdurahmon Jomiy ushbu holatni quyidagi misralar orqali yorqin ifoda etadi:

*Iskandarning tab'i hunarsanj edi,
Dilida hunardan g'azna – ganj edi.
Hech zoe ketmadi chekkan mashaqqat,
Yo'liga kiritdi bir olam hikmat.
Ziyrak aqli bilan do'stlaridan ham,
Har sohada o'zib ketardi ildam...
Bilim yo'lida tik, to'g'ri bo'ldi u,
Donolar nazdida hikmat faqat shu...
Qadam qo'ysa hikmat to'la dil bilan,
Hamma vaqt hamma yoq bo'ladi ravshan.*

Abdurahmon Jomiy insonni shaxs sifatida tarbiyalashda moddiy omillar bilan birga, ma'naviy omillarning o'rni ham beqiyos ekanligini ta'kidlagan holda, mazkur omillar sirasida musiqaning alohida o'rni borligini ko'rsatib beradi. Alloma «Musiqah haqida risola» nomli asarida musiqa ilmining shakllanishi, ohanglarning turlari, maqom kuylarining mazmuni, musiqa asboblari hamda ularning vazifalari borasidagi ma'lumotlarni bayon etar ekan, musiqaning inson ruhiga turlicha ta'sir ko'rsatishini aytib o'tadi. Xususan, ayrim musiqiy asarlar insonning ruhiyatiga ijobiy ta'sir etib, uning kayfiyatini ko'tarsa, ayrim kuy yoki qo'shiqlar kishida tushkun kayfiyatni hosil qilishiga e'tibor qaratadi.

Alloma dono hamda nodon odamlarni bir-birlariga qarama-qarshi qo'yadi. Bilimli, dono insonlar bilan bilimsiz, nodon insonlar o'rtasida hamkorlik, hamfikirlik yuzaga kelmaydi, zero, nodon hamisha muayyan xatti-harakatlarning asl mohiyatini to'g'ri baholay olmaydi. Abdurahmon Jomiy o'zining «Bahoriston» asarida mazkur fikrning nechog'li haqiqat ekanligini quyidagi misollar orqali ochib beradi:

«Bir bo'zchi bir olimga pulini omonat qo'ygan edi. Bir necha kundan keyin o'ziga kerak bo'lib qoldi va olimning uyiga keldi. Olim eshigi tagidagi supada o'tirib mudarrislik qilar, oldida shogirdlari saf tortib o'tirishar edi.

– Ey, ustod, kechagi omonatni bersang, kerak bo'lib qoldi, – dedi bo'zchi olimga.

– Birpas o'tir, darsim tamom bo'lsin.

Bo'zchi kutib o'tirdi, ammo dars cho'zilib ketdi, domlaning dars paytida boshini chayqab qo'yish odati bor edi. Shoshib turgan kosib buni ko'rib, dars berish bosh qimirlatishdan iborat ekan, deb o'yladi-da, ustodga:

– Sen kirib omonatni olib chiq, sening o'rningga men bosh irg'ab turay, ishim zarur, – dedi.

*Donishmand buni eshitib kulib dedi:
Bilimdin lofurar shahar faqihi,
Har ilmni bilar oshkoru nihon.
Undan ne so'rasang qo'l bilan imo,
Yoki bosh irg'ishlab qiladi oson».*

Abdurahmon Jomiy asarlarida ham shaxs tarbiyasini samarali tashkil etish masalalariga katta e'tibor beriladi. Yetuk insonga xos bo'lgan axloqiy xislatlar uning barcha asarlarida keng ifoda etiladi. Xususan, komil inson qiyofasida aks etuvchi ma'naviy-axloqiy sifatlar – yaxshilik, saxiylik, shirinsuxanlik, kamtarlik, sabr-qanoat, rostgo'ylik, do'stlik, mehnatsevarlik kabilarni tarbiyalash zarurligi ta'kidlanadi. Saxovat, kamtarlik hamda oliyjanoblikni esa eng ulug' insoniy fazilatlaridan deb biladi. «Bahoriston» asarida alloma «saxovat biror narsaga qarab yoki biror narsa evaziga bo'lsa, hatto talab etilgan narsa maqto'v va minnatdorlik bo'lgani taqdirda ham u saxovat emas», – deydi.

*Saxiy dema saxovatiga,
Biror talab qo'ysa gar odam.
Saxiylikmas, bu savdogarlik,
Bunda yo'qdir sharaf va karam.
Saxovatdan kimning maqsadi –
Agar bo'lsa shuhrat, ovoza,
Ahli karam shahrida unga,
Har doim berkdur darvoza.*

Abdurahmon Jomiy inson qanoatda hirs va ta'madan uzoq bo'lishini istaydi. Bu boradagi fikr «Bahoriston» asarida quyidagi hikoyat misolida yanada yorqin ifoda etilgan:

«Itidan so'radilar:

– Nima uchun sen bor uyga gado qadami etmaydi, sen yotgan ostonani tilamchi hatlab o'tmaydi?

– Men hirs va ta'madan yiroqman, – dedi it. – Ta'masizlik va qanoat-da mashhurman. Dasturxondan bir burda nonga qanoat qilaman, qozon-dan bir g'ajilgan ustuxonga xursand bo'laman. Ammo tilanchi hirs va ta'mada shuhrat qozongan. U hamma vaqt ochman, deb noliydi. Orqasida bir haftalik ovqatu qo'lida gadolik hassasi. Qanoat hamma vaqt hirsu ta'madan uzoq, qanoatli ham ta'magir bilan bo'lolmas o'rtoq.

*Kimning qalb diliga kirdi qanoat,
Hirs bilan ta'madan qutuldi bori.
Qanoat gilami to'shalgan erda
Sindi ochko'zligu ta'ma bozori.*

Jomiy kamtarlikni targ'ib etar ekan, kibr-havo, manmanlik, razolat, johillik kabi illatlarni qoralaydi.

*Takabburlik ziyondir, undan andisha qilg'il,
Ko'rdingmi, u boshhoqni, bosh ko'tardi va bo'ldi,
O'roqning zarbi bilan erga yiqildi, so'ldi.
Ko'rdingmi, don o'zini, tuproqqa tashlar kamtar,
Uni avaylab erdan ko'targusidir qushlar.
Kimki kamtarlik aylar, udir ulug'likka xos,
Egilgan boshni har kim, ulug'laydi beqiyos.*

Jomiy asarlarining mazmunida ulug'langan yana bir insoniy sifat, bu – do'stlik va unga nisbatan sadoqatli bo'lish g'oyasidir. Insonlar bir-birlari bilan ijtimoiy munosabatga kirishar ekanlar, ular o'rtasida yuzaga keluvchi do'stona munosabat yuksak kamolotning yorqin belgisi sifatida namoyon bo'ladi, deydi alloma. U haqiqiy do'stlikning muhim belgilari sirasiga do'stga sodiqlik, qiyin vaziyatlarda undan qochmaslik, aksincha, hamdard, mehribon bo'lish, do'stligi evaziga biror narsani ta'ma qilmaslik kabi xislatlarni kiritadi.

*Chin do'st ul – do'stligi oshaversa gar,
Do'stidan yomonlik ko'rganida ham.
Boshiga ming jaf o'shi yog'lsa,
Mehr uyi u toshdan bo'lur mustahkam.
Do'st hajridan oshiq kutar adolat,
Yo vasl eshigida turar bir holat.
Do'stlikdan o'zga bir maqsadi bo'lsa,
Olamda bormi hech bundan razolat.*

«Iskandar xiradnomasi» dostonining «Iskandarning pokizalar shahriga etishi» bobida ifoda etilgan yetuk insonga xos xislatlar borasidagi qarashlar Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asaridan joy olgan «Fozillar shahri hokimining fazilatları» bandida ilgari surilgan fikrlar bilan o'zaro uyg'undir. Har ikki asarda ham fozillar shahri aholisiga xos bo'lgan xislatlar yaxshilikning g'olib kelishi barcha yomon illatlar – urush, nizo, jaholat, zulm, boylikka hirs qo'yish hamda ta'magirlikning barham topishi asosida kechishini ochib beriladi.

Iskandar jahon kezib, nihoyat bir shaharga keladi. Bu shahar aholisining ma'naviy-axloqiy qiyofasi, ularning turmush tarzi shohni lol qoldiradi. Shaharda odamlar tinch, osoyishta, urush-janjallarsiz hayot kechiradilar; barcha birdek mehnat bilan shug'ullanadi; o'g'ri yo'q, shu bois barcha eshiklar qulfsiz. U yerda adolat hukmron, fuqarolar o'rtasida o'zaro yordam va hamjihatlik hissi qaror topgan. Bunday hayot tarzi ushbu shahar aholisiga ota-bobolaridan meros qolgan bo'lib, ular mavjud an'analarni e'zozlab asraydilar va ularga qat'iy amal qiladilar.

Abdurahmon Jomiyning tasavvurlarida shakllangan «Pokizalar shahri» allomaning yuksak orzu-umidlari timsoli, har jihatdan mukammal, ideal ijtimoiy tuzum namunasidir.

Mutafakkirning qarashlariga ko'ra, etuk, komil inson elu yurt manfaati yo'lida xizmat qilib, yaxshi nom qoldirishi zarur. «Silsilat uz-zahab» dostonida bayon etilgan quyidagi pandlar Jomiyning ijtimoiy qarashlari mohiyatini aks ettiruvchi umumiy g'oya sanaladi:

*O'z koningdan tashqari qo'ygil qadam,
Gavharingni ayta pardoz dam-badam.
Konda gavhar yotgani befoйда,
El uchun undan kelur ne foyda.
Qoldiray desang jahonda yaxshi nom,
Yaxshilik qil, yaxshilik qilgil mudom.
Yaxshilikni sen o'zingga pesho qil,
Hech kishiga ranju ozor bermagil.*

Asarda alloma yana tarbiya masalalari xususida so'z yuritar ekan, ijtimoiy tarbiyani tashkil etishga jiddiy e'tibor berishni maqsadga muvofiq deb topadi. Biroq tarbiyani izchil va uzluksiz yo'lga qo'yishga erishishni bu yo'ldagi muhim vazifa deb hisoblaydi. Zero, har qanday giyohni ham parvarishlash asosidagina undan yaxshi hosil olishni ko'zlash mumkin. Agarda insonga uning bolaligidanoq yaxshi tarbiya berilsa, u komil inson bo'lib voyaga etishiga ishonch bildiriladi. Abdurahmon Jomiyning «Silsilat uz-zahab» dostonining tarkibiga kiritilgan «Tarbiyaning ahamiyati haqida» nomli bobning mazmunida quyidagi fikrlar ifoda etiladi:

*Yoqilsa olov, boshda yaxshi yonar,
Agar topmasa parvarish tez so'nar.
Temir yoki toshdan chiqarsang-da, o't,
O'tinsiz bo'lur ushbu o't besubut.
O'tin-la olov bo'lsa gar hamnafas,
Alanga olib gurkirar basma-bas.
Qalasang agar unga tutanturuq,
O'shancha bo'lur shu'lasi ham bo'luq.
Alanga bo'lur barcha uchqunlari,
Yonib turg'usidir tunu kunlari.
Yurak o'ti ham xuddi shunday erur,
Agar parvarish topsa mangu turur.*

Abdurahmon Jomiy asarlarida yaxshilik barkamol insonga xos bo'lgan muhim axloqiy xislat mohiyatini ifoda etuvchi xatti-harakat sifatida ulug'lanilishi bejiz emas. Zero, yer yuzida yaxshilik va yomonlikning mangu barqaror bo'lishi, ular o'rtasida boradigan abadiy kurash, yaxshilik va ezgulikning yomonlik va yovuzlik ustidan g'olib kelishiga bo'lgan yuksak ishonch tuyg'usi eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklardan, barcha pandnoma janrida yaratilgan ma'rifiy asarlarning asosini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Jomiyning etti dostonidan iborat «Haft avrang» asarining «Tuhfat ul-ahror», «Sabhat ul-abror» («Yaxshilar tasbihi»), «Silsilat uz-zahab» («Oltin tizmalar») kabi falsafiy-axloqiy asarlari hamda «Xiradnomai Iskandar» nomli dostonida allomaning barkamol inson tarbiyasiga oid umuminsoniy g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Alisher Navoiy (1441 — 1501)

O'zbek adabiyotining asoschisi, davlat arbobi Alisher Navoiy 1441-yil 9 fevralda Hirot shahrida tug'ilgan. Alisher favqulodda iste'dod egasi bo'lgan, iste'dodining dastlabki uchqunlari u uch-to'rt yoshligidayoq namoyon bo'la boshlagan. Shu vaqtda u Fariddidin Attorning «Mantiq ut-tayr» asarini yod oladi.

Alisherdagi ilm o'rganishga bo'lgan kuchli qiziqish hamda ishtiyoqni o'z vaqtida anglagan ota-onasi uni 1445-yili maktabga beradilar. Maktabda tahsil olayotgan chog'larida o'tmish mutafakkirlari va o'z zamonasining zabardast shoirlarining ijodlari bilan yaqindan tanishadi. Mazkur davrda mavjud badiiy asarlar mazmunini o'qib-o'rganish bilan kifoyalanib qolmay, mustaqil ravishda she'rlar yoza boshlaydi. Alisher tomonidan yaratilgan

she'riy misralar o'zida yuksak badiiy va falsafiy fikrlarni aks ettirar edi. Chunonchi, uning ustozlari Lutfiyga o'qib bergan quyidagi misralari bugungi kunga qadar she'riyat ixlosmandlarining hayratiga sazovor bo'lib kelmoqda:

*Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lgach quyosh.*

Bilimlarni chuqur o'zlashtirgan Alisher Navoiy xalq orasida hurmat-e'tibor qozonadi. Bolalikdan birga ulg'aygan do'sti sulton Husayn Boyqaro Alisher Navoiyning iste'dodi, bilimi hamda hayotiy qarashlarini yuksak qadrlagan holda uni o'ziga vazir etib tayinlaydi. Davlat arbobi sifatida faoliyat olib borgan Alisher Navoiy fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, xattotlik, tasviriy san'at hamda me'morlikning rivoji yo'lida amaliy harakatlar olib borish bilan birga, yoshlarga ta'lim va tarbiya berish masalalariga ham alohida diqqat-e'tibor qaratdi. Ulug' mutafakkir o'zining «Xamsa», «Mahbub ul-qulub», «Munojot», «Vaqfiya», «Majolis un-nafois», «Muhokamat ul-lug'atayin», Abdurahmon Jomiyning «Arba'in» nomli asarining tarjimasi sifatida yaratilgan «Chihil hadis» («Qirq hadis») kabi asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga oid qarashlarini ifoda etadi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ular qiyofasida namoyon bo'luvchi ma'naviy-axloqiy sifatlarni ulug'lagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy muammolarni yorituvchi asarlarida esa komil insonni shakllantirish jarayonining mazmuni, ushbu jarayonning o'ziga xos jihatlari, yo'llari, shakl va usullari borasidagi mulohazalarni bayon etadi.

Alloma tomonidan yaratilgan asarlar mazmunidan anglashiladiki, ularda ilgari surilgan qarashlarning markazida inson va uning kamolotini ta'minlash g'oyasi turadi. Bunaqda navoiyshunos olim V. Zohidov quyidagi fikrni bildiradi: «Navoiy ijodi hamda amaliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi, yo'nalish nuqtasi har narsadan oldin inson, uning taqdiri, baxti, saodati, uning yaxshi yashashi, buning uchun zarur jamiyat masalalaridir».

Allomaning tasavvuridagi komil inson o'z qiyofasida eng yuksak insoniy fazilatlarini mujassam eta olishi lozim. Chunonchi, u ijodkor, qobiliyatli, shu bilan birga, ilm-fanga muhabbatli bo'lmog'i zarur. Alisher Navoiyning qarashlariga ko'ra, ana shunday sifatlarning sohibi bo'la olgan insongina o'z kuchi hamda aqlu zakovatiga ishonadi. O'z kuchi va aqlu zakovatiga qattiq ishongan insongina turli qiyinchiliklarga bardosh bera oladi, u o'ta murakkab muammolarni ham hal qila olishga qodir. Ilm-fan sirlaridan xabardor bo'lishning inson uchun ahamiyatini yoritarkan, alloma ayni o'rinda ilmni qorong'ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini

nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsata oluvchi omil sifatida ta'riflaydi. Ushbu fikr mutafakkir tomonidan yaratilgan «Nazm ul-javohir» asarida quyidagicha bayon etiladi:

*Kim olim esa, nuqtada barhaq de oni,
Gar bazm tuzar, bihishti mutlaq de oni.
Har kimsaki, yo'q ilm anda ahmaq de oni,
Majlisdaki ilm bo'lsa uchmaq de oni.*

Mazkur baytlarning mazmunida ilmi, oqil odam o'z maqsadiga erishish yo'lida uchraydigan har qanday qiyinchilikni yengib o'tadi, kim ilmni o'ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, zero, ilm insonning baxt-saodatini ta'minlashga xizmat qiladi degan g'oya o'z aksini topgan.

«Hayrat ul-abror» dostonining o'n birinchi maqolatida esa ilm quyosh, oy hamda kunduz sifatida quyidagicha ta'riflanadi: «Ilm sipehrining baland axtarlig'idakim, jahl tunini, yorutmoq uchun «ayn»i quyoshdin va «lom»i oydin va «mim»i kunduzdin nishona aytur. Va jahl shomi tiyra manzarlig'idakim, g'aflat chohini zalolat kechasida zohir qilib, bu kechada shaqovatdin fasona aytur. Va olimning bovujudi falokat quyoshdek sarbalanlig'i va johilning bovujudi ganju mol tufrog' aro najandlig'i» («Ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqidakim, bilimsizlik tunini yoritish uchun «ayn»i quyosh, «lom»i oy, «mim»i esa kunduz belgilarini ko'rsatadi; bilimsizlik shomining qorong'i ko'rinishi haqidakim, g'aflat chohini pastlik kechasida zohir qilib, bu kechada baxtsizikdan hikoya aytadi; olimning butun baxtsiz vujudining quyoshdek yuksakligi, johilning esa butun borlig'i boylik, mol bo'lsa ham tuproqdek xorligi»). Ushbu o'rinda «ayn»ning ma'nosi quyosh, «lom»ning ma'nosi oy (shaklan oyga o'xshaydi va abjad hisobida «o'ttiz»ni bildiradi), «mim»ning ma'nosi esa kunduz ekanligiga alohida urg'u beriladi. Alisher Navoiy ilmni quyosh, oy hamda kunduzga o'xshatish orqali u insonni baxt-saodatga eltuvchi vosita ekanligiga e'tiborni qaratadi.

Alisher Navoiy ilm o'rganishga intilishni inson kamolotini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. Ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqazuvchi omil sifatida ta'riflaydi. Asarlari mazmunida ilgari surilgan g'oyalar yordamida kishilarni ilmi va ma'rifatli bo'lishga undaydi. Mutafakkir ilm o'rganishni har bir kishining insoniy burchi deya e'tirof etadi.

Bilimli va dono kishilar o'z xalqining manfaati hamda mamlakatining ravnaqi yo'lida faoliyat olib borishlariga ishonadi. Shu o'rinda Mirzo Ulug'bekni ana shunday xislatga ega bo'lgan kishilardan biri bo'lganligini

aytadi va uning nomi tarix sahifalarida abadiy saqlanib qoladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmi bo'lish bilan qanoatlanib qolmaydi. Uni yetuk inson sifatida ta'riflash uchun unda, yana sabr-qanoat, saxiylik, himmat, to'g'rilik, rostgo'ylik, tavoze, adab, vafo va hokazo sifatlarining ham mavjud bo'lishi taqozo etiladi.

Alisher Navoiy asarlari mazmunida o'z aksini topgan har bir fikr amaliy ahamiyatga ega, zero, mutafakkir ularni o'zining ulkan hayotiy tajribasiga tayangan holda bayon etadi. Alloma uzoq yillar davomida olib borgan hayotiy kuzatishlari va tajribasi asosida «Mahbub ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani») asarini yaratadi. Bu asarda «Hayrat ul-abror», «Nazm ul-javohir» kabi ta'limiy-axloqiy asarlarida ilgari surilgan axloqiy qarashlarni mazmun jihatidan yanada boyitadi.

Mutafakkir «Mahbub ul-qulub» asarini yozishdan ko'zlagan asosiy maqsadini asar muqaddimasida quyidagi tarzda ochib bergan: «Har ko'cha-ko'ya yuguribman va olam ahlidin har xil kishilarga o'zimni yetkazibman, yaxshi va yomonning fe'l-atvorini bilibman, yomon-yaxshi xislatlarini tajriba qilibman.

Yaxshilik va yomonlikning aslaini ham, zahrini ham totib ko'rdim. Xasislar va karamlar etkazgan yara va bergan malhamni ko'nglim tag-tugi bilan sezgandirman. Zamon ahlidan ba'zi hamsuhbatlar va davr kishilaridan ayrim do'stlar bu hollardan xabarsiz va ko'ngillari bu yaxshilik va yomonliklardan asarsizdir...

Bu xildagi hamsuhbat va do'stlarni xabardor qilmoq va bu hollardan ogohlantirmoq lozim ko'rinadiki, har toifaning xislatlaridan ma'lumotlari va har tabaqaning ahvolidin bilimlari bo'lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar va nomunosib odamlar suhbatidan tortinishni zarur bilsinlar va barcha odamlar bilan maxfiy sirlardan so'z ochmasinlar. Shaytonsifatlar hiyla va aldovlariga o'yinchoq bo'lib qolmasinlar. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa, bu borada kaminaning tajribasi yoshlar uchun yetarlidir».

Asar uch qismdan iborat. Navoiyning o'zi ta'kidlaganidek, asarning birinchi qismida turli toifaga mansub odamlarning fe'l-atvorlari; ikkinchi qismida yaxshi xislatlar va yomon fe'llar, ularning o'ziga xos jihatlari; uchinchi qismida esa, yaxshi fe'l va xislatlar, insonda ularni shakllantirishga oid qarashlar bayon etiladi.

Alloma mazkur asarda kishilarni munosib va nomunosib kishilar tarzida ikki toifaga ajratadi. Har bir insonning hayotda uchraydigan nomunosib kishilarni yaxshi xulqli insonlardan ajrata olish layoqatiga ega bo'lishi muhim ekanligi, yomon xislatlarga ega kishilar bilan munosabatda bo'lishdan saqlanish lozimligini uqtirib o'tar ekan, bu

borada «Mahbub ul-qulub» asaridan foydalanish foydadan xoli bo'lmashligini ta'kidlaydi. Mazkur holat Alisher Navoiyning shaxsiy hayotiy tajribalari asosida yoshlarni komil inson bo'lib voyaga yetishishga undashidan dalolat beradi.

P. [Navoiy ilm-fanning inson kamolotidagi o'rni,] bilimlarni o'rganish asosida hosil bo'lgan aql va idrokning inson hayotidagi ahamiyati, aqliy tarbiya va uning mohiyatini yoritishga alohida e'tibor qaratadi. Alloma insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar xususida so'z yuritadi hamda mazkur sifatlarning har biriga ta'rif berib o'tadi. Qanoat, sabr, tavoze(adab), o'zgalarga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lish, ishqda vafodorlik, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoqko'ngillik (hilm) kabi xislatlarni ijobiy fazilatlar sirasiga kiritadi va ularning har biriga ta'rif berganidan so'ng tanbeh va hikoyatlar vositasida shaxsiy qarashlarini dalillar bilan to'ldiradi. Asarda axloqiy fazilatlarining antonimi hisoblangan salbiy illatlar va ulardan qutulish yo'llari ham bayon etilgan.

Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo'lish insonga atrofdagi kishilar o'rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo'lishga yordam beradi. «Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo'ladi, – deydi adib. – Adab, kichiklarni mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi. Yoshlarni ko'zga ulug' ko'rsatadi. Ularning yurish-turishini xalq ulug'vor biladi. O'ziga qarshi xalq tomonidan bo'ladigan hurmatsizlik eshigini bog'laydi va kishini hazil-mazaxdan va kamsitilishidan saqlaydi. Kishi tabiatini insonlik yo'liga soladi va odam mizojiga odamgarchilik manzilida orom beradi. Kichiklarga undan muncha natija hosil bo'lgach, kattalarga allaqachon bo'lishini ko'rarsan.

Adabdan muhabbatga bezak va pardo yetadi, adab tarkidan do'stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavozu do'stlik ko'zgusini yarqirata-tadi, ikki tomondan yorug'lik yetkazadi.

Tavozuli va adablilarga ta'zim va hurmat yetadi va u urug'ni ekkan bu qimmatbaho hosilni to'plab oladi. Xalq muomalasida yaxshi axloqning boshlang'ichi shu xislatlar va bu xislat qattiq o'rnashsa, muhabbatga xalal etishi maholdir. Agar har ikki tomonda yaxshi xulq bo'lsa, adabi va tavozu evaziga ta'zim paydo bo'ladi».

Demak, yaxshi xulqning asosi bo'lgan odob Alisher Navoiyning talqinida barcha insoniy xislatlarning bosh bo'g'ini sanaladi. Qanoat, sabr, tavoze, ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm kabi fazilatlarining odobli, axloqli kishilar qiyofasidagina namoyon bo'lishini uqtiradi. Mutafakkir insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar xu-

susidagi fikrlarini ularning har biriga ta'rif berish asosida davom ettiradi. Chunonchi, «Qanoat – buloqdir – suvi olgan bilan qurimaydi. Xazinadir – naqdinasi sochilgani bilan kamaymaydir. Ekinzordir – urug'i izzat va shavkat mevasi beradir. Daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi etkizadi.

Kimki, qanoatga odatlansa, shoh va gadoy bordi-keldisidan ozod bo'ladi. Qanoat qo'rg'ondir, u erga kirsang nafs yomonligidan qutularsan, tog'liklardir – u erga chiqsang dushman va do'stga qaramlikdan xalos bo'larsan; tubanlashishdir – natijasi yuksaklik; zoriqishlikdir – foydasi ehtiyotkorlik urug'ining mevasi farovonlik».

Alisher Navoiy qanoatni to'ldiruvchi insoniy fazilatlar sabr, saxiylik, karam, muruvvat, himmat ekanligini ta'kidlab o'tadi. Mazkur xislatlarning bir-biriga yaqinligi hamda ularni insonning obro'-e'tiborini yuksak darajaga ko'tarishga xizmat qiluvchi xislatlar sanalishini aytib o'tadi. Ayni o'rinda sabr deb ataluvchi xislatga shunday ta'rif beradi: «Sabr achchiqdir – ammo foyda beruvchi, qattiqdir – ammo zararni daf etuvchi. Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir.

U o'rtoqdir – suhbatlari zeriktirarli, ammo maqsadga olib boruvchi; u ulfatdir – umidi uzun, ammo oxiri istakka eltuvchi.

Ulovdir – yurishi taxir, ammo manzilga etkazuvchi; tuyadir – qadami og'ir, lekin bekatga tushiruvchi.

Achchiq so'zli nasihatchiday tabiat undan olinadi, lekin zaminida maqsad hosil bo'ladi. Badxo'r dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo so'ngida sog'liq yuz beradi».

Asarda saxiylik sifatiga esa insoniylikning haqiqiy mezoni deya ta'rif beriladi. Navoiy talqinicha, saxiylik, saxovat odamlarning mushkulini oson qilish maqsadida ularga beriladigan minnatsiz yordamdir. Alloma insonlarni bir-birlariga nisbatan saxovat ko'rsatishga da'vat etadi. Himmatlilik, muruvvat, karam kabi xislatlar esa saxovatning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ushbu fazilatlariga ta'rif berar ekan, mutafakkir quyidagi fikrlarni qayd etadi: «Saxiylik (qo'li ochiqlik) kishilik bog'ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir; odamgarchilik o'lkasining to'liq daryosi, balki u to'liq daryosining asl gavharidir. Yaxshilik, karam – bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko'tarmoq va uni o'sha qiyinchiliklardan qutqarmoqdir. Karam birovning mashaqqat tikani og'irligini ko'tarmoq va tikan uchidan guldek ochilmoq va o'sha qilingan ishni qaytib tilga keltirmaslik, og'ziga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uning yuziga solmaslik». «Muruvvat karamning urug'-avlodi, egizak qarindoshi, kimki bu xislatlarga ega bo'lsa, izzat va hurmatga sazovor bo'ladi» kabi fikrlar asosida esa muruvvat deb ataluvchi

xislatga ta'rif beriladi. Navoiy karam va muruvvat sifatlarini ota-onaga qiyoslasa, vafo va hayoni egizak farzandlardir, deya ta'kidlaydi.

Biroq alloma har qanday ko'rinishdagi ehsonni ham saxiylik deb tushunmaydi. Saxovat ko'rsatayapman deb isrofgarchilikka yo'l qo'yish, yordamini ta'kidlab ko'rsatish va minnat qilishni qoralaydi. Alisher Navoiy saxovat va himmat kabi sifatlarga ta'rif berar ekan, ularning ma'nosini keng ochib beradi. Shu bois ularni ijtimoiy munosabatlar darajasida yoritadi.

Mutafakkir fikricha, qanoat – sharaf va izzatning tantanasidir, molu davlatga ega, biroq ta'magir odamlar xor va pastkash kishilardir.

Asar mazmunida Alisher Navoiy yoshlikning qadriga etish, eng yaxshi xislatlarni o'zida tarbiyalash, nafsni tiyishni ulug'laydi. Takabburlik, manmanlik, faqat o'z foydasini ko'zlab ish yuritish, hasad, g'iybat, yolg'onchilik, nodonlik, johillik, ikkiyuzlamachilik, ta'magirlik, shoshmasho-sharlik, bachkanalik, pala-partishlik, fisqi-fasod, yalqovlik, haromdan hazar qilmaslik kabi illatlarni qoralab, ulardan xalos bo'lish borasida so'z yuritadi.

Quyidagi ruboiy yomon illatlarga ega inson boshiga turli falokatlar yog'ilishi mumkinligi to'g'risida ogoh etadi:

*Uch fe'l erur kishiga qotil oxir,
Qotillik aro zahri halohil oxir.
Buxl angla birin, birin havo bir oxir,
Qil ujbni ham alarg'a doxil oxir.*

Darhaqiqat, Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlari bilan birga, ta'limiy-axloqiy asarlarida ham o'zi orzu etgan yetuk inson qiyofasini yaratadi.

Navoiy asarlarida tasvirlangan qahramonlar – Farhod, Qays, Iskandar obrazlarida jismoniy yetuklik hamda axloqiy kamolot o'z ifodasini topgandir. Insonning sog'lom, baquvvat va axloqli bo'lib yetishishi xususidagi o'gitlar allomaning didaktik-axloqiy asarlarida markaziy o'rinni egallagan.

Aksariyat asarlarda yigit kishi yoshligidanoq o'zlashtirishi shart bo'lgan harbiy-jismoniy xislatlar borasidagi fikrlar ilgari surilar ekan, yoshlarda ularni tarbiyalash yo'llari ko'rsatiladi. Navoiy ham, boshqa mutafakkirlar singari, har bir yigitga quyidagi fazilatlar xos bo'lishi lozimligini aytadi: kamondan ota olish – merganlik, qilichbozlik, suvda suzish, kurash tusha olish. Mutafakkir asarlarida bosh obraz sifatida talqin etilgan qahramonlar o'zlarida ana shu xislatlarni tarkib toptirish-

ga muvaffaq bo'la olgandirlar. Xususan, Farhod, Bahrom hamda Iskandar chavandoz, yengilmas bahodir va mohir mergan bo'lib yetishgandirlar. Ularning jismoniy kamolotga erishish jarayonlarini yoritishga xizmat qiluvchi lavhalar «Farhod va Shirin», «Sab'ai sayyor» va «Saddi Iskandariy» dostonlarida o'z ifodasini topgan. «Sab'ai sayyor» dostonida asar qahramoni Bahromning mohir mergan ekanligini ifodalovchi shunday lavha mavjud: Diloromning istagi bilan shoh Bahrom ovga chiqadi. Ov chog'ida u kamondan o'q otib, bir kiyikning avval ikki oyog'ini juftlaydi, keyin esa ikkinchi o'q bilan kiyikning bo'g'ziga o'q otib, bo'g'izlaydi. Lavha tasvirlangan holat Bahromning naqadar usta mergan ekanligidan dalolat beradi.

Bizga yaxshi ma'lumki, ajdodlarimiz har bir yigitning harbiy-jismoniy mahoratni puxta o'zlashtirishiga alohida e'tibor berib kelganlar. Merganlik, suvda suzish, qilichbozlik, kurash tushish sirlari yosh, o'ktam yigitlarga bu borada chuqur bilim hamda katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan murabbiylar tomonidan o'rgatilgan. Mavjud an'anaga muvofiq Alisher Navoiy ham o'zining badiiy hamda ta'limiy-axloqiy asarlarida yoshlarda ushbu xislatlarni tarbiyalash katta ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Navoiy bilim olish jarayonida barcha fanlar asoslarini chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir, deb hisoblaydi. Shu bois alloma turli fanlar yo'nalishlarida yetuk bilimlarga ega va xalq o'rtasida alohida hurmat-e'tiborli bo'lgan olimu fozillarni yig'ib, ularning yordami bilan ilm-fanning rivojini ta'minlashga e'tiborni qaratadi. Ana shu maqsadda shaxsiy mablag'i evaziga madrasalar barpo etadi, maktablar ochadi. Madrasalarda o'ziga xos tartib-qoidalar muvofiq faoliyat yuritilgan. Talabalardan mavjud tartib-qoidaga qat'iy rioya qilish talab etilgan.

Navoiy bola tarbiyasi bilan oila hamda maktabda shug'ullanish, bola tarbiyasini olib borish jarayonida namuna usulidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida e'tiborni qaratadi. Tarbiya va ta'lim ishlari o'qituvchi, ota-ona tomonidan olib borilishi lozim. Adib bolalarga jismoniy jazo berishdan saqlanish, aksincha, xushmuomalalik bilan yo'l qo'yilgan xatolarning mohiyatini ularga tushuntirish zarurligini, biroq bu o'rinda me'yorga amal qilish zarurligini aytadi. Navoiy o'qituvchining talabchan bo'lishi bolalarning puxta bilim olishlari va ularda axloqiy sifatlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Alloma fan asoslari yoki muayyan kasb-hunar sirlarini o'rganishga layoqatli, iste'dodli bolalarni tarbiyalashga alohida ahamiyat berish jamiyat uchun katta foyda keltiradi, qobiliyatsizni tarbiyalashga urinish befoydadir, degan xulosa-ga keladi, ya'ni: «Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir, qobiliyatsizga

tarbiya hayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma, bunga tarbiyatingni nobud qilma».

Alisher Navoiy asarlarida zamonaviy pedagogika fani asoslari sistemasida muhim o'rin tutuvchi omil o'z-o'zini tarbiyalash masalasi-ning mohiyati ham yoritiladi. Bu borada bildirilgan fikr mazmuniga ko'ra, bolaning o'zi yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini o'zi anglab olishi hamda ularni bartaraf etish uchun imkoniyat yaratish zarur. Mutafakkirning e'tirof etishicha, kimki bu borada yaratilgan imkoniyatdan to'g'ri foydalansa, o'z xatosini anglay oladi va uni bartaraf etishga harakat qiladi; kimki yo'l qo'yilgan xatoni anglash va uni to'g'rilashga harakat qilish o'rniga turli bahonalarni ro'kach qilaversa, xatolari yana bittaga oshishi uchun shaxsan o'zi sharoit yaratadi. Keltirayotgan bahonasi qancha ko'p bo'lsa, uning yanglishishi, xatosi shunchalik katta ko'rinadi, kamchilikning mavjud ekanligini ko'rsatgan kishi bilan tortishish qancha kuchli bo'lsa, el oldida uning obro'si shunchalik pasayadi.

*Xatog'a tadorik nedur bexilof,
Ayon qilmoq o'z sahвига e'tirof.
Vagar qilsa sahvig'a ijro dail,
Ki yaxshidur aylar iki ancha bil.*

Mutafakkirning ilm olish yo'llari xususidagi qarashlari ham muhim ahamiyatga egadir. Alisher Navoiy bilimlarni tinmay, uzluksiz o'rganish zarur, deydi. Bu yo'lda duch keladigan har qanday qiyinchilikni engib o'tish mumkin deb hisoblaydi. Aniq hayotiy maqsadni belgilab olgan holda ana shu maqsadning ro'yobga chiqishi yo'lida qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, bu yo'nalishda olib borilayotgan harakatni oxiriga etkazishda chidamli, matonatli va sabotli bo'lishni maslahat beradi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan anglashiladiki, alloma o'z davrida ilm olish prinsiplarini to'g'ri ko'rsatib, ta'lim mohiyatini ochib bera olgan. Alisher Navoiy tomonidan asoslangan ta'lim sistemasi o'zida quyidagilarni aks ettiradi:

- a) maktab yoki madrasada tahsil olish;
- b) olim, hunarmand yoki san'atkorlarga shogird tushish asosida ta'lim olish;
- v) mustaqil ravishda ilm o'rganish.

Yoshlarga chuqur bilim hamda axloqiy tarbiya berishda muallimlarning o'rni beqiyosdir. Muallimlik faoliyatini olib borish o'ta mas'uliyatli

va sharaflī, ayni vaqtda, murakkab ish sanaladi. Ushbu faoliyatni samarali yoʻlga qoʻyish mudarris hamda ustoz-murabbiylarning muayyan talablarga javob bera olishlariga bogʻliq. Eng muhim talab – ularning chuqur bilim va yuksak maʼnaviy-axloqiy xislatlarga ega boʻlishlaridir. Oʻqituvchining samarali taʼlim berish yoʻllari va ularning mohiyatidan xabardor boʻlishi nihoyatda muhimdir. Navoiy mazkur fikrlarni ilgari surar ekan, nodon, mutaassib hamda johil muallimlar va ularning xatti-harakatlarini tanqid qiladi. Xususan, «Mahbub ul-qulub»da maktabdorlar va ularning faoliyatlari mazmuni xususida toʻxtalar ekan, oʻqituvchi mehnati, murabbiylik haqqini xolisona baholaydi, biroq shu oʻrinda ularning johil va taʼmagir boʻlishlarini qoralaydi:

«Uning ishi odam qoʻlidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashdan oʻjizlik qilardi. U esa bir toʻda bolaga ilm va adab oʻrgatadi, koʻrkim, bunga nima etsin. Shunisi ham borki, u toʻdada fahm-farosati ozlar boʻladi, undan kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday boʻladi. Har qanday boʻlsa ham, yosh bolalarga uning haqqi koʻpdir, agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluk qilsa arziydi.

*Haq yoʻlida kim senga bir harf oʻqitmish ranj ila,
Aylamak boʻlmas ado oning haqin yuz ganj ilan».*

Ayni oʻrinda adib har bir yoshning aqliy va jismoniy kamolotga yetishida ilm-fan va tarbiyaning ahamiyatini koʻrsatib berish bilan birga, jamiyat taraqqiyotining taʼminlanishida ilm ahli, olimu fozillarga nisbatan hurmat koʻrsatish, ularning turmush darajasini yaxshilash masalalariga ham eʼtiborni qaratadi.

Mutafakkir oʻqituvchining hurmatini qay darajada yuqori baholasa, uning shaxsi va faoliyatiga nisbatan talabni shu darajada oshiradi. Ayniqsa, madrasa mudarrislarining bilimli, fozil, dono, kamtar va maʼnaviy jihatdan pok boʻlishlarini talab etadi. Bu boradagi qarashlarini quyidagicha ifodalaydi:

«Mudarris (dars beruvchi) kerakki, gʻarazi mansab boʻlmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas koʻrgizmasa va olgʻirlik uchun gap-soʻz va gʻavgʻo yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun boʻlmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga oʻrin boʻlmasa. Yaramasliklardan qoʻrqsa va nodonlikdan qochsa, nainki: oʻzini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq

ishlarni mumkin, balki halol qilsa; ishlarni qilmoq undan sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir».

Alisher Navoiyning ta'limiy-axloqiy asarlarida o'z ifodasini topgan aksariyat hikmatli fikrlar asrlar davomida insoniy munosabatlar jarayonida takror-takror qo'llanilib kelishi natijasida maqollarga aylanib ketgandir. Chunonchi:

*Dardlik ko'ngil – shu'lalik chiroq,
Yoshlik ko'z – buloq.*

Tuyaqushga yuk ortib ko'chib bo'lmas.

*O't ishi qovurmoq,
Yel ishi sovurmoq.*

*Oshning ta'mi tuz bilan,
Kishining yaxshiligi so'z bilan.*

*Sog'lik tilasang, ko'p ema,
Izzat tilasang, ko'p dema.*

*Ta'magirdan yaxshilik tilama,
Gadoydan aqcha so'rama.*

*Baxilning omonatni asrashi ajab,
Vafodorning xiyonat qilishi ajab.*

*Buzuqidan hayo tilama,
Zolimdan shafqat tilama.*

Husayn Voiz Koshifiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari

(1440 — 1505)

XV asrda Movarounnahr, Eron va Xuroson kabi davlatlar hududida ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy fikr taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutgan olimlardan biri Husayn Voiz Koshifiydir. Uning ta'limiy-axloqiy qarashlari Abdurahmon Jomiy hamda Alisher Navoiy ijtimoiy-ma'naviy qarashlari bilan ko'p jihatlardan uyg'un keladi. Alloma dunyoqarashining asosini insonda ma'naviy-axloqiy xislatlarni tarbiyalash g'oyalari tashkil etadi.

Allomaning yoshlik yillari Sabzavor, Nishopur, va Mashhad

shaharlarida kechgan. Keyinchalik Jomiyning taklifiga binoan Hirot shahriga keladi va shu shaharda yashab, ijod qila boshlaydi. Hirotida u Alisher Navoiy bilan tanishadi...

Husayn Voiz Koshifiy axloq, nujum, mantiq, adabiyotshunoslik, riyoziyot, hisob, islom tarixi, musiqashunoslik, tasviriylar san'at, tabobat ilmiga oid ikki yuzdan ortiq asar yaratib, Sharq ma'naviy madaniyatining rivojiga munosib hissa qo'shgan. Manbalarda keltirilishicha, alloma «Axloqi Muhsiniy», «Anvari Suhayliy», «Javohirnoma», «Risolai dar ilmi e'dod» («Sonlar haqida risolal»), «Ravzat ush shuhado» («Shohidlik bog'i»), «Oynai Iskandariy» («Iskandar oynasi»), «Tafsiri Husayniy», «Risolati Hotamiya», «Kitobi Hotamnoma» «Badoe al-afkor fi sanoe al-ash'or» kabi asarlar yaratgan.

Husayn Koshifiy Xurosonda Husayin Boyqaroning voizi, ta'birchi va maslahatchisi sifatida shuhrat qozonadi.

Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy» asari ingliz, nemis, o'zbek va turk tillariga tarjima qilingan. Mazkur asar Husayn Boyqaroning o'g'li Abulmuhsin Mirzoga bag'ishlangan bo'lib, unda inson kamolotini ta'minlashda nihoyatda muhim sanalgan xislatlar va ularning mohiyati yoritib beriladi.

Koshifiyning aqliy tarbiya haqidagi qarashlari diqqatga sazovordir. Zero, uning qarashlarida aqliy tarbiya va uni yo'lga qo'yish, aqliy bilish jarayoni, ma'rifatli bo'lish, bilimlarni egallash masalalari muhim o'rin egallaydi. Mutafakkir aql tabiatning bebaho in'omi va haqiqat mezoni ekanligiga, inson aqlining qudratiga ishonadi. U aqlni haqiqat sifatida ta'riflab, inson o'z faoliyatini aql yordamida amalga oshiradi, deydi. Fanlarni tasniflashda ham insonga muayyan kasb-hunar yoki bilimlar asosini o'rgatishga xizmat qiluvchi fanlarning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi.

Husayn Voiz Koshifiy ilm boylik va dunyo orttirish uchun emas, balki hayot kechirish uchun zarurdir, deya ta'kidlaydi. Alloma puxta va chuqur ilm o'rganishning eng maqbul yo'li o'rganilgan bilimni amaliyot bilan bog'lash ekanligini alohida takidlaydi.

Bunda u inson aqlini faoliyatning asosi sifatida talqin etib, o'z navbatida, bu faoliyat yangi bilimlarning yaratilishiga asos bo'ladi degan fikrni ilgari surish bilan zamondoshlaridan ancha ilgarilab ketadi. Xususan, «Axloqi Muhsiniy» asarida aql bilan faoliyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik xususida to'xtalib o'tar ekan, barcha kishilar aqlga ehtiyoj sezadi, aql esa amaliy faoliyatning tashkil etilishiga nisbatan ehtiyoj sezishini ta'kidlaydi. Olim nazarida, harakat, faoliyat — aqlning ko'zgusidir.

Aql yordamida hayotiy tajriba ortadi, kishilar tomonidan to'plangan shaxsiy tajriba negizida bashariyatning umumiy tajribasi shakllanadi, ma'naviy qadriyatlar majmui hosil bo'ladi, shu tarzda ular kelgusi avlodlarga yetkaziladi.

Husayn Voiz Koshifiy insonni unga bilim berish orqali tarbiyalash, uning aqliy qobiliyatini o'stirish mumkin, deya hisoblaydi va bilim insonni komillik darajasiga ko'taruvchi mezon ekanligiga ishonadi.

Husayn Voiz Koshifiy ijtimoiy, axloqiy talablar, ularning mohiyati, ularga amal qilish shartlari xususida ham so'z yuritadi. Alloma tomonidan ko'rsatib o'tilgan ijtimoiy, axloqiy talablar jamiyat taraqqiyoti va kishilar o'rtasida o'zaro hamkorlik, do'stlik va ahillikni qaror toptirish yo'lida o'ta muhim ahamiyatga ega sanaladi. Koshifiy o'ttizdan ortiq ijtimoiy-axloqiy talablarni bayon etadi. Bu talablar mazmunida jamiyat a'zolarida sabr-toqat, hayo, pokizalik, sobitqadamlik, kechirimlilik, saxiylik, saxovat, tavoze' (kamtarlik), rostgo'ylik, shijoat, hushyorlik, farosat kabi insoniy fazilatlarining namoyon etilishi borasidagi ijtimoiy ehtiyoj o'z ifodasini topgan.

Husayn Voiz Koshifiy tomonidan yaratilgan asarlardan yana biri «Futuvvatnomai Sultoniyyoxud javonmardlik tariqati» nomli asar bo'lib, unda komil insonni shakllantirishning amaliy yo'llari va ularning mohiyati ochib beriladi.

Ma'lumki, Movarounnahr, Eron va Xuroson kabi mamlakatlarda X asrdan boshlab javonmardlik yoki futuvvatchilik harakati keng yoyilgan. Javonmardlik yoki futuvvatchilik harakatining mohiyati yosh yigitlarning o'z hayotlarini faqat ezgu ishlarni amalga oshirish hamda o'zlarida ezgu xislatlarni tarkib toptirishga bag'ishlab, zohiran va botinan pok bo'lish yo'lida jamoaga uyushishlaridan iboratdir. Javonmardlik yoki futuvvatchilik harakatiga qo'shilgan yoshlar javonmardlar yoki futuvvatlar deb nomlanganlar. Ular ma'naviy va jismoniy yetuklikka intilganlar, mardlik va oliyjanoblik namunalarini ko'rsatganlar. Ularnig o'z jamoasi, piri, ustozlari, shuningdek, maxsus yig'inlar o'tkaziladigan manzillari bo'lgan. Sarbadorlar, Abu Muslim, Yaqub ibn Lays, Mahmud Torobiy kabi xalq qahramonlari ham javonmardlar jamoasining faol a'zolari bo'lganlar.

Futuvvat (javonmardlik) ilmi tasavvuf, so'fiylik asoslariga muvofiq kelib, insonni axloqan poklash, kishilar o'rtasida o'zaro mehr-shafqat, himmat va mardlik xislatlarini qaror toptirishni targ'ib etgan. Tasavvuf nazariyasi futuvvatda yuksak g'oyalarning ijtimoiy-amaliy tadbiqini ko'rsa, futuvvat nazariyasi tasavvufda imon-e'tiqodning nazariy jihatdan puxta asoslangan g'oyasi mavjud ekanligini e'tirof etadi. Futuvvat

sifatlariga ega kishilar fatiy deb ham nomlanganlar. Fors tilidan tarjima qilinganda «fatiy» soʻzining maʼnosi «yoshlik», demakdir. Kishida insoniy fazilatlarining mavjudligi nuqtai nazaridan mazkur tushuncha majoziy maʼnoda kamolot chegarasini zabt eta olgan odamlar — yoshlarga nisbatan qoʻllanilgan.

Javonmardlik fazilatining rukn(ustun)lari oʻn ikkita boʻlib, ularning oltitasi zohiriy, oltitasi botiniy sifatlar sanaladi. Zohiriy tarzda namoyon boʻluvchi sifat (rukn)lar quyidagilardir:

1. Gʻiybat, yolgʻon, boʻhton, behuda soʻzdan tilni tiyish.
2. Nojoʻya, nomaqbul soʻzlardan quloqni berkitish.
3. Koʻrish nojoiz narsalardan koʻzni yumish.
4. Harom narsalardan qoʻlni tortish.
5. Borish man qilingan joylardan oyoqni tortish, gunohga sabab boʻladigan gʻammozlik, gap tashish, ziyon-zahmat ishlarga qadam qoʻymaslik.

6. Harom ovqatdan ogʻizni, zinodan aʼzoni berkitish.

Botiniy tarzda namoyon boʻluvchi sifat(rukn)lar esa quyidagilardir:

1. Saxovat.
2. Kamtarlik(tavoze).
3. Qanoat.
4. Afv va marhamat.
5. Kibr va gʻururni tark etish.

6. Gʻubr (koʻngilning dunyoviy tashvishlaridan tozalanib, doʻst (xudo) muhabbatining makoni, ishq sultoni oʻtiradigan taxtga aylanishi).

Asarda keltirilishicha, futuvvatning 71 sharti boʻlib, ushbu shartlarning 48tasi vujudiy, 23tasi esa azaliy sanaladi.

Maxsus qoida va nizomlarining shartlariga qatʼiy amal qilish, xususan, bel bogʻlash va shogird tushish shartlari bekamu koʻst bajarilgach, ularning qanday bajarilishi ustoz tomonidan nazorat qilingach, futuvvatchilik harakatiga qoʻshilish istagini bildirgan kishi (yigit)futuvvatchilar jamoasiga qabul etilgan.

Asarda bayon etilgan fikrlardan eng muhimi — tariqat ahlining odobi borasidagi oʻrin hisoblanadi. Unda tariqat ahlining koʻnglini yomon oʻy-niyatlardan asrashi, koʻz, quloq, til, ogʻiz, qoʻl va farj(tanosil aʼzolari)ni yomon, harom sanalgan xatti-harakatlarni sodir etishdan saqlash odobi, tariqat arbobi, tariqat toifalari aʼzolarining odobi, taqvodorlar (xonaqo) odobi, oʻtirish, bemorning holidan xabar olish, janoza, taʼziyaga borish, kasb-kor, savdo-tijorat va maʼrakaga borish odoblari xususida soʻz yuritilib, maʼnaviy-axloqiy xatti-harakatlarning har bir uslubi va uning mohiyati ochib beriladi. Maʼlumki, muayyan kasb yoki hunar bilan shugʻullanuvchi kishilar ana shu kasb yoki hunarning ichki xususiyatlaridan kelib chiqib,

muayyan odob-axloq qoidalariga amal qilishlari talab etilgan. Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniyyoxud javonmardlik tariqati» asarida turli kasb-hunar egalarining odoblari yuzasidan ham fikr-mulohazalar bildirilgan. Ushbu jihatlariga ko'ra, asar barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash masalalariga jiddiy e'tibor qaratilayotgan hozirgi davrda beqiyos ahamiyatga egadir.

Ko'rinadiki, Husayn Voiz Koshifiyning nuqtai nazariga ko'ra, komil (har jihatdan yetuk) inson o'zida eng oliy insoniy ma'naviy-axloqiy xislatlarni mujassam eta olgan, atrofida qilarga o'rnak ko'rsatish layoqatiga ega shaxs bo'lishi lozim. Komil insonlarning sa'yi-harakatlari asosida ijtimoiy taraqqiyot yuz beradi, jamiyatda tinchlik va farovonlik qaror topadi.

Nazorat uchun savollar

1. Abdurahmon Jomiyning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari va uning pedagogik faoliyatini aytib bering?
2. Alisher Navoiyning asarlarida ta'limiy-axloqiy g'oyalarning yoritilishi.
3. Alisher Navoiy maktab-madrasalar va o'qituvchi-ustozlar haqida.
4. Alisher Navoiyning ilmiy-ma'rifiy faoliyatini aytib bering?
5. Husayn Voiz Koshifiyning futuvvat (javanmardlik) ilmi haqidagi fikrlarini aytib bering?

Mustaqil ish

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarini o'rganish va tahlil qilish.

VI BOB. XVII—XVIII ASRLAR VA XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKR

Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarida ta'lim-tarbiya, maktab, fan va madaniyat

XVI asr boshlarida temuriylar sulolasi inqirozga uchradi. Uning o'rniga Shayboniylar hukmronligi o'rnatildi. Shayboniyyon(1451—1510) Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlat barpo qilish uchun kurash olib bordi, uning halokatidan so'ng yana o'zaro urushlar sodir bo'lib turdi. Oqibatda bu hududda uch xonlik, avvalo, Buxoro va Xiva, XVIII asr oxiriga kelib, Qo'qon xonligi qaror topdi.

Buxoro xoni Abdullaxon davrida boshqa davlatlar bilan har tomonlama aloqalar o'rnatilishiga erishildi. Jumladan, Hindistonda shoh Akbar, Sharqiy Ovrupoda Ivan Grozniy bilan xalqaro munosabatlar o'rnatildi.

Markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi ko'plab ijtimoiy binolar qurish imkoniyatini berdi, Abdullaxon 1001 rabot va sardoba, ko'plab madrasa, masjid, xonaqo, ko'prik, suv ombori va boshqa inshootlarni qurdirdi.

U atrofiga yozuvchi, shoir va olimlarni to'plab, ularga homiylik qildi. Shoirlar orasida ayniqsa Mushfiqiy o'z madhiyalari, lirik she'r va xajvlari bilan shuhrat topdi. Buyuk muarrix Hofiz Tanish Buxoroda «Abdullanoma» nomli katta tarixiy kitob yozdi.

Bu davrda tibbiyot sohasida Sultonali Samarqandiy «Dastur al-iloj», Muhammad Yusuf «Tahqiq al-humayyot», «Zubdat ul-kahholin» asarlarini; shoir va adiblardan Bobur, Muhammad Solih, Majlisii, Hasan Nisoriy, Binoiy, Vosifiy, Ubaydiy, G'oyibiy Samarqandiy barakali ijod qildilar.

Mazkur davrda Muhammad Balxiyning 5000 baytdan iborat «Subxonqulixonnom», Mirmuhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Sayido Nasafiyning she'r va qasidolari, So'fi Olloyor va Boborahim Mashrab she'rlari yaratildi.

Madrasani bitirganlardan mudarris, mutavali, qozi, imomlar, fan arboblari, adibu shoirlar yetishib chiqardi. Chunonchi, Boborahim Mashrab, Muhammad Amin Kosoniy Namangoni, Fazliy Namangoni, Shavqiy Namangoni, Sayido Nasafiy, Abulg'ozii So'fiy Olloyor, Zebunniso,

Dilshod-Barno, Uvaysiy, Muhammad Mir Olim Buxoriy, Abulg'oziy Bahodirxon kabilar ana shunday ilm sohiblaridandirlar.

Abulg'oziy Xorazmda ilm-fanni, madaniyatni taraqqiy ettirish maqsadida o'z saroyiga binokorlar, tabiblar, shoirlar, tarixnavislar, adibu xattot va boshqa kasb egalarini to'pladi. Xorazmning o'tmish madaniyati Abulg'oziyda katta qiziqish o'ygatgan edi. U «Shajarai tarokima» (1661), «Shajarai turk» (1664) va tabobatga oid «Manofe' ul-inson» (1664) kabi nodir asarlar yozdi. Abulg'oziy Xorazm tarixchilik maktabiga asos soldi.

Ko'rinib turibdiki, amirlik va xonliklar davrida fan, adabiyot, san'at, ma'rifat birmuncha rivojlangan. Ko'proq saroylar doirasida ham diniy, ham dunyoviy adabiy asarlar yozilgan. O'zbek tilida yozilgan asarlar orasida muallifi noma'lum «Tavorixi guzida»da turkiy qabilalar tarixi va nomlari keng yoritiladi. Bu davrda boshqa ko'plab tarixiy asarlar ham yaratilganki, biz ularni o'rganish orqali o'tmishni to'g'ri tasavvur etish imkoniyatiga egamiz...

XVIII asrda yashab ijod etgan ma'rifatparvarlar orasida So'fi Olloyor (asli ismi Ollohyor) mashhur bo'lib, uning asarlaridan maktab va madrasalarda o'quv qo'llanmalari sifatida keng foydalanilgan.

So'fi Olloyor 1720-milodiy (1133-xijriy) yili tavallud topgan. U dastlab Samarqandda o'z qishlog'ida boshlang'ich ta'lim oladi, so'ngra o'n yoshlarida Buxoroga borib, u yerda 15 yil davomida turli ilmlar hamda kasblarni o'rganadi. 25 yoshida Buxoro bojxonasiga amaldor etib tayinlanadi.

Lekin Olloyor shayx Habibullohga e'tiqod qilib, u kishining madrasasida 12 yil o'qib, yetuk olim va avliyo darajasiga yetadi.

So'fi Olloyor «Siroj ul-ojizin», «Sabot ul-ojizin», «Murod ul-orifin», «Najot ul-tolibin» kabi asarlarini yaratadi. «So'fi Olloyor» nomi bilan xalq orasida mashhur bo'lgan «Sabot ul-ojizin» asari maktablarda savod chiqarilishi bilan o'qitilar edi. Unda islom dinining asosiy aqidalari bayon etilgan. Ular insoniy fazilatlar, badiiy hikmatlar tarzida ifodalanadi. Kitobda ilgari surilgan masalalar oyatu hadislarga muvofiq, yozilgan. Asar fors va arab tilini bilmagan oddiy xalq uchun mo'ljallangan. Kitobda «Olloh taoloni tanimoq bayonida», «Olloh taolo ma'rifatining bayoni», «Olloh taoloning sakkiz sifatining bayoni»dan so'ng imyon, farishtalar bayoni, payg'ambarlarga imyon keltirish bayonidan so'ng islom dinining asosiy qoidalari yuksak axloqiy talablar, hikoyatlar, hikmatlar asosida ifodalanadi. Masalan, «Kamtarlik haqida mav'iza», «Ta'madan tiyilish haqida», «Yomonlar suhbatidin qochib, yaxshilar suhbatinda bo'lmoqning bayoni», «Nafsi shum bayonida», «Xiyonatdin yiroq bo'lmoq bayonida», «Javonmardlik nishoni» kabi boblar bunga misoldir.

Bu davrda maktab va madrasalarda grammatika, handasa, mantiq, qiroat, tafsir, shariat, hikmat, islom tarixi va aqidalariga oid ilmiy-nazariy bilimlar, ish yuritish, huquqshunoslik, savdo-sotiq ishlariga oid, meros va boylik, taqsimot kabi boshqa o'nlab ilmiy bilimlar, dunyoviy hamda diniy bilimlar o'rgatilardi. Barcha madrasalarda majburiy fan sifatida «Qur'on», «Tafsir», «Odob as-solihin», «Maslak ul-muttaqin», «Sabot ul-ojizin», «Kimyoi saodat», «Hadis» o'qitilardi. O'qish muddati 15—20 yil bo'lgan. Masjidlar yonidagi maktablarda bolalarga 7 yil alifbe, abjad, Qur'on, farzi ayn, chor kitob, Xoja Hofiz, «Maslak ul-muttaqin», Mirzo Bedildan savod o'rgatilgan.

O'zbek bolalari o'qiydigan maktablarda «Kitobi Fuzuliy», «Lison ut-tayr», «Devoni Alisher Navoiy», «Huvaydo», «Qissai devona Mashrab», «Sabot ul-ojizin» o'qitilgan. Barcha maktablarda talabalarning savodi chiqarilgandan so'ng So'fi Olloyor o'qitilgan.

Mazkur davrda lug'atshunoslik, tarixnavislik fanlari rivojlandi, she'riyat ravnaq topdi. Ko'plab asarlar arab, fors va boshqa tillardan tarjima qilindi, xalq og'zaki ijodi orqali yoshlarga qahramonlik, mehnatsevarlik, haqiqatgo'ylik, sadoqat kabi insoniy, axloqiy fazilatlar targ'ib qilindi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ayollar, tarbiyasiga katta e'tibor berildi. O'qimishli, ma'rifatli, ziyoli ayollar tomonidan ko'plab maktablar tashkil etildi va u otinlar maktabi deb nomlandi.

Markaziy Osiyoda otinlar maktabining asoschilaridan, ayollar ta'limida katta xizmat qilgan, o'ziga xos maktab yaratib shuhrat qozongan otinlardan biri Jahon Otin Uvaysiydir.

Jahon Otin Uvaysiy

(XVIII asrning 80-yillari tug'ilib, 65 yoshlarida vafot etgan)

Jahon Otin Uvaysiy Marg'ilonda tug'ilgan. Otasini Qaynar devona yoki Devonai Qalandar deb atashgan. Onasining nomi esa Chinnibibi edi.

Dastlab Jahonbibi ota-onasi va akasi ko'magida Navoiy, Jomiy, Fuzuliy asarlarini sevib o'qib, o'rganadi. Uvaysiy taxallusi bilan she'rlar mashq qiladi.

Uvaysiyning maktabdorlik faoliyati qaysi yillari boshlanganligi ma'lum emas. Ammo, turmushga chiqquncha shoira otincha sifatida ancha tanilib qolgan edi. Onasi Chinnibibi o'qitadigan qizlar maktabida avval xalifalik qilgan, keyinchalik uning o'zi mustaqil tarzda qizlarni o'qita boshlagan.

Shoirani 16—17 yoshlarida Marg'ilonlik Hojixon ismli yigitga uzatadilar. Uvaysiy Quyoshxon, Muhammadxon ismli o'g'il-qizning onasi bo'ladi.

Nodira kelin bo'lgan yillari Uvaysiy xalq orasida tanilgan shoir, uning akasi Oxunjon hofiz Umarbekning sozandasi, eri Hojixon bekning arboblardan edi. Umarbek haramidagi nufuzli ayollardan Kuzrxon, Ulfatbegim Nodiraning shoiralik iste'dodini ko'rishib, unga Uvaysiyini ta'riflashadi va saroyga keltirishni eri Umarbekdan iltimos qilishni maslahat berishadi.

Umarbek Uvaysiyini o'rdaga muallima, sozanda, xonanda sifatida qabul qiladi. Uvaysiy o'rdada yosh bolalarni va kanizaklarni o'qitadi. Nodiraning ijodiy ishlariga ko'maklashadi.

1809-yili Zolimxon laqabini olgan Olimxon o'ldirilib, o'rniga Umarbek (1809—1822) xon bo'ladi. U Marg'ilon o'rdasidagi butun harami bilan poytaxt — Qo'qonga ko'chib keladi. Bu davrda ota-onasining vafoti, ustiga eri o'lib ikki bolasi bilan beva qolgan Uvaysiy Marg'ilonda yashardi, akasi Oxunjon hofizning yordami, muallimalikdan kelgan daromadi bilan tirikchilik qilardi.

Uvaysiyning Umarxon saroyiga, saroy shoirlari qatoriga kelib qo'shilishi bilan bog'liq turli fikrlar mavjud. Aslida Uvaysiy maxsus yorliq bilan Marg'ilondan Qo'qonga chaqirilgandi.

Nodira Uvaysiyini o'z himoyasiga oladi. Ikkala shoir egachi-singil tutinadilar. Nodira egachisiga Qo'qondan hovli-joy in'om qiladi. Uvaysiy Qo'qonda Nodiraning eng yaqin kishisi, suhbatdoshi, sirdoshi bo'lib qoladi. Xalq orasida tobora uning obro'yi, shuhrati ortadi, Nodira sayohatga qaerga borsa, Uvaysiyini ham o'zi bilan birga olib boradi. Nodira bilan u Konibodom, Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Andijon, O'sh va boshqa shaharlarda bo'ladi...

XIX asrda O'zbekistonda, umuman, Markaziy Osiyoda ta'lim-tarbiya muammolari bilan maxsus shug'ullanuvchi mutaxassislar, olimlar bo'lmagan. Lekin davrning ilg'or kishilari o'z ma'rifiy qarashlari asosida ta'lim-tarbiyani rivojlantirganlar.

O'tmishdagi barcha Sharq mutafakkir va shoirlari singari o'zbek otinlarining ham pedagogika nazariyasiga oid asarlari yo'q. Lekin bizga meros qoldirgan she'riy durdonalariga asoslanib ularning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qarashlarini aniqlash mumkin. Bir so'z bilan aytganda, pedagogika ularning asarlariga singib ketgandir.

1796—1797-yillari onasi otinlik qilgan xususiy maktabda dastlab xalfalik, keyin mustaqil ravishda otinlik qilgan Jahon Otin o'z maktabida ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos usullarni qo'llashga intilganligini ko'ramiz.

Qizlarga boshlang'ich diniy ta'lim beradigan otinbibi maktablari esa asosan xususiy bo'lib, otinlarning uylarida tashkil qilinardi. Bunday maktablar muayyan bir o'quv rejasi va dasturiga ega emas edi. O'quvchilar ham kitoblarni o'zlashtirish darajasiga qarab guruhlariga bo'lib o'qitilardi.

Domla yoki otinoyi darsni berilgan vazifani o'qitib ko'rish va yangi topshiriq berishdan boshlardi.

Katta yoshli o'quvchilardan biri otinoyiga yordamchi qilib saylanar va «xalfa» deb yuritilardi. Maktabdagi asosiy o'quv fani islom qoidalari to'plami edi. Otinoyiga ish haqi sifatida ota-onalar oziq-ovqat mahsulotlari, kiyimliklar berishar ba'zan pul to'lashar edi. Bundan tashqari, ota-onalardan «bo'yra puli», «o'tin puli» ham undirilardi.

Otinoyi maktabida o'qitishning saviyasi otinoyining bilim darajasiga nihoyatda bog'liq ekanligini alohida ta'kidlamoqchimiz.

Qizlar maktablarida harflarni hijjalab o'qitish usulida savod chiqarilardi. Ya'ni, alfavit yodlanardi: — *alif, be, te, se ...* So'ngra shu harflarni bir-biriga qo'shib o'qish mashq qilinardi. Domla-imomlarning xotinlari, qizlari maktablarning qisqartirilgan dasturi asosida o'qitilardi. Shu bilan birga, qizlarga uy-ro'zg'or ishlaridan dastlabki mehnat ko'nikmalari berilardi.

Maktabni muvaffaqiyatli tugatgan talabalar tuman miqyosidagi otinlar maktabida o'qishni davom ettirardilar. Uvaysiy Umarxon saroyida shoira sifatida she'r san'atidan, musiqadan muallimalik qilgan.

Qizlarga boshlang'ich ta'lim berar ekan, Jahon Otin ularning zehni o'stirishga katta ahamiyat qaratadi. Otin o'z shogirdlariga savod o'rgatibgina qolmay, ular orasidan iqtidorli qizlarni tanlab Sharq she'riyati bilan tanishtiradi. Qizlarni nazm bo'stoniga yetaklaydi.

Uvaysiy o'z davrining peshqadam shoirlaridan bo'lgan. Shu bois qizlarga she'r san'atidan dars berganda, o'sha davr shoirlari bilishi zarur bo'lgan nazirago'ylik, radifgo'ylikni ham o'rgatgan. Har bir shoir mushohada kuchiga ega bo'lishi zarurligini uqtirgan.

Jahon Otinning ko'p asarlari insoniy muhabbat, go'zallikni ifoda etadi. Uning she'rlaridagi asosiy lirik qahramon hayotni butun go'zalligi bilan sevuvchi, unga maftun bo'lib, shodlanuvchi, jabr-zulmga qarshi kurashuvchi, do'stlik, vafodorlikka sodiq chin oshiq, aqli, bilimdon ayol. Ana shu olijanob insoniy fazilatlar kishilardagi vafosizlik, bemehrlik, yolg'onchilik, subutsizlik kabi salbiy illatlarga qarama-qarshi qo'yiladi.

Uvaysiy o'z asarlarida xalqning dilida yod bo'lib ketgan hikmatli

soʻzlar, maqollar, iboralardan keng foydalanadi. Bular uning asarlarining tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Uvaysiyning maʼrifiy faoliyatida uning ayollar savodxonligini oshirish, aqliy tarbiya, musiqa sanʼati, qobiliyatli qizlar bilan ishlash usullari alohida ahamiyatga ega. U oʻz davrining yosh tolibalariga hayotga muhabbat tuygʻularini singdirib borgan, tez fikrlash, chiroyli soʻzlash va boshqa tarbiya vositalari bilan bogʻliq boʻlgan chiston-topishmoq usullarini yaratishni oʻrgatgan...

Nazorat uchun savollar

1. XVII–XVIII asrlar va XIX asrning birinchi yarmida ijtimoiy, iqtisodiy sharoit va ilm-fanning rivojlanishi, yoʻnalishi.
2. Taʼlim-tarbiya tizimining shakllanishi qanday edi va unda qanaqa bilimlar berilar edi.
3. Abdulgʻoziy va Soʻfi Olloyorning asarlari va ularda taʼlim-tarbiya masalalari.
4. Jahon otin Uvaysiy maktabi haqida nima bilasiz?

VII BOB. XIX ASR IKKINCHI YARMI — XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O'LKASIDA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKR

Markaziy Osiyoda temuriylar hukmronligi inqirozga yuz tutgandan keyin bu o'lkani qo'lga kiritish uchun jahonning ko'pgina mamlakatlari harakat qildilar. Ana shulardan biri chor Rossiyasi edi.

Markaziy Osiyoni Rossiyaga qaram qilish g'oyasi Petr Idan boshlab, uning vafotidan so'ng Yekaterina II hukumati tomonidan davom ettirildi...

Rossiyaning bosqinchilik yurishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Chunki bu davrda sobiq imperiya o'rnida uch xonlik – Buxoro amirligi, Xiva hamda Qo'qon xonliklari bo'lib, bular o'rtasida nizolar kuchaygan edi. Bundan foydalangan chor hukumati o'zining yovuz niyatlarini amalga oshirishga kirishib, dastlab Qozog'istonni o'zlariga tobe qildilar. So'ngra 1864-yili Turkmaniston, Chimkent, Avliyota, 1865-yili Toshkentni zabt etdilar. 1867-yili Ettisuv, 1868-yili Samarqand, 1876-yili Farg'ona Rossiya qo'lga o'tdi.

1876-yil 19 fevralda podsho Aleksandr II Qo'qon xonligi tugatilganligi to'g'risidagi buyruqqa imzo chekdi. 1885-yilga kelib Markaziy Osiyoning hamma yerlari Rossiya tasarrufiga o'tdi va o'lkada Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi.

Markaziy Osiyo mustamlakaga aylantirilgach, chor hukumati mustamlakachilik siyosatini yurgizdi, bu siyosatga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlarini esa ayovsiz bostirdi. U Markaziy Osiyo hududida istiqomat qiluvchi turli xalqlarni bir-biriga qarshi qo'yish bilan ular o'rtasida nizolarni avj oldirdi.

Chor hukumati xalqimizning milliy madaniyatiga va uning rivojiga tish-tirnog'i bilan qarshilik qildi, milliy zulmni kuchaytirdi. Bu zulm birinchi navbatda madaniyat, fan, san'at, ijtimoiy va pedagogik fikr, turmush tarziga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xalq o'zining milliy merosi, qadriyatlari va g'ururidan mahrum bo'la boshladi. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman imperatorga yo'llagan bir maktubida Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-ijtimoiy taraqqiyoti uch yuz yil orqaga surib yuborilganini maqtanib yozgan edi. Oktabr to'ntarishidan oldin masjid

va madrasalardagi kitoblar, noyob qo'llanmalar yondirib tashlandi, bir qismi Peterburgga olib ketildi.

O'lkada yuz bergan bu voqealar ilg'or ziyolilarning faoliyatiga ham ta'sir etmay qolmadi. Ular o'lkada chor ma'murlari qo'llagan jabr-zulmga qaramay ilm-fan va madaniyatning umumiy rivojiga o'z hissalarini qo'shdilar. Ular o'zlaridan oldin o'tgan ulug' mutafakkirlarning insonparvarlik, pedagogik fikr, g'oyalarini davom ettirdilar. Buni Furqat, Muqimiy, Avaz O'tar, Anbar Otin, Ahmad Donish, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Zavqiy, Saidahmad Siddiqiy ijodida ko'rish mumkin.

Turkiston o'lkasida diniy-islomiy tarbiya muassasalari va pedagogik fikr taraqqiyoti

XIX asrning o'rtalarida Turkiston o'lkasida boshlang'ich maktab hamda o'rta va oliy diniy ta'lim beradigan madrasalar mavjud edi. Maktablarning aksariyati, shu jumladan, qishloq maktablarining ko'pchiligi diniy ta'lim beruvchi eng oddiy boshlang'ich maktablar edi. Bu maktablarda masjidlarning imomlari, savodxon mullalar dars berardilar. Bunday maktablarda o'qitish eng oddiy diniy vazifalarni o'rgatish bilan, ya'ni Qur'on o'qishni o'rgatish, har bir musulmon uchun zarur bo'lgan asosiy vazifalarni bildirish bilan cheklanilardi.

Shahar maktablarida diniy ta'limdan tashqari, umumiy ta'lim elementlari – yozish va hisoblash yo'llari o'rgatilardi.

Shahar maktablarida o'quvchilar soni 20-30taga, qishloq joylarida esa 10-15taga yetardi. O'qishga 6 yoshdan qabul qilinib, o'zlashtirishiga qarab, 17-18 yoshlargacha davom etardi. Maktabda avval «Haftiyak», keyin «Qur'on» yod olinar, so'ng «Chor kitob»ga o'tilardi.

«Chor kitob» 4 bo'limdan iborat bo'lib, 1-bo'lim – haq-xudoning nomlari tushuntirilardi, din qoidalari, tahorat, namoz bayon etiladi; ikkinchisida iymon-e'tiqodni anglash; uchinchi bo'limda kalomi nabi — rivoyatlar bahs etilgan. Xalq orasida mashhur shoirlarning she'r va g'azallari o'qitilardi. Odatda, bunday maktablarning o'quvchilari badavlat oilalarning bolalari bo'lardi. Ular o'qishni tamomlab, olgan bilimlarini savdo-sotiq ishlarida, hunarmandchilik ustaxonalarida qo'llar edilar, ba'zilar qo'shimcha ta'lim olib, xattotlik kasbi bilan shug'ullanar, ba'zilar esa, madrasaga kirib o'qishni davom ettirardi.

Oliy diniy maktab – madrasada diniy falsafa va musulmon huquqlari, arab tilining grammatikasi va mantiq ilmlaridan dars o'tilardi. Uning o'quv rejalari vaqt va sharoitga qarab o'zgarib turgan. Masalan: XV asrning

30–40 -yillari Samarqand va Hirot madrasalarida dunyoviy bilimlar – matematika, astronomiya, musiqa kabi fanlar o'qitilgan.

Madrasa uch bo'limdan iborat bo'lgan: birinchi bo'limda musulmon diniy aqidalari bayon qilingan kitob – arab tili va qonunchilik o'rgatilardi. Bu bo'lim talabasi 9-10 yil o'qigan.

Ikkinchi bo'limda qonunchilik, ilohiyot, mushkulot, mantiq, arab tili grammatikasi, notiqlik mahorati, kalom o'qitilgan. Unda 7-8 yil o'qishgan.

Uchinch bo'limda ilohiyot, qonunchilik, kalom o'qitilgan. Qonunchilik kursida geografiya va arifmetikadan ba'zi ma'lumotlar berilgan. Madrasani tamomlab chiqqanlar imomlik bilan shug'ullanish va qozixonalarda ishlash huquqiga ega bo'lar edi. Maktab va madrasalarda asosan o'g'il bolalar o'qitilardi. Shaharlardagi diniy maktablarda ba'zi domlarning xotinlari – otinoyilar qizlarni o'qitish bilan shug'ullanardilar. Maktab va madrasalarda dars o'zbek, arab va fors tillarida olib borilardi.

Musulmon maktablarida ta'lim sistemasi 5 toifaga bo'lingan edi.

Quyi maktab – bu maktablarda o'g'il bolalarga savod o'rgatishgan(4 yil).

Halilxona maktabi – (namoz) yod oldirib o'rgatilgan.

Qorixona – Qur'on yod olingan.

Madrasa.

Maktab-internat – o'rta madrasa. Bu maktabda ham diniy, ham dunyoviy fanlar o'qitilib, o'rta ma'lumot berilgan.

Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin maktab va madrasalarda ba'zi o'zgarishlar yuz berdi. Musulmon maktablari uchun bosmaxonada chop qilingan darsliklar paydo bo'ldi. Qozonda nashr qilingan Qur'on va haftiyaklar, Hindiston va Erondan shoirlarning litografiyada chop etilgan to'plamlari keltirildi. Toshkentning o'zida ham maktablar uchun darsliklarni litografiya usulida nashr qilish yo'lga qo'yildi.

Mustamlaka ma'muriyati mashg'ulotlar o'rta asr tartibida olib borilayotgan musulmon maktablarining ishiga aralashmas edi. Ammo maktablarda rus tilini o'qitishni rag'batlantiruvchi choralar ko'rishga harakat qilinardi. Natijada mahalliy yoshlar rus tilini o'rganishga ko'proq e'tibor bera boshladilar. XX asr boshlarida esa, madrasalarda rus tilini o'qitish joriy qilinsin, degan ko'rsatmaga binoan 1913–1917 -yillari ba'zi madrasalarda rus tilini o'qitish joriy qilindi.

Eski maktablarda ham ba'zi o'zgarishlar sodir bo'ldi. Rus-tuzem maktablari hamda yangi xil maktablarning ta'siri ostida ba'zi eski usul maktablarida birmuncha yangiliklar joriy qilindi. litografiyada bosilgan alifbelar yordamida tovush metodi asosida savod o'rgatish joriy qilindi, qizlarga o'qishni o'rgatish bilan birga, yozishni ham o'rgatishga kirishildi. Bu yangiliklarga ko'ra o'zbek maktablari hayotida katta siljish ro'y berdi.

XX asr boshlariga kelib, Turkiston o'lkasidagi yirik markaziy shaharlarda oliy ta'lim maskani hisoblangan quyidagi madrasalar:

Buxoroda – 80, Qo'qonda – 40, Samarqandda – 22, Marg'ilonda – 28, Toshkentda – 17, Xiva xonligida – 130 madrasa mavjud bo'lib, ularda 400dan 5000tagacha talaba tahsil olardi.

1906-yilga kelib, birgina Samarqand viloyatining o'zida 1510 musulmon maktabi bor edi, ularda 1482 o'qituvchi 12740 talabaga saboq bergan.

Umuman olganda, Turkiston o'lkasida 1905–1906 -yillari 5290 maktab bo'lib, ularda 70955 talaba ta'lim olgan.

Bu davrga kelib mahalliy fuqaro bolalaridan ilmiy kishilar tayyorlash maqsadida Xeva xoni Sayid Muhammad Rahimxon Bahodirxoni Soniy – Feruz (1844–1910) katta ishlarni amalga oshirdi. Bevosita uning tashabbusi bilan 1884 -yili o'z saroyida maktab ochilib, bu maktabda rus o'qituvchisi va Mirzo, Rahmonquli qori kabi mahoratli ta'lim-tarbiya ustalari yoshlarga bilim berish bilan shug'ullandilar.

Feruz farmoniga muvofiq 1904-yilning 10 noyabrida Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Unda Husayn Qo'shaev degan Turkiyadan kelgan o'qituvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya bera boshladi.

Husayn Qo'shaev 1906–1907 o'quv yilida xonlikdagi ilg'or ma'rifatparvar kishilarning istaklarini hisobga olib, Urganchda qizlar maktabini ham tashkil etdi. Feruz unga homiylik qilib, xazina hisobidan maktab uchun alohida mablag' ajratib berdi.

Feruz homiyligidagi bu qizlar maktabida Husayn Qo'shaevning turmush o'rtog'i Komila Qo'shaeva bilim bera boshladi.

1909-yilga kelib Feruz qo'li ostidagi madrasalar soni 130taga etib, undagi mullavachchalar 2300 kishidan ortib ketdi.

Feruz Xeva ziyolilari orasida nufuzli o'rinni egallagan ma'rifatparvar Komil Xorazmiyni Toshkent shahridagi gimnaziya va maktablardagi o'qitish usulini o'rganib kelishi maqsadida safarga jo'natadi. Safardan qaytgach Komil Xorazmiy bu sohadagi ishlarni anchagina jonlantirib yubordi.

Mazkur maktab o'quv dasturi hamda rejasiga – riyoziyot, tarix, jo'g'rofiya, tabiat, rus tili, mahalliy savod (ona tili) va islomshunoslik fanlarini o'qitish belgilanadi. Mashg'ulot jarayonida Sharq mutafakkirlari – Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Sa'diy Sheroziy, Mashrab, So'fi Olloyor kabilar bilan bir qatorda rus shoir, yozuvchilarining asarlari ham o'rganildi. Feruz vohada san'at, maorif va madaniyat rivojiga rahnamolik qilib, saroyda «Podshohi zamon tipolitografiyasi»ni tashkil qildi.

«Litografiya» – yunoncha so'z bo'lib, «litos» – tosh va «grafos» yozaman

degan ma'noni bildiradi. Bu atama o'zbek tilida toshbosma tarzida qo'llanib kelingan.

Feruz saroyidagi bu toshbosmaxonada ilk bor Abu Nasr Forobiyning «Nisob us - sibiyon» (Bolalar nasibasi), Alisher Navoyning «Xamsa» asaridan parcha, «Hayrat ul-abror» dostoni, Shermuhammad Munisning «Munis ul-ushshoq» devoni, Yoqubxo'ja ibn Ibrohimxo'janing «Devoni Xolis» to'plami, Feruzning «Devoni Feruz» va boshqa o'nlab asarlar nashr etilgan.

Turkiston o'lkasi Rossiya tomonidan bosib olingach, chor ma'murlari ming-minglab rus oilalarini Markaziy Osiyoga ko'chirib keltiradi. Farg'ona viloyati, Sirdaryo, Samarqand va boshqa viloyatlardagi dehqonlarning serunum yerlari tortib olinib, ularga beriladi. Ularning bunday xatti-harakatlaridan g'azablangan atoqli shoir Cho'lpon «Hazon» sarlavhali she'rida qahr ila yozgandi:

*Ay, savuq ellardan muz kiyib kelganlar,
U qo'pol tovushingiz qirlarda yo'q bo'lsun!
Ey, manim bog'imdan mevamni terganlar,
Qop-qora boshingiz yerlarga ko'mulsun!*

Turkistonda chorizm maktab siyosatining boshlanishi. Rus-tuzem maktablari va matbuot

Rus muhojirlari Turkiston general-gubernatorining farmoniga binoan o'lkada rus va rus-tuzem maktablari, gimnaziya kabi maktablarni ochish va bu maktablarni kengaytirish hisobiga mahalliy maktablar, madrasalarni siqib chiqarish maqsadida maorif islohotini o'tkaza boshladilar.

Bu bilan go'yoki, ular Markaziy Osiyo aholisining savodxonlik darajasini oshirmoqchi bo'ldilar va har bir qilingan ishni bo'rttirib ko'rsatishga urindilar.

1917-yilgi to'ntarishgacha 21 foiz savodxon bo'lgan o'lkada aholisini, yoppasiga savodsiz edi, deya kamsitishga urindilar, quruq bo'hton yog'dirdilar.

O'lkada aholisini savodxon qilish uchun eng avvalo rus, rus-tuzem, gimnaziya kabi o'quv maskanlari kerak, madrasa va «usuli qadimiya» eski usul maktablarida, otinlar maktablarida savod chiqarib bo'lmaydi degan siyosatni yurgizishga harakat qildilar.

Bunga biz 1897-yildagi Rossiya tomonidan o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlarini ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, o'sha aholi ro'yxatida

qayd etilishicha, Markaziy (O'rta) Osiyo aholisining savodxondik darajasi quyidagicha belgilangan:

tojiklar – 99,5 % savodsiz;

qirg'izlar – 99,4 % savodsiz;

turkmanlar – 99,3 % savodsiz;

o'zbeklar – 98,4 % savodsiz;

gozoqlar – 97,9 % savodsiz deb hisoblangan.

Bu ko'rsatkichlarning barchasi uydurma edi. Aslida Turkiston o'lkasi xalqlarining savodxonlik darajasi chor Rossiyasi aholisining savodxonlik darajasidan past emas edi. Chunki Turkiston o'lkasi xalqlari 1917-yilgi to'ntarishdan oldin shaxsiy va ommaviy maktablar, madrasalarda bilim olganlar, ilm egalari bo'lganlar.

Zero, yuqorida qayd etilgan aholi ro'yxati ma'lumotnomasida rus xalqidan, rus millatidan boshqa millatga mansub fuqarolarni ataylab kamsitish chor Rossiyasining asosiy mafkuraviy kurashi natijasidir. Chunki ular rus va rus-tuzem maktablarini bitirganlarnigina savodli deb hisoblaganlar. Hatto ular dunyoviy maktablar ochish, ona tilidagi darsliklar, gazeta va jurnallar nashr qilish va hokazolarni qat'iy ta'qib qilardilar.

Ayni vaqtda chor hukumati rus bo'lmagan aholi yashaydigan joylarda maktablar ochar, bu maktablar esa o'z oldiga ruslashtirish maqsadini qo'yar edi.

Chor hukumati tomonidan XX asrning 60-yillarida maktab ustavlari tasdiqlanib, shular asosida boshlang'ich hamda o'rta maktablar qayta tuzilib, rus bo'lmagan xalqlar uchun maktablar tashkil etishga doir davlat hujjatlarini ishlab chiqishga kirishdilar.

Maktab ishiga taalluqli asosiy siyosiy va ideologiya sohasidagi ko'rsatmalar 1870-yili chor Rossiyasi xalq maorifi noziri D.A. Tolstoy tomonidan ifodalab berilgandi: «Bizning vatanimizda yashovchi barcha begona (rus bo'lmagan) xalqlarning ma'lumotli bo'lishining oxirgi maqsadi, – deb ma'lum qilgan edi u, – shubhasiz, ularni ruslashtirish va rus xalqi bilan birlashtirishdan iborat bo'lishi kerak».

Ruslashtirish ko'rsatmasi 1870-yili e'lon qilingan bo'lib, unga binoan rus millatiga mansub bo'lmagan barcha xalqlar uchta toifaga bo'lingan edi.

«Juda kam ruslashgan xalqlar». Bularga Sharqiy Sibir va Volgabo'yi xalqlari kirar edi. Bu xalqlar uchun ochilgan maktablarda o'qishni ona tilida boshlash va keyinchalik rus tilida o'qitishga o'tish tavsiya qilinar edi.

«Ruslar ham yashaydigan rayonlarda yashovchi xalqlar». Bu joylardagi maktablarda o'qitishni dastlab rus tilida olib borish, ayrim hollarda

ona tilining yordamiga tayanish va mumkin qadar tezroq faqat rus tilida o'qitishga o'tish taklif qilinardi (masalan, gruzin bolalari o'qitiladigan maktablarda o'qitish shunday olib boriladi).

«Yetarli darajada ruslashgan xalqlar». Ukrainlar, belorus va boshqalar. Bularning maktablarida o'qitishni faqat rus tilida olib borish tayinlangan edi.

Mana shu umumiy direktiv hujjat asosida ulkan Rossiya imperiyasi ayrim hududlaridagi maktablarning ta'lim-tarbiyaviy ish prinsiplarini belgilab beradigan yo'l-yo'riqlar yaratiladi va e'lon qilinadi...

Tarixda o'zbek xalqi ko'p bosqinchilarni ko'rgan. Masalan, mo'g'ul bosqinchiligini oladigan bo'lsak, ular odamlarni qirgan, boyliklarini talon-taroj qilgan... ammo madaniyatiga, tiliga va diniga tegmagan. Eng dahshatlisi, ruslar Turkistonda barcha bosqinchilik ishlarini olib borish bilan birga, xalqning urf-odatidan, tili va dinidan ham ayirmoqchi bo'ldilar.

General Rozenbax shunday degandi: «O'lkani ruslashtirish rejasini amalga oshirishda maktab katta ahamiyat kasb etishi lozim». Haqiqatdan ham mustamlaka davrida rus-tuzem maktablari vujudga keldi. Bu maktablarning asl maqsadi o'lkani ruslashtirish edi. Afsuski, bu o'rinda boshqa tishga tegadigan nozik bir holat ham bor. «Tuzemes» degani ruscha-o'zbekcha lug'atda «mahalliy xalq», «tub aholi» deb tarjima qilingan. Rus olimi Vladimir Dalning «Velikorus jonli tilining izohli lug'ati» kitobida esa, mana shunday jumlar yoziladi: «*Tuzemes. Mestno'y otnosyahiy-sya do izvestnoy strani...Tuzemnie jiteli chasti Okeanii stoyat na niz-shey stupeni chelovechestva*».

XX asr boshlarida Turkistonda hammasi bo'lib 20925 ishchi bo'lgan, xolos. Temiryo'llar o'lkamizning barcha boyliklarini Rossiyaga tashib olib ketish maqsadida qurilgan. Yangi ochilgan turli maktablar esa mustamlakachi amaldorlar uchun tilmochlar tayyorlab berish uchun xizmat qilgan.

Rossiya xalqlari uchun hukumat maktablari

Musulmon aholisi yashaydigan joylarda qadimdan maktab-madrasalar mavjud bo'lib, bularga qarshi chor hukumati Rossiyadagi ko'psonli xalqlar uchun maxsus hukumat maktablari barpo qilar edi. Bu maktablarning ko'pchiligida o'qitish rus tilida olib borilardi. Ularning biri – to'rtiyillik, ikkinchisi – ikkiyillik edi. Ba'zi-bir to'rtiyillik maktablarda internatlar ham bo'lib, ularda ko'proq mahalliy aholining boy qatlami bolalari ta'lim olardi. Turkiston 1880- yili Rossiya tasarrufiga o'tganidan keyin Marka-

ziy Osiyodagi rus-tuzem maktablari ancha mashhur bo'ldi. Ammo mehnatkashlarning bolalari uchun yaxshi yo'lga qo'yilmagan ikkiyillik savod chiqarish maktablari ochilgan edi. O'qish muddati ikki yil bo'lgan milliy maktablardan, masalan, qozoqlarda ovul maktablari, deb atalgan maktablar tipik maktab sanalar edi.

Dastlabki ovul maktablari 1892-yili To'rg'ay oblastining ovullarida tashkil topgan bo'lib, aholining ko'chmanchilik turmushiga moslashtirilgan edi. Ovul maktablarida rus tili, arifmetika, qozoq alifbosi va islom dini o'qitilar edi. Bu maktablarda o'qitish o'quvchilarning ona tilida olib borilardi, lekin ularning saviyasi juda past edi. 1916-yili 169 ovul maktabi bo'lib, ularda 5 ming o'quvchi o'qirdi, bu maktab yoshidagi barcha qozoq bolalarining faqat 1 foizga yaqinligina tashkil etardi, xolos.

Markaziy Osiyo va Shimoliy Kavkazning musulmon aholisi uchun rus-tuzem maktablari XIX asrning 80-yillaridan boshlab ochila boshladi. Bu maktablar o'z dasturlariga ko'ra rus ministrlilik maktablaridan islom dinining o'qitilishi bilangina farq qilardi. Rus-tuzem maktablarida o'qitish rus tilida, diniy ta'limot esa, o'quvchilarning ona tilida olib borilardi.

Turkistonda dastlab ochilgan rus maktablari

Markaziy Osiyo xonliklarida islom dini davlat dini hisoblanardi. Musulmon ruhoniylari Markaziy Osiyoning feodal hukmronlari bilan mahkam bog'langan edi; shu hukmronlarning yordami tufayli bu yerda musulmonlarning juda ko'p diniy o'quv yurtlari, chunonchi: masjidlar huzurida maktablar, madrasalar va shunga o'xshagan o'quv yurtlari bor edi. Turkistonda birinchi general-gubernator bo'lgan Kaufman barcha musulmon muassasalariga nisbatan «aralashmaslik» (betaraflik) siyosatini tutdi.

O'rta asr musulmon maktablarini isloh qilishdan bosh tortgan chorizm ruslar o'rnashgan yerlarda ochilgan rus maktablarini Turkistonda maorif sohasida o'z siyosatining quroli qilib olishga harakat qildi. (Toshkentda dastlabki rus maktabi 1866-yili ochilgan edi.) Rus maktablariga ruslar bilan birga o'qish uchun mahalliy aholi bolalari ham qabul qilinardi. Turkistondagi boshlang'ich rus maktablarida hunarga Rossiyaning Yevropa qismidagiga qaraganda, ancha ko'proq o'rgatilardi; bundan maqsad – mahalliy aholining bolalarini maktabga ko'proq jalb qilish edi.

Chorizmnining Turkistondagi ruslashtirishdan iborat maktab sistemasi uning Volgabo'yi uchun maqullangan «Ilminskiy sistemasi»dan farq qilardi. Qozon pedagogi Ilminskiy Volgabo'yidagi chuvashlar, mariylar va boshqa xalqlar uchun alohida rus va mahalliy aholi maktablari ochgan

edi. Bu maktablarda o'qish dastlab bolalarning ona tillarida olib borilar, rus tili esa alohida fan sifatida o'qitilar edi, shu bilan birga, hamma darsliklar xristian (pravoslavie) dinini targ'ib qilish ruhida tuzilgan edi. Bulardan farqli o'laroq, islom dini ta'siri kuchli bo'lgan Turkistonning mahalliy aholisi o'rtasida xristianlar missionerligiga ruxsat etilmas edi; buning ustiga rus maktablarida musulmon dinini o'qitish ham man etilgan edi; rus maktablariga o'qishga kirgan yerli aholi bolalari dastlabki kundanoq rus tilida o'qitilar edi.

Turkistonda dastlabki rus o'rta o'quv yurtlari 1870-yillardan ochila boshladi: 1876 -yili Toshkentda, Verniyda (hozirgi Olmaotada) erlar va xotin-qizlar gimnaziyalari, 1879 -yili esa, Toshkentda o'qituvchilar seminariyasi ochildi. Gimnaziyalarga ham yerli aholining bolalari qabul qilinardi. O'qituvchilar seminariyalarida esa, mahalliy aholi bolalariga 103 o'rin ajratilgandi.

Turkistonda dastlab ochilgan ba'zi rus maktablarida o'quvchilarning 104 va undan ko'prog'ini mahalliy aholi bolalari tashkil etgan bo'lsa-da, lekin butun Turkiston o'lkasi bo'yicha hisoblaganda bunday maktablarda o'quvchi mahalliy aholi bolalari 200dan oshmasdi. Bularning ham ko'pi qozoq bolalari bo'lib, o'zbek va tojik bolalari juda oz edi, chunki musulmon ruhoniylari «kofirlar» maktablariga qarshi targ'ibot yurgizardilar. Rus maktablarida, ayniqsa, o'rta maktablarda o'quvchilar o'rtasida o'z ijtimoiy ahvoliga ko'ra boylar va oqsuyaklarning bolalari ko'pchilikni tashkil etardi.

Chorizmning maktab sohasidagi siyosati ruslashtirishdan iborat bo'lsa ham, lekin rus bolalari bilan mahalliy aholi bolalarining birgalikda o'qishlari ular o'rtasida o'zaro do'stlikni tarbiyalar edi.

Rus maktabiga o'qishga kirgan bolalar rus tilini mutlaqo bilmas edilar, natijada ancha qiyinchilik tug'ildirdi. Shuning uchun rus maktabiga kirgan, lekin rus tilini mutlaqo bilmaydigan o'quvchi rus tilida so'zlashishni o'rganib olmaguncha odatda quyi bo'limda o'qir, rus tilida so'zlashishni o'rganib olgandan keyingina yuqori bo'limga o'tkazilardi. Yuqori bo'limlarga o'quv yilining o'rtalarida ham o'tkazilaverardi, chunki maktablar kichkina bo'lib, bir vaqtning o'zida mashg'ulotlar bir necha bo'limlar bilan olib borilardi.

Rus maktablarida o'qiydigan qozoq bolalarning ko'pchiligi internatlarda yashar edilar, xuddi shu internatlarda rus tili yanada tezroq va puxtaroq o'rganib olinardi.

Toshkentdagi gimnaziyada dastlabki yillari mahalliy aholining

bolalarini rus tili bilan ko'proq shug'ullantirish uchun lotin tilini o'rgatishdan ozod qilindi.

1880-yillarning boshlariga kelib rus maktablarida o'qiydigan o'zbek va tojik bolalari uchun islom dinini o'qitish kerak, toki ota-onalari bu maktablardan qo'rqmasinlar, degan fikr tarqalgan edi. Turkiston ma'murlari bu fikrning qanchalik to'g'ri ekanligini tekshirishga qaror qildilar. 1884-yil 19 dekabrda Toshkentda, «eski shahar» qismida sinab ko'rish uchun birinchi rus-tuzem maktabi ochilgan edi. 10 -yillardan keyin Toshkentda bunday maktablar soni to'rttaga ko'paydi. Bu tipdagi maktablar o'lkadagi yirik shaharlar hamda qishloqlarda ham tashkil etila boshladi. O'lkada rus, rus-tuzem maktablari ilk bor XIX asrning 70-yillari yuzaga kelgan bo'lsa, 1904-yilga kelib ularning soni 57taga etdi.

Tadqiqotchi A.Muhammadjonovning ma'lumotiga ko'ra, o'lkada tashkil etilgan rus-tuzem maktablari 1870–1904-yillari quyidagi holatda edi.

Rus-tuzem maktablarida o'quvchilarga rus muallimi rus tilini hamda arifmetikani va boshqa fanlarni o'rgatar, buning uchun o'qish vaqtining yarmi ajratib qo'yilgan edi. O'qish vaqtining qolgan yarmi «Musulmon domla» ixtiyoriga berib qo'yilgan bo'lib, u eski usul maktablaridagidek bolalarga diniy darslar o'qitish bilan shug'ullanardi.

Rus-tuzem maktablarida faqat o'g'il bolalar o'qitilardi. Ota-onalar qizlarini bunday maktablarga bermas edilar. 1903 -yili Turkiston pedagogika to'garagi, Toshkentda qizlar uchun rus-tuzem maktabi ochildi. Lekin bu maktabning faoliyati uzoqqa cho'zilmay, ikki yildan keyin yopilib qoldi.

Rus-tuzem maktablarida rus tilini o'qitish dasturi va uslubi rus bo'lmagan o'quvchilar uchun mo'ljallab tuzilar edi. (Bu maktablarda ba'zan rus bolalar ham uchrab qolardi.)

1884 -yili sinash uchun ochilgan rus-tuzem maktabida (Turkiston o'qituvchilar seminariyasining rus qismida) tarbiyalanuvchilar uchun o'zbek tili kiritildi. Namangan yaqinida bir qishloqda 6 yil yashagan va o'zbek tilini yaxshi o'rganib olgan V.P.Nalivkin, bu maktabda birinchi bo'lib o'zbek tilini o'qitgan edi. U sinash uchun ochilgan rus-tuzem maktabining birinchi o'qituvchisi edi. Nalivkin seminariyada 1890 -yilgacha dars berdi. Dars chog'ida Nalivkin bo'lajak o'qituvchilarga faqat o'zbek tilinigina o'rgatib qolmasdan, balki ularda o'lkani o'rganishga ham havas uyg'otgan edi. Seminariyada o'qib chiqqanlar orasida rus-tuzem maktablarida ishlashga tayyor bo'lgan va bu ishni sevib qolganlar anchagina edi.

Turkistonning rus aholisi maktab ta'limi bilan erli aholiga qaraganda ancha yaxshiroq ta'minlangan edi. Turkiston o'lkasida birinchi bo'lib rus maktabi Toshkentda 1866 -yili, Samarqandda 1870 -yili, oradan 1–2 yil o'tgach, Turkiston o'lkasining boshqa shaharlarida ham paydo bo'ldi.

Bu rus maktablarida mahalliy aholi bolalari juda kam sonni tashkil etardi. 1876 -yili Toshkentda erkaklar progimnaziyasi va qizlar progimnaziyasi ochiladi. 1894 -yili real bilim yurti ochildi. Bu o'quv yurtlarida boshqa shaharlardan kelgan o'quvchilar uchun pansion (yotoqxona) ham bor edi. Bu maktablar davlat byudjetidan ta'minlanardi.

1879 -yili Toshkentda Turkiston muallimlar seminariyasi ochildi. Bu seminariya maktablari rus boshlang'ich sinflari uchun o'quvchilarga ona tilidan muallimlar tayyorlab berishi lozim edi. XIX asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlab seminariya rus-tuzem maktablari uchun ham muallimlar tayyorlashga kirishdi. Mahalliy tilni o'rganish majburiy qilib qo'yilganligi Toshkentdagi bu seminariyaning xususiyatlaridan biri bo'ldi. Unda V.P.Nalivkin o'zbek tilida dars bera boshlagan birinchi o'qituvchi edi. 1887 -yili Nalivkin tuzgan lug'at va grammatika risolasi nashr etildi. Bular tilshunoslik tarixida o'zbek tiliga doir birinchi qo'llanmalar bo'ldi.

Maktablar uchun ajratilgan mablag'ning kattagina qismi o'rta o'quv yurtlariga sarflanardi. Toshkentdagi kadetlar korpusiga ayniqsa ko'p mablag' sarflanardi. Ishlab turgan to'rt o'quv yurtidan tashqari 1900 -yildan boshlab yana beshta o'quv yurti ochildi. Samarqandda va Yangi Marg'ilonda qizlar va erkaklar gimnaziyalari ishga tushdi; 1905–1916 -yillar ichida o'rta maktablar soni ikki baravardan ziyodroq ko'paydi; uyezd markazlarining deyarli hammasida o'rta maktablar paydo bo'ldi.

Iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan Qo'qon va Toshkent shaharlarida 1905–1907 -yillari yangi tipdagi o'rta maktablar – o'g'il va qiz bolalar birga o'qiydigan kommersiya bilim yurtlari ochildi.

Turkistonning iqtisodiy rivojlanishi hunar-texnika tipidagi maktablarning ochilishiga olib keldi. Chunonchi, 1896 -yildayoq Toshkentda paxta zavodlari va boshqa zavodlarni ta'mirlash uchun kadrlar tayyorlaydigan bilim yurti ochildi; 1897 -yili irrigasiya nazoratchilari tayyorlaydigan kurs tashkil etildi. 1902 -yili Toshkent yaqinida qishloq xo'jalik gidrotexnika maktabi ochildi; 1904 -yili Samarqandda bog'dorchilik va shu yilning o'zida Toshkentda temiryo'l texnika bilim yurti ochildi. 1908 -yili A.M.Malinovskaya Toshkentda qo'l-hunar ustalari hamda hisobchilar tayyorlaydigan xususiy qizlar hunar maktabini ochdi. Shu tariqa, Turkistonda madaniy-iqtisodiy rivojlanish ancha yuksak pog'onaga ko'tarildi.

1. XIX asrning II yarmi — XX asr boshlarida chorizm siyosati.
2. Turkiston o'lkasida o'tkazilgan islohatlar asosida qanday maktablar tashkil qilindi?
3. Turkistonda dastlab ochilgan rus maktablarining faoliyati.

Turkistonda jadidchilik harakati va ta'lim-tarbiya

Turkistondagi jadidchilik harakati tasodifiy hodisa bo'lmay, balki hayotimizdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyotlar mahsulidir.

Jadidchilik oqimining ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy tomonlarini professor Begali Qosimov o'z tadqiqotlarida batafsil tahlil etgan.

XIX asr boshlarida Buxorodagi ma'rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar sistemasi hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshladi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidchilar, ya'ni yangilik tarafdorlari deb atay boshladilar. O'sha davrlarda bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya'ni feodal-o'rtaasrchilik, diniy fanatizm ruhidagi kishilarni esa qadimchilar, deb atay boshladilar. XIX asr avvallarida bir qancha ma'rifatparvar mudarrislar Buxoro shahridagi 200ga yaqin madrasani isloh qilish g'oyasi bilan chiqdilar. Bu harakat boshida madrasa mudarrisi Abu Nasr al-Qursaviy turgan edi. Qadimchilar ularni kofirlik va xudosizlikda aybladilar. Buxoro amiri Haydar esa Qursaviyni zindonga tashlatib, o'lim jazosiga hukm qiladi. Ammo uni tarafdorlari zindondan qochiradilar. Qursaviy Qozonda o'z faoliyatini davom ettirib, 1813 -yili vafot etadi. XIX asrning 50–60 -yillarida diniy islohotchilik harakati yanada kengaya boshlaydi. Endi bu harakat boshida buxorolik mudarris va tarixchi olim Marjoniy (1818–1889), g'ijduvonlik domla Fozil, Mo'minjon Vobkandiy, mulla Xudoyberdi Boysuniy va boshqa mudarrislar turardilar. Ular madrasa va maktablarni isloh qilishni emas, balki ortiqcha darslarni olib tashlash tarafdori ekanliklarini yozadilar. Islohotchilar rahnamosi Marjoniy o'z dasturida quyidagi olti asosiy masalani qo'yadi:

1. Qur'ondagi har qanday diniy masala yuzasidan kishilar bilgan holda o'zlari erkin fikr yuritinsinlar;
2. Birovning birovga ko'r-ko'rona ergashishi qat'iy man qilinsin;
3. Madrasalarda o'qitiladigan hoshiya va sharh kabi quruq mazmunga ega bo'lgan, madrasa o'quvchilari uchun foydasiz hamda ularning 8–10 daqiqa vaqtini bekorga oluvchi darslar dars jadvallaridan olib tashlansin;

4. Madrasalarda Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, ularning tarjimalari va islom tarixi kabi darslar o'tilsin;

5. Arifmetika, tarix, jo'g'rofiya, tabobat, handasa, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o'qishga qarshilik ko'rsatilmasin;

6. Har bir ishda musulmonchilikni Muhammad alayhissalom davridagi qadimiy islom madaniyatiga qaytarish ko'zda tutilsin.

Marjoniy va uning tarafdorlari bo'lgan o'sha davrning jadidlari musulmon taraqqiyparvarlaridan edilar, ular madrasalarda diniy darslar bilan birga, qadimiy islom madaniyati davridagidek, dunyoviy darslarni o'qitishni shart qilib qo'ydilar. Biroq, qadimchilar va amir siyosati natijasida ta'qibga uchragan Marjoniy Buxorodan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Uning maslakdoshlaridan ko'pchiligi zindonga tashlanib, orqalariga 75 darra urilgach, ular tavba qilib, qaytib bunday ishlarni qilmaslikka va'da berdilar

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Bu qarshi kuch vakillari qadimchilar deb atalgan bo'lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar jadid yoki jadidchilar degan nom oldilar. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Yangi asrning boshlanishi bilan avvalgidek ijtimoiy xorlik, iqtisodiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashash mumkin emasligi ular uchun oydek ravshan edi. Markaziy Osiyodagina emas, balki Rossiyada yashovchi xalqlar ham o'z taqdirini o'zgartiribgina, feodal tuzumning negizlarini parchalabgina yangi hayotga qadam qo'yishlari mumkin edi. Oq podsho idora qilgan mamlakatdagi ana shu og'ir vaziyat tufayli 1905–1907 -yillar inqilobi sodir bo'ldi. Bu inqilobdan maqsad – jamiyatni demokratlashtirish, sakkiz soatlik ish kunini joriy etish, dvoryanlar ixtiyoridagi katta er-mulkni olib, dehqonlarga bo'lib berish va hokazolar edi. Birinchi rus inqilobining bu dasturi bilan tanishgan Markaziy Osiyo taraqqiyparvar ziyolilari tatar qardoshlari ortidan borib, jadidchilik harakatiga qo'shildilar. 1907 -yil Eron burjua inqilobi, 1908 -yil Turkiya burjua inqilobi, Markaziy Osiyoda jadidchilik harakatining rasmiylashuvi va kuchga kirishida katta ahamiyat kasb etdi. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar yo'li bilan xalq va jamiyat hayotini yaxshilashga, madaniy yuksaklikka olib chiqishga qaratilgan dasturni bajarishga kirishdilar. Ular ta'sirida o'zbek zaminining boshqa go'shalarida ham jadidchilik harakati avj oldi.

Jadidchilik jamiyatni to'ntarish yo'li bilan emas, islohotlar yo'li bilan rivojlantirishni o'zining asosiy vazifasi deb belgiladi. U o'zining bu vazifasini ado etishda faqat bir sinfga – proletariatgagina tayanmadi. Umuman jadidchilik insoniyatni sinflarga bo'lib tashlash tarafdori emas edi. Jadidlar hatto qadimchilar bilan ham ittifoq tuzib, xalq va kelajak manfaatini yo'lida baqamti ishlash, bugungi ta'bir bilan aytganimizda, turli siyosiy qarashlarga ega bo'lgan xalq qatlamlarining murosayu madora yo'li bilan yashashi va ishlashi g'oyasini ko'tarib chiqdilar. Behbudiy ana shu g'oyani bayon qilar ekan, «ulamo yoki ziyoli va taraqqiyparvarlarimiz boy va avomimiz birlashib, din va millat va vatanning rivoji uchun xizmat etsak», deb yozgan. Jadidlarning bunday intilishlarining boisi avom ham, boylar ham, ulamo ham, ziyolilar ham chor hukumati qaramog'ida bo'lgan mustamlakaning biri oz, ikkinchisi ko'p siquvda bo'lgan kishilar edilar. Markaziy Osiyo bozorlarida rus savdo-sanoat burjuaziyasi hukmron bo'lib, mahalliy burjuaziya vakillari sina boshlagan edi. Boshqacha aytganda, mustamlakachilik azobini mahalliy boylar va savdogarlar ham seza boshladilar. Ana shunday tarixiy sharoitda, jadidlarning fikr-mulohazalariga ko'ra, oddiy xalqning iqtisodiy-madaniy hayotini yaxshilash qanday zarur bo'lsa, chet el kapitali iskanjasidan, mustamlakachilik kishanlaridan qutulish ham shunchalik kechiktirib bo'lmas vazifa edi.

Jadidlar 1906 -yildayoq «Taraqqiy» deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o'z g'oyalarini tarqata boshladilar. Oradan ko'p o'tmay «Xurshid», «Shuhrat» singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko'rdi. Markaziy Osiyoning turli shaharlarida jadid maktablari bodroqdek ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham keng targ'ib qilindi. «Jadidlar nima haqida gapirishmasin, hammasi yangi nafas, yangi g'oya edi, proletar mafkurasi ham, ishchilar sinfi ham yo'q edi, tabiat birlamchi deguvchilarning mafkurasini deyarli hech kim tushunmas, biladiganlar esa juda ozchilikni tashkil qilar edi. Shuning uchun jadidchilikning yangi g'oyalar bilan paydo bo'lib, ruhoniylarga, hukmron sinflarga qarshi turishi, madaniyatni yaratishi, bir so'z bilan aytganda, yangilik edi, «jadid» jumlasining ma'nosi ham «yangi» demakdir».

Jadidlarning harakat dasturi quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgandi:

Diniy taassub va fanatizmga qarshi kurash;

Diniy aqidalarga asoslangan o'rta asr maktablari o'rniga Ovrupo qabilidagi dunyoviy ilmlarni ona tilida o'qitishga moslangan yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, feodal davri maorifini isloh qilish;

Jadidchilik g'oyalarini keng xalq ommasiga etkazish niyatida yangi

o'zbek adabiy tilini ishlab chiqish, matbuot hurligi uchun kurashish, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatrni yaratish;

Xotin-qizlarni paranjidan chiqarish va jadid maktablariga qatnashishlarini ta'minlash yo'li bilan ular taqdirini o'zgartirish;

Mahalliy boylar va savdogar ahlining siyosiy-iqtisodiy jihatdan rus burjuaziyasi bilan bir huquqda bo'lishi, mahalliy amaldorlarning chor hukmdorlari tomonidan siquvga olinishiga qarshi kurash. Shu yo'l bilan mustamlakachilik siyosatini isloh qilish.

Asosiy talablari ana shundan iborat bo'lgan jadidlar uchun ilm va ma'rifat yagona qurol bo'lib, ular shu qurol yordamida o'lkada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashmoqchi bo'ldilar.

Jadidchilik birinchi marta Qirimda paydo bo'ldi. Bu oqimning asoschisi turkiy qavmlarning chinakam jafokashi va iftixori Ismoilbek G'aspiralidir. Sharq xalqlari ma'naviy hayotida, xususan, maktab va maorifida chinakam inqilob qilib, «usuli jadid» nomi bilan tarixga kirgan «usuli savtiya»ni u boshlab berdi. Ismoilbek barcha turkiy xalqlarni yagona millat deb bildi; ilm-ma'rifatda, haq-huquqda ularni dunyoning taraqqiy topgan millatlari bilan teng ko'rmoqni orzu qildi.

Ismoilbek 1851-yilning 21-martida tug'ildi. Uning tarbiyasida onasi Fotima va enagasi Habibaning xizmatlari katta bo'ldi. Ismoilni 8 yoshda eski maktabga berdilar. O'nga kirganda esa, otasi Mustafobek, onasi Fotimaning e'tirozlariga qaramasdan, Oqmachitdagi guberniya gimnaziyasiga olib boradi. Unda ikki yil o'qigach, Voronejdagi ofitserlar harbiy o'quv yurtiga o'tadi. O'n uch yoshida o'qishini Moskvadagi Malutin gimnaziyasiga ko'chiradi. 1868-yili uni bitirib, Boqchasaroyga qaytadi. «Zanjirli» madrasada rus tilidan dars bera boshlaydi. Oradan ko'p o'tmay o'qish-o'rganish ishtiyoqi Ismoilbekni Istanbulga chorlaydi. Keyin Parij, Vena, Myunxen, Shtutgartda bo'ladi. Mashhur Sorbonna universitetiga o'qishga qatnaydi. Nihoyat, 1876-yili Boqchasaroyga qaytib, «Zanjirli»da rus tili muallimi sifatida ishini davom ettiradi.

1883-yilning 10-aprelida I.G'aspiralining «Tarjumon» gazetasining birinchi soni bosmadan chiqadi. Gazetaga yozgan maqolasida u o'quvchilariga, shunday murojaat etadi: «Suyukli do'stlarim, biz uchun eng go'zal ish — ilm va maorif ishidir. Eng muqaddas intilish — ilmga, maorifga intilishdir. Chunki insonni inson etgan mehnat va bilimdir. Bilim madaniy turmushga yetishish vositasidir. Madaniy turmush esa insonning yashash maqsadi, usulidir...».

1884-yili G'aspirali yana bir muhim ishga qo'l uradi. U o'n ikki bolani yangicha — «usuli jadid» bilan o'qitishga kirishadi. Qirq kun ichida ularning savodini chiqaradi. Imtihonga bolalarning ota-onalarini taklif qiladi. Hamma bir og'izdan «usuli jadid»ning beqiyos imkoniyatini e'tirof

etadi. Xullas, Ismoilbek eski maktabda besh yilda olinadigan bilimni ikki yilda o'rgatishga muvaffaq bo'ladi. Shogirdlari uchun «Xo'jai sibyon» («Bolalar muallimi») nomli darslik tuzadi.

G'aspirali jahonning taraqqiy qilgan mamlakatlaridan orqada qolib ketishimizning sabablaridan biri deb o'z davridan uzilgan o'qish-o'qitish sistemasini ko'rsatadi. «Eski usul»da o'qigan va o'qiyotganlarni hech bir kamsitmagan holda, «usul»ni yangilash shartligini uqtiradi. Biz taklif etayotgan usul osmondan tushgan emas, eskisini yangilamoqdir, deydi u. «Jadid usulning intishorini (yoyilishiga) cholishdig'imiz sizlarga va ilma hurmatan bir hikmatdir. Chunki ota-bobo kunlaridan qolmish milliy maktablari isloh etmak usuli jadid demakdir, boshqa bir o'quv, boshqa bir maktab demak dagildir. Usuli jadid oz vaqtda ziyoda va daha mukammal o'qitmoq va uqimoq yo'llarini go'stirar (ko'rsatar), g'ayri bir shay (narsa) dagildir».

Yangi usul maktabida:

Sinfda (maktabda) bolalar soni o'ttizzadan oshmasligi;

Bolalar faqat ikki dafa — yoz va qish boshlaridagina maktabga qabul qilinishi;

Har bir muallimda ko'pi bilan 3-4 sinf bo'lishi;

Agar maktab uch sinfdan iborat bo'lsa, darslar ketma-ket muayyan uyg'unlikda qo'yilmog'i;

7-9 yoshdagi bola uzluksiz 7-8 soat o'qiy olmaydi. Uning uchun 5 soat kifoya. Har darsdan so'ng 10 daqiqa tanaffus;

Juma va bayram kunlari dam olinishi;

O'n oy o'qishdan so'ng yozning issiq kunlarida ta'til bo'lishi;

Dars zeriktirmasligi ...

Shogirdlarini urish va so'kish befoyda ekanligi va boshqalarga e'tibor qaratilgan edi.

G'aspirali «usuli jadid» bilan o'qitishning qoidalarini qo'yidagicha tushuntiradi:

1. Butun alifboni birdan o'rgatish og'ir. Ibtido (boshda) uch, besh harf o'rgatib borish (engil)dur.

2. ... birinchi darsdan shogirdlari yozishni boshlamasliklari darkor.

3. Darslar muayyan soatlarga, qismlarga ajratilib o'rgatilishi lozim.

4. O'quvchi bir darsni o'zlashtirmaguncha ikkinchisiga o'tilmasligi kerak.

5. Harflar bilan tanishtirganda, ular haqida kengroq ma'lumot berilgani ma'qul.

Bolalarni har olti oyda imtihon qilish. Yil oxirida sinfdan sinfga o'tkazish,

o'zlashtirmaganlarni sinfda qoldirish ko'zda tutiladi. Darslar har xil va har biri yarim soatdan bir soatgacha bo'lishi mumkin. Darslar orasida tanaffuslar bo'lmog'i kerak.

Bu maktablar uchun «Xo'jai sibyon» asosiy darslik bo'lib xizmat qilardi. 1910-yilgacha u 27 marotaba nashr qilingan. Lekin «jadidchilikda birgina maktab bilan cheklanilmasdi, u Rusiyadagi musulmon ma'naviy olamining barcha jihatlarini — madrasani ham, matbuotni ham, ilm-fanni ham o'z ichiga olar va, eng muhimi, ularning hammasi turmushga nechog'li daxldorligi, zamonga xizmat qila olishi asosiy mezon qilib ko'zda tutilar edi» (B.Qosimov).

Millatning o'zligini ko'rsatadigan xususiyatlaridan biri — til va maorifdir. Bu ikkisi bo'lmasa, millat mustaqil bo'la olmaydi. G'aspirali 1905-yili yozgan maqolalaridan birida millatning asosi ikkita: tavhidiy til (til birligi) va tavhidiy din (din birligi), degan edi. Darhaqiqat, tilning o'rni beqiyos: «Insonning oti bo'lmasa, o'zi ham yo'q demakdir, shuningdek, tili bo'lmagan inson ham soqovdir». Bu bilan G'aspirali, millatni yo'q qilish uchun yuqoridagilardan bittasining buzilishi kifoya, deydi.

Ismoilbek fenomenining eng muhim jihatlaridan biri, shubhasiz, har bir millatning maorif, madaniyatini milliy zaminda olib borish, milliy til uchun kurash tashkil qildi.

Ismoilbek G'aspiralining nomi Markaziy Osiyoda ham ma'lum va mashhur bo'ldi.

Mahmudxo'ja Behbudiy

(1874 — 1919)

Turkistonda jadidchilik harakati asoschisi, atoqli jamoat arbobi, buyuk islomshunos, ulug' pedagog va axloqshunos, yuksak didli jurnalist Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 19 yanvarda Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida ruhoniy oilasida tavallud topdi.

Mahmudxo'ja 6-7 yoshlarida o'qib xat-savod chiqargach, otasi uni qori qilish maqsadida Qur'onni yodlata boshladi. Mahmudxo'ja Qur'onni yod olgach, qorilik bilan qanoatlanmay 15 yoshlaridan tog'asi mufti mulla Odil huzurida dars olishga kirishdi. Bu erda u «Kofiya», «Shahri mullo», mantiqdan «Shamsiya», «Muxtasar al-viqoya», «Hoshiya» va hisob ilmini o'rganadi. Mahmudxo'ja o'quvchilar orasida ibratlisi hisoblangan, o'tkir zehnlili va o'qishga havasi balandlardan edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy otasi vafot etganidan so'ng o'qishni tark etishga majbur bo'ladi. Samarqand muzofotida endigina qozi bo'lgan tog'asi Muhammad Siddiq huzurida mirzalik xizmatida ishlaydi. Bu yerdagi ikki yillik xizmat chog'ida qozixona ishlari bilan keng tanishadi. Ish

yuritish, huquqqa xos hamda muftilikka tegishli barcha yumushlardan xabardor bo'ladi. U ikki yildan so'ng Kobud bo'lisiga o'tib mirzalik qiladi va tez orada muftilikka ko'tariladi. 1916-yilgacha shu erda ishlaydi...

Sharq xalqlarining ma'naviy hayotida, maktab-maorifida chinakam to'ntarish yasagan, turkiy qavmlarning chinakam iftixori bo'lgan Ismoilbek G'aspiralining «usuli jadid» metodi tarixda katta o'rin tutgani singari, Behbudiyning faoliyati ham Turkiston maktab-maorifida keng o'rin egallaydi. U birinchi bo'lib o'lkada bu yangicha usuldagi maktablarni tashkil etish targ'ibotchilaridan hamda amaliyotchilaridan hisoblanadi. Bu sohada Behbudiy Ismoilbek G'aspiralidan ko'p yangi tomonlarni o'rgandi. «Tarjumon» gazetasi Behbudiy uchun vaziyatni anglashda zaruriy vosita bo'ldi. Gazetaning dastlabki sonlarida: «Bir bechora faqirni ko'rsak, achinamiz. O'layotgan bechorani ko'rsak, yuragimiz iztirobdan og'rinadi. Hatto biror hayvonning qiynalishi rahmimizni keltiradi. Lekin bir emas, minglab kishilarning, butun bir xalqning jaholatdan mislsiz qiynalayotganini ko'rmaymiz», deb yozilgan satrlar bor. Keyin «Tarjumon» sahifalarida yangi maktablar tashkil etish, ilg'or va yangi fikrlarni berish keng o'rin egalladi.

Behbudiy «usuli jadid» maktabining zarurligi, uning qonun-qoidalarini, maktabda o'tiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, maktabning qay tarzda tuzilish, unga qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimlarning vazifalari, ularning ta'minoti masalalari va boshqa ko'p jihatlarni G'aspiralidan o'rgandi. Shular asosida Turkistonda «usuli jadid» maktablarini tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. U shu maktablarni kitoblar bilan ta'minlashda ham jonbozlik ko'rsatdi. U Samarqandning eski shahar qismida bepul kutubxona, qiroatxona, o'z hovlisida maktab ochdi. Mashhur pedagog Abduqodir Shakuriyning yangi usuldagi maktabini o'z hovlisiga ko'chirib keldi.

1918-yili Samarqandda «Musulmon ishchi va dehqon sho'rasi» tuzilganda Behbudiy maorif komissari etib tayinlanadi. Shunda u yangi maktablar tarmog'ini yanada kengaytiradi. O'quv rejalari tuzish, yangi darsliklar yaratish, o'qituvchilar tayyorlaydigan kurslar ochish kabi ishlarni rivojlantiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy «usuli jadid» maktablari uchun bir qancha darsliklar yozadi. «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madxali jo'g'rofiya umroniy» («Aholi jo'g'rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo'g'rofi rusiy» («Rossiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi»), «Amaliyoti islom» kabi kitoblari darslik sifatida o'qitilgandi.

«Usuli jadid» maktablarida hamma o'qish huquqiga ega bo'lgan. Chor

amaldorlari bu paytda Turkistondagi yangi usul maktablarni biron ayb topib darhol bekittirib quyar edi. Chunki podsho hukumati «begona xalq»ning qisman bo'lsa ham ilm-ma'rifatli bo'lishini, dunyoviy bilimlarni o'rganishini istamasdi. Yangi usul maktablarini faqat podsho hukumati emas, balki mahalliy ruhoniylar, eski maktab domlalari ham yoqtirmas edilar. Ular yangi usul maktablari «islom diniga rahna soladi», «bu maktablarning muallimlari «kofir», deb tashviqot yuritir edilar. Bunday qarash va to'siqlarga qaramasdan Behbudiy va uning maslakdoshlari «usuli jadid» maktablarida Turkiston farzandlarini o'qitish ishlarini jadal sur'atda olib borardilar. Maxmudxo'ja Behbudiyning «usuli jadid» maktabidagi o'qitish ishlari quyidagi tartibda olib borilardi:

Maktab ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqich – ibtidoiy qism, deb nomlangan. Buning tahsil muddati to'rt yil. Birinchi yili: forscha va arabcha yozuv hamda o'qish o'rganilgan. Suralar yod olingan. Hisob darsi o'rgatilgan. Umuman bir yil davomida yozmoq va o'qimoqni to'liq o'rganganlar. Ikkinchi yili xaftiyak, imon va e'tiqoddan dars, fors, turkiy va arab tilida she'rlar, qasidalar o'qitilgan. Uchinchi yili Qur'oni Karim, islom ibodati, tajvid, Sa'diydan nasihatlar, fors va turkiy til puxta o'rgatilib, undan insholar yozdirilardi. Hisobdan turli taqsimot va ish yuritish kabi zaruriy jihatlar o'qitilgan. To'rtinchi yili esa, Kalomu Sharif, mufasssal tajvid, forsiy va turkiy nazm va nasr, axloq darsi, turkiy va forsiy til, hisob, tarix, jo'g'rofiya o'qitilgan. Bu to'rt sinfni tamomlagan bolalarni muallimlarning o'zi taqsimlagan. Xohlasa, ikkinchi bosqichga qoldirar, ularning o'zlashtirishlariga qarab madrasaga yuborar, bolaning o'zi xohlasa, Yevropa maktablariga yuborar yoki tirikchilik uchun ishlashga yo'llanma berardilar.

Maktabning ikkinchi bosqichi – rushdiya bo'lib, bunga to'rt sinf – ibtidoiy qismni tamomlaganlar o'tkazilar edi. Bu bosqichda o'qitiladigan dars va ilmlarning mundariyasi quyidagicha: birinchi yili arab tili, jo'g'rofiya, shafaqiya, fors tili, tarjima jumla muxtasar, tarixi anbiyo va islom tarixi, Sa'diyning «Guliston» asari, turkiy til o'qitilgan; ikkinchi yil – arab tili, shifoxiya, tarix, islom, axloq, turk tili, hisob, fors yozuvi va hokazolar; uchinchi yil – arab tili, hisob, xat yozuvi, tarix, turkiy til, rus tili ham o'qitilgan; to'rtinchi yil – arab tili, rus qozixona xatlari, bo'listnoyxona xatlari, turk tili va adabiyoti, salomatlik, maktab va hayot, ishq va muhabbatsiz axloq va boshqa ko'pgina hayotiy darslar o'qitilgan.

Behbudiy maktabida har yilning oxirida tantanali imtixonlar o'tkazilgan. Imtihonlarga, albatta, ota-onalar va boshqa mehmonlar taklif qilinardi. Bu birinchidan: «usuli jadid» maktablarini ko'proq targ'ib qilish va uning o'qish tartiblarini ko'rsatish bo'lsa; ikkinchidan: maktabni hayotiyroq qilish, ya'ni oila va maktab birligini amalga oshirish edi.

Sakkiz sinf, ya'ni ikki bosqichni tamomlagan shogird arabcha, forschacha va turkchada bimalol so'zlab, yozardi. Ruschani ham o'qib, bimalol gaplasha olardi. Turkistonning boshqarma mahkamalarining barchasida ishlashga qurbi etardi. Bu shogird maktabda muallimlik ham qila olar, tijorat bilan ham shug'ullanar, hatto muharrirlik ham qo'lidan kelardi.

Har yilgi imtihonlarga barcha joydagi vakillarga xat yuborilib taklif etilardi. Lekin ko'pchilik maktabning yutuqlarini ko'ra olmaganidan kelmasdi. Behbudiy aytar ediki: «Kelib ko'rsunlar, durust bo'lsa, rivoj bersunlar, nodurust bo'lsa, dalil ila isbot qilsunlar... maqsadimizda xizmatdan va millatdan boshqa narsa yo'qdur».

«Usuli jadid» maktabini yo'lga qo'yish oson kechmadi. Behbudiy va Shakuriy buning uchun barcha taraqqiy etgan musulmon shaharlaridagi maktablarni o'rgandi. Bunday mustamlakachilik davrida Turkistonning istiqboli uchun o'z hovlisida ilm-ma'rifat o'chog'ini ochgani uchun Behbudiyning boshida necha-necha tayoqlar sindi. Shunga qaramasdan jafokash muallim «usuli jadid» maktabini qattiq turib himoya qildi. Uning maktabiga chor rus inspektorlari kelib taftish o'tkazishganida jo'g'rofiya, tarix va hisob kitoblarini otxonaning oxuri tagiga yashirib qo'ygani.

Behbudiy butun vujudi bilan muallim edi. Uning o'zi ham yuqori sinf talabalariga jo'g'rofiya va tarixdan saboq berar, Misr, Turkiya, Qozon va boshqa joylardan olib kelgan turli yangi-yangi kitoblarini yuqori sinf o'quvchilariga, eng yaxshi o'qiganlarga hamda muallimlarga tortiq qilardi. U ne qilsa ulug' Turkiston uchun va uning kelajagi bo'lgan yoshlar uchun qilardi.

Behbudiy axloq va tarbiyaning asosi – maktab, barcha ilmning boshi va ibtidosi maktab. Saodatning, fozil insonning ma'naviy chashmasi – maktab degan aqidaga amal qilardi. Bu borada «Turkiston viloyatining gazetisi», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Osiyo», «Turon», «Hurriyat», «Oyina», «Samarqand», «Mehnatkashlar tovushi», «Ulug' Turkiston», «Najot», «Tirik so'z», «Tarjumon», «Vaqt», «Sho'ro» kabi matbuot sahifalarida yuzlab maqolalar bilan chiqishlar qildi. Ushbu maqolalar asosan tahsil va ta'limning taraqqiyotiga bag'ishlanardi. Masalan: «Tahsil oyi», «Ehtiyoji millat», «Samarqand usuli jadid maktabi xususida», «Majlis – imtihon», «Tarix va jo'g'rofiya», «Samarqand isloh rusum majlisi», «Buxoroda usuli jadida» kabi maqolalarida yangi usul maktablari, uning ahamiyati, yangi maorif va madaniyatni rivojlantirish, dunyoviy fanlarning nafi, ma'rifatga rag'bat, komil insonning tarbiyasi haqidagi muhim ma'rifiy fikrlarni o'qish mumkin edi.

Behbudiy ta'lim va tarbiya, uning muammolari to'g'risida boy publisistik meros qoldirdi. Jumladan, «Imon va islom», «Ixtiyoji millat»,

«Buxoroda usuli jadida», «Hurriyat – ozodlik – erkinlik», «Tahsil oyi», «Ikki emas, to'rt til lozim», «Turkiston», «Millatni kim isloh etar», «Yoshlarga murojaat», «Bizni kemiruvchi odatlar», «Buxoro xonligiga sayohat», «Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiyning yo'li», «Bizga isloh kerak», «Haq olinur, berilmas», «Samarqandda milliy ishlar haqida» va boshqalar.

1917-yilning 16–23 aprelida Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining Qurultoyida millatni o'zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo'lida birlashishga, ittifoq bo'lishga chaqiradi. Ammo u o'z orzulariga erisha olmadi. Behbudiy 1919-yil 25 martda ana shu g'oyalari uchun jadid sifatida ayblanib, Shahrisabzda qamoqqa olinadi va Qarshi shahrida qatl etiladi. U o'limi oldidan qilgan vasiyatida: «Biz o'z qismatimizni bilamiz. Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz...».

Mahmudxo'ja Behbudiyning yangi maktablar uchun yozgan asarlari katta hodisa bo'ldi. Ayni davrda bu darsliklar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng qo'llanildi. Bu kitoblarning bugungi kunda ham qadri yo'qolganicha yo'q. «Kitobat ul-atfol» («Bolalar maktubi») asari o'z davrida bir necha marta nashr etilgandi. Bu kitobga qirqtaga yaqin forsiy va turkiy insholardan namunalar kiritilgan. Shahodatnoma va boshqa ish yuritishga doir hujjatlar yozishni o'rganishdan ta'lim berilgan hamda namunalar keltirilgan. Volostnoyxona, qozixonada yoziladigan hujjatlar ham mana shu kitob orqali o'rgatilgan. Yosh va kattalarga mo'ljallangan 36 sahifalik bu kitob bugun ham nazariy-ma'rifiyigina emas, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. O'zbek tilida ish yuritishimizda bu kitob juda qo'keladi.

Behbudiy o'sha davrdagi madrasalar ahvolini o'zining 1907-yili yozgan «Faryod Turkiston» maqolasida shunday ta'riflaydi:

«Bir madrasaga 20 talaba gapi ila bir noaql mudarris saylanur, bir volostda 40 nafar el boshlaridan 21 nafarni sadosi ila bir johil qozi saylanur». Behbudiy bu mudarris, mufti va qozilarning sakson foizi qariyalardir. Ular yoshlarga qanday bilim va tarbiya bera oladilar, deydi.

Behbudiy Turkistonning kelajagini uning yangi kadrlarida, mutaxassislarida va o'qimishli yoshlarida, deb bilardi. Shuning uchun ham u har bir yozgan maqolasida taraqqiyotga javob beradigan kadr tarbiyalab yetishtirish masalasini qo'yardi. Savdo-sotiq ishlarini keng rivojlantirish, kassa ochib milliy daromadni ko'paytirish zarurligi haqida tushuntirishlar olib borardi: «Imorat qilmoqchi bo'lsak reja loyihasi lozimki,

muhandislarga muhtoj bo'lmiz. Ammo, biz hanuz muhandis ilmini bilmaymiz. Kontur va rasmiy daftar tutib, kassa tuzib tijorat etmoq lozim».

Behbudiy ijodiy faoliyatidagi bosh masala – Turkistonda maorif taraqqiyotidir. U «Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir. Zamona ilm fanidan bebahra millat boshqa millatlarga paymol bo'lur» – degan shiorga sodiq harakat qildi.

Mustamlaka Turkistonni ilmsizlik jaholatidan qutqarish uchun eski maktabni isloh qilish zarurligini isbotlab, usuli jadidiyaga asos soldi.

Behbudiyning g'oyalari milliy pedagogika tarixiga qo'shilgan ulkan hissadir. Uning pedagogik fikrlari faqat u yashagan davr uchungina emas, balki hozirgi yoshlar tarbiyasida ham samarali xizmat qiladi.

Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li

(1878 — 1931)

Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li Turkiston tarixida milliy maorif va madaniyat, ijtimoiy-siyosiy sohada tub burilish yasagan, jadidchilik harakatining tashkilotchilaridan biri bo'lgan.

U o'z millati fidoyisi sifatida Turkiston musulmon xalqlari milliy-ozodlik harakati rivojiga katta hissa qo'shdi.

Abdurashidxon Sotiboldixon Olim o'g'li Munavvar qori 1878-yili Toshkent shahrining markaziy dahasi — Shayx Xovand Tahurning Darxon mahallasida mudarris Abdurashidxon va Xosiyat otin oilasida dunyoga keladi. U etti yoshida otasidan ajraydi. Dastlabki ta'limni onasi Xosiyat otindan oladi, xat-savodi chiqgach, o'sha davrdagi yirik maktabdorlardan biri — Usmon domlada o'qiydi, so'ng Toshkentdagi Yunusxon madrasasida tahsil ko'radi. Biroq, o'sha davrda O'rta Osiyoda ilm markazi Buxoro edi. Shuning uchun u 1898 -yili Buxoroga borib, madrasalardan birida tahsil ola boshlaydi. Ammo ko'p o'tmay, moddiy qiyinchiliklar tufayli Toshkentga qaytib keladi va Darxon masjidida imomlik qiladi. Shu davrda Toshkentda ham jadidchilik harakati kuchayib boradi. Munavvar qori taraqqiyparvarlar safiga qo'shilib, tezda uning yo'lbo'shchisiga aylanadi. U ayniqsa Ismoilbek G'aspiralining «usuli savtiya» maktabiga, chor hukumati mustamlaka o'lkalardagi aholini qanday ma'naviy-madaniy uzlatda saqlagani va undan qutulish choralari haqidagi fikrlariga havas va ixlos bilan qaraydi. Chunki bu davrda birinchidan, eski arab va fors maktabi uslubida faoliyat ko'rsatuvchi ibtidoiy maktablar, madrasalarning o'quv-pedagogika ishlari ancha eskirib qolgandi. Ikkinchidan, chor hukumati Turkiston o'lkasida maorif-

ni rivojantirmaslik uchun astoydil harakat boshlab yuborgandi. O'lkaholisini ruslashtirish siyosati birinchi o'rinda turardi.

Pirovard maqsad millatni yo'q qilishdan iborat bu ma'naviy tajovuzni, ayniqsa, o'zbek ziyolilari har qadamda sezib yurishgan va his qilishgan. Bundan tashqari, mustamlakachilar Turkistonga och nazar bilan qarab, uning boyliklarini shafqatsiz tashiyotganliklari, milliy-ozodlik harakatlarini qonga botirayotganliklari faqat oddiy mehnatkashlarning emas, balki boylar va ziyolilarning ham ko'zini ochib borayotgan edi. Xalqni bu balolardan faqat maktab ta'lim-tarbiyadagi keskin islohotlar qutqara olardi. Shu bois, Munavvar qori rus-tuzem maktablariga qarshi o'z yangi maktablarini ochishga ahd qildi.

Shunday qilib, Munavvar qori 1901—1904 -yillari Toshkentda «usuli savtiya» maktabini ochadi, ayni vaqtda maktabda imomlik ham qiladi. 1906-yili esa, yangi usul maktabi sohasidagi faoliyatini o'z uyining tashqari hovlisida davom ettiradi, oradan ko'p vaqt o'tmay maktab uchun ikki xonali qo'shimcha bino qurdiradi. Qisqa muddat ichida bu maktab dovruqi ortadi, bolalar soni ko'payib ketadi. Natijada qori akaga hammahalla bo'lgan Buvaxon to'ra Poshshaxon o'g'lining tashqi hovlisida ham maktabning ikki sinfli sho'basini ochiladi. Bu erda 1-, 2-sinflarni bitirgan bolalar o'qishni Munavvar qori hovlisida davom ettirganlar.

1913-1914 o'quv yilida maktabda yuqori sinflar (5- va 6-sinflar) ochiladi. To'rtinchi sinfdan rus tili ham o'quv fani sifatida o'rgatiladi. U maktabni isloh qilmay turib, odamlarning ongida o'zgarish yasab bo'lmashligini yaxshi tushunib etgan edi. Munavvar qori farzandlarining taqdiri uchun otalar zimmasida katta mas'uliyat borligini ta'kidlaydi.

Munavvar qori maktab tartib-qoidalariga qat'iy amal qilishni muallimlardan ham talab qilgan, bolalar bilan qo'pol muomalada bo'lishni, ularni urish va jerkishni taqiqlagan. U bolalarga beriladigan jazo va tanbeh demokratik va insonparvarlik ruhida bo'lishi lozim, deydi.

Munavvar qori ziyoli yoshlarni chet elga yuborishni, u yerda ilm-fanni o'rganishni targ'ib qiladi.

Munavvar qori 1909-yili Ubaydulla Xo'jaev, Abdulla Avloniy, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Karim Norbekov va boshqalar bilan hamkorlikda toshkentlik bir boyning raisligida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi. Bu jamiyat orqali qashshoq va kasalmand kishilarga, o'quvchilarga yordam ko'rsatadi va bu bilan cheklanmaydi, u Rossiya va Turkiyadagi oliy o'quv yurtlariga talabalar yuborish bilan ham shug'ullandi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda shu jamiyatning yordami bilan Mirmuhsin Shermuhamedov Ufadagi «Oliya» madrasasida o'qigan...

Munavvar qori fors, arab, rus, turk tillarini mukammal bilgan, ko'p

ulug' adiblarning asarlarini mutolaa qilgan. Munavvar qori o'lkaning qoloqligi sababini axtarar ekan: «Bizning Turkiston mamlakati tuproq, suv va havo jihatidan eng boy mamlakatlardan bo'la turib, na uchun o'zimiz bundan foydalana olmaymiz?» deb afsus-nadomatlar qiladi. «Mana, ket-baket yetgan bunday savollarga javob bermak uchun nodonlik va olamdan xabarsizlik, demakdin boshqa chora yo'qdir. Bu nodonlik va dunyodan xabarsizlik balosidan qutilmak uchun avval oramizda hukm surgan buzuq odatlarning buzuqlig'ini bilmak va o'rganmak kerakdir», deydi u.

U insonning ma'rifatli bo'lib, ko'zi ochilmaguncha, vijdoni uyg'onmasa – na o'zini, na xalqining erkini muhofaza qila olishini, bu iymonsizlik ekanini o'z asarlarida ifoda etadi. «So'nggi ikki yil ichida, – deydi u, – Turkiston xalqining boshina kelgan falokatlar har biri yolg'iz nodonlik va maorifsizlik orqasidangina bo'lganligi har kimga ma'lumdur. Kelajakda bunday falokatlardan qutulmoq va Turkiston xalqi tilagan ravishda idora qilmoq va dushmanlardan saqlamoq yolg'iz maorif vositasi ilagina mumkindir».

Ha, bu Munavvar qorining iymon-e'tiqodidan, vijdonidan dalolat edi. Zero, toshkentlik jadidlar — taraqqiyparvarlar millatni asoratdan ma'rifatgina qutqaza olishi haqidagi xulosaga keladilar.

Umuman, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li ma'rifatparvar inson, istiqlool uchun kurashgan, pedagogik fikr rivojiga munosib hissa qo'shgan mutafakkir olim sifatida shuhrat qozondi.

Is'hoqxon Ibrat

(1862 — 1937)

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning birinchi yarmida yashab, ijod etgan yirik allomalardan biri Is'hoqxon Ibratdir. U ma'rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o'zbek matbaachilaridan biri, sayyoh, xattot, naqqosh, otashin publisist va ilg'or pedagogdir.

Ibratning asli ismi Is'hoqxon, otasining ismi Junaydulladir. Ibrat uning adabiy taxallusidir. Is'hoqxonning o'ziga «Ibrat» taxallusini olishining boisi shundaki, u ijodining dastlabki yillaridan boshlab ma'rifatparvar shoir, olim sifatida nom chiqardi va kishilarni zamon ilmidan, ilg'or madaniyatdan, ta'lim-tarbiyadan o'rnak olishga chaqirdi. Shuning uchun ham o'ziga «Ibrat» taxallusini tanladi.

Is'hoqxon 1279-hijriy (1862-milodiy) yili Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ildi. Uning otasi Junaydullaxo'ja Sunnatil-laxo'ja o'g'li ancha bilimli sohibkor bog'bonlardan edi. U adabiyotga, she'riyatga ixlos qo'ygan va «Xodim» taxallusi bilan birmuncha she'rlar

bitgan kishi bo'lgan. Onasi Huribibi davrining o'qimishli, oqila ayollaridan bo'lib, o'z uyida qishloq qizlarini o'qitardi. Huribibi adabiyot ixlosmandi bo'lib, u ham she'r yozgan. Lutfiy, Navoiy, Jomiy, Bedil, Mashrab kabi buyuk shoirlarning asarlarini mutolaa qilish bu xonadon uchun sevimli mashg'ulot hisoblanardi. Oiladagi bunday ma'naviy muhit Is'hoqxonda adabiyotga muhabbatning erta paydo bo'lishida asosiy omil bo'ldi.

1870-yili Junaydullaxo'ja vafot etib, Is'hoqxon otadan erta etim qoldi. Endi oila qiyinchiliklari butunlay onasi Huribibi zimmasiga tushdi. Mushtipar ona otinlik qilib zo'r-bazo'r ro'zg'or tebrata boshladi.

Huribibi o'z maktabida o'quvchilarga darsni yod oldirish bilan cheklanmay qizlarga yozishni, husnixatni o'rgatar edi. Is'hoqxon ham yoshligidan husnixatga qiziqdi va o'zining bo'sh vaqtlarini ana shu san'at sirlarini o'rganishga bag'ishladi. Adabiyot va san'atga zo'r muhabbat qo'ygan Is'hoqxon ancha mukammal savodga ega bo'lgach, o'qishni davom ettirish uchun uni Qo'qonga yuboradilar. U Muhammad Siddiq Tunqotar madrasasiga 1878-yili o'qishga kiradi.

Is'hoqxon madrasa beradigan ilmlar bilan cheklanib qolmadi. U o'qish mobaynida buyuk Sharq mumtozlari asarlarini mustaqil tarzda qunt bilan mutolaa qildi va bu asarlar umrining oxirigacha unga eng yaqin hamroh bo'ldi. Is'hoqxon madrasada arab va fors tillarini chuqur o'rganish bilan birga, bo'sh vaqtlarida rus tilini ham mustaqil o'rgandi.

Is'hoqxon Ibrat 1886-yili madrasani tugatib, o'z qishlog'i To'raqo'rg'onga qaytib keldi va maktab ochdi. Is'hoqxon maktabiga tovush (savtiya) metodini tatbiq qildi.

1887-yili Huribibi o'g'liga Makkaga olib borishni iltimos qiladi va ular yo'lga otlanadilar. Biroq onaizorga o'z diyoriga yana qaytib kelish nasib etmadi. U yo'lda qattiq shamollab qoldi. Olti oy betoblikdan so'ng Huribibi Jidda shahrida vafot etdi. Is'hoqxonning Sharq mamlakatlariga safarga chiqishidan asosiy maqsadi, birinchidan, onasini hajga olib borish bo'lsa; ikkinchidan, chet el xalqlari hayoti, madaniyati bilan yaqindan tanishish, bu mamlakatlarni o'z ko'zi bilan ko'rish edi.

Is'hoqxon onasini Jidda shahrida dafn etib, Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohatni davom ettirdi va Yevropaning Istanbul, Sofiya, Afina, Rim singari markaziy shaharlarida bo'ldi. Ancha vaqt Afg'onistonning Kobul, Arabistonning Jidda kabi yirik shaharlarida istiqomat qildi. Arabistonning Makka shahridan Qizil va Hind dengizlari orqali Hindistonga bordi. 1892–1896-yillari Hindistonning eng katta port shaharlari – Bo'mbay va Kalkuttada yashadi. Is'hoqxon Ibrat u erlarda ko'p ishlatiladigan to'rt tilni: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini o'rgandi. U chet ellarda o'sha yerlik xalq hayotini, madaniyati va san'atini o'rgandi. Sharq mam-

lakatlariga bosqinchilar orqali kirib kelgan Yevropa madaniyati, tili va san'ati bilan yaqindan tanishdi. «Lug'ati sittati al-sina», «Jome' ul-xutub», «Tarixi Farg'ona» kabi ilmiy asarlari uchun materiallar to'pladi. U bu davrda Sharq xalqlari tillari bilan birga, G'arb xalqlari tillarini ham bilish zarur deb hisobladi va Arabistonda fransuz tilini, Hindistonda ingliz tilini, shu bilan birga, eng qadimiy finikiya, yahudiy, suriya, yunon yozuvlarini o'rgandi.

Is'hoqxon 1896-yili Hindistondan Birma orqali Xitoyga, so'ngra Qashqarga o'tdi. Qashqardan Namanganga qaytib keldi. U chet ellardan bir qancha madaniyat ashyolari, Hindistondan «Santur» nomli musiqiy asbob keltirdi.

Ibrat bu mamlakatlardan yana grammafon, turli millat musiqa va qo'shiqlari yozilgan plastinkalar olib keldi. Bu qo'shiq va musiqani o'z uyida hamqishloqlariga eshittirgan.

Is'hoqxon Ibrat chet ellarda olim va fozil kishilar bilan, ular qaysi din yoki qaysi millatga mansub bo'lishidan qat'i nazar, yaqin aloqada bo'ldi.

U olti tildagi: arabcha, forsha, hindcha, turkcha, o'zbekcha va ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan «Lug'ati sittati al-sina» nomli lug'at kitobini yaratdi. Muallif ruscha yozuvni bilmaydiganlarga ham qulay bo'lishi uchun rus so'zlarini arab yozuvi bilan beradi. Ma'lumki, rus va Yevropa so'zlarini arab yozuvida ifodalash ancha murakkab ish, lekin Is'hoqxon Ibrat bu murakkab ishini muvaffaqiyatli hal etdi.

Is'hoqxon Ibratning mazkur «Lug'ati sittati al-sina» asari bir necha yillik sarguzashtlardan so'ng 1901 -yili Toshkentda nashrdan chiqdi.

Mazkur lug'at ilg'or pedagoglar tomonidan ochilgan usuli savtiya maktablarida ham rus tilini o'rganishda birdan-bir darslik-qo'llanma sifatida foydalanib kelindi.

Tilshunoslik fanining bu murakkab sohasida Is'hoqxon Ibrat ancha mukammal «Jome'ul-xutub» («Yozuvlar majmuasi») nomli ilmiy asar yaratdi. Bu asarda muallif yozuvlarning eng ibtidoiysi piktografik yozuvlardan so'nggi davr eng mukammal yozuvlarigacha bosib o'tilgan tarixiy taraqqiyotni yoritib berishga harakat qildi. Olimning bu asari anchagina katta hajmda — 132 betdan iborat bo'lib, 1912-yili o'zining bosmaxonasi «Matbaai Ishoqiya»da nashr qilindi.

Is'hoqxon Ibratning tilshunoslik sohasida chuqur ilmga ega ekanligi mazkur asarida namoyon bo'ldi. Asarda piktografik yozuvlardan keyin vujudga kelgan eng qadimiy tovush-harf yozuvlari: finikiya, hind, lotin, armani, gruzin, ibroniy va boshqa qirqdan ortiq yozuv, ularning kelib chiqishi, taraqqiyoti haqida ma'lumot beriladi. Ibrat faqat o'z vatanidagi yozuvlarning namunalarini o'rganish bilan cheklanmay arab

mamlakatlaridagi qadimiy yozuvlarni ham o'rgandi, bu yozuvlarni to'g'ri o'qishga harakat qildi. U eramizdan 2000 yil ilgari finikiyaliklar tomonidan vujudga keltirilgan yozuv yodgorliklarini, Kipr orolidagi g'orlardan topilgan yozuvlarni o'z asarida aks ettirdi. Ibrat yozuvlar tarixini o'rganar ekan, tovush-harf yozuv sistemasi birinchi marta Finikiya xalqlari tomonidan yaratilgan va boshqa qo'shni xalqlar: yahudiy, Suriya, arab yozuvlari Finikiya yozuvlari asosida yaratilgan, degan ilmiy xulosaga keldi. Muallif arab yozuvlari tarixi, ularning takomiliga alohida to'xtaladi. U o'z tekshirishlari natijasida quyidagi xulosaga keladi: arab yozuvlari Finikiya yozuvlaridan kelib chiqqan bo'lib, VII asrdan kufiy va nash yozuvlari shaklida rivojlangan. Kufiy va nash yozuvlari asosida nisbatan sodda bo'lgan «suls» yozuvi yaratildi.

«Jome' ul-xutut» asarida dunyoda mashhur bo'lgan 41 xil yozuv sistemasi haqida, shu jumladan, arab xatining suls, rayhon, zulf, humoyun, turra kabi shakllari haqida ma'lumot berilgan, husnixat san'atiga oid fikrlar bildirilgan. Ibrat bu asarida ingliz, fransuz, nemis, lotin kabi chet tillarni o'rganish ham ilm-fan va madaniyatni egallashda katta ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Ibratning jahon xalqlari tarixiga bag'ishlangan mazkur «Jome' ul-xutut» asarining nashr etilishi o'zbek matbaachiligi madaniyati tarixida, yozuvlar tarixini o'rganishda g'oyat muhimdir.

U o'zining «Tarixi madaniyat» asarida xabar berishicha, keyingi 20 yil ichida 14 ilmiy tarixiy, lingvistik, pedagogik asarlar va 30 yillik poetik ijodining majmui bo'lmish «Devoni Ibrat» she'rlar to'plamini yaratdi. Is'hoqxonning tilshunoslikka oid «Lug'ati sittati al-sina», «Jome' ul-xutut» asarlaridan tashqari, tarixshunoslikka oid «Tarixi Farg'ona», «Tarixi madaniyat» va «Mezon uz-zamon» ilmiy asarlari bizgacha etib kelgan.

Is'hoqxon Ibrat «Tarixi Farg'ona», «Tarixi madaniyat», «Mezon uz-zamon» asarlarida ham o'zining pedagogik-ma'rifatparvarlik qarashlarini ilgari surdi. Is'hoqxon chet el sayohatida texnika va madaniyat rivojlangan ulkan shaharlarda bo'ldi. U Turkiston shaharlari ham vaqti soati etib madaniy shaharlar qatoridan o'rin olishiga ishonadi. Buni amalga oshirishning birdan-bir yo'li ilm-fandan, o'qish-o'rganishdan deb bildi.

Is'hoqxon Ibrat 1886-yili eski maktablarga nisbatan birmuncha ilg'or bo'lgan maktabni ochdi. 1907-yili esa ikkinchi marta qishloq bolalari uchun eski maktablardan butunlay farq qiluvchi bepul yangi usuli savtiya maktabi ochdi. Bu maktabda o'z farzandlari Abbosxon, Vaqqosxon, Fayozxonni ham 25 nafar qishloq bolalarini o'qitdi. Maktab o'z uyida, yorug' derazali xonaga joylashgan bo'lib, u yangicha o'quv qurollari — parta, stol, stul, yangi kitoblar, darsliklar, daftar, doska kabilar bilan

jihozlangandi. O'qish-o'qitish ishlarini bo'lsa, u o'zi tuzgan dastur asosida olib bordi. Is'hoqxon maktabda o'zining «Lug'ati sitati al-sina», «San'ati Ibrat qalami Mirrajab Bandiy» asarlaridan, Turkistonda rus-tuzem maktablarining asoschisi va bunday maktablar darsliklarining birinchi avtori S.M.Gramenitskiyning uch qismdan iborat «Kniga dlya chteniya» (O'qish kitobi), rus-tuzem maktablarining birinchi o'zbek o'qituvchisi va bu maktablar uchun o'zbek tilida darslik yaratgan Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Ali Asqar ibn Bayramali Kalininning «Ta'limus soniy», Namangan rus-tuzem maktabining o'qituvchisi M.M.Oraqulovning 1887 -yili nashr qilingan «Samouchitel russkogo yazika dlya russko-musulmanskix shkol» kabi darslik va qo'llanmalaridan foydalandi.

Is'hoqxon yangicha ta'lim-tarbiyaning katta afzalliklarini isbotlashda ko'proq o'zi erishgan yutuqlarga, o'zi amaliyotga tatbiq qilgan yangi metodlarga tayanadi. Is'hoqxon o'z maktabiga haftalik dars jadvalini joriy qildi.

Is'hoqxon bolalarni maktabdan bezdiruvchi, ularda o'qituvchiga nisbatan nafrat uyg'otuvchi tan jazosiga birinchilardan bo'lib barham berdi. U faqat maktabda emas, oilada ham bolani kaltaklab tarbiyalash o'ta noto'g'ri usul ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Ibrat ilg'or pedagoglar orasida birinchi bo'lib 1914 -yili To'raqo'rg'onda rus maktabi ochdi va uni «Uchitel» nomi bilan atadi. Bu maktabda 1916-yilgacha To'raqo'rg'on va qo'shni qishloqlardan 30 nafar o'quvchi tahsil ko'rди. Ibrat bu maktabiga rus o'qituvchilarni jalb qildi, o'zi ham o'qituvchilik qildi. Maktab 1916 -yili yopildi.

Ibrat rus madaniyati va texnikasini o'z ko'zi bilan ko'rish maqsadida 1907-yili Rossiyaning Orenburg shahriga boradi. U erdagi madaniyat, san'at va texnika yangiliklari bilan yaqindan tanishadi. U Orenburgdagi Gaufman degan matbaachidan pulini 10 yil mobaynida to'lash sharti bilan qarzga litografik mashina sotib oladi. Is'hoqxon litografiya'ni va harflarni mashaqqatlar bilan Orenburgdan Qo'qonga poezdda, Qo'qondan To'raqo'rg'onga tuyalarda olib keldi. 1908 -yili o'zi qurdirgan hammom o'rnida «Matbaai Ishoqiya» tashkil etadi.

Turkistonning chekka qishlog'ida matbaaning vujudga kelishi o'zbek xalqining fan va madaniyat sohasidagi katta yutuqi edi. Bu litografiya o'z faoliyatini ilm-ma'rifat tarqatishdan, maktablar uchun darslik-qo'llanmalar nashr qilishdan boshladi. U bu erda birinchi marta 1908 -yili savod chiqarishga bag'ishlangan «San'ati Ibrat qalami Mirrajab Bandiy» asarini nashr qildi. Savod chiqarishda va husnixat namunalari ni o'rgatishda bu asarning ahamiyati, shubhasiz, katta bo'lgan.

Is'hoqxon matbaaga nur taratayotgan quyoshning tasvirini ishlab,

quyosh ichiga «ilm» soʻzini yozgan. Bu bilan maʼrifatparvar Ibrat ilmi nur sochayotgan quyoshga oʻxshatadi. Bu ramziy belgi matbaada chop etilgan kitoblarning koʻpida mavjud edi.

Xalq oʻrtasida kitob va turli risolalarga talabning ortishi natijasida litografiya 1910-yili Namangan shahriga koʻchirildi va tipolitografiyaga aylantirildi. Bu davrda matbaa Turkiston miqyosida katta ahamiyat kasb etdi, «Matbaai Ishoqiya»da katta hajmdagi asarlar ham nashr qilina boshlandi.

Isʼhoqxonning husnixatga, xat-savod chiqarishga bagʻishlangan «Sanʼ-ati Ibrat qalami Mirrajab Bandiy» risolasi, «Ilmi Ibrat» nomli sheʼrlar toʻplami, yozuvlar tarixiga bagʻishlangan «Jomeʼ ul-xutut» kabi maʼrifatparvarlik ruhi bilan yugʻirilgan risola va kitoblari oʻzi tashkil qilgan matbaada nashr etildi.

Namangan matbaasi mahsulotining kun sayin ortib borishi shahar va qishloqlarda kitob doʻkonlari va kitob bozorlarining birmuncha koʻpayishiga sabab boʻladi. 1910-yildan boshlab Namangan shahrida 13ta, Chustda 2ta, Popda 2ta, Yangiqoʻrgʻonda 1 kitob doʻkoni ochildi. Bu doʻkonlarda asosan «Matbaai Ishoqiya»da nashr qilingan kitoblar arzon narxlarda sotilar edi.

Maʼrifatparvar Isʼhoqxon xalqning bilim saviyasini oshirish niyatida kutubxona tashkil qilishga kirishadi, u yana tashabbusni qoʻlga olib oʻz uyida anchagina boy kutubxona tashkil qiladi va uni «Kutubxonai Ishoqiya» deb ataydi. Maʼlumotlarga qaraganda, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondida saqlanuvchi Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asarining Namangan nusxasi, deb nom olgan nodir qoʻlyozmasi «Kutubxonai Ishoqiya»ga mansubdir.

Ibratning maʼrifatparvarlikka oid faoliyatining tub mohiyati shundaki, uning xoh ilm-maʼrifatga chorlovchi sheʼrlarida, xoh publisistik, xoh ilmiy asarlarida, xoh amaliy faoliyatida boʻlsin, inson taqdiri birinchi oʻringa olib chiqiladi. U oʻz ijodida xalqning iqtisodiy-madaniy hayotiga xizmat qiluvchi ilm-fanni, texnikani kuylaydi. Shu nuqtai nazardan uning «Tarixi chofxona», «Madaniyat haqida masnaviy», «Turkiston ahliga xitob», «Gazeta xususida», «Tabrik Namangandin», «Qalam», «Tarixi manzumi vagon Ibratdin yodgor», «Muxammasi Ibrat» kabi sheʼrlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Shoir bu sheʼrlarida ilgʻor fan-texnika, madaniyatning otashin kuychisi sifatida maydonga chiqib, mamlakatni, xalqni qoloqlikka etaklovchi amaldagi qonun-qoidalarini keskin fosh qiladi.

Isʼhoqxon Ibrat oʻz sheʼrlarida xalq farzandlarini dunyoviy bilimlardan bahramand boʻlishga chorlaydi:

*O'qingiz ilmi hikmat sizga bu ish katta ibratdur,
Agar ilm o'rganursiz barcha ishda sizga nusratdur.
Agar ilm o'lmasa, nodon umri barcha kulfatdadur.*

«... Madaniyatni topadurg'on va yurgizadurg'on asbobi ilm ekan, ilm bo'lsa maktab birla bo'lur. Maktab bo'lmasa, olamni vahshiyat tutib, hamma xarob bo'lub ish qo'ldan ketar. Endi lozim bo'ldiki, madaniyat ilm bilan, ilm esa maktab bilan bo'lur... Maktab bo'lmasa bu olamda madaniyat joriy bo'lmaydur», deydi u.

Is'hoqxon xotin-qizlar ozodligi, ularning erkaklar bilan bir qatorda ilm olishlari, mehnat qilishlari uchun kurash olib bordi. 1919-yili uning tashabbusi bilan Namanganda o'zbek ayollari uchun birinchi marta yangi maktab ochildi va Is'hoqxonning taklifi bilan Husain Makaevning rafiqasi Fotima Makaeva o'zbek ayollariga dars bera boshladi.

Ibrat ayollar, yoshlar o'rtasida maktabning ahamiyati, ilm-fan yutuqlari haqida suhbatlar, ma'ruzalar uyushtirib turdi.

Ibrat bu davrda ijodiy ish bilan bir qatorda jamoat ishlari ham olib bordi. U qishloqni obodonlashtirish, maorif, madaniyat, ta'lim-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilashda faol qatnashdi. Maktablar ochish, malakali o'qituvchi kadrlar tarbiyalab etishtirish, yoppasiga savodsizlikni tugatish, xalq farzandlarini maktablarga tortish ishlarida faol ishtirok etdi.

Is'hoqxon Ibrat 1937-yili 75 yoshida vafot etdi. Ijodkor xalqimiz fan, texnika, madaniyat, adabiyot hamda pedagogikamiz taraqqiyoti tarixidagi ulkan xizmatlari uchun To'raqo'rg'on tumani markazidagi 44-o'rta maktabni uning nomi bilan atashga qaror qildi. Ma'rifat darg'asi, ota-shin shoir, olim va mohir o'qituvchi, shubhasiz, ana shunday tahsinga loyiqdir.

Saidahmad Siddiqiy

(1864 — 1927)

Saidahmad Siddiqiy ta'lim-tarbiya sohasida o'z o'rniga ega.

Saidahmad Siddiqiy hunarmand-dehqon oilasida tug'ilib o'sdi. Boshlang'ich maktabni tugatganidan so'ng madrasaga o'qishga kirdi. Ammo tez orada turmush qiyinchiliklari sababli madrasani tashlab, ota kasbi tikuvchilik bilan mashg'ul bo'ldi. Shuning bilan bir vaqtda rus maktabiga ham qatnay boshlaydi va rus tili hamda adabiyotini egallab boradi.

Saidahmad Siddiqiy Rossiya, Yevropa va Osiyodagi bir qancha mamlakatlarga sayohat qiladi. U 1903-yili Samarqandga qaytgach, madaniyat va maorifning faol targ'ibotchisiga aylanadi.

Siddiqiy Samarqand viloyatidagi Halvoi qishlog'ida dehqon va hunarmandlarning bolalariga yangi usul maktabini tashkil etib, unda ta'lim-tarbiyani o'sha davr ilg'or maktablarning tajribasi asosida quradi.

Siddiqiy viloyatda birinchi marta kattalar uchun yangi usul maktabi ochib, madaniy hayotda katta o'zgarish yasadi. U 1914-yili «Zarafshon» kitob savdo do'koni ochib, unda ko'rgazmali qurollar, metodik adabiyotlar, darsliklar, o'quv qurollari, jurnallar bilan savdo qilishga sharoit yaratadi.

Siddiqiy ko'plab asarlar yozdi. Keyinchalik ular o'zbek, fors-tojik tillarida nashr qilinadi. Uning asarlari «Mir'oti Ibrat» (1912-yil, Tiflis), «Anjumani arvoh» (1912-yil, Tiflis), «Ganjinai hikmat» (1914-yil, Toshkent) va «Aynul adab» (1915-yil, Toshkent) kabi to'plamlari nashr qilinadi.

U o'zining asarlarida maktablarda dunyoviy fanlarni o'qitish, dunyoviy ta'lim berish g'oyasini olg'a surib, buning uchun Ulug'bek, Ahmad Donish, Furqat, Muqimiy va boshqalar ijodini o'rgatish, tarbiyaviy ishda qo'llash g'oyalarini targ'ib qiladi.

Siddiqiy birinchilardan bo'lib qishloq tumanlarida yangi usul maktablari ochib, unda nafaqat o'zbek, tojik bolalarini, balki rus bolalarini ham o'qitgan.

Siddiqiy ta'limda o'qitishning yangi ilmiy, ongli, tushunib o'qitish prinsiplarini eskicha hijjalab o'qitishga qarama-qarshi qo'ydi. Mohir o'qituvchi darslarni qat'iy tartib – dars jadvali asosida tashkil etib, o'zbek, rus tillarida chuqur ta'lim bera olgan. U tabiatshunoslik, geografiya darslarida mashg'ulotlarni ochiq havoda o'tgan. Shu usul bilan bolalarning fan, jamiyat, tabiat qonunlarini, sirli voqealarning asl mazmunini tushunib olishlariga alohida diqqat qilgan. Bolalarga uy vazifasi bermagan, ota-onalar bilan juda yaqin munosabatda bo'lgan.

Saidahmad Siddiqiy-Ajziy 1918–1921-yillar davomida huquq ishlari komissari vazifasida ishladi. 1921 -yildan umrining oxirigacha (1927) pedagogik ishda ishlagan, «Xizmat ko'rsatgan o'qituvchi» yuksak unvoniga sazovor bo'lgan.

Abduraqodir Shakuriy (1875 — 1943)

Abduqodir Shakuriy 1875 -yili Samarqandning Rajabamin qishlog'i-da bog'bon oilasida tug'ildi.

Shakuriy eski usuldagi maktabni tamomlagach, Samarqand shahridagi madrasaga o'qishga kirdi. Shakuriy o'zbek va tojik tillarida

yozgan tarjimai hollarida rus gimnaziyasiga borib uning ichki tartib-qoidolari va o'qitish usullari bilan tanishganligini qayd etadi. Shundan keyin yosh muallimda o'z xalqining bolalari uchun ham shu tartibdagi yangi maktab tashkil qilish orzusi paydo bo'ladi.

Shakuriy do'stlari yordamida Qo'qon shahriga boradi va u erda o'n kun davomida yangi maktabdagi o'qish-o'qitish usullari bilan tanishadi. Samarqandga qaytib kelgach, bu yangi usullarni o'zi ochgan maktabda qo'llay boshlaydi.

Shakuriy dastlab maktabda o'quv jihozlarini o'zgartiradi. U ustalar-ga parta va doskalar buyuradi. Shu asosda birinchi marta o'z qishlog'i Rajabaminda 1901-yilning kuzida yangi usuldagi maktab tashkil qiladi. U davrlarda darslik va qo'llanmalar bo'lmaganligi sababli Shakuriy harflarni doskaga yozib qo'yar, o'quvchilar esa shuni o'z daftarlariga ko'chirib yozar edilar. U qisman tatar tilida yozilgan kitoblardan ham foydalanardi.

Shakuriy o'z xotiralarida tatar pedagogi Abdulhodiy Maqsudiyning «Muallimi avval», «Muallimi soniy» kabi darsliklaridan o'z vaqtida foydalanganligini ko'p martaba eslaydi.

Chor hukumatining mahalliy amaldorlari bu maktabning ochilishi-ga rasman qarshi bo'lib, uning o'quv dasturini qattiq nazorat qilardilar. Ular maktabda o'tiladigan diniy darsliklarga hech qanday to'sqinlik qilmas, ammo dunyoviy fanlarning o'qitilishidan tashvishlanar edilar.

Shogirdlarining aytishicha, Shakuriy qiyinchiliklar bilan qo'lga kiritgan yagona globusni faqat maxsus vaqtda sinfga olib kirar, boshqa vaqtda esa yashirib qo'yar ekan.

Shakuriy maktabida o'zbek va tojik bolalari birga o'qitilar edi. Bu erda tojik tili asosiy til hisoblanar, bolaning savodi chiqqach, o'zbek va tojik tillarida yozilgan kitoblar o'qitilar edi. Shu bilan birga, o'quvchilarni ozarboyjon va tatar adabiyoti namunalari bilan tanishtirish maqsadida shu tillarda yozilgan ayrim parchalar ham o'qitilardi. Shakuriyning tarjimai holida aytilishicha, bu maktabning to'liq dasturi bo'lgan.

U vaqtlari maktablarda Qur'oni Karim o'qitilar va yodlatilar edi. Shuning uchun yangi usul maktablarida ham diniy kitoblar o'qitilardi, Chunki hech bir ota-ona Qur'on yoki biror diniy kitob o'qitilmaydigan maktabga bolalarini bermasdi. Shuning uchun maktablarda «Haftiyak» ham asosiy o'qish kitoblaridan biri hisoblanardi.

Tatar pedagogi Maqsudiy o'z maktabi uchun darsliklar tuzganda arab tili qoidolari va alfavitini o'qitishga alohida e'tibor bergan. Shakuriy ham o'z maktabida bunga rioya qilgandi. O'qitishdagi bu usul eski maktablardagi o'qitish usullariga qaraganda savod chiqarishni ancha engillashtirardi.

Shakuriy o'z o'quvchilari uchun bir yilda bir marta imtihon uyushtirardi. Imtihonda u ota-onalar oldida o'quvchilar bilimining natijalarini namoyish qildirardi, ota-onalar esa, o'z bolalarining qisqa muddat ichida xat-savodli, hisob, geografiya va tibbiyotdan ma'lumotga ega bo'lganini ko'rib hayratlanardilar.

Shakuriy maktabining shuhrati keng tarqala boshladi, O'rta Osiyodagi boshqa ma'rifatparvar kishilarning diqqatini jalb etdi.

Jumladan, shoir, dramaturg va pedagog Hamza Hakimzoda Niyoziy Shakuriy ochgan maktab bilan juda qiziqqan. U 1909-yili Shakuriy ochgan maktabni ko'rish, uning imtihonlarida qatnashish uchun Samarqandga keladi. Bu maktabdagi o'qish-o'qitish tartibi va imtihon natijalari Hamzada yaxshi taassurot qoldiradi. Hamza va Shakuriy bir-birlari bilan do'slashib, ko'p yillar davomida xat yozishib turadilar.

Shuni qayd etish kerakki, Shakuriy faqat o'qituvchilik qilish bilangina cheklanib qolmagan, u o'z maktabi uchun darsliklar yozib, ularni o'z mablag'i hisobiga nashr qildirgan. Chunki o'zbek va tojik bolalarini tatar tilida yozilgan darsliklar bilan o'qitish katta qiyinchiliklar tug'dirar, bu darsliklar bolalar uchun uncha tushunarli emas edi. Shuning uchun u o'quvchilarga ularning ona tilida darsliklar yaratish zarur, deb hisoblardi.

Shakuriy bolaning yosh xususiyatiga muvofiq tarzda axloq, odob va turmush qoidalaridan dastlabki ma'lumot berishni ko'zda tutib darsliklar tuzishga kirishadi. Birinchi navbatda, alifbe tuzadi. «Rahnamoi savod», deb atalgan bu kitob yaxshi qog'ozda nasta'liq xati bilan yozilgan edi. Shakuriyning shogirdi, yozuvchi Rahim Hoshimning aytishiga qaraganda, bu kitobda so'zlar bo'g'inlarga ajratib ko'rsatilgan, kitob oxirida o'qish uchun kichik-kichik matnlar berilgan ekan. Shakuriy ko'pyillik pedagogik faoliyati natijasida bolalarni o'qitishda «tovush-harf» metodi (har bir tovushni alohida harf bilan yozish)ning qulay va oson ekanligini aniqladi va 1913-yili uning rahbarligida o'z shogirdlaridan va Samarqandning mashhur pedagoglaridan biri Ismatulla Rahmatullaev tovush-harf usuli asosida yangi alifbe tuzdi. Bu kitob Toshkent shahrida nashr qilindi. Kitobning kirish qismida tez va osonlik bilan savodli bo'lish masalasiga oid metodik maslahatlar beriladi.

«Alifbe ta'limi» Ismatulla Rahmatullaevning 10–12 yillik ijodiy ishlari va uning ustози Abduqodir Shakuriyning ko'pyillik amaliy faoliyatining natijasida yaratildi. Ular ko'pyillar davomida boshlang'ich ta'limning turli metodlarini qo'llash, o'z tajribalari, yangi usuldagi o'qish-o'qitish usullari va ko'pdan-ko'p alifbe kitoblarini o'rganish, umumlashtirish asosida bu kitobni tuzdilar. Alifbe 46 betdan iborat bo'lib, taxminan 90 dars uchun mo'ljallangan.

Shakuriy tomonidan 1907-yili yozilgan ikkinchi kitob «Jome' ul-hikoyat» («Hikoyatlar to'plami»)dir. U qayta tuzatilib, to'ldirilib, 1911-yili ikkinchi marta nashr qilingan. Kitob boshlang'ich maktabning ikkinchi sinfi uchun xrestomatiyadir.

Etmish ikki betli bu kitobning matni nafis qog'ozda aniq, chiroyli xat bilan yozilgan. Birinchi qismiga tarbiyaviy ahamiyatga molik 48 kichik-kichik hikoyalar kiritilgan. Ikkinchi qismida mumtoz yozuvchilarning asarlari va tarjimalaridan olingan 15 she'riy parcha berilgan.

Kitobning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, undagi o'quv materiallarining hammasi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shakuriy tomonidan tuzilgan va nashr qilingan yana bir kitob «Zubdat ul-ash'or» to'plamidir. Unda ko'p shoirlarning she'rlari berilgan.

Kitobdagi yangi usul maktabiga atab yozilgan tojik tilidagi she'rda shunday deyiladi:

– Ey muallim, maktabing taraqqiy topib, sernur bo'lsin, yaxshi noming toabad dunyoda mashhur bo'lsin. G'ayrat qil, toki biz olimu dono bo'laylik, axir, biz savtiya usulining sevguchilarimiz, tarbiyat qil, har kishining xotirini shod qil. Har fandan bizga o'rgat, biz bahramand bo'lib nodonlikni nari quvaylik. Garchi nodon kishilar senga ta'na-haqorat etsalar ham g'am ema. Albatta, dushmanlar sharmsor bo'lurlar!

O'sha davrdagi qiyinchilik va to'sqinliklarga qaramay, xalqning bu sodiq do'sti, ma'rifatparvar pedagog Shakuriy butun kuch-quvvatini yangi usuldagi maktab tashkil qilishga sarf qildi, katta g'ayrat, zo'r havas bilan yangi usul asosida o'qish-o'rgatish tartiblarini o'rgandi, savodga o'rgatishning eng qulay va oson usullarini tanlab oldi, yangi usul maktablari uchun darslik va qo'llanmalar tuzib nashr ettirdi.

Shakuriy dastlab qizlar uchun ham yangi usuldagi maktab tashkil qilib, unda o'z rahbarligida xotini muallimalik qilar edi. Keyinchalik o'g'il va qiz bolalar guruhini birlashtirib o'qita boshlaydi.

Demak, u Samarqandda yangi usuldagi maktabning targ'ibotchi va tashkilotchilaridan biri edi. Bu ishda u hech qanday moddiy manfaatni ko'zda tutmas va ayni chog'da hech kim unga moddiy yordam bermas edi.

Abduqodir Shakuriy 1917-yil to'ntarishiga qadar o'qituvchilik bilan shug'ullandi. 1917-yili Samarqand shahrining bir guruh ilg'or kishilari Shakuriy pedagogik faoliyatining 15 yilligini nishonladilar.

1921-yili Samarqand shahridagi 13-maktabga mudir qilib tayinlandi. U bolalarni tarbiyalash, o'qitishga katta g'ayrat bilan kirishdi, ko'p yillar davomida shu maktabning mudiri hamda ona tili va adabiyot o'qituvchisi vazifalarida ishladi.

Samarqand maktablariga Shakuriy birinchi bo'lib mehnat va musiqa darslarini kiritdi. U bolalarni qishloq xo'jalik va bog'dorchilik ishlari bilan tanishtirishdan tashqari, ularga muqovasozlik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o'rgatar edi, bu mashg'ulotlar uchun alohida soatlar ajratgan edi.

1923-yilning boshlarida «Pravda» gazetasi mamlakatimiz bo'yicha eng namunali ilg'or maktab hamda mohir va tajribali o'qituvchilar uchun tanlov e'lon qildi. 1923-yilning 8 iyulida gazetada shu tanlov natijalari e'lon qilinadi. Ana shu o'qituvchilar tarkibida respublikadagi maktab o'qituvchilaridan A. Shakuriy bor edi. Boshqa ilg'or o'qituvchilar qatori-da uning nomi ham «Pravda» gazetasining qizil taxtasiga kiritiladi hamda pul mukofoti topshiriladi va Shakuriy haqida bir yaxshi maqola e'lon qilinadi.

Bundan ko'rinadiki, ma'rifatparvar pedagog Shakuriy yangi usulda-gi maktablar tashkil qilishda, o'qish-o'qitishning yangi tartiblarini joriy etish va o'qituvchilarning katta guruhini tarbiyalab etishtirishda xizmatlari juda katta bo'lgan va gazeta redaksiyasi tomonidan yuqori baholangan.

1925-yili Abduqodir Shakuriyning tashabbusi bilan qishloq aholisi o'z mablag'lari hisobiga to'rt sinfli yangi maktab qurib ishga tushiradi.

U 1943 yili vafot etgan.

Abdulla Avloniy

(1878 — 1934)

Taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqi-yotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'analarini, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalalarni aks ettirgan pedagog, olimdir.

Abdulla Avloniy 1878-yil 12 iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, mayda hunarmand-to'quvchi oilasida dunyoga keldi. Ota-onasi savodli kishilar bo'lganlar. Abdulla eski usul maktabini tamomla-gandan keyin 12 yoshida madrasaga o'qishga kiradi. U yozda ishlab ota-onasiga yordam qilar, boshqa vaqtlarda o'qir edi. O'ta iqtidorli bo'lgan Abdulla 15 yoshida she'rlar yoza boshladi. Avbdulla Avloniy 1907-yili «Shuhrat», «Osiyo» nomli yangi gazetalar chiqara boshladi, lekin chor amaldorlari tez orada gazetalarni yoptirib qo'yadi. Abdulla Avloniy keyinroq «Sadoyi Turkiston»(1914–1915), «Turon»(1917), «Ishtirokiyun» gazetalarida, «Kasabachilik harakati» (1921) jurnalida ishlaydi. Shundan so'ng, u o'zbek matbuotning zabardast vakili, o'zbek matbuotning asoschilaridan biri sifatida taniladi.

XX asr boshlarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida, pedagogik fikr rivojida Abdulla Avloniy alohida o'rin egalladi.

Abdulla Avloniy o'zbek xalqning san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta'limi ishlarini yo'lga qo'yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste'dodli pedagogdir.

Abdulla Avloniy o'zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo'lib, o'zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913-yili «Turon» nomi bilan teatr truppasini tashkil qiladi. Biroq bu truppaning professional teatrga aylanishi uchun katta to'siqlar bor edi. Chor hukumatining mustamlakachilik siyosati xalq ijtimoiy ongining uyg'onishiga yordam ko'rsatuvchi teatrlarning barcha shakllariga qarshi edi. Teatrga ana shunday salbiy munosabat bo'lgan bir paytda Avloniyning truppa tashkil qilish va ijtimoiy mazmundagi piesalarni sahnalashtirishi uning xalq ma'rifati yo'lidagi zo'r jasorati edi. Teatrshunos Mamajon Rahmonov Avloniyning teatrchilik faoliyati haqida shunday yozadi:

«Avloniy truppa uchun «Advokatlik osonmi?», «Pinak», «Ikki muhabbat», «Portug'oliya inqilobi» kabi dramalar yozdi, «Qotili Karima», «Uy tarbiyasining bir shakli», «Xiyonatkor oilasi», «Badbaxt kelin», «Jaholat», «O'liklar» kabi sahna asarlarini tatarcha va ozarboyjonchadan tarjima qiladi». Ammo bu asarlar nashr qilinmadi.

1916-yili ozarboyjonlik mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo Toshkentga kelib, «Turon» trupпасi bilan birga «Layli va Majnun» spektaklini qo'yadi. Avloniy bu spektaklda Qaysning otasi rolini ijro etadi. Truppa a'zolari bilan Avloniy 1914—1916-yillari Farg'ona vodiysida gastrollarda bo'ladi.

Abdulla Avloniy 1917-yil to'ntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan namoyandalari edi. U ilg'or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag'larga dunyoviy ilmlarni o'qitadigan «usuli jadid», ya'ni yangicha ilg'or usuldagi maktablar ochdi va bu maktablarda xalq bolalarini o'qitdi. Marifatparvarlar o'z millatlaridan etuk olimlar, bilimdon mutaxassislar, madaniyat arboblari etishib chiqib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildilar va bu yo'lda fidoyilik ko'rsatdilar.

Abdulla Avloniy 1907-yili Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi maktablar ochdi. Maktablardagi o'quv jihozlarini o'zgartirdi, o'z qo'li bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag'al kishilarning bolalari bo'lganligi uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta'minlash maqsadida, do'stlarining ko'magida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi va bu jamiyatga o'zi raislik qiladi.

«Nashriyot» shirkati tuzib, Hadrada «Maktab kutubxonasi» nomli kitob do'konini ochdi. Avloniyning maktabi o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra mashg'ulotlarni sinf-dars usuli asosida o'z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktablaridan farq qiladi. U o'z maktabida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat kabi fanlardan muayyan ma'lumotlar beradi.

Abdulla Avloniyning ilk o'quvchilardan biri, Toshkent davlat universitetida uzoq yillar dars bergan taniqli pedagog, marhum Yusuf Tohiriy Avloniy Mirobodda tashkil qilgan maktab haqidagi xotiralarida shunday deb yozgan edi:

«Shaharning qarama-qarshi chekkasida, temiryo'l ishchilari istiqomat qiladigan Mirobodda yangi tipdagi maktab ochilganligi haqida eshitib qoldik. Tez orada bu maktabning fazilatlarini haqidagi shov-shuvlar, uning muallimi Avloniyning dovruqi butun shaharga tarqaldi. Hammaning tilida: «Miroboddagi maktab 6 oyda o'qish-yozishni o'rgatarmish, jo'g'rofiya, hisob, tabiatni o'rganish degan darslar o'qitilarmish», — degan gap yurardi. Bizga juda sirli tuyulgan bu maktabni va uning donishmand muallimini ko'rishga oshiqardik. Nihoyat, bir kuni uch-to'rttamiz borishga jazm qildik.

Maktab pastakkina, nimqorong'u bo'lib, masjid yo'lagiga joylashgan edi. Xonaning tepasida yorug'lik uchun qoldirilgan tuynukdan qish va bahorda qor bilan yomg'ir ham tushib turardi. Lekin xonada o'quvchilar va domlarning shogirdlari ko'p edi. Xayolimizda domlarning allaqanday bir sirli tomoni bor edi. Bizni qotmagina, kichik jussali, qorachadan kelgan, istarasi issiq, cho'qqi soqol bir kishi kutib oldi. Bu nomi tilga tushgan muallim Avloniy edi. O'qishga qabul qilindik. Ko'p o'tmay ko'z oldimizda yangi bir dunyo ochilganiga to'la ishonch hosil qildik. Bolalarimizning oldi bir necha yildan beri maktabga qatnab yurgan bo'lsalar ham mirobodliklar oldida uyalib qoldik. Ular o'qish-yozishda, hisob masalalarini hal etishda, tabiat hodisalaridan xabarlarini bilan hammamizni lol qoldirishdi. Ayni zamonda bizning eski maktabimiz bo'shab, Miroboddagi Abdulla Avloniy maktabi bizdan borgan bolalar bilan liq to'ldi. Shu tariqa, bu maktab tobora shuhrat topib bordi».

Abdulla Avloniy «usuli jadid» maktablari uchun to'rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud Milliy she'rlar» hamda «Birinchi muallim»(1912), «Turkiy Guliston yoxud Axloq»(1913), «Ikkinchi muallim»(1915), «Maktab gulistoni»(1917) kabi darslik va o'qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publisistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilmfanni, maktab va maorifni ulug'lab, o'z xalqini ilmi, madaniyatli bo'lishga chaqiradi.

XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning «Birinci muallim»i ham o'ziga xos o'ringa ega. «Birinci muallim» 1917-yil to'ntarishiga qadar 4 marta nashr etilgan. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda, Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval»iga suyanadi (dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalanadi).

Avloniyning «Ikkinchi muallim» kitobi «Birinci muallim» kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobni, shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobni xrestomatiya deb atasak xato bo'lmaz.

Kitob maktabni olqishlovchi she'r bilan boshlanadi:

*Maktab sizi inson qilur,
Maktab hayot ehson qilur,
Maktab g'ami vayron qilur,
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!*

*Maktabdadir ilmu kamol,
Maktabdadir husnu jamol,
Maktabdadir milliy xayol,
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!*

Bu she'rda Avloniy maktabni insonning najot yo'li, hayotning gulshani, kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch, deb maqtaydi.

Kitobdagi dastlabki berilgan ikki hikoya «Saxiylik» va «Baxillik» deb nomlangan. Birinchi hikoyada o'sha davr turmushiga xos bo'lgan voqea tasvirlanadi. Said ismli bolaning otasi har kuni o'g'li maktabga ketishi oldidan unga 10 tiyin ovqat puli berardi. Bir kuni Said maktab yo'lida faqir kishini uchratadi.

«O'g'lim ikki kundan beri ochman, taom olib ey desam ustimdagi yirtiq choponimdan boshqa hech narsam yo'q»,– deydi u. Said qo'lidagi 10 tiyinni beradi va o'sha kunni ovqatlanmasdan o'tkazadi. Otasi o'g'lonning olijanobligidan mamnun bo'ladi, «Saxiy Saidim» deb olqishlaydi. Ertasiga 20 tiyin berib yuboradi.

«Baxillik» hikoyasida bir badavlat kishi misolida uning baxilligi, xasisligi, ziqnaligi va pastkashligi ko'rsatiladi.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida «Turkiy Guliston yoxud Axloq» asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikr taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir.

«Turkiy Guliston yoxud Axloq» asari axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonliklardan

qaytaruvchi bir ilm — axloq haqida fikr yuritiladi. Shu jihatdan qaraganda, bu asar Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu biligʻ», Nosir Xisravning «Saodatnoma», Saʼdiyning «Guliston» va «Boʻston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Ahmad Donishning «Farzandlarga vasiyat» asarlari shaklidagi oʻziga xos tarbiyaviy asardir.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining oʻrni haqida fikr yuritib: «Agar bir kishi yoshligida nafs buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz boʻlib oʻsdimi, Ollohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq erdan turub yulduzlarga qoʻl uzatmak kabidur», — deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar gʻoyat katta ahamiyatga ega.

Oʻzbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga «Pedagogiya», yaʼni bola tarbiyasining fanidir», deb taʼrif berdi. Tabiiy bunday taʼrif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi toʻrt boʻlimga ajratadi: 1. «Tarbiyaning zamoni». 2. «Badan tarbiyasi». 3. «Fikr tarbiyasi». 4. «Axloq tarbiyasi».

«Tarbiyaning zamoni» boʻlimida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini taʼkidlaydi.

«Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir», deb uqtiradi Avloniy.

Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli boʻlishi avlodlar tarbiyasiga koʻp jihatdan bogʻliq, deb hisoblaydi adib.

Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan — uy, bogʻcha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiyaning doirasini keng maʼnoda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qoʻymaydi. U, birinchi navbatda, bolaning sogʻligi haqida gʻamxoʻrlik qilish lozimligini uqtiradi.

Avloniyning fikricha, sogʻlom fikr, yaxshi axloq, ilm-maʼrifatga ega boʻlish uchun badanni tarbiya qilish zarur: «Badanning salomat va quvvatli boʻlmogʻi insonga eng kerakli narsadur. Chunki oʻqumoq, oʻqutmoq, oʻrganmoq va oʻrgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir».

Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sogʻlom qilish oʻstirishda ota-onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda oʻqituvchilarning faoliyatlariga alohida eʼtibor beradi.

Bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug'ullanish benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur».

Ayni zamonda murabbiy ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydi: «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabitur» – deydi.

Abdulla Avloniy fikricha, inson butun borliqning ko'rki va sharafigidir. Inson o'z go'zalligi va murakkabligi bilan koinotdagi barcha mahluqotlardan afzaldir. Butun mavjudot insonga xizmat qilishi kerak, chunki inson uning sohibidir. Insonning aqli bor, u shu aql yordamida ilm egallaydi, ilm tufayli dunyoni boshqaradi.

«Aql, – deydi Avloniy, – insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur, ruh – ishlovchi, aql boshlovchidur. ...insonni hayvonlardan so'z va aql ila ayirmishdur. Lekin inson aql va idroki soyasida o'ziga keladigan zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan boylab, iplarining uchini qo'llariga bergan insonlarning aqlidur». Avloniy insonga va uning aqliga ana shunday yuksak baho beradi. «Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari najotidur. Agar aqlingni qo'li nafsingni jilovini ushlasa, sani yomon yo'llarga kirmoqdan saqlar. Har narsa ko'p bo'lsa, bahosi arzon bo'lur, ammo aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bo'lur», – deydi u.

«Turkiy Guliston yoxud Axloq» kitobi ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qiladi. Abdulla Avloniy kitobda ilm to'g'risida bunday deydi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g'oyat oliy, muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur... Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabitur...». Avloniy ilmning amaliy va hayotiy foydalarini alohida ta'kidlaydi: «Bizlarni jaholat, qorong'ulikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur... Alhosil, butun hayotimiz, salomatligimiz, sadodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog'lidur».

Adibning obrazli ifodasiga ko'ra, ilm bamisoli bodomning ichidagi mag'iz. Uni qo'lga kiritish uchun mehnat qilish, ya'ni chaqib uni po'cho'gidan ajratib olish kerak.

Avloniy yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Uning fikricha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, u o'likdir. Avloniy o'z ilmini amalda qo'llay oladigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni dono insonlar, deb ataydi.

Abdulla Avloniy yoshlarni foydali kasb-hunar egallashga chaqiradi. Adib boylik ketidan quvuvchilarni, ularning odamgarchilikka to'g'ri kelmaydigan ishlar bilan shug'ullanayotganini ko'rib, ulardan nafratlanadi. Avloniy yoshlarni boylikka ruju qo'ymaslikka undaydi. Boylikni o'tkinchi bulutga o'xshatadi.

Abdulla Avloniy mehnatsiz kun kechirishni barcha yomon sifatlarining ibtidosi, deb hisoblaydi. Shuning uchun ham u mehnatni ulug'laydi, mehnat kishining eng go'zal fazilatidir, deydi. Bu jihatdan uning «Aqli bog'bon» hikoyasi xarakterlidir.

Hikoyada aytilishicha, «bir bog'bonning uch o'g'li bo'lib, ular dangasa va ishyoqmas bo'lganlar. Otada ularga meros qoladigan tangatillo yo'q. Ota umri tugayotganini sezib, farzandlari taqdiridan tashvishga tushadi. O'ylab-o'ylab shunday yo'l tutadi. Har uchchala o'g'lini yoniga chorlaydi. «Ko'zim ochiq ekan, vasiyatimni sizlarga aytib ketay. Mehnatu mashaqqat ila bir ko'za oltin yiqqanman. Uni mana shu boqqa, toklarning birini tagiga ko'mganman. U – sizlarniki. Biroq bu ishga ko'p yil bo'ldi. Harchand urinsam ham ko'milgan joyni xotirlay olmadim. Uni o'zlaringiz izlab topinglar va o'zaro bo'lishib olinglar», deydi.

Bir ko'za tilla daragini eshitib uch ishyoqmas uni izlashga tushib ketadi. Bog'ning hamma yerini kavlab chiqishadi. Sirli ko'za chiqmaydi. Yana erinmay kavlashga tushadilar. Kutilgan natija esa hamon yo'q. Shu taxlit bog' ichi bir necha qayta ag'dar-to'ntar qilinadi. Yerlar qazilaverib, tuprog'i upaga aylanib ketadi hamki, oltinli ko'za topilmaydi. Bu orada uzumzordagi toklarning eng chuqur ildizlarigacha ochib ko'riladi. Bog'da o'sha yili chunonam hosil bo'ladiki, undan bir necha ko'zani to'ldirgulik oltin oladilar. Uch dangasa o'g'illar ota gaplarining asl ma'nosini, oltin – mehnatda ekanligini tushunib etadilar».

Adib o'sha hikoyachasi bilan mehnatni ulug'laydi, o'quvchi qalbida mehnatga muhabbat uyg'otadi. Kishi baxt va saodatga faqat mehnat orqaligina yetishishini uqtiradi.

Abdulla Avloniy o'z asarida sabr, toqat, sabot va matonat masalalariga to'xtab: «Har bir ishda sabr ila harakat qilmoq lozimdur. Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdir, maqsadga yetish yo'lidir. Nafsni sabr ila rom qilgan kishi har ishda oshiqmay, ohista harakat qilur. Nafsini halokatdan, g'ururdan saqlar. Sabr shunday bir kuchli narsadurki,

shahvatni iffatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilmga, kattalikni tavozu'ga, yomonlikni yaxshilikka aylandurmoqg'a quvvati yetar... Sabr shodlig'ning kalitidir...», – deydi.

Avloniy intizomni inson xarakterini tarbiyalovchi, mukammallashtiruvchi omil, deb biladi hamda unga doim rioya qilish kerakligini ta'kidlaydi: «Intizom qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yashay olmas edilar».

Vatan tuyg'usi eng insoniy va eng mo'tabar tuyg'ulardan biri. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas, uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Avloniy Vatan va uning oldidagi burchni shunday tushunadi:

«Har bir kishining tug'ulib o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sg'on yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi – tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohatda yashamas...

Biz turkustonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suydig'imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho'llarini, eskimular shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyod suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab, hijrat qilur edi».

Abdulla Avloniy o'z ona tilini mukammal bilish, har bir so'zni o'z o'rnida ishlatish, milliy adabiy tilning taraqqiysi uchun jonkuyarlik qilish zarur, deydi: «Har bir millatning dunyoda borligin ko'rsatarg'on oynai hayoti: til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmoq millatning ruhini yo'qotmoqdur. Hayhot! Biz Turkistonliklar milliy tilni saqlamoq, bir tarafda tursin kundan-kun unutmoq va yo'qotmoqdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilib, bir chetiga rus tilini yopishtirmoqdadurmiz. Durust, rus tilini bilishimiz kerak, lekin o'z yerinda ishlatmoq va so'zlamq lozimdur. Zig'ir yog'i solub, moshkichiri kabi qilib, aralash-quralash qilmoq tilning ruhini buzadur.

...Bobolarimizga yetushg'on va yarag'on muqaddas til va adabiyot bizga ham kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va axtarsak, yo'qolganlarini ham topamiz. Yo'qolsa yo'qolsin o'zi boshimga tor edi», – deb Yevropa qalpog'ini kiyub, kulgi bo'lmoq zo'r ayb va uyatdur».

Avloniy so'zlashuv odobiga ham alohida e'tibor beradi. U so'zning inson qadr-qimmatini belgilashdagi mohiyatiga yuqori baho berib; «So'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurgan tarozusidir. Aql sohiblari kishining tilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar»,– deydi.

Inson takomili uchun zarur bo'lgan omillardan yana biri – viqordir (viqor – og'irlik, chidam, ulug'vorlik). Avloniy qayd etishicha, el-ulusdan, kishilardan o'zini xoli tutishga yoki yuqori tutishga uringan shaxs elning, kishilarning nazaridan tushib, yakkalanadi va unutiladi. «Viqor deb kibr va g'ururdan, manmanlikdan o'z nafsini saqlamoqni aytilur, – deb yozadi Avloniy. — Chunki g'urur, manmanlik, takabburlik kishini xor, xalq orasida bee'tibor qilur. Har qancha ilm va davlat sohibi bo'lsa ham bir pulcha qadr va qimmat bo'lmas... Vuqur kishi kibr va g'ururdan pok bo'lur. ... Viqorning haqiqiy darajasiga yetmak uchun ilm va ma'rifat lozimdur».

Avloniy xasislikni juda sodda, aniq ifoda va detallar yordamida o'quvchiga yetkazishga urinadi.

— Ipak qurtning taqdirini ko'z oldingizga keltiring. U pilla ichida o'ralib, hayotini mahv etadi. Qanchalar mashaqqat bilan hosil bo'lgan ipak boshqalarga nasib qiladi. Umrini mol-dunyo hirsini bilan o'tkazgan insonlar taqdiri ham shunday, – deydi adib.

«Turkiy Guliston yoxud Axloq»ning birinchi sahifasidan so'nggi sahifasigacha Avloniyni insonparvarlik g'oyalari ifodalangan. U ham-madan burun xalq manfaatini ko'zlaydi, xalqqa bajonu dil xizmat qilishni o'zining muqaddas burchi deb biladi. Uning nazarida, kishilar g'aminini yemagan, xalqdan uzoq turgan ig'vogar, g'iybatchi inson emas.

Muallif chaqimchilik, g'iybat, hasad, munofiqlik, yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik haqida to'xtalib, ularning insonlar hayotiga zararini atroflicha ko'rsatib beradi.

G'iybatchi va chaqimchi kishilarni Avloniy buzoqboshiga o'xshatadi. Buzoqboshi daraxt ildizini kemirib quritgani kabi chaqimchi va g'iybatchilar ham kishilar o'rtasidagi mehr-muhabbat daraxtini yemiradilar. Donishmandlardan biri aytganidek: «Mol va ashyo o'g'rilaridan ko'ra odamlar orasida do'stlik, ulfat, muhabbatni o'g'iraydurgan odamlardan saqlanmoq lozimdir».

Avloniy g'iybatchilik va uning oqibatini shunday tahlil etadi: «Inson boshqa gunohlarini nafsning lazzati uchun qiladur. Ammo g'iybat sohibi lazzat o'rniga o'z boshiga yo bir boshqa kishining boshiga bir balo hozirlaydur. Chunki so'z borib g'iybat qilinmish kishining qulog'iga yetar. G'azab qoni harakatga kirar. G'iybatchidan o'ch olmoq fursatini poylar. Shunday qilub, g'iybat soyasida ikki musulmon orasiga zo'r dushmanlik tushar. Oxiri o'lumgacha borur. Shul tariqa, g'iybatdan tug'ulgan adovat cho'zulmoqg'a oid bo'lib, dushmanlik zo'rayub, o'z oralaridagi xususiy janjallarila aziz umrlarini uzdirub, umumiy xalq foydasi uchun ishlana-durgan milliy ishlardan mahrum bo'lmaklari ila barobar aholining orasidan ittifoqning yo'qoluviga sabab bo'lurlar».

G'iybatni so'ylamoq harom o'lgani kabi eshitmoq ham haromdir.

Rasuli akram nabiyi muhtaram sallolohu alayhi vassallam afandimiz: «G'iybatdan saqlaningiz, g'iybat zindondan ham yomonroqdur», – demishlar.

Avloniy har bir kishi o'z vazifasiga sadoqat bilan kirishishi, agar u murabbiy bo'lsa, o'z shogirdlarining ko'ngliga ma'rifat ishqini solishi, xalq o'rtasiga ma'rifat tarqatishi zarurligini ta'kidlaydi.

«Hozirgi zamonda maqsadga yetmak, o'z millatiga xizmat qilmoq, xalqga maqbul bo'lmoq uchun ilm va mol lozimdur. Olamdagi hamma millatlarning hol va qudratlari mol va boyliklari ila o'lchanadur. ...Mol topmoqning eng barakatli yo'llari: hunarmandchilik, ekinchilik, chorvachilik, savdogarlikdur. Bularning har biriga ham bu zamonamizda bilim lozimdur... Ameriqoliklar bir dona bug'doy ekub, yigirma qadoq olurlar. Yevropaliklar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar. Ammo biz osiyoliklar, xususan, turkistonliklar, dumba sotub, chandir chaynaymiz, qaymoq berib, sut oshiyimiz, non o'rniga kesak tishlaymiz», deb Avloniy hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmoq uchun ilm va ma'rifatni egallashimiz kerak degan shiorni o'rtaga tashlaydi.

Abdulla Avloniy 1917-yil to'ntarishidan keyin, 1918-yildan boshlab respublikamizda o'qituvchilar uyushmasi, tunukachilar, ko'nychilar, hunarmandlar va bosmaxona xodimlarining kasaba uyushmalarini tashkil qilib, ularga rahbarlik qiladi. Sobiq eski shahar ishchi dehqon sovet ijroiya komitetiga rais qilib saylanadi. Avloniy Turkiston respublikasi milliy komissariyatining mas'ul xodimi sifatida milliy urf-odatlar va yangicha madaniy normalar hamda qonunlarga doir masalalar bilan shug'ullanadi.

1919—1920-yillari Avloniy Afg'onistonning Hirot shahrida sovet elchixonasida bosh konsul bo'lib ishladi. Xalqimiz o'rtasida birodarlikni mustahkamlash sohasidagi olib borgan ishlari uchun Afg'oniston shohi Omonullaxon tomonidan kumush soat bilan taqdirlandi. Bular Avloniyning tariximizdagi o'ziga xos o'rni borligini ko'rsatadi. 20-yillari Avloniy turli ijtimoiy vazifalar bilan birga, muallimlik kasbini ham davom ettirdi, savodsizlikni tugatishda faol qatnashdi. Abdulla Avloniy 1920 -yildan boshlab Toshkentda tashkil qilingan o'lka bilim yurtida, so'ngra xotin-qizlar bilim yurtida mudirlik qildi. U xalq maorif institudida, turkfront harbiy maktabida (harbiy bilim yurti) o'qituvchi bo'lib ishladi. 1924—1929 -yillari O'rta Osiyo davlat universitetida (SAGU) va boshqa oliy o'quv yurtlarida o'qituvchilik qilish bilan birga, ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordi.

Abdulla Avloniy yangi adabiyot dasturi asosida 1933-yili o'zbek maktablarining VII sinflari uchun «Adabiyot xrestomatiyasi» tuzdi.

Abdulla Avloniyning mehnati taqdirlanib, unga o'zbek madaniyati va adabiyotini yuksaltirishda, xodimlar tayyorlashda, uzoq yillik halol mehnati uchun 1925-yili «Mehnat qahramoni» unvoni, 1930-yili ilmiy ishlari va asarlari uchun «O'zbekiston maorifi zarbdori» unvoni berildi.

Abdulla Avloniy 1934-yilning 25 avgustida Toshkentda vafot etdi.

Abdurauf Fitrat

(1886 — 1938)

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1886-yili Buxoro shahrida tug'iladi. «Fitrat» Abduraufning adabiy taxallusi bo'lib, bu so'z tug'ma iste'dod degan ma'noni anglatadi. Fitratning otasi savdogarchilik bilan shug'ullangan, dindor, o'qimishli, olam keizishni, tijoratni yaxshi ko'rgan.

Fitratning onasi Mustafbibu noziktab', savodli ayol bo'lib, farzandlari tarbiyasi bilan asosan u shug'ullangan. Mustafbibu bolalarining savodli, bilimdon kishilar bo'lib yetishishlari uchun harakat qilgan. Abdurauf dastlab eski maktabda, so'ngra Buxorodagi Mirarab madrasasida tahsil ko'radi. U arab, fors-tojik, turk adabiyotlarini, falsafani, Sharq xalqlari tarixi va madaniyatini chuqur o'rganadi.

XX asr boshida butun Sharqda bo'lgani kabi Buxoroda ham ijtimoiy fikr taraqqiyotida jiddiy uyg'onish boshlanib, jadidchilik harakati keng yoyiladi.

Jadidlar Orenburg, Qozon, Ufa, Istanbul kabi musulmon madaniyati markazlarining bilim yurtlari orqali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor beradilar. Shu maqsadda 1909-yilning 18 iyunida Buxoro yoshlari «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiyasi») nomli hayriya jamiyati tuzadilar. S.Ayniyning yozishicha, jamiyatning birinchi maqsadi Istanbulga o'quvchilar yubormoq chorasiga kirishmoq edi.

Fitrat 1909-yili «Jamiyati hayriya»ning ko'magida Turkiyaga o'qishga ketadi.

Istanbuldagi barcha buxorolik va turkistonlik o'quvchilar bu jamiyatga a'zo bo'ladilar.

Jadidlar o'z g'oyalari matbuot orqali targ'ib qilishga intildilar. Ular «Ma'rifat» shirkatini tashkil etib, bunda o'zbek va tojik tillarida darsliklar nashr ettiradilar. Tojik tilida «Buxoroyi Sharif», o'zbek tilida «Turon» gazetalarini chiqaradilar, kutubxonalar ochadilar.

Fitrat ham, barcha jadidlar qatori, xalqni ilmiy qilib, hayotni, jamiyatni yangilashga intiladi. U ham ilmiy va badiiy ijod sohasidagi dastlabki qadamlarini ma'rifat izlash va hammani ma'rifatga da'vat etishdan boshlaydi.

1913-yili to'rt yillik o'qishdan so'ng Fitrat yangicha qarashlar bilan Turkiyadan Buxoroga qaytib keladi. U endi faqat ma'rifat va madaniyat tarqatish g'oyasi bilangina yashay olmasdi. Endi uning jadidlar harakatidagi siyosiy jihatdan aralashuvi faollashadi.

Fitrat 1916-yili «Oila» nomli falsafiy asarini yozadi. Bu asar fors tilida yozilib, S.Ayniyning aytishicha, Mirza Abdulvohidning mablag'i hisobidan nashr etiladi. Asarda oilaviy hayot islohotidan bahs yuritilib, adib najot yo'llarini axtaradi.

1917-yili Bokudagi maorifchi do'stlari yordamida o'zining ibtidoiy maktablarning so'nggi sinflari uchun mo'ljallab yozilgan o'zbek tilidagi «O'quv» nomli kitobini nashr ettiradi. Bu kitob o'sha yillari Buxorodagina emas, Samarqand, Toshkentda ham Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov o'quv kitoblari singari yangi usul maktablari uchun juda kerakli tarbiya kitobi bo'lib qolgan edi.

Abdurauf Fitrat o'zining ma'rifatparvarlik yo'lini keyin ham davom ettiradi. Samarqandda «Hurriyat» gazetasida ishlaydi, gazetaga muharrirlik qiladi.

1922–1923 -yillari Fitrat Buxoro Xalq Respublikasining maorif noziri sifatida barcha o'zbek, tojik va boshqa millatlarning bolalari uchun maktablar ochish, o'quvchilarga metodik qo'llanmalar tayyorlash sohasida katta ishlar olib boradi. Xotin-qizlar maktablarini ko'paytirishga, xotin-qizlarni ma'rifatga tortishga alohida e'tibor beradi.

Fitrat o'sha yillari Buxoro Xalq Respublikasidan Germaniyaga, Turkiyaga talabalar yuborish, u yerdagi ilg'or Yevropa ta'lim-tarbiyasi, ilm-fan, texnika sirlarini o'rganish, yangi Buxoro va Turkistonda maorif va madaniyatni rivojlantiruvchi mahalliy milliy kadrlar tayyorlash tashabbuskorlaridan biri bo'ldi. Ayni chog'da Buxoro Xalq Respublikasi raisi Fayzulla Xo'jaev ham Turkiston Sho'rolar Respublikasi rahbarlari Turor Risqulov, Abdullo Rahimboev, Nazir To'raqulov bilan birga Buxoro va Toshkent, Samarqand va Farg'ona, Xo'jand va Xivadan Sattor Jabbor, Sayidali Xo'ja, Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova, Said Sherahmad qizi, Ahmad Shukriy, Ahmadjon Ibrohimov kabi o'nlab mahalliy millat o'g'il-qizlarini Germaniyaga o'qishga yuboradi. Ularning ahvoli, moddiy va ma'naviy, tarbiyaviy ishlaridan xabardor bo'lib turadi. Germaniyadagi o'zbek talabalar «Ko'mak» nomli o'zbekcha jurnal chiqarishadi. Fitratning «Hind ixtilolchilari» sahna asarini, Sadridin Ayniyning «Qiz bola yoki Xolida» o'quv kitobini nashr etishadi. Bu asarlar Buxoro va Turkistondagi milliy zehnlilar orasida keng tarqaladi va sevib o'qiladi.

Fitrat 1923–1924 -yillari Moskva va Leningradda yashab ijod qiladi.

Leningrad davlat dorilfununi 1924-yili Fitratga mumtoz adabiyot to'g'risidagi tadqiqotlari uchun professorlik unvonini beradi. Fitrat O'rta Osiyoning birinchi professori bo'lib tarixga kirdi. U «O'zbek adabiyoti namunalar» kitobida o'nlab mumtoz adabiyotimiz vakillari haqida ma'lumot beradi.

1925-yildan Fitrat turli madaniy-oqartuv, maorif va ilmiy-tadqiqot institutlarida ishlaydi. O'zbekistonda birinchi tashkil bo'lgan Samarqand Pedakademiyasida, Fanlar komiteti qoshidagi Til va adabiyot institutida, keyinchalik Toshkent davlat pedagogika institutida Sharq adabiyoti va tili, tarixidan yuksak saviyada dars beradi.

Professor Fitrat o'sha yillardayoq dunyoga mashhur bo'lgan olimlar – akademik A.Samoylovich, S.Malov, Ye.E.Bertels bilan hamkorlikda o'zbek, tojik va boshqa millat sharqshunos, adabiyotshunos, turkolog olim, muallimlar tayyorlash ishiga ham yaqindan yordam beradi. Bu sohada Fitrat 1937-yili qatag'onga uchragunga qadar Yahyo G'ulomov, Ibrohim Mo'minov, Oybek, Hodi Zarifov, Izzat Sulton, Homil Yoqubov kabi markaziy Osiyoning bo'lg'usi taniqli olimlariga bevosita yoki bilvosita murabbiylik qilgan edi,

1934-yili O'zbekiston Fanlar komiteti qoshida tuzilgan mustaqil ilmiy-tadqiqot institutlarida o'sha davrda taniqli olimlardan Otajon Hoshim, G'ozı Yunusov va boshqalar bilan birga yosh adabiyotshunos hamda tilshunos olimlarga o'zbek adabiyoti tarixi, fors tilidan dars beradi. Sharq adabiyoti, tili, tarixining katta bilimdoni sifatida shuhrat topadi va shogirdlari qalbida o'chmas iz qoldiradi.

Fitratning ijodiy va ijtimoiy faoliyatini nisbiy ravishda ikki davrga ajratish mumkin. Faoliyatining birinchi davrini 1908–1918-yillari yozgan «Rahbari najot», «Munozara», «Sayyohi hindi bayonoti», «Oila» singari asarlari tashkil etib, bular yosh buxoroliklar harakatining g'oyaviy dasturi bo'lib xizmat qilgan edi.

Bu davrda Fitratning «Sayha» she'rlar to'plami, «Begijon», «Mavludu sharif», «Abomuslim», «Temur sag'anasi», «Chin sevish» kabi dramatik asarlari hamda «Siyosiy hollar», «Turkiston muxtoriyati» kabi publisistik maqolalari yaratiladi.

Fitrat ana shu dastlabki asarlari bilan o'zi yashab turgan jamiyatning g'oyaviy asoslarini larzaga keltiradi.

Fitratning dastlabki asarlarida vatanparvarlik mavzui asosiy o'rinni egallaydi. U vatani bilan faxrlanadi, lekin vatanining holi xarobligidan aziyat chekadi. Vatani uchun najot yo'lini qidiradi va bu najot yo'lini ma'rifatda deb biladi. Shuning uchun o'z xalqiga madaniyat va ma'rifat berish uchun tinimsiz mehnat qiladi.

Fitrat ijodiy va ijtimoiy faoliyatining ikkinchi davri 1918—1924-yillarni o'z ichiga oladi.

Bu davrda Fitratning «Uchqun» she'rlar to'plami(1912), «Qiyomat» hikoyasi, «O'g'uzxon», «Qon», «Chin sevis», «Hind ixtilolchilari», «Abul-fayzxon» dramalari hamda bir qancha publisistik maqolalari maydonga keladi...

Fitrat sovetlar tomonidan 1938-yil 4 oktabrda otib o'ldiriladi.

Abdurauf Fitrat yirik davlat arbobi, taniqli tilshunos va adabiyotshunos olim, faylasuf, shoir, dramaturg, publisist, geograf, matematik, tabobat va diniy ilmlar bilimdoni bo'lishi bilan birga, O'zbekistonda maktab va ta'lim-tarbiya rivojiga katta hissa qo'shgan yetuk ma'rifatparvar, islohotchi pedagog sifatida xalq xotirasida qoldi.

Abdurauf Fitratning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari

Abdurauf Fitrat zullisonayn yozuvchi sifatida Alisher Navoiy an'analarini davom ettirib, o'zbek va fors-tojik tillarida birday mukammal asarlar yarata oldi.

Fitratning «Rahbari najot» asari to'la ravishda ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlanadi. Ayniqsa, asarning uchinchi bobi oila, bola tarbiyasi, axloq-odob mavzulariga bag'ishlangan bo'lib, bu masalalar hozirgi davrda ham katta ahamiyatga egadir.

Fitrat ota-onaning vazifasi o'z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligi, bunda: 1) jismoniy tarbiya – salomatlik; 2) aqliy tarbiya – sog'lom fikrlilik; 3) axloqiy tarbiya – axloqi sano, ya'ni axloqiy poklikka e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi.

Asarning «Bola tarbiyasi» masalalari bobida quyidagilar ko'rsatib o'tiladi.

«Oila vazifalaridan biri avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Yosh avlodni tarbiyalash hayotiy vazifalardan hisoblanadi. Ma'lumki, dunyo kurashning umumiy maydoniga o'xshaydi va bu maydonning pahlavonlari insonlardir. Har bir kishi barkamollik yoshiga etgach, u o'z saodati ta'mini uchun shu maydonga kirmasdan iloji yo'qdir. Bu kurashda g'olib chiqish uchun uch xil o'lchov quroliga ega bo'lish kerak: 1) salomatlik; 2) sog'lom fikr (nuqsonsiz fikr, ya'ni yuqori iste'dod); 3) axloqi sano (oliy darajali axloq, ya'ni axloqiy poklik).

Fitrat «Har bir kishi shu uch quroldan birisiz maydonga kirsa, albatta, mag'lub bo'lishi tabiiydir», deb aytib, bu bilan uch tarbiyani doimo qo'shib olib borish kerakligini, agar bularning biron-tasi kam bo'lsa, yetuk kishi

tarbiyalab bo'lmashini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Yana aytadiki: «Agar har bir ota o'z farzandining badbaxt bo'lishini xohlamasa, uni bu maydonning g'olibi qilib tayyorlashi kerak. Farzandingizni jismoniy, aqliy, ruhiy tomondan barkamollikka etkazing va jamiyatning qobil a'zosiga aylanishi uchun g'amxo'rlik qiling».

U bola tarbiyasi faqat oiladagina olib borilmasdan, bu ish bilan keng jamoatchilik, davlat ham shug'ullanishi kerakligini, chunki davlatning kelajagi mana shu yoshlar qo'lida bo'lishini ta'kidlab o'tadi: «Bolalarni barkamol qilib yetkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo'lmashdan, butun qavm a'zolari javobgardirlar, chunki yoshlar hartomonlama barkamol inson bo'lib tarbiyalansa, qavmning kelgusi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ladi».

Fitrat jismoniy tarbiyaga, kishining salomat va baquvvat bo'lib tarbiyalanishiga alohida e'tibor beradi: «Badan tarbiyasiga qadim zamonlardan boshlab katta ahamiyat berilgan. Insonning butun a'zosi salomat va quvvatga ega bo'lmasa, unda inson uzoq yashamaydi. Agar insonning tanasidagi a'zolaridan biriga xalal tegsa, u kishi ishdan qo'lini tortib, boshqalarning muhtojiga aylanadi. Bizning farzandlarimiz ilm olishlari bilan birga, ularning badantarbiyasiga ahamiyat berishimiz lozimdir».

Fitrat bolalarning toza havoda bo'lishlari, tabiat go'zalliklaridan estetik zavq ola olishlariga ahamiyat beradi va deydi: «Havo inson uchun ovqatdan ham muhimdir. Besh-olti soat ovqatsiz turish mumkin, bir daqiqa havosiz turish mumkin emas. Shuning uchun go'daklarni hamma vaqt sof havoga, bog'-chorbog'larga olib chiqish lozimdir. Farangdagi shaharlarning har taraflarida bolalar uchun chorbog'lar, havo maydonchalari yaratilgan. Bulardan tashqari, ularning maktablarida bolalar tanaffus vaqtlarida maxsus maydonchalarda turli o'yinlar o'ynaydilar.

Fitrat bolalarning jismoniy tarbiyasida turli harakatli o'yinlar katta o'rin tutishini ham aytib o'tadi. Ota-onalariga o'z bolalarining shunday o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishlarini ta'min etishlarini maslahat beradi: harakat har bir kishi uchun, ayniqsa, bolalar uchun zarurdir; shuning uchun bolalarni jismoniy chiniqtirishda ularni ayrim o'yinlar bilan mashg'ul qilish foydalidir; bolalarni o'yindan man etishning foydasi yo'qdir; ularning doimo bir joyda o'tirishlari, harakat qilmasliklari ularning badanlari zaif bo'lishlariga olib keladi. Ota-onalar doim o'z bolalarini o'yinga tashviq va targ'ib qilishlari lozimdir. Ammo bolalarning o'yinlari odob va axloq doirasidan tashqari chiqmasligi kerak. Fitrat bu harakatli o'yinlar bolaning aqli, farosati, ilmi rivojlanishiga va to'g'ri axloqiy tarbiya topishiga yordam berishi kerak, deb hisoblaydi. U bu o'yinlar orqali bolaga hayotni o'rgatish, aqliy va axloqiy tarbiya ham berish mumkin, asosiysi, bolani jismonan chiniqtiradi, deb biladi.

Fitrat yana bolalarning sog'lom, jismonan etuk bo'lishlari uchun tozalikning ahamiyati juda kattaligini tushuntirib o'tadi: «Nazofat (tozalik) va pokizalik kattalar uchun qanchalik lozim bo'lsa, kichik bolalarga ulardan ko'ra o'n baravar zarurdir. Uning zarurligining ikki jihati bor. Avvalo, bolalar kattalarga nisbatan oldinroq xastalik qobiliyatiga ega. Shuning uchun ifloslik har qanday bemorlikni keltirib chiqaradigan manba bo'lib, ifloslik kattalarga nisbatan bolalarga o'n barobar ziyon etkazadi.

Ikkinchidan, ular yoshlikdan pokizalikka o'rgatilsa, pokizalik bora-bora ularning odatiga aylanadi. Aksincha, yoshlikdan ifloslikka o'rgatilsa, katta bo'lganda ham shunday odatga o'rganadilarki, bu kishilarning nafratiga sazovor bo'ladi».

Murabbiy bolalarga shaxsiy gigiena qoidalarini o'rgatishni alohida ta'kidlab o'tadi: «Ota-onalar va muallimlar bolalarni har kuni yuzlarini sovunlab yuvdirlsinlar, og'iz va tishlarini tozalab yuvdirlsinlar, doimo liboslarini nazorat qilsinlar, mumkin qadar bolalarni chivin va pashshalar bo'lmagan joylarga o'tkazsinlar, chunki bu hasharotlar turli kasalliklarni tarqatuvchidirlar».

Keyinroq Fitrat fikr – aql tarbiyasi to'g'risida, ya'ni aql rivojlanishida muhokamaning o'rni haqida fikr yuritadi.

Fikr va aql insonni kamolotga yetkazadi va o'qish, o'rganish qobiliyati uni saodatmand qiladi. Insonning komil aqli yaxshilik muhokamasi-dir. Muhokama nima? Muhokama ikki qismga bo'linadi: birinchisi ma'lum bo'lgan hukm, voqea va hodisalar; ikkinchisi, noma'lum voqea va hodisalardan xulosa chiqarilishidir.

Masalan, «Vatan xizmati vojibdir»(shartdir). Bu hukm noma'lum (majhul)dir. Bu hukmga yana boshqa ikki ma'lum hukm lozimdir, ya'ni: «Vatan bizning valine'matimizdir» (sahovatmandimiz, ne'matlar bilan ta'minlovchimizdir). «Har bir valine'mat(oliyhimmat inson)ning Vatan uchun xizmati vojibdir», bas, «Vatan xizmati vojibdir» degan hukm yuqoridagi ikki ma'lum kazi(y)atlar bilan ochiladi.

Demak, muhokama uch qismdan tashkil topib, avvalgi hukm noma'lum bo'lib, qolgan ikki qismi avvalgisini to'ldiradi va kazi(y)ati ma'lum deb, ataladi. Demak, inson muhokama orqali kamolotga etadi. Muhokamaning aniq va ravshan bo'lishi uchun uch narsa zarur bo'lib hisoblanadi: 1. Isobot. 2. Istiqomat. 3. Sur'at.

Isobot ma'lum kaziyyati hukmning to'g'riligiga, bexatoligiga aytiladi. Istiqomat ma'lum voqea-hodisalarning, hukmning barqarorligi, sur'at esa, to'xtovsiz, tezlik bilan tartib berilishi, demakdir.

Avvalo, bolalarni isobot sohibi bo'lishlarida, bir voqea va hodisa ustidan fikr yuritganlarida ularga to'g'ri, bexato ma'lumotlar beraylik. Chunki xato fikrlar ularni xatolarga, xatarli yo'llarga olib borishi tabiiydir. Asossiz muhokama bolalar tarbiyasiga katta ziyon etkazadi. Keyin bolalarni istiqomat sohibi qilib fikr yuritishlariga ahamiyat berishimiz kerak, ularni ma'lum kaziyyatlarni noma'lum kaziyyatlardan to'g'ri, aniq ajrata oladigan holatda tarbiyalash lozim, ya'ni har bir masala sohasidagi ma'lumotlarni g'alati tushunmasliklari uchun bolalarni muhokama qilishga odatlantirish kerak. yomonning yomonligini, yaxshining yaxshiligini muhokama orqali tushuntiring, doimo shunga diqqat qilingki, bolalar hech narsani ko'r-ko'rona taqlid sifatida qabul qilmasinlar.

Fitrat bu fikrlari bilan bolaga to'liq aqliy ta'lim berish uchun mana shu yuqoridagi ijtimoiy, ilmiy, dunyoviy fanlarni maktab dasturlariga kiritish kerak degan xulosaga keladi. Va jadidlar bilan ochgan yangi usul maktablarida iloji boricha shu fanlarni ham bolalarga o'rgatadilar.

Fitrat maktablarda bolalarga nisbatan qo'llaniladigan tan jazolarini butunlay qoralaydi, unga qarshi chiqadi. Bolani tayoq zarbi bilan yaxshi inson qilib tarbiyalab bo'lmasligini tushuntirib beradi.

Fitrat o'quvchi shaxsini hurmat qilish zarurligini, unga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish, qilgan gunohlarini o'ziga to'g'ri, yaxshi so'z bilan tushuntirish kerakligini, shunda u ham o'qituvchini hurmat qilishini uqtiradi.

Fitrat yana bolaga beriladigan bilim uning yoshi va bilish darajasiga mos bo'lishi, bolaga qiyinlik qilmasligini, agar beriladigan bilim bolaga juda oson yojuda qiyinlik qilsa u bilim olishdan bezib qolishini uqtiradi.

Fitrat o'sha vaqtdagi Samarqanddagi ibtidoiy maktablar ishiga yaxshi baho beradi, ayniqsa Shakuriy maktabiga: «Samarqandliklar ikki-uch ibtidoiy maktabga ega, ularning eng yaxshisi Shakuriy maktabi. Garchi bu maktab unchalik taraqqiy etgan bo'lmasa-da, har holda mudir va muallimlarning olijanob himmatlari soyasida qisqa vaqt ichida rivoj topib, kamolotga etishiga umid bog'lasa bo'ladi».

Fitrat inson kamolotga erishish uchun doimo intilishi, harakat qilishi lozimligi, doimo oldiga maqsadlar qo'yishi va unga yetishish uchun kurashishi kerakligini, hech bir baxt yoki boylik inson intilmasa o'z-o'zidan kelmasligini uqtirib o'tadi.

Fitrat bilim va iqtidor inson uchun zarur ekanligini, u mana shu bilimi va aqli bilan dunyodagi barcha mahluqlardan ham ustun turishini, shuning uchun inson doimo bilim olishga va o'z bilimini oshirib borishga intilishi kerak.

Fitrat pedagog olim sifatida maktablar, oliy o'quv yurtlari uchun bir qancha darslik va amaliy o'quv qo'llanmalari yozadi. Bular 1917-yilgi ibtidoiy o'zbek maktablarining so'nggi sinflari uchun yozilgan «O'quv» kitobi, 1918-yili Sh.Rahimiy va Ramazon bilan hammualliflikda yozgan «Ona tili» darsligi, 1919-yili yozgan «Imlo masalalari», 1925-yili yozgan «O'zbek tilining sarfi», «Tojik tilining sarfi», 1927-yili yozgan «O'zbek tilining nahvi», 1926-yili yozgan «Adabiyot qoidolari», 1927-yili yozgan «Eski turk adabiyoti namunalari» va boshqa ko'plab qo'llanmalar shular jumlasidandir.

Fitrat yirik olim sifatida adabiyot nazariyasiga, o'zbek adabiyoti va san'at tarixiga juda katta hissa qo'shdi. U yaratgan ilmiy ishlar: «Qutadg'u bilig», «Adabiyot qoidolari», «Ahmad Yassaviy hikmatlari», «Ahmad Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar», «XVI asrdan so'nggi o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash», «Muhammad Solih», «Aruz haqida», «Abulqosim Firdavsiy», «Ertaklar va haqiqatlar», «O'zbek shoiri Turdi», «Tilimiz», «O'zbek tili saboqlari», «O'zbek musiqasi to'g'risida», «O'zbek mumtoz musiqasi va uning tarixi», «Sharqda shaxmat» va boshqalar. Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Muhammad Solih, Turdi, Bedil, Mashrab kabi ijodkorlarning badiiy meroslariga oid ilmiy ishlari. Bu ishlarning nomidanoq ko'rinib turibdiki, adabiyotimiz, san'atimizning bugungi kunda biz tadqiq etishga kirishmoqchi bo'lib yurgan muammolarini Fitrat bundan 60–70 yil ilgari hal qilib bergan. U yana fors-tojik shoirlari Firdavsiy, Umar Hayyom ijodi haqida ham tadqiqotlar olib boradi. Uning bu ilmiy ishlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Abdurauf Fitrat axloqiy qarashlarining o'ziga xosligi

Abdurauf Fitrat kishining hartomonlama barkamol inson bo'lib etishishida axloqiy tarbiyaning o'zni juda katta ekanligini har bir asarida takror-takror uqtirdi. Shuning uchun u o'zining qarashlarida fikriy va jismoniy tarbiya bilan birga, axloqiy tarbiyaga ham juda katta e'tibor bilan qaradi. U o'zining «Rahbari najot» asarida axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifasi, uni amalga oshirish yo'llari haqida to'xtaladi. Uning fikricha, axloqiy tarbiyaning vazifasi «insonni axloqiy barkamollikka etkazish va uni jamiyatga foydali inson qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun avvalo bolalarni jismoniy va fikriy tarbiyaga da'vat qiling, keyin axloqiy quvvatlarni muhokama orqali tushuntiring, ularni yaxshi ishlarga odat qildiring, yomon ishlardan nafratlantiring».

Fitrat axloqiy tarbiyani bolalar eng avvalo o'zi yashayotgan atrof-muhit va ko'chadagi bolalardan olishlarini ta'kidlab o'tadi. Olim ijtimoiy muhitning bola tarbiyasidagi ahamiyati juda katta ekanligini ko'rsatib beradi.

U bolalarni suvga o'xshatib: «Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon ahvolni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar». Bu fikrlar bilan Fitrat yana bola tarbiyasi bilan faqat maktab emas, balki avvalo oila va jamoatchilik shug'ullanishi kerakligini ko'rsatadi. Ayniqsa, axloq tarbiyasida oilaning, ota-onaning o'rni juda katta ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Fitrat bolaning axloqiy tarbiyasida maktabdagi boshqa bolalarning katta ta'siri borligini ko'rsatib, maktabdagi axloqi yomon bolalarni tezda tuzatish choralarini ko'rish lozimligini «maktablardagi badaxloqlikda mashhur bo'lgan bolalarni, agar ularni tuzatish iloji bo'lmasa, maktabdan chetlashtirish maqsadga muvofiqligini ta'kidlab o'tadi. Chunki u bola o'zining yomon axloqiy sifatlarini boshqa bolalarga ham o'tkazmasligi uchun shunday chorani ko'rish lozim», deb hisoblaydi Fitrat.

U axloqi buzuvchi kishilarni maktabda muallimlik vazifasigagina emas, balki maktab qorovulligiga ham yaqinlashtirmasliklarini juda to'g'ri harakat, deb biladi. Yana u bolalar axloqiga zararli bo'lgan, yoshiga mos kelmaydigan kitoblarni bolalarning o'qishlariga ruxsat bermaslik kerak deydi.

Fitrat o'z asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ozodlik, maqsad sari intilish, insonlarga mehr-shafqatli bo'lish, o'z manfaatidan xalq manfaatini yuqori qo'yish g'oyalarini ulug'laydi. Vijdonsizlik, poraxo'rlik, ikkiyuzlamachilik, boshqalarni ezish evaziga boylik to'plash, xalqqa zulm o'tkazish kabi sifatlar esa qoralanadi.

Abdurauf Fitrat o'zining butun hayoti davomida milliy mustaqillikka erishish va mustamlakachilikka qarshi kurash, Ovrupo ilmi, texnikasi, madaniyatidan o'rganish muammolarini tinimsiz targ'ib qilgan siymolardan biri sifatida barcha kishilarga, eng avvalo, yoshlarga ibratdir.

U 1905—1906-yillari jadidchilik oqimining ko'zga ko'ringan tarafdori sifatida, so'ngra o'zining «Hind sayyohi», «Rahbari najot» singari asarlari orqali ma'rifatparvar va yozuvchi sifatida musulmonlarni, eng avval, yoshlarni g'afolat uyqusidan uyg'otishga, eng muhimi, o'zligini tanishga, fan-texnikani rivojlantirish uchun g'ayrat bilan o'qish-o'rganishga undaydi.

Ko'rinib turibdiki, Fitrat yoshlarni yangi jamiyat qurishga da'vat etadi. El-yurtning baxti, saodati, istiqloli uchun kurashishga chorlaydi. U «Xalq baxti uchun kurashmagan yoshlarni bo'shang, jasoratsiz», deb tushunadi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy

(1889 — 1929)

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yili Qo'qon shahrida tabib oilasida tug'ildi. Hamza o'zining o'qishga bo'lgan zo'r ishtiyoqi tufayli 12 yoshidayoq to'la xat-savodli bo'lib etishadi. 1906-yili madrasaga kirib o'qiy boshlaydi. Biroq, madrasa ta'limi Hamzani qanoatlantirmaydi; mustaqil suratda Lutfiy, Alisher Navoiy, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat asarlarini o'qib-organadi.

Hamza turmushda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi, ilm-fanga havasi zo'r bo'lsa-da, ko'ngildagidek o'qiy olmaydi. Bu ahvolni keyinchalik eslab, unga sabab «ota-ona taassubi va hukumat istibdodi, faqirlik» ekanini ko'rsatib o'tadi.

1909–1910-yillari Namangan, Toshkent shaharlarida yolg'iz, og'ir ahvolda yashaydi. Shunga qaramay «Ko'kaldosh» madrasasida o'qiydi. Biroq bu madrasadagi ta'lim uni qanoatlantirmaganligi, iqtisodiy qiyinchiliklar sababli Hamza o'qishdan ketishga majbur bo'ladi.

Hamza 1911-yili Qo'qonning Hojibek guzarida maktab ochib, etim va kambag'al bolalarni o'qitadi, o'quvchilar uchun «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi» o'quv qo'llanmalarini yaratadi. Maktabda o'qish-o'qitish ishlariga ba'zi-bir o'zgarishlar kiritib, quruq yod olish usulini yo'qotishga harakat qiladi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlarga ko'p e'tibor berdi, ona tili darsiga alohida ahamiyat bilan qarab, mashg'ulotlarga ko'proq vaqt ajratadi.

H.H.Niyoziy 20 yillik o'qituvchilik faoliyati davomida yoshlar tarbiyasi masalasida amaliy va nazariy jihatdan muhim g'oyalarni olg'a surdi.

Hamzaning ijodiyoti, o'qituvchilik faoliyati chor hukumati amaldorlarini tashvishga soladi. Ular Hamza maktabini «Xavfli, bolalarni buzuvchi, din va ma'rifatdan ozdiruvchi maktab», deb qoralab yopib, o'zini ta'qib etadilar.

Hamza 1913-yil fevralda chet ellarga ketadi: Afg'oniston, Hindiston, Makka, Madina, Shom(Suriya), Bayrut, Istanbul, Odessa shaharlarida bo'lib, 1914-yil boshlarida Qo'qonga qaytadi. 1915-yili Marg'ilonda maktab ochadi, muallimlar tayyorlaydigan kurs tashkil etadi.

Hamza ma'rifatni keng xalq ommasiga tarqatish tarafdori edi. Kambag'al bolalarining o'qishini doimiy ta'minlash niyatida ularga

moddiy yordam berishni maqsad qilib «Yordam jamiyati» tuzadi.

«Yordam jamiyati» o'qituvchilarning o'zaro yiqqan mablag'lari asosida faoliyatini boshladi-yu, lekin ko'p o'tmay hukumatning ta'qibidan so'ng tarqatib yuboriladi.

Hamza 1915–1916-yillari yaratgan «Oq gul», «Qizil gul», «Pushti gul», «Sariq gul» kabi ashulalar to'plamlarida, «Milliy roman yoxud Yangi saodab» qissasi, «Zaharli hayot» kabi drama asarlarida mehnatkash xalqni o'qishga, ilm o'rganishga da'vat etadi.

Hamza 1918-yili Farg'ona shahriga borib o'qituvchilik ishini davom ettiradi, yosh san'at havaskorlarini to'plab, «Sayyor dramtruppa» tashkil qiladi.

Hamza 1919-yilning boshlarida Qo'qondagi 1-boqimsiz bolalar uyiga mudir qilib tayinlanadi. Turk frontida o'zi tuzgan truppassi bilan qatnashadi. 1921-yili o'qituvchilikka qaytadi. Xorazmga borib ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanadi. 1922–1924-yillari Xo'jayli tumanidagi 1-bolalar uyining mudiri va o'qituvchisi bo'lib ishlaydi. Hamza 1925-yilning kuzida Farg'ona uezdi maorifi ixtiyoriga yuboriladi. Bu yerda u xalq kuchi bilan yangi maktab binosi, klub, kutubxona, choyxona qurdiradi. 1926-yili Hamzaning badiiy ijodidagi muvaffaqiyatlarini taqdirlab, «O'zbekiston xalq yozuvchisi» degan faxriy unvon beriladi va umrbod shaxsiy nafaqa tayinlanadi.

Hamza bir qancha asarlarida xalq maorifini demokratik asosda qayta qurish, xalq maorifini yaratish g'oyalarini olg'a suradi. Uning fikricha, «Insonni inson qatoriga qo'shish», kamolotga etkazish, olijanob fazilatlariga ega qilib etishtirish tarbiyaga bog'liqdir. Yuksak kuchga ega bo'lgan tarbiya ilm, odob, hunar tarbiyasini o'z ichiga olgan bir butun jarayon bo'lishi kerak.

Demak, maktab yoshlarni ilimli, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o'rgatishi kerak. Hamza hunar o'rgatishni keng ma'noda tushunadi.

Hamza Hakimzoda har bir inson jamiyat, tabiat va hayvonot dunyosidan xabardor bo'lishi kerakligi haqida so'zlar ekan, buning uchun ilm-fanni egallash zarurligini ta'kidlaydi.

U aqliy tarbiya haqida so'z yuritir ekan, aqliy tarbiya orqali tabiat va jamiyat qonunlarini, tabiat hodisalarini, ular o'rtasidagi bog'liqlikni bilish kerakligini aytadi.

Hamzaning fikricha, bolalarni barkamol inson qilib etishtirish uchun o'qituvchining o'zi chuqur bilimga ega, qobiliyatli va yuksak axloqiy fazilatli bo'lishi kerak.

Hamza ta'lim-tarbiya haqida bildirgan fikrlarida bolalarning sog'lom bo'lishiga ham e'tibor beradi. U, ayniqsa, ta'lim-tarbiyada ota-onalarning muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi, bolaning go'zal axloqli bo'lib kamol topishi

uchun oila muhitida tarbiyaning to'g'ri yo'lga qo'yilishi zarurligini aytadi. Shoirning fikricha, bola odobning boshini ota-onadan oladi, o'rganadi, bunga jiddiy e'tibor berilmasa tarbiya juda qiyin kechadi va yomon oqibatlarga olib borishi aniq ekanligini bayon etadi.

Hamzaning axloqiy tarbiya xususidagi qarashlarida yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash alohida o'rin egallaydi. Uning fikricha, yoshlardagi insonparvarlik kishilarning qadr-qimmatini anglash, uni hurmat qilish, insoniy huquqlarini himoya etish, ularga hurmat bilan muomala qilishdan iborat bo'lishi kerak.

Yoshlarni insonparvalik ruhida tarbiyalash ularda o'ziga yaqin bo'lgan kishilarga, avval ota-onasiga samimiy muhabbat tuyg'usini rivojlantirishdan boshlanishi kerak. Shu tufayli ham, shoir o'z darsliklariga kiritgan she'r va hikoyalarida bolalarni o'z ota-onalariga mehribon bo'lishga, ularni qadrlashga chaqiradi.

Hamza o'zining «Baxil», «Saxiy», «Zolim», «Rahm», «Xiyonat», «Xoin», «Sadoqat» hikoyalarida yoshlarni sadoqatli, kishilarga mehribon va g'amxo'r qilib tarbiyalash, ularda baxillik, zolimlik, zo'rvonlik, xiyonat, xoinlikka nafrat tuyg'ularini tarbiyalash g'oyasini ilgari suradi.

Hamza saxiylarni ta'riflab: «Saxiylar o'zlari halol qilib topadi. O'zlari ham eydi, boshqalarga ham beradi. Birov iltimosini qaytarmaydi... ko'priklarni tuzatadi, beva-bechoralarga osh-non, kiyim-bosh qilib beradi. Yetim bolalarni maktablarga berib o'qitadi, ular doim umum foydasi tegadigan ishlarni qiladi. Umum foydasi uchun jonidan ham kechurlar», deydi.

Hamza fikricha, bolalarni sabr-toqatli, sabot va matonatli qilib tarbiyalash kerak. Uning fikricha: «Shitobning ziddi–dushmani – sabrdir. Sabr – chidamli, ya'ni har ishda... oshiqmaslik ...sabrli kishilarda pushaymon va armon bo'lmas... sabr kishilarning yuragi bo'lib, dunyodan balo kelsa-da, ko'kragiga yetmay yo'q bo'lib ketar. Sabrli kishilar har yerda izzatlik, har kim qarshisida hurmat va obro'li bo'lur. Sabrli kishilarni har kim sevar va chin ko'ngilidan do'st tutar... agar sabrga o'zini bilib o'rgatib olgan kishi so'ngra... og'irlik pisandiga ham kelmay qolur».

Hamza sabrga bergan ta'rifini shunday xulosalaydi:

*Sabrdin topgay ulug' mansab kishi,
Besabrdin bo'lmagay o'ng hech ishi.*

Hamza Hakimzoda o'z pedagogik faoliyatida va adabiy ijodida xotin-qizlarning ilm olishiga, jamiyat ishlarida faol ishtirok etishlariga jiddiy e'tibor berdi.

Hamza o'zining xarakter xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turadigan shaxs edi. U g'ayratli, jasoratli, tinib-tinchimaydigan ijodkor sifatida ko'z oldimizda gavdalanadi. Doimo nimalarnidir yaratish va

tashkil qilish, nimalargadir bosh qo'shib, faollik ko'rsatish bilan band edi. U bir qarasangiz, maktab ochib mazlum bolalarni o'qitar, bir qarasangiz, truppalar tuzib, elga konsert va spektakllar ko'rsatar edi.

Hamza 1929 -yil 18 martda fojiali halok bo'ladi.

O'zbek xalqining sodiq farzandi Hamza Hakimzoda Niyoziy ajoyib pedagog, shoir, dramaturg va kompozitor sifatida o'z xalqiga sidqidil bilan xizmat etdi. U mehnatkash xalqni ma'rifatli qilish, yosh avlodlarni hartomonlama bilimli qilib tarbiyalash yo'liga hayotini bag'ishladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Jadidchilik harakatining kelib chiqish omillari nimalardan iborat?
2. Jadidchilik qanday g'oyalarni ilgari surgan?
3. Turkistonning rivojlanishida jadidchilik harakati qanday ahamiyat kasb etadi?
4. Mahmudxo'ja Behbudiy ta'lim-tarbiya sistemasini rivojlantirishga qanday hissa qo'shdi?
5. Munavvar qori qanday g'oyalar bilan maydonga chiqdi?
6. Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Hamza Hakimzoda Niyoziy Turkiston o'lkasining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy rivojlanishiga qanday hissa qo'shdilar?

VIII BOB. 1917–1990-YILLARDA TA'LIM-TARBIYA, MAORIF VA PEDAGOGIK FIKR

O'zbekistonda 1917–1924-yillarda maktab va maorif

1917-yil to'ntarishidan keyin Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy va xalq maorifi sohalarida keskin o'zgarish yuz berdi.

Turkiston o'lkasida milliy demokratiya vakillari, mashhur ma'rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagi maktablarning keng tarmog'ini yaratish, maktab-maorif borasida zudlik bilan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qancha takliflar ilgari surildi.

Bu davrda milliy ziyolilar faoliyati keng tus oldi, jumladan: jadidchi ziyolilar Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, G'ozi Yunus, Xurshid va boshqa ziyolilar madaniyat, maorif sohalarida jonbozlik qildilar va yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish sohasida faoliyat ko'rsatdilar.

1917-yil Fevralidan Oktabr orasida Turkistonning yirik shaharlari-da turli tillarda dars beriladigan xususiy maktablar ochildi.

Turkiston o'lkasining markazi — Toshkentda 1917-yil 9—14 may kunlari o'qituvchilarning 1-o'lka qurultoyi bo'lib, bunda «Turkiston o'qituvchilar ittifoqi» tashkil etildi.

1918-yilning 23 martida RSFSR maorif xalq komissarligi Turkiston o'lkasi xalq komissarligi kengashi o'lka xalq ta'limi kengashini tashkil etish haqida buyruq chiqardi. Mazkur kengash Turkiston hududida xalq ta'limiga rahbarlik qilishi lozim edi. Joylarda ularning viloyat, shahar, uezd kengashlari huzurida xalq ta'limi kengashlari tashkil topdi.

1918-yilning yozida Samarqandda musulmon o'qituvchilari uchun pedagogik kurslar ochildi. O'sha yilning kuzida Toshkentda — Toshkent uezdining tub yerli aholisi uchun maktab o'qituvchilari kurslari ochildi.

1918-yil 9 aprelda Munavvar qori uyida to'plangan jadidlar Turkiston xalq dorilfununining musulmon bo'limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Ular 22 kun ichida musulmon bo'limi dasturlarini ishlab chiqadilar. O'sha yilning 3 mayida

dorilfunning musulmon bo'limi rahbariyatiga saylov bo'lib, unda Munavvar qori rais(rektor), Iso To'xtaboev birinchi muovin, Burhon Habib ikkinchi muovin, Abdusamad qori Ziyobov xazinador, Muxtor Bakir sarkotib bo'lib saylandi. 13 may (yakshanba) kuni Toshkentning eski shahar qismida Vikula Morozovning sobiq do'koni binosi(hozirgi O'zbek yosh tomoshabinlar teatri)da musulmon aholi uchun «Xalq dorilfununi» ochiladi. Bu bo'lim tez orada o'ziga xos yirik bilim maskaniga aylanadi.

Universitet tarkibida ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-matematika, tarix-filologiya, qishloq xo'jaligi va texnika fakultetlari bor edi. 1919-yil fevraldan universitet qoshida ishchi fakulteti ham faoliyat ko'rsata boshladi.

1918-yil noyabrda Toshkentda maxsus sharqshunoslik ixtisosligidagi oliy ta'limning to'ng'ichi — Turkiston Sharq instituti tashkil qilindi. Institut nizomida uning asosiy vazifalari qilib Turkiston mahalliy aholisi va qo'shni mamlakatlar aholisi tilini yaxshi biladigan sharqshunos olimlar va amaliyotchi xodimlar tayyorlashdir, deb belgilab qo'yilgan edi.

1920-yili Turkiston xalq universitetiga muqobil Turkiston davlat universiteti (keyin O'rta Osiyo, hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti) tashkil qilindi.

Universitet faoliyatining birinchi yili oxiriga kelib unda 6 fakultet: ijtimoiy-iqtisodiy, tarix-filologiya, fizika-matematika, texnika, tibbiyot, qishloq xo'jaligi fakultetlari ish olib bordi.

Vaqt o'tishi bilan universitet faqat eng yirik o'quv yurtigina emas, balki ilmiy-nazariy va amaliy tafakkurning, tabiiy va amaliy fanlarning juda xilma-xil sohalari bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarning muhim markazi ham bo'lib qoldi.

Bolsheviklarning aksilmilliy, umuminsoniy ilg'or ma'rifatchilikka dushmanlik qilishlariga qaramasdan 1917—1924-yillari O'zbekistonning hozirgi hududida madaniy-ma'rifiy turmush vujudga keldi, xalq ma'naviyatida o'z aksini topdi.

Xalq ta'limining iste'dodli tashkilotchilari Abduqodir Shakuriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ismatulla Rahmatullaev, Is'hoqxon Ibrat, Munavvar qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniy va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar.

Uzoq tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy to'siqlarga qaramay, Markaziy Osiyodagi boshqa xalqlar kabi, ilg'or fikr egalarini, buyuk olimlarni etkazdi, insoniyatga ilm-fan, ma'naviyat sohasida o'lmas durdona asarlar, fikrlar qoldirdi.

Bu davr ijtimoiy-madaniy hayotidagi kuchlar o'rtasida yuz berayot-

gan sinfiy kurashning murakkabligi maktab-maorif masalalarida ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Demak, endi turli vositalarni ishga solib yangi mazmundagi ma'rifatni tashviq qilish, tarbiya usullarini zamonaviylashtirish, ta'limda qulay usullarni topish muammolari turar edi. Bu borada Turkiston o'lkasidagi dastlabki maktablarda ilg'or ma'rifatparvar pedagoglar — toshkentlik Saidrasul Saidazizov, Abdulla Avloniy, namanganlik Is'hoqxon Junaydullaev — Ibrat, samarqandlik Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Ismatulla Rahmatullaev, qo'qonlik Hamza Hakimzoda Niyoziy muhim xizmat ko'rsatdilar.

Ular butun o'lkada katta obro'ga ega bo'lib, rus, ozarboyjon, tatar va boshqa qardosh xalq pedagoglarining ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari hamda darsliklarini o'rganib o'lka maktablarida keng yoyishda jonbozlik ko'rsatdilar. Turkistonda ochilgan rus va tatar muallimlari boshchilik qilgan o'zbek maktablarida qo'llangan usullardan foydalanib o'zlari tashkil qilgan maktablarda uzoq vaqt davom etgan «hijo» usuli o'rniga «usuli savtiya»da ta'limni tashkil qildilar va darsliklar yaratdilar.

Turkistonda milliy davlat chegaralanishi o'tkazilganidan so'ng xalq ta'limi va pedagogik fikr (1924–1941)

1924-yili amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida mintaqa xaritasi qaytadan tuzildi.

Sovet hokimiyati yillarida kommunistik partiya rahbarligida respublikada adolatsiz milliy siyosat amalga oshirildi.

To'ntarishning dastlabki kunlaridan boshlaboq mamlakatda birtomonlama madaniy inqilobning amalga oshirilishiga alohida ahamiyat qaratildi, maktablarda o'quv-tarbiya ishlari mazmuni tuzumning maqsadi asosida o'zgardi. Din va Qur'oni Karimga umuman e'tibor berilmadi. Tarix darslarida voqealar buzib talqin etildi. Adabiyot darslariga esa, ko'proq rus yozuchilarining asarlari bilan tanishtirishga katta ahamiyat berildi.

Sho'rolar tuzumi davrida kommunistik firqa qarorlari asosida pedagogika fanini shakllantirishda rus pedagoglari asarlaridan unumli foydalanib asarlar yozishga zo'r berildi. Aksariyat hollarda esa rus pedagog olimlari yozgan darsliklardan foydalanildi. Natijada o'zbek pedagogikasi markscha-lenincha nazariya doirasida shakllangan soxta fanga aylanib ketdi. Bu davrda faqat pedagogika emas, balki boshqa fanlarning ham rivojlanishi sust kechdi. Masalan, «O'zbekiston tarixi» aslida «SSSR tarixi» darsligining ilovasi edi. «SSSR tarixi» esa, Rossiya tarixidan iborat bo'lganligi

ma'lum. Xuddi shu kabi o'zbek pedagogikasi ham sovet pedagogikasining tarkibiy qismiga aylandi. O'sha davrlarda yozilgan ko'pgina pedagogik asarlar bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotdi. Chunki o'zbek pedagogikasi nihoyatda siyosiyashgan edi. Pedagog olimlar tadqiqotlarida Marks, Engels, Lenin asarlaridan ko'chirmalar asosiy o'rinni ishg'ol qilardi.

Bolalar va o'smirlarga umumiy ta'lim berishni tezlashtirish hamda kattalar o'rtasida savodsizlikni tugatish harakati boshlandi. 1930-yil 14 avgustda SSR ittifoqi markaziy ijroiya komiteti va xalq komissarlari soveti tomonidan qaror qabul qilindi. Bu qaror umumiy boshlang'ich ta'limni joriy etish va savodsizlikni qisqartirishga yordam berdi.

30-yillarning oxirlariga kelib, umumiy ettiyillik ta'limni amalga oshirishga kirishildi.

Biroq bu borada jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yildi. Jumladan, maktab yoshidagi bolalarning bir qismi o'qishga tortilmadi. Mahalliy millat bolalari orasida o'qishni tashlab ketish hollari ko'paydi. Ko'pgina maktablarda muallimlarning bilim darajasi etarli bo'lmaganligi tufayli o'qish saviyasi talabga javob bermas edi. Maktablar soni muttasil ortib borayotgan bo'lsa-da, ularning o'quv-moddiy bazasi nochor ahvolda qolayotgan edi.

Ma'lumki, bolsheviklar mafkurasi negizida sinfiy kurash g'oyasi ustivorlik qildi.

Ta'lim sohasini «sinfiy dushmanlar»dan tozalash maqsadida hatto maxsus qarorlar qabul qilindi. Masalan, VKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi 1933-yil 27 martda o'qituvchi kadrlar safini tozalash haqida qaror qabul qiladi va uning natijalari shu yilning 25 aprelida bo'lib o'tgan O'rta Osiyo bo'yicha partiyaning madaniy sohaga bag'ishlangan kengashida muhokama qilinadi. Bunda mavjud 700 o'qituvchidan faqat 120tasi maktablarda ishlashga loyiq deb topiladi.

Bunday «tozalash»dan maqsad saviyasi past bo'lsa-da, mehnatkash tabaqalardan chiqqan kishilarni tanlab olib, eng zakovatli omilkor kishilarni siqib chiqarib, «shaklan milliy, mazmunan proletar madaniyatini»ni vujudga keltirishdan iborat edi. «Tozalash»da kishining qobiliyati, madaniy saviyasi va ma'lumot darajasi emas, balki ijtimoiy kelib chiqishi asosiy mezon qilib olindi.

SSSR MQ va XKKning 1929-yil 7 avgust qaroriga asosan arab alifbosi o'rniga lotin alifbosi qabul qilindi. Arab yozuvining lotinlashtirilishi dinga qarshi tashviqotning bir shakli edi. Bu «islohot» oqibatida Sharq xalqlari tarixi va madaniyatini o'zida mujassam qilgan minglab arab yozuvidagi qimmatbaho manbalardan o'zbek xalqini mahrum qildilar. O'sha davrning taniqli tilshunos olimi G'ozzi Olim Yunusov va ilg'or pedagoglar bu «islohot»ni madaniy bilimsizlik deb baholadilar.

1940-yilning may oyida O'zbekistonda «O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitdan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alfavitiga ko'chirish to'g'risida» qonun qabul qilindi.

Mazkur siyosatlar tufayli o'zbek xalqi o'z tarixi, milliy urf-odatlarini, an'ana va umuminsoniy qadriyatlarini bilish, o'rganish imkoniyatlaridan mahrum bo'ldi. Millat taqdiri, maorif ravnaqi uchun jon fido qilgan, erkin, hur fikrli alloma ma'rifatparvarlar — Abdurauf Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Elbek, Otajon Hoshimov, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy qatl etildilar. Usmon Nosir, Botu va boshqalar surgun qilindi...

Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda xalq maorifi va pedagogika

Tarixdan ma'lumki, xalqimiz o'z boshidan kechirgan og'ir davrlardan biri Ikkinchi jahon urushi yillaridir. O'sha davrda mamlakatimiz yoshlarini yuksak axloq ruhida, ayniqsa, vatanparvarlik, do'stlik, mehnatsevarlik, ongli intizom, fidokorlik, birdamlik ruhida tarbiyalash kuchaydi. Bu tarixiy sharoit taqozosi edi.

1941-yil 22 iyunda fashistlar Germaniyasi hujum qilmaslik haqidagi bitimni buzib, urush e'lon qilmay turib Sovet ittifoqiga bostirib kirdi.

Mamlakatdagi hamma xalqlar mudofaa uchun otlandi. O'zbekiston ham himoyaga o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Kishilar fabrika va zavodlarda, shaxta va temiryo'llarda, kolxoz, sovxoz va MTSlarda — hamma joyda «*Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun*» degan shior ostida fidokorona ishladilar. Butun kuch, vosita va imkoniyatlar fashistlar ustidan g'alaba qozonish uchun safarbar etildi.

Mamlakat mudofaa fondiga pul, qimmatbaho buyumlar, davlat obligasiyalari, xullas, kimda nima bo'lsa, hammasini topshirdi. Urushning dastlabki kunlaridanoq birgina Toshkent shahrining o'zida mudofaa fondiga 5,5 million so'mdan ortiq pul yig'ildi.

Dushman bosib olgan yerlardagi anchagina zavod-fabrikalar, ishlab chiqarish korxonalari, turli muassasalar O'zbekistonga ko'chirildi. O'zbekiston ularni joy, ishchi kuchi bilan ta'minladi. Buning ustiga, frontdagi armiyani oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlash asosan o'zbek xalqi zimmasiga tushdi. Ishchi kuchi etishmaganidan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yig'ib-terib olish ancha orqaga cho'zilib ketmoqda edi. Hukumatning 1942-yil 13 fevralda chiqargan «Urush yillarida mehnatga qobiliyatli bo'lgan barcha kishilarni ishlab chiqarish sohasiga va qurilishga jalb qilish to'g'risida» farmoni mamlakat ichkarisidagi ishlarni birmuncha izga soldi.

Ikkinchi jahon urushi davrida maktablarning o'quv dasturlari sharoitga moslashtirildi.

Urush yillari harbiy-fizkultura darslari soati ko'paydi, harbiy o'qish 1-sinfidan boshlab o'tila boshlandi, harbiy ta'lim faqat o'g'il bolalarga emas, qiz bolalarga ham o'rgatila boshlandi.

Urushning dastlabki kunlaridan boshlab urush ketayotgan joylardan O'zbekistonga ko'plab yosh bolalar va keksalar, xotin-xalaj evakuasiya qilingan edi. 1942-yili ular soni 716 mingga etdi.

1943-yili O'zbekistonda 154 bolalar uyi bor edi. 1945-yilga kelib ular soni 242taga, tarbiyalanuvchilar soni esa, 31.500ga etdi.

Urush davrida ko'pchilik pedagoglar frontga safarbar qilinganligi uchun respublika bo'yicha 1940-1941 o'quv yilida 36267 nafar o'qituvchidan 30616 kishi qoldi. Frontga ketganlar o'rnini to'ldirish uchun qisqa muddatli o'qituvchilar tayyorlash kurslari ochildi. 1941-yildan 1943-yilgacha bu kurslarni 16 ming o'qituvchi bitirib chiqdi. Boshqa sohalarda ishlayotgan o'qituvchilar maktabga qaytarildi.

Maktablar uchun o'qituvchilar tayyorlash ishiga, ayniqsa, o'zbek xotin-qizlaridan ko'proq jalb etish zarurligi alohida ta'kidlandi.

Shaharlardagi maktablarda o'qish uch smenada olib borilar edi. Bu hol esa, tabiiyki, ta'lim-tarbiya jarayonining qiyinlashishiga olib kelgandi. Darslar 40 minutga qisqargandi. Ashula va rasm darslari umuman o'tilmagandi.

Kitoblar yetishmasligi tufayli o'qituvchilar og'zaki tushuntirishga katta e'tibor berdilar. Yangi o'tiladigan dars o'qituvchi tomonidan doskaga yozilar, o'quvchilar uni daftarga ko'chirib olishardi.

Sharoit taqozosi bilan ko'pchilik o'quvchilar ham maktabda o'qib, ham qishloq xo'jalik ishlarida faol qatnashdilar. Barcha ishlab chiqarish muassasalarida, zavod va fabrikalar qoshida kurslar ochilib, o'quvchilar o'qishdan ajralmagan holda mehnat qildilar.

O'zbekiston mahalliy sovetlari, hukumat ko'rsatmasiga binoan, 1943-yilning 1 yanvaridan boshlab 8—10-sinf o'quvchilari hamda katta yoshdagi o'zbek o'quvchilarini o'qish haqi to'lashdan ozod etdi. Qozoq, qirg'iz, tojik, qoraqalpoq, turkman va boshqa xalqlar bolalari ham o'qish haqi to'lashdan ozod bo'ldilar.

1942-yilning boshidan qishloq xo'jaligi asoslarini maktabda o'qitiladigan fanlar qatoriga kiritish haqida buyruq chiqdi.

Davlatning maxsus ko'rsatmasiga binoan 1943-yildan boshlab ba'zi maktablarda o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari ochila boshlandi.

Ikkinchi jahon urushi g'alaba bilan tamom bo'lgach, respublika xalq ta'limi urushdan keyingi yillar bir qancha jiddiy qiyinchiliklarni engib o'tishga to'g'ri keldi.

Urush davrida maktablar birmuncha qisqargan, o'quvchilar soni ham shunga yarasha kamaygandi. Ko'pchilik o'quvchilar turli sinflardan o'qishni tashlab, frontga, front uchun qurol-aslaha ishlab chiqaradigan zavodlarga ishga ketib qoldilar.

O'sha yillari yangi maktab binolari qurilmaganligi va eski maktablar o'z vaqtida jihozlar bilan ta'mirlanmaganligi sababli ko'p maktab binolari o'quv jarayonini maromida tashkil etish va gigiena talablariga javob bermas edi.

Urushdan keyingi dastlabki yillari o'quvchilarning maktabni tashlab ketishlari birmuncha kamaygan bo'lsa ham, harholda, davom etaverdi: 1945-1946 o'quv yilida O'zbekiston maktablaridagi o'quvchilar soni rejadagi 1 mln.10 ming kishi o'rniga 823 ming kishidan iborat bo'ldi. Sinfda qolgan o'quvchilar soni ham ko'p bo'lib, 1946-yili u barcha o'quvchilarning 37%ini tashkil etdi. Ayniqsa, qiz bolalarni maktabga jalb qilish, ularni o'qish tugaguncha ushlab turish alohida muammo sifatida ko'ndalang bo'lib turardi.

O'qituvchi xodimlar masalasi urushdan keyingi yillardagi eng katta muammolardan biri edi. Chunki malakali o'qituvchilar asosan urushga yuborilgan, ularning ko'pchiligi halok bo'lgandi. Xususan, 1947-yili respublika bo'yicha 4 ming o'qituvchi etishmasdi. Tuman xalq maorif bo'limlari mudirlari, maktab direktorlari va ta'lim bo'yicha direktor muovinlarining 60% dan ko'prog'i tegishli ma'lumotga ega emasdi. 1950-yili 7125 maktab o'qituvchilarga muhtojlik sezardi.

Rasmiy hokimiyat soxta proletar baynalmilalligini amalda kuchaytirish maqsadida maktablarda rus tili va adabiyotini kengroq o'qitishga urg'u berdi. Natijada 60-yillari O'zbekiston tarixi, o'zbek tili va adabiyoti, chet tili, musiqa va ashula darslari hajmi keskin qisqardi va ular o'quv rejasida belgilanganidan haftasiga 16,5 soat kamayib ketdi. Ular o'rniga esa rus tili va adabiyoti fani o'qitildi. Masalan, o'qituvchilar «XIX asr ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida o'zbek adabiy muhiti», «Milliy-madaniy jarayonlar» to'g'risidagi mavzularda dars o'tishi lozim bo'lgan soatlarda rus madaniyatining «progressiv» ahamiyatini ko'rsatib berishga majbur bo'ldilar. Oqibatda, boy va ko'hna o'zbek xalqi tarixini o'rganishga 52 soat ajratilgani holda boshlang'ich maktablarda rus tili va adabiyoti fanlari uchun 1600 soat ajratilgan.

Xalq xo'jaligini tiklash hamda rivojlantirish sohasida urushdan keyingi birinchi beshyillikda jiddiy kamchiliklarga duch kelindi. Birinchidan, aholi o'zi tug'ilib o'sgan shaharlariga qaytib ketayotganligi sababli aholi sonida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Ikkinchidan, majburiy ta'lim maktablarida o'qitiladigan bolalarni hisobga olishning aniq va tezkor sistemasi yo'q edi.

Shuning uchun ham maorif xodimlari tezlik bilan maktab shoxobchalarini tiklash va kengaytirish, urush vaqtida maktabni tashlab ketgan bolalarni maktablarga tortish sohasida juda katta ishlar qilishlari kerak edi. Bunday mas'uliyatni bajarishda ular dastlab boshlang'ich maktablarni tamomlagan bolalarning hammasini to'la ravishda o'qishga tortishga e'tibor berishlari lozim edi. Bu ish ancha muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Bu davrga kelib o'rta maktabni bitirib chiqayotganlarning soni oliy o'quv yurtlariga qabul qilinayotganlar soniga qaraganda ancha ortib ketdi. O'rta maktablarni tamomlaganlarning ko'pchiligi sanoat va qishloq xo'jaligida ishlashlariga to'g'ri keldi. Biroq ular bu amaliy faoliyatga yetarli tayyorlanmagandilar: maktablarda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagandi.

O'rta maktablarni tamomlaganlarning maxsus kasbiy tayyorgarligini oshirish maqsadida texnikumlar soni ko'paytirildi, texnikumlar qoshida to'liq o'rta ma'lumotli kishilarni qabul qiladigan bo'limlar ochildi. Bu bo'limlarda o'qish muddati 2–3 yil qilib belgilandi. Mehnat zahiralari sistemasida o'rta maktab negizidagi texnika bilim yurtlari ochila boshladi. Bu texnika bilim yurtlari 1–2 yillik o'qish muddati bilan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlab berishi kerak edi.

Urushdan keyingi yillari 1943-yili ochilgan ishchi va dehqon yoshlari maktablari (kechki va smenali) tarmog'i birmuncha kengaytirildi.

1951–55 yillarga mo'ljallangan beshinchi beshyillik rejada politexnika ta'limiga katta o'rin berildi. Shu munosabat bilan ittifoqdosh respublikalarning ta'lim vazirliklari o'quv rejalari va dasturlarini qayta tuzib, politexnika ta'limini oshirish to'g'risida maktablarga ko'rsatmalar berdilar.

1957–1958 o'quv yilidan boshlab ba'zi pedagogika oliy o'quv yurtlarida boshlang'ich maktab uchun oliy pedagogika ma'lumotiga ega bo'lgan o'qituvchilar tayyorlashga kirishildi va buning uchun maxsus fakultetlar tashkil etildi. Lekin urushdan keyingi yillari hamda mavjud jamiyatni rivojlantirish jarayonida respublika maktablarida hamma narsa risoladagidek olib borildi deyish xato bo'lar edi. Chunki o'tgan davrlar chuqur tahlil qilinganda ko'p kamchiliklar borligini ko'rish mumkin. Chunonchi, ko'pgina maktablarda o'quv-tarbiya ishlarining saviyasi davlat standarti talablariga etarlicha javob bera olmas, bir sinfdan ikki yil qolgan o'quvchilar soni hamon ko'p, o'quvchilarning maktabni tashlab ketishlari esa tobora ko'payayotgandi. Ko'pgina maktablarning moddiy-texnika bazasi talablarga javob berolmasdi, maktablarda matematika, fizika, rus tili va chet tili fanlaridan dars beradigan malakali o'qituvchilar etishmasdi, yettiyillik umumiy majburiy ta'limni amalga oshirish va

o'rta ta'limni rivojlantirish borasidagi ishlarda ham muayyan nuqsonlar yo'q emas edi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish o'sha kunning birinchi galdagi vazifasi bo'lib qolgandi.

Boshlang'ich maktabda to'rtiylik boshlang'ich ta'limdan uchiylik boshlang'ich ta'limga o'tish amalga oshirildi.

Yettiylik to'liqsiz o'rta maktab, umumiy majburiy sakkiziylik ta'lim maktabiga aylantirildi.

Sakkiziylik maktabni tamomlagan o'quvchilar quyidagi o'quv yurtlarida o'qishlari mumkin edi: 1) to'liq umumiy ta'lim o'rta maktablarida (IX–X sinflarda); 2) o'qish muddati uch-to'rtiylik bo'lgan texnikumlarda; 3) hunar-texnika bilim yurtlari hamda 4) ishchi va qishloq yoshlari maktablarida.

1959–1975-yillari respublikada internat-maktablar, maxsus maktablar va kuni uzaytirilgan guruhlar tarmog'i rivojlandi; jismonan nuqsonli bolalar uchun maxsus maktablar tashkil qilindi; pedagog xodimlar tayyorlash va ular malakasini oshirish tarmog'i kengaytirildi.

70–80-yillari ham O'zbekiston maktablarida ahvol o'zgarmay qolaverdi. Ularning moddiy-texnika bazasi yaxshilanmadi. Ammo maktablar, o'quvchilar soni yildan-yilga ortib boraverdi. Masalan, O'zbekistonda 1945–46-o'quv yilida jami 4525 maktab bo'lib, ularda qariyb 998 ming o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1970–71-o'quv yilida respublikaning umumiy ta'lim maktablari soni 7072taga, o'quvchilar soni esa, 3 mln.164 ming kishiga etdi... 1970–1980-yillari xalq ta'limi uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag' 11%dan 8%ga kamayib ketdi... 5% dan ortiq maktablarda issiq ovqat bufetlari tashkil etilmadi.

Umuman, xulosa qilib aytganda, urushdan keyingi va tinch qurilish davridan mustaqillik davrigacha O'zbekiston maorifi, fan va madaniyati rus hamda Yevropa madaniyati ta'sirida rivojlandi, ammo bu - o'zbek xalqining milliyligidan, asrlardan beri meros bo'lib kelayotgan qadriyatlaridan muayyan darajada ajralgan holda rivojlanish edi.

Siddiq Rajabov

(1910 — 1993)

Siddiq Rajabov respublikamizda xalq maorifining rivojlanishiga, pedagogik kadrlar tayyorlash ishiga muayyan hissa qo'shgan dastlabki pedagogika fanlari nomzodi, dastlabki pedagogika fanlari doktori, professor va dastlabki akademikdir.

Siddiq Rajabov 1910-yil 1 aprelda Qozog'istonning Avliyoota shahrida kambag'al kosib oilasida tug'ildi. Uning otasi Rajab aka yamoqchilik bilan kun ko'rar, lekin bosh farzandi Siddiqning o'qib, ilm olishini orzu qilar

edi. Rajab aka o'g'lini yangi maktabga o'qishga berdi. Biroq ko'p o'tmay vafot etdi. Ota vasiyati va ilmga bo'lgan ishtiyoq unga to'g'ri yo'lni ko'rsatib berdi.

1926-yili o'n olti yoshli Siddiq Rajabov g'ayrat bilan o'qishga, mehnat qilishga kirishdi. Shahar yoshlarining xalq o'rtasida olib borayotgan madaniy-oqartuv ishlarida faol qatnashdi.

1927-yili Farg'ona pedagogika bilim yurtiga o'qishga kirdi. 1930-yili bu bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomladi. So'ng Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumaniga ishga yuborildi. U tumandagi Avg'onbog' qishlog'ida boshlang'ich maktab ochadi va maktabda ham muallimlik, ham mudirlik vazifasini bajaradi.

1930-yili Farg'ona pedagogika institutiga kirgan S.Rajabov 1933-yili institutning ijtimoiy-adabiyot fakultetini imtiyozli tugatdi.

Bo'lajak olim Farg'ona shahridagi «O'zbekiston beshyilligi» ishchi fakultetida, ayni paytda Hamza nomidagi pedagogika bilim yurtida direktorlik vazifasini bajardi.

Ana shu davrlarda Yan Komenskiy, K. Ushinskiy, L. Tolstoy, Hamza, A.Avloniy kabi pedagoglarning asarlarini qunt bilan o'rgandi. Egallangan bilimlar va to'plangan tajribalar asosida mahalliy matbuotda S.Rajabovning dastlabki pedagogik maqolalari chiqa boshladi.

Ilmga bo'lgan ishtiyoq S.Rajabovni O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi aspiranturaga etakladi. U 1934–37-yillari aspiranturada tahsil ko'rdi va pedagogika fanining eng muhim muammolari ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordi.

U aspiranturani tamomlagach, yosh olim ilmiy-tadqiqot ishini pedagogik faoliyat bilan qo'shib olib bordi. Shu yillari S.Rajabov kechki pedagogika instituti direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari lavozimida ishladi. O'sha yillari u «XIX asr va XX asr boshlarida Buxoroda maktab va maorif taraqqiyoti ocherki» asarini yozib tamomladi. 1941-yili shu mavzuda nomzodlik dissertasiyasini respublikada birinchi bo'lib muvaffaqiyatli yoqladi. S.Rajabov 1942-yili «Qizil O'zbekiston» gazetasiga muharrir o'rinbosari lavozimiga tayinlandi.

S.Rajabov 1947-yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti pedagogika kafedrasiga mudir qilib tayinlangandan keyin uning o'z ilmiy-pedagogik faoliyatini yanada rivojlantirishga keng imkoniyat yaratildi.

Olimning 1958-yilgacha bo'lgan davrdagi ijodiy faoliyati salmoqli bo'ldi. Bu yillari uning «Pedagogikani o'qitishni hozirgi zamon fani talabi darajasiga ko'taraylik», «O'qituvchilar kasbi haqida», «O'zbekistonda 25 yil ichida maktablarning taraqqiyotiga doir», «Pedagogika oliy o'quv

yurtlari talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari haqida», «O'zbekiston maktablarining 30 yil ichidagi tarixidan», «O'zbekistonda umumiy ta'lim uchun kurash va maktablarda o'quv-tarbiya ishlari», «40 yil ichida O'zbekistonda xalq maorifi» kabi jami 26 ilmiy, ilmiy-ommabop ishlari nashr qilindi.

1958-yili Siddiq Rajabov maktablar tarixiga doir doktorlik dissertasiyasini muvaffaqiyatli yoqladi.

1959-yili pedagogika fanlari doktori Siddiq Rajabov RSFSR Pedagogika fanlari akademiyasiga muxbir a'zo qilib saylandi va 1960-yili unga professor ilmiy unvoni berildi.

1961-yili Siddiq Rajabov O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutiga direktor qilib tayinlandi. Olim mazkur institutga olti yil rahbarlik qildi. Institutni malakali mutaxassis xodimlar bilan ta'minlash, olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini hayotga–maktab amaliyotiga yaqinlashtirishga boshchilik qildi.

S.R.Rajabov 1958–1966-yillar mobaynida 50dan ortiq ilmiy va o'quv-metodik ishlar muallifi bo'ldi. Chunonchi, «L.N.Tolstoyning pedagogik faoliyati haqida», «Pedagogika fanining yangi vazifalari», «Pedagogika nazariyasi va tarixiga oid ilmiy-ommabop maqolalar to'plami», «Darsda o'quvchilar aktivligini oshirish yo'llari», «Tadqiqotchilarning kuchini birlashtiraylik», «Ta'lim berib tarbiyalaylik, tarbiyalab ta'lim beraylik», «Maktab haqida g'amxo'rlik — umumxalq ishi», «O'zbekistonda xalq maorifi», «Pedagogika fanining ravnaqi uchun» kabi ishlari, 1962, 1966-yillari nashr qilingan «Pedagogika» darsliklariga hammuallif bo'ldi.

Bu davrda olim ko'pgina iqtidorli yoshlarni o'z atrofiga chorladi, yordam berdi. M.Ochilov (1962), F.Abdullaev (1962), K.Hoshimov (1964), M.Ahmedova (1965), T.Mo'minjonov (1966), A.Tyulenov (1966), D.Urumbaev (1966), S.Fayzulina (1966) kabi iqtidorli yoshlar olim rahbarligida nomzodlik dissertasiyalarini muvaffaqiyatli yoqladilar.

1964-yili S.Rajabovga «Respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi» unvoni berildi.

U 1966–1990-yillari Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti umumiy pedagogika kafedrasiga jamoasiga boshchilik qildi. Olim kafedra a'zolarining har biriga murabbiy, ustoz edi. Bugina emas, olim o'qituvchi mutaxassislar tayyorlash sohasida fidokorona mehnat qilayotgan hamkasblari — institut olimlari bilan birga o'rta va oliy ta'limga aloqador juda ko'p muammolarni hal qilishda faoliyat ko'rsatdi.

Professor S.Rajabovning institutdagi chorak asrlik uzluksiz ilmiy-pedagogik faoliyati uning hayotida alohida davr bo'ldi.

(S.Rajabov bu davrda juda ko'plab metodik muammolarni kafedra

a'zolari va ilmiy jamoatchilik tomonidan muvaffaqiyatli hal qilinishiga boshchilik qildi. Xususan, didaktika – ta'lim nazariyasi, xususiy metodika, tarbiya nazariyasi va metodikasi, maktabshunoslikning dolzarb muammolariga aloqador asarlar yaratdi.

Olimning 300ga yaqin ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalari, risolalari, qo'llanmalari, darslik va monografiyalari e'lon qilindi.

S.Rajabov Sharq mutafakkirlari pedagogik merosini o'rganish masalalariga o'z faoliyatida katta o'rin berdi. Uning Navoiy, Bobur singari mutafakkirlarning pedagogik qarashlari haqidagi maqolalari muhim ahamiyatga ega. U K. Hoshimov bilan «O'zbekistonda pedagogik fikrlar antologiyasi»ning (Moskva, 1986) tuzuvchilaridan hisoblanadi. Bu antologiya O'zbekiston va sobiq Ittifoqdagi barcha millatlarga, ayniqsa, rusiyzabon millatlarga O'rta Osiyo qomusiy olimlarining hayoti, ta'lim-tarbiya sohasidagi g'oyalariidan ma'lumot beruvchi muhim manba sifatida qimmatlidir.

S.Rajabov o'zining asosiy ishini jamoat ishlari bilan bog'lagan holda olib bordi. U 1961–1988-yillari O'zbekiston xalq ta'limi vazirligining hay'at a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatdi. U vazirlik tomonidan xalq ta'limi tarmog'ini kengaytirish, maktablarda o'quv-tarbiya ishlarini davr talablari darajasiga ko'tarish borasida amalga oshirilayotgan hamma tadbirlarda bevosita qatnashib keldi.

Siddiq Rajabovning ko'p qirrali jamoatchilik faoliyatida uning respublika pedagogika jamiyati markaziy kengashi prezidiumiga raisligi asosiy o'rin egallaydi.

Siddiq Rajabovning pedagogika fani va xalq ta'limi ravnaqi yo'lidagi mehnatlari hukumat tomonidan yuksak baholandi.

Professor S. Rajabov 1993-yili vafot etgan.

XX asrning 70–80-yillarida O'zbekistonda xalq ta'limi

Xalq ta'limi tizimida muhim o'rinni egallagan umumiy ta'lim maktablari respublikamiz hayoti bilan chambarchas bog'langan bo'lib, davlatning mafkuraviy, madaniy vazifalariga xizmat qiladi. Shuning uchun ham respublikamiz hukumati umum ta'lim maktablarini rivojlantirish, ularni yangi binolar bilan ta'minlash, o'quv va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda yuqori bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar bilan ta'minlash borasida bir qator tadbirlarni amalga oshirdi.

Umum ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya tizimi, mazmuni, shakl

va metodlari, yosh avlodni har tomonlama shakllangan barkamol shaxs sifatida shakllantirish uchun ta'lim tizimini isloh qilish zarur edi.

Islohotda umumiy o'rta ta'lim o'n bir yillik bo'lib, I—IV sinflar — boshlang'ich, V—IX sinflar esa to'liqsiz o'rta va X—XI sinflar — umumta'lim maktabini tashkil qiladi. Mazkur tuzilishga binoan o'rta umumiy ta'lim maktablarida bolalarni olti yoshdan boshlab o'qitish nazarda tutiladi.

Hunar-texnika ta'limi tubdan o'zgartirilib, «O'rta hunar-texnika bilim yurtlari»ga aylantirildi.

O'rta ma'lumotga ega bo'lmagan, ishlab chiqarishdagi faol yoshlar uchun kechki (smenali) va sirtqi maktablar saqlanib qolindi.

Umumiy o'rta va hunar ta'limi tizimining o'zgarishi bilan, oliy o'quv yurtlari, bilim dargohlariga qabul qilishning yangi qoidalari, talablari ishlab chiqiladi.

Umumiy o'rta va hunar ta'limi bilan unda beriladigan ta'limning mazmuni, shakllari, metodlari va usullarini ham tashkil etilishini o'zgartirishni taqozo etadi. Buning uchun islohot taqozo etganidek, ta'limning mazmunini takomillashtirish zarur. Ta'limning mazmunini takomillashtirishning muhim shartlari o'quv dasturlari va darsliklari materiallarini o'quvchilarning yoshiga mos holda soddalashtirish, ortiqcha ikkinchi darajali materiallardan xalos etish zarur.

O'quv fanlarining amaliy yo'nalishini kuchaytirish, mehnat tarbiyasi va kasb tanlashga o'rgatishni yo'lga qo'yish, ta'lim mazmunining politexnik yo'nalishini ta'minlash masalasi asosan amalga oshiriladi.

O'quv darsliklari, metodik qo'llanmalar yaratildi; o'quv rejasiga «Atrof muhit bilan tanishish» (I—II sinflarda), «Informatika fa hisoblash texnikasi asoslari» (X—XI sinflarda), «Oila etikasi va psixologiyasi» (X—XI sinflarda), «Ishlab chiqarish asoslari. Kasb tanlash» (VIII—X sinflarda) kabi fan asoslari ta'lim dasturiga kiritildi va o'qitilmoqda, o'qituvchilar mehnatiga tabaqalashtirib haq to'lash joriy etildi, o'qituvchilar malakasini oshirish va qaytadan tayyorlash masalasida ijobiy siljishlar ro'y berdi, o'quvchilarni mehnat ta'limi va tarbiyasining mazmuni takomillashtirildi; hunar-texnika ta'limi tizimida ishchi xodimlar tayyorlash kengaytirildi; maorifning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalasiga nisbatan jamoat tashkilotlarining munosabatlari birmuncha o'zgargandek tuyuldi. Biroq, bu o'zgarishlar ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, uyushtirish uchun etarli emas edi. Islohot birinchidan, «qayta qurish» sharoitida, maktab islohotining evolyutsion xarakterga egaligi, maktab ishining mazmuni, ilmiy-pedagogik kadrlar, moddiy-texnikaviy ta'minlanish, boshqarishning tubdan

o'zgartirilmaganligi ta'lim-tarbiyaning rivojlanishiga to'siq bo'ldi. Islohnii amalga oshirishdagi tashkilotchilik ishlarining etarli bo'lmayotganligi, boshqarishdagi byurokratik metodga asoslanilayotganligi, xalq xo'jaligining ehtyojiga mos ravishda kadrlar tayyorlash mo'ljallanmaganligi ham islohot talablarini qiyinchilik bilan hal etilayotganligiga sabab bo'ldi. Bular esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya saviyasini oshirishga salbiy ta'sir etdi.

Shuni qayd etish zarurki, o'zbek maktablari sobiq ittifoq davrida milliy zamindan batamom uzilib qolgan edi. O'qish-o'qitishda Ovro'po, xususan o'rus tizimi qabul qilindi. Yangi davrdagi zamonaviylashtirishning «bilimdon» va «zukko» tashkilotchilari ming yillik yozuvimizni ham qayta-qayta almashtirilishi, natijasida maktablari o'quv-tarbiyaviy ishlar va xalq ruhiyatidan deyarli ajralib qoldi, avlod-ajdodlarimizning dunyoviy, ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy merosi esa umuman o'qitilmay, o'rgatilmay tashlab qo'yildi.

Nazorat uchun savollar

1. O'zbekistonda 1917–1924-yillar maktab va maorif sohasida qanday o'zgarishlar bo'ldi.
2. Turkistonda Milliy davlat chegaralanishi o'tkazilgandan so'ng xalq ta'limidagi o'zgarishlarni ayting?
3. Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda maktab va maorifdagi o'zgarishlarni tahlil qiling?
4. XX asrning 70–80-yillari O'zbekistonda xalq ta'limida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
5. Siddiq Rajabov yashagan davrdagi ijtimoiy muhit va maktab-maorif masalalari.
6. Siddiq Rajabov asarlari va unda ta'lim-tarbiya masalalari.
7. Siddiq Rajabovning pedagogika va pedagogik kadrlar tayyorlashdagi faoliyati.

IX BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA TA'LIM VA PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTI

Mustaqillik va ta'lim tizimida islohotlar

Mustaqillik e'lon qilingan (1991-yil 1 sentabr) dastlabki yillardanoq O'zbekiston hukumati ta'limga ustivor soha sifatida e'tibor berib kelmoqda. Respublikamizning ta'lim sohasida aniq va ravshan davlat siyosati mavjud bo'lib, u insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslanadi hamda har bir fuqaroning bilim olishini Konstitutsiya bilan kafolatlaydi.

Respublikamizda ta'limi tizimini yangilash va rivojlantirish zarur. Chunki huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarida olib borilayotgan islohotlardan maqsad barcha fuqarolarning hayotini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush sharoitini yaxshilash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish, eng muhimi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iboratdir. Shu maqsadda 1997-yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Respublikamiz tubdan yangilangan davlat bo'lib, unda har bir siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohadagi islohotlar bosqichma-bosqich olib borilishi nazarda tutiladi. Shu jumladan, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asosi hisoblanadi. Milliy dasturning asosiy maqsadi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish bo'lib, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish bilan barcha sohalarida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni kafolatlashi bilan ahamiyatlidir.

Shunga ko'ra, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq boy madaniyatimizni tiklash va rivojlantirish, ta'lim tizimini takomillashtirish, jahon andozalari darajasiga ko'tarishga e'tibor berilmoqda.

O'tgan o'n yil mobaynida yangi turdagi ta'lim muassasalari tashkil etildi. Oliy o'quv yurtlari qoshida litseylar ochildi. Qobiliyatli o'quvchilar chet ellarda ta'lim ola boshladi. O'qituvchilar xorijiy davlatlarda bo'lib, ilg'or tajribalarni o'rganib kela boshladilar.

Viloyatlarda biznes maktablari, kichik va o'rta kasb hunar kurslari ochildi va fermer, soliq va bojxona xodimlari, audit kabi yangi mutaxassisliklar o'qitila boshladi. Test usuli joriy etildi. Viloyatlardagi pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi, chet el mutaxassislari respublikamiz o'quv muassasalariga jalb etildi.

«Mahalla», «Kamolot», «Sog'lom avlod uchun», «Nuroni», «Ulug'bek», «Umid» jamg'armalarining ta'lim sohasini rivojlantirishdagi hissalari beqiyos.

Oliy ta'lim sohasida ham islohot o'tkazish zarurati yuzaga kelgach, 1997-yil mart oyida Vazirlar Mahkamasining farmoyishiga muvofiq, ta'lim tizimini isloh etish, kadrlar tayyorlash jarayoniga zamon talabi darajasida o'zgartirishlar kiritish maqsadida maxsus komissiya tuzildi. Natijada «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun Oliy Majlis sessiyasida qabul qilindi.

Bu ikki hujjatga binoan ta'lim tizimini isloh qilish bosqichma-bosqich amalga oshirish nazarda tutiladi:

Birinchi bosqich — o'tish davri. 1997–2001-yillar. Bu yillarda yangi talab doirasida pedagog kadrlar tayyorlash, ta'lim standartlarini yaratish, o'quv dasturlari ustida ishlash, umumta'lim maktablarini qayta qurish, o'rta maxsus va kasb-hunar bilim yurtlari tizimiga zamin tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimiga asos solish.

Ikkinchi bosqich – 2001–2005-yillar. Bu davrda milliy dastur to'liq amalga oshiriladi. Uning ba'zi g'oyalari va qoidalariga o'zgartirishlar kiritilish ham ko'zda tutilgan.

Uchinchi bosqich – 2005-yil va undan keyingi yillar bo'lib, islohot tajribalari tahlil etilib, umumlashtiriladi hamda kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtiriladi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga asosan Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvor deb e'lon qilindi.

Ta'lim sohasidagi davlatning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterida ekanligi;
- Ta'limning uzluksiz va izchilligi;
- Umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishlari: akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'qishni tanlash ixtiyoriyligi;
- Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- Davlat standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

- Bilim va iste’dodni rag’batlantirish;
 - ta’lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg’unlashtirish.
- Xalq ta’limining asosiy bo’g’ini – uzluksiz ta’limi tizimini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi

O‘zbekiston Respublikasida quyidagi uzluksiz ta’lim tizimi asos qilib olingan: Bolani o‘qishga tayyorlashni ko‘zlovchi mazkur ta’lim uch yoshdan olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va mulk shaklidan qat’iy nazar, boshqa xil ta’lim tashkilotlarida olib boriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim.

Umumiy o‘rta ta’lim quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

Boshlang‘ich ta’lim (I–IV sinf)

Umumiy o‘rta ta’lim (I–IX sinflar)

Boshlang‘ich ta’limda umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikmalar shakllantiriladi. Birinchi sinfga bolalar 6–7 yoshdan qabul qilinadi.

Umumiy o‘rta ta’limda bilimning zarur hajmi beriladi. Bolalarda mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Kasbga yo‘naltiradi, ta’limning navbatdagi bosqichiga yordam beradi.

Bundan tashqari ixtisoslashtirilgan maktalar ham tashkil etilishi va bolalar iste’dodiga ko‘ra ta’lim olishi mumkin.

O‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi.

Har bir yigit-qiz umumiy o‘rta ta’limga ega bo‘lgandan so‘ng akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni ixtiyoriy ravishda tanlashi mumkin. Bu ta’lim muassasalarida o‘qish muddati uch yildan kam bo‘lmaydi.

Litsey va kollejlarda egallangan kasb-hunar bo‘yicha ishlash va ta’limni navbatdagi bosqichda davom ettirish huquqini beradi.

Oliy ta’lim.

Oliy ta’limda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadi.

Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash universitet, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta’lim muassasalarida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim ikki bosqichdan: bakalavriat va magistraturadan iborat.

Bakalavriat — oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha puxta bilim beriladigan, o‘qish muddati kamida to‘rt yil bo‘lgan tayanch oliy ta’limdir.

Magistratura — aniq mutaxassislik bo‘yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’limdir.

Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim shartnoma asosida olinadi.

Oliy o'quv yurtidan keyin malakali ilmiy yoki ilmiy pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojga qarab oliy o'quv yurti va ilmiy tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad'yutantura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik tarzida davom ettiriladi.

Oliy ta'limdan so'ng kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashga qaratiladi.

Bolalar va o'smirlarning dam olishini tashkil etish uchun madaniy-estetik, ilmiy-texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari mavjud. Bunday maskanlarga bolalar, o'smirlar, ijodiyoti saroylari, uylar, klublar va markazlar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari kiradi. 

Ta'lim islohotlarida kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlarini asosan quyidagilar tashkil qiladi:

- shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

- davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

- uzluksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

- fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

- ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan quyidagi talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy texnik jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida intellektual, ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish nazarda tutiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida fan, jumladan, pedagogika fani ham yangi fundamental bilimlarni shakllantirish orqali muhim ilmiy natijalarni jamlaydi. Oliy malakali pedagog kadrlar tayyorlashning amalga oshirilishi, ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish orqali ilm-fanning ta'lim amaliyoti bilan aloqasini ta'minlashni amalga oshirishni ko'zda tutadi, ilg'or axborot va tendensiya texnologiyalarini joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratadi.

Mustaqil yillarda pedagogika sohasida ham yirik tadqiqotlar olib borilmoqda. Pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertasiyasini himoya qilish uchun ixtisoslashgan Kengashlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Hozirgi paytda Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlar ilmiy tadqiqot instituti, hunar ta'limi ilmiy tadqiqot instituti, Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika universiteti yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ta'lim sohasi bo'yicha Davlat ilmiy-texnikaviy dasturining ijrochilari hisoblanadilar.

Ayni vaqtda, O'zbekistonning o'z taraqqiyot strategiyasi, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish yo'lidagi ezgu orzu-umidlarini, milliy istiqlol mafkurasining asl mohiyatini yoshlar qalbiga va ongiga singdirish jarayoni kechayotgan davrda bu muhim ishni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida uzluksiz tarzda olib borishni taqozo etadi.

Zero, istiqlol mafkurasi hur fikrlilik va jur'atsizlikdan holi bo'lgan, o'z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan insonni tarbiyalaydi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Respublikamizda mustaqillik e'lon qilingandan so'ng ta'lim sohasida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
2. Ta'lim sohasidagi islohotlarning mohiyati nimadan iborat edi?
3. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta'lim tizimida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
4. Mustaqillik yillarida pedagogika fani taraqqiyoti haqida so'zlang?
5. Yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyasini qanday singdirish mumkin?

X BOB. JAHON PEDAGOGIKA FANI VA RIVOJLANISH TARIXI

Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiya

Tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlariga kelib, ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnini yangi ijtimoiy formatsiya quldorlik tuzumi egalladi. Qadimiy Sharqda birinchi sinfiy jamiyatlar paydo bo'ldi hamda moddiy va ma'naviy madaniyatga asos solindi. Ayniqsa, qadimgi Yunoniston va Rim xalqlari bu madaniyatni rivojlantirishda katta hissasini qo'shdilar.

Darhaqiqat, tarixiy taraqqiyot davomida turli mamlakatlar va xalqlar jahon madaniyatiga turlicha yondashdilar va rivojlantirdilar. Masalan, Xitoyda qog'oz ixtiro qilindi, Hindistonda hisoblashning o'nlik tizimi kashf etildi, Mesopotamiyada esa er kurrasini graduslarga, sutkani soatlar, minutlar va daqiqalarga bo'lish o'ylab topildi.

Eramiz boshlanishidan oldin O'rta Osiyoning janubiy chekkasiga yaqin bo'lgan joyda O'rta dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvchi karvon yo'li qurildi. So'ngra O'rta Osiyo orqali Xitoydan O'rta dengizga tomon «Buyuk ipak yo'li» ochildi. Natijada O'rta Osiyo xalqaro savdo-sotiq markaziga aylandi. Bu esa o'z navbatida O'rta Osiyo vohalarida madaniyatning rivojlanishiga ta'sir etdi, yozuvning tarqalishiga yordam berdi.

Ayniqsa, qadimgi yunonistonda madaniyat, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlandi.

Yunoniston uncha katta bo'lmagan bir qancha quldorlik davlatlaridan tashkil topgan. Uning mo'tabar shaharlari Lakoniya (bosh shahri Sparta) va Attika (bosh shahri Afina)dir. Bularning har qaysisida tarbiyaning alohida tizimlari vujudga kelib, Sparta usulidagi tarbiya va Afina usulidagi tarbiya deb ataladigan bo'ldi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tuzumi hukmron edi.

Yunonistonda qullarni «gapiradigan ish quroli» deb hisoblar edilar. Qullar oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum edilar.

Lakoniya (Sparta)da kemalar to'xtaydigan qulay gavanlar bo'lmaganligi tufayli qullar mehnatiga asoslangan dehqonchilik hukmron edi. 9 ming oiladan iborat bo'lgan quldorlar 250 mingdan ko'proq aholiga

hukmronlik qilardi. Tarbiya ishlari davlat ixtiyorida bo'lib, uning asosiy maqsadi spartaliklarning bolalarini baquvvat, jismoniy sog'lom, bardoshli, chiniqqan jangchilar qilib tarbiyalashdan iborat edi.

Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda yashar, keyin «**agella**» deb ataluvchi davlat muassasasida 18 yoshga etguncha tarbiyalanar edi. Ular «**pedonom**» rahbarligida jismoniy sog'lom bo'lish uchun turli mashqlar bilan chiniqtirililar, sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidashga, og'riqqa bardosh berishga o'rgatilar edi. Ta'limning asosiy qismini harbiy gimnastika mashqlari egallar edi.

Qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf olim Plutarx Sparta maktablari-dagi ta'lim-tarbiya haqida gapirib, shunday deydi:

«O'qish va yozishga kelganda bolalarga faqat ularning eng zaruri o'rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech so'zsiz itoat qildirishni, chidamli bo'lishni va engish ilmini o'rgatishni ko'zda tutar edi».

Spartada ta'lim-tarbiyaning yana bir muhim vazifasi yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz, ularni mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat edi. Shu maqsadda yoshlar «**Kreptiyalar**»da, ya'ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashar, shubhali bo'lib ko'ringan har qanday qulni o'ldirar edilar.

Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yo'l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar, bolalarni savol-javob jarayonida aniq va lo'nda javob berishga o'rgatgan. Yigitlar 18—20 yoshga etganda «**Efeblar**» o'spirinlar guruhida harbiy xizmatni o'taganlar.

Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilgan. Ularni harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Chunki erkaklar jangga ketganlarida ular shaharni qo'riqlab, qullarni itoatda saqlashini ta'minlar hatto jangga ham qatnashardilar.

Afinada esa hayot, tartib, intizom, maktab tizimi va undagi ta'lim-tarbiya spartanikidan butunlay farq qilar, qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Afinada eramizdan ilgarigi V—IV asrlarda madaniyat gullab yashnadi. Fan, me'morchilik va haykaltaroshlik rivoj topdi.

Ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan etuk kishini, Afinada eng ko'rkam va barkamol inson(ideal) hisoblangan.

Bolalar 7 yoshga etguncha uyda tarbiyalanar, o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qatnar, qizlar esa oilada ona ko'magida uy-ro'zg'or ishlariga o'rgatilar, chunki xotin-qizlarning hayoti uy doirasidan chiqmas edi.

Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13—14 yoshgacha «**grammatist**» (savod o'rgatish ma'nosida) yoki «**kifarist**» (grekcha musiqa o'qituvchisi ma'nosida) maktablarda tahsil olganlar. Bu xususiy maktablarda o'qish pullik bo'lgan. Shuning uchun kamxarj fuqarolarning bolalari ushbu maktablarda ta'lim ololmagan.

Maktablarda «**didaskol**» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edilar. (Men o'qitaman, degan ma'nodagi «didasko» so'zidan keyinroq «didaktika» — ta'lim nazariyasi kelib chiqqan).

O'g'il bolalarni maktabga qullar etaklab borar edi, bunday qul **pedagog** deb atalgan («pays» – bola, «agogeyn» – etaklab borish degan so'zlardan olingan). **Grammatist** maktabida o'qish, yozish va hisoblash o'rgatilar edi, o'qishda harflarni hijjalab o'qitish usuli, so'ng qo'shib o'qish usulidan foydalanganlar. Yozuvni o'rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalangan va ingichka cho'p yordamida yozganlar. Sonlar barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan hisoblagan. **Kifarist** maktabida adabiy bilim va estetik tarbiya berilar, muzika, ashula, deklamatsiyalar o'rgatilar edi.

O'g'il bolalar 13–14 yoshga etganlaridan keyin **palestra** («kurash maktabi») deb atalgan o'quv yurtiga o'tar, bu yerda ikki-uch yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanardilar. Masalan: sakrash, yugurish, kurashish, disk va nayza uloqtirish, suvda suzish kabilar. Palestrada o'qish tekin bo'lgani uchun yoshlarning ko'pchiligi shu yerda o'qish bilan cheklanib qolar edi. Badavlatroq oiladan bo'lganlari esa palestrani tugatgach **gimnasiyga** (jismoniy, ijtimoiy tarbiya) kirar edi. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o'rgatilar, tahsilni tugatganlar davlat boshqaruvihda qatnashishlari mumkin edi.

Nihoyat, Spartada bo'lgani kabi, Afinada ham 18 dan 20 yoshgacha bo'lgan yoshlar Efeblar qatoriga o'tib, harbiy xizmatga tayyorlanar va siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirardilar.

Aholining ko'pchilik qismi bolalarni maktablarda o'qita olmaganligi sababli ularga kasb-hunar o'rgatish odat tusiga kirgan edi. Ayrim xat-savodi bor ota-onalar bolalariga o'qishni o'zlari o'rgatar edilar. Bu davlat tomonidan qonunlashtirilib qo'yilib bechorahol tabaqaga mansub ota-onalar o'z bolalariga biror kasbni o'rgatishga majbur edilar. Aks holda ularning bolalari kelgusida keksayib qolgan ota-onalari to'g'risida moddiy g'amxo'rlik qilishdan ozod etilgan.

Qadimgi Yunonistonda pedagogik nazariyalarning tug'ilishi

Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining tug'ilishiga imkon yaratdi. Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Aristotel va Demokritlar asos soldilar. Quyida bu faylasuf olimlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Suqrot(Sakrat). (eramizdan avvalgi 469–399-yillar) O'zining ijtimoiy kelib chiqishiga qaramay (Suqrot haykaltaroshning o'g'li edi) konservativ zamindor aristokratlarning ideologi edi. Bu albatta uning falsafiy va pedagogik qarashlarida o'z aksini topdi. Suqrot dunyoning tuzilishini, buyuqlarning fizik holatini bilib bo'lmaydi, odamlar faqat o'zlarinigina bilishi, axloqni kamol toptirishi lozim deb hisoblar, faylasuf bo'lishi bilan birga ajoyib notiq ham edi. Keng maydonlarda so'zga chiqar, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo'li bilan haqiqatni topishga undar edi. Bu «Suqrot metodi»(Evristik) nomi bilan fanga kirgan.

Suqrot — falsafiy dialektikaning asoschilaridan biri. Baxs orqali, ya'ni muayyan masalalarni o'rta qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin deb uqtiradi faylasuf.

Aristotelning yozishicha Suqrot mavjud haqiqatdan umumiy tushunchalarga o'tish haqidagi induktiv ta'limotni hamda har bir narsaning mohiyatini bilishning birinchi imkoniyatini beradigan tushunchalarni aniqlash haqidagi ta'limotni yaratgan. Suqrotning etika sohasidagi asosiy tezislari quyidagilardan iborat: ezgulik bilimdir, donishmandlik, ya'ni yaxshilikni biluvchi yaxshilik qiladi; yomonlik qiluvchi esa yaxshilikni yo bilmaydi yoki pirovardida yaxshilikning tantanasi uchun yomonlik qiladi. Suqrotning ta'biricha, aql bilan axloq o'rtasida ziddiyat bo'lishi mumkin emas. Ulug' faylasuf tarbiyada axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya mezonini ishlab chiqdi. Lekin Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha, axloq faqat imtiyozli «mumtoz»largagina xos, «mumtoz» kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo'lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo'llarida bo'lmog'i kerak deydi.

Suqrot davlat boshqaruvining monarxiya, tiraniya, aristokratiya, politiya va demokratiya kabi shakllarini tanqid qilgani uchun ayblanib, o'lim jazosiga hukm qilinch o'z ixtiyori bilan zahar ichgan.

Aflotun(Platon) eramizdan ilgari (424–347-yillari) yashagan. Qadimgi Yunonistonning mashhur – idealist faylasufi, Suqrotning shogirdi, ob'ektiv idealizm nazariyasining asoschisi «g'oyalar dunyosi»ni birlamchi, his qiluvchi narsalar dunyosini ikkilamchi deb hisobladi.

Aflotun olamni hodisalar dunyosi va g'oyalar dunyosi deb ikkiga bo'ldi. Uning fikricha g'oyalar abadiy va o'zgarmasdir. Uning nazarida, narsalar g'oyalar olamining soyasidir, xolos.

Afina aristokratiyasining namoyondasi bo'lgan Aflotun, aristokratiyaning abadiy hukmronligi haqidagi nazariyani ilgari surdi. Uning fikricha ideal aristokratik davlat uch xil ijtimoiy guruh: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo'lishi lozim. Faylasuflar davlatni boshqaradilar, jangchilar uni har qanday dushmandan himoya qiladilar, uchinchi guruh esa mehnat qilib, mo'l hosil etishtirib, faylasuflar va jangchilarni boqadilar. Uning tasavvuridagi ideal davlatda qullar ham hunarmandlar ham huquqsizdirlar, qanoat va itoatkorlik fazilatlariga xos deb ta'kidlaydi u.

Aflotun – davlat tomonidan tashkil etilmog'i va hukmron guruhlarining – faylasuflar va jangchilarning manfaatini ko'zlamog'i lozim. Aflotun o'zining pedagogika tizimida Sparta va Afina tizimining ba'zi bir belgilarini birlashtirishga intiladi.

Aflotunning fikricha, bolalar uch yoshdan 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo'yilgan tarbiyachilar rahbarligida maydonchalarida turli o'yinlar o'ynash bilan shug'ullanishlari lozim. Aflotun o'yinlarni maktabgacha tarbiya vositasi deb hisoblab, ularga katta ahamiyat beradi, shuningdek, bolalarga hikoya qilib beriladigan materiallarni sinchiklab tanlash kerakligini ham uqtirib o'tadi. U bolalarga yoshlik chog'idanoq ijtimoiy tarbiya berish tarafdori edi.

Aflotun xotin-qizlar tarbiyasi xususida fikr yuritib, Spartadagi usulni ma'qullaydi.

Umuman Aflotun tarbiya tizimining butun mazmuni va mohiyati jismoniy mehnatdan g'oyat nafratlanish ruhi bilan sug'orilgan. Aflotun g'oyasiga ko'ra bo'lajak faylasuflar va jangchilarning «jismoniy mehnat to'g'risida xato o'ylashlari» ham taqiqlab qo'yilgan, shuningdek qullarning bolalarini o'qitmagan ma'qul.

Biroq, Aflotun maktabgacha tarbiya to'g'risida, davlat tomonidan izchillik bilan olib borilishi lozim bo'lgan tarbiya tizimi to'g'risida bir qancha muhim fikrlarni aytib, ijobiy o'rnak namunasida tarbiyalashni talab qilgan.

Aflotun o'zining axloqiy g'oyalarini ilgari surar ekan, ustozi Suqrotga ergashib, ob'ektiv idealizm yo'lini tutadi. Aflotun etikasining asosiy nazariya tayanch nuqtasi — inson ongi chegaralaridan tashqarida bo'lgan va mangulik g'oyalari olamida xudoning doimiy nazorati ostida bo'ladigan yagona o'zgarmas «yaxshilik» g'oyasidir. Uning fikricha, erdagi yaxshiliklarning hamma turi o'zida me'yor, go'zallik va haqiqatdan iborat uch tushunchani jamlagan oliy «yaxshilik g'oyasi»ning inikosigina bo'lishi

mumkin. Odamning axloqiy hayoti shu oliy «yaxshilik g'oyasi»ga intilishga to'la bo'ysungan va xushbaxtlikni tashkil etadigan, faqat oliy «yaxshilik» g'oyasiga intilishdagina xulqning namunasini ko'rish mumkin.

Platonning shogirdi bo'lgan, makedoniyalik Iskandarni tarbiyalagan, qadimgi Gresiyaning eng yirik idealist-faylasufi va olimi Arastuning pedagogika nazariyasini yaratishdagi va uni rivojlantirishdagi xizmatlari juda ulkan.

Arastu(Aristotel) (eramizdan avvalgi 384–322-yillar)da yashagan. Aflotunning shogirdi, makedoniyalik Iskandarning ustози. Qadimgi Yunonistonning yirik idealist-faylasufi va olimi.

Aflotun olamni g'oyalar va hodisalar dunyosiga bo'lgan bo'lsa, uning shogirdi Arastuning aytishicha, g'oyani shaklga o'xshatish mumkin. Har qanday buyumda biz uning moddasini va shaklini ko'rishimiz mumkin. Moddada narsalar bo'lishi uchun imkoniyatlar bor; modda biron shakl olganidan so'nggina narsa bo'lib qoladi. Chunonchi, marmarning o'zi bir moddadir, ammo unga ma'lum shakl berilsa, haykal tusini olishi mumkin.

Butun hayot taraqqiyot jarayonidir, bu jarayon, Arastuning fikricha, tashqi kuchlarning ta'siri ostida sodir bo'lmaydi, balki ichki taraqqiyotning o'zidir. Arastu tashqi olamning mavjudligiga shubha qilmaydi va hissiy tajribani, sezgilarni bilishning asosi deb hisoblaydi. Arastuning ta'kidlashicha bilishdagi xatolar noto'g'ri tafakkurdan, ya'ni hissiy tajribani noto'g'ri talqin qilishdan kelib chiqadi.

Arastu shakl bilan mazmunning birligini ko'rsatib o'tdi, taraqqiyot g'oyasini olg'a surdi.

Arastu olamda tana va jon bor, tana bilan jon materiya bilan shakl tariqasida bir-biridan ajralmagan holda mavjuddir, deydi. Uningcha, uch xil jon bor: o'simlikdan tarkib topgan jon oziqlanish va urchib ko'payishda namoyon bo'ladi; hayvonotdan tarkib topgan jon, o'simlik xossalaridan tashqari sezgilarda va istaklarda namoyon bo'ladi; aqlning ifodasi bo'lgan jon, o'simlik va hayvonot xossalaridan tashqari, u tafakkur yoki bilish xislatlariga ega. Insondagi jonning hayvoniy qismi aqlga tobe bo'lganligi sababli, uni iroda deb atash mumkin.

Arastuning fikricha, jonning mana shu uch xiliga muvofiq uch xil tarbiya – jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyalardir. Tarbiyaning maqsadi aql va irodani kamol toptirishdan iborat. Har bir moddada rivojlanish imkoniyati bor bo'lganidek, insonga ham tabiat faqat qobiliyatlarning boshlang'ichinigina beradi, insonda kamol topish imkoniyati mavjud va bu imkoniyat tarbiya vositasi bilan ro'yobga chiqariladi. Tabiat jonning

uch xilini bir-biri bilan chambarchas bog'lab qo'ygan, biz ham tarbiyada tabiat belgilab bergan yo'ldan borib, jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan chambarchas bog'lab olib borishimiz lozimligini uqtiradi.

Arastuning fikriga ko'ra, davlatning umumiy bitta oxirgi maqsadi bor, u ham bo'lsa, davlat hamma fuqarolarga bir xilda tarbiya berilishini ta'minlashi lozim, mana shunday tarbiya berish esa xususiy tashabbusning vazifasi bo'lmasdan, balki davlatning ishi bo'lishi lozim.

Oilaviy tarbiya bilan ijtimoiy tarbiya o'zaro bog'liq bo'lishi lozimligini uqtirib, u hatto oilaviy tarbiyaga doir bir qancha tavsiyalar beradi. Ammo Arastu davlat hamma fuqarolar uchun «bir xilda» tarbiya berishi lozim, deb aytganida qullarni nazarda tutmaydi.

Arastu pedagogika tarixida birinchi bo'lib, yoshni davrlarga bo'lishga urinib ko'radi. U insonning yoshlik yillarini uchga bo'lib o'rganadi: 7 yoshgacha bo'lgan davr; 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan davr (jismoniy balog'at davrining boshlanishi) va jinsiy balog'at davrining boshlanishidan 21 yoshgacha bo'lgan davr. Uning fikricha, bunday davrlarga bo'lish tabiatga mos bo'lib tushadi.

Arastu o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktabida o'qishi lozim, deb uqtiradi. Bolalarga aqliy tarbiya berilishi kerakligini aytib, u o'g'il bolalar avvalo badantarbiya muallimlarining qo'lga topshirilsin, deb talab qiladi; bunda u bolalarni haddan tashqari charchatib qo'ymaslik kerakligini aytadi va ularning jismi mustahkamlanib olguncha engil mashqlar bilan shug'ullantirishni tavsiya etadi.

Arastu jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan bog'langan, deb qaraydi. Boshlang'ich ta'lim vaqtida, badantarbiyadan tashqari, yana o'qish, yozish, grammatika, rasm va musiqa o'rgatilishi kerakligini alohida uqtirib o'tadi. O'smirlar maktabda jiddiy ma'lumot olishlari kerak, ular adabiyot, tarix, falsafa, hisob, falakiyot, musiqani o'rganishlari shart. Go'zallikni his qilishni o'stirish uchun musiqa o'rganmoq kerak, ammo rasm chizish singari musiqa o'rganish ham oddiy hunarga aylanib ketmasligini kuzatib turish muhim deydi. U xotin-qizlarning tarbiyasi xususida gapirib, bu erkaklarning tarbiyasiga o'xshab ketmasligini, chunki ularning tabiati mutloq erkaklarnikidan farq qilishini aytadi.

Arastu o'z pedagogik qarashlarida iroda, faoliyatni asos qilib olgani holda, aqliy tarbiya sohasida axloqiy ko'nikmalarga katta ahamiyat beradi. Tabiiy iste'dod, shu bilan birga, ko'nikma orttirish (matlub harakatlarni o'rganish, tez-tez takrorlab turish) va aql — bular axloqiy tarbiyaning uch manbaidir, deydi.

Fazilatlar hosil bo'lishi uchun ezgu xulq-odatlarini va ko'nikmalarini tarkib toptiradigan, yaxshi o'ylab o'tkaziladigan mashqlar bo'lishi ham

zarur, bunga odatlanish, buning uchun doimiy harakat qilish lozim, odatdan, ko'nikishdan esa axloqiy xatti-harakat hosil bo'ladi, deb ta'lim beradi.

Arastuning qayd etishicha, har qanday istak va faoliyatda kamchilik, ortiqchalik va o'rtachilik bo'ladi. Shuning uchun ham hamma narsadan faqat o'rtachilik, faqat muvozanat yaxshi va foydalidir. Demak, hamma narsada ortiqchalikka ham, kamchilikka ham yo'l qo'ymaydigan xatti-harakat yaxshilikning nishonasidir. Mana shunday xatti-harakatni hosil qilmoq uchun ko'proq mashq qilish kerak.

Arastu Aflotundan farq qilib, oilani tarbiyadan chetlashtirmaydi, axloqiy tarbiya berish, asosan, oilaning zimmasida bo'lishi kerak, deydi.

Arastuning qarashlari antik pedagogikaning taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazadi. Uning «Nikomah axloqi» va «Siyosat» asarlari axloq masalalarini nazariy ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Arastu, axloqning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, «Tabiat inson qo'liga qurol — aqliy va axloqiy kuch bergan, ammo u shu qurolni teskari tomonga nisbatan ham ishlatishi mumkin: shu sababli axloqiy tayanchlari bo'lmagan odam eng insofsiz va yovvoyi, o'zining jinsiy va did mayllarida eng tuban mavjudot bo'lib qoladi», — deydi.

Arastu antik davrining boshqa faylasuflariga qaraganda axloqiy munosabatlarning tabiatini teran tadqiq qila oldi. Uning fikriga ko'ra, axloqiy fazilat — faoliyat, xatti-harakat demakdir. Barcha axloqiy fazilatlar adolat, do'stlik, muhabbat, saxiylik, sulhparvarlik, xushfe'llik va hokazolar faqat inson faoliyatida namoyon bo'lishini asoslab beradi.

Odam jamiyatda yashagani sababli uning axloqiy fazilatlarini hech qachon sof, xolis holda namoyon bo'lmaydi, balki faqat ijtimoiy faoliyatdagina amalga oshadi. Shuning uchun barcha axloqiy fazilatlar ijtimoiydir, deydi Arastu.

Inson tabiatan fazilatlariga ega bo'lmagani, balki fazilatga o'rgangani sababli, tarbiyaning (faqat bolalarnigina emas, shu bilan birga barcha aholini tarbiya qilish) roliga katta ahamiyat berib, hususan hissiyotlarni tuyg'ularda idrokli tarbiyalashga ahamiyat qaratadi. Uning fikricha, bunday tarbiya kishilarning axloqli bo'lib yashashga o'rganishlari uchun zarur bo'lgan mavjud qonunlar yordamida amalga oshiriladi. Mutafakkir fazilat deganda hamisha ota-ona o'rnini bosishi mumkin bo'lgan davlatga xizmat qilishni nazarda tutadi.

Arastu axloqiy fazilatlar bilan bir qatorda inson uchun muhim bo'lgan aqliy fazilatlariga — bilim, donishmandlik, fahmlash va boshqalarga ham

katta ahamiyat beradi. Ammo axloqiy fazilatlarini aqliy fazilatlariga bo'ysundirgan holda ifodalaydi.

Arastu faqat aql faoliyatini tan oladi. Shu sababdan u baxt idealini haqiqatan intellektual mushohada etishda deb biladi.

Umuman antik faylasuflar Suqrot, Aflotun, Arastular o'zlarining nazariyalarida har bir narsada me'yor bo'lmog'i lozimligini uqtirib o'tganlar. Ular axloqni insonning baxtga erishish vositasi deb qaraganlar.

Demokrit (eramizdan avvalgi 460–370-yillar) qarashlari qadimgi Yunon falsafasining cho'qqisidir. U atomizm nazariyasini yaratgan materialist faylasufdir. Demokrit o'z asarlarida yuqorida nomlari qayd etilgan mutafakkir faylasuflar kabi tarbiya masalalariga katta e'tibor beradi. U o'z nazariyasida tabiat qonunlariga, xurofotni va qo'rquvni emirib tashlaydigan chinakam bilimlarga murojaat qiladi.

Demokrit tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo'lib ilgari surdi. «Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o'xshaydi» deb yozadi u. Demokrit «ta'lim mehnat asosidagina go'zal narsalarni hosil qiladi», deb, tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta'kidlaydi.

U doimo mehnat qilib turishni talab qildi, mehnatga odatlana borgan sari, mehnat engil bo'lib boradi, deydi. U yomon o'rnakdan ehtiyot bo'lish kerak, deb ta'kidlaydi va yaxshi xulq hosil qilishda mashqning ahamiyati katta, deb hisoblaydi.

Demokrit axloqni odamning o'z tabiatidan kelib chiqib asoslashga harakat qiladi. Bilish nazariyasida Demokrit moddiy olamni bilish va haqiqatga erishish mumkinligini ta'kidlaydi, bilish jarayonida sezgi va tafakkur rolini ko'rsatdi. Uningcha sezgilarimiz orqali olingan bilim «qorong'i»; u olamning mohiyatini ochib berolmaydi; aql orqali olingan bilim «yorug'», haqiqiy bilimdir. Tabiat sirlarini faqat fikrlash yo'li bilan bilib olish mumkin.

Demokritning axloqiy va pedagogik qarashlari diniy qobiqdan xoli edi. Shuning uchun ham o'zidan keyingi faylasuf olimlarga katta ta'sir etdi.

Ayniqsa, ularning inson kamolotidagi nazariy qarashlari, tarbiyaning roliga bergan katta ahamiyatlari pedagogika tarixi nazariyasini yaratishda asosiy zamin bo'lib xizmat qildi.

G'arbiy Yevropada maktab, maorif hamda pedagogik fikrlar taraqqiyoti

O'rta asr G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ikki guruhga bo'lingan va etti fanni o'z ichiga olgan ta'lim dasturi vujudga kelgan edi. Birinchi guruh uchta fandan iborat edi, shu sababli unga lotincha «trivium» nomi

berildi. Bunga grammatika (lotin tili grammatikasi), ritorika va dialektika kirar edi. Ikkinchi guruh to'rt fandan iborat bo'lgani uchun lotincha «kvadrivium» deb nomlandi. Unga arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa kirar edi. Hammasi bo'lib bu etti fanni «etti erkin san'at» deb atash rasm bo'lib qoldi.

Mazkur o'quv fanlari qadimgi Yunoniston ta'lim tizimidan olingan edi, biroq o'rta asrlarda ularga diniy mazmun berilib, hammasi ramz bilan diniy ma'noda tushuntirilar edi. Masalan: grammatikani o'rganishdan maqsad – muqaddas diniy kitoblarni o'qishni bilib olish, ritorika (notiqlik san'ati nazariyasi)ni o'rganishdan maqsad va'zxonlik qilish, xutba o'qish san'atini egallab olish, musiqa deyilganda esa diniy musiqa nazarda tutilardi (katolik cherkovida ibodat vaqtida organ chalinadi va diniy ashulalar aytiladi). Dialektika, munozara, bahslashish san'ati deb tushunilar va katolitsizmga qarshi chiquvchilar bilan munozara qilishga yordam beradigan fan deb hisoblanar edi. Hattoki matematikaga ham diniy ma'no berilar edi. Geometriya cherkov binolarini qurish uchun zarur fan hisoblanar, arifmetikani o'qitganda ayrim sonlarni ramz bilan diniy ma'noda (masalan «1» raqami bu xudoning birligi ramzi deb tushuntirilar edi. Astronomiyadan esa diniy kalendar tuzishda foydalanardilar.

Hamma fanlarning toji deb — teologiya hisoblanar edi. O'rta asrlarda beriladigan ta'lim dasturi cherkov maktablari orqali amalga oshirilar edi.

Cherkov maktablarining asosiy turlari: prixod maktabi (ya'ni cherkovga qarashli), monastir maktabi va bosh cherkov yoki episkop maktablaridan iborat edi.

Prixod maktablari boshlang'ich diniy maktablar bo'lib, unda o'g'il bolalar o'qir edi. Ular mahalladagi cherkovga qarashli bo'lib, ruhoniyy yoki uning yordamchisi o'qituvchilik vazifasini bajarar edi. Prixod maktablarida bolalar xristian dini asoslari va qoidalarini, diniy ashulalar aytishni, lotin tilida o'qish va yozishni o'rganardilar. Ba'zilarida esa bolalar boshlang'ich hisob ilmini ham o'rganardilar.

Monastir maktablari monastir huzuridagi maktablar bo'lgani sababli shu nom bilan yurgizilgan. O'rta asrlar Yevropasidagi monastirlar faqat tarki dunyo qilgan monaxlar yashaydigan diniy muassasagina bo'lib qolmay, balki ba'zi joylarda ular o'z zamonasiga munosib madaniyat markazi, ma'rifat o'chog'i ham edilar. Bunday monastirlarda turli kitoblardan nusxa ko'chirish, kutubxonalar tashkil qilish bilan shug'ullanar, ba'zi monaxlar ilmiy muammolar ustida ish olib borar edilar. Monastir maktablarida o'qitish vazifasi uchun maxsus monaxlar

tainlanardi. Shu ishda ishlab turgan monaxlar ta'lim-tarbiya ishini uyushtirish va uni olib borish sohasida ancha tajriba to'playdilar.

Monastir maktablarining ko'pida prixod maktabida o'qitiladigan fanlardan tashqari, yana yuqorida aytilgan «ettita erkin san'at»dan dars berilar edi.

Monastir maktablariga boshda faqat monax bo'lishga tayyorlanadigan o'g'il bolalar qabul qilinardi, keyinchalik esa bu maktablarga o'qishni xohlagan har bir kishi qabul qilinaverdi. Shu sababdan monastir maktablari «ichki maktab» (monastir devori ichida, faqat kelgusi monaxlar uchun) va «tashqi maktab» (monastir devori tashqarisida, hamma o'qishni istaganlar uchun) nomli ikki maktabga bo'lina boshladi.

Bosh cherkov yoki episkop maktablari markaziy diniy okrugdagi bosh cherkov (sobor)ga qarashli maktablar edi. Bunday okrugda din ishlari boshqarmasi joylashgan bo'lib, uning boshida yuqori lavozimli ruhoniyyat – episkop turardi. Shuning uchun bu maktablarni bosh cherkov yoki episkop maktablari deb atashardi. Bu turdagi diniy maktablarda faqat o'g'il bolalar o'qigan. Bosh cherkov maktablarida odatda yuqorida ko'rsatilgan etti fanning hammasi o'qitilib, bu fanlardan tashqari eng oliy va asosiy fan deb hisoblangan teologiya (din aqidolari) ham o'qitilardi. Monastir maktablari singari, bu maktablarga ruhoniyyat bo'lish maqsadini qo'ymagan shaxslar ham qabul qilinaverardi, chunki xat-savodi bo'lgan kishilarga talab tobora kuchayib borardi. Shu sababli monastir maktablari singari, bu maktablar ham «ichki maktab» (faqat ruhoniylarni etishtiruvchi) va hamma o'qishni istovchilar uchun «tashqi episkop maktablari» nomi bilan ikki xil maktabga bo'lina boshladi.

O'qish cherkov tomonidan tasdiqlangan din darsliklari va din aqidalarini yodlashdan iborat bo'lgan. Bu maktablarda belgilangan o'quv yiliga rioya qilinmay, maktabga istagan vaqtda kirib, uni hohlagan vaqtda tark etish mumkin edi. Negaki sinf – dars tizimi o'zi bo'lmagan. O'quvchilar bir xona ichida to'planib, har qaysisi o'z sabog'i bilan shug'ullanardi, o'qituvchi esa shogirdlarini bitta-bittadan oldiga chaqirib, alohida-alohida saboq berardi.

Ushbu maktablarda intizom qattiq bo'lib, o'quvchilar biror-bir aybi uchun shafqatsiz jazolangan. Savalash, och qoldirish kabi jazolar qo'llanilgan.

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada mulkdor feodal va aslzoda tabaqalariga mansub oilalarda tug'ilgan qiz bolalar odatda xotin-qizlar monastirlari ichida yoki maxsus murabbiyalar va oilaga birlashtirilgan ruhoniylar qo'l ostidagi uylarda tarbiya olardilar.

Ritsarlik tarbiyasi. G'arbiy Yevropada ham dunyoviy feodallar mu-

hitida ritsar fazilatlariga ega bo'lgan tajribali, mohir va mard jangchi, shuningdek, olijanob, nazokatli, odobli, xushmuomalali, vijdonli, fidokor va sodiq inson — tarbiyasi bilan bog'liq alohida tarbiya tizimi, ya'ni ritsar tarbiyasi maydonga keldi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ritsar tarbiyasi XII asrga kelib to'la tarkib topdi va rivojlandi. Ritsar tarbiyasining mazmuni, «ritsarlarga oid etti fazilat»dan iborat edi. Bu fazilatlar quyidagilardir: ot minib yurishni, qilichbozlikni, nayzabozlikni, suzish, ov qila bilish, shashka (keyinchalik shaxmat) o'ynashni bilish, she'r to'qish va qo'shiq ayta olish. Bu fazilatlardan birinchi o'rinda turgan uchtasi ritsarga berilmog'i zarur harbiy tarbiyaga taalluqlidir: ritsar otliq askar, qilich va nayza esa o'sha zamon jangchisining asosiy quroli edi. Suzish va ov qilishni bilish jismoniy chiniqish, chaqqonlik va bardoshlilikni o'stirish uchun talab qilinardi. Bundan tashqari, ov qilish, shuningdek, o'zining qaerdaligini aniqlay bilish (orientatsiya qobiliyati), topqirlik, hushyorlik, dushmanning izini topish va shu kabi sifatlarni o'stirish vositasi hisoblanardi. Shashka va shaxmat o'yini, bir tomondan, bekorchi vaqtini band qilish yoki hujum va mudofaa rejasini tuza bilish qobiliyatini o'stirish vositalaridan hisoblanardi. She'r to'qish va qo'shiq ayta bilish esa o'zining syuzereniga (kichik feodallar ustidan turgan hokim, boshliq va ritsarning homiysi) madhiya o'qish va o'zining sodiqligini izhor qilish, uning mardligini, zafarlarini, qahramonligini maqtash va shu orqali iltifotga sazovor bo'lish hamda o'zi uchun mahbuba qilib belgilangan xonimga madhiyalar o'qish uchun kerak edi. (O'rta asrlarda G'arbiy Yevropa dvoryanlar jamiyatida shunday rasm bor ediki, bunga muvofiq har bir ritsar bironta aslzoda feodal xonimning homiyligida bo'lmog'i lozim edi, ritsar o'zining homiysi bo'lgan xonimni («dama serdsa») diliga jo qilib, uning oldida tiz cho'kar va o'zini unga bag'ishlar edi).

Ritsarga oid ana shu ettita fazilatni egallash bilan birga, o'sha davrlarda dvoryanlar jamiyatida qabul qilingan odob va nazokat qoidalarini o'rgatish ham ritsar tarbiyasining mazmuniga kirar edi.

Ritsar tarbiyasining amaliy yo'llari quyidagilardan iborat edi: feodal o'z o'g'lini 7 yoshdanoq syuzerenning saroyiga joylashtirar bu erda uning o'g'li 14 yoshgacha paj vazifasini bajarar ya'ni ovqat vaqtida xizmat qilar, syuzeren xoni, feodal begimning va boshqa xonimlarning yumushlarini qilar, ular bilan birga sayrga chiqar, saroydagi qabul marosimlarida ishtirok etar, har qanday saroy bayramida va tomoshalarida qatnashar va shu tufayli feodal dvoryanlar jamiyatidagi rasm va qoidalarni egallab olar edi, so'ngra 14 yoshdan 21 yoshgacha syuzerenning qurol-yarog'ini ko'tarib yurarardi. U syuzerenning qurol-

yarog'ini tartibda saqlar, syuzeren bilan birga jang va urushlarda ishtirok qilar, u bilan ovga chiqar, harbiy musobaqa va o'yinlarda, turnirlarda (ritsarlarning kuch sinash musobaqalarida) ishtirok etib harbiy bilim jang san'atini egallab olar edi. 21 yoshga kirganda unga katta tantana bilan ritsarlik unvoni berilardi.

Shahar maktablarining vujudga kelishi. G'arbiy Yevropada XII—XIII asrlarda hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi shaharlarning o'sishiga va shahar madaniyatining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shaharning asosiy aholisini tashkil qiluvchi hunarmand va savdogarlar o'z bolalariga amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim berishni istar edilar. Ular o'sha davrlarda cherkov maktablaridan qanoatlanmadilar. Hunarmandlar sexlarga uyushib, o'zlarining sex maktablarini ocha boshladilar, hunarmandlarning bolalari bunda o'qish, yozish, hisob va dindand saboq olar, uyga qaytgach otalaridan hunar o'rganar edi. Gildiyalarga uyushgan savdogarlar ham o'zlarining gildiya maktablarini ochib bolalariga dastur asosida bilim bera boshladilar. Keyinroq sex va gildiya maktablari magistrat maktablariga, ya'ni shahar boshqarmasi (magistrat) harajatidagi maktablarga aylandi.

Bu maktablarning mudir va o'qituvchilari tegishli sex, gildiya va magistratura tomonidan tayinlanardilar. Ta'lim pullik bo'lgan ushbu maktablar cherkovga hisobot bermasdi.

Bir talay sex, gildiya va magistrat maktablarida o'qish lotin tilidan ona tiliga ko'chirildi.

Sex, gildiya va magistrat maktablarining vujudga kelishi, G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi maktab ishining taraqqiyotida katta yutuq edi. Bunday maktablar asta-sekin rivojlanib XV asrga kelib butun G'arbiy Yevropada faoliyat yuritib boshladi.

Yevropada dastlabki universitetlar hamda Akademiyalarning tashkil topishi va ulardagi ta'lim tizimi. Yevropada birinchi universitetlar XII asrning ikkinchi yarmida Italiyada (Bolonya shahrida), Angliyada (Oksford shahrida), Fransiya (Parijda) tashkil qilindi. Bu universitetlar dastlab professor va studentlarning mustaqil idora qilinadigan uyushmasi (korporatsiyasi)dan iborat edi. XIII asrga kelib o'z-o'zini idora qilish huquqini saqlab qolgan holda davlat tomonidan rasmiy tasdiqlandi. Cherkov esa universitetni tamomlagan studentlarga ilmiy daraja va o'qituvchilik huquqini bera boshladi. Ana shu tariqa universitetlar rasmiy o'quv muassasasiga aylandi. XIV–XV asrlarga kelib universitetlar Yevropa mamlakatlarining hammasida mavjud.

O'rta asr universitetlarida to'rtta fakultet bo'lib, shulardan biri tayyorlov fakulteti edi. Unda «etti erkin san'at» (travium va kvadrilium) fanlari o'qitilardi. Talabalar o'rta maktab vazifasini bajaruvchi bu fakultetda 6–7 yil o'qib, «san'at magistri» darajasini olar, shundan so'ng asosiy uch fakultetdan birida: ilohiyot, meditsina yoki huquqshunoslik fakultetida o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lar edi. Bu fakultetlarda o'qish muddati 5–6 yil bo'lib, uni tamomlaganlar doktor, yoki olim unvoni qo'lga kiritardi.

O'rta asr universitetlari cherkov nazorati oqibatida sxolistika ruhidagi maktabga aylanib qolgan, cherkov tomonidan ma'qullangan va tavsiya qilingan kitoblarga o'qitilar, shu sababdan o'qish quruq qiroatxonlikdan iborat bo'lib darslar lotin tilida olib borilar edi.

Universitet ta'limining va undagi metodlarning sxolastik mazmunidan qat'i nazar, O'rta asr universitetlari Yevropa madaniyatining rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Zamonaviy Yevropa ta'lim tizimining o'tmishdagi poydevori bo'lgan bu universitetlar ko'hna qit'a mamlakatlarining demokratik rivojida ham o'z o'rniga ega.

Universitetlarning vujudga kelishi va ularning rivojlanishi.
XII–XIII asrda bir qancha G'arbiy Yevropa mamlakatlarida oliy ma'lumot beradigan o'quv yurtlari sifatida universitetlar paydo bo'la boshladi. Universitetlarning vujudga kelishiga o'sha vaqtlarda ko'p Yevropaliklarning arab madaniyati (xususan, meditsina va falsafasi) bilan tanishuvi katta ta'sir ko'rsatdi. Bu madaniyat bilan tanishishga G'arbiy Yevropa feodallarining XI asr oxirida Sharqdagi arab musulmon mamlakatlariga nisbatan harbiy harakatlari sabab bo'ldi. O'sha zamon arab mamlakatlarida madaniyat va ilm fan rivojlangan edi. Xususan arablar tomonidan VIII asrda istilo qilingan Ispaniyada tashkil qilingan arab oliy o'quv yurtlari Yevropa universitetlari uchun andoza bo'ldi. Ispaniyada arablar barpo qilgan feodal musulmon davlatining poytaxti Kordova shahrida tashkil qilingan arab oliy o'quv yurtlarida falsafa, matematika, astronomiya, meditsina fanlari o'qitilar, yevropaning turli mamlakatlaridan kelgan talabalar Kordovada o'qib, oliy ma'lumot olardilar.

Universitetlarning paydo bo'lishining yana bir sababi yuksak malakali huquqshunoslarga talabning oshganligi edi. Mazkur sabablardan tashqari XII–XIII asrlarda G'arbiy Yevropa hayotida yuz bergan iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar: hunar va savdoning rivojlanishi, shaharlarning o'sib borishi, xalqaro aloqalarning kengayishi, yoshlar o'rtasida oliy ma'lumot olish

harakatini tug'dirdi, bu hol o'z navbatida universitetlarning paydo bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Qadimgi Yunonistonda tarbiya, maktab va pedagogika sohasidagi fikrlar.
- a) Sparta va Afinada qanday ta'lim-tarbiya muassasalari mavjud edi, ularning farqini izohlang?
- b) Qadimgi yunon faylasuflarining pedagogik qarashlarida qanday g'oyalar ilgari surilgan?
2. G'arbiy Yevropadagi maktablar haqida so'zlab bering?
3. Ritsarlik tarbiyasi nima?
4. O'rta asr universitetlaridagi ta'lim tizimi haqida so'zlab bering?

Yan Amos Komenskiy

Chexoslovakiyalik gumanist-pedagog Yan Amos Komenskiy o'zining ongli hayotini, amaliy pedagogik faoliyatini bolalarni o'qitish va tarbiyalashdek olijanob ishga bag'ishlagan ulug' pedagogdir.

Buyuk chex pedagogi 1592-yili 28 martda Moraviyadagi Ugorskiy Brod degan joyda tegirmonchi oilasida dunyoga kelgan. Uning oilasi ruhoniylar «Chex qardoshlari» jamoasiga tegishli bo'lib, bu jamoa Chexiyaning ozodligi uchun kurashuvchi vatanparvarlarni o'z atrofiga to'plagan edi.

Komenskiy ota-onasidan ajralib, ancha vaqt o'qiy olmaydi, 16 yoshida «Chex qardoshlari» jamoasining yordami bilan lotin maktabiga o'qishga kiradi. Bu haqda Komenskiy shunday yozgan edi: Men o'sha vaqtdayot tarbiya masalasida mamlakatimning orqada ekanligini ko'rdim. Fan va tarbiya hammaga tegishli bo'lishi kerak. Maktabni tugatgach Xorborni universitetiga (Germaniya) o'qishga kiradi, so'ngra Geydelberg universitetida o'z davrining bilimdon professorlaridan ma'ruza tingladi. Komenskiy Avstriya va Gollandiyada bo'lib iqtisodiy-siyosiy hamda madaniy hayot bilan tanishib ilmi va dunyoqarashini kengaytiradi.

O'sha davrda knyazliklar orasida boshlangan 30 yillik urush (1618—1648) tufayli «Chex qardoshlari» jamoasi nemis dvoryanlari tomonidan vatanlaridan quvg'in qilinadi. Shu tariqa Komenskiy xotini va bolasidan juda bo'ladi. Qo'lyozmalari yo'qoladi.

«Chex qardoshlari» ko'chib kelgan Polshadagi Leshno shahrida Komenskiy gimnaziya tashkil etadi.

U o'zining 80 yillik umri davomida pedagogika, ta'lim-tarbiya, falsafa, ilohiyotga oid 250 dan ortiq asarlar, darsliklar yaratgan «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» (1631), «Buyuk didaktika» (1632), «Onalar

maktabi» (1632), «Pansofiya maktabi» (1651), «Yaxshi tashkil etilgan maktab qonunlari» (1953), «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari» (1658) kabi asarlar uning eng salmoqli asarlaridir. Shuningdek, mantiq, fizika, lotin va grek tillariga bag'ishlangan o'nlab darsliklar yozdi. Darsliklari hayotlik davridayoq boshqa tillarga tarjima qilinib, Komenskiyning nomini butun dunyoga tanildi.

Komenskiy «Kishilik jamiyati ishlarini yaxshilash haqida hammaga taluqli maslahat» nomli 7 jildli katta asar muallifi hamdir (U hayot ekanligi vaqtida hammasi bo'lib 2 jildi bosilib chiqdi, qolgan jildlari esa faqat 1935-yili topildi va Chexoslovakiyada chop qilindi). Bu asarda kishilik jamiyatini isloh qilish g'oyasi ilgari suriladi.

Shvesiyada lotin tili darsligini va til o'qitish metodikasini tuzadi. U «Chex qardoshlari» jamoasiga episkop qilib tayinlangach, 1648-yili Leshnoga qaytib keladi. Jamoa tarqatilgandan so'ng u yana o'qituvchilik faoliyatini davom ettiradi. Bir necha yil Vengriyada maktablarni boshqaradi. «Видимый мир в картинках», ya'ni «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari» deb nomlangan asarida, o'qish ishini rasmlar bilan olib borish g'oyasini ilgari suradi. Bunda «Yoshlarning xulq qoidasi», «Yaxshi tashkil topgan maktablarning qonuni» kabi pedagogikaga doir ishlari o'rin olgan.

1656-yili Shved–polyak urushi vaqtida Leshnodagi «Chex qardoshlari» jamoasiga barham beriladi. Komenskiy Gamburgga so'ngra Amsterdamga ketishga majbur bo'ladi. O'sha yerda Gollandiya senatining buyrug'iga muvofiq uning asarlari to'plam holda bosib chiqariladi.

Komenskiy vatani mustaqilligi uchun kurash olib borgan. Uning asarlarida vatanparvarlik hissi yaqqol aks etgan. U chex xalq poeziyasini yig'ib chex maqollar to'plamini tuzgan.

Komenskiyning dunyoqarashi. Komenskiyning dunyoqarashida uch xususiyat ta'sirini ko'ramiz.

1. Naturalistik falsafa. XVI–XVII asrlarda ingliz materialist faylasufi – Bekon sensualistik falsafa nazariyasini ilgari suradi. Komenskiy o'qitish jarayoniga shu pozitsiyadan qaraydi. Bilish sezishdan boshlanadi. Sezish bo'lmagan erda bilish ham yo'q, deydi u.

2. «Chex qardoshlari» jamoasi diniy jamoa bo'lganligi uchun Komenskiy ham dindordir. Lekin Komenskiyning ruhoniyligi turmushga amaliy qarash bilan bog'liq edi.

3. Komenskiy dunyoqarashining ba'zi jihatlari Uyg'onish davri ta'sirida vujudga keladi. Odamlarga nisbatan muhabbat, hushchaqchaqlik, bularning hammasi o'rta asr odamiga nisbatan ishonchsizlik bilan qarashga qarama-qarshidir.

Komenskiy tashqi ob'ektiv dunyoning hukm surishiga ishonadi. Dunyo bir butun. Dunyoda hamma narsa bir-biri bilan bog'liq. Ajralib qolgan narsa yo'q. Dunyo qarama-qarshiliklardan iborat. Dunyo qotib qolgan emas. U o'sishda, o'sish esa o'z qonuniyatiga ega. Qonuniyat borliqqa, ya'ni xudoga tegishli.

Komenskiy o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi. «Buyuk didaktika» asarida «o'qitish tabiiylikka bo'ysunishi, o'qitish tabiat talabiga bo'ysunishi kerak», deydi. **Bolaning aqliy va jismoniy o'sish jarayoni tabiatdagi o'sish jarayoniga o'xshagan bo'ladi.** Masalan, bog'bon daraxtlarni parvarish qiladi, uning o'sish xususiyatlarini hisobga oladi. Xuddi shunday o'qituvchi tarbiyalash qonuniyatiga bo'ysinadi. O'qitish jarayoni tabiatga o'xshab sekinlik bilan amalga oshadi. Tabiiylik prinsipida kishini tabiatning bir bo'lagi deb qarash (xudo tomonidan bunyod etilmagan) tabiat qonunlari uning o'sishiga ta'sir etadi deyish o'z davrida ilg'or fikr sanalgan. Lekin kishi ijtimoiy borliq bo'lib, ijtimoiy qonun ta'sirida o'sadi.

Komenskiy tarbiyaning tabiatga uyg'unlik masalasida hamma narsaning asosi 4 ta deydi. Masalan: Olam 4 narsadan yuzaga kelgan, ya'ni; yer, suv, havo, yorug'lik. Dunyoning rivojlanishi ham 4 qismga bo'linadi, bular: bahor, yoz, kuz, qish. Insonning rivojlanishi ham 4 davrga bo'linadi; go'daklik, bolalik, o'smirlik, etuklik. Shuningdek ta'lim jarayoni ham 4 ga bo'linadi; maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, oliy ta'lim.

Umumta'lim g'oyasi. Komenskiy yashagan davrda hammani o'qishga tortish shart emas, qobiliyatli kishigina o'qishi kerak, degan g'oya mavjud edi. Komenskiy esa o'qishga hammaning tortilishini, hamma o'z ona tilida umum boshlang'ich ta'lim olishi kerakligini uqtiradi. Umumta'lim to'g'risida gapirganda ayollarni ham hisobga oladi. O'sha davrda xotin-qizlar uchun o'qish juda katta muammo edi. Shu tufayli ulug' pedagog bu masalani ilgari surdi.

Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadi kishini manguilik dunyosiga tayyorlashekanligi va buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkinligini uqtiradi. Bular:

1. Aqliy tarbiya.
2. Axloqiy tarbiya.
3. Diniy tarbiyalardir.

Bular bola tug'ilganidan 24 yoshiga kirguncha amalga oshiriladi, bu vaqt mobaynida bola har biri 6 yildan bo'lgan to'rt maktabni o'qib tugatishi kerak, deb hisoblagan ulug' pedagog.

Komenskiyning bolani yoshini davrlarga bo'lishi. Komenskiy tabiiylik prinsipiga amal qilib, bola yoshini 4 davrga bo'ladi.

1. Tug'ilganidan 6 yoshgacha – ona maktabi. Bu davrda bolaning sezish organlarini o'stirishga, bolaning qabul qilishini, atrofdagi dunyo bilan tanishtirishga katta ahamiyat berish lozim. Bolani mehnatga o'rgatish, o'z-o'ziga xizmat qilishga jalb etish kerak. Ona boladagi axloqiy tarbiyaning asoslarini, to'g'rilik, haqqoniylik, mehnatni sevis va boshqalarni vujudga keltiradi. Ona maktabi bog'cha yoshidagi bola tarbiyasini ko'zda tutadi.

2. 6–12 yoshgacha – xalq maktabi yoki ona tili maktabi. Bunda o'quvchi esda saqlashi, so'zlashga o'rganishi, yozish, boshlang'ich maktab ko'nikmasini hosil qilishi kerak. Buning uchun geometriya, geografiya, tabiiyot fanlarini o'rganishi lozim.

3. 12–18 yoshgacha – gimnaziya. Bu o'quv yurtining vazifasi bola tushunchasini, tafakkur qobiliyatini o'stirishdan iborat bo'lib, unda klassik tillar, tabiiyot bilimlari, axloq, ilohiy fanlar o'qitilishi kerak.

4. 18–24 yoshgacha – Universitet. Akademiya. Bu o'quv yurtlari o'quvchining irodasini, shaxsini bir butun o'stirishi lozim.

Shunday qilib, maktab Komenskiy qarashicha o'quvchilarni o'ylashga, harakatlantirishga, masalalarni amalda mustaqil echa bilishga, o'quvchilarni so'zlashga, o'z fikrini to'g'ri ifoda qilishga va isbotlab berishga o'rgatmog'i shart.

– Mehnat kishini ulug'laydi, – deydi Komenskiy. – Shuning uchun mehnatga ham yoshlikdan o'rgatish darkor.

Komenskiyning pedagogik nazariyasida didaktika katta o'rinni egallaydi.

Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asarida maktabda o'qitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishni tavsiya etadi.

1. Ko'rgazmalilik tamoyili;
2. Onglilik tamoyili;
3. Izchillik va tizimlilik tamoyili;
4. Mashq qilish, bilim va malakalarni puxta egallash tamoyillari.

1. Ko'rgazmalilik tamoyili – Komenskiy ko'rgazmalilik tamoyilini nazariy jihatdan isbotlab, mufassal bayon qilib bergan.

Ko'rgazmalilikni o'qitishning «Oltin qoidasi» deb ataydi u. Bu tamoyilda: a) bolaga real narsalarni ko'rsatish, b) dunyoni rasmlar orqali tushuntirish, v) narsalarning modelini ko'rsatish, g) o'qituvchining so'zi o'rganilayotgan materialni chuqur bilishga va esda uzoq vaqt saqlanishga olib keladi.

2. Onglilik tamoyili. Komenskiy **onglilik** tamoyilini ilgari surar ekan, o'qitishda ma'no-mazmunini tushunmay, og'zaki yodlashga qarshi chiqadi. «Aql-idrok bilan yaxshi tushunib olingan narsadan boshqa hech bir narsani zo'rlab yodlatmaslik lozim». O'quvchilar «O'rganilayotgan narsa kundalik hayotda qanday foyda etkazishini o'qituvchi yordamida anglab olishlari kerak. Shu bilan hodisalarning sabablarini anglatmoq, har bir narsani to'la tushuntirib bo'lguncha, shu narsa ustida to'xtatmoq kerak» deb yozadi u.

3. Komenskiy ta'limning tizimli bo'lishi tarafdori edi. O'qitilayotgan material o'quvchilarga asosiy qoidalar tariqasida lo'nda bayon qilinishi kerak. O'qitishda dalillardan xulosalarga, misollardan qonunlarga o'tish, dalillar va misollarni qoidalar tizimiga solib, umumlashtirib berish lozim, aks holda hodisalarning tizimsiz uyumi hosil bo'lib qoladi. Konkretidan abstraktga, osondan qiyinga, umumiydan xususiyga o'tish kerak; avval narsa, ya'ni hodisaga umumiy tushuncha berib, keyin uning turli tomonlarini alohida o'rganish kerak deb hisoblaydi.

Izchillik tamoyili – fan asoslarini izchil bayon qilish va sistemali tarzda o'rgatish. Izchillik tamoyilida, kun, oy va yilga vazifa qo'yish va uni amalga oshirish uchun intilish kerakligi aytiladi. Bunda aniq vaqtni belgilash, o'qishning bola yoshiga mos bo'lishi, material izchillik bilan o'rganilishi va keyingi o'tiladigan materialga yo'l ochish kerak.

Komenskiy **materialni mustahkam, asosli o'zlashtirishga** katta ahamiyat berib, «mustahkam asos» vujudga keltirish, o'qitilayotgan narsalarni bir-biriga bog'lagan holda olib borish lozim, deydi. O'tilgan mavzuni mashq qildirish va takrorlatish o'quvchilarning mustahkam o'zlashtirishiga olib keladi.

Sinf – dars tizimi. Komenskiy o'qituvchi butun sinf bilan jamoa bo'lib ish olib borishini, ya'ni sinf – dars tizimida o'qitishni olib borishni tavsiya etadi. Dars vaqtida o'tgan darsni qaytarish, yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish kerakligini ko'rsatadi. Darsni rejalashtirib o'tish to'g'risida ko'rsatma berar ekan har bir darsning o'z mavzusi va o'z vazifasi bo'lish lozimligini aytadi. O'qituvchi o'quvchilarning dars mashg'ulotlarida faol qatnashishlarini ta'minlashi, kuzatib borishi, sinfda intizom saqlanishi kerakligini uqtiradi. O'quv jarayonini tashkil qilishni haddan tashqari oshirib yuborib, o'qituvchi bir vaqtda 300 o'quvchi bilan dars olib borishi mumkin, deb hisobladi. O'qituvchi o'ziga yaxshi o'quvchini yordamchi qilib olishi mumkinligini aytadi.

U maktabda o'quv yili va uni o'quv choraklariga bo'lish, ta'tillar berilishini joriy qildi. O'quv kunini (ona tili maktabida 4 soat, lotin

maktabida 6 soat) belgilab berdi. O'quvchilar maktabga bir vaqtda qabul qilinib, o'qish kuzda (sentyabrda) boshlanishi kerak, deb hisobladi.

Komenskiy darslik qanday bo'lishi to'g'risida qimmatli fikrlar aytib, o'z zamonasi uchun namunali bo'lgan bir necha darsliklar yozdi. O'zining nazariy fikrlarini darsliklarida amalga oshirdi. U darslikda o'quv materiallari etarli bo'lishi, qisqa, mazmunli, tushunarli, izchil va oddiy, bolalarga tushunarli tilda yozilishi, rasmlarga boy bo'lishi, bolalarning yoshiga qarab ravshan bayon etilishi shart, deb hisoblagan. Bu fikrlarni o'zining «**Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi**» hamda «**Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari**» kabi darsliklarida bayon etadi.

«Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» darsligini o'zining didaktik tamoyillariga amal qilgan holda tuzdi. Darslik bolalar tushuna oladigan bilimlar bilan boyitilgan.

«Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari»ni boshlang'ich bilimlarning bolalar uchun yozilgan ensiklopediyasi deyish mumkin. 150 ta surat bilan berilgan qisqa maqolalar tabiat haqida (olam, geografiyaga doir, o'simliklar, hayvonlar, inson tanasi haqida), odamning faoliyati haqida (kasb-hunar, qishloq xo'jaligi, madaniyat), ijtimoiy hayot haqida (davlat boshqarmalari, sud haqida) ma'lumotlar beradi. Bu kitob ko'p tillarga tarjima qilindi, boshlang'ich ta'lim uchun 150 yildan ko'proq xizmat qildi.

Axloqiy tarbiya. Intizom. Komenskiy yoshligidan boshlab bolada axloq va odob fazilatlarini shakllantirish kerakligini aytadi. **Mardlik**, o'zini tuta bilish, chidamlilik, vaqt va vaziyat talab qilganida foyda etkazishga tayyor bo'lib turish, burchni ado qilish kabi xislatlar fazilatdir deydi u. Shu asosiy fazilatlardan tashqari kamtarlik, mo'min-qobillik, kishilarga xayrixoxlik, pokizalik, puxtalik, xushmuomalalik, kattalarni hurmatlash, mehnatsevarlik xislatlarni tarbiyalashni ham muhim vazifa, deb hisoblaydi.

U quyidagilarni axloqiy tarbiya vositalari deb biladi: a) ota-ona, o'qituvchi, o'rtoqlarining namunasi; b) bolalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ular bilan suhbatlar o'tkazish; v) bolalarni yaxshi xulqqa o'rgatishda mashqlar o'tkazish, yalqovlik, o'ylamay ish qilishga, intizomsizlikka qarshi kurashish.

Komenskiy intizomning katta ahamiyati borligini ko'rsatib, «Intizomsiz maktab bamisoli suvsiz tegirmondur» degan chex maqolini keltiradi. O'rta asr maktablarida kaltak vositasi bilan o'rnatiladigan intizomga u qarshi chiqadi. Bolalarga insoniy muomalada bo'lishni tavsiya etadi. Intizom: o'qituvchining namuna ko'rsatishi, samimiy, ochiq xayrixohligi, o'qituvchining bolaga bo'lgan to'g'ri munosabati (agar u bolani

sevsa, uning yaxshi bo'lishini istasa, darsi mazmunli bo'lsa, tushuntira olsa intizomlilik vujudga keladi), bolani ko'pchilik oldida, o'rtoqlari o'rtasida oqilona maqtash yoki qoralash intizomlilikka olib keladi, deydi.

O'qituvchining o'rni va unga qo'yiladigan talablar. Komenskiy o'z davrida iste'dodsiz, ma'lumotsiz o'qituvchilarni qattiq tanqid etdi. O'qituvchilikni «yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» deb hisobladi. Bu o'qituvchiga nisbatan yangi ilg'or qarash edi, chunki o'sha davrda o'qituvchilik kasbiga hurmat bilan qaralmas edi. Komenskiy o'qituvchining o'zi jamiyatda muhim vazifani bajarayotganini tushunib olishi va o'z qadr-qimmatini yaxshi bilib olishi lozimligini uqtiradi. O'qituvchi sof vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli bo'lishi, o'z ishini sevishi, o'quvchilarga otalardek muomala qilishi, ularda bilimga havas tug'dirishi lozim. «O'zi» namuna ko'rsatib, o'quvchilarni ergashtirishi o'qituvchining birinchi vazifasidir, – deydi u.

Shunday qilib, taniqli slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy butun dunyoda o'zining pedagogik qarashlari bilan pedagogika ilmiga katta ta'sir ko'rsatdi. U yozgan darsliklar ko'p tillarga, jumladan o'zbek tiliga ham tarjima etilgan. Mashhur nemis olimi Leybnis qayd qilib o'tganidek, falsafani taraqqiy ettirishda Kopernik qanday rol o'ynagan bo'lsa, pedagogika taraqqiyotida Komenskiy ham shunday rol o'ynadi.

Uning qarashlari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ya.A.Komenskiyning tarbiya haqidagi fikrlarini izohlang?
2. Ya.A.Komenskiyning sinf-dars tizimi nimalardan iborat edi?
3. Ya.A.Komenskiy o'qituvchilar haqida qanday fikr bildirgan?
4. Ya.A.Komenskiyning didaktikasi va undagi yangiliklar nimalardan iborat?
5. Mustaqil ish. Ya.A.Komenskiyning «Buyuk didaktika» asarining XVIII-XIX-XX-XXI boblarini o'qib o'rganish.

Iogann Genrix Pestalotsi

Pestalotsining pedagogik faoliyati. Iogann Genrix Pestalotsi Shveysariyaning Syurix shahrida vrach oilasida tug'ildi. Pestalotsi otadan yosh judo bo'lib, onasi hamda oddiy dehqon ayol — ularning sobiq xizmatchisi tarbiyasida o'sdi.

Pestalotsi avval boshlang'ich maktabda, so'ngra lotin maktabida o'qib ilm oldi. Pestalotsi o'rta maktabni tamomlagachi, ko'proq gumanitar fanlar o'qitiladigan oliy o'quv yurtiga – kollegiumda, uning filologiya va falsafa bo'limlarida o'qidi. Pestalotsi kollegiumni tamomlamay turib, xalqning

ahvolini yaxshilash to'g'risida o'zining azaldan orzu qilib kelgan niyatini amalga oshirishga qaror qildi. 1769-yilda Pestalotsi o'zining ijtimoiy tajribasini boshladi. U pul qarz olib, kichikroq qo'rg'on va er sotib oldi, bu erga «Neygof» («yangi qo'rg'on») deb nom berdi va tevarak-atrofdagi dehqonlarga o'z xo'jaliklarini unumdor xo'jalikka aylantirishni o'rgatish maqsadida, bu erda namunali ferma tashkil qilmoqchi bo'ldi. Tajribasiz va xo'jalik ishlaridan bexabar bo'lgan Pestalotsi oradan ko'p o'tmay sindi, va u xalq foydasini ko'zlab yana yangi yo'llar qidirishga majbur bo'ldi.

U 1774-yili «Neygof»da «Kambag'allar muassasasi»ni ochib, etim va boqimsiz bolalardan 50 ga yaqin kishini shu muassasaga to'pladi. Pestalotsining fikricha, bolalarning o'zlari ishlab topgan pullar shu etimxonaning xarajatini qoplashi kerak edi. Etimxonada tarbiyalanayotgan bolalar dalada ishlar, shuningdek, to'quv va yigiruv dasgohlarida ip yigirib, mato to'qir edilar. Pestalotsining o'zi bolalarga o'qish, yozish va hisob o'rgatar, ularni tarbiyalash bilan shug'ullanar edi. Hunarmand ustalar esa bolalarga ip yigirish va to'qishni o'rgatardilar. Shu tariqa, Pestalotsi o'z muassasasida bolalarni o'qitishni ularni unumli mehnatga o'rgatish bilan qo'shib olib borishga urindi.

Pestalotsi boshlagan ish tezda barbod bo'ldi, chunki siyosiy hokimiyat va moddiy mablag'larning egalari uni qo'llab-quvvatlamadilar. Bolalar ming mashaqqat bilan mehnat qilishi tufayli o'zlari yashab-ishlab turgan etimxona xarajatlarini ko'tara olar edilar, lekin gumanist va demokrat Pestalotsi o'zi tarbiyalayotgan bolalarni bunday og'ir sharoitda yashashini istamasdi va bunga yo'l qo'ya olmasdi. U bolalar mehnatini, avvalo, bolalarning jismoniy kuchlarini aqliy va axloqiy qobiliyatlarini o'stirish vositasi, deb bildi. Bolalarga faqat hunar o'rgatibgina qolmasdan, balki ularni keng ravishda mehnatga o'rgatishga intildi.

1 Pestalotsi Neygofda o'tkazgan tajribaning pedagogika uchun ahamiyati katta bo'ldi. Tajribani davom ettirish uchun mablag' bo'lmaganligi sababli oradan ko'p vaqt o'tmay yetimxona yopildi. Lekin bu muvaffaqiyatsizliklar uni, xalqqa yordam berish maqsadidan qaytara olmadi.

Pestalotsi 1798 -yil Shveysariya inqilobi natijasida etim qolgan 5 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan 80 bolaga mo'ljallangan yangi yetimxona ochdi.

«Ertalabdan to kechgacha ularga yakka o'zim hamroh edim! Mening qo'llarim ularning qo'lida, ko'zlarim ularning ko'zlarida edi. Ular yig'lasa, men ham yig'lar, kulsa kular edim! Ular nima esa, men ham shuni yer, nima ichsa, shuni ichardim. Mening o'shalardan boshqa uyim ham, do'stim ham, xizmatchim ham yo'q edi!», deb yozgani keyinchalik bu haqda Pestalotsi.

Afsuski, urush harakati boshlangandan keyin etimxona yopildi.

Keyingi o'n sakkiz yil davomida Pestalotsi o'sha davrning eng muhim masalasini: dehqon xo'jaliklarini qanday qilib tiklash, ularning turmushini yaxshilash, mehnatkashlarning axloqiy va aqliy holatini qanday qilib o'zgartirish masalasini hal qilishga jamoatchilik e'tiborini tortishga intilib, adabiy faoliyat bilan shug'ullandi. U «Lingard va Gertruda» (1781—1787) degan ijtimoiy-pedagogik roman yozib, bu romanda xo'jalikni oqilona usulda olib borish va bolalarni to'g'ri tarbiyalash vositasi bilan dehqonlarning turmushini yaxshilash to'g'risidagi o'z g'oyalarini olg'a surdi.

XIX asrning boshlaridayoq Pestalotsining «Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi», «Onalar kitobi yoki onalar uchun o'z bolalariga kuzatish va gapirishni qanday o'rgatish haqida qo'llanma», «Kuzatish alifbesi yoki o'lchash haqida ko'rsatmali qo'llanma», «Son to'g'risida ko'rsatmali ta'lim» degan kitoblari bosilib chiqdi. Bu kitoblarida boshlang'ich ta'limning yangi usullari bayon qilingan edi.

1800-yili Pestalotsi rahbarligida institut tashkil etildi. Institut tarkibiga, internat shaklidagi o'rta maktab hamda o'qituvchilar tayyorlash seminariyasi kiritilgan. Bu institut butun dunyoga mashhur bo'ldi. Pestalotsi 1825-yili Iverden instituti o'qituvchilari orasida chiqqan nizolar natijasida o'z qishlog'i «Neygof»ga qaytadi va 80 yoshli, qariya bo'lishiga qaramay, bu erda o'zining oxirgi asari — «Oq qush qo'shig'i»(1826)ini yozadi.

U 1827 -yili vafot etdi.]

Pestalotsining ijtimoiy-pedagogik va falsafiy qarashlari.

Pestalotsi o'z xalqini oyoqqa turg'azishni orzu qildi, u mehnatkashlarni o'qitish va tarbiyalash yo'li bilan ularning turmushini o'zgartirish mumkin, deb o'yladi. U xalq boshiga tushgan kulfatlarning manbai iqtisodiy sharoit emas, balki ma'rifatning yo'qligi deb bildi.

Pestalotsi hamma odamlar tarbiya va ilm olish huquqiga ega bo'lishi lozim, maktablar jamiyatni ijtimoiy jihatdan o'zgartirishning muhim vositalaridan biri bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Uning fikricha, har bir kishining haqiqiy insoniy kuchlari harakatga kelib, mustahkamlangandagina eng muhim ijtimoiy masalalar hal qilinadi. Bunga tarbiya yo'li bilan ham erishish mumkin.

Mehnat odamni tarbiyalashning eng muhim vositasidir, mehnat odamning jismoniy kuchlarinigina emas, aqlini ham o'stiradi.

Bilish sezgi organlari orqali idrok qilishdan boshlanadi va

tasavvurlarni qayta ishlash yo'li bilan g'oyalar darajasiga ko'tariladi, g'oyalar esa, garchi ravshan bo'lmasa ham odamning ongida tarkib toptiruvchi kuch tariqasida mavjud, lekin o'zining namoyon bo'lishi va jonlanishi uchun sezgilar etkazib beruvchi materialga muhtojdir.

Pestalotsining dunyoqarashi insonparvarlik va demokratik intilishlar ruhi bilan sug'orilgan hamda ba'zi bir materialistik da'volarni va dialektik qoidalarni o'z ichiga olgan edi.

Tarbiyaning maqsadi va mohiyati. Pestalotsining fikricha, tarbiyaning maqsadi odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirish, o'stirganda ham har tomonlama va bir-biriga uyg'un ravishda o'stirishdir. Tarbiyaning bolaga ko'rsatayotgan ta'siri uning tabiatiga uyg'un bo'lishi lozim.

Pestalotsi tarbiyaning mohiyati to'g'risidagi tasavvurga asoslanib, insonning kuchini inson tabiati bilan muvofiqlashtirib, o'stirishga yordam beradigan metodlarni yaratishga intiladi.

– Bolani tarbiyalashni,– deydi u, – tug'ilgan kunidanoq boshlash lozim: «Bola tug'ilgan soat — unga ta'lim berishning birinchi soatidir». Chinakam pedagogika onani to'g'ri tarbiyalash metodlari bilan qurollantirishi kerak. Pedagogika san'ati esa shu metodikani har bir ona, jumladan, oddiy dehqon ayoli ham egallab oladigan qilib soddalashtirib berishi lozim. Oilada tabiatga muvofiq tarzda boshlangan tarbiya maktabda ham davom ettishi lozim.

Barcha insoniy kuchlar va imkoniyatlar eng oddiy narsalardan rivojlana boshlaydi va asta-sekin murakkab darajaga ko'tariladi. Tarbiya ham ana shu yo'ldan borishi lozim.

Har bir bolaga xos bo'lgan tug'ma kuch va qobiliyatlarni tabiiy tartibga muvofiq holda o'stirish kerak.

Elementar ta'lim nazariyasi. Pestalotsining elementar ta'lim nazariyasi jismoniy tarbiyani, mehnat tarbiyasini, axloqiy va estetik tarbiyani hamda aqliy tarbiya va o'qitishni o'z ichiga oladi. Tarbiyaning mana shu jihatlarini Pestalotsi bir-biriga bog'lab olib borishni taklif qildi, mana shunday tarbiyalash natijasidagina insonning hamma jihatlarini bir-biriga uyg'un bo'lib kamol topishini ta'minlash mumkin, dedi.

Jismoniy tarbiya va mehnat tarbiyasi. Pestalotsi bolaning barcha jismoniy kuchlari va imkoniyatlarini o'stirishni ularni jismoniy jihatdan tarbiyalashning maqsadi deb, bolaning harakatga, o'ynashga, bir joyda o'tirib qolmaslikka, hamma narsaga yopishishga, hamisha harakatda bo'lishga majbur qiluvchi tabiiy intilishini jismoniy tarbiyalashning asosi, deb hisobladi.

U inson shaxsini kamolotga etkazishda jismoniy tarbiyaga juda katta

ahamiyat beradi va uni bolalarning o'sishiga kattalarning oqilona ta'sir ko'rsatish, deb hisobladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, o'qitishni unumli mehnat bilan qo'shib olib borish Pestalosining pedagogik tajribasi va nazariyasidagi asosiy qoidalardan biri bo'ldi.

Axloqiy tarbiya. Pestalotsi tarbiyaning asosiy vazifasi — kelgusida ijtimoiy hayotda qatnashib foyda etkaza oladigan va hamma jihatlarini uyg'un bo'lib kamol topgan inson etishtirishdir, deb biladi. Bolani boshqalarga foyda keltiradigan ishlarda muttasil jalb qilish yo'li bilan uning axloqi voyaga etkaziladi. Pestalotsining fikricha, bola organizmining kundalik ehtiyojlarini qondirish asosida bolada onaga nisbatan tug'ilayotgan mehr-muhabbat axloqiy tarbiyaning eng oddiy elementidir. Bolaning axloqiga oilada asos solinadi. «Ota-onaning uyi, — deydi Pestalotsi, — axloq maktabidir!». Bolaning onaga bo'lgan muhabbati asta-sekin oilaning boshqa a'zolariga ham o'tadi.

Aqliy ta'lim. Pestalotsining aqliy ta'lim to'g'risidagi ta'limoti boy va mazmunli ta'limotdir. Pestalotsi insonning hamma jihatlarining bir-biriga uyg'unlashib kamolga etishi to'g'risidagi asosiy g'oyasiga tayanib, aqliy ta'limni axloqiy tarbiya bilan bog'lab olib borish kerakligini talab qiladi.

Har qanday ta'lim kuzatishga va tajribaga asoslanishi hamda xulosalar va umumlashmalar darajasiga ko'tarilishi lozim, deydi Pestalotsi kuzatishlar natijasida bolada ko'rish, eshitish sezgilari va boshqa sezgilar hosil bo'ladi, bu sezgilar bolada fikrlash va so'zlash ehtiyojini tug'diradi, deydi.

Odamning sezgi a'zolari yordamida tashqi dunyo to'g'risida hosil qilgan tasavvurlari dastlab ravshan va aniq bo'lmaydi. Ta'limning vazifasi ham shundan iboratki, u mana shu tasavvurlarni tartibga solishi va aniqlashi, ravshan tushunchalar darajasiga etkazishi, «tartibsiz tasavvurlarni ravshan tasavvurlarga va ravshan tasavvurlarni ochiq ko'rinib turgan tasavvurlarga» aylantirishi kerak. Ta'lim, birinchidan, o'quvchida o'zining sezgi a'zolari vositasi bilan hosil qilgan tajribalar asosida bilimlar zahirasi to'plashga yordam beradi, ikkinchidan, bolaning aqliy qobiliyatini o'stiradi.

Pestalotsi ta'limni soddalashtirishga va psixologiya negiziga qurishga intilib, narsalar va buyumlar to'g'risidagi har qanday bilimning eng oddiy elementlari bor, odam shu elementlarni o'zlashtira borib, o'z atrofidagi olamni bilib oladi, degan fikrga keldi. U son, shakl va so'zni mana shunday elementlar deb hisobladi. Pestalotsi o'z zamonidagi boshlang'ich maktabda o'qitishning mazmunini tubdan o'zgartiradi, o'qitiladigan darslar qatoriga o'qish, yozish, arifmetikani va geometriyaning

boshlang'ich qismlarini, o'lchash, rasm chizish, ashula, gimnastika, geografiya, tarix va tibbiyotga doir eng zarur bilimlarni kiritdi. Shunday qilib, Pestalotsi boshlang'ich maktabning o'quv rejasini ancha kengaytirdi va bu maktabda o'qitishning yangi metodikasini vujudga keltirdi. O'qitish metodikasi bolalarni bilimlar bilan boyitishga hamda ularning aqliy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'limning xususiy metodikalarini yaratish.

Petalotsi o'zining umumiy didaktik qoidalariga tayanib, boshlang'ich ta'limning xususiy metodikasini yaratdi.

Pestalotsi ona tili o'qitishning asosiy vazifasi bolaning nutqini o'stirish va uning so'z boyligini orttirishdan iborat, deb hisobladi. Savod o'rgatishda tovush metodini birinchi o'ringa qo'ydi, bunday qilish harflarni qo'shib o'qitish metodi hukmronlik qilib turgan o'sha vaqt uchun g'oyat muhim edi.

Pestalotsi zerikarli va bir xildagi mashqlar bilan bolalarda kuzatish, narsa yoki hodisaning belgilarini aniqlay olish malakasini o'stirishga va biror narsani aniq va to'la tasvirlab berish malakasini hosil qilishga intildi.

Bolalarda yozuv malakasini hosil qilmoq uchun Pestalosi dastlab to'g'ri va egri chiziqlarni — xatlarning elementarlarini chizdirib, mashq qildirishni tavsiya etar ekan, yozuv o'rgatishni narsalarni o'lchash va suratni chizish bilan shuningdek, nutqni o'stirish bilan bog'lab olib borishni taklif qildi.

O'lchashni o'rgatmoq uchun Pestalotsi dastlab to'g'ri chiziq chizishni, so'ngra burchak va kvadrat chizishni hamda bu kvadratni bo'laklarga (yarimta, chorakta qilib va hokazo) bo'lib o'rgatishni taklif qildi. Tarbiyachi bolalarga turli geometrik jismlarni ko'rsatish va ularning nomlarini aytib berishi lozim. Bola o'lchov natijalarini chizib va yozib olishi lozim; bunday mashqlar bolaga yozuv o'rgatishning asosidir.

Pestalotsi pedagogika nazariyasi va tajribasining ahamiyati.

Pestalotsi odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini bir-biriga uyg'un qilib o'stirishdek vazifani tarbiyaning asosiy vazifasi deb bildi. U elementar ta'lim nazariyasini yaratdi, bu nazariya XIX asrda xalq maktabini rivojlantirishga yordam bergan kurashda katta rol o'ynadi. U bolani jismoniy tarbiyalash, mehnatda tarbiyalash, axloqiy va aqliy tarbiyalash to'g'risida juda qimmatli fikrlarni aytib o'tdi. Pestalotsi boshlang'ich maktabda beriladigan bilimlarning mazmunini kengaytirishni talab qildi, boshlang'ich maktabni xalqqa yaqinlashtirishga, uni xalq ommasining turmushi va ehtiyojlari bilan chambarchas bog'lashga intildi, bolalarni mehnatga o'rgatishga, ularni turmushga tayyorlashga katta e'tibor berdi.

1. Pestalotsining dunyoqarashi va uning pedagogikada tutgan o'рни.
2. Pestalotsining ta'lim nazariyasini izohlab bering?
3. Pestalotsining pedagogikaga qo'shgan (olib kirgan) yangi g'oyalari?

Konstantin Dimitrievich Ushinskiy

Mashhur rus pedagogi, rus pedagogikasi va xalq maktablarining asoschisi, «rus o'qituvchilarining o'qituvchisi» Konstantin Dmitrievich Ushinskiy 1824-yilning 19 fevralida Tula shahrida tug'ildi.

Ushinskiy 9 yoshga qadar oilasida tarbiyalanib, savod chiqardi. So'ngra Novgorod-Seversk gimnaziyasiga o'qishga kirib, uni 1840-yilda muvaffaqiyatli tamomladi. O'sha yili Moskva dorilfununining yuridik fakultetiga o'qishga kirdi va mashhur professori Redkinning bevosita rahbarligi ostida ta'lim oldi.

Ushinskiy 22 yoshida yaroslavl liseyiga kameral(yuridik) fanlar professori vazifasini bajaruvchi sifatida xizmatiga kirdi va ish boshladi. U uch yillik dastlabki pedagoglik faoliyatida katta iste'dod egasi ekanini namoyish eta oldi. Shuningdek, Ushinskiy zo'r ishtiyoq bilan o'qituvchilik ishini olib borib, talabalarga astoydil bilan bilim berib, ularda ilm-fanga nisbatan qiziqish uyg'otdi, eng muhimi, o'z halqi va ona yurtini jondan sevis, ardoqlash hamda vijdonan halol mehnat qilishga da'vat etdi. Bu yosh va iste'dodli professorning mazmunli ma'ruzalarini litsey talabalari maroq bilan tinglar edilar.

K.D.Ushinskiy pedagoglik faoliyatini ilmiy-ijodiy ish bilan birga qo'shib olib bordi. 1848-yili uning birinchi ilmiy asari – «Kameral fanlarni o'qitish haqida» nashr qilindi. Bu asarda Ushinskiy oliy o'quv yurtlaridagi mavjud o'qitish tizimiga nisbatan tanqidiy yondoshadi. Ularga hukumat tomonidan erkinlik berilishini talab etib, o'qitish tizimini yaxshilashga oid yirik uslubiy muammolarni hal etish yo'llarini ko'rsatib berdi.

Ushinskiyning ilm-fanni demokratik tarzda targ'ib etishi reaksion doiralarga ma'qul tushmadi. 1849-yil sentyabrda Ushinskiy va uning do'stlari siyosatda shubhali, hukumatga ishonchsiz kishilar sifatida 1949-yil litseydan chetlatildi. Shundan so'ng K.D.Ushinskiy Peterburgga ko'chib borib, ichki ishlar vazirligiga kichik amaldor vazifasida ishlashga to'rt yil majbur bo'ldi ishladi.

Ushinskiy faqat 1854-yildagina Yaroslavl litseyi sobiq direktorining tavsiyasi bilan Gatchino institutida til-adabiyot va qonunshunoslik o'qituvchisi bo'lib ishga kiradi va tez fursatda shu institutning sinflar

inspektori vazifasiga ko'tariladi. Ushinskiyning pedagogik faoliyati tom ma'nosi bilan ana shu vaqtdan boshlandi. U 1859-yilda Smolniiy institutining sinflar inspektori vazifasiga tayinlanib, unga shu institutning juda achinarli holga tushib qolgan ilmiy bo'lim ishlarini tartibga solish vazifasi yuklandi. Ushinskiy bu ishni puxta bajarib, pedagogik jarayonni uyushtirish sohasida katta qobiliyat sohibi ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga uning pedagogika masalalariga bag'ishlangan va muntazam chop etilayotgan nazariy tadqiqotlari uning faqat amaliyotchi emas, balki o'z ixtisosi bo'yicha kuchli nazariyotchi ekanligini namoyan etdi.

Ushinskiy 1857-yildan boshlab «Tarbiya jurnali» («Журнал для воспитания»)da, so'ngra «Xalq maorifi jurnalida juda ko'p sermazmun maqolalar e'lon qildi. 1860-yili u «Xalq maorifi jurnal»ning muharriri qilib tayinlandi. Ushinskiy 1861-yili o'zining «Bolalar dunyosi» («Детский мир») nomli o'qish kitobini nashr ettirdi. Bu kitob o'sha yilning o'zidayoq ikki marta chop etildi.

Ushinskiyning pedagogik faoliyatiga soya soluvchi (1862-yil) imzosiz xat uni o'z ishini to'xtatishga majbur qildi. Bu xatda u go'yo siyosiy jihatdan ishonchsiz kishi, deb ayblangan edi. Buning oqibatida u chet ellardagi xotin-qizlar maorifining yo'lga qo'yilishini o'rganish va pedagogikadan darslik yozish uchun o'z vatanidan ketishga majbur bo'ldi. U xorijiy mamlakatlarda yurgan davrida o'zining butun kuch-g'ayratini ta'lim-tarbiyaga doir asarlar yozish va ularni chop ettirishga yo'naltirdi. Natijada, 1861-yili uning I – II o'quv -yillari uchun «Ona tili» darsligi nashr etildi va unga «Muallimlar uchun qo'llanma» degan metodik asari ilova qilindi. 1870 -yili esa III o'quv -yili uchun ham «Ona tili» darsligi bosilib chiqdi. Bundan tashqari, Ushinskiyning pedagogika sohasidagi asosiy nazariy asari hisoblangan «Inson — tarbiya predmeti sifatida» («Pedagogik antropologiyadan tajriba») nomli asari ayrim jildlarga bo'linib nashr qilina boshladi. 1867 -yili bu asarning I jildi, 1869 -yil II jildi bosilib chiqdi. Ushinskiy bu kitobning hamma jildlarini qisqartirib ingliz tiliga tarjima qilish maqsadida uchinchi jild ustida zo'r g'ayrat bilan ishlay boshladi. Afsuski, bu ishni tamomlash unga nasib bo'lmadi. U Qrimda davolanish paytida qattiq shamollab 1870 -yil 21 dekabrda Odessada zotilam kasalidan vafot etdi.

K.D.Ushinskiyning pedagogika nazariyasi xalqchillik g'oyasi asosiga qurilgan. Ushinskiy xalqchillik deb har bir xalqning o'ziga xosligini tushunar ediki, bu o'ziga xoslik o'sha xalq yashashi va mehnat qilishi lozim bo'lgan tarixiy taraqqiyot, geografik va tabiiy sharoitlar bilan ifodalanadi.

U «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi» sarlavhali maqolasida tarbiyaning xalqchillik ruhida bo'lishi kerakligini aytib, boshqa xalq pedagogikasini mexanik suratda rus tuprog'iga ko'chirishni aqlga mutlaqo muvofiq emasligini ta'kidlaydi.

Ushinskiy tarbiyada xalq ruhining eng yaxshi ifodasi ona tili ekanligiga, rus bolalarini o'qitishda rus tili asos bo'lishligini, boshlang'ich maktablardagi ta'lim ham bolalarni rus tarixi, Rossiya geografiyasi va uning tabiati bilan tanishtirmog'i lozimligini uqtiradi.

Ushinskiy o'zining «Ona tili» sarlavhali maqolasida «Xalq tili — uning qadim zamonlardan boshlanuvchi bugungi ma'naviy hayotining eng yaxshi, hech qachon so'lmaydigan, doimo yangidan ochilib yashnab turadigan gulidir. Butun xalq va uning vatani til bilan tirikdir! bularning hammasi xalq ijod etgan til orqali ifodalanadi! Xalq avlodlari birin-ketin yashab o'taveradi, ammo har bir avlod hayotining natijalari keyingi avlodlarga til orqali meroc bo'lib o'tadi. Har bir avlod o'z his-tuyg'ularini, tarixiy voqealar, diniy e'tiqod, maslak natijalarini, boshidan kechirgan qayg'u va xursandchiliklarini ona tili xazinasiga qo'shadi! Til eng jonli, eng boy va mustahkam aloqa vositasi bo'lib, xalqning yashab o'tgan, yashayotgan va kelajakda yashaydigan avlodlarini bir-birlari bilan chambarchas bog'laydi, ularning ulug', tarixiy, jonli bir butunga aylantiradi. Til bor ekan, xalq ham bor, xalqning hayot ekanligini til orqali bilish mumkin. Til xalqning hayotidir. Xalq tili yo'qolganida xalqning o'zi ham yo'q bo'ladi», — deb uqtiradi. Ona tili — Ushinskiyning fikricha — na kitob, na maktab bo'lmagan vaqtda ham xalqni o'qitgan eng yaxshi ustozdir.

Axloqiy tarbiya maqsadlari va vositalari. K.D.Ushinskiy tarbiya ishidagi turli vositalar orasida axloqiy tarbiyaga katta e'tibor berib, «Tarbiyaning asosiy vazifasi axloqiy jihatdan ta'sir etishdan iboratdir, bu aqlni umuman o'stirish, boshni bilimlar bilan to'ldirishdan ko'ra ham muhimroqdir», — deb yozgan edi.

Axloqiy tarbiya bolalarda odamlarga hurmat va muhabbat bilan qarashni, ularga nisbatan samimiy, xayrixoh va adolatli munosabatda bo'lishni o'stirishi kerak.

Ushinskiy ko'r-ko'rona, tayoq intizomiga qarshi norozilik bildirib, «Eski maktabda intizom nihoyatda g'ayritabiiy asosga yoki mukofotlar va yoki jazolar ulashib beruvchi o'qituvchidan qo'rquv asosiga qurilgan edi. Bu qo'rquv bolalarni zararli holatlarga: sustkashlikka, sinf doirasidagi zerikishga va ikkiyuzlamachilikka olib keldi» deb bolalarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lishni talab qildi.

Ushinskiy egoistik, mansabparastlik, bekorchilik, g'arazgo'ylik, munofiqlik singari nuqson va kamchiliklarni qattiq qoralaydi.

Uning fikricha, axloqiy tarbiyaning vositalari quyidagilardan iborat: 1. Ta'lim (axloqiy tarbiyada kitob va darslik); 2. O'qituvchining shaxsan namuna bo'lishi (Ushinskiyning obrazli ifodalashicha, «bu narsa yosh qalb uchun quyoshning barakali nuridirki, uni hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydi»); 3. E'tiqod; 4. O'quvchilarga mohirlik bilan munosabatda bo'lish (pedagogik odob); ogohlantirish choralari; 6. Rag'batlantirish va jazolash.

Ushinskiy bolalar mehnati haqida gapirib, insonning to'g'ri rivojlanishidagi zarur shart mehnatdir, deydi. Uning fikricha «agar tarbiya kishini baxtli qilmoqchi bo'lsa, uni baxt uchun tarbiyalamaslik kerak, balki hayotdagi mehnat uchun tayyorlashi lozim». Tarbiya kishida mehnatga muhabbat va odatni o'stirish kerak. Ushinskiy kishi o'z faoliyatida jismoniy mehnat bilan aqliy mehnatni birlashtirsa, juda foydali bo'lur edi, deb hisoblaydi. U o'quvchilar mehnati haqida gapirib, «O'qish mehnatdir va mehnat bo'lib qolishi, ammo to'la ma'noli mehnat bo'lishi lozim», — deydi. U ta'limni ovunchoqlik, ko'ngil ochish yo'li bilan o'tkazishga, ba'zi pedagoglarning ta'limni mumkin qadar engilroq qilishga harakat qilishlariga qarshi chiqdi. Bolalar o'qish davrida mehnatga, qiyinchiliklarni enga olishga o'rganishlari kerak. Faqat kichkina bolalarnigina o'ynab turib o'qishga o'rgatish mumkin, deb yozadi Ushinskiy. Aqliy mehnat og'ir, o'rganmagan kishini tezda charchatib qo'yadi. Shuning uchun bolalarni kuchi etadigan ishlarga asta-sekin o'rgatish lozim.

K.D.Ushinskiyning aqliy mehnatni jismoniy mehnat bilan qo'shib olib borish to'g'risidagi, o'qish va dam olishni to'g'ri tashkil etish haqidagi pedagogik fikrlari hozirgi kunda ham qimmatlidir.

K.D.Ushinskiyning didaktika sohasidagi qarashlari pedagogika tarixida o'zining chuqurligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushinskiy ta'limni bolalarning psixologik jihatdan kamol topishlarining yosh bosqichlarini hisobga olishni va ular psixologiyasining xususiyatlarini e'tiborga olib tashkil etish kerakligini talab qildi.

Ushinskiy xotira bilan esda saqlab qolish to'g'risida gapirib, unutishning oldini oladigan tez-tez takrorlash yo'li bilan tarbiya oluvchilarda o'z xotiralariga ishonchni mustahkamlash kerak, deb ko'rsatdi. U darsda ko'rsatmalilik tamoyiliga katta ahamiyat berib, psixologik nuqtai nazardan ko'rgazmali ta'limning mohiyatini yoritib berdi.

Ushinskiy ko'rgazmali ta'lim tamoyillarini nazariy jihatdan ishlab

chiqishga va uni amalda tatbiq etishga doir juda ko'p qimmatli fikrlar kiritdi. Ushinskiy o'qitish jarayonida ko'rgazmali ta'limga munosib o'rin berdi: u ko'rgazmali ta'lim o'quvchilarning rivojlanishini ta'min etadigan shartlardan biridir, deb bildi.

Ushinskiy bolalarning o'quv materialini **anglab, puxta va mustahkam** o'zlashtirishiga ham katta e'tibor berdi. U bu tamoyillarni tushunish va tatbiq qilishda o'zidan ilgari o'tgan pedagoglarga nisbatan ko'pgina yangiliklar kiritdi. Masalan, o'quv materialini takrorlash to'g'risida batafsil metodika ishlab chiqdi.

Ushinskiy ta'lim yo'nalishida ikki yo'nalish borligini qayd etdi. Birinchi yo'nalish bolalar o'qituvchining rahbarligida buyum yoki hodisani kuzatadilar va shu buyum yoki hodisa to'g'risida umumiy tushuncha hosil qiladilar. Ikkinchi yo'nalishda olingan bilimlar umumlashtiriladi va mustahkamlanadi.

Ushinskiy maktabning ikki xodimi: murabbiy bilan o'qituvchi o'rtasida tarbiya va ta'lim (funksiyasini) jarayonini bo'lib qo'yishga norozilik bildirdi. U ta'limni tarbiyaning eng muhim vositasi deb hisobladi.

Ushinskiy o'zining pedagogik tizimida **dars hamda ta'lim metodi**ga katta ahamiyat berdi.

Darsda mashg'ulotlar turlicha bo'lishi mumkin: yangi bilim berish, o'quvchilarning mashqlar bajarishi, o'tilganlarni takrorlash, o'quvchilarning bilimini hisobga olish, o'quvchilarning yozma ishlarni bajarishlari. Har bir dars ma'lum maqsadga qaratilgan, tugallangan bo'lishi va etarli darajada tarbiyaviy xarakterga ega bo'lishi lozim. Ushinskiy mashg'ulotlarni almashtirib metodlarni xilma-xil qilib turishni tavsiya qildi.

U bolalarda mustaqil ishlash qobiliyatini o'stirishga e'tibor berib, o'qituvchi maktabga yangi kirgan bolalarga darsda mustaqil ishlashning to'g'ri usullarini o'rgatishi kerak, bolalar to mustaqil ishlash malakalarini mustahkam o'zlashtirib olmaguncha, ularga uyga vazifalar berish yaramaydi, deydi.

Ushinskiy «Rus tilini dastlabki o'qitish» (1864) sarlavhali maqolasida bir qancha qimmatli metodik ko'rsatmalar bergan. Uning fikricha, o'qitishning uchta vazifasi bor: 1) bolaning nutqini o'stirish; 2) bolalarni rus tilinining boyligidan ongli suratda foydalanishga o'rgatish 3) tilning mantiqini (grammatikasini) o'zlashtirish.

Rossiyada o'qishga o'rgatishda **tovush metodini** joriy qilish va keng tarqatishda Ushinskiyning xizmati katta bo'ldi.

Ushinskiy o'qituvchilarning roliga yuksak baho berib, «pedagogning o'quvchilarga ta'siri shunday tarbiyaviy kuchga egadirki buni hech qanday

ustav va dastur bilan, o'quv yurtini har qancha qulay tashkil etish bilan almashtirib bo'lmaydi», deb hisoblaydi. U « tarbiya ishida murabbiyning shaxsi eng asosiy omildir», deb yozgan edi.

Ushinskiy pedagogika o'qituvchilari va o'rta maktab o'qituvchilari tayyorlaydigan pedagogika fakultetlari to'g'risidagi fikrni olg'a surib shunday yozgan edi: «Bizda meditsina fakultetlari bor-u, pedagogika fakultetlari yo'q ekan, bu shuni ko'rsatadiki, biz axloqiy va tarbiyaviy sog'lig'imizga qaraganda tanamiz sog'lig'ini ko'proq qadrlar ekanmiz».

K.D.Ushinskiyning o'z vataniga, o'z xalqiga xizmat qilishni pedagogik faoliyatining asosiy burchi deb hisobladi.

U o'qituvchilar tayyorlash tizimini ishlab chiqdi.

1895 -yili Ushinskiyning vafotiga 25 yil to'lishi munosabati bilan bo'lgan yig'ilishda, uning ishini davom ettiruvchilardan biri, Modzalevskiy «Xuddi Lermontov — bizning xalq olimimiz, Suvorov — bizning xalq lashkarboshimiz, Pushkin — bizning xalq shoirimiz, Glinka — bizning xalq kompozitorimiz bo'lganidek, Ushinskiy ham — bizning haqiqiy xalq pedagogimizdir» deganda haq edi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. K.D.Ushinskiyning hayoti va talabalik yillari?
2. K.D.Ushinskiy darsliklari va «Tarbiyada xalqchillik g'oyasi».
3. K.D.Ushinskiy aqliy, axloqiy tarbiya va uning vositalari haqida.
4. K.D.Ushinskiyning didaktik ta'limoti va uning ahamiyati.
5. K.D.Ushinskiyning pedagogika, maktab va maorif taraqqiyotidagi o'rnini izohlab bering?

XI BOB. RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLARDA TA'LIM TIZIMI

Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim tizimi

Amerika Qo'shma Shtatlarida bolalar 6 yoshdan 17 yoshgacha 12 yil o'qiydilar. Ta'lim tizimi quyidagicha tashkil etilgan:

1. 3 yoshdan 5 yoshgacha maktabgacha tarbiya muassasalarida.
2. Boshlang'ich maktab. Bu bosqich 1–5-sinflarni o'z ichiga oladi.
3. To'liq bo'lmagan o'rta maktab. Bu bosqich 6–8-sinflardan iborat.
4. Yuqori maktab. Bu bosqich 9–11-sinflardir. Mazkur yuqori maktab bilan Oliy ta'limni aralashtirmaslik kerak.

Amerika maktablarida 9-sinfgacha asosiy e'tibor matematikaga emas, balki tabiiy fanlarga qaratiladi. O'quvchilar uchun yagona, majburiy darsliklar, qo'llanmalar yo'q. Maktablarida texnikaviy jihatdan yaxshi jihozlangan, sinflar kompyuterlashtirilgan. Har bir maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tashiydigan maxsus avtobuslar, stadionlar, turli laboratoriyalar bor. Maktablarning aksariyati davlat ixtiyorida bo'lib, davlat mablag'i bilan ta'minlanadi. Shaxsiy maktablar ham anchagina. Katta shaharlarda yashovchi o'ziga to'q ota-onalar farzandlarini shaxsiy maktablarga berishga harakat qilishadi. Shaxsiy maktablarda o'qitish pullik. Vashington shahridagi shaxsiy maktabda bolani o'qitish uchun bir yilga taxminan o'n ming dollar to'lash kerak. Bunday maktablarda boy oila farzandlari ta'lim oladilar. Shaxsiy maktablarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, maxsus dasturlarga, maxsus o'qituvchilarga ega. Bunday maktablarda sinfda o'qiydigan o'quvchilar soni kam bo'ladi. Shaxsiy maktablarda boshlang'ich sinflardan boshlab estetik tarbiyaga, san'atga alohida e'tibor beriladi.

Amerika davlat maktablarining yuqori sinflaridagi o'qish-o'qitish tizimi biznikidan tubdan farq qiladi. Yuqori sinflardagi har bir o'quvchiga alohida o'qituvchi-murabbiy biriktiriladi. U shu o'quvchining qobiliyati, qiziqishlarini sinchiklab o'rganib, faqat shu o'quvchiga uchun alohida reja tuzib, uning o'qishiga rahbarlik qiladi. Masalan, 9-sinf o'quvchisi bir fandan, deylik, kimyodan kuchli bo'lsayu, chet tilidan oqsasa, bu o'quvchiga 9-sinfda o'ninchi sinf rejasini bo'yicha kimyoni o'rganishga ruxsat

etiladi. U chet tilini 9-sinf hajmida yoki engillashtirilgan reja bo'yicha o'rganishi mumkin. Kimyodan yoki matematika, biologiya, fizika va boshqa tabiiy fanlardan maktab rejasini muddatidan oldin tugatgan, barcha kontrol ishlarini topshirgan o'quvchiga maktabda o'qib yurgan vaqtidayoq shu fanlar bo'yicha o'zi kirmoqchi bo'lgan kollejning birinchi kursi imtihonlarini ham topshirishga imkoniyat yaratiladi.

Amerikaning yuqori maktablarida shunday o'qituvchilar borki, ular kollejlarning birinchi kurslarida o'qitiladigan ma'lum fanlardan dars berishlari hamda imtihon olishlari shart. Amerika maktablarida bitirish imtihonlari yo'q. Oliy o'quv yurtlariga kirish uchun bizdagidek kirish imtihonlari olinmaydi. Biroq har bir abituriyent oliy o'quv yurtiga kirish uchun matematika va ingliz tilidan sinov (test) topshiradi. Bunday testlar Amerikada har yili 3–4 marta o'tkaziladi. Sinov savollari kitob shaklida har yili chop etiladi. Ularda mingga yaqin mashqlar, masalalar va ularning echimlari ko'rsatiladi. Sinflarda qanday savollar bo'lishi bizga o'xshab sir tutilmaydi, balki ochiq-oydin «matematika va ingliz tilidan bu yil mana shu savollarga javob berish lozim» deb ko'rsatiladi. O'quvchilar bu kitobni olib, kirish sinovlariga tayyorlanadi.

Amerikada talabalar matematika va ingliz tilidan kirish sinovlarini 10-12 sinflarda o'qib yurgan vaqtlarida, o'zlariga qulay paytda topshira oladilar.

Amerika oliy o'quv yurtlariga kirish uchun belgilangan sinov (test)lar ikki xil bo'ladi:

SAT (Sxolastik aptityud test);

AKT (Amerikan kollej test) sinovlari.

SAT sinovlari murakkabroq bo'ladi. Mashhur universitetlarga kirish uchun SAT sinovlarini albatta topshirish shart.

Bulardan tashqari Murakkablashtirilgan sinov ham bor. Bu sinovni oliy maktablarga kirayotgan barcha talabalar topshirishi shart emas. Mabodo biror talaba shu murakkablashtirilgan sinovlarni topshirib universitetga kirsam, u talabaga maxsus stipendiya beriladi. Amerikaning eng katta boyligi – bu aql. Aql bu mamlakatda qadrlanadi. A'lochi talabalar o'quv yurtlarining faxri sanalgani sababli ham, ularga turli yo'llar bilan yordam berish, stipendiyalar tayinlash orqali ularni o'quv yurtlarida saqlashga harakat qiladilar. O'zi tanlagan sohada yutuqlarga erishayotgan talabalar ro'yxati har yili alohida kitob bobida nashr etib turiladi. Bundan maqsad mazkur soha bilan qiziquvchi kompaniyalarning e'tiborini bo'lajak olimlarga qaratishdir.

Yuqorida sanab o'tilgan sinovlarning natijalari va yuqori sinflarda barcha fanlardan olgan baholarining o'rtacha miqdori talabani

universitetga qabul qilish yoki qilmaslik uchun asos hisoblanadi. Amerika kollejlari ikki va to'rt yillik bo'lib, ikki yillik kollejlarni bitirgan talaba oliy ta'lim pog'onasidagi birlamchi darajaga ega bo'ladi. To'rt yillik kollejlarni tugatgan talabalar bakalavr darajasini olib, oliy ma'lumotning birinchi pog'onasiga erishadilar. To'rt yillik kollejlarda bizning to'rt yillik institut va ayrim universitetlarga mos keladi. Amerika universitetlari tarkibiga ikki va to'rt yillik kollejlarda, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda ikkinchi bosqich oliy ma'lumot beruvchi o'quv yurtlari kiradi.

Ikkinchi bosqich oliy ma'lumot beruvchi o'quv yurtlari bizning aspiranturaga to'g'ri keladi. Bu o'quv yurtiga kirish uchun ikki fandan imtihon topshirilishi shart. O'qishni muvaffaqiyatli bitirgan talaba magistrlik darajasini oladi. Magistrlik ilmiy darajasini olgan talaba doktoranturaga kirishi mumkin. Amerikada doktoranturaga kirish uchun faqat mutaxassislikdan jiddiy imtihon topshiriladi. Imtihon komissiyasi tarkibida talabaning bo'lajak ilmiy rahbari ham ishtirok etadi. O'qishni muvaffaqiyatli bitirib, dissertatsiya yoqlagan talaba doktorlik ilmiy darajasini oladi. Ijtimoiy fanlardan doktorlik dissertatsiyasi yoqlagan talabalarining hammasiga «falsafa doktori» ilmiy unvoni beriladi. AQSH maktablari — oliy maktabgacha mana shunday bosqichlarga ega.

Yaponiyada ta'lim tizimi

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867–1868 -yillari boshlangan. Yaponiya o'z oldiga ikki vazifani: boyish, va G'arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'yadi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish harakatiga tushadi.

1872 -yili «Ta'lim haqida Qonun» qabul qilinib yapon ta'limi G'arb ta'limi bilan uyg'unlashtirildi. 1908 -yili Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6 -yillikka aylantirildi. 1893 -yili kasb yo'nalishidagi dastlabki kollej paydo bo'ldi.

1946 -yili qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning ta'lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishlari shart ekanligi belgilab qo'yilgan. Hozirgi zamon yapon ta'lim tizimlarining tarkibi quyidagicha: bog'chalar, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi o'quv yurtlari. Bolalar yosh xususiyatlariga qarab 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9% xususiy, 40,8% munisipal, 0,3% davlatnikidir.

Majburiy ta'lim. Ta'limning pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'la-

gan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik kichik o'rta maktab, 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi. Darsliklar bepuldir. Muxtoj oilalarning bolalari bunda qo'shimcha tarzda bepul nonushta, o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan taqdirda ularning oilalariga ham moddiy yordam ko'rsatiladi.

Yuqori bosqich o'rta maktab 10, 11, 12 sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi va kechki bo'limlari mavjud bo'lib o'quvchilarning 95% kunduzgi maktablarda o'qiydilar.

Yaponiyada o'quv yili 240 kun (AQSh 180).

Dorilfununlarga katta o'rta maktabni yoki 12 -yillik oddiy maktabni tugatgan o'quvchilar qabul qilinadi. U erda 460 ta universitet bo'lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipal, 331 tasi xususiy, 1-toifadagi universitetlarda har bir o'qituvchiga 8, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to'g'ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi: buning uchun abituriyentlar yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tadilar.

Bu sinovlardan o'tgan o'quvchilar universitetlarga yo'llanma olib qayta sinovdan o'tadilar. Xususiy universitetlarga esa to'g'ridan-to'g'ri test topshiriladi. Bir qator xususiy universitetlar o'zining uzluksiz shaxobchasiga esa (bog'chadan boshlab hamma bosqichlarni qamrab oladi). Universitetdan talabalarni haydab yuborish mumkin emas. Lekin o'qish muddatini cho'zish mumkin (4 -yillik o'qish 5-6 -yilgacha cho'zilib ketishi mumkin).

Kollejlar: kichik kollej, texnik kollej va maxsus kollejlarga bo'linadi.

Uni bitirgan talabalar bakalavr diplomini olib universitetning 3 yoki 4 kurslariga qabul qilinadi.

Janubiy Koreyada ta'lim tizimi

Janubiy Koreyada ta'lim haqidagi Qonun 1948 -yili qabul qilingan. Ta'lim tizimiga asos qilib an'anaviy g'arb modeli olingan: 6 yil – quyi maktab, 3 yil – o'rta, yana 3 yil – oliy maktab; so'ngra to'rt yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi; tanlangan fan yana 2 yil chuqur o'rganilgandan so'ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo'lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim.

Mamlakatda oliy o'quv yurtlarining ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Koreyada 104 ta oliy o'quv yurti bo'lib, ularning 80 foizi xususiydir. Har yili bitiruvchilarning 40 foizi o'qishga kiradi. Talabalar soni bo'yicha Koreya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Lekin maktabgacha ta'lim muassasalari ehtiyojni qondira olmayapti. Shuning uchun 1982 -yili

maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilingan. Bu erda tarbiyaga bolalar bog'chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. Shu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hisssasi katta.

Boshlang'ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshli-lar kelishadi) sinflarning tig'izligini kuzatish mumkin. Har sinfdan 50 nafargacha bola o'qiydi. Dars nagruzkalari ham ko'proq. O'yinlar dam olish o'quv dasturiga kiritilgan. Shuning uchun dam olishga imkoniyat bor.

Boshlang'ich maktabda dars 40 minut o'rta maktabda esa 45 minut. Oliy maktabda darsning davomiyligi 50 minutga teng. Bu erda ikki muhim jihatga to'xtalib o'tish zarur. Oliy maktabga, albatta, kirish imtihonlari topshiriladi va o'qishlar pullik.

Boshlang'ich maktabda 9 ta fan o'qitiladi. Koreys tilini o'rganishga alohida e'tibor berilib arifmetika hamda ijtimoiy fanlar o'qitiladi.

O'rta maktabda fanlar yana 4 taga ko'paytirilgan. 7-sinfdan boshlab chet tillar o'rgatiladi. Mamlakatda ingliz tiliga e'tibor kuchli. Ko'pchilik bu tilda bimalol gaplasha oladi. Chet tillarni o'qitishga haftasiga 4—5 soat ajratilgan. Koreyslar yana bir tilni — klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rganadilar. 8-sinfdan boshlab Xitoy tarixi o'rganiladi.

Hunar maktablari Koreyada 600 tani tashkil etadi. Bu maktablar-ning 45 foizi bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari etishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisoslari o'zlashtiriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Ta'lim haqidagi qonun talablaridan biri shudir.

Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor kuchli. So'nggi yillarda 5 ta sport, 6 ta ilmiy maktab ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan.

Koreyada nogironlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikni har qadamda kuzatish mumkin. Aytaylik, bu erda aravachalar yordamida harakatla-nuvchilar uchun er osti liftlari mavjud, maxsus jihozlangan past qilib qurilgan telefon-avtomatlardan nogironlar bimalol foydalanadilar, rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud. Bu maktablarning aksariyati xususiy yoki diniy tashkilotlarning xayriya mablag'lari hisobiga qurilgan. Davlat maktablarida din o'qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab «Odobnoma» kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinf-gacha haftasiga 2 soatdan o'qitiladi.

Maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlashga ham e'tibor katta. Koreyadagi barcha talabalarning 6,5 foizi bo'lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o'qituvchilar kolleji mavjud. Har bir provinsiya o'z

kollejiga ega. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lish uchun 2 yil o'qish talab qilinadi. Fan o'qituvchisi birmuncha ko'proq o'qiydi.

Janubiy Koreyada ta'limning obro'si naqadar kattaligini quyidagi misoldan ham ko'rsak bo'ladi:

Soliqlar tizimida ta'limiy soliq joriy qilingan: ishlab chiqaruvchilar foydaning ma'lum foizini maorifga yuboradilar. Davlat byudjetining 24 foizi ta'limga sarflanadi.

Fransiyada ta'lim tizimi

Fransiya ta'lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda «Ta'lim haqida»gi Qonun dastlab 1955 -yili qabul qilinib, 1975 -yili unga qator o'zgartirishlar kiritilgan.

Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan «Ta'lim haqida»gi Qonuni 1989-yil 10 iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirilishiga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki, tashqi siyosatdagi islohatlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg'or tajribalarning mamlakat ta'lim tizimlariga kirib kelishi, o'quv predmetlarining integrasiyalari va boshqalar sabab bo'ldi.

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu erda:

1. Davlat maktablari,
2. Xususiy maktablar,
3. Oraliq maktablari mavjud.

O'qitiladigan predmetlar ichida fransuz tili va adabiyoti, o'qish va yozuv alohida ahamiyatga molik. Ular uchun dars vaqtining 30% ajratiladi. O'rtacha haftalik soatlar 26 soatdan iborat, darsning davomiyligi 60 minut. O'quv yili 5 chorakka bo'linadi. Fransuz maktablari boshlang'ich sinflarida o'qish ertalab va tushdan keyingi qismlarga bo'linadi. Ertalab o'quvchilar ona tilidan, tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan saboq oladilar. Matematika, ona tili va adabiyoti baza predmeti, tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya predmetlari esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

Fransiya ta'limida bolalarni go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik

guruh (2-4 yosh), o'rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo'lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha, hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang'ich sinflarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi;
2. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
3. Chuqurlashtirilgan bosqich.

Dasturlarda o'quv predmetlarning barchasiga uch bosqich bo'yicha aniqlik, alohida-alohida talablar qo'yiladi.

1990 -yildagi hukumat qarorida bolalarni bilimiga, qobiliyatiga qarab dars jadvalini tabaqalashtirgan holda tuzish huquqi berildi.

O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab o'rta maktabga o'tadilar. O'rta ta'lim esa kollejlar va litseylarda amalga oshiriladi. O'rta ta'lim ikki bosqichda beriladi. Birinchi bosqich (11 yoshdan 15 yoshgacha) 4 yil bo'lib, eng kichik sinf 6-sinf, 5-4-o'rta sinf, 3-sinf esa katta sinf hisoblanadi. Demak sinflarni raqamlash yuqoridan pastga qarab amalga oshiriladi. 6-5 sinflar umumiy o'rta ta'lim, 4-3 sinflar esa o'quvchilarning moyilligiga qarab beriladi. Bu birinchi bosqichni tugatgach, o'quvchilar kasbiy yo'nalishlari bo'yicha guvohnoma oladilar. So'ngra ikkinchi bosqich boshlanadi. Bu bosqichda 15-18 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar. Ular uch yil o'qib bakalavr unvoni va diplomi uchun imtihon topshiradilar. Ana shunda diplom olgan o'quvchilargina oliy o'quv yurtlarga qabul qilinish huquqiga ega bo'ladilar. Fransiyada talabalar pedagogika, politexnika instituti, oliy ma'muriy maktablarga kirish uchunгина imtihon topshiradilar. Bundan tashqari shu kasbga moyilligi ham alohida sinab ko'riladi. Boshqa oliygohlarga va universitetlarga esa bakalavr diplomi bo'lgan yoshlar imtihonsiz qabul qilinaveradi.

Oliy ta'lim universitetlarda uch turkumda amalga oshiriladi.

Birinchi turkum: umumiy bo'lib, o'qish muddati ikki yil davom etadi.

Ikkinchi turkum: o'qish bir yil davom etadi. Talabalar uni magistr darajasi bilan yakunlaydi.

Uchinchi turkum: o'qish 1-2 yil davom etadi. Bu siklda:

– biron bir predmetni chuqurlashtirib o'rganilganligi haqida diplom 1 yil;

- ixtisoslashtirilgan oliy ma'lumot to'g'risida diplom 1 yil;
- uchinchi turkum doktorlik dissertatsiyasi 1–2 yil;
- davlat doktorlik dissertatsiyasi biron-bir sohani mukammal o'rganib dissertatsiya yozish kabi hujjatlar olish mumkin.

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortiq. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko'rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O'qish muddati 2 yil bo'lib, sakkiz xaftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko'zda tutadi.

Sirtqi ta'lim shoxobchalari juda keng bo'lib, u 500 turdagi o'rta, oliy professional ma'lumot berishni tavsiya eta oladi.

Fransiyada maktab rahbarligi lavozimiga erishmoq uchun ta'limga rahbarlik qilishdan saboq beruvchi maxsus markazlarda o'qiydilar. Bunday markazlarda ular rahbarlik qilish, maktab iqtisodiyotini boshqarish, ta'limdagi yuridik masalalar, qonunchilik, ota-onalar bilan ishlash, madaniy oqartuv ishlarini tashkil etish, jamoada yaxshi psixologik muhitni barpo etish kabi jihatlarni o'rganadi. O'qishni yakunlagach, suhbatdan, test imtihonlaridan o'tadilar. Direktor dars bermaydi. Uning ish faoliyatini ikki yil davomida diqqat bilan kuzatib boriladi. Shu ikki yil davomida maktab direktori talantli tashkilotchi, etuk rahbar sifatida faoliyat ko'rsata olmasa, u bu lavozimidan olib tashlanadi. Maktab o'qituvchilariga qo'yilgan talab Fransiyada o'ta yuqori. Ayniqsa, boshlang'ich maktablarda o'qituvchi o'z kasbini ustasi, ajoyib notiq, san'atkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq-atvor egasi bo'lmog'i lozim.

O'qituvchilar o'z nazariy — uslubiy malakalarini oshirishga ahamiyat beradilar. Malaka oshirish kurslaridan o'tish uchun aniq muddat belgilab qo'yilmagan. O'qituvchilar o'z ixtiyorlari bilan test markazlarida imtihon topshiradilar.

Shu imtihonlar davrida o'qituvchi faoliyatida ayrim nuqsonlar sezilib, malaka oshirishga ehtiyoj aniqlansa, o'z vaqti va mablag'lari hisobiga malaka oshiriladi.

Germaniyada ta'lim tizimi

Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta'lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, hayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota-onalar bolalar bog'chalariga o'z

farzandlarini tarbiyalayotganliklari uchun ancha miqdorda pul to'laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog'chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarmida esa uyda, oilada bo'ladilar. Bu mamlakatda kuni uzaytirilgan bog'chalar ham bor.

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli, ya'ni bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba'zi joylarda 10 yil) maktabda to'la haftalik o'qishda o'qiydi. O'qish davlat maktablarida tekin. Xususiy maktablar kam. O'qish 6 yoshdan boshlanib, 4 yil davom etadi (faqat Berlinda 6 yil). Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish bosqichidagi maktabga o'tadilar. Bu erda 5-6- sinf bosqichidagi yo'nalish maktablarda maxsus dastur asosida o'qiydilar. Keyin navbatdagi maktab tipiga ko'chadilar: bular – asosiy, maxsus maktab, real bilim yurtlari. Deyarli 30% bola asosiy maktabga o'tadi. 9 yoki 10 yillik o'qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o'tiladi. Maxsus maktablarda nuqsonga ega bo'lgan bolalar o'qiydi. Real bilim yurtlari asosiy maktab va yuqori bosqich maktabi o'rtasida turadi. Qoidaga ko'ra bu erda o'qish 6 yil davom etadi (5-10 sinfgacha) va to'la o'rta ma'lumot berish bilan tugallanadi. Bilim yurtini tugatganlar o'rta maxsus o'quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar-texnika maktabiga kirib o'qish huquqiga ega bo'ladi. Germaniyada gimnaziya ham mavjud. Ular 5-13 sinflarni o'z ichiga oladi. 11-13 sinflar oliy o'quv yurtlariga tayyorlash vazifasini ham bajaradi. Gimnaziya bitirganlik haqidagi etuklik attestati oliy o'quv yurtida o'qish imkonini beradi. Germaniya ta'lim tizimida hunar ta'limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchli. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning 20% hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o'qish muddati 3—3,5 -yilni tashkil etadi. O'qish uch bosqichdan iborat bo'lib, birinchi -yili asosiy hunar ta'limi beriladi. Bunga o'qitilayotgan kasbga taalluqli maxsus fanlardan nazariy asoslar berilib, yirik korxonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. O'quvchining birinchi yilda ikkinchi yilga o'tishi sinov imtihonlari o'tkazilib o'qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi yanada chuqurlashtirilib boriladi.. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a'zolari korxonalarining etakchi mutaxassislari, federal erlardagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi. Hunar maktablarining diplomlari oliy o'quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini

tugatish talab etiladi. O'qishga qabul qilish imtihonsiz maktab ta'limi to'g'risidagi hujjatga asosan oshiriladi.

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O'z-o'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlar bosqichma-bosqich ishtiroki prinsipiga amal qilinadi. Uning tarkibiga professor-o'qituvchilar, o'quvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi. Talabalar o'qishi erkin tashkil etilgan. Ko'p sonli o'quv bosqichlari bilan birga o'quv rejalari taklif etiladi. O'qishga haq to'lanmaydi. Agar talaba yoki ularning ota-onalari oziq-ovqat harajatlarini ko'tara olmasa o'qish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risidagi federal qonunga ko'ra ular moliya yordamida oladilar. Bu yordamning yarmi stipendiyaga qo'shib berilsa, ikkinchi yarimi qarz tariqasida beriladi.

Mamlakatda ta'limni isloh qilish masalasi ko'pdan buyon muhokama qilinmoqda, bunda o'quv jarayonini qisqartirish taklif qilinmoqda. Hozir universitetlarda talabalar 7 yil o'qiydi. Ular o'qishga kirganlariga qadar korxonalarda bir necha yil ishlashlari yoki bundesverda xizmat qilishini hisobga olsak, talabalar haqiqiy mehnat faoliyatlarini ancha kech boshlayotganligini tushunamiz.

Germaniyada Xalq universitetlari mavjud bo'lib, ular partiya va dindan tashqari muassasa. Ularning ko'pchiligi kechki bo'lib, faqat 1989-yili universitetlarda 400000 kurslar tashkil etilgan va bu kurslarda, 5,5 mln. tinglovchi malaka oshirgan. Davlat malaka oshirganlarni rag'batlantiradi va bu uchun har yili 5,5 mln. marka mablag' ajratadi. Malaka oshirish kurslarida o'qish davrida tinglovchilarga mablag' bilan moliyaviy yordam beradilar. Asosan ishsizlar o'z malakasini oshirish imkoniyatlaridan ko'proq foydalanadilar va bu bilan ish topishlari tezlashadi. Yarim yil davomida malaka oshirgan ishchilarning 75% ish bilan ta'minlanadi. Cherkovlar ham fuqarolarning bilim darajalarini oshirishda faol ishtirok etadi. Evangel cherkovi o'zining 15 akademiyasida dolzarb mavzular bo'yicha konferensiyalar tashkil etadi.

Katoliklar malaka oshirishda nikoh, oila masalalariga, teologiya va madaniyat sohalariga katta ahamiyat beradilar.

Oliy o'quv yurtlarida tadqiqot bilan shug'ullanish ularning qadimiy an'analaridan biri. O'tgan asr boshlarida Vilgelm fon Gumboldt pruss universitetlarini isloh qildi, o'shandan beri «Tadqiqot va o'qitish birligi» ularning hayotiy prinsiplariga aylanib qolgan. Oliy o'quv yurtlari tadqiqotlarining asosiy yo'nalishi-fundamental amaliy tadqiqot bo'lib, ularga boshqa ilmiy-tekshirish institutlari, sanoat laboratoriyalari yaqindan

yordam beradi. Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishga, juda murakkab tizimga ega. Shu bilan bir qatorda hozirda Germaniyada ta'lim tizimini isloh etish yo'lida yangi izlanishlar olib borilmoqda.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim yo'nalishlari qanday belgilangan?
2. AQSHda ta'lim tizimi qanday tashkil etilgan?
3. Yaponiya ta'lim tizimi haqida gapirib bering.
4. Janubiy Koreyada ta'lim tizimi qanday tashkil etilgan?
5. Fransiyadagi ta'lim tizimini so'zlab bering.
6. Germaniya ta'lim tizimi qanday tashkil etilgan?
7. O'zbekistonda xorijiy mamlakatlar tajribasidan qanday foydalanish mumkin?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi:—T.: O'zbekiston, 1992-yil.
2. Karimov I.A. Ijobiy ishlarimizni oxiriga yetkazaylik. O'zbekiston, 1993-yil.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura: Nutqlar, maqolalar, suhbatlar. — T: O'zbekiston, 1993-yil.
4. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. — T: O'zbekiston, 1994-yil.
5. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.T.: O'zbekiston, 1997-yil.
6. Abdurahmanov F. Rustamov A. Qadimgi turkiy til — T.: O'qituvchi, 1992-yil.
7. Abu Ali ibn Sino. Tibbiy o'gitlar. — T.: Mehnat, 1991-yil.
8. Abu Ali ibn Sino. Falsafiy qissalar. — T.: O'zadabiynashr, 1963-yil.
9. Abu Iso at-Termiziy. Ash-Shamoil an-Nabaviya. Arabchadan U.Uvatov tarjimasi. T.: Cho'lpon, 1993-yil.
10. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibh Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon / Yozuvchi, 1993-yil.
11. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. — T.: Fan, 1975-yil.
12. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.Tanlangan asarlar. — T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993-yil.
13. Al-Buhoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adab al-mufrad. Adab durdonalari/.Tarjimon, muqaddima va izohlar muallifi Sh.Boboxonov. —T.: O'zbekiston, 1990-yil.

14. Abu Muhammad Narshaxiy. Buxoro tarixi. Fan nashriyoti. —T.: 1966-yil.
15. Aliqulov H. Jaloliddin Davoniy. —T.: O'zbekiston, 1992-yil.
14. Aliqulov H. Omonboeva R. Jomiy va Davoniy ta'lim-tarbiya haqida. O'qituvchi, 1981-yil.
16. Al-Xorazmiy, Muhammad ibn Muso. Tanlangan asarlar. — T.: Fan, 1983-yil.
17. Axloq-odobga oid hadis namunalari. — T.: Fan, 1990-yil.
18. Ahmedov A. Xorazmiy hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. — T.: Fan, 1983-yil.
19. Ahmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. — T.: O'qituvchi, 1991-yil.
20. Ahmad Yugnakiy. Xibatul-haqoyiq /Nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi Q.Mahmudov. — T.: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1971-yil. A.Ahmedov. "Ulug'bek". — T.: Fan, 1991-yil.
21. Е.Э.Бертельс История персидско-таджикской литературы. Изб. труды. М.:Издательство Восточной литературы. 1960 год.
22. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. It. — T.: Fan, 1968-yil.
23. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. —T.: O'qituvchi, 1960-yil. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma: T.: Yulduzcha, 1989-yil.
24. Boynazarov F.A. O'rta Osiyoning antik davri. — T.: O'qituvchi, 1991-yil.
25. Геродот. История в девяти книгах —Л.: Наука, 1972 г.
26. Дж. Неру Открытие Инди. М.,1956 год.
27. Jomiy, Abdurahmon. Tanl. asarlar / Tuzuvchi va so'z boshi muallifi Sh.Shomuhamedov. —T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971-yil.
28. Zohidov V.Y. Ulug' shoir ijodining qalbi. A.Navoyi haqida. —T.: O'zbekiston, 1970-yil.
29. Irisov A. Abu Ali ibn Sino. Hayoti va ijodiy faoliyati —T.: Fan, 1980-yil.
30. Is'hoqov M. So'g'diyona tarix chorrahasida. —T.:Fan. 1990-yil.

31. Yo'ldoshev J. Hasanboyev S. Ovistoda axloqiy-ta'limiy qarashlar. —T.:O'qituvchi, 1992-yil.
32. Kaykovus, Unsurulmaoliy. Qobusnoma /Forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi: S.Dolimov. —T.:O'qituvchi, 1986-yil.
33. Karimov Q. Ilk badiiy doston. T.: Fan, 1976-yil.
34. Koshifiy, Husayn Voiz. Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. Fors-tojik tilidan N.K.Komilov tarjimasi. — T.:A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nasriyoti, 1994-yil.
35. Qoshg'ariy, Mahmud. Devonu lug'atit turk / Turkiy so'zlar lug'ati / Uch tomlik. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. —T.:Fan, 1960-yil. —/I t., II t. 1961-yil /III t.1962-yil.
36. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. —T.: O'qituvchi, 1965-yil.
37. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. T.:Fan, 1993-yil.
38. Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh tomli. 13-tom— T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1966-yil.
39. Navoiy, Alisher. Nazmul Javohir. Arbain. Nasoimul-muhabbat, asarlar. O'n besh tomli.15-tom. — T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968-yil.
40. Navoiy, Alisher. Hayratul-abror/. — T.: Adab. va san'at nashriyoti, 1974-yil.
41. Narshaxiy M. Buxoro tarixi. Samariya / Abu Tohir Xoja/. Buhoro tarixi /Narshaxiy/. Shajarai Xorazmshohiy /Bayoniy/. Farg'ona tarixi /Ibrat/. Tarixiy esse kitobida. —T.:Fan. Kamalak, 1991-yil.
42. Низам-ал-Мульк. Сиясет-наме. Л.:Изд. 1949 год.
43. Плутарх. Сочинения. Худож.лит. 1982 год.
44. Rahmanov N. Urxun bitiklari. Qadimiy hikmatlar.T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987-yil.
45. Rahmanov N. Turk haqonligi. — T.:Meros, 1993-yil.
46. Sad'iy. Bo'ston —T.: O'zadabiynashr, 1960-yil.
47. Sad'iy. Guliston —T.:Bad. adab. nashriyoti, 1968-yil.
48. Amir Temur. Amir Temur o'gitlari: /To'plam/. —T.:Navro'z, 1992-yil.

49. Temur tuzuklari — T.:Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991-yil.

50. Тлашев Х.Х. Общепедагогические и дидактические идеи ученых энциклопедистов Ближнего и Среднего Востока эпохи Средневековья. — Т.: Фан, 1989-год.

51. To'xliyev B. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asari. — T.: O'zbekiston, 1991-yil.

52. Fayzullayev O. Muhammad Xorazmiy. — T.: Fan, 1965-yil.

53. Xayrullayev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. — T.: O'zbekiston, 1971-yil.

54. Xayrullayev M.M. O'tmish mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida: Xalq pedagogikasi — inson kamolotining asosi. I-kitob. — T.: O'zPFITI, 1992-yil.

55. Xo'jaev G. Bobur — gumanist, ma'rifatparvar. — T.: O'qituvchi, 1983-yil.

56. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig /Saodatga yo'llovchi bilim/ — T.:Fan, 1971-yil.

57. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. — T.: Yulduzcha, 1990-yil.

58. K.Xoshimov, S.Ochilov — Tuzuvchi mualliflar.:O'zbek pedagogikasi antologiyasi. II jildlik; I jild. T.: O'qituvchi,1995-yil. II jild. T.: O'qituvchi, 1999-yil.

59. Qadimiy hikmatlar /Tuzuvch N.Rahmanov, — T.: Adab. va san'at nashr. 1987-yil.

60. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. — T.: Badiy adabiyot nashriyoti, 1972-yil.

61. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima va izohlar muallifi Allouddin Mansur. — T.: Adabiyot va san'at nashr. 1992-yil.

62. Hasanov H. Mahmud Qoshg'ariy /Hayoti va geografik merosi/. — T.: Fan, 1963-yil.

63. Abdullayev I. Bahoviddin Naqshband. Xalq so'zi. 1993-yil, 16-noyabr.

64. Abdurahmonov F, Rustamov A. Qadimgi turkiy til — T.: O'qituvchi, 1992-yil.

65. Abu Ali ibn Sino. Tibbiy o'gitlar. — T.: Mehnat, 1991-yil.

66. Beruniy, Abu Rayhon. Hindiston. Tanl.asarlar. T.2. — T.: Fan, 1965-yil.

67. Boboxonov Sh, Irisov A. Hadis ilmi peshvolari. — T.: nur, 1992-yil.

68. Jabborov I. Turmush tarzi, urf-odat va odob. — T.: O'qituvchi, 1990-yil.
69. Jomiy, Abdurahmon. Layli va Majnun. Salom va Absol. — T.: Adabiyot va sah'at nashriyoti, 1989-yil.
70. Jumaboyev Y. O'rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari — T.: O'zbekiston, 1980-yil.
71. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. — T.: Fan, 1995-yil.
72. Z. Mirtursunov. Hamza Hakimzoda Niyoziyning xalq maorifi va tarbiya haqidagi fikrlari. "O'rta va Oliy maktab" Davlat nashriyoti. — T.: 1961-yil.
73. Mirtursunov Z. O'zbek xalq pedagogikasi. — T.: Fan, 1973-yil.
74. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. — T.: Fan, 1993-yil.
75. Orifiy Sh. Ustoz o'g'itlari. — T.: RO'MM, 1992-yil.
76. Raximov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. — T.: O'qituvchi, 1967-yil.
77. Tulenov J. Xayot falsafasi. — T.: O'zbekiston, 1993-yil.
78. Uvatov U. Donolardan saboqlar. — T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1991-yil.
79. O'zbekiston tarixi va madaniyati. — T.: O'qituvchi, 1992-yil.
80. Shomuhamedov Sh. Fors-tojik adabiyoti klassiklari (Sharq adabiyoti klassiklari haqida suhbatlar) — T.: O'zadabiynashr, 1963-yil.
81. Is'hoqxon Ibrat. Ilmi ibrat. "Matbaai Is'hoqiya", To'raqo'rg'on, 1909-yil.
82. Inqilob gazetasi, 1922-yil 1-soni.
83. "Turk so'zi" gazetasi, 1918-yil.
84. "Najot" gazetasi. 1917-yil.
85. A. Boboxonov, M. Maxsumov. Abdulla Avloniy pedagogik faoliyati. — T.: O'qituvchi, 1966-yil.
86. M. Abdurasulov. O'zbek ma'rifatparvar shoirilari ilm-ma'rifat haqida, — T.: O'qituvchi, 1972-yil.
87. B. Qosimov. Abdulla Avloniy. — T.: O'qituvchi, 1979-yil.
88. B. Qosimov. Ismoilbek G'aspirali. — T.: 1992-yil.
89. I. Tursunov. Istiqloлга intilgan qalblar nidosi. — T.: 1993-yil.

90. Rauf Parfi. "Sharq Yulduzi" j, 1992-yil, 5-son.
91. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. — T.: O'qituvchi, 1992-yil.
92. A. Fitrat. "Hind sayyohining qissasi". Sharq yulduzi, 1991-yil.
93. J. G'. Yo'ldoshev. O'zbekiston Respublikasi ta'lim-taraqqiyot yo'lida, — T.: "O'qituvchi", 1994-yil.
94. J. G'. Yo'ldoshev. "Xorijda ta'lim" — T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. — T.: 2005-yil.
95. A.A. Konstantinov, E.N. Medinskiy, M.F. Shabayeva "Pedagogika tarixi" — O'qituvchi, 1976-yil.

Hoshimov Komiljon,
Nishonova Sanobar

PEDAGOGIKA TARIXI

II qism

Darslik

Muharrirlar: *M.Sa'diy, A. Muxtorov*

Badiiy muharrir: *X.Xudoyberdiyev*

Texnik muharrir: *T.Smirnova*

Musahhih: *H. Nishonov*

Sahifalovchi: *B. Irisboyev*

Bosishga ruxsat etildi 27.12.2005 y.
Bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog'i 19,0.
Adadi 1500 nusxa. Buyurtma №193. Shartnoma №75/3
Bahosi shartnoma asosida.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston
Milliy kutubxonasi nashriyoti

Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi bosmaxonasi.
Toshkent, X.Sulaymonova ko'chasi, 33.